

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

R.E.XOLIQOVA

O‘ZBEKISTON TARIXI

o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT 2019

Xoligova R.E. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: 2019.

Ushbu “O'zbekiston tarihi” fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanmada mamlakatimiz tarixining eng qadimgi davri, ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi, o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, xalqimizning dunyo sivilizasiyasiga qo'shgan hissasi, mo'g'ullar istilosi, Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi, Orta Osiyo hududlarining xonliklarga bolinib ketishi, uning sabab va oqibatlari, Rossiya imperiyasining istilosi va hukmronligi davri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti, uning holati, qaramlikning fojiali oqibatlari, O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, rivojlanishi, yangilanishi va modernizasiya jarayonlari tahlil qilinadi.

O'quv qo'llanmadan O'zbekiston tarixini o'rganish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tish jarayonida foydalanish mumkin. O'quv qo'llanma professor –o'qituvchilar va bakalavriat ta'limi yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Учебное пособие анализирует процессы в самом древнем периоде истории нашей страны, появление первых государственных объединений, становление и развитие узбекской государственности, вклад нашего народа в мировую цивилизацию, вторжение монголов, узбекская государственность период Амира Темура и тимуридов, разделение территорий Средней Азии на ханства, его причины и последствия, период оккупации и правления Российской империи, общественно-политическая, экономическая и культурная жизнь, трагические последствия зависимости, завоевание Узбекистаном государственной независимости, создание правовое демократическое государство и основы гражданского общества, развитие, обновление и процессы модернизации.

Данное учебное пособие предназначено специалистам, преподавателям, соискателям и студентам при изучении истории Узбекистана, преподавании, подготовки лекций и семинаров, написания диссертаций, учебников и самостоятельных работ.

This handbook analyzes processes in the earliest history of our country, emerging of the first state associations, the formation and development of Uzbek statehood, the contribution of our people to the world civilization, the Mongol invasion, the Uzbek statehood in the Timur's and Timurid period is divided into khanates of Central Asia, its causes and effects, the period of the Russian Empire's occupation and dominance, its socio-political, economic and spiritual life, its status, the disastrous consequences of dependence, the acquisition of state independence in Uzbekistan, the processes of foundation, developing, modernizing and modernizing the foundations of democratic state and civil society.

This handbook is for specialists, teachers, researchers and students to learn the history of Uzbekistan, to teach, to outline for lectures and seminars, to write dissertations, books and independent works.

Mas'ul muharrir: R.H.Murtazaeva

Taqrizchilar: D.B. Bobojonova - O'zDJTU professori, t.f.d.
M.N. Inatov – ToshDTU dotsenti, t.f.n.

Toshkent davlat texnika universiteti, 2019

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatdagi keng qamrovli demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a'zolarini xususan, yosh avlodni mustaqillikka ishonch va vatanparvarlik ruhida, erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoniy echimini topa boshladi. Shu jihatdan O'zbekiston tarixi fanini kadrlar tayyorlashning barcha yo'nalishlari bo'yicha o'qitilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqilligi yaratib bergan imkoniyatlar tufayli tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmada Vatanimizning boy tarixi va madaniyati milliy g'oya bilan sug'orilgan holda, yangicha, haqqoniy va xolislik bilan yoritilgan bo'lib, ona tuprog'imizda tug'ilib, voyaga etgan har bir inson shu yurtning sodiq fuqarosiga aylanishi uchun boy tariximizdan saboq olishi va mustaqil fikrlaydigan, o'z echimini kutayotgan masalalarni mas'uliyat bilan hal qila oladigan, izlanuvchan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli inson bo'lib etishishga intilishi lozim. Zero, o'lkamiz hududidan jahoh sivilizasiysida o'z nomlari bilan abadiy iz qoldirgan olimu fuzalolar, buyuk davlat arboblari, mohir sarkardalar etishib shiqqanki ular bilan fahrlanamiz. «O'zbekiston tarixi» fani o'zbek xalqining o'tmishdagi hayoti, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, turmush tarzi, iqtisodiyoti, ijtimoiy munosabatlari, davlatchiligi, madaniyati hamda hozirgi taraqqiyot darajasiga qanday erishganligini o'rgatadi. Bu fan tarixiy shart-sharoit, voqea, hodisa, faktlar, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, taraqqiyot yoki tanazzulning mohiyati, sabablari va oqibatlarini tahlil qilish orqali ulardan tegishli xulosalar chiqarish asosida O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ta'minlab beradigan jihatlarni tanlab olish, ularni davom ettirish hamda ijodiy rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Tarix fani yoshlarning o'zligini anglashi, o'tmish ajdodlar ruhi va xotirasiga hurmat, ularga sadoqatni kamol toptirishda, siyosiy ong madaniyati hamda iftixorni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz tarixini holis va ilmiy jihatdan tadqiq etish, uni tahlil etishda birlamchi manbalarga tayanish, halqimizning boy tarixiy o'tmishini keng halq ommasiga tanishtirish masalasi Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bir qator nutq va asarlarida ham aksini topmoqda. "O'zbekiston tarixi" fani yurtimizning bugungi ahvoli va istiqbolini chuqur tahlil etib, bu yo'nalishda tarixchi olimlar oldiga qo'yilgan vazifalardan eng muhimi – yangi jamiyatimizni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, hozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muhimi, ular ongiga milliy istiqlol, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g'oyalarini yanada chuqurroq singdirish va teran anglatishdan iboratdir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarori bilan Vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o'z xalqi bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish asosida milliy o'zlikni anglash hissini

mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish maqsadida “O‘zbekiston tarixi” telekanali ish boshlagani ham bejiz emas.

Ayni paytda tayyorlangan o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston tarihining qadimgi davrlaridan boshlab, hozirgi kungacha bo‘lgan katta davrini o‘z ichiga qamrab oladi. Undagi mavzularni yoritishda mustaqillik yillarida respublika tarixchi olimlari tomonidan yaratilgan, dolzarb mavzularga bag‘ishlangan o‘quv adabiyotlari, darslik, o‘quv qo‘llanma va manbalardan foydalanildi. Mavzular Oliy va orta mahsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan, nomutahassis faku’ltetlar bakalavriyat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan “O‘zbekiston tarixi” na’munaviy dasturi asosida yoritilgan bo‘lib, har bir mavzu so‘nggida fodalangan adabiyotlar tayanch tushunchalar, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, glossariy va test savollari keltirilgan. .

O‘quv qo‘llanma professor-o‘qituvchilar va nomutaxassis oliy o‘quv yurtlari bakalavriyat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undagi ma’lumotlar yoshlarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, ular qalbida Ona-Vatanimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish, O‘zbekiston deb atalmish qadimiy yurt nomini e’zozlash, shunday yurtning farzandi ekanligidan faxrlanish hissini uyg‘otishga xizmat qiladi

I BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, UNI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Asosiy tushuncha va atamalar:

Predmet, ob'yekt, nazariy-metodologik, tamoyil, holislik, manba, ilmiylik, tarixiylik, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi, milliy qadriyat, urf-odat, diniy e'tiqod, tarixiy-madaniy taraqqiyot, davrlashtirish, O'zbek davlatchiligi, moddiy manba, yozma manba, komil inson, o'zlikni anglash, ma'rifat, ma'naviyat.

I.1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy metodologik asoslari va uni o‘rganishning manbalari

O'zbekiston tarixi fanini yoritishda nazariy-metodologik asoslarni, tamoyillarini bilish katta ahamiyatga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uni rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun o'ta muhimdir. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro'yobga chiqishi uchun ma'sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi, ya'ni tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi.

Istiqlol yillarida tarixchi olimlar Vatan tarixini butunlay yangidan o'rgandi va o'zlashtirdi, uni darsliklar asosida qayta yozishga muvaffaq bo'ldilar. Bir qator monografik asarlar yozildi va eng dolzarb mavzularda o'nlab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi hamda dissertatsiyalar himoya qilindi.

Yangi davr Vatan tarixini qayta yozish va uni asosiy tarbiya quroliga aylantirish uchun «yangi tarix» g'oyasini olg'a surildi. O'zbekiston tarixi etakchi fan sifatida maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ilk bor, keng miqyosda, eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgacha o'rganila boshlandi.

O'zbekiston tarix fanining predmeti, ya'ni o'rganilishining asosiy muammosi bu O'zbekiston hududlarida yashagan va yashayotgan xalqlarning o'tmish hayotining turli jabhalarini mukammal o'rganishdan iboratdir. O'zbekiston tarix fani o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, o'tmishda shu hududda yashagan boshqa xalqlarning qoldirgan moddiy va ma'naviy merosini ham o'rganadi. Bu tarixiy o'tmish Fazo, Vaqt va Makon doirasida o'rganiladi va butun insoniyatning qoldirgan merosining bir ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi va ta'lim beriladi.

Tarix fanining talqin va tahlilida metodologiya muhim o'rin egallaydi. Metodologiyani lug'aviy ma'nosi grekcha «metodos» va «logos» degan ikki so'z

birikmasidan iborat bo'lib, metod ya'ni usul – tadqiqot olib borish usuli (yo'li), nazariya, ta'limot, logiya esa fan deganidir. Demakki, metodologiya, ya'ni uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari majmuidan iborat bir butun fandır. Boshqa ma'noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandır. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri etaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

O'zbekiston tarixi fanining uslubiy (metodologik) ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslariga quyidagilar kiradi:

tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;

tarixiy taraqqiyot asosini evolyutsion – tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;

tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi;

tarix fani biror bir shaxs, tabaqa, sinf, partiyalar, guruhlar manfaatiga qarab tarixiy haqiqatni buzib, soxtalashtirib bermasligi lozim.

O'zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-usul va tamoyillari quyidagilardan iborat:

ilmiy xolislik (obyektivlik);

tarixiy tahliliylik;

mantiqiy uzviylik;

vorislik va izchillik;

xronologik izchillik;

qiyoslash va kuzatish;

kuzatish va umumiyashtirish;

bahslashish, munozara yuritish va isbotlash;

matematik hisoblash;

shakllash va modellashtirish;

ayrimlikdan umumiylikka (induktsiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduktsiya);

etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika va boshqa fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish;

Ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog'i dinlar) tarixi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotni dindand, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo'lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo'ladi.

Tarixiy-tanqidiylik ilmiy usul tamoyili tarixida qadimdan muarrixlar tomonidan qo'llanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog'liq to'g'ri hamda noto'g'riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to'g'ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

I.2. O'zbekiston tarixini davrlashtirish va uning o'rganishning manbalari¹

O'rta Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, insoniyat qadimgi tarixi va madaniyati o'chog'laridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaning turli viloyatlarida bir umumiy, bir-biriga o'xshash, ko'p hollarda bir-birini takrorlaydigan madaniyatga oid yodgorliklar topib o'rganilgan. Chunonchi, O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bir-biriga yaqin bo'lib, turli migratsion jarayonlarga qaramasdan bu hududda yashagan qadimgi qabilalar va elatlarni umumiy va etnik ildizlar birlashtirib turgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri qadimgi davrlardan boshlab bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, qadimgi davrlar haqida so'zlaganimizda "O'rta Osiyo tarixi" va "O'zbekiston tarixi" atamalarini yonma-yon ishlatishimizning boisi ham ana shundadir.

Ma'lumki, nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, tarixiy-madaniy voqealarga nihoyatda boy hisoblanadi. So'nggi yillarda O'rta Osiyoning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, etnografiya va numizmatikaga oid ko'plab kashfiyotlar qilindi hamda tariximizni xolisona yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar va ashyolar o'lka tarixining qadimgi bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini berib, ular eng qadimgi xo'jaliklar va mehnat qurollari, zamonaviy qiyofadagi odamning paydo bo'lishi, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o'tilishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ayriboshlash va savdo sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi kabi ko'plab tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog'lanadi. Tarixni davrlashtirishda ushbu jarayonlarga asosiy e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida olimlar orasida hamon baxslar davom etmoqda. Bu masala yuzasidan, xususan, eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar bo'lgan tariximizni davrlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, masalaga sivilizatson yondoshuv, davrlashtirishning metodologik asoslari kabilarga A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev va boshqa olimlar e'tibor qaratgan bo'lishlariga qaramay, davrlashtirish masalalari to'la echimini topmagan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalariga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Chunki, o'rganilayotgan tarixni avvalo, xronologik izchillikda davrlarga bo'lib, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib darslik nuqtai nazaridan ma'ruzalar belgilash hamda dars soatlarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Qanchalik sodda ko'rinmasin, ushbu jihat ham

¹ Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi: eng qadimgi davrdan XIX asr ortalarigacha., Yangi asr avlodi. 2014 y. 15 b.

murakkab masala hisoblanagan tarixni to'g'ri davrlashtirishni talab etadi. Masalaning eng muhim tomoni esa, yoshlarimizga ilmiy asoslangan davrlashtirish asosida tarix fanidan ta'lim berishdir.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, mustaqillik davriga kelib, haqqoniy tariximizni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri mafkurasiga asoslangan besh bosqichli formatsion davrlashtirish inkor etildi. Qadimgi tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tiborni qaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Xususan, A. Sagdullaevning fikricha, O'rta Osiyo tarixining eng qadimgi davri bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Evropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ayrim hududlarga tegishli tarixiy sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi.

A. Asqarovning fikricha, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq yer kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo, jamiyat rivojlanishi hamma erda birday kechmagan. Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa, qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqaning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, O'rta Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va ana shu mintaqada tarixi taqozo etgan holatdan kelib chiqib, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin. Tadqiqotchi qiyosiy tahlillar hamda tarixiy jarayonlarni ob'ektiv aks ettiruvchi omillarga asoslanib O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrdan bugungacha bo'lgan davrini etita katta xronologik davrga bo'ladi.¹ Ammo, olimning bu davrlashtirishi biroz ixchamlashtirishni talab etadi.

Bizga qadar olib borilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlillari hamda mavjud adabiyotlarni o'rganish asosida O'zbekiston tarixini davrlashtirish quyidagi ko'rinishda taklif etiladi:

1. O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri. Bu davrni o'z navbatida quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: a) O'rta Osiyoda ibtidoiy to'da davri – bu davr moddiy madaniyat taraqqiyotiga qarab xronologik jihatdan 1 mln. – 40 ming yil avval ya'ni, ilk va o'rta paleolit davrlarini o'z ichiga oladi; b) urug'chilik jamoasi davri –so'nggi paleolitdan boshlab urug'chilik, jamoalarining shakllanishi va mezolit, neolit, eneolit davrlarida ularning taraqqiy etishi (12-4 m.y.). Bu davr ijtimoiy boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan izohlanadi.

2. Ilk davlatchilikka o'tish va davlatchilikning rivojlanishi davri. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan bu davr quyidagi bosqichlarga bo'linadi: a) O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi hamda dastlabki davlatchilik tizimiga o'tish davri (mil. avv. III – II ming yillikning birinchi yarmi); b) ilk davlatlarning paydo bo'lishi hamda ma'muriy-hududiy boshqaruvining rivojlanish bosqichlari (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi-

¹ Батафсил маълумот олиш учун қаранг: Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.15-23.

antik davri). Bu davr dastavval bronza, keyinroq esa temirning xo‘jalik sohalariga jadallik bilan kirib kelishi natijasida mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, siyosiy birlashmalar, Qadimgi Baqtriya va Xorazm kabilarning paydo bo‘lishi, O‘rta Osiyoning Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar kabi polietnik davlatlar tarkibida rivojlanishi, xalqaro va o‘zaro madaniy-iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

3. O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davri. Bu davr o‘z navbatida quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: a) ilk o‘rta asrlar; b) rivojlangan o‘rta asrlar; v) so‘nggi o‘rta asrlar bosqichi. Xronologik jihatdan V asrdan XVIII -XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu davrning birinchi bosqichida O‘rta Osiyoda er egaligi munosabatlari o‘zgarib, mulkchilikning turli shakllari (xususiy mulk, jamoa mulki, vag‘nze) paydo bo‘ldi, etnomadaniy jarayonlar jadallanib, mahalliy hokimiyatchilik davlat tizimining asosiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda markazlashgan davlatchilik an‘analari kuchayib, O‘rta Osiyoda islom dini keng yoyiladi, ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlanib bu sohada uyg‘onish yuz berdi, etnik jihatdan xalqlarning shakllanishi nihoyasiga etdi, er egaligi va mulkchilikning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘ldi. Uchinchi bosqichda (XVII asrdan boshlab) hokimiyat uchun o‘zaro kurashlar avj olib O‘rta Osiyo hududlari xonliklarga bo‘linib ketdi.

4. O‘zbekistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi davri. Xronologik jihatdan XIX asrning o‘rtalaridan 1991 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu davr mustamlakachilik davri va sovet davri bosqichlariga bo‘linadi. Birinchi bosqichda chorizm bosqinchiligi tufayli O‘rta Osiyo Rossiyaning xom-ashyo bazasiga aylanib, bu hududlarga rus kapitali jadallik bilan kirib keldi, mahalliy ishlab chiqarish va hunarmandchilikka putur etdi, milliy-madaniy qadriyatlarga e‘tibor berilmadi, natijada milliy ozodlik harakatlari avj olib jadid namoyondalari rahnamoligida milliy ma‘rifparvarlik g‘oyalari yoyildi. Ikkinchi bosqichda, dastavval milliy mustaqillik uchun qurolli va g‘oyaviy kurashlar avj olgan bo‘lsa-da, ular beayov bostirilib, jamiyat taraqqiyoti kommunistik mafkuraga bo‘ysundirildi, mulkchilikda davlat monopoliyasi ustunlik qildi, “o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan xalqlar” va sovet respublikalari amalda “markaz” manfaatlariga bo‘ysundirildi.

5. O‘zbekistonning mustaqillik va milliy istiqlol davri. Respublika Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillik davrida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlarni, respublika aholisining serg‘ayrat va fidokorona mehnati tufayli qo‘lga kiritilgan katta yutuq va natijalarni, ularning mohiyati va ahamiyatini hisobga olib mustaqil taraqqiyot ikki bosqichga bo‘linishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Birinchi bosqich 1991-2000 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning mustahkam poydevori bunyod etilib, “o‘zbek modeli” asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo‘l tutildi, O‘zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqlol mafkurasi jamiyat hayotida keng kirib bordi.

2001-2007 yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich, Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘biri bilan aytganda, “fan demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni

izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi". 2007 yildan keyingi davr esa davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohalarini isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo'lib qoldi.

Ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni yakunlamaydi. Tarix fanini o'qitish borasida dolzarb bo'lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lishi tabiiydir. Ammo, bu yo'nalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir. O'zbekiston tarixini o'rganishda O'zbekistonning eng yangi tarixi ham oziga xos o'rin tutadi. O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda tarixiy manbalarning o'zni va ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham ular millat va xalqning ma'naviy-madaniy merosi, bebaho madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus arxiv (hujjatxona)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda.

Tarixiy manbalar davr nuqtai nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, ular o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga ham egadirlar. Birlamchi manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kiradi. Ikkilamchi manba deb esa, mana shu birlamchi manbalarning e'lon qilingan nusxalari, maqola va kitob holatiga keltirilganlariga aytiladi.

Manbalar o'z holatiga ko'ra, yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yozma manbalar eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir. Hozirgi kunga qadar o'lkamiz hududlari va bu yerdan chetda bitilgan o'rta asrlarga oid yozma manbalarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda qilinadigan ishlar nihoyatda ko'p.

Tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuv paydo bo'lmagan zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar turli-tuman bo'lib, ularga qadimgi manzilgohlar va shahar xarobalari, mozor-qo'rg'onlarning qoldiqlari, turmush va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ashyolar kiradi. Moddiy va yozma manba ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalarni o'rganishning o'zi tarix fanining maxsus sohasi bo'lib, tarix fani rivojlanishi va tarix yozilishida o'ta muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda manbashunoslik fani keng rivojlanmoqda. U yuqorida ko'rsatilgan metodologik ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy asos va ilmiy usullarga tayanadi.

Manbashunoslik fani asosan tarixiy manbalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, manbalarning qimmatini, haqiqiy va haqiqiy emasligini aniqlash bilan birga, ularni turkumlarga ajratadi. Masalan, moddiy va ma'naviy yodgorliklar hamda ashyoviy, etnografik, lingvistik va og'zaki (folklor) manbalar shular jumlasidandir. Bizga ma'lumki eng qadimgi manbalar qatoriga zardushtiylik dininig mugaddas kitobi Avesto, Erondagi Behystun qoytosh bitiklari, qadimgi Rim, Yunoniston, Xitoy **tarixchilarining** yozib qoldirgan asarlari ham O'rta Osiy xalqlari tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid zarur ma'lumotlarni ham kiritish mumkin. Tarixni

o'rganishda Narshahiyninig "Buhoro tarihi", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Abul Qosim Firdavsiyning "Shohnoma", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Amir Temurning "Temur Tuzuklari" kabi tarixiy asarlari ham bevosita manbalar qatorida o'rganiladi.

Manbashunoslik manbalarni aniqlash va saralash, ularning ilmiy qimmatini belgilash, tahlil qilish, yaratilish tarixiy, shart-sharoitini o'rganish kabi sohalarga bo'linadi. Zamonaviy adabiyotlarda deb yozadi B.J.Eshov o'z darsligida O'zbekiston tarixini o'rganishning manbalarini shartli ravishda oltita guruhga boladi; 1. Yozma manbalar 2. Moddiy yoki arheologik manbalar, 3.Etnografik ma'lumotlar, 4. Lingvistik ma'lumotlar, 5. Kinofoto hujjatlar, 6.Arxiv materiallari.

Dars jarayonida arxiv materiallaridan foydalanish nihoyatda muxim rol o'ynaydi. "O'z tarixini bilmaydigan, Kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" tamoyili asosida xalqimiz tarixini xolis va tizimli o'rganish, o'zbek xalqining o'tmishi va bugungi kunini baholashda bir yoqlama yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik uchun hamda tarixni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.Xulosa shuki, manbalar tarixiy jarayon va voqeliklarning o'zida real aks ettirgan bo'lib, tarixiylikning in'ikosi bo'lmog'i kerak. Mana shunda ularning tarixiy ahamiyati, tarixiy ekanligi yuqori bo'lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi.

I.3. Har tomonlama etuk insonni tarbiyalashda Vatan tarixining o'rni va ahamiyati

Har tomonlama etuk insonni tarbiyalashda Vatan tarixining o'rni va ahamiyati katta. Bir mutafakkir ta'kidlagan ekanki tarix fani insonlarni tarbiyalaydi, zero yomon mutaxassis bo'lish mumkin, biroq yomon inson bo'lish mutlaqo mumkin emas. Yomon yoki nodon mutaxassis keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida bilmaganlarini bilib oladi, ammo yomon insonni, uning xulqini qayta tarbiyalash mushkil ishdur.

O'zbekiston tarixi fani etuk insonni tarbiyalashda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, yoshlarga va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish.

Ikkinchidan, yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkomollikni tarbiyalash.

Uchinchidan, yoshlarda otashin vatanparvarlik va harbiy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatlilikni tarbiyalash.

To'rtinchidan, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak ahloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlik)ni tarbiyalash.

Beshinchidan, yoshlarning Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarini chuqur his etish va ularga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash.

O'zbekiston tarixi fani yuqoridagilar va xilma-xil imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga behad katta hissa qo'shadi. Vatan tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan

e'tirof etib kelinmoqda. Bunga tariximizning o'zi guvoh. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barcha teran his etishi va anglab etmog'i lozimdir. O'zbekiston Birinchi Prezidenti **I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida** o'zbek xalqining haqqoniy tarixi yaratilmaganligi, sovetlar davrida yozilgan tarix mustamlakachilar tomonidan yaratilgan tarix ekanligi, «mustamlakachi» o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida hech qachon xolis fikrda bo'lmasligi, bu xalqning o'tmishini kamsitishga intilganligi haqida gapirib o'tiladi.

«Inson uchun tarixidan judo bo'lish- hayotdan judo bo'lish demakdir».

«Modomiki o'z tarixini bilgan undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni, ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tariximizni tiklashda, xalqimizni, millatimizni haqqoniy tarix bilan qurollantirishda "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini xar tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

O'tmishga berilgan baho, albatta xolisona, eng muximi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur" deb ta'kidlab, yurtimiz tarixini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar ko'ngildagidek olib borilmaganligi, bugungi kunda aynan shu arxeologik izlanishlarga etibor berib, Fanlar Akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarurligiga etibor qaratdilar. **«Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak»** deb uqdirib o'tdilar.

Bu fikrlar bekorga aytilmagan o'z o'lkasida mustaqil fikrlaydigan olimlar bo'lmasa, o'z tarixini manbalar asosida xolisona haqqoniy tarzda yarata olmasa bu ishni ular uchun boshqalar qiladi, o'z g'oyalarini targ'ib qiladi. Bu ham mayli, ular bundan tashqari o'sib kelayotgan yosh avlodga ham ta'sirlarini o'tkazishga harakat qiladi. Shuning uchun ham hamma davrlarda olimu-fuzalolarga, mutaxassislariga murojaat qilinadi. «Sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch qudrat baxsh etsin, g'ururini uyg'otsin». «Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas»

Texnologik usullar: aqliy hujum – olib borish qoidalari

- O'zaro hech qanday baholash va tanqid bo'lmasligi.
- Jo'n va nihoyatda oddiy fikrlashga baho berishdan tiyilish.
- Barcha fikr-mulohaza qimmatli va bir o'rinda bo'lganligi bois fikrlovchiga nisbatan bosim o'tkazmaslik va uni faqat tanqidiy tarzda qabul qilmaslik.
- O'z vikrini bildirmoqchi bo'lganlarga imkon berish.
- Fikrlar xilma xilligi asosiy maqsad

- Fikr – mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish.
- Qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish lozim.
- O‘zini vazmin va hotirjam tutish, o‘zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabat bildirish.
- Barchani o‘zaro hurmat, boshqalar fikriga qanoatli bo‘lishga chaqirish.

Nazorat savollari

1. Tarix fanini o‘rganishda qanday metod va usullardan foydalaniladi?
2. Tarix fani qaysi fanlar bilan aloqador?
3. Manbalar nechta turga bo‘linadi?
4. Tarixiy manbalarni o‘rganishning ahamiyati qanday?
5. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» nomli asari yozilgan sanani aniqlang?
6. Manbalar nechta turga bo‘linadi?
7. Tarixiy manbalarni o‘rganishning ahamiyati qanday?
8. Vatan tarixining komil insonni tarbiyalashdagi roli va ahamiyatini ko‘rsating.
9. O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimovning qaysi asarlarida Vatanimiz tarixini o‘rganish alohida qayd etilgan?
10. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» nomli asari yozilgan sanani aniqlang?
11. O‘zbekiston tarixining jaxon xalqlari tarixi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko‘rsating.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T., Sharq, 1998.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.
5. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.15-23.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006..
7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд. – Тошкент, 2013.
8. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
9. O‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
10. O‘zbekiston tarixi. S. Xolboyev va b. – T.: Universitet, 2005.

11. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.
12. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -Т.: Akademnashr, 2019.

II BOB. MARKAZIY OSIYO JAHON SIVILIZATSIYASINING AJRALMAS QISMI

Asosiy taynch so'z va atamalar

Sivilizatsiya, manzilgoh, odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamiyat, paleolit, urug'chilik jamoasi, onaurug'i, mezolit, xo'jalik ixtirolari, neolit, ilk dehqonchilik, mehnat taqsimoti, neolit «inqilobi», hunarmandchilik, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, kulolchilik, qayiqsozlik, to'qimachilik, zargarlik, eneolit, sun'iysug'orish, bronza, shaharsozlik, o'troq dehqonchilik, ixtisoslashgan hunarmandchilik, ko'chmanchi chorvachilik, o'taurug'i, «Avesto», zardo'shtiylik, Navro'z.

II.1. Fanda insoniyatning paydo bo'lishi masalasi. O'zbekiston odamzod paydo bo'lgan hududlardan biri

O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizasiyasining o'choqlaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. O'zbekiston va O'rta Osiyo hududlarida olib borilgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlari natijalari ham Vatanimizning Jahon sivilizasiyasida tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning turli davrlarda, ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizasiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar bilan izohlanadi.

«Sivilizasiya» so'zining ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, u lotincha so'z bolib, «grajdanlar», «jamiyatning erkin, ozod a'zolaridan tashkil topgan tuzum, davlatchilik» degan ma'noni anglatadi.

So'nggi yillarda O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda olib borilgan ko'plab tarixiy-arheologik tadqiqotlar bu mintaqa qadimgi Sharq sivilizasiyasining shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutganligini asoslab beruvchi ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. O'rta Osiyo tarixiga nazar tashlar ekanmiz qadimgi odamning izlari Tojikistonda, Janubiy Qozogistonda, O'zbekistonda topib o'rganilib, ular ashel davriga tegishli ekanligi aniqlandi. Dunyo olimlari odamlarning dastlabki vatanini aniqlash borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borganlar. Masalan:

Ingliz olimlari ota-bola Likilar o'tgan asrning 50-60-yillarida Sharqiy Afrikada (Olduvoy darasida) qazishma ishlari olib borib oddiy tosh qurollar va qazilma odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3-3,5mln. yil ilgari mavjud bo'lgan degan g'oyani ilgari surdilar. Bu turdagi odamlar fanda «Zinjanthrop» («Ishbilarmon odamlar» yoki «Gomohabilis») va «Avstralopitek» («Janub maymuni») deb nom olgan.

Zinjanthroplardan keyingi davrda yashagan qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo'lib, fanda ularni

“Pitekantrop” (“Maymun- odam”) deb atash rasm bo‘lgan. Pitekantropalar bundan taxminan 1 mln.-700-600 ming yil ilgari (E.Dyubua) yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927-yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D.Blek) qadimgi odam qoldiqlari (“Sinantrop” - “Xitoy odami”) bundan 600-500 ming yil ilgari davrga oidligi aniqlangan. Undan tashqari eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda zinjantrop, pitekantrop, sinantropalar eng qadimgi odamlar shakllanib rivojlanishining turli tarixiy bosqichlaridir. Bu turdagi qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurganlar va toshdan turli mehnat qurollarini yasab, ulardan foydalana bilganlar. Qurol yasay bilishi, o‘simlik ildizlari va mevalarni iste‘mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek, ayrim hayvonlarni ovlashi qadimgi odamlarni hayvonot olamidani ajratib turgan.

Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash joizki, “Arxantrop”lar (qadimgi odamlar) eng qadimgi odamlardan farqlanib, ular zamonamizdan 100-50 ming yil keyin yashaganlar. Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastavval Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fanda ularni “Neandertal odami” deb nomlash qabul qilingan.

Eng qadimgi odamlar o‘zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko‘paytirib va sifatini yaxshilab borganlar. Natijada ularning turmush tarzida, jismoniy ko‘rinishida o‘zgarishlar bo‘lib borgan. Shuningdek, miya hajmi ham o‘zgarib borgan. O‘rta tosh asridagi turli sabablarga ko‘ra, birinchi navbatda tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana bordilar. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga etdi. Odamning paydo bo‘lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo‘lib, u dastlab toshdan oddiy to‘qmoq yasagan bo‘lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga etib keldi.

Antropogenez jarayonida mehnatning o‘zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarining tashqi ko‘rinishidan ham aniqlanadi. Ko‘p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar - odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon mehnat ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzotning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Evropa deydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam dastavval Osiyoning janubida paydo bo‘lgan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Yaqin yillarga qadar O‘zbekiston hududlari eng qadimgi odamlar tomonidan 100 ming yillar ilgari o‘zlashtirilgan deb hisoblanib kelinar edi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Evropa paleoliti bilan bog‘lab kelar edilar. Ammo so‘nggi yillarda O‘zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

O‘tgan asrning 80-yillarida arxeolog O‘.Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur (So‘x tumani) g‘oridan paleolit davri makonini

ochishga muvaffaq bo'ldilar. Selungur gori tadqiqotchilar tomonidan 20 yil mobaynida tadqiq qilindi. So'nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selungur va yana Ko'lbuloq makonidan (Shimoli-sharqiy O'zbekiston, Toshkent vil.), Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron), Tyanshan etaklaridagi Onarcha (Qirg'iziston), Pomir etaklaridagi Qorator (Janubiy Tojikiston) ilk paleolit davriga oid bo'lib, Selengurning o'zi o'n uchta madaniy qatlamlardan iborat. Bu qatlamlardan juda ko'plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko'p hollarda Olduvoy qurollariga o'xshab ketadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Selungur topilmalarining yoshi 1 mln. yildan ziyodroqdir. Selungur topilmalari orasidan eng ahamiyatli qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari va elka suyaklaridir. Fanda "Farg'ona odami" - "Fergantrop" deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning insoniyat paydo bo'lib rivojlangan o'choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

O'rta Osiyo hududida qadimgi jamiyat rivojlanishining alohida bosqichlari quyidagicha davrlashtiriladi:

Paleolit (qadimgitoshdavri – yunoncha «paleos» - «qadimgi», «litos»-«tosh»). Eng qadimgi odamlar yasagan mehnat va ov qurollari, asosan toshdan bo'lganligi uchun insoniyat tarixining dastlabki bosqichi - qadimgi tosh davri deb ataladi. Mintaqamizda odamzodning paydo bo'lishi bundan 1 mln.-700 ming yil ilgari sodir bo'lganligi taxmin qilinadi. Paleolit davri o'z navbatida uch bosqichga: ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolit bosqichlariga bo'linadi.



-Ilk paleolit. O'rta Osiyodagi ilk paleolit davri moddiy madaniyat yodgorliklari miloddan 1 mln.-100 ming yil avvalgi davrlarga oid bo'lib, ashel davri deb ataladi.

-O'rta paleolit. (Muste davri) Bu davr miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar bilan o'lchanadi.

-So'nggi paleolit. Bu davr miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

-Mezolit (o'rta tosh davri – yunoncha «mezos» - «o'rta», «litos» - «tosh») miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar bilan o'lchanadi.

-Neolit (yangi tosh davri – yunoncha «neos» - «yangi», «litos»-«tosh»)- miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarga oid.

-Eneolit (mis-tosh davri) miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar bilan chegaralanadi.

-Bronza davri – miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar bilan belgilanadi.

-Temir davri - miloddan avvalgi 1ming yillikning boshlaridan boshlanadi.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarida sodda va qo'pol tosh qurollar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilarining qurollari o'zining soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatdan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar.

Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar hamda tabiat oldida juda ojiz bo'lib, unda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashaganlar. Ular na diniy tushunchani, na hunarmandchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O'rta paleolit (Muste madaniyati) - qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrga oid dastlabki yodgorlik Teshiktosh (Surxondaryo) g'or makoni 1938-yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Keyinchalik O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlandi va ularda tadqiqot ishlari olib borildi. Omonqo'ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo'tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqo'rg'on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg'iziston), Og'zikichik (Tojikiston), Xo'jakent (Toshkent viloyati), Qopchig'ay (Qirg'iziston) kabi ko'plab makonlar o'rta paleolit davriga oid bo'lib, ularning jami 300 ga yaqinlashib qoladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyo hududlarida o'rta paleolit nisbiy tarzda mil. avv. 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Surxon vohasidagi (Boysuntog') Teshiktosh g'or-makoni topilmalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. O'rta paleolit davriga mansub bu g'or-makon shimoli sharqqa qaragan bo'lib, kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m. Tadqiqotlar natijasida g'or-makondan beshta madaniy qatlam aniqlanib, bu qatlamlardan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Undan tashqari turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg'ich-tarashlag'ichlar alohida o'rin egallab, ularning ba'zilar kesgich qurol vazifasida ishlatilgan bo'lishi ham mumkin.

Eng muhimi shundaki, Teshiktosh g'or-makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib, jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab qo'yilgan. Shuningdek, g'or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o'rnini va atroflaridan tog' echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan Teshiktosh odami O'rta Osiyodagi neandertal qiyofadagi qadimgi odamlarning yagona vakili bo'lib, bu hududlardan hozirgacha boshqa topilmagan. Bu davr yodgorliklaridan yana biri Teshiktoshdan uzoq bo'lmagan joyda joylashgan Amir Temur goridir. Unda uchta madaniy qatlam aniqlangan; ikkitasi tosh asriga ta'luqli bittasi esa must'e davriga ta'luqli.

Bu madaniy yodgorlikda ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan hilma hil mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parakchalar, o'tkir uchli sihcchalar, qirgichlar va kurakchalar, uchrindidan tayorlangan kesgichlar topilgan bolib, ularning umimiy soni 30 mingdan oshdi.

O'rta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O'rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar. Bu davrda, ayniqsa uning so'nggi bosqichida qadimgi odamlarning turmush tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo'ladi. Qurollarning turlari ko'payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog'liq bo'lgan nayzasimon o'tkir paykonlar, turli pichoqlar, qirg'ichlar, kesgichlar shular jumlasidandir. Bu davrning ijtimoiy hayotdagi eng muhim xususiyati shundaki, bu

davrda ibtidoiy to‘dadan urug‘chilik jamoasiga o‘tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o‘xshash odamlar (kromanyon) paydo bo‘lishi uchun zamin hozirlandi.

Undan tashqari sovuq iqlim tufayli o‘rta paleolit davri odamlari olovni kashf etdilar hamda sun‘iy olov chiqarish va uni saqlashni o‘zlashtirdilar. G‘or va ungurlarni o‘zlashtirish, o‘choq yasab uning atrofida to‘planish va nihoyat jamoa bo‘lib ov qilish uslublarining paydo bo‘lishi mintaqamizdagi qadimgi odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

So‘nggi paleolit uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi bo‘lib, nisbiy tarzda mil. avv. 40-12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davr yodgorliklari muste madaniyati yodgorliklari madaniyatiga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Samarqand (shaharning o‘zida), Xo‘jag‘or (Farg‘ona vodiysi), Shug‘nov (Pomir etaklari), Ko‘lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog‘iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

So‘nggi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush tarzida ham turli o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Xususan, odamlar g‘orlardan chiqib engil turar joylar, chayla va yarim erto‘lalarda yashay boshladilar. Ular endi faqat tog‘li hududlarda yashab qolmay vohalar bo‘ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko‘llar bo‘ylarida joylashadilar hamda qarindosh-urug‘chilik jamoalariga bo‘linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo‘ladi hamda ular ayrim urug‘larni birlashtirib urug‘ jamoasini tashkil etadilar.

Urug‘chilik (matriarxat) qadimgi jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu jarayon ijtimoiy hayotdagi qator o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Lekin dastlabki urug‘chilik tuzumi nisbatan rivojlanishning yuqori bosqichiga ko‘tarilgan bo‘lishiga qaramay, bu davr odamlari ovchilik, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirar edilar.

Paleolit davriga xulosa yasab, shuni aytish mumkinki, bu davrda odamning paydo bo‘lishi jarayoni (antropogenez) asosan tugadi. Qadimgi odamlar xo‘jalik yuritishning eng oddiy yo‘llaridan (terib-termachlab) murakkabroq ko‘rinishlariga (ovchilik, baliqchilik)ga o‘tdilar. Olov kashf etildi. Insoniyat to‘da davridan urug‘chilik tuzumiga o‘tdi. Mehnat qurollari takomillashib, ularning turlari ko‘paydi va sifati yaxshilanib bordi.

Bu davrda qadimgi odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo‘ldi. Teshiktoshda murdani maxsus qabr qazib ko‘milishi, uning yoniga tog‘ echkisining shoxlari va tosh qurollar qo‘yilishi mutlaqo tasodifiy hol emas edi. Bu jarayon paleolit davri neandertal odamlari garchi sodda bo‘lsada, ko‘mish marosimlariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi.

Tosh asrining keyingi rivojlanish davri fanda mezolit (o‘rta tosh) asri deb qabul qilingan. O‘rta Osiyoda mezolit davri nisbiy tarzda mil. avv. 12-7 ming yilliklar deb qabul qilingan. Mezolit-odamlarning yer yuzi bo‘ylab keng tarqalish davri bo‘lib, ular shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog‘li hududlarga ham tarqala boshlaydilar. Kaspiy bo‘ylaridan Tyanshan – Pomirgacha, Markaziy Qozog‘istondan Kopettog‘ etaklarigacha bo‘lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining namunalari topib o‘rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg‘ona vodiysi), Markaziy Farg‘ona, Bo‘zsuv, Qo‘shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq

(Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston), Darayi sho‘r (Vaxsh vohasi) kabilar shular jumlasidandir.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o‘zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o‘lkalarda, shuningdek, O‘rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar-mikrolitlar paydo bo‘lib, ular uchun suyak va yog‘och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o‘z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - o‘q-yoyni kashf etdi. Natijada chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.



Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yovvoyi hayvonlar it, qo‘y, echki kabilarning qo‘lga o‘rgatila boshlanib, xonakilashtirilishidir. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O‘rta Osiyoning ba‘zi joylarida termachilikdan yovvoyi o‘simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o‘tish boshlanadi. Bu jarayon ilg‘or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy – geografik iqlim bilan bevosita bog‘liq edi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g‘or makonidir. Daryo sathidan 70 metrcha balandlikda joylashgan bu makon ko‘p qatlamli bo‘lib, ushbu qatlamlardan ko‘plab suyak va asosan tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, so‘zana kabilardan iborat bo‘lsa, tosh qurollar – pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushlatgich toshlar, nayza va o‘q uchlari kabilardir. Bu qurollarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lsa ham Janubiy Qozog‘iston va Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o‘xshab ketadi.

O‘rta Osiyo tarixida neolit davrining (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil.avv.VI–quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O‘rta Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yohasida, ko‘l bo‘ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

O‘rta Osiyoning barcha hududlaridan-shimoldagi Ustyurtdan, Markaziy va Janubiy Qozog‘istondan, Qizilqum va Qoraqumdan, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysidan ko‘plab neolit davri makonlari ochilgan. Xususan, neolit davri Markaziy Farg‘ona madaniyati fanda O‘rta Osiyoda to‘rtinchi neolit davri madaniyati deb kiritilgan.

Tadqiqotlar natijalariga qaraganda tosh va bronza davrlari o‘rtasida mis-tosh (eneolit) davri bo‘lganligi aniqlangan. Bu davr Metall qurollarning barchasi bronzadan qilinmay, sof misdan yasalganligi ma‘lum. O‘rta Osiyoda eneolit davri nisbiy tarzda mil. av. IV ming yillikning oxiri-III ming yillikning boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda mis o‘zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik,

egiluvchanlik) tufayli xo‘jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy o‘rinda bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis – tosh asri deb yuritiladi.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab, ovqat topishdan yovvoyi o‘simliklarni ekish va o‘tkazish yo‘li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo‘jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot etishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog‘liqdir:

Xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi; Toshidan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarning paydo bo‘lishi; Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta-katta uylari; Kulolchilikda muhim texnika yutug‘i - xumdonlarning ishlatilishi; O‘troqchilik xo‘jaligining rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g‘ishtning paydo bo‘lishi; Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug‘i tuzumiga (matriarxatga) xos haykalchalari; Rangdor sopol buyumlar, ya‘ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko‘tariladi. Lekin bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi.

Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o‘tgach, madaniy, xo‘jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo‘jalik turlari – dehqonchilik va chorvachilik avvalgidek, Turkmanistonning janubi – g‘arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o‘simliklar o‘stirishga o‘tmagan edilar. O‘rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog‘li hududlar aholisi xo‘jaligida esa ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida O‘rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanib qoladi.

Dasht va tog‘ hududlaridan topilgan xilma-xil moddiy manbalarni o‘rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo‘shimcha xo‘jaliklar - ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo‘lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlanadi deyish mumkin. Lekin neolit davri an‘analari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko‘llar atrofida yashagan. Tabiiy boyliklar eneolit davri odamlari uchun hayot manbai hisoblangan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi Anov va Nomozgohtepa hududlarida aniqlangan. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan so‘nggi Kaltaminor topilmalariga o‘xshash sopol idishlar bo‘laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar va munchoqlar topilgan.

Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g‘arbda joylashgan Sarazm qishlog‘i xarobasi eneolit davri dehqonchilik qabilalarining O‘rta Osiyoni shimoli-

sharqiga yoyilganidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining dehqonchilik chegaralarini ham ko'rsatadi.

Umumiy maydoni 90 gektar bo'lgan Sarazm qishlog'i xarobalari 10ta tepalikda joylashib, 4 ta davrga bo'linadi. Ular topilmalarga qarab bir-biridan farq qiladi. Dastlabki ikki davr eneolit, keyingi ikki davr esa bronza davriga oiddir. Sarazmdan uy-joy va ro'zg'or-xo'jalik inshootlari qoldiqlari ochib o'rganilgan. Bu yerlardan sopol idishlar, metallardan va toshdan ishlangan qurollar, (jumladan, tosh ketmonlar) zeb-ziynat buyumlari ko'plab topilgan.

Sarazm moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston, Janubiy Afg'oniston, Eron, Hindiston madaniyatlariga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalari o'rtasidagi keng madaniy va iqtisodiy aloqalardan dalolat beradi.

II.2. O'zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzumining tarixiy davrlari va ularning asosiy xususiyatlari. O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar tushirish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniyadagi Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib, bu san'at yangi asosda rivojlanish bosqichiga o'tadi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning namunalari topilgan. O'tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va O'rta Osiyoning tog'lik tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xildir. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa-urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar) keng tarqalgan.

O'lkamizdagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlar kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to'qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbida mil avv. III- II ming yillikning boshlarida rivojlangan jamiyat keng ravnaq topadi. O'rta Osiyoda **bronza davri** mil. avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronza asri uchta katta xronologik davrga: ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davrlariga bo'linadi. O'rta Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida mavjud bo'lgan bronza davri yodgorliklari madaniyati janubiy hududlardagi o'troq madaniyatdan ajralib turadi.

O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari **Tozabog'yob madaniyati, Amirobod madaniyati, Zamonbobo madaniyati** nomi bilan ataladi.

O'zbekistonning janubidagi bronza davri yodgorliklari qadimgi sug'orish hududlari - Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Ular **Sopoli madaniyati** nomi bilan mashhurdir.

Sopollitepa markazidan to'rtburchakli istehkom, istehkom ichida turar-joylar va xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan. Sopollida qurilish, hunarmandchilik va iqtisodiy munosabatlar ancha rivoj topgan. O'choqlar turar joy xonalari ichidagi devor ichiga o'rnatilgan. Asosiy qurilish ashyosi paxsa va xom g'ishtdir.

Sopollitepadagi turar-joylar tagidan bronza davri qabristoni ochilgan. Ko'pchilik qabrlar yakka qabrlar bo'lib, jamoa qabrlari ham uchraydi. Ayollar qabrlarida asosan sopol va bezaklar topilgan bo'lsa, erkaklar qabrlaridan asosan sopol, mehnat va jangovar qurollar topilgan. Sopol topilmalar deyarli naqshlanmagan bo'lib, kulolchilik charxida tayyorlangan.

Mil. avv. II ming yillikning boshi va o'rtalariga oid Sopollitepa aholisining xo'jaligi dehqonchilik va uy chorvachiligiga asoslangan. Shuningdek, daryo toshlaridan va qumtoshdan ishlangan yorg'uchoqlar va hovonchalar ham ko'plab uchraydi. Bu topilmalarning barchasi Sopollitepada dehqonchilik ancha rivojlanganidan dalolat beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Sopollitepa hozircha O'zbekistondagi dastlabki eng qadimgi dehqonchilik qishlog'idir.

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi daryodan kechuv yo'lini himoya qiluvchi mustahkam oldingi istehkom (forpost) sifatida paydo bo'lgan. Keyinchalik o'troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qota boshlaydi va bo'shab qoladi. Asosiy markaz vazifasi esa tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi mustahkam qal'a sifatida paydo bo'lgan **Jarqo'tonga** o'tadi.

Mil.avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib Jarqo'ton o'sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog' oldi vohalari va janubiy Tojikistonning g'arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko'chishlari bo'lib o'tadi. Bu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davlatlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo'lib o'tganligini ko'rsatadi. Bu jarayonning rivojlanishi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi o'troq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o'sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekiston hududida chorvador qabilalarga mansub bronza davri qabristoni Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan topilgan.

Quyi Qashqadaryodagi **Gujayli** qabristonidan chorvachilik va dehqonchilik qabilalariga tegishli bo'lgan ashyolar, Farg'ona vodiysi Yangiariq hududidan dehqonchilik buyumlari va dehqonchilik bilan bog'liq qoyatosh suratlar, Chustdan hunarmandchilik va dehqonchilikka oid buyumlar ko'plab topilgan.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli O'rta Osiyo dasht va tog' oldi

hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy jarayon - kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bu davr manzilgohlarini o'rganib, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan deyish mumkin. Birinchisi - qadimgi qabilalar dehqonchilik uchun qulay erlarga joylashib yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo'lsalar, ikkinchisi - xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan holda dasht va tog' oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyatini yaratganlar.

Bronza davri O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarishlar sodir bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bu davrda ham davom etdi. Ammo, bu davrda ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Natijada jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar etakchilik qiladilar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'liga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Insoniyat xayotida muxim orin tutgan yozuv xaqida to'xtalsak.

Yozuvning paydo bolishi inson tafakkurining noyob mojizasi bo'lib, ular dastavval tosh qoyalarda, sopol xamda metal parchalarida, xayvon terilarida va nixoyat, qog'ozlarda ifodalanishi bilan bizga etib kelgan.

Yozuv insoniyat tafakkuri taraqqiyotining eng oliy maxsullaridan hisoblanadi. Eng dastlabki yozuv usuli fanda piktografik belgilar deb ataladi. Uni shumerliklar miloddan avvalgi 4 ming yillikda ixtiro qilgan. Shumer piktografik yozuvi dastavval surat tariqasida vujudga kelgan. Insonlar tabiatda mavjud bo'lgan va uchraydigan narsalarning surati yordamida o'z fikrlarini ifodalshgan. Bunda xayvonot va o'simlik dunyosi, tabiat jismlari, sayyoramiz yo'ldoshlari tasvirlaridan eng ko'p foydalanishgan.

Piktografik belgili yozuvlar Qadimgi Sharqning ko'plab hududlarida, jumladan, Qadimgi Xindiston, Eron, Xitoy va O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida topilgan. Yozuv O'zbekiston hududida Sopolli madaniyati davrida kashf etilgan. Bu piktografik belgili yozuv bo'lib, Jarqo'ton (Surxondaryo viloyati) sopollarida shunday belgilarning 47 ta xili o'zbek arxeolog-olimlari tomonidan aniqlangan. Bu belgi yozivlarning tarqalish xududi ancha keng. U O'rta Osiyoning janubi, Shimoliy Afg'oniston, Markaziy va Shimoliy Eronning bronza davri yodgorliklarida uchraydi va bir-biriga o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Insoniyat tarixida xarflarga asoslangan yozuvga miloddan avvalgi 2 ming yillik so'nggida finikiyaliklar asos solgan. Shu yozuv asosida oromiy, grek alfavitlari paydo bo'lgan. O'rta Osiyoda arab yozuviga qadar yunon, oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan va ashyoviy manbalar asosida ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston xududida xarfli yozuv tarixidagi asosiy bosqich oromiy yozuvi hisoblanadi. Bu yozuvning paydo bo'lishi va tarqalishida Ahamoniylar imperiyasining o'rni bor. Oromiy xatida bitilgan Oybuyirqal'a (Xorazm) yozuvini qadimgi baqtriya, xorazm, so'gd yozuvlari bilan taqqoslash natijasida ajdodlarimiz

oromiy yozuvini to'gridan-to'gri qabul qilmasdan, o'z tillariga moslashtirganligi, ijodiy yondashganliklarini guvohi bo'lamiz.

Baqtriya yozuvining rivojlanishida oromiy yozuvning o'rnini muhim bo'lib, miloddan avvalgi II asrda oromiy-baqtriya yozuvi yuzaga kelgan. Shunday bo'lsada, Yunon-Baqtriya podsholigi yozuvida grek alifbosining ta'siri kuchliligi kuzatiladi.

O'zbekiston tarixida qadimgi til va yozuvning taraqqiyotida, qolaversa, butun bir Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Kushon podsholigi davri (miloddan avvalgi 1-milodiy 3 asrlar) alohida o'rin tutgan.

Kushon davlatining ilk shakllanish bosqichida (miloddan avvalgi 1-milodiy 1 asrlar) Baqtriy o'lkasida paydo bo'lgan xatlar sirasiga qadimgi xind yozuvlari xisoblangan braxma va kxaroshtxilar ham kiradi. Bu turdagi yozuvlar Oks(Amudaryo)dan shimoldagi hududlarda paydo bo'lishi Baqtriya, ya'ni Surxon vohasiga buddizmning kirib kelishi bilan bog'liq.

O'rta Osiyoda eng qadimgi budda ibodatxonalari ilk bora Tarmita (Termiz)da bunyod etilgan. Eng qadimgi buddaviylik ibodatxonasi Fayoztepa o'rnida bo'lgan.

Braxma va kxaroshtxi yozuvlarida bitilgan xatlarni va umuman, buddaviylik matnlarini baqtriyalik buddaviy koxinlar chuqur o'zlashtirishga erishganlar. Bu jarayon ayniqsa, Kushon podsholigi davrida yaqqol seziladi. Oqibatda Tarmita (Termiz) va umuman, Baqtriya-Toxariston o'lkasidan buddaviylikni Xitoy va Uzoq Sharq mamlakatlariga yoyilishida muhim o'rin tutgan taniqli targ'ibotchilar etishib chiqqan.

Milodiy 383- yildan boshlab Baqtriya yozma manbalarida Toxariston deb yuritila boshlagan. V asrda Toxaristonda va shuningdek, O'rta Osiyoning katta bir qismida o'z hukmronligini o'rnatgan eftalitlarning rasmiy yozuvi, Afrosiyob suratlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, baqtriya yozuvi hisoblangan.

V-VIII asrlar davomida ham baqtriya yozuvi Baqtriyaning o'rnida yuzaga kelgan Toxaristonda keng tarqalgan va o'lkaning rasmiy xati hisoblangan. Bu fuqarni milodiy 629- yilda Toxariston bo'ylab sayohat qilgan xitoylik buddaviy koxin Suyuan Szan yozib qoldirgan ma'lumotlar yana bir bor tasdiqlaydi.

O'rta Osiyo hududida rasmiy xujjatlar, asosan, teriga (qisman taxtachalarga) yozilgan va xujjatlar davlat arxivi sifatida maxsus saqlangan(Tuproqqal'a, Mug' xujjatlari). Rasmiy xujjatlarning dastlabki(qora) nusxalari sopol idish bo'laklarining sirtiga yozilib, keyin maxsus teriga ko'chirilgan. Bu an'ana miloddan avvalgi 3 asr o'rtalarida shakllangan Parfiya o'lkasida kuzatiladi. Ashxobod yaqinidagi Eski Niso (Tarixiy manbalarda Mitridakert) shahrini o'rganish davomida 2500 dan ortiq sirtiga bitilgan xo'jalik xujjatlari topilgan.

Ilk o'rta asrlarda xududlarda, hozirgi O'zbekiston turkiy yozuv tarqala boshlagan. Ayniqsa bu jarayon eftaliylarni 563-567 yillar oraligida turkiylar va sosoniylar Eroni qo'shinlari birgalikda tor-mor etganliklaridan so'ng yanada jadallashgan. Ilk o'rta asrlarga oid turkiy xat na'munalari Fargona vodiysida (Quva) Toshkent viloyatida (Binokant) qayd etilgan.

651- yilda Marv shahrini egallashdan boshlagan arab qoshinlari yurihi va VIII asrning ikkinchi yarmiga kelib arablar tomonidan Movaraunnahr xududining

egallanishi O'rta Osiyoda mavjud qadimgi yozuvlarning asta-sekin yo'qolib, arab tili va yozuvining asosiy muloqot tiliga aylanishiga olib kelgan¹.

II.3. Dastlabki sivilizatsiyaning ma'naviy asoslari. «Avesto» qadimiy tarixiy manba

Yodgorliklarni o'rganish va o'zlashtirish insoniyat jamiyat tafakkuri va ma'naviy madaniyati tarixini bilishda o'ziga xos o'rin tutadi.

“Avesto”-O'rta Osiyo va Eron xalqlarining eng qadimgi mushtarak yodgorliklari namunalaridandir.U Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi. Bu kitobni ana shu ta'limot asoschisi -Zardushtga nisbat beriladi. «Avesto»ning asosiy qismlari-gatlarni Zardusht o'zi yozgan deb e'tirof etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, ilk temir davri O'rta Osiyoda yashagan xalqlar va qabilalar orasida keng tarqalgan va asosiy din zardo'shtiylik edi. Bu diniy ta'limotning asoschisi Zardo'sht va bu dinning muqaddas kitobi “Avesto” haqidagi bahs va munozaralar tadqiqotchilar orasida hozirgacha davom etmoqda.

Zardo'sht (O'rta fors tilida “oltin tuyali”, “oltin tuya etaklagan odam”) tarixiy shaxs bo'lib, Spitama avlodidan kelib chiqqan. Zardo'shtning otasi Pourushasp koinlar avlodidan bo'lgan. Zardo'sht tug'ilgan joy xaqida aniq ma'lumotlar yo'q. Uning tug'ilgan yilini tadqiqotchilar tahminan miloddan avvalgi 630-553 yoki 618-541 yillar deb tahmin qilishadi.

Zardo'sht tug'ilgan joy hamda “Avesto” paydo bo'lgan hudud haqida ham olimlar orasida yagona fikr yo'q. Bir guruh olimlar Zardo'shtni hozirgi Ozarbayjon, yana bir guruh qadimgi Baqtriyada, boshqa guruh olimlar Xorazmda va Eronda tug'ilib faoliyat ko'rsatgan va “Avesto” ham shu hududlarda paydo bo'lgan deb hisoblaydilar.

Zardusht tarjimai holi to'grisida ma'lumot beruvchi qo'lyozma manbalar orasida Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari va Tabariyning “Tarixi Tabariy” asari alohida o'rin tutadi. Bu kitoblarda Zardushtning hayot yo'lini ko'rsatuvchi ayrim lavhalar mavjud.

“Avesto”kitobi miloddan oldingi 6 asrda yuzaga kelgan.Beruniyning xabar berishicha,”Avesto”ning qo'lyozmasi o'n ikki ming qoramol terisiga oltin xarflar bilan yozilgan ekan.Iskandar Zulqarnayin “Avestoni kuydirib tashlashdan oldin,uning tib,astronomiyaga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan.”Avesto”ning uch qo'lyozma nusxasi bo'lgan. Uning bir nusxasini Iskandar yo'q qilib tashlagan.Bir nusxasi esa Yunonistonga jonatilgan. Bir nusxasini esa zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi sodiq kishilar saqlab qolganlar. Keyinchalik sosoniylar hukmronligi davrida (milodning 3-7 asrlari) zardushtiylik rasmiy e'tiqod sifatida tanilgan.Uning mazmuni lozim qo'shimchalar bilan to'ldirilgan holda tiklangan.Bu mazmunni paxlaviy tilida yozib chiqishgan.Shunday qilib,”Avesto”ning xozirgi tahlili uchun asos bo'lgan nusxasi bunyod etilgan.

¹ З.У.Чориев. Ш.Б.Шайдуллаев.Т.Ж.Аннаев Узбекистон худудида ёзувнинг пайдо булиши ва тараккиёти.Тошкент.”Янги аср авлоди “.2007.69 –б.

“Avesto” tiklangandan so’ng unga sharxlar bitilgan. Ularni “Zand” deb ataganlar. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotda “Zand-Avesto” termini yuzaga keldi.

“Avesto”ning ko’p qismlari bizgacha etib kelmagan.¹

Zardo’shtning yangi ta’limoti o’z vatanida tarafdorlarini topmaganligi sababli u o’z yurtidan ketishga majbur bo’lgan. Zardo’sht diniy ta’limotini birinchi bo’lib qabul qilgan tarafdorlar qadimgi Baqtriya podshosi Kavi Vishtasp, malika Xutaosa va ularning yaqin qarindoshlaridir. Zardo’sht o’z g’oyalarida qonli qurbonlik qilishni qat’iyan qoralaydi. U yana shuni ta’kidlaydiki, odamzod yashashga haqli bo’lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo’q.



Zardo’sht o’z g’oyalarini targ’ib qila boshlagan davr O’rta Osiyo va Eron xalqlari tarixida eng muhim davr edi. Ibtidoiy jamoa munosabatlari o’zgarib, davlatchilik tizimi munosabatlari qaror topmoqda edi. Yangi din esa bu o’zgarishlarni o’zida aks ettirib, tug’ilayotgan sinfiy jamiyatga xizmat qilar edi. U birlashishga va kuchli markazlashgan hokimiyat tuzishga, o’sha davrda o’troq dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi

vodiy aholisini ko’chmanchi xalqlarga qarshi keskin kurashga chaqirdi.

Zardo’shtiylarning diniy falsafasi qarama – qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash yorug’lik, yaxshilik kuchlari xudosi Axuramazda, qora va zulmat kuchlari xudosi Axriman o’rtasida boshlanib jamiyat va insonlar orasida davom etgan.

Zardo’sht ta’limotiga ko’ra jamiyat yaxshilik va yomonlikdan iborat. Shuningdek, bu ta’limotga ko’ra insonlar hayotining asosiy mazmuni doimo xayrli ishlar qilish, bir-biriga mehr-oqibatli, xushmuomala bo’lish va olijanob fazilatlardan iborat. Zardo’shtiylarda to’rt unsur - olov, yer, suv va havo muqaddas hisoblangan va ular doimo ardoqlanib kelingan.

Zardo’shtiylar o’limni dunyoda, jamiyat taraqqiyotida eng yovuz narsa deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ular muqaddas yerga o’likni ko’mmaganlar hamda o’ziga xos ko’mish marosimlariga amal qilganlar. O’likni (odam, hayvon) yerga ko’mish qattiq jazolangan. Zardo’shtiylar o’likni maxsus joylarda saqlab, hayvonlar va qushlar ular suyaklarini tozalaganidan so’ng tozalangan suyaklarni tosh, loy yoki ohakdan yasalgan maxsus “ostadon” (“ossuariy”)larga dafn etganlar.

Zardo’sht dini vaqt o’tishi bilan asta-sekin, eron tiliga mansub xalqlar o’rtasida tarqalar ekan o’z asosini saqlagan holda biroq o’zgaradi. Ahuramazda va Ahrimandan tashqari “Avesto” bir qator boshqa xudolar - Mitra, Xouma, Anahita, Ashi va Zurvon kabi ulug’ xudolar faoliyati haqida ham hikoya qiladi.

Zardo’shtiylik Sosoniylar davrida (mil. III-VII asrlar) uzil-kesil rasmiylashgan. Bu davrda zardo’shtiylik adabiyoti ham keng tarqaldi. Dastlabki paytlarda zardo’shtiylik dinining muqaddas matnlari avlodlarga og’zaki etkazilgan va Zardo’sht o’limidan so’ng bir necha asr o’tgach ma’lumotlar to’planib yagona matn

¹ Қаюмов А, Исхоков М, Отахўжаев А, Содиков К. Қадимги ёзма ёдгорликлар. -Тошкент, Ёзувчи, 2000, 9-б

yozilgan. “Avesto” shu tariqa yuzaga kelgan. Bir qator olimlar zardo‘shiylik aqidalariga tayanib “Avesto”ni ilk sosoniylar (III-IV asrlar) davriga bog‘lasalarda, shunga qaramay uning birinchi tahriri mil. avv. I asrda bo‘lib o‘tgan deb hisoblanadi. “Avesto” (“Asos”, “Asosiy matn”) jumlası ham o‘sha paytda paydo bo‘ladi.

“Avesto”zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib ,1000 fasldan iborat,21 kitobni o‘z ichiga olgan, ilk yozmasi 8300000 so‘zdan iborat bo‘lgan.Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, ilk temir davri O‘rta Osiyo hududlarida madaniy hayot, milliy urf-odatlar, an‘analarning rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday an‘analardan biri Navro‘z bayramidir.

Navro‘z qadim avlodlarimizdan bizgacha etib kelgan muqaddas urf-odatlardan bo‘lib, uni bayram qilish O‘rta Sharq va O‘rta Osiyoda qadimdayoq rasm bo‘lgan. Asrlar o‘tishi bilan Navro‘z bilan bog‘liq an‘analar xalqlar va elatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi zaminida keng yoyila borib, ko‘p o‘lkalarning an‘anaviy milliy bayramiga aylandi.

Narshaxiyning ma‘lumot berishicha, “Navro‘z - Yangi yil bayramini o‘tkazish” an‘analari boshlanganiga uch ming yildan o‘tgan. Ingliz olimasi M.Boys fikricha, zardo‘shiyalarda “olov hamda ezgulik homiysi Asha Vahishta sharafiga bahoriy udum - Navro‘zni o‘tkazish an‘anasi paydo bo‘lgan”. Beruniyning yozishicha, “Navro‘z yangi yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma‘noni taqozo etadi. Eronliklar o‘tmish zamonlarda yillarni qabisali oylarga bo‘lishgan. Bu vaqt quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya‘ni, bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari etilguncha o‘simlik unib chiqqa boshlashidan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan.”

Xulosa qilib aytadigan bolsak, “Avesto” dunyodagi muqaddas kitoblar orasida eng nodir kitob bo‘lib,u o‘zbek xalqining betakror davlatchilik tarixi va madaniy-merosini yoritishida asl manba hisoblanadi.Dunyoning eng qadimgi dinlaridan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi”Avesto”ning jaxon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o‘rnini hisobga olgan holda, hamda UNESCO Bosh konferensiyasining 1999 yil noyabr oyida Parijda o‘tgan 30-sessiyasining “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqidagi qaroridan kelib cniqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil,29 martdagi “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.¹”Avesto”yubileyi o‘lkamizda keng nishonlandi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an‘analar birlashtiradi. 2017 yil 11 noyabrda Samarqand shahrida o‘tgan **«Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik»** mavziyidagi konferensiyaning g‘oyasi Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu katta xalqaro anjumanda Markaziy Osiyo

¹Х.Бобоев.С.Хасанов. Авесто-маънавиятимиз сарчашмаси. -Тошкент, Адолат, 2001,10-6

davlatlarining tashqi siyosat mahkamalari rahbarlari, MDX, Evropa,Osiyo hamda Amerika davlatlarining nufuzli rasmiy delegasiyalari, BMT, EI, EHXT, SHXT kabi 10 dan ortiq xalqaro tashkilotlar rahbariyati qatnashdi. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev ushbu anjumanda ma’ruza qilar ekan: **«Bizning bosh maqsadimiz-umumiy sayi-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat»**. Shuningdek, bu anjumanda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston tomonidan Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnoma imzolandi. Markaziy Osiyoni osoyishtalik, barqaror taraqqiyot hamda yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylantirish tashqi siyosatimizning ustivor yo‘nalishi sifatida «Harakatlar strategiyasi» da ham o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarida ham faol o‘shish suratlari qayd etilmoqda. Buni biz O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorlik munosabatlarida yangi marralar qo‘lga kiritilganida ham ko‘rmoqdamiz. Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirbozlash hajmi 2016- yil oxiriga kelib, 23 foiz o‘sgan bo‘lsa 2017- yilning birinchi yarmida bu ko‘rsatkich 112 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekiston Turkmaniston kompaniya va korxonalari qiymati 200 mln.dollardan ziyod qo‘shma tashqi savdo shartnoma hamda bitimlarni amalga oshirmoqda.O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yangi davri boshlangan. Dushanbe shahrida O‘zbekiston savdo uyi ochildi. Anjimanda Markaziy Osiyo davatlari terrorizm va ekstremizm xavfi tarqalishining oldini olish, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishini, noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi, odam savdosiga qarshi kurashish kerakligi xaqida ham to‘xtalib o‘tishdi va Markaziy Osiyo xavfsizligi global xavfsizlikning ajralmas qismi ekanligi alohida qayd etildi. Bu anjuman yaqin qo‘shnichilik,teng huquqiylik va o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.¹

Texnologik usullar: «Ha» yoki «Yo‘q» didaktik o‘yin texnologiyasi

№	Savollar	Ha	Yo‘q
1.	O‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari O‘rta Osiyoda ilk bor qaysi dinga e’tigod qilishgan?		
2.	O‘zbekiston ilk insonning paydo bo‘lgan hududlar tarkibiga kirganmi?		
3.	“Avesto”–yaratilgan yurt O‘zbekistonmi?		
4.	Zardushtiylik diniga hozir ham e’tigod qilishadimi?		
5.	O‘zbek xalqi turkiy xalq hisoblanadimi?		

¹ Мирзиёев Ш.М. “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги сўзлаган нутқи, Xalq sozi,2017 yil 11 noyabr,228-son.

Nazorat savollari

- 1.«Tarix» ni fan sifatida qanday ta'riflaysiz?
2. «Tarix» ning fan sifatida tarkibiy qismi nimalardan iborat?
3. Etnografiya, arxeologiya, antropologiya fanlari haqida sizga nimalar ma'lum?
4. O'zbekiston tarixi fanining predmeti nimadan iborat?
5. Tarixiy manba nima degani?
6. O'zbekiston tarixini davrlashtiring.
7. O'zbekiston tarixini o'rganishning asosiy manbalari nimadan iborat?
8. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan fikrni siz tasdiqlaysizmi?
9. Har tomonlama etuk insonlar va yoshlarni tarbiyalashda Vatanimiz tarixining o'rni va ahamiyati nimadan iborat ?
10. «Avesto» tarixiy manba sifatida nega qadrlanadi?
11. «Avesto»ning yubileyi qachon nishonlandi?
12. «Avesto»da qaysi qadimgi bayramlar to'grisida ma'lumot uchraydi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги” мавзусидаги халқаро конференциясидаги сўзлаган нутқи, Халқ сўзи, 2017 йил 11 ноябрь, 228-сон.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya»,2006.
3. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001.
4. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.– Тошкент, 2014.
5. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
6. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
7. O'zbekiston tarixi.S. Xolboyev va b. – T.: Universitet, 2005.
8. O'zbekiston tarixi. Darslik II jild. Mualliflar jamoasi. –T.:Yangi asr avlodi. 2015.
- 9.З.У.Чориев. Ш.Б.Шайдуллаев.Т.Ж.Аннаев Узбекистон худудида ёзувнинг пайдо булиши ва тараққиёти.Тошкент.”Янги аср авлоди “.2007.69 –б.
10. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси.-Тошкент; Шарқ, 2001.
11. Қаюмов А, Исхоков М, Отахўжаев А,Содиков К. Қадимги ёзма ёдгорликлар. -Тошкент, Ёзувчи,2000,9-б

III BOB. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINIIG SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Asosiy tushuncha va atamalar:

Shahar, siyosiy birlashma, uyushma, davlat, qabila, elat, boshqaruv, siyosiy hokimiyat, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, qo‘shimcha mahsulot, madaniy aloqa, ishlab chiqarish, o‘troq aholi, himoya inshootlari, qadimgi yo‘llar, diniy aloqalar, binokorlik, me‘morchilik, farmatsiya, sivilizatsiya, arxeologik majmualar, antik davlatlar.

III 1. Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo‘lishining asosiy omillari.

O‘zbek davlatchiligining shakllanishi O‘zbekiston tarixida alohida bir e‘tiborga molik mavzi hisoblanadi. Ayniqsa bu masalaga O‘zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “Tarihiy hotirasiz kelajak yo‘q” asarida alohida to‘htalib o‘tdi. «Nima emish, O‘zbekiston XX asrning 20-yillarida, aniqrogi ,1924 yili davlat maqomini olgan emish. Biz shu gapga ishonishimiz kerakmi-degan taajjub bilan,...butun xalq bilishni istaydi: o‘zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo‘ldi qanday tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi“, - degan haqqoniy savollarni o‘rtaga tashlagan edilar. Mamlakat rahbari ushbu savollarga ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan javoblar berish, O‘zbekistonning o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biri ekanligini takidladi¹.

Davlat tarihiy taraqqiyotning muayan bosqichida, muayan tarihiy shart-sharoit va sabablar tufayli unga ehtiyoj sezilganda vujudga kelib ,jamiyat bilan uzviy taraqqiy etadi va rivojlanadi. Davlat ilk paydo bo‘lgan davrda hukmron sinflarning mazlum aholini o‘z itoatida saqlab turuvchi siyosiy tashkiloti sifatida vujudga kelib, XX asrning ikkinchi yarmidan muayan xalq yoki millatni insonparvarlik, ijtimoiy adolat va demokratik tamoyillari asosida jahon sivilizatsiyasi tomon rivojlanishini taminlovchi siyosiy tashkilotga aylanib boradi.

Davlatchilik deganda bosh siyosiy hokimiyat va unga bo‘ysinuvchi boshqaruv tizimi tushiniladi. Boshqaruv tizimi jamiyatning barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarini o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvining paydo bo‘lishi insoniyat tarixi va taraqqiyotidagi yutuq va yangi sifat bosqichi bo‘ldi. Davlatning paydo bo‘lishi juda uzoq tarixiy jarayon bo‘lib , uni vujudga keltirgan tarixiy shart –sharoit va asosiy omillar quyidagilardir:

1. Yangi tosh (neolit-m.a. 6-5-ming yillik) davriga kelib O‘rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo‘lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Natijada urug‘ jamoasi o‘zining dastlabki ijtimoiy ishlab chiqarish va jamoa mulkchiligiga asoslangan qiyofasini yo‘qota boshladi.

¹ Xoliqova R. Islom Karimov asarlarida O‘zbekiston tarixining yoritilish masalalari. O‘quv –uslubiy qollanma, T., TDTU, 2014 y, 31 b.

2. Bronzaning kashf etilishi (m.a.3-ming yillikning ortalari) Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi, mehnat unumdorligining o'shishi, ortiqcha mahsulotning paydo bolishi, ayirboshlash imkoniyatining vujudga kelishi.

3. Inson hayotida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoi-iqtisodiy hayotga ijobiy ta'sir qildi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sohalarining ixtisoslashiga olib keldi. Bronza davriga kelib ijtimoiy mehnat taqsimoti yuzaga keldi, dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqdi, insonlar o'zlariga qulay sohani tanlay boshladilar.

4. O'rta Osiyo aholisi hojaligining asosini suniy sug'orishga asoslangan dehqonchilik tashkil etadi. Sug'orma dehqonchilik ilk davlatchilikning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyshmalari suniy sugorish qulay bo'lgan Amudaryo, Murg'ob vohasi, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakillandi. Sug'orma dehqonchilikning shakllanishi natijasida qo'shimcha mahsulot va hususiy mulk shakillandi. Shu tariqa ko'plab omillar davlatchilikni paydo bo'lisiga xizmat qildi.

Dunyo tarixida dastlabki davlatlar m.a.4-3 ming yillikda Misr, Messopotamiyada paydo bo'lgan, O'rta Osiyoda davlatlarning shakllanishini quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Miloddan avvalgi 2 minginchi yillarda O'rta Osiyo janubida ilk davlat uyshmalarining paydo bo'lishi.

2. Ikkinchi davr-m.a.1 ming yillikning boshlanishi-m.a 539 yil-Baqtriya, So'g'd, Xorazm tarixiy –madaniy viloyatlarning shakllanishi, ularda siyosiy hokimiyat tizimining tarmoqli boshqaruvga ega bo'lgan. Birinchi davr-m.a. II asrning ikkinchi yarmi-O'zbekiston janubida ilk davlatning ilk shakllarini ko'rish mumkin. Bu haqda "Avesto"da ham ma'lumotlar borligi, ya'ni iymon (uy-oila), vis (urug'), Zantu (qabila), Dahyu (viloyat, mamlakat), shuningdek, oliy hukmdorlar, masalan, mamlakat va viloyat egalari (dahyupatlar), hukmdorlar (sastrlar) qayd etilgan. Qadimgi Baqtriya, "Katta Horazm" podsholiklariga o'hshash yirik hududiy yoki saklarda bo'lgani kabi Zarina, Tomaris ayol podsho boshchiligidagi qabilalar konfederasiyasi ham shu davrga hos.

3. Miloddan avvalgi 539 yil-miloddan avvalgi 330 yil- Ahamoniylar bosqini va O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi tufayli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

Ikki yuz yil davomida O'rta Osiyo janubi Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirgan. Uning butun hududi satraplarga bolingan. Satraplar Ahamoniylar podsholari g'aznasiga kumush hisobidan tavon to'lab turishgan. O'rta Osiyidagi satraplikdan uchtasi –Baqtriy, Sog'd, Horazm to'liq yoki qisman hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan edi.

Saltanatning halokatga uchrashi Iskandar kelishi bilan yuz berdi. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 330 yilda Ahamoniylarning asosiy kuchlarini tor-mor etib, O'rta Osiyo hududida Ahamoniylar taxtiga ohirgi talabgor-Baqtriya satrapi Bessning izidan quvib keldi. Iskandar O'rta Osiyoni bosib olishga uch yil (miloddan avvalgi 330-327 yillar) sarflagan. O'rta Osiyo xalqlari, ayniqsa Spitamen boshchiligidagi so'g'dlar uning qo'shinlariga qarshilik ko'rsatgan.

4. Miloddan avvalgi IV asr oxiri miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi boshi- Iskandar bosib olgandan boshlab ellinlar siyosiy hukmronligi ohirigacha (Yunon-

Baktriya podshohligining qulashi). Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilikning tiklanishi jarayoni yuz bergan: miloddan avvalgi 329 yilda Maroqandda Iskandar ittifoqchilik munosabatlari o'rnatish uchun kelgan Horazm shohi Farasmani qabul qiladi.

Miloddan avvalgi III asr ohirida-miloddan avvalgi II asrda Buhoroda, Dovon(Fargonada)da,Sog'dda alohida mulklar shakllanadi. Ehtimolki ,aynan shu davrda keyinchalik tarkibiga deyarli butun O'rta Osiyodagi ikki daryo oraligi kirgan Qang davlati bunyod bo'lishiga olib kelgan.

Iskandar vafotidan keyin Diodorning shiddatli urushlaridan song O'rta Osiyo janubida Salavkiylar saltanati (miloddan avvalgi 310-250 yillar) tarkibiga kirgan.Biroq miloddan avvalgi 3 asrning o'rtalaridayoq Salavkiylarning Baqtriyadagi satrapi Diodot tomonidan tuzilgan davlat fanda Yunon-Bagtriya deb nom olgan markazi Balh) poytaxtga asos solib, butun Baqtriyani bosib oladilar. Ular alohida mustaqil mulklardan iborat bo'lgan o'ziga hos konfederativ davlat barpo etishgan.

Miloddan avvalgi 2 asrda O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'idagi hududda shunga o'hshash Qang davlati shakllanadi.Ushbu davlat, beshta mulkdan iborat bo'lgan. Bu ularning mustaqilligidan dalolat berardi.

5.Miloddan avvalgi 2 asrning ikkinchi yarmi-yangi eraning 1 asri boshi – mahalliy davlatlar: Qang, Xorazm podshohligi, Buhoro, So'g'd, Davan mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi,Yuechji davlatining qaror topishi va bu hokimiyatning Gandaharga qadar yoyilishi.Ushbu mulklarning deyarli har birida kumush yoki misdan yasalgan tanga zarb qilingan.Mahalliy so'g'd, Xorazm yozuvlarining paydo bo'lishi tanga zarb qilish bilan birgalikda rivojlangan davlatchilikning asosiy belgisi hisoblangan.

6.Yangi eraning 1 asri boshi- yangi eraning 3 asri birinchi yarmi –antik davrda mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi.O'zbekiston janubida Yuedji davlati asosida paydo bo'lgan qudratli Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan.Ikki daryo oralig'ida davlat tuzilmalarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi.Xorazmda Afrigiylar sulolasining davlat tepasiga kelishi.Miloddan avvalgi 2 asr oxiridan boshlab esa O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasida muntazam diplomatik va savdo munosabatlari amalga oshirildi. Sivilizatsiya tarixida birinchi marta G'arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirgan qitalararo Buyuk ipak yo'lining qaror topishi ushbu munosabatlarning buyuk yakuni bo'ldi. O'rganilayotgan davrda Shimoliy Bagtriya yuedji qabilasi hukmdori Kudjula Kadfiz tomonidan asos solingan Kushon imperiysi tarkibiga kirgan. So'g'd (O'zbekistonning Qashqadaryo va Samarqand hududlariga kirgan) mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatgan.Buxoro va Dovon davlati ham mustaqil faoliyat olib borgan, shuningdek Choch ham. Bu davlatlar Qang'uy davlati tarkibida ham bo'lgan bo'lishi mumkin. 3-4 asrlarda O'rta Osiyoda qudratli imperiyalar Kushon va Parfiya davlati ko'chmahchi qabilalarning bosib kelishi hamda iqtisodiyotining va madaniyatining inqirozga uchrashi natijasida kichkina kichkina mustaqil davlatchalarga bo'linib ketdi.

O'zbekistonda davlatchilik uch yarim ming yillik tarixga ega. Umuman hozirgi dunyoda 250 ga yaqin davlatlar bo'lib, ular tarix sahnasiga bir vaqtda chiqmaganlar. Ayrim xalqlar-xetlar,shumerlar,skiflar bir vaqtda tarix maydoniga o'zlarining rivojlangan davlatchiligi, yuksak madaniyati bilan chiqdilar. Ammo vaqt o'tishi bilan

tarix taqozosi ila ular bizgacha etib kelmadilar. Ular tillari, davlatlari va o'zlari jisman yoq bo'lib ketdilar yoki boshqa etnik birlashmalarga ajralib ketdilar.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, davlatchilik jamiyatning ichida o'z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'ladi, rivojlanadi. Y'ani davlat tuzilmasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti ham bundan mustasno emas.

III.2. Vatanimiz hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududlaridan topilgan piktografik belgi-yozuvlar bronza davriga oid bo'lsa-da, ular hozirgacha kam sonli bo'lib, qadimgi jamiyat haqida to'liq ma'lumotlar beraolmaydi. Milloddan avvalgi V-IV asrlarga oid ayrim kam sonli topilmalar ham (Xorazm, sak yozuvlari) to'liq emas. O'rta Osiyo hududlaridan milloddan avval III-II asrlarga oid ko'plab tanga pullar topilganki, ular qadimgi tarixni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari to o'rta asrlarga qadar etib kelgan ko'p sonli yozma manbalar ma'lumotlari ham muximdir.

O'rta Osiyo hududlaridagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma manbalar - zardo'shtiylarning muqaddas diniy kitobi "Avesto", ahamoniylar davri mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari hisoblanib, ularning barchasi yurtimizdan chetda bitilgan. Shuning uchun ham ularda ba'zi hollarda chalkashliklar va noaniqliklar, bir-birini inkor etish hollari uchrab turadiki, bu o'rinda mavjud yozma manbalarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish va tahlil etish nihoyatda muhimdir. Arxeologik ma'lumotlar yozma manbalar ma'lumotlarini kengaytiradi, ularga aniqlik kiritadi, tarixiy taraqqiyotning aniq yo'nalishlarini ko'rsatib, ma'lum davr haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Vatanimiz tarixini o'rganishidagi dastlabki yozma manba sifatida "Avesto" katta ahamiyat kasb etadi. "Avesto" qachon va qaerda paydo bo'lganligi tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo'lmoqda. "Avesto" kitobi va zardo'shtiylik dinining asoschisi Zaratushtra (Zardusht, yunoncha Zoroastr) paydo bo'lgan va faoliyat ko'rsatgan hudud haqida "Avesto"da keltirilgan geografik hududlarni o'rganib xulosa chihargan ko'pchilik hozirgi tadqiqotchilar O'rta Osiyo yoki hech bo'lmaganda bu hududga qo'shni bo'lgan shimoli-sharqiy Eron degan fikr bildiradilar. Umuman olganda, "Avesto"ning vatani Xorazm yoki Baqtriya – Boxtar deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

"Avesto"ni fransuz olimi Anketil dyu Perron birinchi bo'lib tadqiq etgan. 1755-1761 yillarda dyu Perron Hindistonning Gujarat viloyatida eron zardo'shtiylarining avlodlari-parslarning urf-odatlari va diniy marosimlari bilan tanishib chiqadi hamda 1771-yilda "Avesto"ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Dastlabki "Avesto" 21ta kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha "Avesto"ning Yasna - "qurbonlik keltirish", Visparat - "hamma hukmronlar", Yasht - "qadrlash", Videvdad - "devlarga qarshi qonun" qismlari saqlanib qolgan. Bu qismlar Sosoniylar davrida (III-VI asrlar) tahrir qilingan.

"Avesto"da ahmoniylargacha bo'lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, siyosiy tarix, diniy falsafa va turli ma'lumotlar saqlangan. Unda jumladan shunday deyiladi: "O, Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu erlarga baxtlik qancha kam bo'lsada, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan,

odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Datyo daryosidagi Aryonam Vayjo'ga (Eron tekisligi yoki ariylar o'lkasi) asos soldim.

Ikkinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava Sug'da (Sug'diyona) makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan qudratli Mouruga (Marg'iyona) asos soldim.

To'rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan, baland bayroqlari bo'lgan go'zal Bahdi (Baktriya) ga asos soldim".

"Avesto"da tilga olingan juda ko'plab mamlakatlar - O'rta Osiyo va O'rta Sharq, Afg'oniston, Eronning shimoliy-sharqiy hududlari bilan bog'liqdir. Yasht qismlari ariylarning yerlari haqida quyidagicha e'lon qiladi: "U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan ko'p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va emish bilan ta'minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko'llar to'ldinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Pourutadagi Iskata, Xaravaydagi Mouru, Sug'ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi".

"Avesto" ma'lumotlariga ko'ra, eroniy sulolalaridan bo'lgan Kayoniylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg'ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Zaratushtra yashab faoliyat ko'rsatgan davr haqida aniq fikr yo'q. Tadqiqotchilar bu davrni mil.avv. II ming yillik o'rtalaridan milodiy I ming yillik o'rtalarigacha belgilaydilar. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikrlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Zaratushtra mil.avv. I ming yillikning birinchi choragida yashab faoliyat ko'rsatgan bo'lishi mumkin.



Ko'pchilik tadqiqotchilar Kavi Vishtaspni Baqtriyada hukmronlik qilganini e'tirof etadilar. Payg'ambar Zaratushtra va shox Vishtasp fikrimizcha, bu birlashuvning tashabbuskorlari edilar.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. II ming yillikka kelib, O'rta Osiyoning janubida qadimgi Baqtriya va Marg'iyona hamda unga qo'shni bo'lgan hududlarda Baqtriya - Marg'iyona arxeologik majmuiga kiruvchi yuqori darajada rivojlangan madaniy yodgorliklar guruhi mavjud edi. To'g'aloq, Gonur, Dashli, Oltintepa, Sopolli, Jarqo'ton, Tillatepa kabilar shular jumlasidandir. Ushbu ma'lumotlar mil.avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlari qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilik ko'rinishlari paydo bo'la boshlaganidan dalolat beradi. Ktesiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv. II ming yillikning dastlabki asrlarida Baqtriya kuchli podsholik bo'lib, mintaqada hukmronlik mavqeini qo'lga kiritish maqsadida Midiya va Ossuriya o'rtasidagi urushlarda ishtirok etadi.

Davlatchilik paydo bo'lishining muxim belgilaridan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalarga bo'linishi hisoblanadi. Ko'pchilik manbalardan bizga ma'lumki, Avesto jamiyati quyidagi to'rtta tabaqaga bo'linadi: 1) kohinlar (atarvanlar); 2) harbiylar (ratayistralar); 3) dehqon-chorvadorlar (vastriya-fshuyant); 4) hunarmandlar (xutlar). Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya'ni zardushtiylikkacha bo'lgan

an'analarni o'zida aks ettiradi. Bu an'analar ayrim o'zgarishlar bilan ko'p asrlar, Avestodan keyingi davrlarda ham saqlanib qoladi.

Dastlabki ikkita tabaqa ancha imtiyozlarga ega bo'lib, jamiyatni boshqargan. Ayniqsa, kohinlar juda yuqori mavqeda turganlar. Zaratushtra o'z g'oyalarini targ'ib etish jarayonida podsho Vishtaspning eng yaqin odami va maslahtchisiga aylanadi. O'sha davrdagi jamiyatning har bir bo'lagi (yacheykasi) – uy, qishloq, voha va viloyat – o'lka ma'lum unvoni bo'lgan o'z diniy yo'l boshchisiga ega bo'lgan. Manbalarga ko'ra, davlatning bosh kohini «zaratushtrotem» unvoniga ega bo'lgan. Undan tashhari «zautara» (diniy qo'shiqlar ijrochisi), «aturpat» (olov bosh kohini), «xirpat» (ibodatxona va diniy tadbirlar boshlig'i) kabi diniy unvonlar ham mavjud bo'lgan.

Podsho va uning yaqinlari kelib chiqqan harbiylar tabaqasining ham mavqei baland bo'lgan. Jamiyatning asosiy ishlab chiharuvchilari va moddiy yaratuvchilari dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar edilar. Avestoda ular ham bir necha bor eslatib o'tiladi. Ular tabaqalarga kirmagan va aftidan, jamiyat hayotida unchalik katta ro'l o'ynamagan.

Jamiyatning boshqaruv tartibi haqida Avestoda ma'lumotlar saqlangan. Manbada keltirilishicha, oriylar o'lkasi quyidagi to'rtta ma'muriy hududiy birlikka bo'linadi: 1 - patriarxal oilaga tegishli bo'lgan turar-joylar (nmana); 2 - qishloqlar (vis); 3 - tumanlar (zantu); 4 - viloyat – o'lka (daxyu). Ushbu birliklarning har biri o'z yo'l boshchisiga ega bo'lgan: 1 - nmanopati (uy boshlig'i); 2 - vispati (qishloq boshlig'i); 3 - zantupati (tuman oqsoqoli); 4 - daxyupati (viloyat – o'lka yo'l boshchisi).

Eng yirik uyushma «daxyusasti» (viloyatlar ustidan hukmronlik yoki viloyatlar uyushmasi) edi. Bunday uyushmaning hukmdori «butun daxyular daxyupatisi» deb atalgan. Siyosiy tahlillar asosida ahmoniylar davridagi «sho'lar sho'i» unvoni ushbu Avesto unvoniga borib taqalashini taxmin qilish mumkin. Avestoda shuningdek, «kavi», «sastar» va «xatra» kabi boshharuv bilan bog'liq bo'lgan unvonlar ham uchraydi. «Kavi» (forschada «kay») unvoni Avestoda ko'p uchraydi. Bu unvon nafaqat katta o'lkalar podsholari, balki kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan.

Qal'alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlari «Sastar» unvoni bilan atalgan. «hokimiyat», «qudrat» ma'nolarini beruvchi «xshatra» unvoni tumandan tortib o'lkalar hukmdorlarigacha berilgan. Misol uchun, Bexistun yozuvlarida podsho Doro I ushbu unvon bilan tilga olinadi.

Mil avv. VI asrning o'rtalariga kelib Erondagi Ahmoniylar sulolasi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi ko'pgina mamlakatlar ustidan, jumladan, O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, "Saklar o'lkasi" ustidan o'z hokimiyatini o'rnatdilar. Ahmoniylar davrida bitilgan mixxat manbalarda O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari haqida turli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Bu yozuvlar mil avv. VI -IV asrlarga oid bo'lib, Eron hududlarida, xususan, Beqistun va Naqshi Rostam qoyalarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlaridan topib o'rganilgan. Bular orasida eng muhimi Beqistun yozuvlari bo'lib, u Doro I davrida yozilgan. Bu yozuvlarda Doro I bosib olgan o'lkalar sanab o'tiladi. Shuningdek, bosib olingan hududlarda forslarga qarshi qo'zg'olonlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Ahmoniyilar davri yozuvlarida o'lkamiz xalqlarining qadimgi tarixiga oid quyidagi ma'lumotlar saqlangan: viloyatlar va xalqlarning nomlari, ayrim siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat ma'lumotlari.

Yunon-rim tarixchilaridan birinchi bo'lib "tarixning otasi" Gerodot (mil.avv. V asr) O'rta Osiyo xalqlari haqida ma'lumotlar beradi. Gerodot o'zining mashhur "Tarix" kitobini mil. avv. 455-445 yillarda yozgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Gerodot O'rta Osiyo viloyatlarining birortasida ham bo'lmagan. Shuning uchun ham O'rta Osiyodagi xalqlar, viloyatlar joylashuvdagi nafaqat aniq, balki umumiy chegaralaridan ham bexabar bo'lgan. O'rta Osiyo viloyatlari haqida esa, o'zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Tadqiqotchilarning hisobiga qaraganda, Gerodot "Tarix" kitobida Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, Sug'dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo'shinlari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog' - aslahalari, yo'l boshchilari, fors-yunon urushlarida ularning jasorat ko'rsatganligi, xalqlarning ahmoniyilar davlatiga bo'ysunishi va soliq tartibi, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e'tiqodi va boshqa ayrim ma'lumotlardan iborat.

Yunon tarixchisi Ktesiy ahmoniyilar podshosi Artakserks (mil.avv. 404-359 yy.) saroyida tabiblik qilgan. Ktesiy qalamiga mansub "Persika" asarining katta bir qismi baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlangan.

Ktesiy Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishlari, Baqtriyaning poytaxti va ko'p sonli mustahkam istehkom va shaharlar haqida ma'lumotlar berib jumladan shunday yozadi: "Baqtriyadagi ko'pdan ko'p shaharlar orasida Baqtra (Boxtar – axtarli, quyoshli) nomli mashhur bir shahar bo'lgan. Bu shahar mamlakatning markazi bo'lib, ko'p shaharlar o'rtasida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podsho qal'asi joylashgan".

Yana bir yunon muallifi Ksenofont "Kiropediya" nomli asarida Ktesiy xabarlariga o'xshash, Baqtra shaharlarining ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya urushlari haqida ham yozadi.

Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida makedoniyalik Iskandarning Sharqqa qilgan yurishlari natijasida O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar haqida ko'plab yangi tarixiy-geografik ma'lumotlar paydo bo'ldi. Keyingi antik davr mualliflari (Arrian, Kurtsiy Ruf, Strabon va b.) asarlaridagi ma'lumotlar ilk antik davr mualliflarinikiga nisbatan kengroq berilgan. Makedoniyalik Iskandar yurishlari haqida yozgan tarixchilar asarlarida qadimgi O'zbekiston viloyatlari, shaharlar, qal'alar, manzilgohlar, himoya devorlari, xo'jalik va madaniy hayot haqida kengroq va batafsilroq ma'lumotlar olish mumkin.

Olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil etilar ekan, qadimgi davrdagi O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi tarixini tadqiq

etish bir necha sabablarga ko'ra katta ahamiyat kasb etishi kuzatiladi. Ushbu ahamiyatli holatni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, bu davrda aholining tabiiy hududlar bo'yicha xo'jalik jihatdan tabaqalanishi sodir bo'ladiki, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyo va Qozo'istonning asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan janubiy hamda asosan chorvachilik bilan shug'ullangan shimoliy hududlarini ajratish va o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Ikkinchidan, dehqonchilikka va ishlab chiharuvchi iqtisodga erta o'tish dehqonchilik jamoalari sonining ortishini hamda ilk shaharlarning rivojlanishini belgilab berdi va demografik jihatdan ta'sir ko'rsatib ortiqcha aholining turli arxeologik madaniyatlarga va xo'jalik yuritish tartibiga mansub bo'lgan tabaqalarning ko'chib ketishiga turtki berdi. Uchinchidan, O'rta Osiyo hududida murakkab etno-madaniy jarayonlarning sodir bo'lishi, hozirgi zamon o'lkamiz xalqlarining shakllanishida uzoq qadimga borib taqaluvchi mahalliy unsurlarning ustunligi qadimgi davrlar bilan bevosita bog'liqdir. To'rtinchidan, aynan mana shu aholi ilk shaharlar madaniyatini rivojlantirish jarayonida o'lkamiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning boshqaruvchilari bo'lib, ularning ilk dehqonchilik manzilgohlari va dastlabki shaharsozlik madaniyatining yaratuvchanligi xususiyatini ham alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Turli arxeologik madaniyatlar keng tarqalgan O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davrida kuzatiluvchi manzara muayyan tarixiy-madaniy jarayonlar o'ta murakkab kechganligini ko'rsatadi. Shimol chorvadorlari madaniyati - bu bronza davrining Andronov- madaniyati bo'lib, Qozog'iston hududlarini to'la hamrab olib g'arbda Volga orti cho'llarigacha, sharqda Minusinsk havzasigacha cho'ziladi. Chorvadorlar madaniyatining izlari o'sha davrning ko'pgina qo'rqonlaridan aniqlangan bo'lib, ulardan ko'p sonli bronza va sopol buyumlar, mehnat va jangovar qurollar hamda san'at asarlari topilgan. Ular qadimiyligi jihatdan Old Osiyodan keyinda turadi.

Qadimda O'rta Osiyoning shimoliy va janubiy viloyatlari aholisi bilan markaziy hududlar aholisining murakkab etnomadaniy aloqalari qizg'in rivojlanib bu aloqalar mahalliy aholi hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan boshqa o'xshash madaniyatlar taraqqiyotiga ham ta'sir o'tkazgan.

Ma'lumki, O'zbekiston qadimgi tarixining juda katta davri yozma manbalarsiz, arxeologiya va antropologiyaga oid manbalarga tayangan holda o'rganiladi. Qadimgi Sharq yozma manbalaridan (Hind, Ossuriya va Eron manbalari) ma'lumki, mil. avv. II ming yillikning o'rtalari va oxirlari (bronza davri) - O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixi - hind-eron qabilalari yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan. Hind-eron qabilalari dastlab juda keng hududlarda - Volga, Ural va Janubiy Sibir oralig'idagi yerlarda yashaganlar.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoda aholi joylashuvi etnik hududlarining ajrala boshlashi mil. avv. IX-VIII asrlarga oid bo'lishi mumkin. Mil. avv. VI asrda Erondagi ahmoniylar sulolasi podsholari yurtimizda yurish qilganda bu xalqlarning ajralib borish jarayoni butunlay tugagan va turli xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning ma'muriy chegaralari ahmoniylardan ancha oldingi davrda paydo bo'lgan.

Ming yillar davomida O'zbekiston hududlarida yashab o'tgan qabilalar va elatlarning tarixi hamda madaniyati izsiz yo'qolib ketmagan. Ushbu elatlarning ayrimlari ajdodlarimizning yirik guruhlarini tashkil etib, eng qadimgi yozma manbalarda tilga olingan. Ushbu manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. VII-VI asrlarda O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida sug'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiylar yashaganlar. O'rta Osiyo va Qozog'istoning tog'lari, dashtlari va cho'llarida yashagan saklar va massagetlar chorvador qabilalardir.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida yurtimiz hududlarida joylashgan turli xalqlar qadimgi sharq-eroniy tillar shevalarida gaplashganlar. Ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham sog'dlar, baqtriylar, xorazmiylar, sak-massagetlar qarindosh xalqlar bo'lib, bir-birlarini tushunganlar. Ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanib o'troq xo'jalik yuritgan aholining moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biriga ancha o'xshash bo'lgan.

III.3. Mamlakatimiz hududida antik davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi

Boshqaruv – jamiyatning ichki jabhasiga xos xususiyat hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat o'z rivojlanish jarayoni davomida eng oddiy boshqaruv shakllarini barpo etib uni rivojlantirib va takomillashtirib borganligi kuzatiladi. Dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar mil.avv. III ming yillikdayoq Misrda (nom davlatlarning birlashuvi), Mesopotamiyada (Akkadning kuchayuvi) paydo bo'ladi va Sharqdagi boshqa hududlarga ham (Hindiston, Xett davlati, Elam va b.) o'z ta'sirini o'tkazib sifatiy yangi xususiyatlar kasb eta beradi.

Ta'kidlash joizki, boshqaruv tizimi, umuman, davlatchilik abadiy mavjudlik emas. Davlat boshqaruvi deganda biz bosh siyosiy hokimiyat va unga bo'ysinuvchi boshqaruv tizimini tushunamiz. Boshqaruv tizimi jamiyatning barcha jabhalarini – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqalarni o'z ichiga oladi. Binobarin, boshqaruv tizimini har tomonlama va jiddiy o'rganmasdan turib jahon xalqlari tarixiy madaniy rivojlanishi, ularning o'zaro aloqalari va ta'siri, mahalliy va umumbashariy madaniyatlar integratsiyasining o'ziga xos tomonlari va qonuniyatlariga aniqliklar kiritish mumkin emas. Davlat boshqaruvining paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo'ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va takomillashuvida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, davlatning paydo bo'lishi uzoq davom etgan jarayondir. Bu jarayon turli xalqlarda turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, birinchidan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiharish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini irrigatsiya dehqonchiligi tashkil etgan; yer va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo'lgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati printsipal boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiharishning osiyocha usuli mil.avv. V ming yillikdan milodiy I asrgacha daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Evropacha yo'li» Evropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo'lgan.

Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanishuvi jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. Shunga qaramay, qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bo'liqdir.

Qadimgi Sharqning turli hududlaridagi tabiiy sharoit o'ziga xos bo'lib, ko'pgina davlatlarning paydo bo'lishi ushbu holat bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar – Nil, Dajla, Frot, Hind, Ganga, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi Sharq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi Sharq ijtimoiy tuzilmasining muhim o'ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi Sharq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko'plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida boshharuv tartibi bilan bo'liq ishlar amalga oshirilganda ko'pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta'minlar edi.

Ko'p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo'lgan davlatchilik tizimini murakkab sug'orish tartibi tashkil etilishi, erlarni sun'iy sug'orilishi, daryo vohalari va tog' oldi hududlarining o'zlashtirilishi hamda to'g'onlarning qurilishi bilan bog'laydilar. Yuqoridagi omillarning mavjud bo'lganligi aniq. Lekin, ularni tashkil etish nazorat va bosqharuvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob-kitobchilar va qukmndorlar zarurati tug'ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta'minlash uchun qurolli guruhlar tuzish, hamda ma'lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o'rab olish kerak bo'lgan. Shu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma-shahar va davlat paydo bo'la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma'lum hududlarni o'z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo'lgan. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o'zgarishi natijasida davlatlar o'rtasida urushlar kelib chiqadi. Chegaralar masalasida ta'kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko'p hollarda tog'lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o'tgan. Shuning uchun ham tarixiy yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida davlatlar chegaralari o'zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

Turli xalqlar va ularning ajdodlari o'z davlatchiligining shakllanish bo'ichini ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog'liq holda turli tarixiy davrlarda bosib o'tdilar. Bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan dastlabki yozma manbalar - "Avesto", ahmoniylar davri mixxat yozuvlari, qadimgi yunon-rim manbalari qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo'lib, O'rta Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning nomlarini, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yozma manbalar ma'lumotlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari

bilan solishtirganimizda ilk davlatlarning paydo bo'lishi masalalariga ko'pgina aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bronza davriga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi.

Qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiqning taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladiki, bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi. Ahmoniytlargacha bo'lgan davrda ba'zi bir vohalar, asosiy o'troq aholi joylashuvi o'lkalari edi. Ularning hududlarida manzilgo'lar, sug'orish inshootlari, o'zlashtirilgan er maydonlari bor edi. Bir qancha shunga o'xshash, daryolar vohalarida joylashgan va umumiy aholi joylashuv hududlari bilan bog'liq bo'lgan erlar Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm kabi tarixiy viloyatlarni tashkil etgan.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar "Avesto" ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari ("Katta Xorazm"), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ko'pgina yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va masalaga yangicha yondoshuv asosida ushbu ro'yxatga qadimgi Sug'diyonani ham kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda, davlatchilikning asosiy omillari bo'lgan jarayonlar so'nggi bronza va ilk temir davriga kelib yanada jadallashadi. Sug'diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog', daryo vohalari, keyinchalik esa dasht hududlariga tarqaladilar. Bu hududlarda mavjud bo'lgan qulay tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, chetdan bo'lgan tashqi ta'sirni (iqtisodiy, madaniy-siyosiy va harbiy) ham e'tirof etish lozim bo'ladi. Mil. avv. IX-VII asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar (ayniqsa ko'hna shahar xarobalari) Sug'diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko'plab ilmiy bahslar bo'lib o'tgan bo'lishiga qaramay, bu masala hanuz o'z echimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, "Katta Xorazm" (Avesto tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, xovar zamin «quyosh yeri» qadimgi yunon tilida Xorasmiya) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo'lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlamaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me'morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim yerto'lalardan iborat bo'lib

mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning rivojidan darak beruvchi yirik suqorish inshootlari, mustaqkam mudofaaga ega bo'lgan turar joylar (Ko'zaliqir, Dinqalja) mil. avv VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) Ahmoniylargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo'lib, Kir II bosib olganidan so'ng quyi Amudaryoga - Hozirgi Xorazm hududlariga ko'chib o'tgan deyilar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobeva) qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryodagi qo'shqal'adan boshlab, Orol dengizigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri - VI asrda Xorazm davlati mavjud bo'lganligi aniq. Bu davr Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol idishlar topilgan. Bu topilmalar qo'shni Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona topilmalariga o'xshab ketadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalaridan biri qadimgi Baqtriya davlatidir. Baqtriyaliklarning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli-sharqi, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashib, turli yozma manbalarda Boxtar, Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika deb tilga olingan.

Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (Sopolli, Jarqo'ton, Oltintepa va b.) keyingi davrlarda yanada jadallik bilan rivojlanadi. Natijada mil. av. IX-VIII asrlarda Baqtriya hududida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. Mil. av. VII asrga kelib qadimgi Baqtriya davlati Sharqdagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi. Ushbu jarayonni arxeologik va yozma manbalar ma'lumotlari ham to'la tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu davr Baqtriya tarkibiga Marg'iyona va Sug'diyona ham (tarixiy-madaniy birlik sifatida) kirgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, Baqtriyaning tabiiy boyliklari qadim davrlardayoq Sharq davlatlarida mashhur edi. Buyuk Ipak yo'lidan ancha ilgariyoq qadimgi yo'llarning Baqtriya orqali o'tganligi bejiz emas.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimgi Baqtriya hududlaridagi manzilgohlar va ko'hna shaharlar soni anchagina ko'paydi. Davlatning poytaxti Baqtra va Qiziltepa, Bandixon kabi ko'plab yodgorliklardan topilgan ko'p sonli turli-tuman topilmalar bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida hamda Yaqin Sharq va Old Osiyo bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar gurkirab rivojlanganligidan dalolat beradi.

Turli manbalardagi Sug'da, So'g'uda, Sug'diyona nomlari bilan mashhur bo'lgan qadimgi tarixiy-madaniy o'lka hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan. Ilk temir davri Sug'diyona hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Bu rivojlanish jarayoni mil.avv. IX-V asrlarga oid ko'p sonli manzilgo'lar va ko'hna shahar xarobalaridagi turli-tuman topilmalar va me'morchilik tuzilish bilan izo'lanadi.

Ilk davlatchilikning eng asosiy belgilaridan bo'lgan ko'hna shahar xarobalari Sug'diyonadan to'rtta (Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Uzunqir, Ko'ktepa) topib o'rganilgan bo'lib, ular hozircha O'zbekistondagi eng qadimgi rivojlangan shahar madaniyatini o'zida aks ettiradi.

So'nggi 10-15 yil ichida Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona va Marg'iyona hududlaridan olingan yangi arxeologik ma'lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma'lumotlarga qaraganda ilk temir davri Baqtriya, Marg'iyona, Xorazm va Sug'diyona umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Makonlar joylashuvining tashqi belgilari katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Bosqharuv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo'jayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o'rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo'lishgan, o'zining qishloq xo'jalik mahsulotlari zahiralari va chorvalari bo'lgan yoki o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jalikni aks ettirgan.

Mil. avv. VII-VI asrlarda ancha yirik bo'lgan qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona davlatlarining aholisi qon-qarindosh bo'lib, bir-biriga o'xshash tilda gaplashganlar va juda yaqin madaniy an'analarga ega edilar. Bu davrda jamiyatning hududiy bo'linishi ko'zga tashlanib, o'troqlashuv jarayoni kuchaydi. Muhim savdo yo'llari bo'yida tayanch istehkomlar qurildi. Turli qurilishlar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati birinchi o'ringa chiqdi.

O'zni kelganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqining ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma'noda nafaqat O'zbekistonning hozirgi hududi bilan, balki butun O'rta Osiyoda qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda talqin etilmog'i lozim. Tarixning qadimgi davrlarida ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari orasida aniq ma'muriy chegaralar yo'q edi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug'd chegaralari tabiiy bo'lib, yaqin hududlardagi joylarning geografik bo'luvchisi sifatida dashtlar, cho'l va tog'lardan foydalanilgan.

Hozirgi kunga qadar to'plangan arxeologik ma'lumotlar asosida O'zbekistonda ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni quyidagi davrlar bilan sanalanishi aniqlandi:

Bronza davri. Mil. avv. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi. Unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vo'alari asosida (misol uchun Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

Bronza asridan temir asriga o'tish davri. Mil. avv. IX-VIII asrlar. mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va harbiy siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.

Ilk temir davri. Mil. avv. VII-VI asrlar. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona misolidagi davlat uyushmalarining paydo bo'lishi.

O'zbek xalqi va uning ajdodlari ilk davlatchiligi taraqqiyoti o'tro' dehqonchilik xo'jaligi va qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ilk davlatlar tashkil bo'lishida, jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlaridan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi-hunarmandchilik, almashinuv va savdoning

kuchayib borishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to'qnashuvlar ham ta'sir qildi.

Mil. avv. 555-540-330-yillar O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlari ulkan Ahmoniylar davlati tarkibiga kirar edi. O'rta Osiyo viloyatlari va unga qo'shni bo'lgan hududlarning bosib olinishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi haqida ko'pchilik olimlar turli yillarda tadqiqot ishlari olib bordilar. Bu tadqiqotlarning aksariyati ahmoniylar Eron hududlari tarixi bilan bog'liqdir. Mavjud ilmiy tadqiqotlar ahmoniylar davri mixxat yozuvlari va ayrim yunon-rim tarixchilarining asarlari hamda arxeologik tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Mil. avv. IX-VII asrlarda harbiy Eronning ko'pgina hududlari Ossuriya va Urartu davlatlari tarkibiga kirar edi. Mil. avv. VII asrning ikkinchi choragiga kelib Eron hududidagi eroniy tilli qabilalar asosida markazi hamadonda bo'lgan Midiya podsholigi tashkil topadi. Bu davlatning Sharqdagi hududlari O'rta Osiyo chegaralarigacha cho'zilgan edi.

Mil. avv. VI asrning o'rtalarida Midiya podsholigi o'rnida Ahmoniylar davlati paydo bo'ladi. Ko'pchilik tarixiy adabiyotlarda Kir II ahmoniylar davlatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi fors podsholari qadimgi Sharqdagi juda ko'plab mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirganlar va shunday siyosat olib borganlar.

Mil. avv. VI asrning o'rtalarida Kir II o'zining sodiq lashkarboshlaridan biri bo'lgan Garpagga Kichik Osiyodagi shahar-davlatlarni bosib olishni buyuradi. O'zi esa O'rta Osiyo hududidagi viloyatlarni (Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marqiyona va boshq.) bosib olishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Gerodot Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi haqida so'zlar ekan, bu yurishlarning ko'pchiligi haqida to'xtalmasdan, faqat forslarni tashvishga solgan yurishlar haqida eslatib o'tadi. Tarixchining ma'lumot berishicha, Garpag Kichik Osiyo shaharlarini birin-ketin bosib olguncha Kir II butun Osiyo xalqlarini bo'ysundiradi va shundan keyingina Bobilga yurish boshlaydi.

Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil. avv. 545-539 yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil. avv. 522-486-yy.) Ahmoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududda o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'p sonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan ahmoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyo xalqlari ahmoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Xususan, massaget qabilalari malika To'maris (Tomaris) boshchiligida forslarning turli hiyla-nayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo'shinini tor-mor etadilar. Malika To'maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda ahmoniylar hukmdori Kir II ham halok bo'ladi. Gerodot xabar berishicha, "Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng qaqshatlisi edi. Kamon o'qlari tugagach, qo'l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo'shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat massagetlar g'alaba qozondilar." Kir II qo'shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530 yilga to'g'ri keladi.

Tarixchi Polien forslarga harshi kurashgan Shiroq qahramonligi haqidagi afsona to'g'risida xabar beradi. Uning xabariga ko'ra, sak qabilalarining vakili bo'lgan Shiroq ismli cho'pon hiyla yo'li bilan forslarning katta qo'shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo'yadi. Shiroq ham, fors qo'shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo'ladilar.

Mil. avv. 522-yilda ahmoniylar taxtiga Doro I o'tiradi. U taxtga o'tirishi bilan oq Parfiya, Marg'iyona va "saklar o'lkasi"da forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Bexistun yozuvlariga qaraganda, 522-yilning oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natadi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladi. Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi.

"Saklar o'lkasi"dagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519-518-yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Saklarning ko'pchiligi o'ldirilib, ko'pchiligi asir olinadi. Ularning yo'l boshchisi Skunha asir olinib, o'rniga boshqa yo'l boshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O'rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o'zlariga bo'ysundirdilar.

Markaziy boshqaruv organlari. Ahmoniylar davrida davlat boshharuvi shohlar shohiga (shahanshohga) tegishli edi. Shahanshohning cheklanmagan hokimiyati nafaqat fors zodagonlariga, balki, ma'lum darajada soliqlardan ozod qilingan va Ahmoniylar davlatida ko'pgina imtiyozlarga ega bo'lgan ozod fors jamoalariga ham tayangan. Shuningdek, bosib olingan viloyatlarning mahalliy zodagonlari ham hokimiyatning tayanchi hisoblangan.

Hokimiyat ierarxiyasida shahanshohdan keyin boy fors oilalarining boshliqlari turgan. Shahanshoh saroyida kengash mavjud bo'lib uning tarkibiga boy oila boshliqlari, saroy ayonlari, yuqori lavozimdagi amaldorlar va noiblar kirgan. Davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar ushbu kengashda ko'rib chiqilsa-da, hal qiluvchi qarorni shahanshoh chiqargan.

Boshqaruvda shahanshohdan keyingi shaxs «xazarpat» - mingboshi deb atalgan. Xazarpat shahanshoh gvardiyasining boshlig'i va davlat boshqaruvida shahanshohning bosh yordamchisi hisoblangan. Ahmoniylar saltanatining bosh ma'muriy markazi Suza shahri edi. Bu erda shahanshoh devonxonasi joylashgan bo'lib, barcha hujjatlar shu erda saqlangan. Shahanshoh devonxonasi boshlig'i «dapirpat» - mirzaboshi deb atalgan. Devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, qozilar, mirzalar va boshqa amaldorlar ishlaganlar.

Hududiy bo'linish. Qoyatosh bitiklar va Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Ahmoniylar davlati hududi 20 ta haram-ma'muriy qismlarga – satraplarga bo'lingan. Tadqiqotchilarning fikricha, forslar davlat boshqaruvining bu an'analarini midiyaliklardan o'zlashtirganlar. Satraplar yirik hududlarga ega bo'lib, ko'pincha bir necha viloyat va o'lkalarni o'z tarkibiga birlashtirgan. Masalan, Parfiya, Girkaniya, Areya, Xorasmiya va Sug'diyona bitta satrap tarkibiga kirgan. Satraplarning chegaralari ayrim hollarda o'zgarib turgan.

Satrapliklarda butun xokimiyat podshox tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan bo'shatiladigan satraplar qo'lida bo'lgan. Satrap ma'muriy boshqaruv va sud

xokimiyatiga boshchilik qilish, xo'jalik ishlarini amalga oshirish, soliq va yigimlarni o'z vaqtida undirilishi, mansabdor shaxslarni faoliyati xamda o'z satrapligi xududidagi xavfsizlikni ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirish bilan shugullangan. Satraplar kumush va mis tangalar chiqarish xuquqiga ega bo'lganlar. Satrap qoshida boshqaruv idorasi tashkil etilgan bo'lib, unda idora boshligi, xazinachi, soliq yiguvchilar, jarchilar, sud tergovchilari, kotiblar xizmat qilgan.

Qo'shinlar. Ahmoniylar davlatida muntazam qo'shin mavjud bo'lib, uning asosini tarkibida o'n ming jangchi bo'lgan «abadiy o'lmas» polk tashkil etgan. qo'shinlarning bosh qo'mondoni shahanshoh edi. Harbiy tuzilmada keyingi o'rinda «xazarpat»-mingboshi turgan. Ahmoniylar qo'shinlari quyidagi qismlardan iborat bo'lgan: 1. – «abadiy o'lmas» polk; 2-piyoda qo'shinlar; 3-otliq qo'shinlar (suvoriylar); 4-satraplar qo'shinlari; 5-yunon yollanmalari; 6-ko'ngilli qo'shin. qo'shinning qismlari 10, 100, 1000, 10000 kishilik harbiylardan iborat bo'lib, har bir qismning tayinlab qo'yilgan boshlig'i bo'lgan.

Yilda bir marta shahanshohning shaxsan o'zi qo'shinlarni ko'rikdan o'tkazib, yaxshi xizmat qilganlarni taqdirlagan, harbiy qoidalarini buzganlarni jazolagan. Butun davlat hududi to'rtta harbiy okrugga bo'lingan. Har bir okrug harbiy boshlig'i markazdan tayinlanib bevosita shahanshohga bo'ysungan. Bosib olingan hududlar va chegara rayonlarda harbiy gornizonlar joylashtirilgan. Ahmoniylar qo'shinlarining harbiy tartibi haqida Gerodot va Kurtsiy Ruf batafsil ma'lumotlar beradilar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, ularning asosiy harbiy qurollari qilich, gurzi, o'q-yoy, qalqon, xanjar, harbiy bolta va nayzalardan iborat bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ahmoniylar bosib olgan barcha hududlar satrapiya hokimliklarga bo'lingan bo'lib ularni fors podsholari tomonidan tayinlab qo'yilgan satrap-hokimlar boshqarganlar. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriya XII satrapiya bo'lib 300 talant (talant-Bobil pul birligi bo'lib, 1 talant 30 kg dan ziyodroq kumushga teng), saklar va kaspiylar XI satrapiya bo'lib 200 talant Xorazm, Sug'd, Parfiya va Ariya XVI satrapiya bo'lib 300 talant miqdorda yillik soliq to'lar edilar. Shuningdek, O'rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham fors podsholariga berib turganlar.

Baqtriya davlati.

Mil. avv. VI-IV asrlar O'rta Osiyo viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot ancha rivojlanadi. Bu davrda Baqtriya yirik davlat bo'lib, fors podsholarining Sharqdagi yirik markazlaridan biri edi. So'nggi yillarda O'rta Osiyoning janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi Baqtriya hududidan o'ttizdan ziyod **Ahmoniylar** davriga oid manzilgohlar ochilgan. Ularning har birida o'zlashtirilgan maydonlar va sug'orish tartibidan tashqari turar joylar va xo'jalik xonalari, mehnat va harbiy qurollar, kulolchilik buyumlarining qoldiqlari mavjuddir.



Bu davr Baqtriya aholisining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik edi. Qalayimir, Kuchuktepa, Qizilcha, Bandixon kabi koʻplab yodgorliklardan dehqonchilik bilan bogʻliq boʻlgan mehnat qurollari-oʻroqlar, ketmonlar, yorgʻuchoq va dehqonchilik mahsulotlari qoldiqlarining topilishi dehqonchilikdan dalolat berib, dehqonchilik asosan sunʼiy sugʻorishga asoslanganligini koʻrsatadi.



Baqtriyaning poytaxti qadimgi Baqtra (hozirgi Balx) shahrida qazish ishlari olib borilib, u yerdan topilgan kulolchilik buyumlari koʻhna shaharning eng qadimgi qatlamlari mil. avv. I ming yillikning oʻrtalariga oid ekanligidan dalolat beradi.

Bu davrda Baqtriyada badiiy hunarmandchilik ham yuqori darajada boʻlgan. 1877 yilda Qubodiyon bekligi (Tojikiston) dan oltin va kumushdan iborat katta xazina topilgan. “Amudaryo xazinasi” nomi bilan mashhur boʻlgan bu xazinada oltin va kumushdan quyilgan jang aravalari, jangchilar qiyofasi, hayvonlar tasvirlarini uchratish mumkin. Bu xazina mahalliy ustalar ijodi boʻlib, mil. avv. V-IV asrlarga oiddir.

Mil. avv. VI-IV asrlarda Sugʻdiyona hududlarida koʻplab shahar va qishloqlar boʻlib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar toʻlab turar edilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan bu davrga oid Uzunqir, Yerqoʻrgʻon, Daratepa, Sangirtepa, Lolazor, Afrosiyob, Xoʻja Boʻston kabi 50 dan ziyod koʻhna shahar va manzilgohlar ochib oʻrganilgan.

Sugʻdiyona davlati.

Sugʻdiyoning poytaxti boʻlgan Afrosiyob (Samarqand)da shahar hayotining rivojlanishi Sugʻdiyona va butun Oʻrta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan. Sugʻdiyoning “ikkinchi poytaxti” boʻlgan Erqoʻrgʻonni (Qashqadaryo) tadqiqotchilar yunon-rim tarixchilari tomonidan eslatilgan Ksenippa viloyatining markaziy shahri deb hisoblaydilar.



Sugʻdiyona hayotida dehqonchilik katta ahamiyatga ega edi. Shunisi muhimki, dehqonchilik sunʼiy sugʻorishga asoslangan boʻlib, bu haqda yozma manbalar maʼlumot beradi. Xususan, Straboning yozishicha, Politimet (Zarafshon) daryosi vohadagi eng katta suv manbayi boʻlib, sugʻoriladigan yerlarga kanallar orqali suv chiqarilgan. Koʻhna shaharlarda esa hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib borgan.

Xorazm davlati.

Mil. avv I ming yillikning oʻrtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijalariga qaraganda VI-IV asrlarda bu hududda yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Bu davrda Xorazmda inshootlar qurilishida xom

[illegible]

pullar bilan tanishdilar. Oʻrta Osiyo hududidan Ahmoniylar pul tartibiga oid oltin dariklar va boshqa tangalar topilgan. Ahmoniylar davrida koʻpgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi - butun jahon tarixida, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim davr boʻlib qoldi. Bu oʻrinda Oʻrta Osiyo hududidagi xalqlar va qabilalarning ham hissassi nihoyatda katta boʻldi.

Fillip II oʻz davriga mos harbiy islohotlar oʻtkazib tartibli va yaxshi qurollangan qoʻshin tuzishga muvaffaq boʻldi. Mil. avv. 336 yilda Ahmoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Fillip II ning oʻldirilishi tufayli bu kurash toʻxtab qoldi. Oʻsha yili taxtga Fillip II ning oʻgʻli 20 yoshli Iskandar (Aleksandr) oʻtirdi. Bu paytgacha kelib, yunon shahar-davlatlarida Iskandarga qarshi harakatlar boshlangan boʻlib, Yosh podsho bu harakatlarning barchasini shafqatsizlik bilan bostirdi. Iskandar Ahmoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qoʻshinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash tuzib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qoʻshinlar oldiga aniq vazifalar qoʻydi.

47

Mil. avv. 330-329-yillar qishida Makedoniyalik Iskandar qo'shinlari Hinduqush dovonidan o'tib Shimoliy Baqtriya yerlariga chiqib keladilar. Bess o'z qo'shinlari bilan Iskandarga qarshi chiqdi. Ammo, tajribali yunon-makedon qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchradi. Iskandar Baqtriyaning poytaxti Baqtra shahri, Aorn, Drapsak kabi mustahkam qal'alarni egalladi.

Mil. avv. 329-yilning bahorida Makedoniyalik Iskandar qo'shinlari Oks (Amudaryo) bo'ylariga etib kelib katta qiyinchilik bilan daryoni kechib o'tdilar. Daryodan o'tgan qo'shinlarning dastlab Ptolemey Lag boshchiligidagi ilg'or qismi keyin esa asosiy qo'shinlar Navtaka viloyatiga (Sharqiy Qashqadaryo) kirib boradilar. Bu yerdan esa Iskandar qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti Marokandaga (Samarqand) yo'l oldilar. Kursiy Ruf ma'lumotlariga qaraganda, yunon-makedon qo'shinlari Maroqandani egallashda unchalik qarshilikka uchramadilar va "shaharda o'z garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib", shimoliy-sharqqa tomon harakatlana boshladilar.

Maroqandadan so'ng yunon-makedon qo'shinlarining yurishi nihoyatda og'ir kechdi. Mahalliy Sug'diy aholi dushmani o'ta norozi kayfiyatda kutib oldi hamda bir tan- bir jon bo'lib unga qarshi chiqdi. Ular o'z yerlarining ozodligi va mustaqilligini mardonavor turib chet el bosqinchilaridan himoya qildilar. Iskandar Ustrushonaning (Samarqand va Jizzax oralig'ida) tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan enggach dasht ko'chmanchilari (saklar) va o'troq aholi (Sug'diylar) o'rtasida chegara hisoblangan Yaksart (Sirdaryo) tomonga harakat qila boshladi. Yunon-makedonlar daryo bo'yida to'xtab bu yerdagi shaharlarga o'z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko'p o'tmay bu shaharlar aholisi Iskandarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Daryoning o'ng qirg'og'idagi saklar ham o'z qo'shinlarini bir yerga to'play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va Sug'diyona hududlarida ham Iskandarga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketadi.

Iskandar dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu yerdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil. avv. 329 yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandada) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligida Maroqandaga jo'natilgan qo'shinlar Spitaman tomonidan mag'lubiyatga uchradi. Iskandarning o'zi asosiy kuchlar bilan Sug'diyonaga qaytishga majbur bo'ldi. O'rta Osiyo hududlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo'lishga qaratilgan bo'lib, Iskandarning "varvar"larni osonlikcha bosib olmoqchi bo'lgan rejalarini puchga chiqardi.

Sug'diyonaning tog'li hududlaridagi bosqinchilar qadami etmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirib olgan edilar. Sug'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo'lib, uning g'alabalariga katta umid bog'lagan edilar. Iskandar esa, mil. avv. 329-28 yillar qishlovini Baqtriyada (ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar ekan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Iskandarning Xorazmga yurish rejasi to'xtatildi.

Mil avv. 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar.

Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Iskandar 30 ming qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar-Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zayif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zarbalar berar edi. Spitamen Sog'diy va baqtriyalik zodagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328-yilning oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni ona-yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zayif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Iskandar harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. Yozma manbalarda eslatilgan "Sug'd qoyasi" (yoki "Arimaz qoyasi"), "Xorien qoyasi" shular jumlasidandir.

Makedoniyalik Iskandar mahalliy aholini kuch bilan engish nihoyatda og'ir ekanligini anglab etganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan o'zgartirdi. Xususan, zardo'shtiy kohinlariga birmuncha erkinliklar berib o'zi ham bu dinni qabul qildi. Qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xorien kabilarni avf etib, mol-mulkларini qaytarib berdi. hatto, qo'zg'olonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini o'rnatib Oksiartning qizi go'zal Roksana (Ravshanak, Ruxshonak) ga uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Iskandar hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil. avv. 327-yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Ular yunonlar o'ylaganidek, "varvarlar" va madaniyatdan orqada qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Iskandar qo'shinlari butun Sharq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida Sug'diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Iskandar tarixini yozgan ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi qadimgi davrlardan boshlab bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borib o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan.

Makedoniyalik Iskandarning mil. avv. 334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga ellin (ellada)

madaniyati kirib keldi. Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-maʼmuriy tartib joriy etildi. Bu tartib Oʻrta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki boʻldi. Xususan, bu davrda Oʻrta Osiyoda dastlabki tanga pullar zarb etildi. Yunon yozuvi kirib keldi. Shaharsozlik, meʼmorchilik va amaliy sanʼatda birmuncha oʻzgarishlar boʻlib oʻtdi.

Ammo Makedoniyalik Iskandar davlati ham turli xalqlar, elatlar va qabilalarning zoʻrlab birlashtirilgan yigʻindisidan iborat boʻlib, faqat qoʻrqitish va qurol kuchi orqali idora qilinar edi. Mil.avv. 323 yilda makedoniyalik Iskandarning Bobilda toʻsatdan vafot etishi siyosiy vaziyatning keskin oʻzgarishiga sabab boʻldi. Yunon diadoxlari (hukmdorlar, amaldorlar) oʻrtasida hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlandi.

Bu paytda yunonlar va makedonlar Oʻrta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamini tashkil etar edilar. Makedoniyalik Iskandar vafotiga qadar Baqtriya va Sugʻdiyona satrapi asli makedonlardan boʻlgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan boʻlgan yunon Stasanor qoʻl ostiga oʻtdi. Bu paytda ikki diadox - Evmen va Antigon Iskandar davlatining asosiy yerlarini qoʻlga kiritish uchun oʻzaro kurashayotgan edilar. Filippning katta qoʻshinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Iskandar davlatining katta qismiga hukmronlik oʻrnatishga muvaffaq boʻldi. Ammo uning bu hukmronligi uzoqqa choʻzilmadi.

Mil.avv. 312 yilda Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka diadoxlar bilan boʻlgan kurashda ustun kelib Bobil, Suziana, Midiya va boshqa qoʻshni viloyatlarni bosib oldi va koʻp oʻtmay Old Osiyo, Eron va Oʻrta Osiyo hududlariga ham oʻz hukmronligini oʻrnatdi. Ammo Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi muvaffaqiyat Salavkiylar foydasiga hal boʻlmadi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida bu yerda Chandragupta asos solgan kuchli Maurya davlati Salavkaga qattiq qarshilik koʻrsatganligi sababli Salavka sulh tuzishga majbur boʻldi.

Uning Hindistondagi magʻlubiyati salavkiylarning Oʻrta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarli darajada salbiy taʼsir koʻrsatdi. Bu holat bu yerda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab boʻldi. Mahalliy oʻtroq va koʻchmanchi aholining koʻp sonli qoʻzgʻolonlari bu kurashlardan dalolat beradi. Ular salavkiylarning tayanch nuqtalari boʻlgan Margʻiyonadagi Aleksandriya va aftidan, Aleksandriya Esxatani vayron etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, bu kurashlar natijasida yirik etnik koʻchishlar boʻlib oʻtgan boʻlishi mumkin. Xullas, salavkiylar hokimiyatni egallagan paytdayoq ularning Oʻrta Osiyodagi ahvoli tahlikali edi. Aynan shu sababli Oʻrta Osiyo viloyatlari yerlaridan mahrum boʻlishdan qoʻrqib ketgan Salavka I oʻz vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (straplik)larni taʼsis etdi.

Antiox I vayron etilgan qalʼalarni tikladi, yirik va qalin devor bunyod etdi (Margʻiyona devori), qoʻzgʻolonlari bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrofidagi oʻtroq va koʻchmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox I tomonidan oʻtkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli Oʻrta Osiyodagi salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, “Salavka baʼzi bir joylarni muzokaralar yoʻli bilan egalladi, ammo, Baqtriya, Parfiya, Sugʻd yerlarida u qattiq

qarshilikka uchradi va og‘ir janglar olib borishga to‘g‘ri keldi“. Bu ma‘lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi: “Salavka I baqtriyaliklar, Sug‘diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko‘p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi”. Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bu hududlarning bosib olinishi mil. avv. 306-301 yillariga to‘g‘ri keladi.

O‘rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Salavka Iskandar davrida Spitamanning qizi Apamaga uylandi. qarindoshchilikni hisobga olibmi yoki boshqa maqsadni nazarda tutibmi, Salavka mil. avv. 293-yilda o‘g‘li Antiox I ni Sharqiy satraplarga, jumladan O‘rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi.

O‘zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293-261-yy.) Antiox g‘arbga qilgan ko‘pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o‘z davlatining sharqiga, shumladan O‘rta Osiyo yerlariga kam e‘tibor qaratdi. Bu paytda uning viloyatlarida iqtisodiy o‘zgarish yuz beradi. Ancha tinch hayot boshlanib qishloq xo‘jaligi, qunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo‘lishiga qaramasdan, O‘rta Osiyo ular davlatining eng muhim qismi edi. O‘rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, salavkiylar bu hudud bo‘ylab o‘tgan savdo yo‘llari bo‘yida shaharlar va qishlo‘lar qurdirib ularda hunarmandchilik, o‘zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas.

Salavka I Antigon bilan hokimiyat uchun talashib, Sharqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun keyingi kurash jarayonidayoq yo‘l-yo‘lakay o‘z hokimiyatida boshqaruv tartibini joriy eta boshlagan edi. U Iskandar an‘analariga sodiq qolganligini ko‘rsatish maqsadida satrapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalari ma‘lumotlariga qaraganda Salavka I davlati Ahmoniylar va Iskandar davlatlariga nisbatan ancha kichik bo‘lib, hokimiyat 27-28 satrapiyalarga bo‘lingan.

Har qaysi satrapiyani shoh tomonidan tayinlab qo‘yilgan satrap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma‘muriy, ham harbiy boshqaruvni qo‘lga olganlar. Satrap-strateg ma‘muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o‘ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig‘uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo‘jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda tilga olinadi. (Stratonik, Aleksandr, Gieraks va b.). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O‘rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to‘plangan yunon-zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Salavkiylar hokimiyati, O‘rta Osiyodagi harbiy manzilgohlarda (katoykiyalarda) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi. Aholiga jabr-zulm qilishda mahalliy qukmron guruh vakillari ham ishtirok etardilar.

O‘z davrida salavkiy hukmdorlari shaharsozlik bilan faol shug‘ullanganlar va keyinchalik «Salavkiya» deb atalgan shahar markazlariga asos solganlar. Markaz sulola vakillaridan birining nomi bilan atalgan hollarda unga polis huquqi (to‘liq mustaqil bo‘lmagan) berilgan. Bunday shaharlar ma‘muriy nazorat ostiga olingan. Shuningdek, bu shaharlarda yunon aholisi jamlanishi lozim edi. Salavkiylarning shaharsozlik faoliyati haqida Pliniy, Strabon, Ammian Marsellin kabi antik davr

mualliflari ma'lumotlar beradilar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, Marg'iyona Antioxiyasi, Skifiyadagi Antioxiya, Tarmat Antioxiyasi (Termiz bo'lishi mumkin), kabilar polis huquqiga ega bo'lgan. Salavkiylar davlatida shaharlarga tobe qishloqlar o'zining jamoa tuzilishini saqlab qolgan bo'lib, ularning tobeligi jamoaviy xususiyatga ega bo'lgan va ular polis hududiga kiritilmagan.

Salavkiylarning O'rta Osiyodagi istilochilik siyosati haqida to'liq ma'lumotlar saqlanmagan. Ammo qo'shni viloyatlarga oid ko'p sonli ma'lumotlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, salavkiylarning istilochilik siyosati O'rta Osiyoni ham chetlab o'tmagan. Bu siyosatni amalga oshirish maqsadida ko'p sonli yunonlar ko'chirib keltirilgan. Ular yangi bunyod etilgan shaharlar hamda yunon harbiy manzilgohlari – katoykiyalarida istiqomat qilganlar. Ayrim hollarda mahalliy aholi vakillari ham hokimiyat boshqaruvida ishtirok etganlar.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg'qiyona, Sug'diyona va Parfiya hududlarida ko'p aholili shaharlar ko'p edi. Marakanda, Baqtra, Niso kabi ko'plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo'jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyodagi yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba'zi tomonlarini g'arbga tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayrim tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, ellin madaniyatida sof yunon madaniy ijodi emas, balki yunon va sharq mamlakatlarining o'ziga xos qo'shilishi o'z aksini topdi. Ellin madaniyatining rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlari ham muhim rol o'ynadilar. O'rta Osiyoning katta qismi salavkiylar davlatiga qo'shib olinishi g'arb va sharq o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, qunarmandchilik va sug'orish ishlari izchil rivojlanib bordi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoning salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, Sug'diylar, parvfiyaliklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining salavkiylarga qarshi kurashish uchun birlashuvi davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy satraplari siyosiy hayotida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar.

Parfiya davlati.

Parfiya davlati tarixdan ma'lumki III asrda paydo bo'lgan. Parfiya kuchli Midiya hukmronligi ostiga tushib qoladi.

Parfiya qo'shni Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona kabi serhosil yerlarga ega emas edi. Tadqiqotchilarning "Qoraqum-Parfiya davlatining beshigidir" degan fikrlari bejiz emas. Biroq mamlakat harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim hududda joylashgan edi. Midiyaliklarga u skiflar hujumidan saqlanishi uchun zarur bo'lsa, Kir uchun boy Xorazm vohalariga chiqish yo'lidagi darvoza vazifasini o'tar edi. Makedoniyalik Iskandarning Parfiyani istilo qilishiga sabab shimoldagi

ko'chmanchi qabilalarni itoatda tutish bo'lsa, salavkiylar uchun Parfiyani qo'lda saqlash shimoliy chegaralarning xavfsizligini ta'minlash demak edi.

Mil. avv. 247-yilda Parfiyada Arshak boshchiligidagi parnlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydi. Shu yili parnlar Arshakni o'zlariga podsho qilib saylaydilar. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha Arshak uzoq muddat podsholik qilgan va katta mavqega ega bo'lgan. Sulola (Arshakiylar) asoschisi o'zining tashkilotchiligi, jasurligi va mohir diplomatligi sababli qisqa muddat ichida mustaqil davlat tuzishga erishgan. Mil. avv. 235-yildan boshlab Parfiya podsholari o'z davlatlari hududlarini kengaytirib bordilar.

Paydo bo'lganligining dastlabki o'n yilligida Parfiya podsholigi Parfiyona va Arshak I qo'shib olgan Girkaniyadan iborat edi. Bu paytda Parfiya xalqaro siyosat maydonida unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmay, tashqi siyosatini asosan Salavkiylar va Yunon-Baqtriyadan mustaqil bo'lishga qaratgan. Mil.avv. 230-228-yillar Salavka II ning Parfiyani qayta qo'shib olish uchun qilgan harakati muvaffaqiyatli chiqmadi. O'zini o'nglab ola boshlagan Arshak I qo'shin to'plash, qal'alalarni mustahkamlash, yangi shaharlar barpo etishga kirishdi.

Parfiya davlatining ulkan imperiyaga aylanib xalqaro siyosat maydoniga chiqishi Mitridat I hukmronligi bilan bog'liqdir. O'ttiz besh yil (mil.avv. 171-137-yy.) hukmronlik qilgan bu podsho ko'plab harbiy yurishlar qildi. Uning hukmronlik davrida g'arbga qilingan ko'p yillik urushlar, ichki nizolar va beqarorlik tufayli Salavkiylar davlati zayiflasha boshlagan edi. Bundan unumli foydalangan Mitridat I dastlab Ekbatanni, keyin esa Hindistonni bosib oldi. Mil.avv. 141-yilda Bobil bo'ysundirildi. Shu tariqa Mitridat I Parfiyani qudratli davlatga aylantirib, Arshakiylarning ko'pgina erkinliklarini qayta tikladi.

Mil. avv. II asrning o'rtalarida yuechjilar sak qabilalarini Parfiyaning sharqiy chegaralariga surib borgan. Saklar bilan bo'lgan janglarda Fraat III va Artabon II lar halok bo'ldilar. Mil. avv. 128 yilda Mitradat II taxtga o'tirdi. Uning hukmronlik davridan boshlab Rim va Parfiya kuchli raqiblarga aylanadi. Ikki kuchli saltanatning o'zaro munosabatlari Sharq va g'arbdagi siyosiy jarayonlarni belgilab bera boshlaydi. Mil. avv. 88-yilda Mitridat II vafot etib Arshak IX nomi bilan Gotraz taxtga o'tiradi. Uning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakat ichidagi siyosiy inqirozlar davriga to'g'ri keladi. Ba'zi davlatlar Parfiyadan ajralib keta boshlaydilar. Umuman, milodning III asriga qadar Parfiya davlatiga Arshakiylar sulolasi hukmronlik qildi. Milodning 207-222-yillarida Vologez V hukmronligi davrida Parfiya davlati ikkiga bo'linib ketdi (213-y.). Bular Vologez V hukmronligidagi Mesopotamiya va Artabon V hukmronligidagi Midiya edi. Aynan shu vaqtga kelib fors yerlarida yangi kuchli davlat-sosoniylar davlati vujudga kelmo'lda edi. O'zini o'nglab, oyoqqa turib olgan bu Yosh davlat ko'hna va ulkan Parfiya saltanatini ag'darib tashladi.

Parfiyaning davlat boshqaruvi uchta - Ahmoniylar, ellinistik va ko'chmanchi parn qabilalari an'analariga asoslangan edi. Oliy hokimiyat podsho qo'lida bo'lib, podsholik qilish huquqi faqat Arshakiylar urug'iga berilgan.

Pliniy va Isidor Xarakskiy ma'lumotlariga ko'ra, Parfiya 18 ta satraplikka bo'lingan. Ahmoniylar satrapiyalaridan farqli o'laroq, Parfiya satrapiyalari ancha kichik bo'lgan. Bu ma'muriy okruglarning boshqaruvchilari satrap atalib, podsho

tomonidan tayinlangan. Satrap faqat podshoga bo'ysunib, o'zining boshqaruv apparatiga ega bo'lgan.

Niso (Turkmaniston) shahridan topilgan hujjatlar (xumlarga bitilgan) Parfiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida, arxeologik topilmalar esa Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm va Marg'iyona bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida ma'lumotlar beradi. Parfiya qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Parfiya davlati besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning g'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qilgan.

Yunon-Baqtriy davlati.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil. avv. 256, 250, 248 va 246-245-yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hokimlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va mil. avv. II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardan bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorobog'tepa, Kampirtepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib bu viloyat hokimlari podshoga bo'ysunar edilar. Ba'zi tadqiqotchilar Sug'd va Farg'ona ham Yunon-Baqtriya tarkibiga kirgan desalar, ayrimlari bu davlatning chegaralari Amudaryodan nariga o'tmagan deyдилar. So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryoning o'ng va so'l qirg'og'i aholisining mil. avv. III-II asrlardagi o'zaro aloqalardan darak beribgina qolmay, bu yerlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga haraganda mil. avv. 250-140/130 yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Evtidem, Evkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari ostida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

Yaqin va O'rta Sharqning turli davlatlari, jumladan O'rta Osiyo hududlarida katta xronologik davr yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib fanda bu davr - ellinizm davri deb ataladi. Ellinizm-(Bolqon yarim orolidagi Ellada shahri nomi bilan bog'liq)bu aniq tarixiy mavjudlik bo'lib, iqtisodiy hayotda, ijtimoiy va siyosiy tuzumda, mafkura va madaniyatda ellin (yunon) va Sharq unsurlarining o'zaro uyg'unlashuvi ifodasidir.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysigacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab

bu hududni uchta mintaqaga bo'ladilar: 1. Ellada; 2. Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3. Efrat daryosining sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda "Ellinlashgan Sharq" tushunchasida aks etgan bo'lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning Makedoniyalik Iskandar bosib olgan hududlari kirgan.

Makedoniyalik Iskandar yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va Sug'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozma manbalar Iskandar nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandiya Oksiana (Oks bo'yidagi Iskandariya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Iskandariyasi), Aleksandriya Esxata (Chekkadagi Iskandariya) haqidagi ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari, katoykiyalar deb nomlangan yunon harbiylari manzilgohlari ham mavjud edi. Bugungi kunda arxeolog E.V.Rtveladze tomonidan olib borilgan 40 yillik ilmiy izlanishlar natijasida Kampirtepa o'rnida Aleksandra Oksiana shaxri bo'lganligi aniqlandi. Bu xudud katta qal'adan iborat bo'lib, ximoylanuvchi devor va minoralardan iborat bo'lgan, unda 800-900 yaqin axoli istiqomat qilgan. Aleksandriyada port xam mavjud bo'lgan. Bu xududda qazish ishlarini olib borilganda ko'plab salavkiylar, grek-baqtriy va kushonlar davriga oid tangalar, san'at buyumlari topilgan. Bu shaxarda topilgan qadimgi grek-baqtriya va xind yozuvlari uchraydigan buyumlar katta qiziqish uyg'otadi. Eramizning 2 asr o'rtalarida bu shaxarda xayot to'xtashiga sabab qilib, Amudaryo suvi satxining keskin ko'tarilishi deb taxmin qilishadi arxeologlar.¹

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar-joylar, moddiy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin an'analari (shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshqalar.) kuchli ta'sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi davr (antik) Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvo'idir.

Qang', Dovon va Kushon davlatlari. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Salavkiylar sulolasi bilan doimiy ravishda olib borilgan kurashlar natijasida mil.avv. III asrning boshlarida Qang' davlati paydo bo'ldi. Keyinchalik Yunon-Baqtriya davlati hamda ko'chmanchi qabilalar bilan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlandi va ayrim manbalarda O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida eslatiladi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar tashkil etganlar. Mil. avv. II asrning boshlariga kelib Qang' davlatining yerlari birmuncha kengayib sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon), shimoli-sharqda usun, yuechji qabilalari bilan shimoli-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda, Sirdaryogacha



¹ Никита Макаренко. Александрия Оксианская открыто в Сурхандарье. «Газета.уз» 25 авг. 2019 г.

borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasini, Talas vodiysini va qisman Chu vodiysining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olib Qang' davlatining asosiy yerlari hisoblangan, Mil.avv.II-I asrlarda qang'liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni va Xorazmni o'zlariga bo'ysundiradilar.

Qang' davlati.

Qadimgi manbalarda Qang' davlat hokimiyati qay tarzda idora qilinganligi haqida aniq ma'lumotlar berilmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy.) faqat bir marta Qang'uy (Qang') podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi eslatib o'tiladi. Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Qang' davlati kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Podsho saroyi qoshidagi kengashda davlatning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha muqim masalalar maslaqat bilan hal qilingan.

Qang' davlatiga qarashli erlar bir necha viloyatlarga bo'linib ularning har birini alohida hokim boshqargan. Viloyat boshliqlari jobu yoki yobu (Xitoy manbalarida-chjavou) deb atalgan. Qang' hukmdorlari mamlakatni ana shu jobularga tayanib idora etgan. Bu viloyatlarning ko'pchiligi Qang' davlatining kuchaygan davrlarida, ya'ni, mil.avv. II-I asrlarda tobe etilgan. Xitoy manbalarida qang'arlarga qarashli beshta: Suse, Fumu, Yuni, Gu, Yuechyan viloyatlari eslatib o'tiladi. Tadqiqotchilar ularni qadimgi Toshkent, Sug'diyona va Xorazm hududlarida joylashgan deb hisoblaydilar.

Manbalarda Qang' podsholarining ikkita: yozgi va qishgi qarorgohlari eslatiladi. Ular yozni O'trorda (hozirgi Qozog'istondagi Aris va Turkiston oralig'ida) qishni esa Qang'a (qanxa, qozirgi Toshkent viloyati O'qo'rg'on tumanida) o'tkazganlar. O'troq aholidan tashqari Qang' davlatining chegaralarida bir qancha qabilalar mavjud bo'lib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullanib kelganlar. Ular bahor va yoz mavsumlarida o'z chorvalari bilan ko'chib, yozgi yaylovlarda yashaganlar. Qishda esa chorvalari bilan o'z an'anaviy qishlov joylariga qaytib kelganlar. Qang'lar podsholari va beklari yirik chorvadorlar bo'lib, ular issiq kunlarni yaylov joylarida, yozgi qarorgohlarida o'tkazganlar.

Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi aholining ma'lum qismi mil.avv. III-milodiy V asrlarda o'troq hayot kechirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, O'tror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Mingo'rik xarobalari o'rnida qanharlarning qo'rg'onlari va ko'xna shaharlari bo'lgan. Toshkent vohasida yashovchilar asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Ular arpa, bug'doy, tariq, no'xat, sholi va boshqa donli ekinlar etishtirganlar. Mevali daraxtzor va uzumzorlari ko'p bo'lgan. Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qanharlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli ma'danlar bo'lgan. Bu joylardan juda ko'plab mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo'shib, mustahkam qurollar yasashni ham o'zlashtirganlar. Shuningdek, kundalik ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarilib ichki va tashqi savdo uchun turli mahsulotlar tayyorlangan.

Qanharlarga xos madaniyat Toshkent vohasidagi Qovunchitepadan topib o'rganilgan bo'lib, fanda qovunchi madaniyati nomi bilan mashhurdir. Arxeologik topilmalar ma'lumotlariga qaraganda bu madaniyat asosan Toshkent vohasi, Sirdaryo

oʻrta oqimi, Ettisuv va Shimoliy Fargʻonada keng tarqalgan. Sirdaryoning oʻrta oqimida yashovchi xalqlarning Sugʻdiyona, Fargʻona va Tyanshan togʻining shimoli-sharqiy qismida yashovchi xalqlar bilan yaqin aloqada boʻlganligi tufayli qovunchi madaniyati ancha taraqqiy etgan.

Milodiy V asr oʻrtalariga kelib qanharlar yeridagi oʻtroq va qisman oʻtroq aholi Oʻrta Osiyoda yangidan tashkil topgan Eftalitlar davlatiga tobe boʻldilar.

Dovon davlati.

Mil. avv. I ming yillikning soʻnggi choragida Oʻrta Osiyoning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida ham qadimgi (antik) davlatlar rivojlanadi. Xususan, mil. avv. II-I asrlarga oid Xitoy manbalari dehqonchilik va chorvachilik, ayniqsa yilqichilik keng rivojlangan Dovon (Da-yun, Fargʻona) davlati haqida maʼlumotlar beradi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Dovon davlati maʼlum siyosiy uyushmani tashkil etgan boʻlib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda “van” (podsho) unvoni bilan ish yuritgani taʼkidlanadi. Davlat hukmdori mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega boʻlgan oqsoqollar kengashiga tayanib ish koʻrgan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, baʼzan ular hukmdorning taqdirini hal etganlar.

Manbalar Dovon davlatining poytaxtlari - bosh shahar Ershi va ikkinchi shahar Yuchen (davlatning sharqida) haqida maʼlumotlar beradi. Tadqiqotchilar bosh shaharni Marhamat (Andijon vil.) va ikkinchi shaharni Shurabashot (Oʻzgand vohasi Qirgʻiziston) oʻrnida boʻlgan deb hisoblaydilar. Fargʻona vohasi hududlarida koʻchib yurgan chorvador va koʻchmanchi qabilalar Dovon tarixida muhim ahamiyatga ega boʻlganlar. Bu qabilalar uchun Fargʻona madaniy va hunarmandchilik markazi hisoblangan.

Mil. avv. II asrdan boshlab Qashqardan Dovonga shimoliy yoʻldan karvon yoʻli harakati boshlanadi. Bu yoʻldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Dovon aholisi koʻpaya boshlaydi va koʻplab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo boʻladi. Savdo yoʻlida Dovon muhim ahamiyatga ega boʻla boradi. Tadqiqotchilar fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida koʻpgina qalʼalar savdo yoʻlini qoʻriqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil. avv. 125-yilda Dovonga kelgan mashhur Xitoy sayohatchisi Chjan Syan Dovonning qishloq xoʻjaligi haqida maʼlumot berib, shunday yozadi: “Oʻtroq aholi yer haydaydi, gʻalla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda koʻplab yaxshi otlar bor”. Bu maʼlumot qadimgi Fargʻonada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Fargʻona chorvachiligining oʻziga xos tomoni boʻlgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham maʼlumotlar beradi. Dovon oʻlkasi qadimgi (antik) davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan maʼlum boʻlishicha, ularni etishtirish bilan oʻtroq aholi shugʻullangan. “Dovonda yaxshi otlar boʻlib ular Ershi shaharidadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi boʻlmaydilar”. Dovonning mashhur “samoviy otlari” tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovdagi qoya adirlarda 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Dovon o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak tasviriy san'at sohiblari bo'lganligidan ham dalolat beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan Xitoy imperatorlari Dovon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Dovonning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Dovon o'rtasida harbiy to'qnashuvlar ham bo'lib o'tgan. Bu to'qnashuvlarda dovonliklar o'z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar.

Milodning I-II asrlarga kelib qadimgi Farg'ona aholisining o'troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bu davrga oid ko'p sonli aholi manzilgohlari, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyni turli hududlarida keng yoyilishi sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilik markazlari bo'lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu jarayon o'z navbatida hunarmandchilik va tog'-kon sanoatining (turli ma'danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo'llarning mavjudligi tufayli Farg'ona vodiysida Sharqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog' vodiylarida yashovchi chorvadorlar bilan ham o'zaro almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg'ona yodgorliklarining ayrimlarida Xitoy tangalari (u-shi) uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo'jalik (mahsulot ayirboshlash) ustunligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko'chmanchi qabilalar tomonidan tormor etilganligi eslatiladi. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiyalar, passianlar, toxarlar, sakaravr qabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, "Baqtriya va Sug'diyonani skif qabilalari sarauklar va assianlar bosib oladilar". Tadqiqotchilarning fikricha har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma'lumot bergan.

Kushon davlati.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv.172-16-yillar oralig'ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida "Da-yuechji" - "Buyuk" yoki "Katta Yuechji" deb eslatiladi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Daqya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida

joylashadilar. To'ng'ich Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonida o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, yuechjilar mil. avv. 140-130 yillar oralig'ida Baqtriya bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriya Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji qukmadorlari ko'l ostida beshta hokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uchta bosqichga bo'ladilar.

1. Mil. avv. 139-125-yillar - Katta yuechji Daqya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil. avv. 25 yilga qadar - Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki qandaqor) edi. Yuechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib ular xi-xou (yabqu) tomonidan boshharilgan.

3. Mil. avv. 125-yilgacha Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, so'nggi 20-25 yil ichida bu masalaga juda ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961-yil Londonda o'tkazilgan xalqaro simpozium, 1968-yil Dushanbeda YuNESKOning konferentsiyasi, 1970-yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan keyin ham bu masala bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi.

Mil. avv. I asrning oxiri-mil. I asrning boshlariga kelib guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Qobuliston va Qandarhorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib Kushon davlati o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi "Guyshuan hokimi Kiotszyukyu", ilk kushon davriga oid topilma tangalarda aks ettirilgan "Kushon podshosi Kudzula Kadfiz"ga aynan mos tushadi.

Tangashunoslik ma'lumotlariga ko'ra, Kadfiz I o'z podsholik siyosatini davlat yerlarini kengaytirish bilan boshlaydi. Ba'zi bir guruh tangalar borki, ularning bir tomonida eng so'nggi Yunon-Baqtriya podshosi Germey tasviri tushirilib, uning nomi yozilgan, ikkinchi tomonida esa, Gerakl siymosi va "o'z ishonchiga qat'iy kushonlar yobg'usi Kujula Kadfiz" degan so'zlar bor. Bunday tangalar zarb etilishini olimlar turlicha talqin etadilar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, Kadfiz I dastlab Yunon-Baqtriya podshosi Germey hokimligini tan oladi va ular birgalikda tanga zarb



etadilar. Boshqa guruh olimlar fikriga ko'ra, Kadfiz I ning Germey tangalariga o'z ismini qo'yib zarb qilishga sabab, Germey tangalari Baqtriyada keng tarqalgan edi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keyinroq Kadfiz I o'z nomini "yobg'u"dan "shohlar shohi" faxriy unvonigacha ko'tarib tangalar zarb etadi. Yana bir guruh O'rta Osiyodan (ko'proq Tojikistondan) topilgan tangalarda "shohlar shohi, buyuk xaloskor" degan yozuv ko'proq uchraydi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, bu tangalarni Kadfiz I zarb etgan.

Kudzula Kadfizdan so'ng taxtga uning o'g'li Vima Kadfiz (Kadfiz II) taxtga o'tiradi. Kadfiz II davlatning iqtisodiy ahvolini mustahkamlash maqsadida pul islohoti o'tkazib, oltin tangalar zarb etadi. Shuningdek, Kadfiz II Hindistonning bir qismini Kushon davlatiga qo'shib oladi va Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatadi.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hokimlik davrida Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan (Surxondaryo), Peshovar (Afg'oniston) atroflariga ko'chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubi, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, "Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'z garovga qo'ygan odamlarini yuborar edilar".

Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Kushonlar davri (xususan, Kanishka hukmronligi davrida) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar anchagina rivojlangan davr edi. Bu davrga kelib O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlarida qishloq xo'jaligi yaxshi o'zlashtirib bo'lingan edi. Tekisliklarda sug'orma dehqonchilik bilan birga chorvachilik ham keng rivojlanadi. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda ko'plab sug'orish inshootlari quriladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodgorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Kushon davriga oid ko'plab ochilgan ko'hna shaharlar bu paytda shaharsozlik madaniyati ayniqsa gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Bu davrga oid dastlabki ochilgan ko'hna shaharlardan biri Ayritom ko'hna shahri bo'lib, u Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Termizdan 20 km sharqda joylashgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Ayritom ko'hna shahri mil.avv. II asrdan mil. III asrga qadar uch tarixiy bosqichda rivojlanadi. Bular: so'nggi grek-baqtriya davri, yuechji-kushon davri va kushonlar davrlaridir. Ayritomda olib borilgan uzoq yillik (1932 yilda boshlangan) tadqiqotlar natijasida Budda ibodatxonalari majmualari, qabriston, ko'plab haykallar va baqtriya yozuvi topilgan va o'rganilgan. Ayritomdan himoya devorlar qoldiqlari aniqlanmagan.

Bu davrda Afrosiyob ko'hna shaqri tuzilishida ham o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Xususan, milodning dastlabki asrlarida bu ko'qna shahar yangitdan devor bilan o'rab olinadi. Afrosiyobdan topilgan juda ko'plab topilmalar ham aynan mana shu davrga oiddir. Ammo ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar tufayli 4-5 asrlarida ko'hna shahar inqirozga uchraydi.

Bu davrga oid yirik koʻhna shaharlardan biri Dalvarzintepadir. Koʻhna shahar Surxondaryo viloyatining Shoʻrchi tumani hududida joylashgan. Umumiy maydoni 36 gektardan ziyod boʻlgan bu koʻhna shahar uzunligi 2,5 km, qalinligi 10 metr boʻlgan himoya devori va chuqur xandaq bilan oʻrab olingan. Devorlarda harbiy maqsadlarni koʻzlab maxsus minoralar qurilgan. Shaharning markaziy qismida boy shaharliklarning mahallalari, janubiy qismida esa qunarmandlar yashaydigan kulolchilik mahallasi joylashgan. Bu yerdan topilgan koʻp sonli topilmalar nafaqat mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan balki, Yaqin va Oʻrta Sharqdagi turli viloyatlardan keltirilgan buyumlardir. Dalvarzintepaning shahar oldi qismida milodning I asrida bunyod etilgan Budda ibodatxonasi qoldiqlari ochilib undan diniy qarashlar bilan bogʻliq boʻlgan koʻp sonli topilmalar topilgan. Koʻhna shaharning markazidan milodiy II-III asrlarga oid yana bir yirik ibodatxona qoldiqlari ochilgan. Ushbu ibodatxonadan loy va gipsdan ishlangan Budda, Bodxisatvlarning yirik haykallari, hukmdor va unga yaqin kishilarning haykalchalari topilgan. Koʻhna shahardan 11 ta xumdon ochilgan boʻlib, ular bu hududda sopol hunarmandchiligining rivojlanganidan dalolat beradi. Uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar Dalvarzintepa oʻrniga Kushon davlatining yirik koʻhna shahri (dastlabki poytaxti) joylashganligidan dalolat beradi.

Amudaryoning oʻng qirgʻogʻi Surxondaryo viloyatining Shoʻrob qishlogʻi yonida Kampirtepa koʻhna shahri joylashgan va bu yodgorlik mil. avv. III-milodiy III asrlarga oiddir. Koʻhna shaharning umumiy maydoni 4 gektar boʻlib qalʼa va turar-joy inshootlaridan iborat.

Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida Termiz shahridan 5 km shimoli-gʻarbda Eski Termiz yodgorligi joylashgan. Umumiy maydoni 500 gektardan iborat bu koʻhna shahar mil. avv. IV-III asrlarda paydo boʻladi. Mil. avv. III-II asrlarda Eski Termiz himoya devorlari bilan oʻralib markazida yirik qalʼa bunyod etiladi. Antik davr manbalarida “Tarmit”, “Tarmita” nomi bilan tilga olingan bu koʻhna shahar Kushonlar davriga kelib Shimoliy Baqtriyaning maʼmuriy va mafkuraviy markaziga aylanadi. Eski Termiz hududlaridan shu davrga oid Fayoztepa, Qoratepa kabi yirik Budda ibodatxonalari ochib oʻrganilgan.

Kushon davri yirik koʻhna shaharlaridan yana biri mashhur yodgorlik Xolchayon hisoblanadi. Ushbu koʻhna shahar Surxondaryo viloyatining Denov shahri shimoli-sharqida joylashgan boʻlib mil. avv. IV-III asrlardan - mil. VII asrga qadar mavjud boʻlgan. Yodgorlikning gullab-yashnagan davri Kushon davriga toʻgʻri keladi. Xolchayondan bu davrga oid yirik saroy inshootlari, turar-joylar ochilgan. Saroyning ayvoni va bosh zali devorlari suratlar bilan bezaklangan. Satqidan esa “podsho Geray” avlodlariga mansub turli kattalikdagi qaykallar topilgan.

Kushon podsholigi ruhoniylar qoʻlidagi davlat boʻlib, bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga boʻlingan boʻlib, ularning boshliqlari maʼlum maʼnoda oʻzlarini mustaqil deb hisoblaganlar. Kushon podsholigi quldorlik davlati hisoblansa-da, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta boʻlgan. Tadqiqotlar natijasida kushonlar davrida hunarmandchilikning turli sohalari, ichki va xalqaro aloqalar, madaniy hayot gurkirab rivojlanganligi aniqlangan. Pul muomalasida asosan oltin va mis tangalardan foydalanilgan. qishloq xoʻjaligida dehqonchilik sunʼiy

sug'orishga asoslangan bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining juda ko'p turlari etishtirilgan.

Milodiy III asrning birinchi yarmida, ya'ni, Vasudeva va Kanishka III hukmronligi davrlarida Kushon podsholigi hokimiyatida markazdan qochuvchi kuchlar mavqeyi ortib ular o'zlarini tobora mustaqil hisoblay boshlaydilar. Ikkinchi tomondan esa, ular o'rtasida o'zaro kurashlar avj ola boshlaydi. Undan tashqari Kushon davlatining janubi-g'arbiy hududlarida qudratli Sosoniylar davlati paydo bo'ladi. III asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kushon davlatining ko'pgina yerlari Eron Sosoniylari qo'lga o'tadi.

III.4. Savdo yo'llarining mamlakatlararo siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy va diniy aloqalarni ta'minlashdagi o'rni

Ixtisoslashgan yo'llarning paydo bo'lishiga qabilalar, xalqlar va davlatlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik qilish ehtiyojlari sabab bo'lgan. Masalan, bronza davrida O'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon lojuvardiga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi **«Lojuvard yo'li»**ni paydo qilgan bo'lsa, mil. avv. VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari davlatini boshqarish ehtiyoji **«Shoh yo'li»**ni vujudga keltirgan. Badaxshon lojuvardi Mesopotamiya va Misr podsholari saroylarini, ibodatxonalarni bezashda, ayollarga turli taqinchoqlar yasashda qo'llanilgan.

Jahon tarixida mamlakatlararo siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy va diniy aloqalarni ta'minlashda muhim o'rin tutgan yo'llardan biri m. a. 138-126 yillarda Chjan Szyan asos solgan, ming yillar davomida Sharq va G'arbni bog'lab turgan, tarixda **«G'arbiy meridional yo'l»** deb atalgan.

Buyuk Ipak yo'li Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu erda ikkiga ajralib, janubi - g'arbiy tarmog'i Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Yorkent va Pomir tog'lari orqali Vaxonga, undan Baqtriyaning asosiy shahri Zariaspa (Balx) ga kelgan. Balxdan yana uch tarmoqqa ajralib, g'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoliy tarmog'i Termiz orqali Darband, Nautak va Samarqandga kelgan.

Bu yo'lning shimoli -g'arbiy tarmog'i esa Dunxuandan Balx, Turfon orqali Tarim vohasiga - Qashg'arga borgan. U erdan Toshqo'rg'on orqali O'zgan, O'sh, Axsikent, Popga, undan Asht dashti orqali Xo'jand Jizzax va Samarqandga borgan. Ipak yo'li Samarqanddan g'arbga - Dobusiya, Malik cho'li orqali Buxoroga, undan Varaxsha orqali Boykent, Forob va Omul shaharlariga borgan. Omulda Marvdan Urganchga ketadigan yo'lga qo'shilgan.

Marv turli mamlakatlardan keladigan karvon yo'llari tutashadigan shahar bo'lib, Xitoy, Hindiston, O'rta Sharqni Yaqin Sharq va O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lab turgan. Buyuk Ipak yo'li Marvdan G'arbga Niso, Ray shaharlari orqali Iroqning Ktesafon va Bag'dod shaharlariga, undan Damashq, Tir va Quddus orqali Misrga borgan. Marvdan chiqqan shimoliy yo'l Omul (Chorjuy) orqali Urganchga, undan Shimoliy Kavkaz orqali qora dengiz bo'ylab Konstantinopolga va O'rta Er dengizining boshqa shaharlariga borgan.

Buyuk Ipak yo'li haqida qadimgi va o'rta asrlardagi mashhur sayyohlar, geograflar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Bulardan Rim geografi Klavdiy Ptolemey o'zining "geografiya" asarida (eramizning II asrida) vizantiyalik tarixchi Menandr (VI asr), arab mualliflari al-Masudi (X asr) va Al- Idrish, xitoylik saroy yilnomasi "Xouxanshu" evropalik sayyoh Plano Karpini (XIII asr), Vilgelm Rubruk, Marko Polo ((XIII asr), Lui Gonsales de Klavixo (XVI asr) va boshqalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. "Buyuk Ipak yo'li"ning kashf etilishi eramizdan avvalgi II asrga borib taqaladi. "Buyuk Ipak yo'li" terminini esa 1877 yil nemis sayyohi, geografi, geologi F.F.Rixtgofen o'zining "Xitoy" nomli monografiyasida qo'llagan. Bu yo'l nafaqat yo'l vazifasini bajargan balkim tinchlik va o'zaro hamkorlikka intilgan xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirilgan.

Bu yo'l nafaqat yo'l vazifasini bajargan balkim tinchlik va o'zaro hamkorlikka intilgan xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirilgan.

Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb mamlakatlari savdo va elchilik aloqalarini o'rnatganlar. Jumladan, Xitoy manbalarida sayyoh Gan In 97 yilda Fors qo'ltig'iga, makedoniyalik Mai Tatsian 100 yilda Lanchjogacha borganligi qayd etilgan.

Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati ortgan sari Eron va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida bu yo'lni o'z ta'siriga olish harakati kuchaygan. Jumladan, so'g'dlik savdogarlar III - V asrlarda bu yo'lda o'z xukmronliklarini saqlab qolish uchun Ettisuv, Sharqiy Turkiston va Xitoyning Shensi viloyatlarida o'z karvonsaroylari va qishloqlarini bunyod etganlar.

V- VII asrlarda Ipak yo'lini nazorat qilish Eftaliylar, Turk xoqonligi, VIII asrdan boshlab arablar, IX- XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, XIII asrdan boshlab mo'g'ullar, XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Temuriylar davlati ixtiyoriga o'tdi. Bu davrda Xitoydan G'arb mamlakatlariga asosan ipak va ipak matolar, qog'oz va chinni olib ketilgan bo'lsa, G'arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jun gazlamalar, oyna, metall, qimmatbaho toshlar, arg'umoqlar olib borilgan.

Buyuk Ipak yo'li O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi, savdo – sotiq va hunarmandchilik rivojlanib, shaharlar kengaydi, aholining ma'naviy va madaniy dunyoqarashi o'sdi. U tufayli O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardan boshlab Xitoy chinnisozlik maktabi asosida noyob buyumlar tayyorlangan bo'lsa, O'rta Osiyoning oyna tayyorlash texnologiyasi V asrda Xitoyda keng tarqalgan. Xitoycha qog'oz tayyorlash usuli Samarqandga etib kelgan va Samarqand qog'ozi butun islom dunyosida o'zining sifatliligi bilan mashhur bo'lgan.

XVI asrdan boshlab Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati pasaygan bo'lsa, hozirgi paytda u jahon jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otmoqda. YUNESKO ning XXIV sessiyasida 1989-1997 yillarga mo'ljallangan «Ipak yo'li – muloqot yo'li» deb nomlangan keng ko'lamdagi tadqiqot ishlarini boshlash haqida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra O'rta Osiyo va Ipak yo'li o'tgan boshqa mamlakatlar tarixiga oid tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

Ipak yo'lini qayta tiklash maqsadida Bryussel uchrashuvida Evropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan «Evropa-Kavkaz-Osiyo» transport yo'lagi -TRASEKA masalasi ko'rib chiqildi va Dekloratsiya qabul qilindi. Bu uchrashuv Buyuk Ipak yo'lini tiklashdagi amaliy qadam bo'ldi. 1996 yilda Saraxsda Markaziy Osiyo bilan

Eron temir yo‘l tarmoqlarini tutashtirilishi TRASEKA loyihasini amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi. Mashhad-Saraxs, Saraxs-Mashhad temir yo‘li tufayli O‘rta Osiyo mamlakatlari Fors qo‘ltig‘iga, Evropa xalqlari esa O‘rta Osiyoga temir yo‘l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston Qirg‘iziston va Xitoy bilan Toshkent-Andijon-O‘sh-Irkeshtom yo‘lini qurish va tamirlash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdi. Buyuk Ipak yo‘lining bir qismi hisoblangan bu yo‘nalish Evropa va Osiyo davlatlarini o‘zaro bog‘laydi.

O‘zbekistonda Buyuk ipak yo‘lini tiklashga katta e‘tibor qaratilmoqda. 1995 yil 2-iyunda “Buyuk Ipak yolini qayta tiklashda O‘zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon e‘lon qilindi. Xullas, Buyuk ipak yoli dunyo xalqlariga kop asrdan buyon xizmat qilib kelmoqda, shu jumladan Yurtimiz tarixida ham katta iz qoldirgan.

Hozirgi kunga kelib, Respublikamizda milliy-ma‘naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, milliy mafkura g‘oyalarini fuqorolarimiz ongiga yanada chuqurroq singdirish va yanada teran anglatish kuchayib, O‘zbekiston xalqlarining o‘z o‘tmish va kelib chiqishiga qiziqishi ortib bormoqda. Xususan, o‘zbek xalqining etnik tarixi, uning xalq sifatida shakllanishi masalalari dolzarb ekanligi Birinch Prezidentimiz I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida (1998) har tomonlama asoslab berildi. Bu yo‘nalishda tarixchilarimiz oldiga echimi hayotiy zarur bo‘lgan vazifalar qo‘yildi. Jumladan, Birinch Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Movaraunnahr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne bosqinchilar kirib kelmagan, ko‘p yillar, balki, asrlar davomida yutrimizda ne-ne o‘zga sulolalar hukmronlik qilmagan deysiz... Erondan Ahmoniylar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Qutayba, Mug‘ulistondan Chingizxon keldi, rus istilochilari keldi. Lekin xalq qoldiku?... ana shunday har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda xalqimiz, uning madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlar, turmush tarzi, hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo‘q bo‘lib ketishi kerak bo‘lgan sharoitda baribir, qator yo‘qotishlar bilan bo‘lsa ham, millatimiz o‘zligini saqlab qololdimi, yo yo‘qmi? Olimlarimiz ana shu savolga javob bersinlar”.

“Etnologiya” – xalqlar haqidagi fan bo‘lib, unga bundan 2-2,5 ming yil ilgari qadimgi Yunonistonda asos solingan. “Etnos” – “xalq” demakdir. Har qanday etnos o‘z shakllanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liq ordamlar jamoasidan iborat bo‘ladi.

Urug‘- birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qon-qarindoshlar uyushmasi, kishilarning tarixiy birligi bo‘lib, xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqich sifatida muhim ahamiyatga ega.

Qabila- bronza davrida urug‘larning birlashuvidan vujudga kelgan kishilarning tarixiy birligi.

Elat- til, madaniyat, iqtisodiy va hududiy birlik asosida uyushgan kishilarning tarixiy birligi.

Millat-ishlab chiqarishning industrial bosqichida til, madaniyat, iqtisod, hudud va ma‘naviy-ruhiy birlik asosida uyushgan kishilarning tarixiy birligi.

Xalq-o'z shakllanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq odamlar jamoasidan iborat bo'ladi. Keng ma'noda muayyan mamlakat hududida yashovchi aholi, tor ma'noda millat, elat tushunchalarining ma'nodoshi.

Irq-arabcha ildiz degan ma'noni angalatadi. O'zbek xalqiga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa XVI asrda shakllandi deb hisoblar edilar. Keyingi yillardagi boy arxeologik topilmalar natijasida tadqiqotchilar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqi bundan 2200-2300 yil ilgari shakllanganligini asoslab berdilar.

Etnogenez yoki birorta xalqning kelib chiqish tarixi masalalari tarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liqligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgani ma'lum. Ammo, tarix fanining boshqa yo'nalishlariga (arxeologiya, etnografiya, antropoliya va bosh.) nisbatan o'zbek xalqi etnogenezi hamon jiddiy tadqiqotlar talab etadi. Etnogenez va etnik tarix masalalari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishdagi ayrim kuzatishlarni yunon, xitoy, rim, arab, eroniy va turkiy tillarda yozilgan qadimgi hamda o'rta asr mualliflari va sayyohlari asarlarida uchratish mumkin. Ular o'z asarlarida xalqlarning tashqi qiyofasidagi umumiylik, ba'zi urf-odatlarining yaqinligi va tillarning o'xshashligini ta'kidlaganlar. Ammo ular bu jarayonlarning asl sabablarini ochib bera olmaganlar. XIX-XX asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar nisbatan samarali bo'lishiga qaramay, bu tadqiqotlar ham xalqlarning etnik kelib chiqishi, madaniyati va tillaridagi o'xshashlik sabablari va mohiyatini to'la ochib bera olmadi.

So'nggi 20-25 yil ichida Respublikamiz hududlarida olib borilgan arxeologik, antropologik va etnografik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan antropolog olim T.Q. Xo'jayev har bir xalqning etnogenezini o'rganishda quyidagi tamoyillarga asosiy e'tibor berishni taklif etadi:

1) biror xalqning kelib chiqishi tarixi ko'p qirralik jarayon bo'lib, u o'z ichiga shu xalqning madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi, uning biologik xususiyatlari, o'zining jamiyatda tutgan o'rnini tushunish, tili va o'zligini tanishni qamrab oladi;

2) etnogenez masalasiga bir tomonlama qarab, uni soddalashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, shu xalqning kelib chiqish tarixida ma'lum ahamiyat kasb etgan barcha tarkibiy qismlar ham e'tiborga olinishi shart;

3) etnogenez murakkab va uzoq davom etgan jarayon. Binobarin, bu jarayonni bosqichma-bosqich tiklash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, A.A. Asqarov o'zbek xalqi etnogeneziga bag'ishlangan 2002-yillardagi ishlaridan birida har bir xalq etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda quyidagi nazariy va ilmiy metodologik tamoyillarga amal qilish talab etilishini ta'kidlaydi:

birinchidan, etnogenez va etnik tarixni o'rganishda tadqiqotchi birinchi navbatda o'rgananyotgan xalq etnogenezisi qachondan boshlanganligini aniqlab olmog'i kerak. Chunki etnos faqat kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'ladi. Etnogenezning boshlang'ich nuqtasi esa etnosning qadim zamonlarda yashagan «ajdodlariga» borib taqaladi. Bu jarayon mil.avv. II ming yillik oxirlarida yuz berdi.

Ikkinchidan, etnos bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyoti ma'lum bir bosqichining hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida bir xil sabablarga ko'ra uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi. Er yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko'p etnik qatlamlidir. Darhaqiqat, o'zbek xalqi etnogenezing ilk bosqichlaridan, to xalq sifatida shakllanib bo'lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan mahalliy (avtohton) so'g'du-xorazmiy va qadimgi turkiyzabon qatlamlardan tashqari o'ziga turli davrda har xil miqdorda mahalliy va tevarak atroflardan kelib qo'shilgan etnik guruhlarini singdirib yubordi.

Uchinchidan, har bir xalqning etnik tarixini o'rganish, etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichidan boshlashni taqozo etadi. Chunki etnik birlikning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning etnosga aylanishi juda qadim-qadimgi zamonlardan boshlanib hozirgi kungacha davom etayotgan butun bir tarixiy jarayondir.

To'rtinchidan, har bir xalqning etnik tarixi bilan shug'ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang'ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga xos muhim etnik belgi va alomatlarni aniqlab, o'rganib borish talab etiladi.

Beshinchidan, etnogenetik jarayonni o'rganishda masalaga har tomonlama yondoshish, ya'ni etnogenezga aloqador fan yutuqlaridan foydalanish muammo echimiga ob'yektiv ilmiylik bag'ishlaydi. Etnogenez muammolarini hal etishda foydalanilayotgan birlamchi manbalarning nisbati va xususiyatini bilish muhimdir. Bu manbalar antropologiya, arxeologiya, etnografiya, yozma yodgorliklar, tilshunoslik, epigrafika va boshqalardir.

Yuqoridagi tamoyillarga to'la rioya qilingan holdagina, ayrim xalq etnogeneziga oid muammolarni ilmiy nuqtai nazardan mukammal va har tomonlama ochib berish imkoniyati paydo bo'ladi. Ammo O'rta Osiyoda, xususan O'zbekiston hududlarida qadimgi davrlardan sodir bo'lib kelayotgan etnik jarayonlarni har tomonlama yoritishdan avval ayrim fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni oxiriga etkazish bilan undan boshqa soha mutaxassislari ham foydalanishi mumkin bo'lgan darajasiga chiqarish maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillardagi arxeologik izlanishlar qadimgi aholining moddiy va ma'naviy madaniyati, uning turmush tarzi, uy-ro'zg'or ashyolari, an'anaviy xo'jaligi va boshqalar haqida muhim ma'lumotlar olish imkonini berdi. Bu jarayon esa yangi antropologik ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil etishga asos bo'ldi.

Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlanadi. O'zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lida ajdodlarimiz murakkab etnogenez jarayonlarini boshdan kechirganlar. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar, qabilalar, xalqlar va elatlarning aralashib ketishi, madaniy an'analarning qo'shilib yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Tarixiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, fanning ko'pgina tarmoqlariga, jumladan, xalqlar haqidagi fanga bundan 2-2,5 ming yil ilgari qadimgi Yunonistonda asos solingan. Shuning uchun ham zamonaviy fanda yunon tilidan olingan so'zlar ko'p uchraydi. Bunday so'zlarni xalqlar haqidagi fanlarda ham uchratish mumkin. Qadimgi yunonlarda "xalq" tushunchasini ifodalovchi bir necha so'zlar bo'lgan.

Shulardan biri “demos” bo‘lib, bu so‘z orqali aholining asosiy qismi tushunilgan (mas. “demokratiya”-”xalq hokimiyati”, “demografiya”- ”xalqlarni ta’riflash” va boshq.). Shunday so‘zlardan yana biri “etnos” bo‘lib, aynan tarjimasi “xalq” demakdir. Etnografik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, har qanday etnos o‘z shakllanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liq odamlar jamoasidan iborat bo‘ladi.

Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgilaridan biri bu madaniy xususiyatlardir. Bu xususiyatlarni har bir xalq o‘z tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida o‘zlashtiradi va avloddan avlodga qoldiradi. Fanda bu jarayon “etnik an’analar” deyiladi. Bunday an’analar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik shart-sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu tarixiy davrlarda shakllanadi. Etnosni qisqacha qilib, uyushgan til-madaniy jamoasi deyish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda “etnik jamoa” degan so‘z ham ko‘p ishlatiladi. Faqatgina alohida xalqlarni emas, balki ularning kelib chiqishida qarindoshchiligi bo‘lgan guruhlarini ham etnik jamoa deb atash mumkin.

Tadqiqotchilarning fikricha, qarindosh-urug‘chilik etnik jamoalari asta-sekinlik bilan urug‘ jamoalariga aylanib boradi. Urug‘-birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo‘lib, ma’lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida turkiy etnik guruhlar juda katta ahamiyatga ega bo‘lganligi va bu qatlamning ildizlari juda qadimiy ekanligi arxeologik ma’lumotlar asosida isbotlanmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bronza davriga kelib O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo‘yli, yuzi tor irqning vakillari tarqalgan. Shimoliy dasht va cho‘l hududlarida esa janub aholisidan farq qiluvchi boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho‘ziq bo‘lmagan qabilalar yashaganlar. Fanda janubiy qiyofali odamlar O‘rta Yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Hindiston kabi katta geografik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog‘iston, O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida Ural, Volga bo‘yi erlarigacha tarqalgan.

A. Sagdullaevning tadqiqotlariga ko‘ra, bronza davriga kelib, O‘rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo‘shilish jarayoni boshlanadi hamda aynan mana shu davrda, o‘lkamizda yashab o‘tgan bronza davri qabilalari, O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlariga asos solganlar. Bu davr o‘lkamiz hududlarida murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgani bilan izohlanadi. Xususan, janubiy hududlardagi hosildor vohalar o‘troq dehqonchilik aholisi tomonidan o‘zlashtirila boshlagan bo‘lsa, shimoliy viloyatlarda ko‘chmanchi chorvador qabilalar tarqala boshlaydi. Ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq aholining uzviy munosabatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik jarayonlar avj oladi.

Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyo hududlariga shimoli-sharqdan chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi yangi etnik guruhlar kirib kela boshlaydi. Mahalliy madaniyatdan farqlanuvchi bu guruhlar madaniyati tadqiqotchilar tomonidan “Tozabog‘yob madaniyati” nomi bilan fanga kiritilgan.

Tozabog‘yob ko‘rinishidagi yodgorliklar keyinchalik Zarafshon daryosinng quyi havzasi hududlaridan topib o‘rganildi. Xuddi shunga o‘xshash etnoslarning

izlari Toshkent vohasidan, Farg'ona vodiysidan va shimoliy Baqtriyaning tog'li va tog'oldi hududlaridan topib o'rganilgan. Juda katta hududlardan, xususan, Qozog'iston cho'llari, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlaridan tekshirilgan o'ziga xos madaniyat "Andronov madaniyati" nomi bilan fanga kiritilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, bu madaniyat sohiblari bronza davridayoq turkiy tilda so'zlashganlar.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari tarkib topgan hududda joylashganligi boy arxeologik va me'morchilik madaniyatlari bilan izohlanadi. Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o'rta paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda insoniyat paydo bo'lgan hududlar tarkibiga kirganligini hozirgi kunda uzil-kesil isbotlaydi. Shuningdek, mezolit davriga oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o'zida ask ettiruvchi Kaltaminor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo'lgan Joytun, Hisor tog' madaniyati, bronza davriga oid bo'lgan xilma-xil-Zamonbobo, Sopolli, Jarqo'ton, Sarazm, Suvyorgan, Chust madaniyatlari o'lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo'jaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

O'lkamizdagi qadimgi aholi tosh va bronza davrida qanday nom bilan atalganliklari bizga noma'lum. O'rta Osiyo aholisi haqidagi ma'lumotlar dastlabki marta Sharq va yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilari ma'lumotlariga qaraganda, Evrosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy "skiflar" nomi bilan ataladi. Gerodot, "bu xalq qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi", deb yuqori baho bergan edi. Pliniy esa, O'rta Osiyo hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi xususida eslatib o'tadi. Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko'proq eslatiladi. Ahmoniyar mixxat yozuvlarida saklar uchta qismga (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara-darayya) bo'lib ko'rsatiladi. Massagetlar xususida ham turli fikrlar mavjud bo'lib, ular mahalliy chorvador-harbiy qabilalar bo'lganligi ta'kidlanadi. Ammo, yozma manbalar bu xalqlar va qabilalarning qaysi irqqa mansubligi haqida ma'lumot bermaydi.

Ayrim olimlar tomonidan bildirilgan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston qadimgi davrlardagi mongoloid irqi shakllangan hududga kiradi, degan ilmiy yondashuv noto'g'ri va asossiz ekanligi so'nggi yillardagi antropologik ma'lumotlar natijasida aniqlandi. T. Xo'jaevning fikricha, o'zbek xalqining kelib chiqish taixini o'rganishni qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlargacha saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to'g'risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O'zbek xalqiga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3



ming yil ilgari shakllangan desa, uchunchi guruh olimlari esa, XVI asrda shakllandi, deb hisoblar edilar. Keyingi yillardagi boy arxeologik topilmalar natijasida tadqiqotchilar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanishi bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganligini asoslab berdilar.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda o'zbek xalqining shakllanishida sakkizta muhim davr sanab o'tiladi. Bular qatorida Ahmoniylar, Makedoniyalik Iskandar, Arab xalifaligi, Mo'g'ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatan, bu zabt etishlar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga albatta o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan ta'siri kam ekanligini ta'kidlash joiz. Antropologik nuqtai nazardan ular mahalliy xalq "qonini" yoki genetikasini tubdan o'zgartira olmadilar. Ular son jihatdan ko'pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketganlar. Bu o'rinda mahalliy (substrat) va kelgindi (superstrat) aholi orasidagi o'zaro munosabatlarning fanda ma'lum holatlarini eslatib o'tish joiz. Ya'ni, ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga kelgindi guruhlarining singib ketishi; kelgindi guruhlarining mahalliy aholidan ustun bo'lishi; kelgindi aholi teng sonli bo'lishi va nihoyat, mahalliy va kelgindi xalqlar aralashuvi natijasida ikkalasiga ham o'xshash yangi xalq, guruh, elat paydo bo'lishini kuzatish mumkin. T. Xo'jaevning maxsus antropologik tadqiqotlariga qaraganda, barcha tarixiy davrlarda mahalliy xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo'lgan.

Ilk temir davridan boshlab (mil. avv. IX-VII asrlar), o'lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular So'g'diyonadagi-so'g'diylar, qadimgi Xorazmdagi-xorazmiylar, qadimgi Baqtriya-dagi-baxtarlar, qadimgi Chochdagi-chochliklar, Farg'onadagi-parkanaliklardir. Bu tarixiy nomlarning ayrimlarini ilk yozma manbalarda, xususan, zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, Ahmoniylar mixxatlarida, yunon-rim mualliflari asarlarida uchratish mumkin.

Antropologik izlanishlar natijalariga tayanib, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan uch tarixiy davrga alohida to'xtalib o'tish zarur. Birinchidan, mil. avv. III-II asrlarda O'rta Osiyo dasht mintaqalarida hozirgi o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yaqin gacha keng tarqalgan fikrlar, ya'ni o'zbeklarga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqi avvalo, Volga daryosi bo'ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan hamda bu irq Baykal ko'li atrofida va Mo'g'uliston cho'llarida shakllanib, tayyor holda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi, degan fikrlardan voz kechishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbeklarga xos antropologik qiyofa, dastavval, Sirdaryoning o'rta havzasi tumanlarida, ya'ni Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, qisman Xorazm va Janubiy Qozog'istonning Chimkent viloyatlarida, Ettisuv mintaqasida mil. avv. I ming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi.

Mil. avv. III-II asrlarda bu aholi bir necha yo'nalishda O'rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Ushbu antropologik tadqiqotlar natijalari yozma manbalarda ma'lum bo'lgan xalqlarning janubga yurishi va Yunon-Baqtriya davlatining istilo etilishi hamda Buyuk Kushon saltanatining barpo bo'lish

davriga mos keladi. Antropologiya bu yurish haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi cho'l aholisi Sirdaryo quyi oqimidan Markaziy Qizilqum orqali (Uchquduq, Tomdi, Yuzquduq, Ko'kpatosh), Samarqand atroflariga (Kattaqo'rg'on, Orlat), so'ngra Qashqadaryoning Qarshi shahri atroflari (Erqo'rg'on) orqali Surxondaryo viloyatidagi (Qo'hna Termiz, Dalvarzin, Shohtepa, Ayrtom) qadimgi shahar va qishloqlarga kirib joylashganlar. Keyinchalik ular janubiy Tojikistonga o'tib ketganlar. Ularning ikkinchi guruhi qadimiy Buxoro vohasi orqali Turkmanistonning janubiy viloyatlariga, bir qismi esa hozirgi Shimoliy Afg'onistonning Shibirg'on shahri atroflarigacha etib borgan (Tillatepa). Natijada o'zbeklar va tekisliklarda yashovchi tojiklarga xos pomir-farg'ona antropologik unsur O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

O'zbek xalqi shakllanishidagi ikkinchi muhim davr - bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa, mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Antropolog T. Xo'jaev tadqiqotlariga qaraganda, IX asrga kelib aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. Bu o'zgarishlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Jumladan, marhumlarni astodonlarda ko'mish marosimlari, aholi orasida keng tarqalgan bosh shaklini sun'iy o'zgartirish odatlari yo'qoladi. Antropologik tadqiqotlar natijalardan xulosa chiqaradigan bo'lsak o'zbeklarning elat sifatida shakllanish davri IX-X asrlarga oid deyishga jiddiy asoslar bor.

Fanda mo'g'ul istilosi O'rta Osiyo aholisini keskin mo'g'ullashtirib, o'zgartirib yubordi, degan fikr keng tarqalgan. Lekin, tadqiqotchilarimiz bu masalaga ham oydinlik kiritdilar. Mo'g'ul istilosi O'zbekiston aholisining tashqi qiyofasiga sezilarli izlarni qoldirmaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Sababi, Chingizxon XIII asr boshida tashkil etgan yirik mo'g'ul davlatida mug'ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat bo'lgan. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingan bo'lsa, unda uning qo'shinlari soni 100-110 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin, o'sha davrda mug'ullar qo'shinlarining ko'p qismini yo'qotganlar. Ular O'rta Osiyoga bostirib kelganida qo'shinlarning ko'pchiligi turkiy xalqlardan tashkil topganligi ma'lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Mo'g'ul qo'shinlari ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga o'z asoratini o'tkaza olmagan. Shuning uchun ham mahalliy aholida mo'g'ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Dashti Qipchoq o'zbeklari O'rta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi.

Shunday qilib, o'zbek xalqini etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, saklar, massagetlar, qang'lilar va dovonliklar tashkil qilgan. Turli davrlarda turli maqsadlarda kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o'tishi bilan mahalliy aholiga o'z ta'sirini qisman o'tkazgan. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish lozimki, o'zbek xalqi shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi tashqaridan kelgan aholiga nisbatan doimo ustunlik qilgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga o'z tilini berganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Lekin antropologik nuqtai

nazardan mahalliy aholining etnik qiyofasini va tashqi ko‘rinishini tubdan o‘zgartira olmadi. Misol uchun, keyingi ikki ming yil davomida O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o‘zgardi-sharqiy eron tillari o‘rniga g‘arbiy eron tillari (fors tili) va milodning boshlaridan turkiy tillar keng tarqala boshladi. Ammo mahalliy xalqning “qoni”, ya’ni genetikasi aytarli o‘zgarmadi va qadimiy xalqlarimizga xos antropologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda, O‘zbek xalqining kelib chiqish asosini qadimgi davrlardan boshlab o‘lkamiz hududlarida yashab kelgan mahalliy xalqlar tashkil etgan. Ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo‘shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o‘zbek xalqi shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashgan.

Texnologik usullar: Menyu metodi texnikasi

Auditoriy 4 ta guruhga bolinadi: Ularga muhokama uchun 3 dagiga davomida topshiriglar beriladi. Topshiriglar quyidagi tarzda umumiy darajada boladi:

1. Buyuk Ipak yo‘li orqali qaysi mamlakatlar bilan savdo va elchilik aloqalarini o‘rnatganlar.?
2. Buyuk Ipak yo‘li O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
3. Buyuk Ipak yo‘li haqida kimlar o‘z asarlarida yozib qoldirganlar.?
4. Nechanchi asrdan boshlab Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati pasay boshlagan?,
5. Tarixda qaysi yo‘l «G‘arbiy meridional yo‘l» deb atalgan?.
6. “Buyuk Ipak yo‘li” terminini 1877 yil qaysi olim o‘z monografiyasida ilk bora qo‘llagan?.
7. Buyuk ipak yo‘lining tarixiy rivojlanishi haqida gapiring .
8. Buyuk ipak yo‘li ahamiyatining pasayishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar qaysilar

Nazorat savollari

1. O‘zbek davlatchiligi qanday shakllandi?
2. Qaysi qabila xalqlari o‘zbek xalqining ajdodlari hisoblanadi?
3. Davlatchilikning paydo bo‘lishidagi asosiy omillar qaysilar?
4. Markaziy Osiyodagi dastlabki davlatlar qaysilar?
5. Buyuk Ipak yo‘li termini kim tomonidan fanga kiritilgan?
6. Qadimiy yo‘llar qanday nomlar bilan atalgan?
7. Markaziy Osiyo xalqlarining Buyuk Ipak yo‘lini rivojlantirishdagi o‘rni qanday?
8. Buyuk Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini qachon yo‘qotdi?
9. Mustaqillik yillarida Buyuk Ipak yo‘li an‘analarini tiklashda nimalar qilindi?
10. Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek xalqining shakllanishida nechta muhim davr sanab o‘tiladi?
11. Markaziy Osiyo xalqlarining Buyuk Ipak yo‘lini rivojlantirishdagi o‘rni qanday?
12. Mustaqillik yillarida Buyuk Ipak yo‘li an‘analarini tiklashda nimalar qilindi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
2. Аскарлов А. Ўзбек халкининг этногенези ва этник тарихи.- Тошкент. Университет. 2007.
3. Ходжаев Т.К. Ўзбек халқи этногенези тарихидан.-Тошкент, 1995.
4. Шониезов К.Ш. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001.
5. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.- Тошкент, 2013.
6. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
7. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
8. O'zbekiston tarixi.S. Xolboyev va b. – T.: Universitet, 2005.
9. O'zbekiston tarixi. Darslik II jild. Mualliflar jamoasi. –T.:Yangi asr avlodi. 2015.
10. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -T.: Akademnashr, 2019.
11. Xoliqova R. Islom Karimov asarlarida O'zbekiston tarixining yoritilish masalalari.oquv –uslubiy qo'llanma,T.,TDTU,2014 y, 31 b.
12. Никита Макаренко. Александрия Оксианская открыто в Сурхандаре. «Газета.уз.uz». 25 август 2019 г.

IV BOB. ILK O'RTA ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY HAYOT

Tayanch so'z va atamalar:

Kidariylar, Xioniylar, Eftaliylar, konfederatsiya, sulh, siyosiy ahvol, iqtisodiy ahvol, ijtimoiy hayot, jamoa huquqi, Mazdakiylar harakati, yer egaligi, mahalliy zodogonlar, o'troq aholi, ko'chmanchi chorvador, qo'rg'onlar, istehkomlar, “Devori qiyomat”, “Kampir devor”, Tuproq qal'a, hunarmandchilik, kulolchilik, shishasozlik, bo'zchilik, zargarlik, xalqaro savdo, zardo'shtiylik, xristianlik, yaxudiylik, so'g'diy tili, baqtriya yozuvi.

IV.1. Vatanimiz hududlarida ilk feodal davlatlarning vujudga kelishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti (Kidariylar, Xioniylar, Eftaliylar).

IV asrning II yarmida Eron sosoniylari bilan bo'lgan doimiy to'qnashuvlar tufayli parchalanib ketgan Kushon podsholigi xududlarida mustaqil boshqaruv tizimlari va mulkdorlar paydo bo'la boshladi. Mulkdorlarning qullar va qaram kishilardan tuzilgan harbiy drujinalari bo'lib, ular «chokarlar» deb atalgan. Markaziy hokimiyat ana shu mulk egalari uyushmasidan tashkil topgan. Ularni Buxoroda - buxorxudot, Chag'oniyonda - chag'onxudot, Vardanzida - vardanxudot, Shoshda - tudan, Samarqand va Farg'onada-ixshid, Ushrushonada - afshin, Xorazmda- xorazmshohlar boshqargan.

IV asr o'rtalarida Turon hududiga shimoldan ko'chmanchi qabilalarining xujumi boshlangan. Ular turkiy xion qabilalari bo'lib, **xioniylarni** arman va suriyalik tarixchilar kushonlarning avlodlari deb hisoblaydilar. Vizantiyalik tarixchilar ularni «Oq xunlar» deb atashgan. Rim tarixchisi Marsellanning fikricha 346-347-yillarda xioniylar kushonlar bilan ittifoq tuzib Eron shohi SHopur II (309-379) ga qarshi kurashganlar. Sosoniy podsholari Shopur II va Varaxran (418-438) xioniylar bilan yaqin qo'shnichilik aloqalari olib borganlar.

Tarixchilardan I.Markvart, M.Martinlarning fikricha **kidariylar** (qabila boshlig'i Kidar nomidan olingan) kushonlarning qoldig'i bo'lib, Kidar IV asrda hukmronlik qilgan. Ba'zi olimlarning fikricha kidariylar V asrda shimolda yashagan massaget qabilalar ittifoqidan ajralib chiqib, bir necha marta Sosoniylar davlatiga hujum qilganlar. 456 yilda Kidar Sosoniylardan mag'lubiyatga uchrab halok bo'lgach, uning o'g'li Kungas boshchiligida kidariylar Qandahor (Peshavor) ga va undan Shimoliy Hindistonga o'tib, Gupta podsholigini tobe etganlar va u erda 75 yil hukmronlik qilganlar.

V - VI asr tarixchi olimlaridan Ieshu Stilit, Prakopiy Kesariyskiy, Sebeos, Egishe Vardapetlar xioniylar, kidariylar va eftaliylar bir- birlariga yaqin bo'lgan qabilalar ittifoqidan iborat degan fikrni bildiradilar. Bu ular o'rtasidagi farq faqat sulolaviy xarakterga ega degan fikrga olib keladi.

Eftaliylar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yunon, xitoy, arab va boshqa xalqlar manbalarida uchraydi. Ularda eftaliylar turli nomlar bilan atalgan. Jumladan, xitoy manbalarida E-da yoki I-da, suriya va lotin «Eftalit», arman yozuvlarida «Tetal» yoki «Xettal», arab va fors manbalarida «Haytal» yoki «Haftal», yunonlarda «Abdel», hindlarda «Xuna» va b. Ba'zi tarixchilar «Eftal» atamasini eftaliylar hukmdori Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'lashadi.

Xitoy manbalarida eftaliylar turklar (tukyue)ga yaqin deyil-sa, vizantiyalik tarixchi Prokopiy Kesariyskiy ularning kelib chiqishini «xunlar» bilan bog'laydi. Aksariyat olimlar esa eftaliylarni mil. avv. I- milodiy IV asrda Ettisuvva Ili vohasidan Orol dengizi bo'ylariga kelgan «xunlar» bilan aralashib ketgan sak-massaget qabilalarining avlodlaridir, degan fikrni bildiradilar.

Orol dengizining janubi-sharqiy qismida yashagan sak-massaget qabilalarining avlodlari bo'lgan eftaliylarning janub sari siljishlari Eron bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Taxminan 457 yilda eftaliylar Vahshunvor Eftalon boshchiligida - Chag'oniyon (Termizning shimolidagi erlar), Tohariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoda kuchli davlatga asos soldilar. Ko'pchilik olimlar Eftaliylar davlatining markazi Poykand (Boykent) yoki Balx bo'lgan degan fikrga kelishgan. Poykent tarixchi Narshaxiyning yozishicha «Buxoro shahridan qadimiyroqdir».

Eftaliylar davlatining kuchayishidan tahlikaga tushgan Eron shohi Peroz (Feruz) eftaliylarga qarshi uch marta yurish qilib, undan engilgan. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha qudrati oshgan eftaliylarga Eron sosoniylari uzoq vaqt xiroj to'lab turgan. Keyinchalik eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qashg'ar va Xo'tanni ham egallab, Kushon podsholigi xududlari, ya'ni O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soldilar.

Eftaliylar ulkan hududlarni qo'lga kiritgach obod dehqonchilik vohalariga, rivojlangan shaharlarga, savdo yo'llariga ega bo'ldilar. Vaqt o'tishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. Natijada ularning bevosita vorisiga aylandilar. Shu bois, 568-569 yillarda Vizantiya imperatori Yustin II huzurida bo'lgan turk elchisi imperatorning «eftaliylar shaharlarda yashaydilar yoki qishloqlardami?» degan savolga «ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari» deb javob bergan. Prokopiylar Kesariyskiyning yozishicha: «Eftaliylar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiligiga egadir. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me'yorini saqlashda vizantiyalik va forslardan hech bir qolishmaydilar».

Jamiyatda er egaligi munosabatlari shakllana boshlagan bo'lsa-da qul mehnatidan foydalanish davom etgan. Zodagonlar jamiyatda cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Zodagon vafot etsa maxsus tayyorlangan tosh dahma (maqbara)ga xotini, qullari va ulfatlari bilan birgalikda ko'milgan. Bu jamiyatda sinfiy tabaqalanish kuchayganidan dalolat beradi. Buni 1985 yilda Pop tumani hududida V asrga oid 30 dan oshiq qabrlardan topib o'rganilgan ashyoviy dalillar ham tasdiqlaydi.

Eftaliylar davrida o'troq aholi o'rtasida dehqonchilik va hunarmandchilik ko'chmanchi aholi o'rtasida chorvachilik rivojlangan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V - VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoda ko'plab g'o'za ekilgan. O'rta Osiyo paxtasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Tohariston va So'g'dda g'allachilik va bog'dorchilik rivojlangan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham etishtirilgan. Tog' va tog' oldi erlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor arg'umoqlar ko'paytirilgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o'troqlashuvi kuchaydi, buning oqibatida sug'orma erlarga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib, minglab, gektar yangi er maydonlari o'zlashtirildi. Sug'orish uslubi takomillashdi, shohariqlar chuqurlashib, sersuv sug'orish tarmoqlariga aylandi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zahariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari o'sha davrda barpo etilgan yirik sug'orish tarmoqlari bo'lgan. SHuningdek, tog' oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalanilgan. Sug'orma erlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan va ular «vag'nze» deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan.

Yerga egalik munosabatlarining tarkib topishi bilan sug'oriladigan er maydonlarining katta qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari - «*dehqonlar*» qo'lida to'plana boshlagan. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin a'zolar zodagonlar asoratiga tushib, ularga tobe bo'lgan. Xo'jalik yuritishda renta - soliq tizimi keng qo'llanilgan. Eftaliylar davrida dehqonlarga yollanib ishlashga majbur bo'lgan kishilar «*kadivarlar*», o'z eriga ega bo'lgan erkin kishilar «*kashovarzarlar*» deb atalgan.

Eftaliylar davrida ko'plab shahar-qal'alar qurilgan. Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'onlar - Naxshab vohasidagi Zahoki-Moron va Buxorodagi Varaxsha, Xorazmdagi Fir qal'alari, Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan Devori-qiyomat, Buxoro vohasidagi Kampir-Devor eftaliylarning o'ziga xos me'morchilik namunalari. Eftaliylar davrida qasrlar ikki qavatli, shifti tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan xonalardan iborat bo'lib, ular paxsa, xom va

pishiq g'ishtlardan qurilgan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangli tasvirlar bilan bezatilgan. Buxorxudotlarning qarorgohi - Varaxsha saroyi, Toshkent vohasidagi Oqtepa, Xorazm vohasidagi Firqal'alar eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunasidir.

Eftaliylar davrida Buyuk Ipak yo'li orqali Eron, Vizantiya, Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari rivojlanib, unda sug'diylar etakchi o'rinni egallagan. Muomalada sasoniy tangalari bilan birga Sug'd, Xorazm tangalari ham qo'llanilgan. Savdo orqali sug'd tili va yozuvi Sharqiy Turkistonga qadar borgan. Sug'd yozuvidan tashqari xorazmiy va eftaliy yozuvlari ham mavjud bo'lgan. Bunday yozuvlar Zangtepa, Qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan, Kofirqal'adan topilgan. Ko'chmanchi aholining ko'pchiligi turkiyda so'zlashgani tufayli turkiy til tobora ko'proq yoyilgan.

Eftaliylar davlatida Sug'dda zardushtiylikka, Tohariston va Sharqiy Turkistonda buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilgan. Saharlarda nasroniylar va yahudiy jamoalari ham mavjud bo'lgan. Moniylik dini va Mazdak ta'limoti yoyilgan.

Mazdak Hamadon (470-529) ta'limotining yoyilishiga yerlarning jamoa ixtiyoridan tortib olinib, mulkdorlar qo'lida to'planishi sabab bo'lgan. Mazdak zardushtiylik diniga asoslanib, barcha kishilar bu dunyo ne'matlaridan barobar foydalanishlari lozim degan g'oyani ilgari surgan. Shu bois mazdakchilar «Z» harfi bilan boshlanuvchi to'rt narsa: 1. Zamin (*er*), 2. Zar (*oltin*), 3. Zo'rlik (*hokimiyat*, kuch), 4. Zin (*xotin*) - jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanishi talabini qo'yganlar.

Mazdakiylik harakati kuchayib ketgach, Eron shohi Kubodshoh 429 yili eftaliylar yordamida bu harakatni bostirdi. Kubodshoh 429 yilda Mazdakni qatl ettirdi, uning tarafdorlariga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. Xisrav I Anusharvon davrida mazdakiylar harakatiga butunlay chek qo'yildi.

IV.2. Turk hoqonligining vujudga kelishi. Turk hoqonligi davrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

Eftaliylar davlati 563-567 yillarda Turk hokoni Silsivul bilan bo'lgan kurashlarda mag'lubiyatga uchrab, inqirozga yuz tutdi va o'z o'rnini yangi siyosiy kuch – ***Turk hoqonligiga*** (551-744) bo'shatib berdi.

Turkiy xalqlar tarixi masalasida I.Bichurin, N.Gumilov va boshqa turkshunos olimlar turkiy urug'lar haqidagi dastlabki ma'lumotlar xitoy solnomalarida m.a. 1756 yilga oidligini yozganlar. Xitoy manbalarida turkiylar «*Tu-kyu*», «*Xunlar*» nomi ostida 92 yil- da Oltoy tog' etaklarida joylashganliklari haqida ma'lumotlar bor. Xitoylar ularni Ashin nomi bilan ham ataganlar. P.Pelo «*Turk-yut*» so'zini turkiylar deb izohlagan. «*Turk*» atamasi kuchli, baquvvat degan ma'noni anglatib, avval qabilalar birlashmasining, keyinchalik siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomini bildirgan.

Arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (IX-X asr), buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib (XI asr) asarlarida ham turkiy xalqlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Yusuf Xos Hojib «*Qutadg'u bilig*» (Saodatga yullovchi bilim)


asarida afsonaviy turk sarkardasi Alp Er Tunga to'g'risida: «*U bilimdon, zakovatli, katta hunar egasi edi, bu fazilatlari uning shon-shuhratini dunyoga taratgan. U turk beklarining sarasi, ovozi olamni tutgan, hunari talay edi. Uning tengi topilmas edi. Forslar uni Afrosiyob deb atashgan*», deb yozadi. Turkiy xalklar tarixiga oid ma'lumotlar «*Alpomish*», «*Go'ro'g'li*», «*Manas*», «*Dala qurqut*» kabi dostonlarda ham ma'lum darajada o'z aksini topgan.

VI asrning ikkinchi yarmida Ashin urug'idan bo'lgan Asan va Tuu (460-545) turkiy qabilalar ittifoqiga asos soldilar. Tuuning o'g'li Bumin Tele qabilasini bo'ysundirgach, 551 yilda Markaziy Osiyoda ancha kuchli bo'lgan Jujanlar (juan-juanlar – mo'g'ullar, juan-juanlar g'arbga siljib, keyinchalik avarlar degan nom oldilar.) xonligini tor-mor etdi va Turk hoqonligi (551-744) ga asos soldi. U Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilingach «*Ilixon*» - Ili qag'an nomini oldi va o'z yurtini hoqon nomi bilan boshqara boshladi. Oltoydagi Utukan shahri yangi Turk hoqonligining poytaxti qilib belgilandi. Bumin o'z ukasi Istamiga birinchi sarkarda va davlatning bosh amaldori darajasini bildiruvchi - «*Yabg'u*» (*bahodir*) unvonini berdi. Aka-ukalar birgalikda davlat chegaralarini kengaytirishga kirishdilar. Turk hoqonlari janubi-g'arbiy Manjuriyada kidanlar, Enisey bo'yida qirg'izlar va boshqa qabilalarni bo'ysundirdilar. Shimoliy Xitoy davlatlari Turk hoqonligiga o'lpon to'lab turdilar.

Bumin sharqiy erlarni, ukasi Istami g'arbiy hududlarni birlashtira boshladi. Buminning o'g'li Mug'anxon (553-576) 563-567 yillarda Eftaliylar davlatini engib, O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatdi. Eftaliylar tor-mor etilganidan keyin Amudaryoning shimolidagi hududlar Turk hoqonligi, janubidagi erlar Eron davlati ixtiyoriga o'tdi.

Arab tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, 588 yilda Turk hoqonligi qo'shinlari Amudaryodan o'tib dastlab Toharistonni, so'ng g'arbga yurib Hirotni egalladilar. Garchi eronliklar keyinchalik turkiylarni engib ortga qaytargan bo'lsalarda, bu hududlar Eronga bo'ysunmay qo'yidilar. Oradan ko'p o'tmay, turkiylar Toharistondan eroniylarni haydab chiqarib, bu erda mustahkamlanib oldilar.

Turk hoqonlari va amaldorlari ilgari o'zlari yashagan xududlarda qolib, bosib olingan erlardan olingan to'lovlar, o'lponlar, sovg'a-salomlar olib turishni afzal ko'rdilar. Mahalliy zodagonlar mamlakatning ichki iqtisodiy va siyosiy hayotini o'zlari boshqardilar. Faqat jiddiy ichki ziddiyatlar, kelishmovchiliklar kelib chiqqandagina turk hoqonlari ularning ishiga aralashar edilar. Turk hoqonligining ulkan hududda tinchlikni ta'minlanganligi, bo'ysundirilgan xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik va ularning o'zlari tanlagan sohalari bo'yicha erkin faoliyat yuritishlari uchun sharoit yaratib berilishi barcha sohalarning rivojiga turtki bo'ldi. Hoqonlikda feodal munosabatlar ancha rivojlangan bo'lib, oqsuyaklarning asosiy



qismini hukmron xonadonlarning vakillari va yirik er egalari bo'lgan dehqonlar tashkil qilgan.

Turk hoqonligida ichki vaziyat notinch edi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli ijtimoiy va siyosiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar hokimiyatni zimdan emirib, xoqonlik bilan mahalliy hukmron tabaqalar o'rtasida ziddiyatning kuchayishi hoqonlikni zaiflashtirdi. 585-586 yillarda Obro'y qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

Turk hoqonligi tasarrufida birlashgan xalqlarning asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor erlardan samarali foydalanganlar. Ular asosan don, poliz ekinlari, meva, uzum, paxta, ipak, beda etishtirganlar. Bu davrga kelib, ko'plab shahar-qo'rg'onlar, sug'orish inshootlari paydo bo'ldi. Varaxshada qazilgan 12 ta kanal shular jumlasidandir.

Dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiqning ravnaqi aholining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta turtki bo'lgan. Hunarmandchilikda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, ko'ncilik keng rivojlangan. Panjikent hukmdori Divashtichning devoni ro'yxatida ko'rsatilishicha maxsus ustaxonalarda sovutlar, jibalar, dubulg'alar, oyoq kiyimlari va boshqalar tayyorlangan.

Bu davrda Samarqand asosiy savdo va hunarmandchilik markazi bo'lsa, Buxoro zargarlik buyumlari bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, Poykand, Ishtixon, Vardana va Arbinjon shaharlarida, Tavovis va Zandana kabi qishloqlarda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq ancha rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda So'g'dda pul muomalasining rivojlanganligi bu erda savdo-sotiq va bozor munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilganligini bildiradi.

Hunarmandchilik va savdo-sotiqdan davlat xazinasiga katta daromad tushgani tufayli hoqonlar Ipak yo'lini rivojlantirish va tinchligini ta'minlashga katta e'tibor berdilar. Shaharlar kengaydi, shaharlar va yirik qishloqlarda karvonsaroylar qurildi. Ayniqsa, o'troq va chorvador aholi o'rtasida savdo-sotiq ishlari rivojlanib, Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati oshib bordi. O'lkadan Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya kabi mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, tuz, sharob, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklari va hokazolar olib borilgan.

Eron bilan olib borilgan urushlar Turk hoqonligi mavqeini yanada pasaytirdi. 588 yilda hoqonlik qo'shinlarining qattiq zarbaga uchrashi, uning parchalanishiga olib keldi. 581-603 yillarda hoqonlik ikkiga: Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketdi. 630-632 yillarda zaiflashib qolgan Sharqiy turk hoqonligi Xitoy tomonidan mag'lubiyatga uchragach tugatildi. Bu vaqtda G'arbiy turk hoqonligi Tardushxon boshchiligida ancha yuksalib, O'rta Osiyoda o'z mavqeini mustahkamlab oldi. 627 yilda hoqonlik qo'shinlari Kavkazortida, Vizantiya va Eron o'rtasidagi urushda Vizantiyaga yordam berdilar. 630-651 yillarda G'arbiy turk hoqonligida o'zaro ichki nizolar kuchaydi. Buning oqibatida kuchsizlangan hoqonlik **651** yilda Xitoy qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchradi va parchalanib ketdi.

Xitoy hukmronligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida asosan Gobi cho'lining shimoliy qismlarida Ikkinchi Turk hoqonligi tashkil topdi. Hoqonlik qo'shinlari Qapag'on hoqon boshchiligida O'rta Osiyoga ham yurishlar qildi. U 711 yili Ettisuvda turgashlarni tor-mor qilib, 712 yili arablar tomonidan qamal qilingan

Samarqandga yordamga keldi. Biroq mag'lubiyatga uchrab, qaytib ketishga majbur bo'ldi. Bu O'rta Osiyoda arablar hukmronligining o'rnatilishiga qulay zamin yaratdi.

IV.3. Arablar istilosi va hukmronligi davrida O'rta Osiyo

VII asrda Arabiston yarim orolida Arab xalifaligi davlati tashkil topdi. Arabiston Markazi Xijoz hisoblanib, u erda boshqa hududlarga nisbatan dehqonchilik, sanoat va savdo yaxshi taraqqiy etgan edi. Arabistonning yirik shaharlari Makka, Yasrib (Madina) bo'lib, bu shaharlar Arabistonning o'troq va ko'chmanchi chorvadorlari bilan iqtisodiy va diniy aloqada bo'lib kelgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki Xijoz Arabiston yarim orolida eng iqtisodiy rivojlangan hudud bo'lib chet davlatlarga bo'ysunmagan. Xijozda arab davlatini tashkil topishi islom aqidalari bilan mustahkamlangan.

VI-VII asrlarda Arabiston yarim orolining asosiy aholisi baddaviylar bo'lib, ular asosan tuyalarni boqib, ko'paytirish bilan shug'ullangan, hamda quruqlik va cho'llarda ko'chib yurishgan. Arabiston yarim orolining ba'zi joylaridagina savdo va sanoat bilan shug'ullanishgan. Arab jamiyatida urug' –aymog'chilik kuchli rivojlangan bo'lgan. Alohida bir markazlashgan kuchli davlat bo'lmagan va feodal munosabatlar endi rivojlanib kelayotgan edi.

Karvon yo'li Arabistonning yirik savdo shaharlari- Makka, Yasrib (Madina), Xijozni Misr, Suriya va Vizantiya bilan birlashtirib turur edi. Tashqi savdo aloqalari bilan yirik savdogarlar, yirik sarmoyadorlar va qabila boshliqlari qiziqishgan. Ko'chmanchilar va shaharliklar o'rtasida faol savdo ayirboshlashlar bo'lib o'tgan. VII asr boshlariga kelib jamiyatda munosabatlar o'zgarib kambag'al va boylarga ajralib bordi.

Bu davrni arab tarixchilari «jaxiliyat»davri deb atashgan. , ya'ni «to'kilish», «silkinish» davri bo'lib, bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozga uchrab, oldingi diniy munosabatlar tanqid ostiga olinib, yangi diniy tasavvurlarni yaratishga urinishdi. Bu davrga kelib, Makkadagi qadimgi Kaaba masjidi alohida bir mavqeyga ega bo'lib, hammaning diqqatini o'ziga torta boshladi. Makkada hukmronlik qilib turgan qurayshlar qabilasi do'stlik-savdo jamiyatini tuzishdi. Jamiyat tomonidan 4 oylik savdo ko'rgazmasi o'tkazilib, bu davr muqaddas hisoblanadi. Haqiqiy dinni qidiruvchi xaniflar paydo bo'ldi. Bu davrga kelib Makkada yangi dinni targ'ibotchisi bo'lib quryshlarning hoshim urug'idan chiqqan Muhammad maydonga chiqdi. Muhammadning tarjimai holiga nazar tashlasak u juda erta ota-onasidan etim bo'lib qoladi va keyin cho'pon bo'lib oz amakisi qolida ishlaydi. Savdo karvonlari bilan ham yurib ko'radi, prikazchik ham bo'lib ishlab ko'radi. 25 Yoshida 40 yoshli savdo bilan shug'ullanuvchi Xadicha ismli ayolga uylanadi va butun hayotini unga bag'ishlaydi. Islom dinini targ'ib qilishni u 40 yoshida 610 yilda boshladi.

Bu davrda arablarning kuchli va xavfli qo'shinlari Vizantiya va Eron hisoblanib ular xohlagan paytlarida bu xalqning mustaqilligiga raxna solishlari mumkin edi. Mana shunday holat mamlakatni birlashtirishni taqozo etardi. Lekin turli ijtimoiy guruhlarini, turli xil madaniyatga ega bo'lgan qabilalarni birlashtirish o'zi bo'lmas edi. Buning uchun yagona g'oyaga va dinga xizmat qiladigan tizim kerak edi. Bu tizim ko'p xudolikka e'tiqod qiladigan qabilalar o'rtasidagi ziddiyat va

adovatga chek qo'yishi natijasida mamlakatdagi siyosiy parokandalikka chek qo'yishi kerak edi. Bu g'oyani targ'ib qilib Muhammad ibn Abdulloh (570-632 yy) maydonga chiqdi.

Muhammad sallolloxu alayxi vasallam yakka xudolikni targ'ib qilar ekan, barcha musulmonlar birlashishi hech qanday urug' va qabilalarga bo'linishi kerakmasligini ta'kidlaydi. U o'z g'oyalarida musulmonlarning Olloh oldida teng ekanliklarini, jamiyatda jinoyat va adolatsizlikka qarshi jazo muqarrarligi, har bir kishi qilgan ishlariga qarab taqdirlanishini targ'ib qiladi.

Shu tariqa yakka xudolik haqidagi ta'limot bilan qabilalararo va ichki nizolarga chek qo'yib birlashishiga va jamiyat oldida hammani tengligini isbotlashga uringan.

Yangi din bu Islom dini bo'lib, bu so'z arabchada «itoat», «bo'ysunish» ma'nolarini anglatadi. Muhammad paygambarning izdoshlari islom dinini qabul qilar ekanlar, ular o'zlarini musulmlar deb atashadi. Muhammad paygambar o'ziga qarshi Makkada suyuqasd uyushtirilayotganini bilgach 622 yil 12 iyuldan 12 iyulga o'tar kechasi Makkadan Yasribga (Madinaga) keldi. Ushbu kun islom olamida Hijriy musulmon yilnomasining boshlanishga asos qilib olingan.

Madina Islom uchun kurash markaziga aylandi. Muhammad paygambar vafotidan so'ng, uning xalifalari (bu so'zning ma'nosi, uning izdoshlari, elkadoshlari) ya'ni uning ishlarini shogirdlari Abu Bakr (632-634 yy), Umar (634-644 yy), Usmon (644-656 yy), Ali (656-661 yy) olib borishdi. Ularning barchasi o'z g'oyalariga sodiq qolgan xalifalar hisoblanadi. Ular Muhammad paygambar ishlarini astoydil davom ettirdilar. Ular boshqargan davrda islom dini Arabistonda to'liq o'z o'rniga ega bo'lgan va arablar o'z bosqinchilik harakatlarini boshlagan edilar.

Islom rivoji jarayonida o'lkada sunniylik ta'limoti keng yoyildi. Sunniylik oqimi islom dinidagi ikkita asosiy yonalishlardan biridir. Bugungi kunda jaxondagi barcha musulmonlarning 90 foizi sunniylikga mansub. Bu yonalish 7 asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. 8-12 asrlarda arab xalifaligidagi diniy-siyosiy kurashlar jarayonida islomdagi eng yirik yonalish sifatida shakllangan. Sunniylikda 4 ta mazhab masjud, bular xanafiya, molikiya, shofiiya va xanbaliya.

Ali hukmronligi davrida islom dinida shia mazhabi vujudga keldi (shiitlar, «shia», «guruh» so'zidan olingan bo'lib, Ali tarafdorlari bo'lib, ularning fikricha xalifalik taxti faqatgina Muhammadning qarindoshlariga nasib etish kerak deyiladi). Hozirgi davrda shialarga asosan eronlik va azarbayjonliklar mansub bo'lib, ular 4 (to'rtta) payg'ambardan faqat Alinigina tan olishadi. Shialikda xam bir necha mazhablar mavjud bolib, shariyatida ja'afariya muxim rol oynaydi. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar va boshqa Osiyo xalqlari sunniylar mazhabiga kirib, ular to'rtta payg'ambarni ham tan olishadi. Xozir jaxondagi musulmonlarning 10 foizi shialikka mansub. Shialik xozirgi vaqtda asosan Eronda xukmron e'tiqod xisoblanadi. Iroq, Livan, Afgoniston, Xindiston, Pokiston, Tojikiston va Ozarbayjonda, Turkiyada xam shialar bor.

Islom eng yosh jahon dinlardan hisoblanadi. Unga jahondagi Marokka, Aljir, Tunis, Liviya, Sudan, Somali, Iordaniya, Suriya, Eron, Arabiston yarim orolidagi davlatlar Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, Livan, Albaniya, Efiopiya, Liberiya, Fil suyagi qirg'og'idagi aholilarning 20 foizidan 98 foizigacha,

shuningdek, Hindiston, Rossiya, Boshqirdiston, Tatariston, Checheniston, Dog'iston, Ingushiston, Kabardin-Bolqar aholisining ko'pchilik qismi AQSH va boshqa davlatlar aholisi e'tiqod qiladilar. Jahonda musulmonlarning umumiy soni 700 mln. kishini tashkil etadi.

Islom dining asosiy aqidasi quyidagilar bo'lgan:

1. Xudodan boshqa iloh yo'q, Muhammad uning payg'ambari;
2. Besh mahal nomoz o'qish;
3. Zakot (beva, bechoralarga va kasallarga mehr ko'rsatish)
4. Muqaddas joylarga haj qilish.
5. Ro'za tutish.

Islom dining muqaddas kitobi Quroni Karim hisoblanadi. Allox ta'olo Quronni Muxammad (s.a.v.) ga Xijratdan 13 yil avval, Makkadagi Hiro g'orida nozil qila boshlagan. Bu xol 23 yil davom etgan. Quroni Karim turli xajmdagi 114 ta suraga bo'linadi va xar bir suraga muayyan nom berilgan.¹

661 yildan to 750 yillarga qadar halifalikni Umoviya ibn Abu So'fiyon (661-680) asos solganu moviylar sulolasi, so'ngra esa Abbosiylar (750-1258) sulolasi boshqargan.

Arab qo'shinlarini engil va og'ir otliqlar, piyoda askarlar tashkil etardi. Jang natijasida tushgan o'ljaning 5 dan 1 qismi payg'ambar avlodlariga qolganlari esa qo'shin o'rtasida bo'lib berilardi. Boshda olib borilgan urushlar jihad nomi bilan atalib, unda dinsizlarga qarshi muqaddas urush olib borganlar jannatga tushadi deb uqtirilgan keyinchalik esa Qur'onga urushlarni, o'ldirishlarni, zo'rovonliklarni ta'qiqlovchi suralar kiritildi va Islom mehr va muruvvatni targ'ib qiluvchi din sifatida xalq ongiga singdirildi. Arablar istilosi islom dini bayrog'i ostida olib borildi.

O'rta Osiyo bosib olingandan oldin arablar doim Xurosondan bosqinchilik harakatlari bilan kelib turishgan. Ularning birinchi yurishlar Amudaryodan kechib Termizga uyushtirilgan. 674-yil xalifa Muaviy topshirig'iga binoan Ubaydulla ibn-Ziyod Amudaryodan o'tib o'z harakatlarini boshlagan. U Paykand, Romitonni egallab, Buxoroga hujum qilgan va tarixiy manbalarda Toqshodaning onasi deb eslatib o'tilgan Buxoro malikasi ustidan g'alaba qozongan (Toqshoda-arab bosqiniga qadar Buxoro hukmdori bo'lgan) Malika arab bosqinchilariga -100 ming dirham tavon to'lashga majbur bo'lgan.

676 yil Said ibn Usmon Buxoroga va So'g'dning shaharlariga bosqichilik urushlarini boshlagan. Ibn Usmon bu urushda Toqshodaning onasini qo'shinlarini ham, unga yordamga kelgan Kesh, So'g'd, Nafasdan kelgan qo'shinlarni ham tormor-etdi. Yana malika tavon puli va uning yoniga 80 ta asirni to'lashga majbur bo'ldi. Bu asirlar podsho avlodlaridan bo'lgan. Shundan so'ng Sayid ibn Usmon o'z qo'shinlari bilan Buxorodan Samarqandga yo'l oldi. So'g'dliklarning bosqinchilarga qarshi harakati bir oy davom etdi. Arab qo'mondoni yarador bo'lishiga qaramay,



¹. Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусхафининг тарихи. –Т., Моварауннахр, 1995. 16 бет.

shartnoma tuzib, Termiz shahriga qadar o'z harakatlarini olib borib, 30 ming asirni o'zi bilan olib qaytdi.

Movaraunnahr davlat boshliqlari arablarga qarshi harbiy ittifoq tuzishga harakat qilib ko'rdilar. VII asrning 80 yillarida Sirdaryo bo'yidagi shaharlardan birida ular yig'ilishib, o'zaro urushlarni to'xtatishi, xalifalikka qarshi birlashib kurashish majburiyatini oldilar. Lekin Movaraunnahrdagi siyosiy-muhit va hukmdorlarning bir-biri bilan noittifoqligi xalifalikka qo'l keldi.

To 704 yilga qadar, Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim (704-715 yy) bo'lgunga qadar arablar O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari qilib turganlar. 704 yilda Ettisuvda hokimiyat turklar qo'liga o'tdi, qaysiki ular sariqlar va qoralarga bo'linadi. Qora turklarni poytaxti Toroz shahri (hozirgi Jambul) edi. Turklar so'g'dliklarga arablarga qarshi kurashda yordam bera boshladilar. 705 yilda Xuroson noibi Qutayba (O'zbekiston va Tojikiston hududiga hozirgi paytda qarashli bo'lgan Surxon va Kofirnigon daryolari etagidagi) Axarun va Shumanni istilo qilishga kirishdi. U Balxni, so'ngra Chag'aniyonni o'z qo'shinlari bilan egalladi.

706 yil Qutayba Zarafshon daryosi etagidagi vodiyni istilo qilishga kirishdi. U Marvdan Marvarudga, so'ngra Amul, undan Zamma (Kerki)ga etib bordi. Amudaryodan o'tib, Poykandga yo'naldi.

Poykand Movaraunnaxrning gullab-yashnagan, savdo-sotiq rivojlangan shaharlaridan biri edi. Bu shaharning ko'pchilik erkaklari shahardan tashqarida xalqaro savdo bilan shug'ullanishgan. Shaharda uncha katta bo'lmagan harbiy garnizon bo'lib, unga turk millatiga mansub shaxs boshliq edi. Sugdliklar 50 kundan ortiq ko'shni hududlardan kelgan yordamchi kuchlar bilan birgalikda arablarga qarshi kurashdilar. Arablar ularning qarshiligini sindirib shaharga kirdilar va aholini qilichdan o'tkazdilar. Tirik qolgan poykandliklarga esa katta tovon puli to'lash majburiyati qo'yildi. Poykand amiri etib Qutaybaning safdoshlaridan Varqa ibn Naf tayinlandi.

Qutayba shahardan ketishi bilan aholi isyon ko'tardi. Qutayba-darhol iziga qaytib, isyonni bostirdi va isyonchilarni shafqatsizlarcha jazoladi. Barcha erkaklar o'ldirildi, ayollar va bolalar asir olindi, shahar er bilan yakson qilindi. Arablarga esa 720 kgdan ortiq tilla va kumush, qimmatbaho san'at asarlari, harbiy anjomlar nasib etdi.

Poykanddagi fojea boshqalarni ko'zini ochdi. Endi So'g'd hokimi Tarxun, Buxorxudot, Xunuk, Shopirkon hokimi, 40 minglik turk otryadi boshlig'i Kurmagunon birlashdilar va Qutayba qo'shinlarini o'rab oldilar. Juda qattiq jang bo'ldi, Qutayba nochor ahvolda qoldi. Shunda Qutayba maxfiy odamlarni yuborib, so'g'd hokimi va turklar hukmdori o'rasiga sovuqchilik tushirdi. Bu davrda Qutayba qo'shimcha yordam olib, qamalni yorib chiqib qutilib ketishga muvaffaq bo'ldi. 707 yilda Qutayba Movaraunnahrga yurish qilib Buxoroning eng qadimgi shaharlaridan biri Romitonni egalladi. 709 yilda Qutayba o'z qo'shinlari bilan Buxoroga yurish qildi. Buxorxudot turklarga va so'g'dliklarga yordam so'rab murojaat qildi, lekin ular yordam yuborishmadi. Qutayba Buxoroni egalladi. Buxoro hukmdori qilib buxorxudot-Toqshodani, amir qilib o'zining odamlaridan birini tayinladi.

Amir buxorxudotni harakatlarini nazorat qilish arab gornizoniga qo'mondonlik qilishi, aholidan soliq yig'ib, g'aznaga o'z vaqtida etkazib turishi kerak edi. Qutayba farmoniga binoan shahardagi olov butxonalari machitga aylantirildi. Shahristondagi binolar badaviylar qabilalariga va yamanliklar berildi. Machitga qatnab namoz o'qiganlarga 2 dirhamdan berildi. Machitga faqat kambag'allargina qatnashdi. 710 yilda Qutayba Shumanga, Keshga, Nasafga hujum qildi. Keyin u Xorazmga yurish qildi. Bu paytda Xorazm shoh-Chag'anni akasi Xurzat xalq boshchiligida isyon ko'targandi. Qutayba 712 yil Xorazm shohga bu isyonni bostirishga yordam berdi. Isyonchilar boshlig'i Xurzat o'ldirildi. Lekin bu yordam uchun Xorazmshoh qo'shinlari arablar bilan birgalikda O'rta Osiyo xalqlariga qarshi istilochilik urushlarini olib borishga majbur bo'ldi. 712 yil Qutayba 12 ming kishilik otryad bilan akasi Abdurahmonni Samarqandni egallashga yubordi. O'zi esa xorazmlik, buxorolik va arablardan tashkil topgan qo'shinlar bilan yo'lga chiqdi. Arbinjondagi jangda so'g'diylar yutqazishdi. Qutayba Samarqandni qamal qildi. So'g'dliklar Shom hukmdoriga Farg'ona hukmdoriga yordam so'rab elchi yuborishdi. Ular yordam yuborishdi. Hoqonni o'g'li Inel boshchiligidagi Yosh yigitlardan iborat turk otliqlarini yuborishdi. Lekin Qutayba Samarqand devorlari ostiga 300 ta devor buzadigan mashina va uch joyda katta-o'ralar qazdirdi. Shunda Samarqand hukmdori Gurak (710-737) tinch yo'l bilan hal qilaylik deb murojaat qildi.

At-Tabariyni aytishicha sulh shartnomasiga ko'ra G'urak har yili 200000 dirham to'lashi, 30000 jangchini berish zardushtiylik ibodatxonalarini buzib o'rniga machitlar qurdirish kerak edi.

Samarqanddan so'ng Qutayba o'z istilochilik yurishlarini davom ettirdi.. 713 yil Farg'ona, Shoshni olish uchun yurishlar qildi. Bu janglarda arab qo'shinlari bilan bir qatorda Buxoro, Kesh, Naqshab, Xorazm qo'shinlari ham jalb etildi. Shosh poytaxti va uning atroflari yoqib yuborildi. So'ng Ustrushona hududida Xo'jand va Kosonda istilochilik yurishlari bo'lib o'tdi. 714 yilda Isfijob egallandi. 715 yil Qutayba o'z qo'shinlari bilan Qashg'argacha etib bordi. Hamma bosib olgan hududlardan tovon olib, u erlarga o'z noiblarini hukmdor etib tayinlab ketdi.

Shu yili xalifalik taxtiga Sulaymon ibn Abdumalik (715-717 yy) keldi. Xalifa o'zidan oldingi xalifa odamlarni ta'qib qila boshladi. Buni eshitgan Qutayba yangi xalifani buyruqlarini tan olmaydi. natijada u arab qo'shinlari tomonidan Farg'onada o'ldirilgan.

Arablar o'lkada er solig'i - xiroj (hosilning 1/3 qismi), chorva, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan olinadigan - zakot (daromadning 1/40 qismi), ushr (dehqonchilik mahsulotlaridan 1/10) va islom dinini qabul qilmagan aholi jon boshidan olinadigan-juz'ya soliqlarini joriy qildilar.

O'rta Osiyoda islom dinining yoyilishi mahalliy aholi asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan zardushtiylik, buddaviylik, moniylik kabi dinlarni siqib chiqardi. O'rta Osiyoda arablargacha yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar yo'qotildi, ibodatxonalar buzildi. Arab tili va arab yozuvi davlat tili va yozuvi maqomini oldi.

Umar II Movarounnahrda murakkab vaziyatni hisobga olib, bo'ysundirilgan xalqlar bilan murosachilik siyosatini yurgiza boshladi. U Movarounnahr aholisini islomni qabul qilishga chaqirib, imtiyozli farmon qabul qildi. Unga ko'ra, arablarga


yangi erlarni zabt etish man qilindi va moliyaviy islohat o'tkazish ko'zda tutildi. Arablar bilan bir qatorda yangi musulmonlardan ham juzya va xiroj solig'i olish bekor qilindi. Xiroj yerlarini davlat mulki sifatida saqlab qolish maqsadida arablarga o'z erlarini kengaytirishni man etdi va hijriy 100 yildan (719 y.) keyin sotib olingan barcha xiroj erlarini qaytib berishni buyurdi. Shu paytgacha olingan erlardan esa xiroj emas ushr (o'ndan bir qism) soliq olish ko'zda tutildi.

Umar II islohatlaridan ruhlangan Samarqand zodagonlari Umar II ga elchilar yuborib Samarqand shahristonini qaytarib berishni so'rashdi. Umar II Samarqand hokimi Sulaymon ibn Abus – Sariyaga maktub yozib, qoziga bu ishni hal qilib berishni topshirgan. Qozi shikoyatni ko'rib chiqib, bu ishni samarqandliklar foydasiga hal qilish bilan birga, shahardan arab qo'shinlari olib chiqib ketilishi kerak, deb hukm ham chiqardi.

Bu vaqtda islomni qabul qilgan mahalliy zodagonlar juz'ya va xiroj soliqlarini to'lamay qo'yishi oqibatida xazinaga tushadigan daromad kamayib ketdi. Shundan so'ng xalifalik barcha aholidan belgilangan soliqlarni undirish talabini qo'ydi.

Bularning barchasi mahalliy aholining noroziligiga sabab bo'ldi va ozodlik harakatlari avj oldi. Arablar zulmiga qarshi dastlab 720 - 722 yillarda Sug'diyona aholisi Samarqand ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida qo'zg'olon ko'tardi. Xuroson noibi Said ibn Amir al-Xaroshiy qo'zg'olonni bostirdi. Bunday qo'zg'olonlar 723 yilda Farg'ona, Shosh va Nasafda, 725-729 yillarda Samarqand, Buxoro va Xuttalonda, 733-737 yillarda Sug'diyona va Toharistonda bo'lib o'tdi. Faqat Nasr ibn Sayyor noibligi davri (738-748) da o'lkada ma'lum osoyishtalik o'rnatildi. 746 yilda Xuroson va Movarounnahrda abbosiylar harakatiga boshchilik qilish uchun Abu Muslim (727-755) yuborildi. U aholini Qur'oni Karim va Hadislarga amal qilish, Muhammad alayhissalom avlodlariga bo'ysunishga da'vat etdi. Bu da'vat Xuroson va Movarounnahrda keng yoyildi. 749 yilda Abu Muslim qo'shinlari Damashqni egallab, xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi. Taxtni abbosiylardan Abul Abbos Saffoh (749-754) egalladi. Biroq, Abu Muslimdan cho'chigan xalifa Abu Ja'far Davonaqiy - Mansur (754-775) 755 yilda Makkaga yo'l olgan Abu Muslimni o'ldirtirdi.

VIII asrning 70-80 yillarida Movarounnahrda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga Hoshim ibn Hakim (Muqanna) boshchilik qildi. Bu qo'zg'olon tarixda «Muqanna», «ok kiyimlilar» qo'zg'oloni nomlari bilan mashhur. Hoshim ibn Hakim Abu Muslim davrida kichik qo'shin boshlig'i bo'lgan. U Mazdak g'oyalarini targ'ib qilib, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgani uchun Bag'dodda zindonga tashlangan. U 776 yilda zindondan qochib Marvga, undan Movarounnahrda kelib, qo'zg'olonga boshchilik qildi. Sug'diyona xududida keng tarqalgan bu qo'zg'olonning markazi Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal'asi edi. Tahlikaga tushgan xalifa Mahdiy 777 yilda Nishopurga kelib, Hirot amiri Said ibn Xoroshiy va Xuroson noibi Maoz ibn



Muslim boshchiligidagi qo‘shinlarni Samarqandga yubordi. 780 yilda Kesh vohasida hal qiluvchi janglardan so‘ng Muqannaning og‘asi Qabzam 3000 kishilik va Sarham 3300 kishilik qo‘shinlari bilan arablarga taslim bo‘ldilar. Beruniyning yozishicha, Muqanna qarorgohi qamal qilingach, yonib turgan tandirga o‘zini tashlab halok bo‘lgan.

Qariyb 10 yil davom etgan Muqanna qo‘zg‘oloni xoinlik, turli toifa va tabaqalarning birlashmaganligi va o‘z manfaatlari doirasidan chiqa olmaganliklari tufayli mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, u o‘z erki, ozodligi va Vatan mustaqilligi uchun kurashish muqaddas burch ekanligi haqida tarixiy saboq beradi.

Texnologik usullar: «BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma‘lum bir sohasida eks’ert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* to‘shiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **eks’ert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy to‘shiriq taqsimlanadi.



1. Hamma yakka tartibdagi to‘shiriqni bajaradi.



2. Barcha guruh a‘zolarining mini-ma‘ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun eks’ert varag‘i bo‘yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



7. S’iker yoki guruh barcha a‘zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

Nazorat savollari

1. Eftaliylar O‘rta Osiyo xalqlari hayotida qanday iz qoldirgan?
2. Kidariylarning asosiy mashg‘uloti nima bo‘lgan?
3. Turk hoqonligi nima uchun ikkiga bo‘linib ketgan?
4. Garbiy Turk xoqonligi xaqida nimalar bilasiz?
5. Turk hoqonligining davlat boshqaruvi xaqida gapirib bering.

6. Hoqonlikdagi madaniy hayot, hunarmandchilik, savdo –sotiq qanday kechgan?
7. Arablar istilosida jonbozlik ko'rsatgan sarkarda va uning faoliyati haqida gapirib bering.
8. Arab halifaligi tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi qachon yakunlandi
9. Arablar egallagan hududlarda qanday soliq turlarini joriy etdilar?
10. Arablar istilosiga qarshi xalq qo'zg'olonlari qaerda bo'lib o'tdi?
11. Muqanna qo'zgoloni va uning tarixiy ahamiyati haqida gapiring.
12. Arablarning davlat boshqaruvi va soliq siyosati xaqida nimalarni bilasiz?
13. Islomda qanday mazhablar mavjud.
14. Arab xalifaligining zaiflashuvining sabablarini ayting ?
15. Arablarning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarining oqibatlari?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
3. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001.
4. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.– Тошкент, 2013.
5. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
6. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
7. O'zbekiston tarixi.S. Xolboyev va b. – Т.: Universitet, 2005.
8. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.
9. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
10. Shamsutdinov R, Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -Т.: Akademnashr, 2019.
11. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқарув тарихи.-Тошкент: Академия, 2006.
12. Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусхафининг тарихи. –Т., Моварауннахр, 1995. 16 бет.

V BOB. IX – XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA IQTISODIIY HAYOT. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI

Asosiy tushuncha va atamalar:

Movarounnahr, Tohiriylar davlati, Safforiylar davlati, Somoniylar davlati, Ismoil Somoniy islohotlari, Buxoro - islom dunyosi markazi, iqto, iqtodorlar, korandalar,

savdo uyushmalari, qoraxoniylar davlati, ilekxonlar (noiblik), gʻaznaviylar davlati, saljuqiylar davlati, qoraxitoylar, Xorazmshoh-Anushteginlar sulolasi, mulkdorlar, kadxudo, kadivarlar.

Renessans, ilm-fan, arab yozuvi, turk, arab, fors tillari, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, buyuk kashfiyotlar, islom dini, sufiylik, tariqatlar, turkiy adabiyot, forsiy adabiyot, binokorlik, meʼmorlik, maqbaralar, minoralar, jome masjidlar, madrasalar, maktablar.

V.1. IX- XII asrlarda yuz bergan ilk uygʻonish (renessans) davrining yuzaga kelishigataʼsir koʻrsatgan tarixiy shart- sharoitlar va omillar

Fanda “Uygʻonish davri” deb ataladigan davr Gʻarbiy va Markaziy Evropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba “uygʻonish” atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari oʻz asarlarida ishlatadi. “Uygʻonish”, “uygʻonish davri” atamalari XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, koʻproq antik davr merosini, yaʼni antik madaniyatga oʻxshash madaniyatni qaytadan “tirilishi”, “uygʻonishi” maʼnosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qoʻllanila boshlandi. Shu maʼnoda koʻpchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini oʻziga xos xususiyatlarni ham “uygʻonish” davri deb atalishini yuqoridagidek shartli deb taʼkidlaganlar.

IX-XII asrlar Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va maʼnaviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri boʻldi. Arab xalifaligi tarkibiga kiritilgan oʻlkalarda arab tili xalifalikning davlat tili boʻlsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini oʻzlashtirishga intilish kuchli boʻlgan. Natijada Movaraunnahrda xatto oʻz ona tilidan koʻra arab tili va yozuvini oʻzlashtirib olgan bilimdonlar paydo boʻldi.

Damashq, Qohira, Bagʻdod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda Oʻrta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga oʻz hissasini qoʻshgan avlod-ajdodlarimiz bu davrga kelib koʻpaya bordi. Bagʻdod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu erda “Bayt ul-hikma”- (“Donishmandlar uyi”) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Maʼmun davrida (995-997-y.) “Donishmandlar uyi”-“Bayt ul-Hikma”-“Maʼmun akademiyasi” (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm oʻchogʻlarida Sharqning mashhur va maʼlum olimu-allomalari tahsil koʻrganlar. Ular orasida Ahmad Fargʻoniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

V.2. IX asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat. Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy hayot

IX asrga kelib Oʻrta Osiyo, xususan Movaraunnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka boʻlgan intilishlari kuchayib ketdi. Chunonchi, xalifalikning ichki hududlarida ham

ziddiyatlar keskinlashib borayotgan edi. Xalifa Xorun ar-Rashid vafotidan keyin uning o'g'illari Ma'mun va Amin o'rtasida o'zaro kurash boshlanib ketdi. Mahalliy sulola vakillari bu kurashlarga aralasha boshladilar.

Hirod viloyatining Bushang shahridan bo'lgan Tohir ibn Husayn o'z nomidagi sulolaga asos soldi. Bu davrda Xorun ar-Rashidning kichik o'g'li Ma'mun (asli ismi Abdulla bo'lgan) Xurosonning noibi edi. Amin va Ma'mun o'rtasida hokimiyat uchun bo'lgan kurashda Tohir ibn Husayn Ma'mun tomonidan turib Aminga qarshi kurashdi. Ayrim manbalarning guvohlik berishicha, 813-yilda Ma'mun xalifalik markazi Bog'dodni egallaydi hamda bir necha yil mobaynida Tohir ibn Husayn xalifa saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qiladi. 821-yilda esa Tohir ibn-Husayn Xurosonga noib etib tayinlanadi (o'sha davrda Movaraunnahr ham Xuroson tarkibiga kirar edi). Tohir ibn-Husayn Nishopur shahrini o'zining qarorgohi etib tanladi. U o'zi noiblik qilayotgan viloyatlarni xalifalikdan mustaqil boshqarishni orzu qilardi. Natijada Tohir xalifalikdan mustaqil siyosat yurgizishga harakat qildi. Noiblikka o'tirgandan so'ng oradan ko'p o'tmay Tohir xutba nomozidan xalifaning nomini chiqarib tashlaydi. Bu esa uning xalifa Ma'munga qarshi ochiqdan ochiq isyoni belgisi edi.

Ba'zi manbalarda qayd etilishicha, 822-yilda Tohir ibn Husayn halifa Ma'mun odamlari tomonidan o'ldirildi. Uning o'rniga Talxa ibn Tohir (822-830-y.) noib etib tayinlandi.

Tohiriylar davlat boshqaruvida turli toifa va qatlamlar mavjud edi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki, Tohiriylar qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida er-suv masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Shu soha bilan shug'ullanuvchi qonunshunoslar "Kitob alkuniy" nomli qonunlar to'plamini tuzdilar.

IX asrning 60-70-yillaridan e'tiboran tohiriy hukmdorlarga qarshi xalq harakatlari kuchaydi. Bu harakatga G'oziyalar boshchilik qildilar. ("G'oziyalar" asosan ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag'al hunarmandlar va ersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin). G'oziyalar harakatini aka-uka Yoqub va Amir binni Lays boshqardilar. Ular dastlab Seyistonda hokimiyatni qo'lga olgach, 873 yilda tohiriylarning qo'shinlariga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar va Xurosonda hokimiyat Safforiylar (misgarlar, Yoqub va Amir asli hunarmand-misgar-"saffor" edilar.) qo'lga o'tib ketdi.

Endi bu davrda somoniylar siyosiy maydondagi kurashda erkin harakat qila boshladilar va ular Movaraunnahrda markazlashgan bir butun davlat barpo qilishga kirishdilar.

Somoniylar davlatiga Somon qishlog'i (Balx yaqinida, ba'zi manbalarda esa, - Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solgan. Xalifa Ma'munga bo'lgan sadoqatlari evaziga 819-820-yillarda Somonxudotning nabiralari Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yahyo Choch va Ustrushonaga, Ilyos Hirodga hokim etib tayinlandilar.

839-840-yillarda Nuh ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustahkamladi. U So'g'dning bir qismi va Farg'onaga hokim bo'lib oldi. Lekin somoniylar davlatini bunyod etishda Ahmadning hissasi ko'proq bo'ldi. Uning Nasr, Ya'qub, Yahyo, Asad, Ismoil, Is'hoq va Homid ismli o'g'illari bor edi. Nuh ibn Asad 842 yili vafot etgach, Samarqandni ukalari Ahmad va Yahyo boshqardi; keyin

hokimlik Nasr (865-892) qo'liga o'tdi. 859-yilda Yahyo ibn Asad vafot etgach, Choch va Ustrushona Ahmadning ikkinchi o'g'li Ya'qubga nasib etdi. Keyin tashabbus Ismoil ibn Ahmad qo'liga o'tdi. Buxoroda tohiriylar mavqei sust edi. 874 yilda Husayn ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari iltimosi bilan Nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmad (849-892)ni hokim qilib jo'natadi.

Nasr Movaraunnahrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Xalq bu ishda unga xayrxoh edi. 875-yilda u Shovga (Turkiston yaqinida)ni qo'lga kiritdi. Xalifa Mu'tamiddan Movaraunnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo'ldi. Bu paytda Buxoroda kuchayib ketgan Ismoil akasiga tobe bo'lishni istamadi. 888-yili ikki o'rtadagi jangda Nasr engildi. 892-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movaraunnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi (892-907). 893 yilda u Tarozni, so'ng Ustrushonani qo'lga kiritdi.

Mustahkamlanib borayotgan Somoniylar davlatini zaiflashtirish maqsadida Arab xalifasi 898 yilda Movarounnahr hokimligidan Ismoilni tushirib uning o'rniga safforiylar sulolasidan Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. Ismoil 899 va 900 yillardagi harbiy to'qnashuvlarda Amr ibn Lays boshliq safforiylar qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Xalifa Ismoil ibn Ahmadni hokim sifatida tan olishga majbur bo'ldi.

997 yili Nuh II ham, Sabuktegin ham vafot etadi. Nuh II ning o'g'li Mansur ibn Nuh (997-999)ga qarshi Nishopur hokimlari Bektuzin va Foyiq isyon ko'tardilar. Amirning Mansurga e'tiqodi zo'rqligini nazarda tutib, isyonchilar amirning ko'ziga mil tortadilar. Mansur ibn Nuh vafotidan so'ng uning ukasi Abdulmalik II ibn Nuh Buxoro taxtiga o'ltirdi. Mahmud intiqom bahonasida Bektuzin va Foyiqqa qarshi qo'shin tortib butun Xurosonni bosib oldi. Abdulmalik ibn Nuh qo'lida faqat Movaraunnahr qoldi.

Ko'p o'tmay qoraxoniylar xoni Nasr Iloqxon Buxoroni zabt etdi. Amir xonadoni asirga olindi. 999-yilda Somoniylar davlati tugatildi.

Somoniylar Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa Ismoil Somoniy hukmronligi davrida kunning dolzarb masalasiga aylandi. Shuning uchun Ismoil bir qancha islohotlar o'tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri **davlatni boshqarish ma'muriyatini** joriy qilish bo'ldi. Bu islohotga binoan davlatni idora qilish **saroyi** (dargoh) va 10 ta **devon** (harbiy -fuqaro mahkamalari) tashkil etildi.

Somoniylar hukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmuini dargoh va devonlarga bo'linishi ma'lum darajada rasmiy bo'lgan. Chunki saroyning nufuzli kishilari ko'p xollarda devonlarning ishlariga aralashib turganlar.

Devonlar orasida vazir yoki «xo'jai buzruk» devoni alohida o'rin tutgan. Bu devonga boshqa hamma devonlar bo'ysungan. U hamma ma'muriy, siyosiy va xo'jalik mahkamalarini nazorat qilgan. Shuningdek, "mustaufiy devon", "Devon Amir-al-mulk" yoki "al-rasayi", "Sohib ash-shurat" va boshqalar ham devondagi turli sohalarni idora qilishgan.

Devonlarning aytarli hammasini viloyatlarda boshqarmalari bo'lgan. Viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora qilingan. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanafiylar mazhabiga mansub ruhoniylar hamma diniy lavozimlarni o'z qo'llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig'i "ustod", keyinchalik "Shayx ul-islom" deb atalgan. "Ustod" dan so'ng o'z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida "xatib" turgan.

Yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: mulki sultoniylar, xususiy shaxslarga tegishli mulk, vaqf mulklari, jamoa mulki.

Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirxamni tashkil qilgan.

Xuroson va ayniqsa, Movaraunnahr dehqonchilik o'lkalari qatoriga kirgan. Bu erlarda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangan. Ko'plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida Shopurkon, Shohrud, Karmana, Poykand, Samarqand vohasida Barj (Darg'om), Barmsish, Buzmadisoy, Ishtixon kabi kanallar shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlagan.

Somoniylar davrida Metallurgiya sohasida ham katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Yozma manbalar va olib borilgan arxeologik qazish ishlarga qaraganda bu davrda kon sanoati taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Bu davrda Badaxshonda kumush, oltin, billur, lojuvard kabi qimmatbaho Metall va toshlar qazib olish davom etgan. Ustrushonaning Mink tumanida katta miqdorda temir rudasi, Buttamdaoltin, kumush, mis va boshqa Metallar, Tuzkon ko'lida tuz, Farg'onadagi Nokad degan joydan oltin, kumush, Isfara yaqinida toshko'mir qazib olingan. Farg'onada neft ham borligi yozma manbalarda qayd qilingan.

O'rta Osiyoda somoniylar davrida qog'oz ishlab chiqarish ham yaxshi rivojlangan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib, undagi qog'ozlarning mahsuloti faqat O'rta Osiyo yoki Sharqda emas, balki Evropada ham mashhur bo'lgan. Samarqand qog'ozining olti navi manbalarda qayd qilingan.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda bo'lgan. Ayniqsa, karvon yo'llari bo'ylab joylashgan, shaharlarda bir nechtdan bozorlar bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bo'lgan.

V.3. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Ma'muniy Xorazmshohlar va Saljuqiylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvol

Qoraxoniylar davlati Ettisuv hududidagi Qarluq (756-940) davlati o'rnida tashkil topdi. Uning asoschisi yag'mo qabilasi biyi Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (915-955) hisoblanadi. Birining poytaxti Bolasog'un bo'lib, oliy hokimiyat Yoshi katta bo'lgan xoqon tomonidan boshqarilgan; ikkinchi davlatning poytaxti Tarozi, keyinchalik Qoshg'ar bo'lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar Somoniylar davlatidagi milliy nizolardan ustalik bilan foydalandilar. 992-yilda Qoraxoniylar xonlaridan Hasan Bug'roxon, 996-yili Nasr Somoniylar poytaxti Buxoroga yurish qilishdi. Bu yurishlarni qaytarishda G'aznaviylar hukmdorlari

Sabuqtegin, Mahmud Gʻaznaviylar yordam berib, buni evaziga kattagina hududlarni (Xuroson va b.) egasiga aylandi.

1001-yilda Sulton Mahmud Gʻaznaviy Qoraxoniylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni ikki oʻrtadagi chegara qilib belgiladi. Somoniylar davlati oʻrnida ikki ulkan davlat tashkil topdi:

Birinchisi, Qoshgʻardan Amudaryogacha choʻzilgan Sharqiy Turkistonning bir qismida, Ettisuv, Shosh, Fargʻonaning qadimgi hududlarini oʻz ichiga olgan Qoraxoniylar davlati.

Ikkinchisi, Shimoliy Hindiston sarhadlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirgʻoqlarigacha choʻzilgan hamda hozirgi Afgʻoniston va shimoliy- sharqiy Eronni oʻz ichiga olgan Gʻaznaviylar davlati edi.

XI asr oʻrtalarida tamgʻochxon unvonini olgan qoraxoniylar Ibrohim ibn Nasr gʻarbiy Qoraxoniylar davlatining poytaxtini Oʻzgandan Samarqandga koʻchirdi.

XII asr boshlarida qoraxitoylar Bolasogʻunni egallaydilar. 1138 yilda qoraxitoylar goʻrxoni Sulton Sanjarning qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xoʻjand yaqinida magʻlub etadi. Shahar talanib katta tovon undirilgan boʻlsa-da, bosib olinmadi.

1141 yilda qoraxitoylar yana Movarounnahrda bostirib kirdilar. Bu gal jang Samarqand yaqinidagi Qatvon choʻlida boʻldi. Jangda sulton Sanjar bilan Mahmudning birlashgan kuchlari tor-mor keltirildi.

Soʻnggi qoraxoniylar qoraxitoylarga tobelikdan qutulgan edilar. Biroq 1212 yilda Alovuddin Muhammad Xorazmshoh gʻarbiy qoraxoniylar davlatining xoqoni Usmonni oʻldirib, Samarqandni oʻz mulklariga qoʻshib oldi.

Qoraxoniylarda Qoshgʻar va Bolasogʻun poytaxt sanalib, ulugʻ xon shu shaharlardan birida qarorgohda oʻtirgan. Ulugʻ xoqon yoki ulugʻ **xonul-xoqon** degan nomda yuritilgan. Arab manbalarida mazkur unvon **sulton ul-salotin**, fors tarix asarlarida **shahanshoh**ga muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi oliy unvon qoraxoniylar davri kitoblarida **tamgʻochxon** deb ham yutirilgan.

Qoraxoniylar davlati markazlashgan davlat emas edi, xoqonlik hududlari el va viloyatlarga boʻlinib, eloqxonlar tomonidan idora etilgan. Qoraxoniylar davlati boshligʻi lavozimi, xoqonning taxti merosiy sanalgan. Xoqonlikda va unda quyidagi mansablar boʻlgan: **ulugʻ hojib, oshchi, bitikchi, kotib, qushchi va boshqalar**.

Qoraxoniylar davrida erga egalik qilishdagi **iqto** eri iqtodorga butunlay merosiy qilib, nasldan-naslga oʻtadigan boʻldi.

Gʻazna shahrini Xurosonning siyosiy markaziga aylanishi X asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Gʻaznaviylar davlatining asoschisi Sobuqtegin boʻlib, bu davlat uning oʻgʻli Mahmud Gʻaznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi Mahmud Gʻaznaviyning istilochilik yurishlari tufayli shimoliy va shimoliy-gʻarbiy Hindistondan Chagʻaniyon va Xorazmgacha choʻzilgan boʻlib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi. Oʻz davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqoʻl hukmdori boʻlgan Mahmud Gʻaznaviy 1030-yilda vafot etadi. Uning oʻgʻli Maʼsud (1030-1041) otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi.

Mahmud Gʻaznaviyga rasman tobe boʻlgan, lekin amalda mustaqil boshqariladigan Xorazm shohi Xorun ibn Oltintosh 1034-yilda Xorazmni butunlay

mustaqil deb e'lon qildi va katta qo'shin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Ma'sud tomonidan sotib olingan kishilar Xorazm shohi Xorunni o'ldiradilar. Uni qo'llab-quvvatlagan qoraxoniylar qo'shini yana Samarqandga qaytib ketadi. Shundan so'ng Sulton Ma'sud qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi va shu yo'l bilan g'aznaviylar hokimiyatiga bo'lgan xavfni bir oz kamaytiradi. 1034-1037 yillarda Xurosonda saljuqiylar turklarning davlati tashkil topib, ular Tug'rulbek boshchiligida Xurosonning katta qismini bosib olishdi. Sadriddin al-Xusayniyning "Axbor ad-davla as-saljuqiyya (Saljuqiylar davlati haqida xabarlar) asari saljuqiylar hukmronligi davri tarixi xaqida ma'lumot beradi.

Markaziy Osiyo (saljuqiylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar sulolalari), Kavkaz oldi (Ozarbayjon otabeklari, shirvonshohlar, Gurjiston), Eron (Fors otabeklari davlatlari, saljuqiylar amirlarining mulklari) va Iroq (Bag'dod xalifaligi, Mosul otabeklari) tarixiga oid mazkur manbada juda kam o'rganilgan davr tarixi keng yoritiladi. O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda ham al-Husayniy asari ko'pgina bo'shliqlarni to'ldirib, o'rganilmagan tarix sahifalarini keng yoritadi.

"O'g'uz va boshqa turkiy qavmlarga yo'l boshchilik qilgan saljuqiylar 1040 yil 24 mayda Dandanakon jangida g'aznaviylar sultoni Mas'ud ibn Mahmud lashkarini butunlay tor-mor etib, g'arbga qarab yurishlarini davom ettirdilar. Jiddiy bir qarshilikka duch kelmagan saljuqiylar ketma-ketlik bilan Oli Bo'ya (buvayhiylar) sulolasiga mansub hududlarni o'z tasarruflariga kirgizib, 1055 yili Bag'dodni ham zabt etdilar va xalifa Qoim bi amrilloh saljuqiylarning eng yoshi ulug' peshvosi To'g'rulbekka barcha qaram hududlar ustidan hukmron sulton "Sulton al-Mashriq va-l-Mag'rib" unvonini berdi. Sulton To'g'rulbekning vorislari Alp Arslon va Malikshoh bu bosqinchilik siyosatini islom dinini yoyish va shariati islomning muhofazasi shiori ostida davom ettirdilar. Sulton Malikshoh hukmronligining oxirgi yilida (1092) saljuqiylar imperiyasining chegaralari sharqda Qoshg'ardan g'arbda O'rta er va Marmar dengizlari, shimolda Kavkaz va janubda Yamangacha cho'zilgan edi. Saljuqiylar Markaziy va G'arbiy Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti hamda tarixida sezilarli iz qoldirgan"¹.

Saljuqiylar davlatining sultoni Tug'rulbek (1038-1063) Movaraunnahrda hukmronlik qilayotgan qoraxoniylar bilan do'stona munosabatlar o'rnatdi. Lekin uning vorisi Alp Arslon (1063-1072) Amudaryoning o'ng sohilidagi erlarga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Vizantiya imperatori Roman IV Diogen qo'shinlarini mag'lub etdi. Undan keyin taxtga o'tirgan Malikshoh (1072-1092) 1089-yilda qoraxoniylar o'rtasidagi ichki nizolardan foydalanib Buxoro va Samarqandni egalladi va katta o'lja bilan orqaga qaytdi. Lekin Qoraxoniylar Saljuqiylarning yarim vassaliga aylandilar. Malikshohning o'limidan keyin Saljuqiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar qizib ketadi va 1118 yilda hokimiyat buyuk saljuqiylar sulolasining so'nggi yirik vakili Sulton Sanjar (1118-1147) qo'lga o'tadi. Uning davrida Saljuqiylar davlatining poytaxti Marv shahriga ko'chirildi. 1141-yilda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar va uning vassali, ittifoqdosh qoraxoniylar Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari o'rtasida, Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangda

¹Садриддин ал-Хусайний Ахбор ад-давла ас-салжукийя (Салжукийлар давлати хакида хабарлар) . Тошкент-Панжикент-2018 11-6

qoraxitoylarning g'alaba qilishi Saljuqiylar davlatini ancha zaiflashtirdi. Saljuqiylarning mag'lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi, 1142-yilda esa Nishopurga yurish qildi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqardi va Xorazmshoh Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi ko'chmanchi Guz qabilalar berdilar. Ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uni asir oldilar. Guzlar himoyasiz qolgan Marv, Nishopur shaharlarini talab, o't qo'ydilar. Sulton Sanjar 1156-yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo'lsa ham saljuqiylar davlatini tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi.

V.4. Anushtegin Xorazmshohlari davlatining tashkil topishi.

Xorazmshohlar davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot

Xorazm somoniylar davrida ularga tobe edi. Ular Somoniylar davlati tugaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Lekin Movaraunnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Ma'sudga qaram edi. G'aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda Saljuqiylar hukmronligi o'rnatilgandan keyin Xorazm dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilgan bo'lsa-da, tez orada Saljuqiylarga qaram davlatga aylandi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishida ko'p xizmat qilgan hukmdor Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156) bo'ldi. Saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Xorazmni hukmdori bo'lgan Anushteginning nevarasi Otsiz o'zi tobe bo'lgan Saljuqiy sultonlarining har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, diplomat va mohir sarkarda bo'lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm erlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimi erlarini, Mang'ishloqni bosib oladi. Shundan so'ng u bir necha bor (1138, 1141, 1142, 1147-1148-yy.) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va mag'lubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo'lib qoldi. Lekin shunga qaramasdan u Xorazmni mustaqilligi uchun mustahkam asos yarataoldi. Sulton Sanjarning o'limidan so'ng (1157 y.) Saljuqiylar davlati deyarli bo'linib ketdi va Xorazmni mustaqil davlat sifatida siyosat olib borishi uchun keng yo'l ochildi. Muhammad Otsizning o'limidan so'ng o'g'li Elarslon taxtga o'tirdi. Elarslon vafot so'ng taxtni uning kichik o'g'li Sultonshoh egallaydi. Arslonning katta o'g'li Alouddin Takash qoraxitoylar yordami bilan ukasi Sultonshohdan taxtni tortib olishga erishdi. Alouddin Takash (1172-1201) o'z davlatini yanada mustahkamlash uchun Movarounnahr, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Xorazmshoh Takash XII asrning 80-yillarida Xurosonni ba'zi bir hududlarini qo'lga kiritdi. 1187 yilda u Nishopurni, 1192 yilda Ray shahrini, 1193 yilda Marv shahrini egalladi. Bag'dod xalifasi Nasr (1180-1225) va G'arbiy Saljuqiylar sultoni Tug'ul II o'rtasidagi nizodan foydalanib, Takash qo'shinlari 1194-yilning mart oyida Tug'ul II ga qarshi urush ochdi va uni engib Hamadon shahrini egalladi. Tug'ul II esa jangda o'ldirildi.

Xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqdilar va 1196 yil iyulida xorazmliklar xalifa qo'shinlarini engdilar. Shu tariqa Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'lga o'tdi va davlat hududi birdaniga ikki baravar kengaydi. 1200

yilda Takash vafot etdi. Takash judaog'ir vaziyatda Old Osiyo va O'rta Osiyoning katta qismini birlashtirib qudratli davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Takashdan so'ng Xorazm taxtiga uning o'g'li Alouddin Muhammad o'tirdi (1200-1220). Muhammad Xorazmshoh O'rta Osiyoni butunlay egallagandan so'ng G'arbga yurish qildi va tez orada Eron va Afg'onistonni ham bosib oldi. Hattoki, Bag'dod xalifasini ag'darishga urinib ko'rdi.

V.5. IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqini ta'minlagan O'rta Osiyolik buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini halifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Davlatni boshqarishda halifalik ma'muriyati bilimdon kishilarga muxtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar oz bo'lib, borlari xam zaif edi.

762 yili halifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chdi. Tez orada Bag'dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu erda "Bayt ul hikma" ("Donishmandlar uyi") - Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Abbosiy halifalardan Xorun ar Rashid (786- 809) va al Ma'mun (813-833) nafaqat ilm-fanga hayrixohlik bilan qaradilar, balki ularning rivojiga homiylik ham qildilar. Xorun ar Rashid davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada ko'plab nodir kitoblar jam etilib, bu erda tarjimonlar boshqa tillardagi adabiyotlarni arab tiliga o'girar edilar. IX asr o'rtalariga kelib akademiya faoliyatida o'rin tutgan tarjima davri turli fan sohalariga oid kashfiyotlar avj olgan davr bilan almashdi. Damashq, Qoxira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz ko'paya bordi.

995 yil Gurganj amiri Ma'mun ibn Muhammad ibn Iroq janubiy va shimoliy qismlarga bo'lingan Xorazmni yagona bir markazga birlashtirib Afrig'iyalar sulolasiga barham beradi. Katni bosib olib



Muso al-Xorazmiy
(783-850)

poytaxtni Gurganjga ko'chiradi va o'zini Xorazmshoh deb e'lon kiladi.

Uning vorisi Ali ibn Ma'munning taklifi bilan 1004 - 1005 yillarda Abu Nasr ibn Irok, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Al Xo'jandiy, Al Xorazmiy, Ibn al Hammar, Abdu Maliu as Solibiylar Gurganjga to'planadilar. SHuningdek, ular orasida Sharqning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan ulug' allomalar ham bor edi. Shu tariqa 1004 yildan boshlab Gurganjda "Dor ul hikma va maorif" - Xorazm Ma'mun akademiyasi (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki

ilm o'choqlarida SHarqning mashhur va ma'lum olimu allomalari faoliyat olib borganlar.

Muhammad ibn Muso **al-Xorazmiy** (783-850) qadimgi Xorazm diyorida tug'ilgan. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach (813 y.) Muhammad Muso al-Xorazmiyni o'zi bilan birga Bag'dodga olib ketadi va u erda tashkil etilgan "Bayt ul-Hikma"ga boshliq etib tayinladi. Bag'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movaraunnahr olimlari bilan ijod qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning "Al Jabr al muqobala" ("Teng lamalar va qarshilantirish"), "Hisob al-Hind" ("Hind hisobi"), "Kitab surat al-Arz" ("Er surati haqida kitob"), "Kitab at-Tarix" ("Tarix kitobi"), "Kitab al-Amal Bil Usturlabat" ("Usturlob bilan ishlash haqida kitob") kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiyyaratgan 20 tadan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasigina etib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida "Aljabr va al-muqobala" kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. "Al-gebra" atamasi ushbu kitobning "al-jabr" deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematikada "algoritmi" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Bu risola XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga



Ahmad al-Fargʻoniy (977-865)

tarjima qilindi. Xorazmiyning "Zij" ("Astronomik jadval"), "QuYosh soati haqida risola" asarlari ham falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir **al-Fargʻoniy** 797-865 yillarda yashab ijod qilgan vatandoshimizdir. U matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qildi. Ahmad Fargʻoniyning ijodiy faoliyati Bag'dodda ulug' mutaffakir olim Al-Xorazmiy rahbarligidagi "Bayt ul-Hikma" bilan bog'liqdir. U Bag'dod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. Ahmad Fargʻoniyning "Kitob fi Usul ilm an-Nujum"

("Falakiyot ilmining usullari haqida kitob"), "Falakiyot risolasi", "Falak asarlari sababiyati", "Al-Majistiy", "Ilm-xayya", "Al Fargʻoniy jadvallari", "Usturlob bilan amal qilish haqida", "Oy erning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi", "Etti iqlim hisobi", "Usturlob yasash haqida kitob" asarlarining qo'lyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda Ahmad Fargʻoniy bu asarlari va ilmiy kashfiyotlari bilan butun jahon fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qo'shdi.

Evropaliklar Ahmad Fargʻoniyning "Al Fraganus" deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar.

861 yilda **Ahmad Fargʻoniy** Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suv sathini belgilovchi uskuna yasagan. Ahmad Fargʻoniyning hayoti

haqida o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar brey (XIII asrlar) kabi Sharq Fihristchilari uni o'z asarlarida eslatadilar.

Ahmad Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum») XII asrdayoq Evropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Evropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G'arbda bir necha asr davomida juda mashhur bo'lib ketgan.

«Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» bir necha asrlar davomida Evropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik sifatida o'qitilib kelindi. Ahmad Farg'oniylarning asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493 yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. Evropa Uyg'onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarda astronomiyadan ma'ruzalarni al-Farg'oniylarning kitoblaridan o'qigan Allomaning nomini buyuk Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslashgan.

Evropaning yirik sharqshunos olimlaridan Dalambr, Brokelman, X.Zuter, I.Krachkovskiy, A.Yushkevich va B.Rozenfeldlar al-Farg'oniyning ijodini o'rgangan va bu olimning faoliyatiga baho berganlar.

Ahmad Farg'oniyning «Usturlob yasash haqida kitob» nomli asari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida «Usturlob bilan amal qilish haqida kitob» ning birgina qo'lyozmasi, Rampurda (Hindiston), «Al-Farg'oniylarning jadvallari» qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola qo'lyozmalari Gota va Qohirada, «Quyosh soatini yasash haqida kitob» qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga allomaning nomi berilgan. Atoqli astronom YAn Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi buyuk vatandoshimiz-Ahmad Farg'oniylarning nomi bilan ataladi.

Ahmad Farg'oniyning «Astronomiya asoslari» asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Allomaning Er sharimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb «Er meridianining bir darajasi miqdori haqidagi Ahmad Farg'oniylarning hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim», deya dastxat qoldirgan. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. YUNESKO qaroriga muvofiq 1998 yilda Ahmad Farg'oniylarning tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir xaykallari bunyod etildi. Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniylarning nomi berildi.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad **Forobiy** (873-951yy) O'rta Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri. U 160 dan ortiq asar yozdi. Forobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur bo'ldi. U yozgan "Aristotelning "Metafizika" asari maqsadlari haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Musiqa kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Siyosat al-Madaniya" ("Shaharlar ustida siyosat yurgizish"), "Fozil odamlar shahri", "Masalalar mohiyati", "Qonunlar haqida kitob", "Tafakkur yurgizish mazmuni haqida", "Mantiqqa kirish haqida kitob", "Falsafaning mohiyati haqida kitob" va boshqa asarlari buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy donishmandligi, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uchun "Al-muallim as-Soniy - "Ikkinchi muallim", "Sharq Aristoteli" degan unvon oldi.

Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy (899-959). Buxoro yaqinidagi Narshax (hozirgi Vobkent tumanida) qishlog'ida tavallud topgan. Uning faqat "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi") asari bizgacha etib kelgan. Asar "Tarixi Narshaxiy", "Taxqiq ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar") kabi nomlar bilan ham atalib kelingan. Asar 943-944 yillarda yozilib, Buxoro hukmdori Amiri Hamid Abu Muhammad Nur ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as Samoniya bag'ishlangan. "Tarixi Narshaxiy" asari o'sha davrga oid ma'lumotlarni va Somoniylar sulolasi tarixini bayon etuvchi manba hisoblanadi. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha etib kelgan kismi 1128 yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Kubaviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha tahrirga uchragan, ba'zi matnlari qisqartirilgan va so'nggi voqealar asosida to'ldirilgan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki Tabariy Abu Hasan Nishopuriyning "Hazoiq ul ulum", Ibrohimning "Axbari Muqanna" kabi asarlaridan foydalanib, uni to'ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, 1178-1179 yillardan 1220 yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) qomusiy olim bo'lib, fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan.

U o'z ona tili xorazm tilidan tashqari yana bir qancha tillarni-so'g'diy, fors, hind, yunon va qadimgi yaxudiy tillarni ham o'rgangan. U Hindistonda bo'lar ekan, tez orada nafaqat Hindiston tarixi, madaniyati, hatto sanskrit tilini ham o'rganadi. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasining eng ko'zga ko'ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishmaolib borgan. Bizgacha ularning savol-javoblaridan 18 tasi etib kelgan. Bu yozishmalar



Beruniyning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qanchalik qiziqqanligidan guvohlik beradi. Savol-javoblarning mazmunida Aristotelning aql bilan his etish orqali chiqargan xulosalariga Beruniy o'zining tuzatish va tajribaorqali aniqlagan xulosalarini qarshi qo'ygan. Ibn Sino esa Aristotelni himoya qilgani ma'lum bo'ladi.

1017-yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib oldi va Beruniyni ham Xorazmshoh saroyidagi bir qanchaolimlarni G'azna shahrigaolib ketadi. Beruniy G'azna shahrida 1017 yildan to 1048 yilgacha hayot kechirdi va ilm-fan hazinasiga bebaho hissasi bo'lgan nodir asarlarini yaratdi.

Beruniy ijodi namunalari quyidagi asarlarda berilgan: «Osoru ul boqiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Saydana», «Mineralogiya» va boshqalar.

Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi.

Beruniy Xorazm, Kat, Gurganj bilan bog'liq joylar, shahar va qishloqlarning jug'rofiy kengliklarini va ular orasidagi masofalarni aniqlab, ushbu joylar tushirilgan er kurrasi modelini yasadi. Bu insoniyat tarixida ilk bor yaratilgan yarim shar ko'rinishidagi o'ziga xos globus edi. Beruniy o'z tadqiqotlarida hozirgi Amerika qit'asining mavjudligiga ham ishora qilgan allomadir.

Abu Rayhon Beruniyning buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida yanada yashgan betakror ilmiy merosida yanada yashgan betakror ilmiy merosida yanada yashgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mashhur sharqshunos olim A.M.Belenitskiy Beruniyning «Mineralogiya» asarini arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Mana shu tarjima jarayonida bu asar ta'sirida A.M.Belenitskiy turli minerallar to'g'risida 14 ilmiy maqola yozgan. Olimning ta'kidlashicha, bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo'lsa-da shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyadalargina aniqlanishi mumkin bo'lgan xossalari shu darajada aniq berilgan. Bundan aql lol qoladi.

Beruniy o'zining birinchi astronomik tajribalarini 16 yoshida Kat shahrida boshlagan. Beruniy Jurjon saroyida xizmat qilgan davrida uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari yaratiladi. Bu asar muallifning ko'p qirrali ilm sohibi ekanini namoyish etadi va unga juda katta shuhrat keltiradi. Beruniy Jurjonda 10 dan ortiq yirik asarlarini bitishga muyassar bo'lgan. Beruniy 1005 yilda vatani Xorazmga qaytadi. Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Beruniyni o'z saroyida katta izzat-hurmat bilan qabul qilgan. Beruniyning ushbu turlicha fanlardagi ijodi va muvaffaqiyati uning tom ma'noda qudratli shaxs va cheksiz bilim sohibi ekanligini ko'rsatdi va uning nomini mangulikka muhrladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim bo'lib, o'z davrining deyarli barcha fanlari bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ulargaoid ilmiy asarlar yaratgan. U Yoshligida «Qur'oni Karim»ni yod olib, o'ta zehnli bo'lgan. U fan asoslari bilan chuqur shug'ullanish, mashaqqatli mehnati samarasi bilan 17 Yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqara boshlagan.

Ibn Sino ham o'sha davrda Xorazmda fan va madaniyat xomiysi sifatida nom chiqargan Ma'mun (999-1016) saroyida mashhur olim, faylasuflar bilan ijod qilgan. Ammo Xorazmni 1017 yilda Mahmud G'aznaviy egallagach, u Hamadonda ijod qildi.

Ibn Sinoning 450 dan ortiq asarlari manbalarda qayd etilgan, lekin bizgacha faqat 242 tasi etib kelgan. Uning «Al Qonun al fit –tib» shoh asar bo'lib, XII asrda Evropada lotin tiliga tarjima qilingan.


Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini ta'kidlab, tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham o'suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avitsenna deb atadi. Ibn Sino ham G'arbda, ham Sharqda "Avitsenna" va "Shayxur-Rais" nomi bilan shuhrat qozongan.

Al-Qamariydan saboq olib etuk darajaga etishgan iste'dodli olim **Abu Ali ibn Sino** tibbiyot fanidan katta burilish yasadi. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari besh jilddan iborat bo'lgan. «Tib qonunlari» 1024 yilda yozib tugallangan. U XX asrning o'zida turli tillarda 36 marta nashr qilingan. Shundan so'ng ushbu asar uzoq asrlar davomida Evropa universitetlarida tibbiyot fakultetlarida asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Ibn Sino faqatgina tib ilmidagina emas, balki falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, geografiya, musiqa va adabiyot sohalarida ham keng ijod qilgan. Uning hozirgacha bu ilm sohalarida yaratilgan 300dan ortiq ilmiy asarlari fanga ma'lum.

IX – XII asrlar o'z mazmuni, salmog'i jihatdan O'rta Osiyo davri sifatida tarixga kiradi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarida dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va dunyodagi davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'rta asrlarda Xorazm Ma'mun akademiyasi kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan va undan yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularga Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad



Abu Ali ibn Sino (980-1037)

Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarni misol keltirish mumkin.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik «Avitsenniya» deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda. Ko'chalar, o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov 1998 yil 6 noyabrda YUNESKO ning xalqaro Abu Ali ibn Sino oltin medali bilan taqdirlandi. Bu oliy mukofot xalqimizning umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va xizmatining tan olinishi, davlatimiz tomonidan tarixiy, madaniy, ma'naviy merosni asrab-avaylash, sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish borasida amalga oshirilgan ishlarning munosib bahosi bo'ldi.

Evropada Avitsenna nomi bilan tanilgan, o'z faoliyatida 450 dan ortiq asar yozgan qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** ta'limotlari ham bugun o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Beko va boshqa ko'plab olimlar uning asarlarini o'qib hayratlangan. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» deb atalgan o'zining bebaho fundamental asari Evropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Evropaning etakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida o'qitilgan.

X asrning qomusiy allomasi **Abu Nasr Forobiyni** zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo'lgani bois, «Sharq Aristoteli» deb ataganlar. U ko'plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari «Mohiyat xususida so'z», «Fanlarning paydo bo'lishi haqida kitob», «Tafakkur mohiyati» va boshqa asardlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko'plab Evropa va Sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda.

«O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarning tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro konferensiyaning qadim va hamisha navqiron Samarqand shahrida o'tkazilishi esa boy madaniy-tarixiy merosimizni, yangicha qiyofa kasb etayotgan ulug'vor shaharlarimiz, yuksak ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarimizni yana bir bor jahon ahliga namoyon etish imkonini beradi.

O'zbekistonning kitob fondlarida 100 mingtadan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda va ularning asosiy qismi Yuneskonning Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarning qo'lyozmalari Evropa va osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kutubxonalarning «oltin fond» ini tashkil etadi.

Bu o'rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq allomalari va mutafakkirlarning tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganda ham ko'rish mo'mkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniya o'rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

2009 yili Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlanib, unga «Mustaqillik» ordenining berilishi yangi tariximizdagi ulkan voqea bo'ldi.

Islom konferensiyasi tashkiloti qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi (AYSEKO) tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda «Islom madaniyati poytaxti» degan nom berilishi mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy-ma'naviy voqea bo'lib, xalqimiz tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi. Sharq

darvozasi deb nom olgan azim poytaxtimizning ana shunday yuksak maqomga erishgani nafaqat xalqimizga, ayni vaqtda yaqin va uzoqdagi do'stlarimizga ham g'urur va iftixor bag'ishlamoqda.

Mustaqillik yillarida boy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga kotarildi. Milliy madaniyatimizga, jaxon sivilizasiyasi taraqqiyotiga buyuk xissa qoshgan bobokalonlarimizning ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosda nishonlandi.

Mustaqillik yillarida bu buyuk shaxslarning xotirasiga bafishlab barpo etilgan yodgorliklar majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy gururni kotarishga xamda xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida mustaqillik mafkurasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

V.6. O'rta Osiyolik allomalarning islomshunoslik va islom madaniyati rivojida tutgan o'rni. IX- XII asrlarda badiiy adabiyot va moddiy madaniyat ravnaqi

IX-XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lgan bo'lsa, islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib jahon dini darajasiga ko'tariladi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. Arab tili davlat tili darajasiga ko'tariladi. Azaldan savodli bo'lgan, madaniyat darajasi yuqori darajaga ko'tarilgan xalq tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni etishtirib chiqara boshladi.

Shaharlarda masjidlaru-madrasalar qurilishiga e'tibor berila boshladi. Masalan, Buxoroda dastlabki madrasa Kovushdo'zlar timi yaqinida barpo qilingan. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus "Faqihlar madrasasi" degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurilgan. Bu bilim maskanlarida Qur'oni karim, Hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o'rganilgan. Buxoro shu davrdan boshlab "Qubbat-ul-islom" ("Islom dinining gumbazi") nomi bilan shuhrat topa boshlaydi.

Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqara boshlaydi va xalq ommasini itoatda ushlab turish uchun qurol vositasi rolini ham bajara boshlaydi.

Bu davrda islom ta'limotiga bebaho hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko'plab ulamolar etishib chiqdilar.

Imom al Buxoriy (809-870-yy.), Mustaqillik yillarida bu ulug' bobokalonimiz ruhini shod etib, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan uning Samarqand yaqinidagi vafot etgan joyida ulkan majmua-bino barpo qilindi. Hozirda bu joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarini, balki butun musulmon dunyosi ahlini ziyoratgoh joyiga aylangan. Imom Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan "Al-jome' as sahih", "Al adab al mufrad", "At ta'rix as



sag'iy", "At ta'rix al avsot", "At ta'rix al kabir", "Kitob al ilal", "Birr ul volidayn", "Asomi us sahoba", "Kitob al kuna" va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, "Al jome' as sahih"dir. Bu asar "Sahih Buxoriy" nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi. U hayoti davomida 600 ming hadis to'plab, ulardan 7275 hadisni o'zining 4 jildlik "Ishonarli to'plam"iga kiritdi. Bu asar 160 qismdan iborat bo'lib, 3450 bobni o'z ichiga oladi. Bu sharaflı ishni birinchi Buxoriy boshlab bergan bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar.

Imom Buxoriyning ushbu yirik asari o'z davridan boshlab toki shu kungacha islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Asarning ko'plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan. 1325 yilda ko'chirilgan sakkiz jildidan iborat nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. "Al jome' as sahih"ga ko'pdan-ko'p sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida qayta- qayta nashr qilingan.

1498 yilda buyuk hadisshunosning 1225 yillik tavallud kuni keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, u vafot etgan Samarqand atrofidagi Chelek shahridagi Imom Buxoriy ziyoratgohi ulkan majmuaga aylantirildi. Alloma maqbarasi go'zal suratda qayta bino qilindi. Majmua tarkibiga kiruvchi masjid ta'mirlandi. 2008 yilda Imom Buxoriy majmuasi Xalqaro Markazga aylantirildi. Bugun ushbu ma'rifiy markazda Imom Buxoriy merosini o'rganish va jamoatchilikka taqdim etish yo'lida ulkan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu erga jahonning turli joylaridan minglab odamlar ziyoratga kelmoqdalar.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil senyabrda Nyu York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqida Islom dini haqida gapira turib Imom al Buxoriy ismini alohida hurmat bilan tilga olib o'tdi. Prezident o'z nutqida quyidagilarni ta'kidladi: "Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Quroni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahih Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi". Hozirda bu ikki markaz samarali faoliyat olib bormoqda.

Imom at-Termiziy (824-892-yy.) hadisshunos olim, uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari "Jome at-Termiziy" yoki "Sunan at-Termiziy"dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur hadislar to'plamidan biridir. Prezidentimiz Zh.M.Mirziyoev "Xammamiz bilamiz, bu ulug' alloma paygambarimiz Muxammad

alayxisalom to'grisida kitob yozganlar.Imom Buxoriy Termiziyning ustozlari bo'lgan ekan.Iso Termiziy xayot paytlarida ustozlari imom Buxoriy:"Siz mening shogirdim bo'lsangiz xam men sizdan ko'p narsa o'rganganman, ezgulikka sadoqat , mexr-muxabbat va ustozga bo'lgan xurmatni Sizdan o'rgandim" deb aytgan ekanlar¹.

O'tmish ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li va serqirra ilmiy faoliyati milliy qadriyatlarimizni chinakam boyitgan bebaho xazinadir. Ushbu zaminda tug'ilib voyaga etgan, jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning diniy-falsafiy va ilmiy merosidan bahramand bo'lmoqdamiz.

Ana shu beqiyos xazina ravnaqida Vatanimizning jahonga dong'i ketgan qadim va navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz (Kesh), Toshkent va boshqa talay shaxarlari qatorida Termiz shahrining ham alohida o'rni bor. Termiz qal'asi O'kuz-hozirgi Amudaryo sohilida qad rostlaganidan buyon bu shahar moziy bag'rinda ro'y bergan ko'plab voqealarga guvoh bo'lib keldi. Ana shunday qadim tariximizning zalvorli yuklarini o'zida pinhon tutgan sirli Termiz shahrida jahonga mashhur buyuk allomalar tavallud topgan. Shulardan yana biri **Al-Xakim at-Termiziy** (809-909) dir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2002 yilning 3 aprelida Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda faxru g'urur va chuqur qoniqish ila aytgan ushbu so'zlari ham buning isbotidir: "Bu qadimiy diyorda yashab o'tgan benazir alloma Hakim Termiziy, mumtoz shoir Sobir Termiziy, muarrix Samandar Termiziy kabi o'nlab ulug' ajdodlarimiz, aziz avliyolarimiznig mo'tabar nomlarini xalqimiz xurmat – ehtirom bilan tilga oladi".

Mutafakkir Alisher Navoiy shariat va tariqatda "mashoyixi kibor" ("ulug' shayx), tasavvuf ilmida "durri yatim" ("yagon dur") deb ta'riflagan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bishir ibn Horun al-Hakim at -Termiziy huddi shunday benazir allomadir.

Hakim Termiziyning ilmiy merosi ulkan bo'lib allomaning kitob va risolalari jahon mamlakatlarining turli kutubxonalarda saqlanmoqda. Bu kitoblarning nashri va tadqiqoti borasida chet el olimlari e'tiboriga molik ishlarni amalga oshirdilar va mamlakatimizda ham bu yo'nalishda diqqatga sazovor ishlar qilinmoqda. Zamonasining ulug' tariqat peshvosi yaratgan asarlari va Islom yo'lidagi sobit irodasi tufayli qator diniy unvonlarga noil etildi. Alloma o'zining ayrim risolalarida, chunonchi, "Bayon ul-kasb"da muhaddis, "Kitob al-furuq"da hofiz, "Ilm al-avliyo" da zohid, "Adab an-nafs"da imom, "Tahsil nazoir al-Qur'on"da al-muazzin unvonlariga egaligini eslatib o'tadi. Bundan tashqari allomai zamon quyidagi unvonlarga ham musharraf bo'lgan: sayyid, xoja, mufasssir, orif shayx, vali, hakim. Bu unvonlarni ul zoti oliylarining oromgohlari peshtoqidagi bitiklar ham to'kis tasdiqlaydi. Unda "Marqad ash-shayx al-imom al-orif al-vali Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziy" deb yozilganini o'qiymiz.

. IX asrda Islom dunyosida tan olingan o'nta tariqatdan biri «hakimiya» tariqatining asoschisi ham al-Hakim at-Termiziydir. Movaraunnahr sarzaminida ilk tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida e'tirofini topgan Hakimiya tariqati shu hududdagi

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kotaramiz. 1., "O'zbekiston" NMIU, 2017 y.

keyingi soʻfiylik tariqatlarining shakllanishida muhim oʻrin tutadi. Chunonchi, hakimiya tariqatining naqshbandiya tariqatiga taʼsirini shaxsan Bahouddin Naqshband oʻzlari ham koʻp bor qayd etganliklarini yaxshi bilamiz. Darhaqiqat, Movaraunnahr mintaqasida ilk bor tasavvuf tariqatining tizimlashuvi va hakimiya tariqatining Islom dunyosida ustuvor maqom olib, nufuzga ega boʻlishida avvalo al-Hakim at-Termiziy hamda allomaning izdoshlari hisoblanmish shogirdlarining xizmatlari beqiyosdir.

2004 yilda **“Al-Hakim at-Termiziy va uning davri”** mavzuida Xalqaro ilmiy anjuman oʻtkazildi. 2006 yilda Al-Hakim at-Termiziy meʼmoriy majmuasida ilmiy yoʻnalishdagi loyiha asosida katta taʼmirlash ishlari amalga oshirildi. Maqbarani taʼmirlashga tayyorlash munosabati bilan uning atrofida keng koʻlamda arxeologik qazuv ishlari olib borildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara bunyod etilgan joy tarixi va maqbara majmuining shakllanishini oydinlashtiruvchi koʻplab ashyoviy manbalar toʻplandi¹.

Maxmud Samaxshariy(1075-1144)Xorazm zaminida tavallid topgan buyuk allomalardan biri Abul Qosim Maxmud az-Zamaxshariydir.Uning toʻliq ismi Abul Qosim Maxmud ibn Umar ibn Muxammad (baʼzi manbalarda Axmad) boʻlib u xijriy 476-sana rajab oyining 27 da,milodiy xisobda 1075 yil 19 martda Xorazmning Zamaxshar qishlogida tavallud topgan.Urganch,Buxoro madrasalarida taʼlim olgan.U Buxoroda oʻqishni tugatgach bir necha yil xorazmshohlar xizmatida boʻlib,kotiblik qiladi

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo madaniyati rivojiga nazar tashlar ekanmiz, bu davrda **tasavvuf (sofizm) taʼlimotlari** madaniyatning, maʼnaviyatning barcha tomonlariga kirib borganligini kuzatish mumkin. IX— X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movaraunnahrda esa tasavvuf taʼlimoti X asrdan boshlab yoyila boshlandi. Tasavvufda ruhni kamolotga, uning soʻnggi maqsadi - Ollohgʻa erishuv yoʻllari toʻrt bosqichdan iborat: birinchi bosqich - SHARIAT deb ataladi, unda avvalambor, shariatning barcha talablarini bajarish va unga boʻysunish talab etiladi. Ikkinchi bosqich - TARIQAT deb ataladi. Unda murid oʻz shaxsiy istaklaridan voz kechib, oʻzini pir ihtiyoriga topshirishi kerak. Uchinchi bosqich - MAʼRIFAT boʻlib, unda soʻfiylar koinotning birligi Xudodan mujassam bulishini, yaxshilik va yomonlikning nisbatini aql bilan emas, qalb orqali anglab olishlari kerak boʻladi. Toʻrtinchi bosqich — XAQIQATdir. Bunda soʻfiy shaxs sifatida tugab, Xudoga-moʻljallangan haqiqatga etishishi, Ollohgʻa singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur.

Soʻfizm nazariyotchilari, olimlari oʻz davrining bilimni puxta egallagan, ilmlardan xabardor, bilimdon-mutafakkir boʻlganlar. X asrdan boshlab soʻfizm gʻoyalari Oʻrta Osiyo shaharlarida xam tarqala boshladi. Tasavvuf, yaʼni soʻfiylik islom dini asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim boʻlib, poklangan, zohid, taqvodorlik maʼnosini anglatadi.

. Oʻzbekistonda tasavvufning rivojlanishida **Yusuf Hamadoni**y taʼlimoti muhim rol oʻynaydi. Hamadoni taʼlimotida vatanparvarlik gʻoyalari oʻz ifodasini

¹ Чориев З., Аннаев Т., Муртазоев Б., Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Тошкент: Янги аср авлоди. 2008 йил. 26 бет.

topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib etishgan ekanlar. Hamadoniylar ta'limotidan O'rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi-yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi.

Yusuf Hamadoniylar (1048 - 1141) Eronning Hamadon shahri yaqinidagi Buzanjird qishlog'ida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Abu Ishoq Sheroziydan ilm-irfon sirlarini o'rgangan, Isfaxon va Samarqanda hadis tinglagan va tasavvuf ta'limotiga ixlosmand bo'lgan. U zohiriy va botiniy deb atalmish sohalarni Abu Ishoq Sheroziy, Abdullox Juvayniy va Xasan Simoniylar kabi zamonasining etuk oriflaridan o'rgandi, Abdulqodir Giloniylar (G'afsi ul a'zam), Muhammad G'azzoliylar, Hamiduddin Multoniylar kabilar bilan bevosita muloqot qildi.

Yusuf Hamadoniylar umrining katta qismini O'rta Osiyoda o'tkazgan. U hunarmandchilik-kosibchilik bilan shug'ullangan. Buxoroda maxsus xonaqoh, ("Xuroson ka'basii") qurdirib, o'sha erda shogirdlarga dars bergan. Hamadoniylar ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib etishganlar. Ulardan Abdulholiq G'ijduvoniylar va Xoja Ahmad Yassaviylar alohida o'rin tutadilar. Hamadoniylar ta'limotidan O'rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi - yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi. Farididdin Attor o'zining "Tazkirat ul avliyo" asarida uni mashhur shayxlar qatorida eslab, uning tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi Mansur Halloj tarafdorlaridan biri bo'lganligini ta'kidlaydi.

Hamadoniylarning "Rutbat ul hayot" ("Hayot mezonii") asarini nashrga tayyorlagan Amin Riyohiylar hamda shu asarni turkchaga tarjima qilgan Najdat Tusunlarga ko'ra, Yusuf Hamadoniylar "Rutbat ul hayot", "Kashf", "Risola dar odobi tariqat", "Risola fi anal kavna musaxxaron lil inson", "Risola dar hxlak va munojot" asarlarining muallifidir. Shayx Yusuf Hamadoniylar 1141 yili Bomiylon shahrida vafot etdi. Shayxning vasiyatiga ko'ra jasadii Marvga ko'chirildi va dafn etildi. O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so'fiylik oqimi **Yassaviylikdir. Axmad Yassaviylar (1105-1165)** Yassi (Turkiston) shahrida tug'ilgan. Otasi Ibrohim Sa'y Rom shahrida ko'p yillar shayxlik qilgan. Ahmad Yassaviylar aslil kelib chiqishi Toshkentdan bo'lgan mashhur turk mashoyixi Arslonbob Toshkandiylar taxsil oladi. Uning vafotidan so'ng



Axmad Yassaviylar
(1105-1165)

Yusuf Hamadoniylaridan ilm o'rgangan. So'ng yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug'ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. **Ahmad Yassaviylar tasavvufda O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so'fiylik oqimi Yassaviylar tariqatiga asos soldi. Yassaviylar bizgacha etib kelgan yagona meros** - bu Yassaviylar ta'limotining asoslari bitilgan turkiylar tildagi "Devoni xikmat"dir. Unda Yassaviylarning sermazmun hikmatlari, munojatonomasi, "Faqrnoma" risolasi o'z aksini topgan. Bu asar o'troq va ko'chmanchi turkiylar xalqlar orasida so'fiylik ta'limotini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlarda bo'lganidek, o'ziga xos qoidalar bor. Ahmad Yassaviyning fikricha shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ular doimo bir-birini to'ldiradi. Bu yo'l kamolot yo'li bo'lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yusuf Hamadoniyni yana bir shogirdi **Abduxoliq G'ijduvoni**(1103-1179) Sharq falsafa tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Tasavvuf talimotining yirik



namoyandasi, Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O'rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosi. Buxoro yaqinidagi Gijduvon qishlogida tavallud topgan. Abduxoliq Gijduvoni mashhur tasavvuf Yusuf Hamadoni(vafoti 1141 y.)ga shogird tushib, undan halifalik firgasini oladi. Uning dunyqarashi tasavvuf silsilalaridan biri Hojagon halqasida shakillangan. Halq ommasi bilan yaqinlashish va ularning diniy etiqodiga xizmat qilish bu tariqatning asosi edi. U shuningdek Naqshbandiy tariqatining ham asoschisidir. Yozma manbalarda Hoja Abduxoliq Gijduvoni "Shayxlar shayhi" darajasiga kotarilgani qayd etiladi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni "Risolayi Sohibiya" "Risolayi Shayxshuyuk Xazrati Abu Yusuf Hamadoni" kabi asarlar meros bo'lib qolgan. U "Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol" ("Jamolining muattarligi va kamolotning egalari"), "As-usul al-ashara" ("O'nta qonun va qoidalar") nomli qator risola va asarlar yozgan.

Imom Abu Mansur al Moturudiy (870-944) Samarqand yaqinidagi Moturudda tug'ilgan. Moturudiy hanafiylik ta'limotiga tayangan holda islom dini e'tiqodiy asoslarini qayta ishlab chiqdi. Islom dini borasidagi ilmiy tortishuv va munosabatlar bayon etilgan fikrlarni tartibga solish kalom ilmining keng tarqalishiga va sunniylikdagi ikki yirik maktab - Ash'ariya va Moturudiyanning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Uning arab tilida yozilgan ikki asarigina bizgacha etib kelgan. Bular "Kitob at Tavhid" hamda "Ta'vilot ahl as sunna" asarlaridir. Moturudiy "Ta'vilot ahl as Sunna" asarini yozishdan "Ahl as Sunna val jamoa" ta'limotiga zid qarashlarni rad etish maqsadini ko'zlagan. "Kitob at Tavhid" asari hozirda Angliyadagi qo'lyozma fondlaridan birida saqlanadi. Fathulloh Hulayf asar matnini 1970 yilda Bayrutda nashr etgan. Moturudiy "Imom al mutakallim" deb ataganlar. Navoiy unga "Sulton al muizzin" (faxriy olimlar sultoni) deb yuqori baho bergan. Al Moturudiy 944—945 yilda Samarqandda vafot etib, Chokardiza shayxlar qabristoniga dafn etilgan. Yurtimizda 2000 yil Moturudiyning 1130 yilligi keng nishonlandi.



Najmiddin Kubro (taxallusi: asl ism sharifi Ahmad ibn Umar Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (1145-1221) Xivada tug'ilgan. Ulug' shayx, tasavvuf ta'limotining taniqli vakillaridan biri, So'fiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir (unining taxallusi «dinning ulug' yulduzi» ma'nosini beradi). Najmiddin

Kubro yoshligidan ilmga qiziqqon, qobiliyatli bo'lgan. Islom asoslari, shariat, Hadis va tavsifni juda tez o'zlashtirib olgan. 16-17 yoshlarida tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi. Tariqatdan xabardor bo'lishga intiladi. Ilk marotaba Misrda shayx Ruzbixon Vazdon Misriy (1189 y.v.e) ga murid tushadi. Undan tariqat odobini o'rganadi. Shayxning qiziga uylanadi. Keyinchalik Hamadonda shayx Ammor Yosir kabi ustozlardan saboq oldi. 25 yildan ortiq umrini ilm olishga bag'ishladi, Kubro 1185 yil Xorazmga qaytib keldi. Bu erda katta honaqox qurdirib o'z diniy maktabini yaratdi. Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, sahovatga va mardlikka da'vat etadi. Kubroning muridlari Majdiddin Bog'dodiy, Sa'diddin Xumviy, Najmiddin Doya tasavvuf tarixida nom qozongan shayxlardir.

Kubro o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etgan. Ulardan asosiylari «Favoixal-Jamol va favotixal-Jalol («Jamol xushbo'yliklari va Jalolning kashfi»), («Al-usul al-ashara», «O'nta usul»), «Risolaat-Turuk» (Tariqatlar risolasi), «Risolatal-Xonfal-Xoiminlavmal-jom» («Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola») kabilardir. O'z g'oyasiga sodiq Najmiddin Kubro mo'g'ullarga qarshi vatan himoyasi yo'lida shahid bo'ldi va jasorat namunasini ko'rsata oldi

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi "imom" darajasiga erishgan ko'plab buyuk allomalar orasida **Imom Abu Bakr Kaffol Shoshiy (903-976)** ham alohida o'rin egallaydi. Arab manbalarida unga alohida hurmat bajo keltirish uchun nomiga "katta", "ulug'" ma'nosini ifodalaydigan "kabir" so'zini qo'shib yozadilar. U o'z zamonasining imomi (peshvosi) bo'lib, fiqh, hadis, usul, tilshunoslik ilmlari bo'yicha tengi yo'q olim edi. Abu Bakr Shoshiy faqihlar ichida birinchi bo'lib "Jadal al hasan" ("Dialektika go'zalligi") bahs-munozaraga oid asar yozgan. Shuningdek uning "Kitob fi usul fiqh" ("Fiqh usullari kitobi"), "Sharh ar risola" ("Risola sharhi") asarlari xam bor. Kaffol Shoshiyning "Javome' kalim" ("Hikmatli iboralar to'plami"), "Adab al qozi" ("Qozining odobi"), "Daloil an nubuvvat" ("Payg'ambarlik dalillari"), "Mahosin shari'at" ("Shariat go'zalliklari") kabi asarlari to'g'risida manbalarda qayd etilgan. Afsuski, bu asarlardan birortasi mamlakatimiz kitob xazinalarida mavjud emas.

Ko'hna Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan Imom Kaffol Shoshiy ziyoratgohi bevosita u zotning nomlari bilan bog'liq bo'lib, halq orasida "Hastimom»" (hazrat Imom) deb atalib, Toshkentning diniy, ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy markazi sifatida dong taratgan.

Badiiy adabiyotda **Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (960-1041-y.)**

Shoirning vatani Rudak qishlog'i Zarafshon tog' bag'rida, Tojikistonning shimolida, qadimiy Panjikent vohasi hududida joylashgan. Daryoning beshta irmog'i kesishgan joy Panjirud deb atalgan. Tojik xalqining mashhur shoiri Mirzo Tursunzoda o'z vatanining buyuk shoiri haqida shunday degan edi: "Men qancha Rudakiy ijodi bilan tanishmay, qancha uning she'rlarini o'qimay, har doim uni ilhomlantirgan, uni ijodga undagan muhitni ko'rmoqchi bo'lardim.

Mirzo Tursunzoda Rudakiy ijod etgan Pandjirudga borib uni ko‘rdi amin bo‘ldi. Bu tog‘larda bulbullar nolası-yu, jilg‘alarining ularga jo‘r bo‘lgan ovozi tinmaydi. Ana shunday tabiat qo‘ynida shoir yaralgan, uning ijodi dunyoga kelgan”.¹

Bizgacha etib kelgan manbalarda Rudaki 100 ming, ba‘zilarida 1300, ba‘zilarida 2000 yaqin she‘rlari bo‘lgan deyiladi.

Shoirni to‘liq ismi Abu Abdulloh Ja‘far ibn Muhammad bo‘lgan.

Yillar o‘tib qobiliyatli yosh shoirning dong‘i mamalakat hukmdorlariga etib bordi. U Somoniylar saroyiga Buxoroga taklif qilindi.

Rudakiy shior sifatida tahallusini mashhur odamlar yoki shaharlar nomlaridan olmaydi xuddi boshqa shoirlar amal qilganidek balki u o‘zi o‘sib voyaga etgan, beg‘ubor bolaligi o‘tgan Rudak qishlog‘ini nomini o‘ziga tahallus qilib oldi. Bu bilan u o‘zi ulg‘aygan Vatanga ehtiromini bildirdi. Rudakiyning taqdiri juda ajoyib. 1000 yillar oldin Somoniylar saroyida e‘tirom va hurmatda bo‘lgan shoir ko‘p o‘tmay quvg‘inlikka uchrab, yolg‘iz xo‘rlıkda vafot etadi. Hatto uni qacda vafot etganligini ham hech kim bilmaydi.

Lekin vaqt o‘tdi asrlar o‘tdi tojik xalqi Rudakiyini unutmadi. Uni qaytadan kashf etdi. 1925 yil Tojikistonda Rudakiy ijodiga bagishlangan kunlar o‘tkazildi. 1956 yili Rudakiyning 1100 yilligi munosabati bilan uning parokanda she‘rlari bir erga jamlanib 1840 misrani tashkil etgan she‘riy tuplami chop ettirildi. 1957 yili shoir she‘rlari zabardast mutarjim va forsiy adabiyot bilimdoni Munirxon Muinzoda tarjimasida o‘zbek tilida ham bosilib chiqadi.

Keyinchalik fors-tojik so‘z san‘atining yirik tadqiqotchisi va tarjimoni Shoislom Shomuhamedov tarjimasida Rudakiy asarlari yana ikki marta nashr etildi.

Sadriddin Ayniy: «Ustod Rudakiy o‘z she‘rlaridan devon tuzgan dastlabki shoirdir», — deb ma‘lumot beradi. «Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon oyad hame» («Mo‘liyon arig‘ining bo‘yi kelmoqdadir») misrasi bilan boshlanadigan g‘azali unga favqulodda shuhrat keltirdi. «Modari may» («Mayning onasi») qasidasi ham mashhur. Buyuk hind eposi «Kalila va Dimna»ni she‘riy tarjima qilgan. Ilmu adab ahli Rudakiy uslubini «sahli mumtane’», ya‘ni «osonu mumkin emas», deb baholaganlar. «Rudakiy arablardagi she‘r o‘lchovi aruzni chuqur o‘rganib, o‘z xalqi orasida keng tarqalgan qo‘shiqlar kuyiga tatbiq qilish natijasida bir necha yangi vaznlar ixtiro qilib, aruzni boyitgan».

Mahmud Qoshg‘ariy(11 asr)Turkshunoslik ilmi asoschisi, qomusiy olim. Qoshgarda tug‘ilib Buhoro va Nishopurda talim olgan. **Uning** “Devoni lug‘ati- turk” va “Javohiri-nahv” “Turk tili sintaksisi asoslari” va boshqa asarlarini yozadi. Uni ilm olamida tanitgan “Devoni lug‘ati-turk” asaridir. Bu asarda o‘sha davrda turkiy tildagi so‘zlar va iboralar to‘plangan va ular arabchaga tarjima qilinib, izohlab berilgan. Asarga Mahmud Qoshgariy tuzgan dunyo haritasi ,dunyoning doira shaklidagi tasviri ham ilova gilingan.Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan.11 asr geografıy ilmining namunsi bo‘lmish bu harita Qoshgariyning qomusiy olimligidan dalolatdir.

Ahmad Yugnakiy(12-13 asrlar) Mashur shoir,Yugnakiy Qishlogida tugilgan. Adib Ahmad Yugnakiy salohiyatli shoir va odob –ahloq muallimidir. **Yusuf Xos Hojib**(tug‘ilgan va vafot etgan yili noma‘lum)ning faqat “Qutadg‘u bilik”(“Baxt-

¹ Брагинский И.С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. -М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1989.- 132 с.

saodatga boshlovchi bilim”) deb nomlangan didaktik, badiiy-falsafiy asarigina bizgacha etib kelgan

Halifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va G‘aznaviylar, Xorazmshohlar davrida shaharlarda masjidlaru-madrasalar qurilishiga e’tibor berila boshladi. O‘rta Osiyoda **me’morchilik san’ati** gurkirab rivojlandi. Buxoroda dastlabki Madrasa Kovushdo‘zlar timi yaqinida barpo kilindi. Qonunshunoslar uchun ham maxsus “Faqihlar madrasasi” qurdirilgan.

IX- X asr me’morchiligining rivojlanish yo‘llarining saqlanib qolganligini ko‘plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, Somoniylar davridagi ko‘pgina masjidlar o‘z vaqtida arablargacha bo‘lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo‘lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo‘lgan. Manbalarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli kiliib qirqilgan g‘ishtlar, o‘yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezalgan. Bu davrga oid masjidlar to‘g‘risida so‘z yuritilganda, Buxorodagi Mag‘oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O‘rta Osiyoda diniy me’morchilikning rivojlanish yo‘llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o‘zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag‘ sarflagan. Saroyning oldida devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marv, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo‘lgan. Bu saroylar o‘zlarining kattaligi va go‘zalligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda bunday saroylar hushmanzara joylarda, bog‘lar ichida bunyod etilgan.

Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv Qorahoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli — ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Termiz shahridagi saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog‘lar orasida joylashgan va 10 gektarga yaqin maydonni ishg‘ol etgan.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi o‘zgara boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g‘isht bilan qurilgan go‘zal maqbara to‘rtburchak shaklida bo‘lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To‘rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o‘tilgan. Shu bilan birga bu bino to‘rt fasadlidir. Uning to‘rtala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda o‘sha davr uchun xos bo‘lgan me’moriy xususiyatlardan ham ko‘p foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o‘rnatish. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek, dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo‘lgan yodgorliklarda uchraydi.

Qorahoniy hukmdori Shams ul Mulk Buxoro yaqinida saroy, Hazara qishlog‘i yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Baroti Malik nomi bilan mashhur bo‘lgan karvonsaroy qurdiradi.

Buxoro shahrida 1127 yilda Qoraxoniy Arslonxon tomonidan Poyi Kalon ansambli qurilgan. Unga Kalon masjidi va Minorayi Kalon ham kirgan. Minorai Kalon Markaziy Osiyodagi eng baland minora bo‘lib, diametri 9 metrni, balandligi 46,5 metrni tashkil etadi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo‘rg‘onda (Surhondaryo viloyati) Qoraxoniylar

tomonidan 1108-1109 yillarda barpo etgan minorani, shuningdek, Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvon saroylarni, Buronqal'a, Naifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Shuningdek, ayni shu vaqtda Xivadagi Ichan qal'a ansambliga asos solindi. X asrda Samarqand yaqinidagi Tim qishlog'ida Arab ota maqbarasi, XII asrda Marvda Sulton Sanjar maqbarasi, XI asrda O'zgandagi Qoraxoniylar maqbarasi, ko'plab karvonsaroy va robotlar qurilganki, bu binolar o'sha davr arxitekturasining yorqin misoli bo'la oladi.

Texnologik usullar: "FSMU" texnologiyasi

-O'qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qogoz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa: IX – XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi

mavzusi boyicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting

F-fikringizni bayon eting:

S-fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating

M-ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring

Talabalar o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan ishonchini bayon etadilar. Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat rivojiga nima turtki bo'ldi?
2. O'rta asrlarda faoliyat olib borgan qaysi sharq mutafakkirlarini bilasiz?
3. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda faoliyat olib borgan islomshunos olimlar kimlar?
4. O'zbek davlatchiligi tizimidagi yirik sulolalardan biri Anushteginiy-Xorazmshohlar qaysi yillarda xukmronlik qilganlar?
5. Toxiriylar sulolasi davlat tepasiga qanday kelib qoldi?
6. Somoniylarning davlat boshqaruvidagi islohotlarni aytib bering.
7. IX-XII asrlarda ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatgan omillar
- 8.9-12 asrlarda Movaraunnaxrdagi ilm-fan ,madaniyat rivojining ijtimoiy xayotga ta'siri xaqida gapiring.
- 9."Baytul Hikma" haqida qanday ma'lumotga egasiz?
- 10.Horazm Ma'mun akademiyasi qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?
- 11.Movaraunnahr hadisshunoslik maktabi haqida nima bilasiz?

12. Istiqlol yillarida buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish borasida qanday ishlar qilindi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
2. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарк, 2001.
3. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд. – Тошкент, 2013.
4. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
5. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
6. Чориев З., Аннаев Т., Муртазоев Б., Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Тошкент: Янги аср авлоди. 2008 йил. 26 бет.
7. O'zbekiston tarixi. Darslik II jild. Mualliflar jamoasi. –T.: Yangi asr avlodi. 2015.
8. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -T.: Akademnashr, 2019.
9. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқарув тарихи-Тошкент: Академия, 2006.
10. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
11. Буюк сиймолар, алломалар-Тошкент: Мерос (уч китоб), 1995, 1996, 1998.
12. Брагинский И.С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. -М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1989.-132 с.

VI BOB. MO'G'ULLAR ISTILOSII VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI

Asosiy tushuncha va atamalar:

Mo'g'ullar, «Yaso» qonuni, elchilik munosabatlari, O'tror fojeasi, Urganch kengashi, O'tror mudofasi, Xo'jand qamali, Urganch qamali, Chig'atoy ulusi, Maxmud Torobiy go'zg'oloni, ma'muriy islohotlar, pul islohotlari.

VI.1. Mo'g'ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi vaziyat. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatlar. Sulton Qutbiddin Muhammad Oloviddin Xorazmshoh (Muhammad Xorazmshoh) (1200-1220) davriga kelib mamlakatning hududlari behad kengaya boshladi. Sulton o'z onasi bo'lmish "Xudovandayi-jahon, dunyo va din saxovatpeshvosi Ulug' Turkon-ikki dunyo ayollari malikasi (**Ismat ad-dunyo va ad-din Ulug' Turkon**)" unvonini olgan qipchoq xoni Jonkishining qizi Turkonxotun harbiy ko'magi hamda qo'llab-quvvatlashi natijasida o'z hokimyatini mustahkamlab olishga, zafarli yurishlar qilishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur g'alabadan o'ta ruhlangan Sulton Muhammad Xorazmshoh o'ziga «**Iskandari Soniy**» (ikkinchi Iskandar, va saljuqiylarning buyuk sultoniga taqlid qilib «Sulton Sanjar» unvonlarini oladi. Davlat muhriga esa «**zil**

Allohi fil ard” (Ollohning yerdagi soyasi) ded «kamtarona» yozdirishni buyuradi. Jurjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan Sharqda joylashgan davlatlar qiziqtirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham boʻlganligi aniq edi. Lekin Xitoy Chingizxon tomonidan oʻsha yili olinganligini eshitgan sulton bu holni tasdiqlatish va qolaversa Chingizxon davlati xususida anig ma'lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan boʻlmish taniqli zot Bahovuddin Roziyni oʻz elchisi sifatida xon huzuriga joʻnatadi Bahovuddin Roziy boshchiligidagi elchilik guruhini Chingizxon Pekinda qabul qilib, ularga ijobiy munosabatda boʻladi. Xorazm davlati elchilariga Chingizxon oʻzaro ikki davlat oʻrtasida tinchlik va doʻstlik hukmronlik qilishi lozimligini uqtirib, oʻzini “Sharq hukmdori” Xorazmshoh Muhammadni "Gʻarb elatlarining egasi” deb taʼkidlaydi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish nojoiz ekanligini anglagan Xorazmshoh oʻz diqqat-eʼtiborini yana janub hamda gʻarb hududlarga qaratadi. 1217-yili Bagʻdod xalifasi an-Nosir (1180-1225) sultonning Bagʻdodni unga topshirishi va uning nomini xutbaga qoʻshib oʻqishini qatʼiy rad etgach, Muhammad Xorazmshoh 100 000 kishilik qoʻshin bilan abbosiylar xalifaligiga yurishni boshlab yuboradi. Bagʻdod yurishi tabiiy ofatlar tufayli muvaffaqiyatsiz yakun topadi.



Oʻsha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana oʻz elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovgʻalar va mollar ortilgan katta karvon bilan oʻz elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Sultonga moʻljallangan qimmatbaho sovgʻalar ichida Chingizxon oʻlja olgan tuya oʻrkachidek keluvchi oltin boʻlagi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, yana 2 ta odam, buxorolik savdogar Alixoʻja va oʻtrolik Yusuf qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar.

Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanliklari, uni qudratli podshoh sifatida tan olib "oʻzining eng ardoqli oʻgʻillari qatorida” koʻrishini bayon etishadi. Chingizxon oʻz nomasida kuch-qudrati zafarini koʻrsatish maʼnosida Xitoy va qoʻshni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib oʻtadi. Elchilar nomasi shubhasiz sultonga maʼqul boʻlmaydi. Ayniqsa, davlatining xonini, uni oʻzining "ogʻli” qatorida koʻrishl, sharq ustamonligida qaram qilish yoki oʻz homiyligiga olish degan maʼnoni anglatishini sulton yaxshi tushunadi.

Otrok shaxrida Chingizxon tomonidan yuborilgan karvonni talanishi uni befarq qoldirmadi. Bu urushning boshlanishiga bir sabab boldi.

Albatta Xorazmshoh ham katta xatoga yoʻl qoʻygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi u emas edi.

Moʻgʻullar Xorazmshoh ustiga harbiy yurish qilishdan avval, xonning buyrugʻiga koʻra harbiy sarkarda Jebe 1218 yilda Ettisuv va Qashgʻar ustiga harbiy yurishlar qilib, Kuchluk davlatini tor-mor keltirdi. Shunday qilib, moʻgʻullar Oʻrta Osiyoga harbiy yurish qilishdan avval zahira kuchlarini mustahkamlab, Talas

vodiysigacha bo'lgan yerlarni o'z imperiyalari tarkibiga qo'shib oldilar. Shunday qilib ular bevosita Xorazmshohlar bilan chegaradosh bo'lib qoldilar

XIII asr boshlaridan Xorazmshoh Anushteginiylar davlati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning salohiyatligi, madaniyatligi, xo'jalik hayotining yuqori saviyaligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. O'zining ko'proq qang'li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo'shiniga ega edi. (Ma'lumotlarga ko'ra umumiy qo'shinning soni 400.000 ga qadar etib, bu mo'g'ullar qo'shiniga nishatan 2 barobar ortiq edi.) Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya-devonlar tizimida boshqarilar, davlat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi Hokimlar ko'p holda o'z bilganicha ish tutishar, soliqlar to'lashning ham aniq tizimi yo'q edi. Hashar yo'li bilan bironbir yo'l, ko'prik, qal'a va boshqa inshootlarni quris keng targalgan edi. Davlat ahvoli tang bo'lganda ko'p holda iqtodorlarga ishonch qolmas edi. Ayrim viloyat hokimlari shaxsan Turkon xotunga bo'ysunib, o'z bilganlaricha ish tutar edilar. Sulton Muhammadning validasi Turkon xotun qo'shin oliy sarkardalari bo'lmish qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, o'zi shu qabilaga mansub bo'lganligi uchun ularni hamisha qo'llab-quvvatlab turar edi. Sarkardalar, qo'shin boshliqlari, vazirlar, hokimlar ko'p holda uning ijozati va ko'rsatmasi ila tayin etilar, ular ham o'z navbatida, Turkon xotunga bo'ysunar edilar. Turkon xotun boshqa turkiy qabiladan bo'lmish kelin Oychechak va uning o'g'li, nabirasi Jaloliddinni yoqtirmas, bu ikki ayol o'rtasida davlatda ichki siyosiy ixtilof kuchli edi. Xorazmshoh "farzandlik mehri va hokimiyatga olib kelgan shaxs" sifatida onasini so'zini ikki qilmas, hamisha uning fikrlariga xohlasa-xohlamasa qo'shilar edi. Xorazmshohning onasi Turkon xotun aslida davlatdagi birinchi darajali shaxs hisoblanar, uning shiori «e'tasamtu Billohi Vahda» (ya'ni, yolg'iz Ollohdan panoh so'rayman) muhriga yozilgan bo'lib, hukmdor farmoniga shu muhri bilan u birinchi imzo qo'ysa, uning farmoni vojib hisoblanar edi Turkon xotun amri bilan taxt vorisi etib o'z qavmidan bo'lgan nevarasi O'zloqshoh tayin etilgan edi

Muhammad Xorazmshoh o'zining yon-atrofdagi (G'ur, Xuroson, Movarounnahr, Mozandaron, Ozarbayjon va boshqalar) uncha kuchli bo'lmagan yerlarni tezlik bilan o'z qo'l ostida birlashtirib, o'z g'alabalariga juda berilib ketgan edi. Qoraxitoylar ustidan qozonilgan g'alabadan (1210) so'ng esa o'zini mutloq yengilmas deb hisoblab, islom olamiga egaligini ham da'vo qila boshladi. Uning armiyasi soni garchi son jihatdan ko'pchilikni tashki etsada, bu qo'shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo'lmagan, salohiyati ancha past, ko'proq janubliklardan olingan yo'llanma qo'shin edi. O'z navbatida bu qo'shin vatan mudofaasi uchun emas, balki ko'proq istilo, talon-taroj, o'lja olish uchun mo'ljallangan qo'shin edi. Haqiqatda Xorazmshoh kuchli, o'ziga munosib keluvchi raqib bilan kurash olib borgani yo'q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek, o'z harbiy mahoratiga ulkan ahamiyat berishiga olib kelgan edi.

Joylarda noib va hokimlar, amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan ko'pincha zo'ravonlik, tazyiq ila munosabatda bo'lar, bu esa Xorazmshohlar davlatiga nisbatan aholining noroziligiga sabab bo'lar edi. Soliqlar miqdori bir me'yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha og'ir edi. Masalan, 1219-yili Xorazmshoh xiroj solig'ini bir yo'la uch marotabagacha undirib olishga buyruq bergan edi. 1206, 1212-yillarda Buxoro va Samarqanddagi xalq g'alayonlar zo'ravonlik va soliqlar oshib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Soliqlar va zo'ravonlikdan ezilgan xalqning Sulton Muhammadga e'tiqodi va ishonchi mo'g'ullar bosqini arafasida susayib ketdi.

Chingizxon o'zining yaxshi tizimga asoslangan ayg'oqchilar tarmog'i orqali Xorazmshohlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar edi. Shuningdek, u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori salohiyatga ega Movarounnahr ahlini osonlikcha bo'ysundirib bo'lmashligini ham yaxshi bilib, bo'lajak mahorabaga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. O'tror voqeasidan avvalroq Chingizxon qo'shinlarining Ettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib qo'ygan edi. Garchi Xorazmshoh katta qo'shinga ega bo'lsa-da, o'zaro ixtiloflar, sarkardalarga ishonchsizlik, o'z hokimiyatidan havfsirash Xorazmshoh qo'shinining zayiflashuvi, intizomning pasayishiga olib kelgan edi. Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarga zarba berish xususida Urganchdan harbiy kengash chaqiradi. Unda ko'zga ko'ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etadilar.



Asli xivalik mashhur fiqhshunos hamda davlat arbobi, shayh Ahmad ibn Umar Xivaqiy bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'l bosib kelayotgan mo'g'ul qo'shiniga chegara bo'yidayoq hal qiluvchi zarba berish to'g'risida yagona va harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Shahzoda Jaloliddin ham aslida shu fikrga qo'shilgan edi. Lekin Xorazmshoh sarkardalariga, ayniqsa qjpchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qo'shinni bir joyga to'plashdan, qo'shin yig'ilganda esa o'zini taxtdan ag'darib tashlashlari mumkin ekanligidan cho'chir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiqi bilan Kengash mudofaa usuliga o'tishni ma'qul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qal'a) va viloyatlardan iborat bo'lmish davlatda, qo'shin katta jangga kirib vatan sharafiga himoya qilish o'rniga shahar va qal'alarga bo'lib tashlandi. Ba'zi markaziy shaharlar, jumladan Buxoro va Samarqand mudofasini mustahkamlash zarur degan fikrga kelindi, xolos. Ammo bu mudofaa ham yaxshi tashkil etilmadi.

VI 2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari, unga qarshi kurash (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro) va uning fojiali oqibatlari haqida

XII asr o'rtalariga kelib Baykal ko'li atrofi, hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko'pchiligi mo'g'ullar rahnomasi Esugay bahodir ta'siriga o'ta boshlaydilar. Lekin unga qarshi turgan tatar. markit qabilalarini bo'ysundirish osonlik bilan kechmaydi. Esugayni vafotidan so'ng, uning o'gli bo'lgan Temuchinning ta'siri mo'g'ullar ichida ko'tarila boshlaydi. Temuchin

(1155-1227) (mo'g'ulcha. temir ustasi)-kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda bo'lib, parokanda qabilalarni turli yo'llar bilan o'z qo'li ostida mustahkam birlashtirgan shaxs edi.

Mo'g'ullarni birlashtirish chog'ida Temurchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli va o'ta jangovor harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ularni boshqarishni esa avvalo, o'z o'g'illari-Jo'ji, Chig'atoy. O'qtoy, Tuli, xotini Burte-fujen, safdoshlari Subutoy, Jebelarga topshirdi. O'z hokimiyatini to'liq mustahkamlab olgach, Temuchin 1206 yili mo'g'ullarning umumqurultoyini chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo'g'ul hukmdori-xon deb tantanali e'lon qilinib, unga bosh shaman Teb-Tangriy «**Chingizxon**» degan faxriy nom beradi. «**Chingiz**» so'zi tarixchi Rashididdinning yozishicha «**kuchli**», «**buyuk**» degan ma'noni anglatadi.

Qurultoyda odat bo'yicha Chingizxon o'z tug'i-bayrog'ini ko'tardi, 10 ta lavozim joriy etib, uni o'z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahrini markaziy poytaxt deb belgiladi. O'z qo'li ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo'lib ularga aniq vazifalarni bo'lib berdi. Butun Mo'g'uliston 95 ta harbiy-ma'muriy birlikka bo'lindi Yangi mo'g'ul davlati - Eke Mo'ng'ul ulus (buyuk mo'g'ul davlati) deb atala boshlandi. Chingizxon tayin etgan davlat bosh hakami Shiki-Xutuxuga «Yasoq»qa qarab ish tutishni qat'iy belgilab bergan edi. «Yasoq» qonunlari mo'g'ullarning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda qattiq ohangda, patriarxal harbiy tuzumni o'zida aks etirgan edi. «Yasoq» qonunlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Hukmdor (xon) «Yasoq»qa qat'iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilish, amal qilmagudek bo'lsa, xonni umrbod qamash mumkin bo'ladi;
2. Chingizxon mo'g'ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to'la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi;
3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo'lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim;
4. Jazolash darajasi sifatida o'lim jazosini eng ko'p miqdorda qo'llash
5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul rahm- shavqat qilmaslik.

Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshiktan) 9000 kishigacha yetkazdi. Chingizxon 1209 yilda tangutlarni, 1211-yilda uyg'urlarni, 1215-yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda o'ziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Sin sulolasi tugatilib, juda katta o'lja olindi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy mahoratla urushning yangi usullari qo'llanildi. Madaniy jihatdan ancha qoloq mo'g'ullar ko'p jihatdan uyg'ur va musulmon ahli tajribasidan keng foydalanishdi.

Xitoyni zabt etgan Chingizxon shu bilan kifoya etib qolmasligi aniq edi. Badavlat Movarounnahr savdo ahli, o'lkamiz behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy binolar, qolaversa qadimiy yurtimizning fayz-u tarovati mo'g'ullarni anchadan beri o'ziga jalb qilayotganligi ma'lum edi. Chingizxon davlati g'arbda Qipchoq cho'llari, qoraxitoylarning ko'chmanchi G'arbiy Lyao (SiLyao) va xorazmshoh-anushteginiylar davlati bilan

chegaradosh edi. Shubhasiz uning g'arbdagi eng yirik va kuchli qo'shnisi hamda raqibi buyuk xorazmshoh-anushteginiylar davlati (1097-1231) edi.

Xitoydan Xorazmga katta karvon jo'natiladi, unda Maxmud Yalovoch karvonboshi bo'lib, u Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib keladi. Xorazmshoh o'z yoniga Mahmud Yalovuchni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib, maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyiradi. O'z hayotidan havfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an-Nasaviyning yozishicha, "sulton eshitishni xohlagan" ma'lumotni aytib sulton taklifiga ko'nadi. Xorazmshoh unga javohir sovg'a qilib Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, to'plangan ma'tumotlardan mamnun bo'ladi. Zero Yalavoch sohta "josus" rolini o'ynab, bor haqiqatni Chingizxonga yetkazgan edi O'sha yiliyoq, ya'ni 1218-yili Chingizxon sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va o'zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. O'z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang'ut va boshqa davlatlardan o'lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to'ldirgan edi. Karvon bilan Chingizxon nomidan buyruqnamo oxangda yozilgan maktub olib boriladi. Unda jumladan, "... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishini buyuramiz..." deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoqi baland ekanligidan dalolat berar edi.

Ushbu karvonda asli movarounnahrlik bo'lmish Umarxo'ja Otroriy, hammol Merokiv, Fahriddin Dizaqiy, Buxoriy, Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda o'rta elchilari edilar. Karvon Urganch tomon yo'l olgan edi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror yerlariga kirib kelishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inalxon (Inolchiq uning Forsiy tahalusi G'oyirxon edi) Turkon xotunning yaqin qarindoshi, Xorazmshohga yaqin shaxs bo'lgan. Inalxon, arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanib, Xorazmshoh ushbu savdo mollari pulini o'ziga oladi. Ba'zi tarixiy manbalarda esa Inalxon garchi karvonni to'xtatish buyrug'ini olgan bo'lsa ham o'z holicha uni qirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo'lganda ham, Xorazmshohlar qo'pol siyosiy xatoga yol qo'yib, elchilarni qirg'in-barot qildiradilar. O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon Ibn Kafrojiy Bug'roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. Chingizxon O'tror fojeasining aybdori Inalxonni tutib mo'g'ullar qo'liga topshirishini, elchilar o'limining sabablarini keskin tarzda so'raydi. Mo'g'ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun O'tror hokimini Chingizxon qo'liga topshirish kerak degan taklifni ko'targan Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug'i bilan elchi bo'lmish Ibn Kafroj Bug'ro o'ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo'ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo'g'ullar bilan ertami-kechmi, urush bo'lishini yaxshi anglagan edi. Qolaversa, mamlakatda mo'g'ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo'lganda ham sulton Chingizxonga shu yo'sinda dag' dag' ali javob berishga qaror qildi. Tarixchi Rashiddin o'zining «**Jome at-Tavorix**» asarida

yozishicha Xorazmshohning ushbu dag'dag'asi va qilmishi «Chingizxonning yuragiga shunday ta'sir qildi-ki, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Chingizxon islom olamining dushmani bo'lib qolmaslik uchun shunday yo'l tutdi-ki, urush boshlanishiga rasman Xorazmshoh sababchi bo'lib qoldi. O'zini esa «Olijanob xaloskor» deb hisobladi.

Chingizxon 1219-yili o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri tayyorlangan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo'yida o'tkazib, sentyabr oyida chegaradan o'tadi Chingizxonga uyg'ur ediquti (xoni) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig'noqteginlar ham o'z qo'shini bilan kelib qo'shildilar. Chegaradan o'tgan Chingizxon o'z qo'shini bilan janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqinida to'plab uni 4 qismga bo'ladi.

Chig'atoy va O'qtoy qo'shinining bir qismi bilan O'trojni qamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo'chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent Borchig'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi besh ming chog'li qo'shinga Oloq no'yon va Suketu Cherbi bosh bo'lib O'trordan janubga Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon o'zi bosh bo'lgan to'rtinchi, asosiy qism Zarafshon vohasi tomon Buxoro hamda Samarqandni istilo etishga yo'l oladi.

Chegaradagi O'tror mustahkam shahar qal'a bolib mo'g'ullarga olti oy davomida mardonavor qarshilik ko'rsatgan edi. O'tror hokimi Inalxon (G'oyirxonkol ostida 50 suvoriy bo'lib, Xorazmshoh unga yordam tariqasida 50 kishilik "lashkari berun"ni ham yuborgan edi.

Qamal davomida qo'shimcha tarzda yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10.000 kishilik qo'shin ham yuborilgan edi. O'tror hokimi jasur va mard sarkarda Inalxon unga mahorat bilan boshchilik qilar edi. Mard sarkardani mo'g'ullar tiriklayin qo'lga tushirib, Samarqandga Chingizxon huzuriga yuborganlar. Chingizxon esa manbalarning yozishiga ko'ra, kumushni eritib o'z huzurida sarkardaning quloq va ko'ziga quyishni buyurgan. Inalxon shu tariqa vahshiyona ravishda o'ldirilgan. O'tror shahri o'z jasorati evaziga mo'g'ullar tomonidan butkul buzib tashlandi. Buxoro yo'nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerinh) va Nur qal'alari jangsiz taslim bo'ladilar.

Chingizxon 1220-yilning fevral oyi boshlarida (ba'zi adabiyotlarda 7 fevralda deyiladi) Sharqning qadimiy go'zal shahri Buxoro yaqinida paydo bo'ldi. Uch kunlik shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 lik shahar garnizoni va 20.000 kishilik "lashkari berun" mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyoriddin Qo'shlu, Inanchxon Og'ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo'g'ullardan qochib otgan uyg'ur sarkardasi Ko'kxon (Go'rxon) bosh edilar.

Sarkardalardan Inanchxon bazo'r Amudaryodan o'tib qutulishga muvaffaq bo'ladi, Hamid Pura Qoraxitoy mardonavor jangda halok bo'ladi, qolgan-qutgan harbiylar Buxoroga qaytib chekinishga majbur bo'ladilar. Ahli Buxoro o'z himoyachilaridan ayrilgandan so'ng, shahar ahli jonini salomat saqlab qolish niyatida shaharliklar maslahatlashib Buxoro qozisi Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuboradilar.

Aksariyat shaharliklar o'z qarshiliklarini davom ettirdilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo'g'ul askarlariga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Ko'kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Arkni egallash uchun qilingan mo'g'ullar hatti-harakatlari zoe ketdi. Qal'a odam va hayvon o'liklari bilan to'lib ketdi. Ko'kxon boshchiligidagi mudofaachilar qahramonona halok bo'lganlaridan so'nggina ark egallandi. Buxoroliklar qarshiligi mo'g'ullarni qattiq g'azablantirdi. Bu jasorat evaziga mo'g'ullar shahar ahlidan 30000 chog'li kishini qirib tashladilar. Kelib chiqishidan qat'iy nazar qolgan aholi qullikka mahkum etildi. Ma'rifatli, nozik ta'b, madaniyatli va ilmi Buxoro ahli sahroilar tomonidan zulm va tahqirlanish girdobiga tortildi.

Buxorodan so'ng Chingizxon Samargand tomon yo'l oldi. 1220 yil mart oyi boshida u Samargandga yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movoraunnahr uchun, Xorazmshohlar uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni egallashga katta e'tibor bilan qaradi. Shaharda 110.000 kishilik harbiy garnizon (undan 60.000 tasi turkiy, 50.000 tojiklar edi.), 20 ta harbiy ilmiga o'rgatilgan fil ham mavjud edi. Sulton Muhammadning tog'asi To'g'ayxon shahar noibi bo'lib, shahar mudofasiga birmuncha tayyor ham edi.

Chingizxonning o'zi shahar tashqarisidagi Ko'ksaroy qo'rg'onidan turib shahar qamaliga boshchilik qildi. 1220-yilning mart oyining boshlarida shahar gattiq qamal qilinib, to'xtovsiz hujum boshlandi. Qamalning 3-kunidan boshlab shahar qamaliga Chingizxonning shaxsan o'zi boshchilik qila boshlaydi. Qamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliqlari keyingi qarshilik maqsadga muvofiq emas va ommaviy qirg'in bo'lishini oldini olish kerak, degan maqsadda mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qiladilar. Samarqandda jami aholining faqat 1/4 qismigina tirik qoldi. Mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketgan sobiq shahar noibi To'g'ayxon tez orada o'zining 30000 kishisi bilan Chingizxon buyrug'iga ko'ra qirib tashlandi.

Taslim bo'lgan shaharda mo'g'ullar qilgan talon-tarojliklar tufayli Movarounnahr poytaxti huvillab qoladi va yer bilan yakson qilinadi.

Bu vaqtda Sulton Muhammad Xorazmshoh janubda, Balxdagi o'z qarorgohida turib, voqelikni befarq kuzatuvchi sifatida harakatsiz turar edi. Mo'g'ullar kirib kelayotgan vaqtdayoq unga Iroqqa qarab chekinishni ba'zi amaldorlar maslahat berishgan edi. Ko'pgina sargardonliklardan so'ng sulton Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi oroliga borib o'rtnashadi. Ham jismoniy, ham ruhly ma'naviy ezilgan sobiq hukmdor bu erda plevrit (o'pka qobig'iga suv yig'ilishi) kasaliga chalinib, o'z o'g'illarini yoniga chorlaydi. O'z gunohlariga iqror bo'lgan holda ushbu orolda xorlik va azob-uqubat bilan 1220-yilning dekabr oyida vafot etadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng Jalolidin otasining murdasini tog'liq Ardahi qal'asiga olib borib dafn etadi. Chingizxonning katta o'g'li- Jo'ji boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yugori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi qamaldan so'ng Sig'noq va Borchilig'kent shaharlarini egallaganidan so'ng mustahkam qal'a hisoblangan

Xo‘jandga hujum boshlaydilar. Mo‘g‘ullar 20.000 nafar qo‘shin va 50.000 ming chog‘li asirga tushgan hasharchilarni Xo‘jand atrofiga yig‘adilar.

Temur Malik Xo‘jand hokimi Temur Malik asli turkiy sarkardalardan bo‘lib, Xorazmshohlar davlatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo‘lgan shaxs edi. Mo‘g‘ullarga qarshi tura olish mumkin emasligini sezgan Temur Malik (malik-hokim ma'nosida) taxminan 1000 nafar askari bilan Xo‘janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo‘jazgina orolida joylashib oladi.

Qulay strategik ahamiyatga ega bo‘lgan orolga mo‘g‘ullar otgan o‘qlari, palaxmon toshlari yetib bormas edi. Temur Malik buyrug‘iga ko‘ra 12 ta qayiq yasatilib, o‘q o‘tmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqarning usti namat bilan qoplanib, sirka bilan shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi. Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, bor oziq-ovqat zahirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab,



Temur Malik

tunda daryoning quyi oqimi bo‘ylab suzib ketadi. Mo‘g‘ullar ikki sohil bo‘ylab Temur Malik kemalariga to‘xtovsiz hujumni uyushtirar edilar. Hatto Banokat bo‘yida daryoning u bu sohiliga zanjir ham tortib qo‘yadilar. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar yetib keladilar. Mo‘g‘ul sarkardasi Ulus Idi Borchilig‘kent va Jand yaginita manjaniqlar (tosh otarlar zambaraklar) o‘rnatib, qayiqarni bir-biriga tutashtirib, jasur sarkarda yo‘lini to‘sadi. Uzoq janglardan so‘ng Temur Malik Urganchga yetib keladi va Urganch, himoyasida qatnashib Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinroq, uzoq sargardonliklardan so‘ng sarkarda Temur Malik o‘z yurtiga darvesh sifatida kelib, qahramonona ravishda mo‘g‘ul harbiylari qo‘lida halok bo‘ladi.

Temur Malik jasorati haqida Mirmuhsin «Temur Malik» romanini (1986 y), Ashrafiy «Temur Malik» nomli simfonik poema (1963) yaratgan va uning Navoiy teatrida «Temur Malik» baleti (1970) sahnalashtirilgan. Toshkent shahridagi ko‘chalardan biriga Temur Malik nomi berilgan. Temur Malikni o‘z ona yurti Xo‘jandda ham nomini ehtirom bilan tilga olishadi. Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati tumanlaridan biri uning nomi bilan ataladi Xo‘jand shahrining 2500 yillik tantanalari munosabati bilan ochilgan 1986 yilda viloyat tarixi muzeyida Temur Malikning ulug‘vor haykali qo‘yilgan. Vatan uchun jonini fido etgan vatanparvarlar siymosi xalq qalbida e‘zozlanmoqda.

Chingizxon 1220 yilning yozini Movarounnahr janubida o‘tkazmoqchi bo‘ldi. Chunki u janub shaharlarini egallashga shaxsan bosh qo‘shgan edi. Zero janubda hali bosqinchilar qadami yetmagan bir qator boy viloyat va shaharlar mavjud edi. Avval u Nahshabga bostirib bordi Shaharliklar mo‘g‘ullarning mislsiz zo‘ravonlik va bosqinidan yaxshi xabardor edilar. Nahshab ahli dahshatga tushib, shaharni mo‘g‘ullarga ixtiyoriy topshiradilar.

Chingizxon yozni Nahshabda o‘tkazib, 1220 yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz Hindiston va O‘rta Osiyo savdo yo‘llari tutashgan bir qulay yerda joylashgan bo‘lib, uning Amudaryo sohiliga tutashgan qal’asi o‘z vaqtida mustahkam

ravishda barpo etilgan edi. Termiz hokimi Faxriddin habash mo'g'ullar bosqiniga mardonavor turib javob berishga qaror qildi. Mudofaaning o'n birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-taroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib qirib tashlandi. Movaraunnahrning asosiy qismlari-Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo, Buxoro vohasi, Shosh va Farg'ona vodiysi egallangach, Chingizxon endilikda o'zining asosiy e'tiborini Xorazmshohlar davlatining markazi Xorazm o'lkasiga qaratdi. Bu yurishga o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy (Ugedey) larni mas'ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon Sharqining eng katta shahri bo'lmish, madaniyat, savdo gullab yashnagan boy- badavlat qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi. Ushbu yurish 1221 yilning boshida boshlandi.

1221 yilning boshida sulton deb e'lon qilingan Jaloliddin va shahzodalar Oqshoh, O'zloqshohlar bilan Urganchga keladi. Lekin Urganchdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug'xonning unga qarshi suiqasdi, qipchoq sarkardalarini xoinona o'zlarining tutishlari, Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo'lish fikridan qaytaradi. Qipchoglar uni hokimiyat tepasiga kelishini xohlamas edilar. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo'lmasligi aniq bo'lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so'ng Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda 300 ta kishi bilan shaharni tark etib Xurosonga yo'l olishadi. Uning ortidan esa, tez orada Oqshoh va O'zloqshohlar ham yo'l olishadi. Jaloliddinning faoliyatini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq bo'lgani uchun keyinroq bu buyuk shaxs faoliyati to'g'risida batafsil to'xtalinadi.

Urganchda esa shahardagi qipchoq sarkardalari- O'g'ul Hojib, Erbuqa pahlavon, Ali Darug'iniy va boshqalar Turkon xotunning jiyani Yosh Xumorteginni sulton deb e'lon qiladilar Turkon xotunning o'zi Mozandarondagi Ilol qal'asiga kelib o'rnatilib, o'z hayoti va boyliklarini saqlash taraddudiga tushadi. Qal'ada suvsizlikdan sillasi qurigan sobiq malika mo'g'ullarga asirga tushib, xorazmshohlar xazinasini ular qo'lga topshirdi. Qoraqurumda cho'ri bo'lgan Turkon xotun 1233 yili xor-u-zorlikda vafot etadi. Xumortegin layoqatsiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, qo'rqqoq shaxs edi.

Urganchga Chingizxonning o'g'illari Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy, taniqli mo'g'ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no'yon, Qozon no'yon va boshqalar o'z harbiy kuchlari bilan yetib keladilar. Xorazm Jo'ji boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, Jo'chi shaharni tinchlik yo'li bilan mo'g'ullarga topshirishni talab etadi. Lekin nima bo'lganda ham jasur shahar himoyachilari mudofaaga qat'iy tayyorgarlik ko'rib jonajon shaharlarini mo'g'ullarga berishdan qat'iy bosh tortdilar. 1221yili boshidan boshlangan Urganch qamali deyarli 7 oy davom etadi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlaydilar. Urganchda tarixchilardan an-Nasaviy, Juvayniylarning yozishlariga ko'ra, shaharliklar har bir ko'cha, mavzeni jon- jahdlari bilan himoya qilganlar. Ko'prik ustidagi jangda shaharliklar 3000 nafardan ziyod mo'g'ul askarlarini qirib tashlashga ham muvaffaq bo'ladilar. Shahardagi janglarda Xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, "Kubroviya" tarigatining asoschisi



Ahmad ibn Umar al-Xevaqqiy(Najmiddin al-Kubro) (1145-1221 yy.) ham faol qatnashdi.

Buyuk alloma -76 yoshli Najmiddin Kubro Chingizxon qo'shinlari Urganch shahrini qamal qilganda shahar mudofaasini yaxshi tashkil etib, xalqqa bosh bo'ldi. Kubroning «Yo Vatan yo sharaflı o'lim» deb qilgan xitobi ostida urganchliklar qariyb 5 oy mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatdilar. Biroq yordamchi kuchlar bo'lmaganligi sababli mag'lub bo'lishdi. Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo'lgan. Qabri ko'xna Urganchda. Kexsa shayx va donishmand insonning bu jangdagi qahramonligi, jasorati avlodlarga ibrat bo'lib qoldi.

Shahar mudofaasi cho'zilib, hatto Chingizxon o'g'illari Jo'ji va Chig'atoy o'rtasida ham ixtilof chiqib shaharni egallash boshqa bir og'il O'qtoygaga topshirildi. Behisob qon daryo bo'lib oqib, bundan so'nggi himoya befoydaligini sezgan shaharliklar qolganlarni jonini saqlab qolish maqsadida taslim bo'lishdan o'zga choralari qolmaydi. 100000 dan ko'proq hunarmandlar ajratib olinib Mo'g'ulistonga jo'natiladi. Shahar ahli dashtga haydab chiqarilib, bolalar va ayollar bo'lib olinadi. Ortiqcha askarlar haqoratli o'limga muhtalo etiladi. Shahar qo'lga olingandan uning asosiy qismi buzilgan honavayron bo'lgan edi. Shundan keyin ham mo'g'ullar Amudaryo to'g'onini buzib, shaharni suvga bostiradilar.

Urganch qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221 yilning bahorida o'zining e'tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yo'llari ustida joylashgan boy madaniyat markazlari bo'lmish Balx, Hirot, G'azna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi. Ba'zi bir janublik Xorazmshoh noiblari, jumladan Amin-al mulk ham mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona oldirildi. Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida qator qal'a, shaharlar qattiq janglar ila ishg'ol qilindi (Bamiyon, G'azna, Qandahor Gardiz, Valiyon va boshqalar.) Ularning janubdagi oxirgi egallagan shahri Hindistonning shimoliy g'arbidagi Mo'ltan bo'lib qoldi.

Manbalarda Buxoro, Samarqand, Balx, Marv; Nishopur va ko'plab ma'lum va mashhur shaharlar talon-taroj etilib vayron qilindi. Mo'g'ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba'zi shaharlar, masalan, O'tror, Sig'noq, boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dasht-biyobonlarga aylanib qoldi. Mogillar hech qaysi shaharlarni omon qoldirmadilar, ketayotib hamma yerni vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar o'zlariga yoqmagan barcha narsalarga o't qo'ydilar.

Jaloliddin Manguberdi

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri mo'gul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan Jaloliddin Manguberdidir. O'rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va mirzasi ham bo'lgan Shohobiddin an Nasaviy Jaloliddin Mankburni ning hayot yoli haqida o'z asarlarida ma'lumot berishgan.

Jaloliddin og'ir bir paytda Movaraunnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, imperiya qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik yo'liga, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'liga tushgan, sulton mamlakatni o'z holiga

tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta og'il bo'lsa-da, buvisi

Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon-xotun urug'idan bo'lmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi.

Garchi Jaloliddin buvisining buyrug'i bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va uni o'zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Xaraviyni, noib (o'rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi. Muhammad Xorazmshoh 1220-yil quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashura



Jaloliddin Manguberdi

orolida vafot etadi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshiradi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Urganchga keladi. Tez orada unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qo'shiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberдини shod-u-xurramlik va katta umid bilan kutib oladi.

Lekin inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu holatda mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmashligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan ekan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo'rg'oni atrofiga yetib keladi. Chingizxon sulton o'g'illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach, agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bo'lsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o'z qo'shinidan Xurosonning har yeriga pistirmalar qo'yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300 ta askarlari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik qo'shinini zarbaga uchratadi. Mo'g'ullar batamom mag'lub etiladi.

Bu vaqtda Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mo'g'ullarning kichik otryadi ustidan g'alaba qozonib, bu g'alabaga juda katta e'tibor berib yuborishadi. Shundan so'ng aysh-u-ishratga berilib, Xurosonning Xabushan shahri yaqinida mo'g'ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo'lga tushib, qatl etiladilar. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga yetib keladi. Bir oy davomida mo'g'ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo'shin yig'ish hususida murojat qiladi. Mo'g'ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo'lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig'ida) tumanidagi al-Qohira qal'asiga kelib

o'rnashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib hokimlar uning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali yetarli kuchga ega bo'lmagan Jaloliddin qal'ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G'azna tomon yo'l oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo'shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G'aznaga yetmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo'lmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladilar. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar mag'lub etilib Jaloliddin g'olib bo'ladi va u G'azna tomon yo'l oladi.

U 1221-yilning fevralida G'aznaga kirib keladi. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va mo'g'ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g'azablanib, no'yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni uning ustiga yuboradi.

Jaloliddin bir hamladayoq mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo'ladi. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim Janglaridan biri 1221 yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvona dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Parvona jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shixi Kutuxu qolgan qutgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga bazo'r qochishga ulguradi.

Parvona yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha mo'g'ullarning ilohiy, yengilmas kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap so'zlarga, afsonalarga chek qo'yildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movaraunnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko'tarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ullarga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko'targan aholi esa mo'g'ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanilishi mo'g'ullar bosib olgan yerlar uchun qanchalik xavf tug'dirishini yaxshi anglab etgan edi. Shu sababdan ham shaxsan o'zi Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga bosh bo'lib, janub tomon yo'l oldi.

Jaloliddin qo'shini Parvona jangidan so'ng katta o'ljani qo'lga kiritgan edi. Ushbu o'ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin O'g'roq o'rtasida ixtilof chiqadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin O'g'roq va undan keyin boshqalar ham qo'shindan ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo'shini kamayib, u nihoyatda og'ir bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risidagi murojaati zoe ketdi. Jaloliddin xasta bolib turgan paytida mo'g'ullarning ilg'or guruhi Gardezga (G'aznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) o'rnashganligidan xabardor bo'ladi. Jaloliddin xastaligiga qaramasdan Gardezdagi mo'g'ul askarlariga to'satdan zarba berib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish va uni qo'lga tushirish ilinjida bo'lgan Chingizxon uni izma-iz ta'qib etib keladi. Jaloliddinni ta'qib etib kelayotgan mo'g'ullarga ayniqsa Bamiyon qal'asi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Bamiyon qamali vaqtida Chig'atoyning o'g'li Chingizxonning suyukli nabirasi Mutulk halok

bo'ladi. Bundan darg'azab bo'lgan Chingizxon qal'adan bironta o'lja, bironta odamni asirlikka olmay barcha qal'a ahlini qirib tashlashni buyuradi.

Nihoyat 1221-yilning 25-noyabri, payshanba kuni (hijriy 618-yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini ko'rsatdilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshladi Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli o'g'li Chingizxon qo'shini qo'lga tushib qolib o'ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar halok bo'ldilar. Chingizxon qanday qilib bo'lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin esa uni qo'lga olishga intilayotgan mo'g'ul qo'shini qo'rshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga etib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo bo'yida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular "... bizni o'ldiring va mash'um asirlikdan qutqaring" deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barchalarini cho'ktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O'zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti-Hindiston tomonga suzib o'tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligi, uning jasorati va mardligiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda Jaloliddinning jasoratiga qo'il qolib Chingizxon o'z og'illariga qarata "Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan hali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!",-dedi va uning orqasida ta'qib etishni taqiqladi. Sind daryosi bo'yidagi jangdan so'ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo'shinidan o'z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal'alarini qo'lga olib, ularni yo'q qilish bilan band bo'lgan.

Rashididdinning yozishiga ko'ra, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg'og'ida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik qolganlar ham ma'naviy-ruhiy ham og'ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatradagi mahalliy hind rojalaridan biri 40.000 chog'li qo'shini bilan daryoning bu betiga suzib o'tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun yetib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona hatti-harakati tufayli Roja o'ldirilib, qo'shin orqaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko'tarilib, tez orada Jaloliddin o'z atrofiga 3 ming kishilik askarni yig'ishga muvaffaq bo'ladi. Og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmasdan, qadi bukilmagan sarkarda Hindistonga o'tgach, Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishg'ol qila boshlaydi Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211-1236) va Sind, Mo'ltan, Lohur va Peshovar hokimi bo'lmish Nosiriddin Qubacha (1205-1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirlarigacha bo'lib, xorazmshohlarning azaliy mulki bo'lgan Iroq va Eronni o'z izmiga kiritish maqsadida yo'lga otlanadi. O'z o'rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O'zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229 yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so'ngra Jaloliddin huzuriga

Iroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida yelkadosh bo'lib xizmat qiladi. 1224 yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bo'lmish ukasi G'iyosiddindan yordam uchun 4000 kishilik qo'shin oladi. U o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq katta tantana bilan kutib oladi.

1230 - yilga qadar Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi.

1230-yil 10-avgustida Koniya sultoni, Xims hokimi, Halab hokimi, Mayafariqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag'lub etadi. Ismoililar esa butkul xoinlik yo'lini tutib Jaloliddinning mag'lubiyati to'g'risida mo'g'ullarga yashirin noma ham yuboradilar Jaloliddin mag'lubiyatidan foydalangan mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mug'on, Shirkabutdagi qo'shin yig'ishi mumkin bo'lgan joylariga qo'qqisdan zarba berishadi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kudratlarini unutib, yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz qolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal'asi hokimi uni o'z oldiga chorlaydi. U Iroqqa borib yana qo'shin to'plamoqchi bo'ladi.

Amida yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qilib qolishadi (1231 yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishadi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajrab Mayafariqin (Hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Aynadardar qishlog'iga keladi. Ushbu tog'lik qishloqda u kurdlar qo'liga tushadi. O'zini sulton deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazo etmaydilar. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga mukofot va'da qiladi. Lekin kurdlar rahbari honadonidan joy olgan horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231 yilning avgust oyi 17-20 sanalari oralig'ida ro'y beradi.

Jaloliddin Manguberдини shaxsan bilgan Shahobiddin an-Nasaviy u to'g'risida shunday ta'rif bergan edi: "U turkiy bo'lib, El-Yurt o'z xayotidan ustun qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor qo'ygan Jaloliddin Manguberdi, o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham Najmiddin Kubro kabi mardlik va bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda jasorat timsoli bo'lgan bobolarimiz tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar butun xalqimizning iftixoriga ichida eng jasuri edi. qisqa so'zli, hech aylangan. Sh.M. Mirziyoyev qachon so'kinmagan yomon so'zlarni o'ziga ep ko'rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o'zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo'yar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U o'z fuqarolarini dardini yengillashtirishga harakat qilgan, shuni hohlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l bergan. O'zini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflarni yoqtirmagan, faqat sulton deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: "Yordam yolg'iz Oллоhdandir!" degan shior bo'lgan.»

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1998 yil 24 sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud kuni keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib o'tildi.

Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, 2000 yil 30 avgustda "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi, mohir rassom T. Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, "Jaloliddin Manguberdi-Vatan, yurt himoyachisi" mavzuida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movaraunnahr. Xorazmning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi.

Bosqindan so'ng sharqqa dong'i ketgan zargarlik, qurol- aslaha yasash, nafis matolar to'qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashhur ipak savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyondalari xor-zor etildi. Tirik qolgan aholi vayronalarga, zulm va zo'ravonlikka, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi 1207-yildayoq katta o'g'il ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan yerlar mulk yoyib berilgan edi. Chingizxon o'limi arafasida (1227-yil avgust) esa boshqa o'g'illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo'lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar Jo'chiga, Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'il Chig'atoyga, Xitoy va Mo'g'uliston voris bo'lmish uchinchi o'g'il Ogedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo'lib berildi.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo'g'ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko'rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi.

. Mo'g'ul xon va mahalliy zodagon, yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshladi. O'lponu soliqlarning miqdori tobora oshib bordi undan tashqari esa aholidan yig'ib olinadigan turli to'lovu yig'imglar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi.

Misilsiz jabr-zulm, aholining xo'rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi soliqlarning haddan ziyod o'sishi, mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilikharakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238 Mahmud Tarobiy qo'zg'olonida o'z aksini namoyon qildi Bu ozodlik qo'zg'oloni 1238-yil Buxorodning Tarob qishlog'ida boshlandi, Bu qo'zg'olonda mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og'irlashgan hunarmand, dehqon, va kambag'al aholi, ayniqsa, faol qatnashadi. Qo'zg'olonga esa asli Tarob qishlog'idan bo'lgan g'alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Mahmud Tarobiy avval o'z qishlog'ida istilochilar zulmi bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. Qo'zg'olon kuch-qudrati oshib borayotganligini, xalq qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib borayotganligini ko'rgan mo'g'ul no'yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam so'rashga majbur bo'ladilar. Mahmud Tarobiy o'zining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi.

Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan qochgan mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panohtopgan edilar. Bu yerda ular ma'lum kuch to'plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo'lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'lga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o'rtadagi qattiq jangdan so'ng istilochilar yengilib orqaga chekindilar. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni to' Karmanagacha quvib bordilar. Ushbu jangda mo'g'ullardan 10000 kishi qirib tashlandi. Lekin bu zafarli jangda qo'zg'olonchilar rahbarlari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiyalar halok bo'ldilar. Qo'zg'olonchilar endilikda shahid ketgan Mahmud Tarobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaydilar. Lekin bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari yo'q, xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo'zg'olonning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Oradan bir hafta o'tmay mo'g'ullarning Elduz no'yon va Chag'an qo'riqlari olonni bostirish uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan oshiq boshchiligidagi yangi qo'shini qo'zg'olon jangchilari halok bo'ldi.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq qo'zg'olonini xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. U, avvalo, istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo'zg'olonini mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shavqatsiz tuzum o'rnatmasinlar, xalq hamisha o'z ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan cho'chimasligini namoyon qildi. Mo'g'ullar bu qo'zg'olondan so'ng bosqoqlar tomonidan yig'iladigan soliq va o'lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan keyin Chig'atoy qo'zg'olonini bostirishda sustkashlik qilgan, degan maqsadda, Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtirib, uni Movaraunnahrdan chiqartirib yubordi. Tez orada xoqon uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib jo'natadi. Shundan so'ng Movaraunnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o'g'li Ma'sudbek tayin etiladi. U o'limiga qadar (1289 y.) shu lavozimni egallab turadi.

XIII asrning ikkinchi choraklaridan mo'g'ullarning ichida ham endilikda ma'lum siyosiy nizolar, parokandaliklar kelib chiqib boshlaydi. 1241-yilga kelib bosib olingan Rusiya, Volga bo'y, Ural va boshqa yerlardan Oltin O'rda davlati tashkil topadi. Mo'g'ullar 1256-yili Xulagu boshchiligidagi Eron, Kurdiston, Iroq va Yaqin Sharqning boshqa yerlariga hujum qiladilar. Mo'g'ul xonlari o'rtasida oliy hukmdorlik uchun kurash avj oladi. Ayniqsa, buyuk xogon Guyukxonning (1246-1249) o'limidan so'ng bu kurash keskin kuchayadi. 1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo'llab-quvvatlashlari bilan Tulining to'ng'ich o'g'li Munqa (1251-1259) ulug' xon sifatida saylanadi. U dastlab Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo'lib oladi. Keyinchalik Munqaning o'limidan so'ng Chig'atoyning nevarasi Olg'uxon (1261-1266) Oltin O'rdaga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi.

XIII asrning 60-70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo'g'ul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar. Movaraunnahrdagi Chig'atoylar, Oltin O'rda deyarli mustaqil qismlariga bo'linib ketgan edi. Har bir ulus xoni o'zini tamomila

mustaqil sanab, payt kelganda qo'shni uluslarga o'lja uchun hujum ham qilib turar edilar. Masalan 1272-yili Xulagiylarning Oqbek boshchiligidagi askarlari Kesh va Nahshab shaharlarini, 1273-yil yanvarida Buxoroni talon-taroj etadilar. Buxoro dahshatli qirg'in-barotni boshdan kechirib, yetti yilgacha vayrona tarzda yotadi.

Ba'zi no'yon, xonlar, harbiy ma'murlarning kichik qismi ularga ergashgan mahalliy zodagonlar, savdogarlar, diniy ulamolar va boshqalar o'troq hayotga o'tish, markaziy hokimyatni kuchaytirib, savdo-sotiqni rivojlantirish tarafdorlari edi. Dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy manbai bo'lishi mumkin edi. Buning uchun esa shahar va qishloqlarni tiklash, ekinzorlarni o'zaro payhon etishga chek qo'yish soliqlarni tartibga tushirish, shaharlar rivoji savdo hunarmandchilikka homiylik qilish darkor edi. Yuqorida ta'kidlangan ma'daniylashish tarafdorlari safiga Munqaxon (1251-1259) va Chig'atoy noibi, xoqonning yaqin maslahatchisi Ma'sudbek (1238-1289) ham kirar edilar. Munqaxon shubhasiz tadbirli va zehnli Movaraunnahr noibi Ma'sudbekning ta'siri ostida ba'zi bir ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Ayniqsa, xo'jalik-iqtisodiy hayotni bir me'yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig'atoy ulusi noibi Masudbekning xizmati va islohotlari katta o'rin tutgan. Ma'sudbek mo'g'ul qoonlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o'tkazilishga imkon ham bergan edi. 1271-yili mo'g'ullarning ma'daniy, o'troq hayot tarafdorlari madadi, Talas qurultoyi (1269-y) qarorlariga tayanib, Masudbek yangi pul islohoti o'tkazishga kirishdi. Unga ko'ra, har qanday shaxs o'ziga kerakli tangalarni zarbhonalarga olib borib, uni hohlagan tarzda, lekin har hil hajm, qiymat, vaznda zarb etish mumkin edi. Avval boshida qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80 yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarida bir hil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etildi. Ma'sudbek 1273-1276-yillari Buxoroning qayta tiklanishiga o'zi bosh qo'sha boshladi. 1282-1283 yillarda Buxorodagi zarbxonalar to'laonli ishlashga kirishdi. Savdo iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borayotgan Farg'ona vodiysida esa Chig'atoy xoni Duvaxon (1291-1306) davrida Andijon shahriga ham asos solindi.

XIV asrning 1-yarimiga kelib, Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'rtoqlashuv jarayoni kuchayib, mo'g'ul zodagonlari katta qismi savdo doiralari bilan yaqinlashib, islom ma'daniyati ta'siriga berilishi kuchayib bordi. Movaraunnahr ma'daniy o'lkasi bilan yaqin aloqa o'rnatib, o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri Kebekxon (1309, 1318-1326) bo'ldi. U butunlay Movaraunnahrga ko'chib kelib, o'z qarorgohini Nasaf yaqinida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy o'rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma'muriy tuzilishini qayta tiklash, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida 2 xil ma'muriy va moliyaviy islohot o'tkazdi. Ma'muriy islohotga ko'ra mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar maliklar, sadrlarning o'rinlari turkiy- mo'g'ul urug' boshliqlari qo'liga o'tdi. Noiblik esa merosiy bo'lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o'zining ijodiy samarasini berdi.

Ma'sudbek davrida pul islohoti amalga oshirilgan bo'lsada. Kebekson uni takomillashtirdi. Jumladan, 2 xil pul: yirik kumush tanga-"dinor" va mayda kumush

tanga “dirham” zarb ettiradi. Kebek nomidan tangalar asosan Buxoro va Samarqandda zarb etilar edi. Shuningdek, O‘tror zarhromasi ham faol ishlay boshladi

Kebekxonning ukasi Oloviddin Tarmashrin (1326-1384) akasining siyosatini davom ettirib, o‘troq hayot an‘analarini qattiq turib himoya qiladi. U islom dinini qabul qilib islom dinini Chig‘atoy ulusining rasmiy diniga aylantiradi. Tarmashirin siyosatidan norozi ko‘chmanchi mo‘g‘ul zodagonlari isyon ko‘tarib 1334-yilda uni o‘lirishadi. Tarmashirindan so‘ng hokimiyat tepasida bo‘lgan Changshi (1334), Bo‘zan (1334-1338) Eson-Temur (1388-1342) Muhammad (1342-1343)lar davrida Movarounahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganligi yo‘q. Aksincha, mahalliy qabilalar hokimati, urng‘ boshliqlarining ta’siri bu paytga kelib yanada kuchayib Chig‘atoy hokimiyatining qudrati pasaya boshlaydi.

XIV asrning 40-yillariga kelib, Chig‘atoy xonlarining so‘nggi vakilaridan biri Qozonxon (1343-1346)markaziy hokimiyati kuch-qudrati ta’sirini ko‘tarib ichki siyosatda Kebekxon Tarmashirin yo‘lini tutishga harakat qildi. U ko‘chmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib-Zanjirsaroy qal’asini ham barpo etgan edi. Qozag‘on boshchiligidagi bir guruh ko‘chmanchi, talonchilik siyosati tarafdorlari 1346-yili fitna natijasida Qozonxonni o‘ldirishga muvaffaq bo‘lishadi

Qozag‘an o‘ziga amir unvonini olib, davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi. Movarounnahr Qozag‘on davridayoq bir necha yarim mustaqil qismlarga bo‘linib ketgan edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o‘zaro nizolar yanada kuchaygan edi. Kesh (Shahrisabz) atrofidagi yerlar Hoji Barlos boshchiligidagi barlos urug‘iga, Xo‘jand Boyazid Jaloyiriyga qaram bo‘lib qoldi, Balx va uning atrofidagi yerlar Qozog‘onning nevarasi amir Husaynga tobe bo‘ldi, Shiburg‘on esa Muhammadxo‘ja Apverdi qo‘liga o‘tib ketdi. Bundan tashqari Buxoroda diniy ulamolardan iborat sadrlar, Xuttalonda mahalliy hokimlardan bo‘lishi Kayxusrav, Termizda-sayidlar, Badaxshonda o‘zboshimcha mahalliy shohlar hokimiyatni qo‘lga olishdi.

XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmida xo‘jalik. iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig‘atoy mo‘g‘ullarining tobora o‘troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog‘liq binokorlik va me’morchilik yo‘lga qo‘yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo‘g‘ul zodagonlarining ba’zilari qurilish ishlariga homiylik qila boshlashdi. Memorchilikda aloxida orin tutgan ganchkorlik, gisht oymakorligi, koshinpazlik, me’moriy xattotlik qayta tiklandi. Movaraynnaxr, Xorazmda maxalliy binokorlar ishtirokida xonaqox, maqbara, masjid, saroy, minoralar qad ko‘tara boshladi. Jumladan, Buxorodagi Sayfiddin Boxarziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo‘lib, u 1258 yil olamdan o‘tgan edi. Uning qabri ustida tez orada katta maqbara va xonaqox barpo etildi. Shu davrlarda barpo etilgan ko‘pgina me’moriy obidalar u yoki bu ko‘rinishda xozirgi kunlargacha etib kelgan. Shuningdek, mana shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Xoja Axmad maqbarasi, Ko‘xna Urganch (Gurganj)dagi Najmiddin Kubro va To‘rabekxonim maqbarasi, masjid va baland minoralar (minoraning xozirgacha saqlangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi 20 asr boshlarida qulab tushgan). Xo‘jandagi Duvaxon

maqbarasi(keyinchalik vayron bo'lgan) va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.Qarshidagi buzilib ketgan saroy,Ma'sudbek xukmronligi davrida(1238-1289) Buxoroda barpo etilgan "Ma'sudiya","Xoniy" madrasalari va boshqalar to'grisida manbalarda ma'lumot berib o'tiladi.

Bu davrda yozma manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, asli G'ur viloyatidan bo'lgan Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning 1260-yil yozilgan «Tabaqoti Nosiriy» (Nosirga atalgan tabaqalar), Oloviddin Ota Malik Juvayniyning «Tarixi jahongo'shaiy» (Jahon fotihi tarixi), Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning "Jomeat-tavorix (Tarixlarning jamlanishi) Shahobiddinan-Nasaviyning "Siyratas-sulton Jaloliddin Mankburni" (sulton Jaloliddin Mankburning hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham jahon yuzini ko'rdi.

Bu asarlar o'z vaqtida mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrni o'rganish bobida birinchi darajali manbalar hisoblanadi. Bu paytda shuningdek, islom ahloq-odob va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshladi. Xorazmdagi bu adabiyotning bir vakili mashhur faylasuf shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud (1247-1326) hisoblanadi. U nafaqat shoir, mutafakkir bo'libgina qolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda ham beli yerga tegmagan kurashchi polvon bolgan;

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda, tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi ko'zga tashlanadi Tasavvuf ilmining mashhur namoyondasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahovuddin Naqshband (Sayid Muhammad ibn Jaloliddin) (1318-1389)-avvalo o'z mehnati bilan halol kun ko'rish g'oyasini yoqlaydi. Uning «dil ba yoru, dast ba kor» (ya'ni diling xudoda bo'lsinu, qo'ling mehnatda bo'lsin) degan shiori keyinchalik juda mashhur bo'lib ketdi. Uning nomi xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lib ketib, Buxoro yaqinidagi qabri musulmonlar ziyoratgohlaridan biriga aylanib qolgan edi.

Mustaqillik inoyati bilan bu ajdodimizning nomlari qayta tiklanib, uning qabri joylashgan yer obod va ko'rkam ziyoratgoh tusini oldi. 1995 yilda esa Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.

Texnologik usullar: aqliy hujum – olib boorish qoidalari

- O'zaro hech qanday baholash va tanqid bo'lmasligi.
- Jo'n va nihoyatda oddiy fikrlashga baho berishdan tiyilish.
- Barcha fikr-mulohaza qimmatli va bir o'rinda bo'lganligi bois fikrlovchiga nisbatan bosim o'tkazmaslik va uni faqat tanqidiy tarzda qabul qilmaslik.
- O'z fikrini bildirmoqchi bo'lganlarga imkon berish.
- Fikrlar xilma xilligi asosiy maqsad
- Fikr – mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish.
- Qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish lozim.
- O'zini vazmin va hotirjam tutish, o'zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabat bildir.
- Barchani o'zaro hurmat, boshqalar fikriga qanoatli bo'lishga chaqirish.

Nazorat savollari

1. Chingizxon istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday edi?
2. Chingizxon bosqinining sabablari nima?
3. Istilochilarga qarshi kurashgan vatanparvarlar kimlar?
4. Chingizxon bosqini oqibatlari nimada ko‘rinadi?
5. Muhammad Xorazmshoh Chingizxonga qarshi kurshda qanday yol tutdi?
6. Chig‘atoy ulusi qachon tashkil topdi?
7. Chig‘atoy xonlari hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday bo‘lganligini gapirib bering.
8. Maxmud Tarobiy qozgoloni va uning tarixiy ahamiyati qanday?
9. Chigatoy xonlari hukmronligi davrida madaniy hayotda yuksalish boldimi?
10. Xorazmshohlar avlodlari taqdiri haqida nima bilasiz?
11. Jaloliddin Manguberdi nomi mustaqillik yillarida qanday abadiylashtirildi?
12. Chigatoy ulusi davridagi xojalik hayoti xolati xususida sozlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012.
2. Шаҳобиддин ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангубердининг ҳаёт фаолияти. – Тошкент, 1999.
3. Саидов Ш. Султон Жалолиддин Мангуберди давлати ва жанговор ҳаракатлар ҳаритаси. – Тошкент, 2000.
4. O‘zbekiston tarixi. Prof. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. Toshkent, 2005.
5. Иванов М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур. -Тошкент: Хазина, 1994.
6. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.
8. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
9. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
10. O‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
11. O‘zbekiston tarixi. S. Xolboyev va b. – T.: Universitet, 2005.
12. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2015.
13. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. -T.: Akademnashr, 2019.

VII BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOT

Asosiy tushuncha va atamalar:

Ijtimoiy-siyosiy vaziyat, «Loy» jangi, Sarbadorlar harakati, Amir Temur davlati, markazlashgan davlat, boshqaruv tizimi, ichki siyosat, tashqi siyosat, harbiy yurishlar, harbiy siyosat, «Temur tuzuklari», suyurgʻol, ulus, taxt uchun kurash, elchilik, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, «Zafarnoma», «Kuch adolatda», Ulugʻbek akademiyasi, ilmiy meros, madaniy va ilmiy markaz, madaniy yuksalish, umumbashariy gʻoyalar, miniatyura sanʼati, tarixnavislik.

VII .1. XIV asrning oʻrtalarida Movaraunnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur davlatining tashkil topishi va uning harbiy yurishlari.

Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 8-aprelda (hijriy 736, shaʼbon oyining 25 kunida) Keshga qarashli Xoʻja Ilgʻor (hozirgi Yakkabogʻ tumani) qishlogʻida barlos beklaridan biri Amir Taragʻay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Onasi Takinaxotun Keshning obroʻli beklaridan biri boʻlgan.

1360-1361 yillarda Moʻgʻuliston hukmdori xoqon Tugʻluq Temur Movarounnahrning ichki hayotiga rahna sola boshlaydi. Uning bosqinchilik tadbirlari Oʻrta Osiyolik mustaqil hukmdorlarga maʼlum boʻlganidan keyin ular sarosimaga tushib qolganlar. Shular qatoriga Kesh amiri Hoji Barlosni ham kiritish mumkin. Tugʻluq Temur Xoʻjandni ishgʻol etish niyatida Sirdaryodan oʻtganidan soʻng Movaraunnahr amirlari va Hoji Barlos qoʻrquvdan oʻz jonlarini xalos etish uchun Amudaryodan oʻtib Xurosonga ketib qoldilar.



Amir Temur(1336-1405)

1360-1370-yillarda Movaraunnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda taʼsir oʻtkazgan shaxslardan yana biri Amir Qozogʻonning nabirasi amir Husayn edi. Amir Xusayn bilan Sohibqiron Temurning bir-birlari bilan juda yaqinlashgan va yaxshi munosabatda boʻlgan davrlar 1361-1365-yillarni oʻz ichiga oladi.

Tugʻluq Temur oʻlimidan soʻng 1363-yilda Ilyosxoʻja Moʻgʻuliston taxtini egallaydi va Movaraunnahr tomon harakat qilishni rejalashtiradi. Tarixda “Loy jangi” nomi bilan kirgan jang Chinoz bilan Toshkent oʻrtasida 1365-yilning bahorida roʻy bergan. Amir Temur va Amir Husayn Chirchiq daryosi boʻyidagi bu jangda magʻlubiyatga uchranganlar. Mazkur magʻlubiyat sabablarini, har xil bayon etishadi. Ayrim solnomachilar moʻgʻul xonining gʻolib chiqishida Amir Husaynning sust va layoqatsizlik bilan harakat qilishi deb izohlaydi. Ehtimol shundandir, yoki moʻgʻul xoni qoʻshinining soni koʻpligi hamda yaxshiroq tayyorlanganligi bu yutuqning asosiy omili boʻlsa kerak.

Samarqand shahri, qolaversa, butun Movaraunnahr o'z holiga tashlab qo'yildi. Mo'g'ul xoni changalidan qutilish samarqandliklarning o'ziga bog'liq edi. Bu sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o'z qo'llariga oldilar.

Sarbadorlar mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish o'lida o'zlarini qurbon qilishga tayyor edilar. Bu harakat qatnashchilarning ijtimoiy tarkibi har xil bo'lgan. Hunarmandlar, do'kondorlar ayrim madrasa mudarrislari va talabalar mazkur harakatga faol qo'shildi. Sarbadorlarning etakchilaridan biri Mavlonozoda bo'lib, ularning safiga Mavlono Xo'rdaki Buxoriy va Abu Bakr Kalaviylar ham qo'shildilar. Mudofaa yaxshi tashkil etilganligi tufayli sarbadorlar mo'g'ullar hujumini qaytarishadi. Mo'g'ullar katta talofat ko'rib, orqaga chekinishga majbur bo'ldilar.

Samarqandliklarning ishlab chiqqan harbiy rejasi puxta chiqdi va o'z samarasini berdi. Bir necha hujum samarasiz tugagach, mo'g'ullar shahar atrofini qurshab olib uzoq vaqt qamal qilish rejasini o'ylab chiqdilar. Lekin lashkar safida yuqumli kasallik tarqaldi. Buni ot vabosi (o'lati) deb atashadi. O'lat oqibatida Ilyosxo'ja qo'shinlariga mansub otlarning katta qismi qirilib ketdi. Ilyosxo'ja katta yo'qotishlar bilan dastlab Samarqandni keyin esa Movaraunnahrni tashlab ketishga majbur bo'ldi.



Bu paytda Keshda bo'lgan Amir Temur bu xabarni Amudaryo bo'ylarida bo'lgan Amir Husaynga etkazdi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga etib keladilar va sarbadorlar rahbarlarini o'z huzurlariga chorladilar. Uchrashuv Samarqanddagi Konigil degan joyda bo'ldi. Bu erda sarbadorlarning rahbarlari bilan kelishmovchilik yuz beradi va ular qatl etiladi. Amir Temurning iltimosi bilan faqat Mavlonozodaomon qoldirilib, Xurosonga jo'natiladi. Sarbadorlar harakati bostirilgandan so'ng Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga Amir Husaynning sarbadorlarga nisbatan adolatsizligi ham bir qadar sabab bo'lgan edi.

1366-1370-yillar oralig'ida Amir Temur o'z e'tiborini ichki ishlarga qaratdi. Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi ziddiyatlar 1370-yilda Husaynning o'ldirilishi va Amir Temurning taxtga o'tirishi bilan yakunlandi. Movaraunnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo'lgan Suyurg'otmish qo'lga o'tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movaraunnahr amiri nomini olgan Amir Temur qo'lida qoldi, hamda Kesh shahridan Samarqandga ko'chib, uni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi.

Amir Temurning Movarounnahrdagi birlashtirish siyosati boshlangan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida turgan erlarni o'ziga bo'ysundirib, o'ziga itoat ettirdi. Farg'ona, Shosh viloyatlarini o'z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo'lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O'rdaga qarashli erlarni egallashda u bu erlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi. Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movaraunnahrga kiritishga intildi. Shu maqsadda 1372-yildan 1388-yilga qadar besh marotaba Xorazmga harbiy yurish uyushtirib, Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi.

Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Ettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi erlardan tashqari, Turkiston erlarining hammasi Amir Temur qo'liga o'tdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda "uch yillik" (1386-1388) "besh yillik" (1392-1396) "etti yillik" (1399-1405) urushlar deb nom olgan. "Uch yillik" urush davrida Amir Teur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van qal'asini egalladi.

"Besh yillik" urushlari ham Eron orqali olib borilib Kavkaz orti, Oltin O'rda davlatlari bo'ysundiriladi.


Oltin O'rda xoni To'xtamishxon bilan uch marotaba to'qnashadi. Oxirgi jang 1394-1395 yillarda Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida yuz berib, Amr Temurning g'alabasi bilan tugaydi. Bu Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi. Shundan keyin u o'zini o'nglay olmadi.

Temurning uzoq Hindistonga yurishi 1398-yilda g'alaba bilan yakunlandi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy mahorati shunda ediki, u o'z dushmanlarini erkin nafas olishga qo'ymagan. Amir Temurning etti yillik urushlari 1399-1405 yillarni o'z ichiga olib, bu davrdagi eng yirik jangi 1402-yilda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan to'qnashuvi va uning tor-mor etilishi bo'ldi.

Amir Temur o'z qo'shinlari bilan 1404-yilning oxirida Xitoyga qarab yo'lga chiqqandi. O'sha yili qish O'rta Osiyo tarixida eng qahraton qish bo'lgan. Sirdaryoning suvi 1 metga muzlagan, askarlardan ko'pini quloq-burunlarini, qo'l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyining o'rtalarida O'trorda to'xtashga qaror qilishadi va bu erda 18-fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qiladi. Bu yurishlar natijasida u buyuk davlat tashkil qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Amir Temur qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yoriqlarni o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. Armiyaning yuragini va qo'mondonlik o'zagini barlos urug'i vakillari tashkil etardi. SHu davr voqealarining shohidi bo'lganlarning guvohlik berishicha barloslar harbiy qo'nimsizlikka nihoyatda chidamli, yoydan o'q uzishga juda usta, o'z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo'lganlar.



VII.2. Amir Temur davlatining boshqaruv tizimi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qildi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o'lka kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Amir Temur qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo'l-yo'riqlarni o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi.

Amir Temur ichki va tashqi savdo taraqqiyotiga katta ahamiyat berdi. Uning sa'y-harakati bois Buyuk ipak yo'li tarmog'i Movarounnahrqa qaytdi, savdo yo'llari xavfsizligiga, Sharq va G'arb savdo munosabatlariga katta e'tibor bilan qaraldi.

XIV asr o'rtalarida Buyuk ipak yo'lining G'arb mamlakatlariga olib boruvchi tarmog'i turli nizolar tufayli inqirozga uchragan edi. O'sha davrda Amir Temur turli sohalarda qit'alararo aloqalar tiklanishiga sharoit yaratib berdi. Sohibqironning Evropa qirollari bilan olib borgan muloqotlari orasida, ayniqsa, Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalari alohida tarixiy ahamiyatga ega. 1394 va 1399 yillarda Amir Temur huzuriga kelgan Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Fransiya Sandro ismli vakil hamroh bo'lgan. Sandroning qo'lida Genueyaning homiysi bo'lgan Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi bor edi.

1402 yilda Karl IV Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o'rnatishga intildi. Ular yozishmalarining bir qismi Fransiya hujjat arxivida saqlanadi. Mazkur maktublarda Amir Temur qirolning Sharqqa nisbatan siyosatini qo'llab-quvvatlagan holda, o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilishini ahamiyatiga e'tibor qaratadi: «Bizning u ulug' amirdan kutganimiz shuldurki, doimo bizga shoxona maktublarni yuborib, salomatliklarini bildirib tursalar, toki biz hotirjam bo'lgaymiz. Yana sizning savdogarlaringiz bu tarafga qatnab tursalar, biz bu erda ularni azizu mukarram tutg'umizdir, shuningdek, bizning savdogarlar u tarafga yuborilsa, siz ham ularni azizu mukarram tutsangiz, hech kimsa ularga zo'rlik qilmasa va zarar zahmat etkazmasa! Chunki dunyo savdogarlar bilan oboddir!».

Sohibqironning Fransiya qiroliga yozgan, bizning davrimizgacha lotincha tarjimai etib kelgan ikkinchi maktubi ham 1402 yil 1 avgust sanasi bilan belgilangan. Har ikkala maktub arxiepiskop Ioann III tomoni dan Fransiya etkazilgan. 1403 yil iyunda Parijga etib borgan arxiepiskop Amir Temurning Fransiya qirolligini qiziqtiruvchi taklifini bayon etadi. Unda ikki davlat savdogarlarining erkin savdo munosabatlarini ta'minlash va savdo erkinligini tegishli bitim orqali kuchga kiritish o'z ifodasini topgandi.

Amir Temurning o'zaro hamkorlik to'g'risidagi tashabbusi Fransiya qiroli tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinganini 1403 yil 15 iyunda Karl IV ning Sohibqiron nomiga yo'llagan maktubida o'z ifodasini topadi. «Yaratganning marhamati bilan franklar qiroli Karl muhtaram hazrat va muzaffar podshoh

Temurbekka salom yo‘llaydi va tinchlik tilaydi» so‘zlari bilan boshlanadigan mazkur maktubda Fransiya bilan Amir Temur davlati o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatish masalasiga katta ahamiyat qaratiladi va shunday so‘zlar bilan yakunlanadi: «Biz sizni ishlaringizni, foydali takliflaringizni qabul qilamiz, imkoni bor joylarida (ularga) barobar va undan ortiqroq iltifot ko‘rsatishga va’da beramiz».

Amir Temur ham Karl VI ham o‘zaro do‘stlik va birdamlikdan hamda savdo bitimi tuzishdan manfaatdor bo‘lishganini mazkur maktublardan anglash mumkin¹.

Nizomiddin Shomiy o‘zining «Zafarnoma» asarida shunday deb yozgan edi: «... Uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridangina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atroflarigacha, Bobul Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan erlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalaru beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollarini keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon etkazmaydi. Bu cheksiz ne‘mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandur». 1404 yili Temur saltanatida bo‘lgan Rui Gonsales de Klavixo ham savdo-sotiq munosabatlarining yuqori darajada taraqqiy etganligini, savdo ahliga ko‘rsatilayotgan muruvvat, xavfsizlik choralari, Movarounnahr bozorlarining serhashamligini alohida qayd etgan edi.

Amir Temur XIV asrdayoq “Kuch - adolatda” shiorini davlat siyosati mavqei darajasiga olib chiqdi. Umri davomida sohibqiron bu shiorni o‘ziga dasturul – amal qilib oldi. Temur davlatidagi bu ahloqiy-ma’naviy mezon hamma davrlar uchun e’tiborli bo‘lib, hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Amir Temur harbiy san’at, soliq siyosati, raiyatga munosabatda, o‘z davlat boshqaruvi tizimida, qo‘l ostidagilarga munosabatda ham ushbu tamoyilga qat’iy amal qildi.

Amir Temur o‘z hukmronligi davrida mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko‘rinishlariga yo‘l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik-xotirjamlik, xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda sohibqiron, “... saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar etmaydigan tartib-intizom o‘rnatdim”, deya qayd qilgan edi. Amir Temur qurilish, obodonchilik ishlariga ulkan e’tibor bilan qaradi.

Mo‘g‘ul istibdodidan meros bo‘lmish xonavayronchilikka chek qo‘ydi. Uning tashabbusi ila Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Shayx Zayniddin bobo maqbarasi, shahar yaqinida Zangi ota maqbarasi, Shahrisabzda Oqsaroy, Samarqandda Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohi Zindadagi qator maqbaralar, shaharda saroy va istehkom, karvonsaroylar, hammomlar, ko‘priklar, honaqolar, ko‘chalar, shahar yaqinidagi bog‘lar va boshqalar barpo etildi. Bu xususida Sohibqiron “Agar qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing”, deya ta’kidlagan edi. Amir Temur sa’y-harakati bilan mamlakatda ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga keng yo‘l ochildi. Bu esa keyingi temuriylar hukmronligi davrida yaqqol o‘zini namoyon qildi.

¹ Амир Темур ва Франция қироли ўртасидаги мактублар нима ҳақда эди? Халқ сўзи, 2018 йил 10 октябр. №210

Amir Temur barpo etgan davlat, o'zing eng rivojlangan davrida juda ulkan hududni o'z ichiga olgan bo'lib, O'rta Osiyodan tashqari, Eron, Ozarbayjon, Iroq va Afg'onistonni qamrab olgan. U bu davlatni o'g'illari, nabiralari va xos amirlari yordamida idora qildi. Buning uchun u saltanatni suyurg'ol mulklarga, ya'ni uluslarga bo'ldi. Masalan, Mahmud G'aznaviyning toju-taxti, ya'ni Afg'onistonni Temur to'ng'ich o'g'li Jahongirga, uning vafotidan (1376 y.) keyin esa Jahongirning o'g'li Pirmuhammadga berdi. Xurosonda Shohruh hokimlik qildi. Hulokuxonning toju-taxti, ya'ni Iroq va Ozarbayjon Temurning boshqa o'g'li – Mironshohga berildi, Farg'ona bo'lsa Umarshayx va uning avlodlarining mulki edi. Garchi suyurg'ol mulklarining egalari soliq to'plash va ma'muriy boshqaruvda mustaqil bo'lsalar-da, Temur va uning vazirlari idora qilgan markaziy hukumatga bo'ysunardilar.

Markaziy davlat ma'muriyatini ettita vazir boshqargan. Ularning **birinchisi vaziri a'zam** bo'lib, uning vazifasi oliy hukmdorni mamlakat va raiyat ahvoli haqida o'z vaqtida xabardor qilib turishdan iborat bo'ldi. **Ikkinchisi (vaziri tavochi)** harbiy ishlar, **uchinchisi** turli sabablar, asosan urush oqibatida egasiz qolgan mol-mulklar, sayyohlar va ziyoratchilar ishlari bo'yicha mutasaddilik qilgan. **To'rtinchisi** hukmdorning saroyiga oid bo'lgan ishlar bilan shug'ullangan. **Yana uch vazir sarhad viloyatlariga** tegishli ishlarni boshqargan. **Etti vazirning barchasi devonbegiga bo'ysungan.**

Markaziy hokimiyat idoralarida, ulus hokimiyatlari devonlaridagi kabi, vazirlardan boshqa turli tabaqadagi amaldorlar bo'lgan.

Bular, masalan, **shayxulislom**, **qozi ul-quzzot** (oliy sudya), **qoziyi ahdas** (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi sudya), **qozi askar** (harbiy sudya), **sadri a'zam** (oliy sadr, vakf mulklari mutasaddisi), **dodxoh** (shikoyatlarni ko'rib chiquvchi), **eshikog'a**, **saroy vaziri**, **yasovul** (hukmdorning shaxsiy buyruqlarini bajaruvchi), **qalaqchi** (xiroj miqdorini aniqlash majburiyati yuklatilgan amaldor), **mutahassil** (soliq va o'lpon yig'uchi), **tavochi** (asosan qo'shnlarni to'plash ishiga ma'sul oliy amaldor), **qorovulbegi**, **kutvol** (qal'a komendanti), **muhtasib** (shariat qoidalari ijrosi hamda bozorlarda narx-navo, tarozilari to'g'riligini tekshiruvchi mansabdor), **voqeanavis** (kundalik voqealarni yozib boruvchi), **munshiy** (shaxsiy kotib) va boshqalar.

Karvon yo'llarida sardobasi bo'lgan maxsus bekatlar qurilgan, uni harbiy narozatchi qo'riqlagan.

Manbalarda Temur saroyida mavjud bo'lgan **qabul marosimi** haqida ham ma'lumot saqlanib qolgan. Jumladan, **taxtning o'ng tomonida** sayyidlar, qozilar, ulamolar, shayxlar o'tirgan. **Chap tomonida** esa amir ul-umaro, beklarbegi, qo'shin amirlari, no'yonlar, ulus, tuman, qo'shin boshliqlarining joyi bo'lgan. **Taxtning old tomonida** bevonbegi va vazirlar o'tirishgan. **Taxt orqasida**, uning o'ng tomonida o'g'lonlar va bahodirlar, chap tomonida esa qorovulbegilar o'tirganlar. Taxtning qarshisida qorovul amirlari, etagida esa ichkilar, yasovuli xos turgan. Taxtning o'ng va chap yonida dodxohlar turishgan.

Temur va temuriylar davlati xalqaro maydonida ham shuhrat qozongan. Temur davlati bilan Sharq (Mo'g'uliston, Xitoy, Misr) va Evropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya va boshq.) o'rtasidagi yozishmalarga qaraganda, diplomatik, siyosiy va savdo aloqalari rivojlagan.

Amir Temur saltanati, o'zbek xalqi uning davlatchiligi tarixida o'zining markazlashgan, boshqaruv shakliga ko'ra mutlaq monarxiya, tuzilish shakli bo'yicha o'rta asr imperiyasi sifatida alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga bu davlat Kengash, mashvarat, raiyat ahvolini hisobga oluvchi islom huquqi va qonun-qoidalariga tayangan saltanat edi. Amir Temurning davlat boshlig'i sifatidagi o'ziga xosligi shundan iborat bo'lganki, u qonun chiqarish hokimiyatida ham ishtirok etgan. Bunga uning «Tuzuklar»i yaqqol misol bo'la oladi. Temur tuzuklarida qayd etilishicha, saltanat ishlarida eng birinchigalda **to'rt narsaga** amal qilinishi lozim: 1. Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish; 2. Boshqalar bilan mashvaratu maslahat; 3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4. Ehtiyotkorlik I.A. Karimov mazkur masalaga to'htalar ekan, bugungi kunda ham u o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini ta'kidlab, "Bu to'rt omil, ya'ni - kengash, maslahatu mashvarat, qat'iyat va tadbirkorlik keyinchalik oqibatda nadomat chekishdan saqlaydi va pushaymon bo'lishning oldini oladi, deb uqtiradi sohibqiron bobomiz", deydi.

Sohibqiron dinu shariat ishlari tartibga keltirganidan so'ng, saltanatni shakllantirish borasida yana muhim sanalgan to'rt ustunga suyanib faoliyat yuritgan. Jumladan, u – 1. Saltanat qonun-qoidalarini islom dini va shariatga bog'lab, ularni mustahkamladi; 2. Sipohu raiyatni umid va qo'rquv orasida saqladi; 3. Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadi; 4. Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'ziga rom qildi.

Sohibqiron davlat yuritishda o'tmishdagi davlatchilik va qonunshunoslik sohasidagi ibratli an'analarini zamonasining talablariga uyg'unlashtirdi, ularni adolat tamoyili darajasiga ko'tara oldi.

«Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomlari bilan atalmish ushbu asar qimmatli tarixiy manba bo'lib, jahondagi mashhur kutubxonalardan joy olgan. «Temur tuzuklari» ikki qismdan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib unda sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtai-nazari bayon etiladi.

Amir Temur o'z oldiga buyuk saltanatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etish, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan eli. Uning bunday sa'yi harakatlari bir necha o'n yillar inqiroziy holatda bo'lgan ulkan hududni qoloqlikdan chiqarish, uni yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tarishda katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi.

Amir Temur ham to'g'ri so'z aytgan kishiga hurmat bilan qarab: «qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyunib gapirsa, suyib eshitar edim; kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga quloq solardim; har kimdan kengash so'rar edim, lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim». Yoki, "Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat

kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar belgiladim. Bordiyu noto'g'ri narsa yozganlari menga ma'lum bo'lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim. Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm etkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim".

Hukmdor davlat qudratining ramzi bo'lganligi sabab uning ozgina salbiy xatti-harakati ham ommaga tez ta'sir etadi. Uning har qanday masalada adolatli, raxmdil va mehribon bo'lishi hamda qonunlarning ijrosini ta'minlay bilishi yutuqlariga kafolat bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy saboqlar shaxsan Amir Temurning o'zi va oilasi qonunlar ijrosini ta'minlashda xalqqa o'rnak bo'lganligini ko'rsatadi.

Amir Temur o'z davrigacha yaratilgan va davlatchilik tajribalari sifatida shakllangan asoslar bilan bir qatorda, yana jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish hamda uning manfaatlarini ta'minlash tartiblarini yaratdi, xatto tabiiy ravishda din va shariatni birinchi o'rinda ta'kidlagani holda, ijtimoiy tabaqalarga bo'lgan munosabatini boshqa yo'nalish va masalalardan ustun qo'ydi.

Amir Temur davlat ishlarini yuritishda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi etakchi omillaridan ustalik bilan foydalandi: dinu shariat ishlarini tartibga keltirib, tuzuklarni yaratdi. Saltanat martabalari tuzugini quyidagilarga tayanib tuzdi:

- saltanat qonun-qoidalarini Islom dini va shariatiga bog'ladi;
- har bir ishda, hatto muomalada ham me'yorni unutmadi;
- yaxshilarga yondashdi, xech kimdan o'ch olish payida bo'lmadi;
- xalqni e'zozda tutdi, jabru zulmni o'ziga begona bildi.

Amir Temur davlatining ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratishda o'tmish tajribalariga tayangan bo'lsa-da, ulardan ko'r-ko'rona ko'chirmadi, negaki, bunday qaltis harakat hamisha har qanday davlat uchun xavfli sanalgan. Amir Temur chuqur mulohaza yuritadigan, uzoqni va orqa-oldini o'ylab ish tutadigan hukmdor bo'lgani bois, davlat masalalarida o'z ishonganlari bilan kengashib batafsil fikr yuritib, so'ng bir to'xtamga kelardi.

Amir Temurdek buyuk davlat arbobining podsholar uchun yaratgan «Tuzuklari» uzoq asrlar davomida qadrlanib kelindi. Uning boisi shuki, avvalo, aynan ana shunday to'g'ri va odilona tadbirlar orqali u markazlashgan yirik davlatni boshqardi, ya'ni kim, bu asarda bayon etilgan amallar katta sinovdan o'tdi va hayotiyligini isbotladi, demakki, har bir davlat rahbari uchun, avvalo, hayotda tsdig'ini topgan ana shunday qo'llanmalar zarur bo'lganligi uchun ham mazkur «Tuzuklar» hamon dunyo e'tiborini tortib kelmoqda.

Amir Temur **o'n ikki tartib-qoidaga qat'iy amal qilish** orqali, birinchi navbatda, fuqaroning farovonligi, tinchligini yuqori o'ringa qo'yadi, chunonchi, podshoning o'z so'zida qat'iy turishi, adolatpesha bo'lishi, qaror va farmonlarning bajarilishini qat'iy nazorat qilishi, yon atroflaridan doimo ogoh va sergak turishi, avvalo, o'z fuqarolarini ichki va tashqi xavfdan himoya qilishi hamda hamma uchun faravon hayot yaratishni, elni hotirjam etib, davlatni tanazzullardan saqlashni asosiy vazifa deb bilishi eng zaruriy shartlardandir. Tartib-qoidalar shunday, eskilari yangisiga poydevor bo'ladi. Masalan, **hali Evropa davlatlarining birortasi**

konstitutsiyaga ega bo'lmagan bir davrda, Amir Temur davlatida «Tuzuklar»ga suyanib davlat yuritishning o'zi katta ijobiy hodisa edi.

«Temur tuzuklari» o'z ichiga hayot tajribasi va sinovi boshidan o'tgan, bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoiy shaxs, buyuk davlat arbobining o'y-fikrlari, mushohada va kechinmalarni o'z ichiga jo qilgan. «Tuzukot»da mazkur mulohazalar aniq-ravon tarzda, ixcham bayon etilgan. Sohibqironning «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur», degan ko'rsatmasi XXI asr siyosat maydoni uchun, muammolarni hamjihatlikda echishga da'vat tarzida ko'rsatish mumkin. «Tajribamda ko'rilkankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir» degan fikrlari hozirda ham ijtimoiy hayotda dolzarb ahamiyat kasb etsa, «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar» degan iborasi odamni hamisha o'z aql-zakovati, ilm-ma'rifat asnosida hayot kechirishga chaqiradi. Amir Temurning «Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-ikrom ko'rsatdim», degan so'zi uning ichki ma'naviyati boyligidan darak beradi.

XXI asr barkamol avlodini tarbiyalashda, ularning ma'naviy olamini boyitishda «Tuzuklar» shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi.

VII.3. Temuriylar davrida ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy hayot

Sohibqiron Amir Temur Xitoyga qilinayotgan harbiy yurish vaqtida qattiq og'rib, 1405-yil 18-fevral kechasi O'tror hokimi Berdibekning saroyida vafot etadi. Sohibqiron Amir Temur o'ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldiradi. Amir Temur barpo etgan buyuk saltanatni o'g'illari, nabiralarga qism-qismlarga ajratib bo'lib, bu Temur davlati parokandaligini kuchaytirgan edi. Temur jasadi Samarqandda dafn etilishi va motam marosimlari tugamasdanoq, toju-taxt uchun shahzodalar o'rtasida o'zaro kurash kuchayib ketdi.

Shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384-1409) shoshilinch ravishda, o'zining ming chog'li askari bilan 1405 yilning 18 mart kuni Samarqandni egallaydi va o'zini Movarounnahr **hukmdori** deb e'lon qiladi.

1405-1406-yillarda Xalil Sultonning Shohruh, Pirmuhammad qo'shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to'qnashuvi sodir bo'ladi. Butun Temur saltanati o'zaro toju taxt kurashlari domiga tortiladi.

Shu vaqtning o'zida o'zaro fitna g'alayonlarning navbatdagi qurbonlari ham paydo bo'ladi. 1407 yil 22 fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o'zining vaziri Pirali Toz tomonidan suiqasd natijasida o'ldiriladi. 1408-yil 22-aprelda esa qoraquyunli turkmanlar bilan jangda hokimiyat uchun boshqa bir da'vogar Mironshoh Qora Yusuf tomonidan Ozarbayjon va Iroq uchun bo'lgan jangda o'ldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqadi.

1409-yil 25-aprelda Shohruhmirzo Amudaryodan o'tib Samarqand tomon jadal yo'l oladi. 1409-yilning dekabriga qadar Shohruh Mirzo Movaraunnahrda tinchlik osoyishtalik o'rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar

tarafdorlariga qarshi keskin choralar ko'radi, izdan chiqqan xo'jalik hayotni, savdosotiqni tiklaydi.

Temuriylar saltanatining taqdiri oydinlashib, Xuroson hokimi bo'lmish Shohruh Mirzo (1405-1409) temuriylar davlatining oliy hukmdori (1409-1447) sifatida e'tirof etildi.

Yagona Shohruh davlatida Movaraunnahr qismining alohida o'rni bor edi. Davlatning markaziy poytaxti Hirot shahri hisoblansa, Movaraunnahrning markazi Temur poytaxti bo'lmish qadimiy Samarqand shahri hisoblanar edi. Movaraunnahr erlarining boshqaruvi esa Ulug'bek qo'liga topshirilgan bo'lib, u umrining oxiriga qadar (1449-y.), 40 yil mobaynida bu erlarni boshqarib keldi.

Shohruh 1413 yili Eronni o'z qo'li ostiga oladi. O'sha yili Shohruh qo'shini yordamida Ulug'bek Oltin O'rda xonlari ixtiyoridagi Xorazmni tortib oladi. Ulug'bek 1414-1415-yillarda o'z amakivachchasi amirzoda Ahmad hukmron bo'lib turgan Farg'onani uning qo'lidan tortib oladi. 1424-yili noyabr oyida Shohruhning rizoligi bilan Ulug'bek Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Uning asosiy kuchlari 1425-yil erta bahorida Chu daryosidan o'tib, Issiqko'l yaqinida mo'g'ullarni tor-mor keltiradi.

Bu jang Ulug'bek olib borgan jiddiy urushlarning birinchisi va so'nggisi edi. 1427-yilning boshida Ulug'bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurishga o'tlanadi. Bu yurishda Ulug'bek qo'shini mag'lubiyatga uchrab o'zi Toshkentga chekinadi. Dashti qipchoqliklar bilan bo'lgan jang mag'lubiyati Ulug'bekka shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, u otasining o'limigacha shaxsan o'zi harbiy qo'shinga bosh bo'lib, yurishlarni boshqa amalga oshirmaydi. 1428-yili Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movaraunnahr ichki iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynadi. Shuningdek, zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, jumladan Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham bir muncha pasaytirilgan ekan. Mirzo Ulug'bek, shunday qilib, otasi tiriklik vaqtida garchi tashqi siyosat borasida birmuncha mustaqil harakat qilgan bo'lsa-da, lekin u haqiqatda otasi Shohruh Mirzoning Movaraunnahrdagi ishonchli va itoatkor hokimi bo'lib qoladi. Ulug'bek ichki va tashqi siyosat borasida otasi bilan bamaslahat ish tutar, soliqlarning bir qismini muntazam Hirotga jo'natar, xutba va tangalarda otasining nomi zikr etilardi. Shuningdek, u vaqti-vaqti bilan otasiga hisob berib turar, harbiy yurishlari vaqtida unga moddiy va harbiy ko'mak etkazib berishga majbur edi.

Shohruh 1447-yil 12-martda Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruhning o'limi Xuroson va Movaraunnahrdagi o'zaro temuriy shahzodalar o'rtasida toju-taxt uchun kurashni boshlab yuboradi. Shariat va urf-odatga ko'ra o'z-o'zidan oliy hukmdorlik yagona voris Mirzo Ulug'bek qo'liga o'tishi kerak edi. Lekin Boysunqur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Ulug'bekka qarshi harbiy harakatni boshlab yuboradi. Alouddavla Ulug'bekning o'g'li Abdullatifni asir olib, uni Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. Ulug'bekning aralashuvi bilan Abdullatif ozodlikka chiqadi. U o'z holicha Hirotga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U otasi Ulug'bekka yordam so'rab murojaat qiladi. 1448-yil bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90.000 kishilik birlashgan qo'shini Hirotidan 14 farsah uzoqlikdagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo'shinini tor-mor keltiradi.

Tarnob jangi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa-da, lekin Ulug'bek va shahzoda Abdullatiflar o'rtasida munosabatlarning sovuqlashuviga ham olib keladi.

Abdullatif Hirotida 15 kuncha hukmronlik qilib, so'ng Amudaryodan o'tib, Movaraunnahrga keladi. Bu paytda Abulqosim Bobur qo'shini esa Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Ulug'bek farmoni bilan Abdullatif yana Balxga noib etib tayinlanadi. Balxda Abdullatifning otasiga qarshi hatti-harakatlari kuchayib, o'z xolicha u xorijiy savdogarlardan olinadigan "tamg'a" solig'ini bekor qiladi. Otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o'z atrofiga yig'ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Ulug'bekka qarshi yashirin til biriktiradi. Bu paytda Ulug'bek davlatining siyosiy ahvoli ham ancha murakkab tarzda turar edi. Ulug'bek Abulxayrxon boshchiligidagi dasht qo'shinlariga qarshi kurashishga to'g'ri keladi. Samarqand noibi etib qoldirilgan o'g'li Abdulaziz esa "amirlar xonadoniga tazyiq o'tkazyapti" deb ovoza tarqalib, bundan amirlarning noroziligi juda kuchayib ketadi. Abdullatif esa otasining og'ir ahvolidan foydalanib, tezda ochiq isyon yo'liga o'tadi. U Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Kesh, Hisorni qiyinchiliksiz egallaydi.

1449-yilning oktabr oyi boshida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'ida Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatif o'rtalaridagi jang, Ulug'bek mag'lubiyati bilan tugaydi. Mag'lub bo'lgan Mirzo Ulug'bek poytaxt Samarqand tomon yo'l oladi. Lekin, Samarqandda hokim etib qoldirilgan Mironshoh qavchin xiyonat yo'liga o'tib uni shaharga kiritmaydi, darvozalarni berkitib qo'yishga buyruq beradi. Shuningdek Shohruhiya qal'asi qutvoli Ibrohim mamluk ham uni qal'aga qo'ymaydi. Shundan so'ng Ulug'bek keyingi hatti-harakatlari foydasiz ekanligini anglab, Abdullatيفا taslim bo'lishga majbur bo'ladi. Mirzo Ulug'bek toju taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga ketishga izn so'raydi. Abdullatif hajga ruxsat berib, Amir Muhammad Xusravni unga hamroh qilib jo'natadi. Lekin, oradan hech qancha o'tmasdan, shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, ulamolarning yashirin fatvosi bilan otasining o'limini uyushtiradi. O'z davrining mashhur hukmdori va zabardast olimi Mirzo Ulug'bek 1449-yilning 27-oktabrida Samarqand yaqinida fojiali tarzda o'ldiriladi. Oradan 2-3 kun o'tmasdan inisi Abdulaziz va Ulug'bekning sadoqatli to'rt nafar amiri qatl etiladi.

O'zaro toju-taxt uchun kurash Abdullatifni razillik botqog'iga botirib uni o'z otasining qotiliga aylantirdi. Garchi u taxt egasi bo'lsa-da, xalq uni "padarkush" (otasining qotili) sifatida la'natlar, Ulug'bek tarafdorlari unga dushmanlik ko'zi bilan qarar edi. Bunday bir paytda Abdullatif xurofotchi din ahllari, darveshlar guruhi bilan ham yaqinlashishga harakat qildi. Biroq qotil padarkush taxtda uzoq o'tira olgani o'q. 1450-yilning 8-mayida, shahar handag'i yonida, Bog'inavdan nariroqda unga qarshi suiqasd qilinib o'ldiriladi.

Bu qotillikdan so'ng, tezda Samarqand taxtiga temuriylardan biri Mirzo Ulug'bekning jiyan hamda kuyovi Mirzo Abdullo o'tiradi. Buxoroda esa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abu Said qo'liga o'tadi. Ular o'rtasida 1451-yili yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Mirzo Abdullo o'ldirilib, taxt Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469) qo'liga o'tadi.

1457-yili Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgandan so'ng Hirot taxti, Xuroson erlari uchun kurash yana avj oldi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said Mirzo 1457 yili Xurosonga yurish qilib Hirotni egallaydi. Shu tariqa Abu Said temuriylar davlatining ikkala qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Sulton Abu Said Mirzoning (1451-1469)

hukmronlik davrida davlat hududlari kengayib, uning chegaralari SHarqiy Turkistondan to Iroqqacha, Sirdaryodan to Hindiston chegaralarigacha bo'lgan erlarni o'z ichiga oldi. 1469-yili G'arbiy Eron erlarini qaytarib olish maqsadida Sulton Abu Said Oqquyunlu turkmanlariga qarshi urushda halok bo'ladi. Sulton Husayn esa 1469-yil 24-martda tantanali sur'atda Hirotga kirib keladi. Natijada temuriylar saltanati yana ikki qism: Xuroson va Movaraunnahrga bo'linib ketadi. Movaraunnahr esa ketma-ket sulton Abu Saidning o'g'illari Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1496) hamda Mahmudning o'g'li Sulton Ali Mirzo (1496-1501)lar tomonidan mustaqil ravishda boshqarildi. Temuriylar davlatining janubida ahvol o'zgacha edi. Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) davlati o'z tarkibiga Xorazm, Xuroson, Eronning bir qismini olgan bo'lib, u temuriylar tarixida oxirgi yirik davlat arbobi bo'lib qoldi. Uning deyarli 40 yillik hukmronlik davri ham o'zaro kurashlardan xoli bo'lmasa-da, lekin mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuksak darajada saqlanib qoldi. Mamlakat obodligi, farovonligi, iqtisodiy hayotning bir me'yorda kechishi, fan-madaniyatning yuksalishida o'z davrining tadbirli va oqil hukmdori Sulton Husaynning roli nihoyatda katta bo'ldi.

VII.4. Temuriylar davrida ilm-fan, moddiy va ma'naviy madaniyat ravnaqi.

Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati

Bu vaqtda nafaqat poytaxt Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olimu-fuzalo, shoiru-me'morlar, bastakoru-naqqoshlar guruhlarini to'plana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o'ziga xos madaniy markazlar rolini o'ynay boshlaydi. Tarixda ma'rifatparvar va oqilligi bilan nom chiqargan Shohruh (1405-1447) davrida asriy ilm-fan, madaniyat, an'analari qayta jonlana boshlagan edi. Hirotidagi eng gavjum joylardan biri Shohruhning o'g'li Boysunqur tashkil etgan kitobxona nomini olgan joy bo'lib qoldi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu erdan boshlagan edi.

Mirzo Ulug'bek (1394-1449)

Hukmdorlar ichida ilm-fan, ma'rifat va madaniyatga etarli homiylik qilgan shaxs - bu o'zi ham buyuk olim bo'lgan Mirzo Ulug'bek hisoblanadi.

Mirzo Ulug'bek uning zamondoshlari, muarrixlarning xabar berishlaricha sharq mutafakkirlari, ular orqali yunon mumtoz ilmiy asarlaridan xabardor bo'lgan. Ulug'bek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlikni birgalikda olib bordi. U Movaraunnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi.

Xususan Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoro, 1420-yili Samarqandda, 1433-yillarda G'ijduvonda madrasalar barpo etdi. Samarqandning obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'lib, Go'ri Amir, Shohizinda me'moriy majmualarini oxiriga etkazadi. Marvda ham bir qator diniy muassasalar qurdiradi. Hadisi sharifdagi "Ilm olmakka intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz" degan iborasi Buxoro



Mirzo Ulug'bek (1394-1449)

madrasasi peshtoqiga shior sifatida o'yib yozdirib qo'yiladi. Xususan, u Samarqandga o'z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan.

Uning sa'yi-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan oshiq olimlari Samarqandga yig'ildilar. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z zamonasining "Aflotuni" deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviylar va boshqa taniqli zotlar ham bor edi. 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganda, unda 100 dan ziyod talaba o'qigan, madrasada 50 tadan ko'proq talabalar uchun maxsus hujralar mavjud bo'lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha, 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganida unda 90 tadan oshiq olim qatnashgan. Ilk ma'ruzani Mavlono Hafoviy o'qigan vaqtida, uni faqat ikki kishi - Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiy tushungan xolos. Keyinchalik o'z zamonining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Axror va boshqalar ham Samarqand madrasalarida tahsil olganlar.

1424-1429 yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. Rasadxona o'sha davrning noyob inshootlaridan bo'lib, u doira shaklida barpo etilgan, imoratning aylanasi 47 m, balandligi 31 m.dan iborat 3 qavatli bino bo'lgan. Binoning ichi bir necha xona, aylana zal, maxsus tekshirish xonalaridan iborat bo'lib, u erlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan.

Rasadxona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezalgan bo'lib, xalq ichida shuning uchun "Naqshi jahon" degan nom bilan shuhrat topgan edi. Samoni kuzatish va o'rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o'lchov asbobi-ulkan sekstant o'rnatildi. Bu sekstant, o'z navbatida, Sharqdagi eng katta astronomik asbob o'lchovi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo'jandiy, usta Ibrohim) qo'li bilan ko'plab zaruriy astronomik o'lchov asboblari ham yasaldi va o'rnatildi. Rasadxona qoshida, shuningdek, 15.000 jilddan iborat boy kutubxona ham bo'lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan erchorbog'lar Bog'imaydon va Chinnixona nomi bilan shuhrat topdi. Ulug'bek Samarqandda o'ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug'bek bilan bir qatorda o'z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug'bekning shogirdi o'z davrining "Ptolemey"i nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi (Alouddin ibn Muhammad) va boshqalar elkama-elka turib ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Rasadxonadagi tadqiqotlar natijasida 1018 ta yulduzning o'rne va holati (koordinatlari) aniqlanib, astronomik jadvali tuzildi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kenglik koordinatlari bilan belgilab chiqildi. Matematika fani sohasida Ulug'bek maktabi yaratgan-uning darajali algebrali teng lama echilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlangan.


Shu jihatdan buyuk olimning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar 1437-yil yozib tugatilgan bo'lsa-da, olim umrining oxiriga qadar unga yangi natijalarni kiritib borgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, unda keng muqaddima va 1018 ta yulduzlarning o'rne berilgan. Undan tashqari Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" (To'rt

ulus tarixi) nomli tarixiy asari va musiqaga bag'ishlangan beshta risolasi ham mavjuddir. Ulug'bekning o'ta salohiyatli olim bo'lganligini uning zamondoshlari G'iyosiddin Jamshid, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar ham e'tirof etganlar. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) bu xususda:

Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek,
deb unga o'z ta'rifini bergan edi.

Ulug'bekning vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonga, jumladan, uning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) va ayniqsa, buyuk shoir va mutafakkir, g'azal mulkning sultoni Mir Alisher Navoiyning (1441-1501) roli nihoyatda beqiyos bo'ldi. Ma'rifatli hukmdor bo'lmish Sulton Husayn (Boyqaro) butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylanadi. Uning o'zi "Husayniy" taxallusi ostida g'azallar yozgan. Bizning kunlargacha uning she'riy "Devon"i va nasriy "Risola" asarlari etib kelgan.

Alisher Navoiy (1441-150) Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher 1441 yilning 9 fevralida Hirotida tug'ildi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan.



Alisher Navoiy (1441-150)

O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447 yil 12 martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishadi. Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotida qolib o'qishni davom ettirdi. U she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiyda Navoiy, forsiyda Foni taxalluslari bilan yozgan.

Alisher Navoiy 13-14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1457 yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Xurosonni

Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egallaydi va poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi - Abu Said edi. Alisher Navoiy oilasining xohish-rag'batiga Husayn tomonida bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi, bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. 1469 yil boshlarida Sulton Abu Said Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Ko'pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtni egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotga keladi. Ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Husayn Boyqaroga yangi yozgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi.

Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi.

Xirotida "ixlosiya" madrasasi, darveshlar uchun "Xalosiya" xonaqoxi, bemorlar uchun "Shifoia" kasalxonasi, "Dar ul-xuffaz" (qorixona), "Safoia" xammomini qurdirgan. Xondamirning yozishicha Navoiy oz mablagiga 52 ta rabot, 19 ta xovuz, 9 ta xammom, Astrobodda "Mir saroyi" va "Jome' masjidi", Marvda "Xusraviya" madrasasini qurdirgan.

1470 yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni - "Badoe' ul-bidoya" («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi.

«Xamsa» asari Navoiy ijodining durdonasi sanaladi. O'zbek tilida «Xamsa» - besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483-85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Yana uning «Tarixi muluki Ajam», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Risolai muammo», «Majolis un - nafois», «Munshaot», «Mezon ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nasoim ul-muhabbat», «Devoni Foniy», «Lison ut-tayr», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub», «Nazm ul-javohir», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Siroj ul-muslimin», «Arbain» kabi bebaho asarlari mavjud.


Navoiy ijodi o'zining haqiqiy qadr-qimmatini mustaqil O'zbekistonda topdi, deya olamiz. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 1991 yil Alisher Navoiy yili deb atalgan edi. Mamlakatimiz bu ulug' zot nomi bilan mustaqillik davriga qadam qo'ydi. Bunda o'ziga xos ramziy ma'no bor. Zero, Navoiy o'zining hayoti va faoliyatini yurt mustaqilligi va tinchligi, o'zbek tilining nash'u namosi uchun baxshida etgan edi.

Bugun Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o'rin oldi. Uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilindi. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan olijanob g'oyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olmoqda. Shoir haykallari Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida, Moskva va Boku shaharlarida qad ko'tardi. Navoiy bilan zamondosh o'zbek shoirlari ichida Lutfiy, Durbek, Sakkokiy, Gadoiy, Atoiy va boshqalarning ham nomlari ma'lum va mashhur bolgan. Jumladan Navoiydan avval turkiygoy shoir Lutfiy (1336-1465) yashab ijod etgan. Uning oz vaqtida 20 dan ziyod

ajoyib asarlari mavjud bolgan,bizgacha faqat mashhur “Gul va Navroz” va gazallar devoni etib kelgan holos.

Kamoliddin Bexzod (1455-1537). Amir Temur va temuriylar davridagi Markaziy Osiyo tasviriy san’atida o’ziga xos uslubni yaratdi. Bu jihatdan ayniqsa Behzod boshliq Hirot rassomlari maktablari katta yutuqlarga erishdi va keyingi asrlar tasviriy san’ati rivojida chuqur iz qoldirdi.

Behzod Shohruh Mirzo zamonida Boysunqor Mirzo tomonidan asos solingan tasviriy san’atning Hirot maktabini takomiliga etkazdi. U hech bir takrorlanmaydigan nafis va mazmunan boy, ajoyib tasviriy san’at namunalarni yaratib, o’z nomini abadiylashtirdi. Kamoliddin Behzod o’zining rassomlikka qiziqishi, qobiliyati va iste’dodi bilan kishilarning, san’at ahlining e’tiborini jalb etadi va ko’p o’tmay ilm-fan, san’at va adabiyot ahllari orasidan o’ziga munosib o’rin oladi. Ilm-fan san’at va adabiyot ahllarining homiysi Alisher Navoiy iste’dodli yosh rassomga alohida diqqat-e’tibor beradi, unga har tomonlama g’amho’rlik qiladi. Masjid qurilishini tasvirlayotgan miniatyurada Behzod qurilish ishlari-



Kamoliddin Bexzod (1455-1537)

ning borishini keng ko’lamda ko’rsatib bergan. Bu asarga qarab turib, tomashabin go’yo ish boshqaruvchilarning qichqiriqlarini, hunarmandlarning g’alag’ovurini, qurilish materiallarini tashib keltirayotgan aravalarning g’ijirlashini eshitayotgandek bo’ladi. Behzod portret janrida ham barakali ijod qildi. Uning mo’yqalamiga mansub ikki portret bizgacha etib kelgan. Parijda shaxsiy kolleksiyada Sulton Husayn Mirzo shohona kiyimda tasvirlanib, uning barcha xislatlarini ifodalashga harakat qilingan. Behzodning Markaziy Osiyo xalqlari san’ati tarixida birinchi insonparvar musavvir ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Gumanizm, insonparvarlik Kamoliddin Behzod ijodidagi asosiy estetik tamoyillardir va uning miniatyuralari o’quvchi yoshlarga tugal ma’naviy ozuqa beradi.

Zaxiriddin Muxammad Bobur(1483-1530)-o’zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi olim, davlat va jamoat arbobi. U Hindistonda 332- yil hukm surgan Bobiriylar saltanatining asoschisi, temuriy hukmdorlarining so’nggi namoyondonlaridan biri. Otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi. Bobir Andijonda saroy muhitida o’qib, tarbiyalandi. Otasi vafotidan so’ng 12 yoshida Farg’ona taxtiga o’tirdi. Amir Temur davlatini qayta tiklash uchun 1495-1496 yillarda Samarqandni egalladi. 1500- yilda Samarqandni ikkinchi marta egalladi. Keyin Andijonda unga qarshi isyon ko’targach orqaga qaytishga majbur bo’ldi. Shayboniynxon 1504- yilda Andijonni ham egallagach, Bobir janubga yo’l olib, Qobulda o’z hokimiyatini o’rnatdi. 1505-1512 yillarda Movorounnaxrga qaytishga urinib ko’rdi., ammo muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1519-1535 yillarda Hindistonni qo’lga olish maqsadida janglar olib bordi. 1526 yili Panipat jangida Hindiston sultoni Ibrohim Lodiy bilan va 1527- yilda Rana Sanga bilan bo’lgan janglarda g’alaba qozonib, Hindistonda o’z hukmronligini o’rnatdi. Bobir 1530- yili dekabrda Agra shahrida vafot etdi, keyinchalik uning hoki vasiyatiga binoan 1533- yilda Qobulga

olib kelib dafn etildi. Uning ilmiy-adabiy merosi “Bobirnoma”, “Xati Bobiriy”, “Mubayyin”, “Harb ishi” va “Muxtasar” kabi asarlardan iborat. Bobir haqida Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” da shunday degan: “Bobir dilbar shaxs edi. Uygʻonish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi boʻlib, sanʼatni, adabiyotni, goʻzallikni sevardi”, Javoharlaʼl Neru “Hindistonning kashf etilishi” kitobida- “Bobur feʼli-saviyasiga koʻra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qoʻyilgan”, Eduard Xolden, ingliz tarixchisi “Saxovati va mardligi, isteʼdodi, ilm-fan, sanʼatga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shugʻullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Bobirga keladigan birorta podshoh topilmaydi” degan edi.

Qozizoda Rumi (1360-1437) yirik matematik va astronom. Xuroson va Movarounnahrda tahsil olgan. Taxminan 1400- yillarda faoliyatini davom ettirish uchun Samarqandga keladi. Amir Temur saroyida astronom Mavlono Ahmaddan taʼlim olgan, Mirzo Ulugʻbekning aniq fanlarga qiziqishiga taʼsir koʻrsatgan va unga ustozlik qilgan. Ulugʻbek astronomik maktabinnig yaratilishida Qozizoda Rumiyning xizmatlari katta boʻldi. Uning tashabbusi bilan Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy va boshqa olimlar Samarqandga taklif qilinganlar. Ulugʻbek madrasasida matematika va astronomiyadan maʼruzalar qilgan va “Aflotun zamon” nomini olgan. Mirzo Ulugʻbek uning dasrlarida ishtirok etgan. Qozizoda Rumi Ulugʻbek rasadxonasi qurilishining rahbarlaridan biri boʻlgan. Koshiy vafotidan soʻng madrasaning boshqaruvchisi boʻlgan. Ulugʻbekning barcha ilmiy tadbirlarida, jumladan “Ziji Koʻragoniy”ni tuzishda ishtirok etgan. Qozizoda Rumi “Risola fi-l-hisob” (Hisob haqida risola), “Sharhi Mulaxxis fi-l-hayʼa” (Astronomiyaga oid qisqacha risolaning sharhi), “Sharhi ashkol at-taʼsis” (Asoslangan jumalarga sharh), “Risalat ul-jayb” (Sinus haqida risola), “Misoha” (Oʻlchash), “Sharh at-tazkira”, “Risola fi ilm il-hayʼa” (Astronomiya ilmi haqida risola) kabi oʻnlab asarlarning muallifidir.

Texnologik usullar: «Muammoli vaziyat»

1-topshiriq

«Muammoli vaziyat» toʻldiring

Shoxruxmirzoning xokimiyatga kelish sabablari nimada edi?	Xusayin Boyqaro va Alisher Navoiyning munosabatlarini qanday baxolaysiz.	

2-топширик
«Т-схема»

Temuriylar saltanati inqiroziga nima sabab bo'ldi ?	Temuriylar davrida fan va madaniyat rivojiga xissa qo'shgan allomalar haqida nima bilasiz?

Nazorat savollari:

1. Markazlashgan davlatni barpo etishda Amir Temur xizmatlari nimadan iborat?
2. Amir Temur o'z davlatini boshqaruvida qaysi g'oyaga amal qildi?
3. Amir Temur ichki va tashqi siyosatida nimani mezon qilib oldi?
4. Amir Temur Evropadagi qaysi davlatlar bilan diplomatic aloqalar o'rnatdi?
5. "Temur tuzuklari"ning tarixiy manba sifatida ahamiyati qanday ekanligi haqida gapiring.
6. Temuriylar davri fan va madaniyati rivojida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlar kimlar?
7. "Temur tuzuklari" tarixiy manba sifatida.
8. Amir Temur saltanati to'grisida qaysi tarixiy manbalarni bilasiz.
9. Alisher Navoiy ijodining gullagan davri qaysi?
10. 1438-1506 yillarda yashagan temuriyzoda kim?
11. Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga xissa qo'shgan allomalar kimlar?
12. Mustaqillik yillrida Amir Temur yili deb qaysi yil e'lon qilindi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Амир Темур ҳақида сўз.-Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. Шарк. 2000.
4. Ахмедов Б. Сохибқирон Темур .-Тошкент. 1996.
5. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
6. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –T.: «Universitet», 2005.
7. O'zbekiston tarixi. S. Xolboyev va b. – T.: Universitet, 2005.
8. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2015.
9. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд. – Тошкент, 2013.

10. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -T.: Akademnashr, 2019.
11. Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. -Тошкент: Шарқ, 1997.
12. Абдураззок Самаркандий. Матла ас-саъдайн ва мажма ал-бахрайн. -Тошкент, Ўзбекистон.2008.
- 13.Темур тузуклари.-Тошкент.Маънавият.2011.

VIII BOB. O'RTA OSIYO HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Asosiy tushuncha va atamalar:

«Boburnoma», Shayboniylar davlati, Buxoro xonligi, Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi, mang'itlar sulolasi, Buxoro amirligi, Miyonqal'a qo'zg'oloni, xon, mansab va unvonlar, qo'shbegi, shayx-ul islom, sudur,otaliq, mingboshi, dargoh, devon, diplomatik missiyalar, «Ablullanoma», «Tarixi mang'itiya», Xiva xonligi, qo'ng'irod o'zbeklari, qoraqalpoqlar, Bekovich—Cherkasskiy diplomatik missiyalari, ming urug'i, Qo'qon xonligi, mulk, Toshkent qo'zg'oloni, qipchoqlar hukmronligi, qipchoqlar qirg'ini, «Muntaxab at-tavorix», «Tarix», «Tarixi Aziziy».

VIII. 1. XV asr oxiri - XVI asrning boshlarida Movarunnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shayboniylar, Ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayot

Shayboniylar davri. Feodal tarqoqlik va temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlar Temuriylar davlatini inqirozga olib keldi .Mamlakatdagi temuriy shahzodalar tomonidan boshqarilgan ko'pgina hududlar xususan, Farg'ona, Hisor, Samarqand bilan Buxoro, Toshkent, Xorazm o'zlarini mustaqil hisoblab bir birlari bilan chiqishmas,hech kimga bo'ysunmas edilar. Bu noittifoqlik albatta Shayboniyhonga qo'l keldi.

Dashti Qipchoqda Abulhayrxon XV asrning 20 yillarida u yerdagi ko'plab qabilalarni birlashtirib o'z davlatiga asos solgan edi.Dashti Qipchoqdagi bu davlat 40 yil hukmronlik qilib so'ngra tarqoqlikga yuz tutdi. XV asrning 80 yillariga Abulhayrhonning nevarasi Shayboniyhon Muhammad Shohbaht dasht urug'larini birlashtirib o'z davlatini mustahkamladi. Hali Movaraunnahrni bosib olmasdan oldin 1487 -88 yillarda O'tror,Sayram,Yassi,(Turkiston),Sig'nog shaharlarini oldi.1499 yil Movaraunnahr hududiga yurish boshlab



Buhoro va Samarqandni egalladi.Temuriy shahzodalardan Bobur Afg'onistonga chiqib ketdi.1500 yil Shayboniyhon Samarqandni jangsiz egalladi. Shayboniyhon qo'shinlari shaharni ayovsiz taladilar. Bundan halq norozi bo'ldi. Boburmirzo Samarqand tahtini egallash uchun o'z harakatlarini boshlab yubordi ,ammo uni halq qo'llamadi Shayboniyhon bilan bo'lgan jangda engildi,natijada Bobur Samarqandni tashlab Afg'onistonga chiqib ketdi.Shayboniyhon qisqa muddatda 1503 yil Toshkent,1504 yil Hisor ,1505 Urganch,1507 yil Hirotni egalladi.Hurosonni

egallagan Shayboniyhon Sirdaryda markaziy Afg'onistongacha bo'lgan hududni hukmdoriga aylandi. Temuriy shahzodalar o'rtasidagi noittifoqlik tufayli imperiya siyosiy tarqoqlikga yuz tutgan bo'lsa, Shayboniyhon bu tarqoqlikga barham berib, mamlakat birligini taminladi. Shayboniyhon keyingi harakatlari janubga tomon yo'naltirildi. Marv ostonalarida Eron shohi Ismoil Safaviy bilan 1510 yilda qattiq jang bo'ldi. Bu jangda, Shayboniyhon qoshinlari engildi, uning o'zi esa halok bo'ldi. Bundan ruhlangan Bobur eronliklardan yordam olib, Samarqandga yurish qildi. Bobur 1511 yil Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badahshon va Samarqandni egalladi. Eroniy qo'shin bilan kirib kelgan Boburni halq qo'llab –quvvatlamadi aksincha shayboniyyodalardan Ubaydullo sultonga hat yozib, Movaraunnahrga kelishini iltimos qilishdi. Ubaydulla sulton va Bobur qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ldi, jangda Bobur qo'shinlari engildi. Shundan so'ng Bobur Movaraunnahrni tark etib, oldin Afg'onistonga so'ngra Hindistonga borib u erda Boburiylar imperiyasiga asos soldi.

Shu tariqa XVI asrning boshlarida Movaraunnahrda Temuriylar saltanatiga barham berilib Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi.

Muhammad Shayboniynonning vafotidan so'ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniynondan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysundilar. Shayboniynondan so'ng uning jiyani Sulton Mahmudning o'g'li Kuchkunchixon (1510-1530 yy.) taxtga o'tirdi. Aynan Kuchkunchixon davrida sultonlarning mustaqilligi kuchaya borib, ular orasida Buxoro mulki hukmdori Ubaydulla Sultonning obruyi ancha baland edi.

Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Biz ushbu davrda davlat boshqaruvida Movarounnahrda asrlar davomida shakllangan davlatchilik tizimidagi ko'pgina o'ziga xosliklarni, xususan, Amir Temur va temuriylar davlati boshqaruv tartiblarining bir qadar saqlanib qolganligini ko'ramiz. Shu bilan birga XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallagan dasht o'zbeklari - ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan ko'pgina yangi boshqaruv tartiblarini, davlatchilik an'analari ham kirib kelganligini ko'ramiz. Dasht o'zbeklariga xos bo'lgan va asosan urug'-qabila aslzodalari keng ishtirok etadigan bu an'alar va boshqaruv tartiblarini¹ Shayboniylar Buxoro xonligini boshqarish davomida Movarounnahrda mavjud bo'lgan yuksak davlatchilik tizimiga o'z an'analari va boshqaruv tartiblarini singdirib yuborib, o'ziga xos bo'lgan davlat boshqaruv tartiblarini joriy etishga harakat qiladilar.

Shayboniylar davrida Davlat boshqaruv tizimi ikki bosqichli - markaziy va mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo'lgan. Markaziy davlat boshqaruvi xon, saroy amaldorlari, o'zbek sultonlari va e'tiborli din peshvolaridan iborat bo'lgan. Mahalliy boshqaruv esa viloyatlar hokimlari va unga bo'ysunuvchi amaldorlardan iborat bo'lgan.

Buxoro xonligida oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i - xon tomonidan boshqarilardi. Davlat xonning va uning avlodini mulki hisoblanib, boshqaruv usullari mohiyatiga ko'ra o'rta asr musulmon davlatlaridan deyarli farq qilmagan. Davlat boshlig'i ya'ni xon bo'lishga odatda hukmdor

¹ Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Т., 1992. 57-88 –бетлар.

sulolaning eng yoshi ulugʻi haqli edi. Bu odatni biz XVI asrda dasht oʻzbeklari davlatida xam kuzatamiz¹. Xon odatda eʼtiborli oʻzbek urugʻlari boshliqlari, islom dini peshvolari va oʻzbek sultonlari tomonidan saylangan. Shu tufayli ham xon ularni fikri bilan hisoblashishga majbur edi.

Davlat ahamiyatiga ega boʻlgan barcha masalalarni hal etish va tegishli qarorlar qabul qilish uchun xon saroyida maxsus majlis - kengash oʻtkazilishi shart boʻlib, bu holat Oliy hukmdorning huquqlari biroz cheklanganligini, uning faoliyati urugʻ boshliqlari, ruhoniylar, harbiy-maʼmuriy amaldorlar tomonidan nazorat qilinib turilganligini koʻrsatadi.

Shu tariqa Davlat boshligʻi rasman xon boʻlsada, amalda davlat boshqaruvida saroy amaldorlaridan va dindorlardan iborat Kengashning ahamiyati ham yuqori boʻlganini koʻramiz.

Tarixiy manbalarda aks etgan qadimiy odatga koʻra xonni taxtga koʻtarishda boʻlajak xonning yaqin qarindoshlari boʻlgan oʻzbek sultonlari va mamlakatda katta taʼsirga ega boʻlgan oʻzbek urugʻlari boshliqlari hamda eʼtiborli din peshvolari ishtirok etganlar. Ular orasidan saylangan vakillar boʻlajak xonni oq; kigizga oʻtkazib taxtga eltganlar. Bu marosim XVI asrning birinchi yarmida mamlakat poytaxti Samarqandda boʻlib oʻtgan boʻlsa, keyinchalik poytaxt maqomiga Buxoro shahri ega boʻlgach, taxtga oʻtkazish Buxoroda boʻlib oʻtadigan boʻldi. Odatda bu marosimda ishtirok etganlar keyinchalik saroydagi nufuzli amal va mansablarga ega boʻlar edilar.

Xonning taxtga kelishida yordam bergan qabila va urugʻ boshliqlari esa mamlakatdagi eng muhim viloyatlarga hokim etib tayinlanardi.

Xon saroyidagi yirik mansabdorlardan iborat markaziy boshqaruv tizimi davlatning ichki va tashqi hayotiga bogʻliq barcha masalalarni xal etishga haqli boʻlgan. Rivojlangan oʻrta asrlarda davlatchilik tizimida, xususan, Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvida muhim rol oʻynagan va doimiy asosda faoliyat koʻrsatgan devonlar orqali boshqaruv tizimi Shayboniylar davrida asta-sekin isteʼmoldan chiqq boshlaydi.

Uning oʻrnini tarixiy manbalarda dargoh (oliy dargoh) deb atalgan davlat idorasi egallay boshlaydi. Bu idora xonlikdagi Oliy markaziy boshqaruvni amalga oshirgan va doimiy faoliyat koʻrsatgan. Dargoh oliy hukmdor - xon tomonidan boshqarilgan². Lekin shunga qaramasdan Buxoro xonligida ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bogʻliq, masalalarni boshqarishda ayrim devonlar - devoni kalon, devoni tanobon va boshqalar faoliyat koʻrsatgani maʼlum.

Dasht oʻzbeklarida amalda boʻlgan qadimiy odatga koʻra taxtga amaldagi xonning farzandlari emas, balki hukmron sulolaning eng yoshi ulugʻi daʼvogar (merosxoʻr) hisoblangan. Ushbu holatni biz Shayboniyxon oʻlimidan soʻng (1510) taxtga Koʻchkinchixon, yaʼni Shayboniyxonning amakisi oʻtkazilganligi misolida koʻrishimiz mumkin. Lekin bu tartibga butun Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida qatʼiy amal qilingan deb boʻlmaydi. Xususan, Shayboniy hukmdor Ubaydulloxonning oʻlimidan soʻng (1539 y.) Movarounnaxr taxtiga hukmron sulolaning eng yoshi ulugʻi, Toshkent hokimi Navroʻz Ahmadxon (Baroqxon) oʻtkazilishi kerak edi. Ammo Buxoro xonligida boshlangan oʻzaro siyosiy nizolar

¹ Ахмедов Б. Ўзбек улуси.Т., 1992. 78 –бет.

² Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи.Т., 2000.243-бет.

oqibatida xonlik amalda mustaqil boshqariladigan bir nechta mayda qismlarga bo'linib ketadi. Xususan, Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon, Samarqandda Ko'chkinchixonning o'g'li Abdulatifxon Navro'z Ahmadxonning azaliy huquqini tan olmasdan, mustaqillik e'lon qilib, unga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Balx va Badaxshonni esa shayboniy hukmdor Pirmuxammadxon mustaqil boshqarar edi¹.

Shu tariqa, biz bu erda taxtga merosxo'rlik masalasida sulola manfaatlari emas, balki tor oilaviy manfaatlar ustunlik qilganligini ko'ramiz. Keyinchalik, XVI asrning ikkinchi yarmida taxtga munosabat masalasida oilaviy an'analar ustunligi to'la namoyon bo'ladi va bu holat odatiy holga, ya'ni an'anaga aylanadi. Bu odatning qaror topishida Shayboniylar sulolasi hukmdorlarining eng ulug'i Abdullaxon ikkinchining faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, 1557-1560 yillarda Movarounnahrning markaziy viloyatlarida o'z hukmronligini o'rnatgandan so'ng Abdullaxon o'z otasi Iskandar sultonni Karmanadan Buxoroga olib kelib, uni butun o'zbek urug'larining hukmdori deb e'lon qiladi. Keyinchalik otasi o'limidan so'ng (1583y.) Buxoro taxtiga Abdullaxonning o'zi o'tiradi.



Abdullaxondan so'ng esa (1598y.) hokimiyat uning o'g'li Abdulmo'minga o'tadi. Shu tariqa biz XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida taxtga merosxo'rlik masalasida oilaviy manfaatlarining sulola manfaatlaridan to'la ustunlik qilganligini ko'ramiz.

Abdullaxon ikkinchi tomonidan joriy qilingan taxtga merosxo'rlik tartibiga keyinchalik Ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida ham qat'iy amal qilingan.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligida Markaziy boshqaruv davlatdagi ichki va tashqi hayotga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan oliy dargohda jamlangan edi.

Dargohda xondan keyingi muhim amaldorlarni asosan uch toifaga bo'lish mumkin:

- 1) Harbiy-ma'muriy amaldorlar
- 2) Harbiy amaldorlar
- 3) Diniy mansab egalari.

Markaziy davlat boshqaruvida bu saroy amaldorlarining mavqei juda yuqori edi. Davlatda xondan keyingi o'rinda turuvchi yirik saroy amaldori - Naqib bo'lgan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishisi bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan². Shu bilan birga Naqib mansabiga ega bo'lgan kishi XVI- XVII asrlarda «qozi askar», ya'ni harbiy sudyalari boshlig'i bo'lganligi bizga tarixiy manbalardan ma'lum. Shu tariqa naqib ham harbiy-ma'muriy, ham diniy vakolatga ega bo'lgan. Ammo diniy mavqei jihatidan Shayx-ul islom va qozi ul-Quzzotdan keyingi o'rinda turgan.

¹ Аҳмедов Б. Бухоро хонлиги. Тарихдан сабоқлар... 406-бет.

² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи... 243-бетлар.

Naqib mansabiga faqatgina payg'ambar avlodlari hisoblanmish sayidlar va xo'jalar tayinlangan.

Davlat boshqaruvida Ko'kaldosh mansabi ham muhim o'rin tutardi. Bu mansab egasi xonning eng yaqin kishisi bo'lib, davlatda mahfiy ma'lumotlarni yig'ish uning zimmasida bo'lgan.

Shuningdek, Davlat boshqaruvida «otaliq» mansabiga ega bo'lgan shaxs ham alohida ahamiyatga molik bo'lgan. Otaliqlarning asosiy vazifasi viloyatlarga hukmronlik qiluvchi voyaga etmagan o'zbek sultonlari sulola davomchilariga viloyatlarni boshqarish, oliy dargoh, bilan munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan. Odatda merosxo'r shahzodaga otaliq qilgan shaxs bu merosxo'r taxtga o'tirgandan so'ng davlatda eng yuqori mavqega ega bo'lar edi.

Oliy saroy amaldori ichida otaliqdan keyingi o'rinda Oliy devonbegi turgan. U mamlakatdan xiroj solig'i yig'ilishiga mas'ul amaldor bo'lgan. Oliy devon (Devoni kalon) va devoni tanobondon tomonidan kelgan hisob-kitoblar asosida u olingan pul so'mmasini mextarchi davlat xazinasiga, don mahsulotlarini esa amlakdorlarga saqlash uchun topshirib turgan.

Markaziy davlat boshqaruvida vaziri a'zam, vazir, devonbegi, mushrif, xazinachi, shig'ovul, eshik og'aboshi, parvonachi va boshqa amaldorlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Buxoro xonligida saroy amaldorlari ichida Ahli qalam toifasiga mansub kishilar ham bo'lganligini aytib o'tish kerak. Ularga xon hokimiyatining barcha kirim-chiqimlarini hisob-kitob qilib boruvchi va bu ma'lumotlarni, sir saqlanishiga mas'ul amaldor devonbegi (Devoni kalon), mushrif, daftardor, munshi (xonning shaxsiy kotibi) va boshqa turli amaldorlarni ko'rsatish mumkin. Ular ichida faqat devonbegigina otda Arkka kirish huquqiga ega bo'lgan.

Xon saroyidagi tartib-intizom, keldi-ketdirlarni nazorat qilish kabi yumushlarni eshik og'aboshi boshchiligidagi xizmatkorlar bajarganlar. Harbiy harakatlar paytida bu xizmat vakillari zimmasiga xonning muhim harbiy topshiriqlarini bajarish ham topshirilgan¹.

Buxoro xonligidagi saroy amaldorlari ichida yasovul ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Hofiz Tanish Buxoriyning bergan ma'lumotiga qaraganda, Yasovul kichik saroy xizmatchilari toifasiga kirib, Yaso va Yusunning bajarilishini kuzatib borgan. Yasovullar, shuningdek, xonning shaxsiy qo'riqchisi va xizmatchisi ham hisoblanganlar².

Shu tariqa Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligida bir qancha toifalarga bo'linadigan saroy amaldorlari, mansab va unvonlar mavjud bo'lib, ular egalari o'zlarining asosiy vazifalaridan tashqari, ko'pgina qo'shimcha vazifalarni ham bajarib kelganlar. Bu qo'shimcha vazifalar ko'p hollarda harbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, bu Buxoro xonligidagi harbiy-siyosiy vaziyatga mos ravishda shakllangan. Xususan, Miroxur (xonga tegishli ot-ulovlarga mas'ul amaldor), Shig'ovul (xorijlik elchilarni qabul qilish marosimidagi etakchi amaldor) va hatto Bakovulboshi, dasturxonchi kabi amaldorlar ham o'z vazifalariga nisbatan

¹ Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарих. 245-бет.

² Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома..., 1 жилд.331, 358-бетлар.

qo‘shimcha ravishda harbiy yumushlarni ham bajarganlar¹. Masalan, saroy oshpazlari boshlig‘i bo‘lgan, ya’ni xon uchun tayyorlanadigan oziq-ovqatlarga javobgar amaldor bakovulboshi harbiy yurishlarda qo‘shinni oziq-ovqat bilan ta’minlashga mas’ul bo‘lgan.

Shayboniylar hukmronligi davrida, Buxoro xonligida ma’lum bir devonlar faoliyat ko‘rsatganligi manbalarda aks etgan. Xususan, XVI-XVIII asrlarda Devoni kalon, Devoni tanobon, **Devoni tub hayot**, Devoni garoxur kabi devonlar mavjud bo‘lgan bo‘lib, ularning faoliyati asosan davlat boshqaruviga emas, balki davlat va xon dargohi miqyosida daromad va harajatlarni qayd etib borish bilan cheklangan.

Xon saroyida hukmdor sulola a’zolariga tegishli mol-mulk, er-suvlarni boshqaruvchi va nazorat qiluvchi devon-devoni xossa ham bo‘lganligi ma’lum².

Movarounnahr va Xurosonni egallagan Shayboniylar o‘lkalarni o‘z yaqin qarindoshlariga, o‘zbek sultonlariga suyurg‘ol sifatida taqsimlab bergan. Shu tariqa o‘zbek sultonlari harbiy-ma’muriy amaldorlarga ham aylangan va o‘zlariga tegishli butun viloyatlarga yakka hokim xisoblanganlar.

Buxoro xonligi ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, viloyatlar o‘z navbatida tumanlarga, hazoralarga, mavzelarga bo‘lingan. Qishloq oqsoqollari tomonidan boshqariladigan qishloq jamoasi mahalliy boshqaruv tizimining eng bo‘g‘ini hisoblangan.

Viloyatlar xon tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimi o‘z qo‘shini va turli harbiy-ma’muriy va diniy amaldorlardan iborat o‘z boshqaruv tizimiga zga bo‘lgan.

Poytaxt shahar va unga tegishli tumanlar xon tomonidan boshqarilgan, Viloyat hokimligiga odatda xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari yirik o‘zbek urug‘lari boshliqlari, harbiy yurishlarda o‘zini ko‘rsatgan o‘zbek sultonlari munosib ko‘rilgan.

Yer egaligi munosabatlari. Barcha turkiy xalqlarda bo‘lgani kabi shayboniylar davlatida ham hokimiyat masalasi, qo‘shinlarning tuzilishi masalalarida **odat** huquqlari nisbatan ustunroq bo‘lgan. Ushbu davlat tashkil topgan dastlabki davrda unda asosan Abulxayrxon davlatining tuzilishi hamda an’analari saqlanib qolindi. Undan tashqari er-mulk masalasida temuriylar davlatida shakllangan xizmat evaziga er-mulk in’om qilish shakllaridan shayboniylar davlatida ham qo‘llanilgan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, bu davrda Buxoro xonligida yer huquqi masalalarida: davlatga qarashli erlar, ushr erlari, xurri xoris yerlar, vaqf erlari, xon va amaldorlarga tegishli yerlar, ko‘chmanchi qabila va urug‘larga tegishli yerlar, suyurg‘ol yerlari, tanho yerlar hamda tarxonlik yerlari mavjud bo‘lgan.

Movaraunnahrda shayboniylar davrida ham madaniy an’analari rivojlandi. Adabiyotning turli janrlarida Muhammad Solih, Hoja Afsodiy, Vosifiy, Majlisiiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy, Nisoriy, Mushfiqiy, Nahliy, Mutrifiy kabilar barakali ijod qildilar. (Eshov, 494 bet) Shuningdek memorchilik va shaharlar taraqqiyotida yuksalish davri boldi. Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Karmana, Turkiston, Marv, Hirot, Balh, Hiva kabi ko‘plab shaharlarida madrasa, masjidlar, minoralar, timlar, hammomlar, karvonsaroylar sardoba va

¹ Уша жойда 245-бет.


² Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарих. 247-бет.

ko'priklar qurildi. Abdullahon 2 hukmronligi (1583-1598) davrida mamlakat iqtisodiy barqarorlashdi, qishloq hojaligi, hunarmandchilik, tashqi va ichki savdo rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berildi. Butun mamlakat hududida ko'plab karvonsaroylar va sardobalarning qurilishi bevosita uning nomi bilan bog'liq. Tarixiy hujjatlarning birida Abdullahon 2 hukmronligi davrida 400 ta sardoba qurilganligi aytib o'tiladi. Sardobalarni hon tohtaydigan joylarda, rabotlarni esa tunash imkoni bolgan joylarda qurdirgan. Rabotlar qurilish huddi masjid qurish singari juda savobli ish hisoblangan. Buhoro amirligi hududida kopchilik karvonsaroy va sardobalar uning nomi bilan atalgan. Qarshidan Darbandga boradigan yolda ikkita rabot-Oqrabot qishlog'i va Darbanda Abdullahon karvonsaroyi mavjud. Shuningdek Chorshanba bekati yonida ham Abdullahon nomi bilan ataluvchi karvonsaroy va sardoba mavjud. Sardobalar qurilishi rabotlar qurilishi bilan uzviy boglangandir. "Abdullanoma" asarining muallifi Hofiz Tanish Al-Buhoriy oz asarida Qorovulbozor hududida rabot qurilganini Abdullahon davrining taniqli kishilaridan biri Qulbobo Ko'kaltosh nomi bilan bog'lab ko'rsatadi. Savdo yo'llari O'rta Osiyo shaharlarini Afgoniston, Hindiston va Eron markazi bilan, shimolda Sirdaryo qirg'og'idagi shaharlar, qozoq cho'llari eng chekka joylari bilan o'zaro bog'lab turar edi. Abdullahon hukmronligi davrida savdo aloqalari Rossiya bilan qizgin rivojlandi, bunda pahtadan tayorlangan matolar asosiy rol o'ynagan. Odatda, feodal er egalari qarashli bo'lgan savdo karvonlari bir necha yuz tuyalardan iborat bo'lgan. Samarqand va Buhoroga fors, arab, turklardan iborat ko'plav chet ellik savdogarlar tijoratga kelib turishgan. Hulosa qilib aytganda qit'alararo savdo aloqalarida dengiz yoli ochilganidan keyin ham, o'rta asr Movaraunnahri ushbu yonalishda oz mavqeini saqlab qoldi.

Hulosa qilib aytganda o'zbek davlatchiligi tarixida shayboniylar davri o'zaro urushlar bolishiga qaramasdan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi deyish mumkin. Shayboniy hukmdorlari; Muhammad Shohbaht Shayboniyhon 1500-1510 yy. Ko'chkunchihon – 1510-1530 yy., Abu Saidhon-1530-1533 yy., Ubaydullohon-1533-1539 yy., Abdullahon 1-1539-1540 yy., Abdulazizhon (Buhoroda) -1540-1550 yy., Abdullatifhon (Samarqandda) -1540-1551 yy. Navroz Ahmadhon-Baroqhon (Toshkentda) -1551-1556 yy., Pirmuhammadhon-1556-1561 yy., Iskandarhon-1561-1583 yy., Abdullahon 2 -1583-1598 yy., Abdulmominxon-1598-1599 yy., Pirmuhammadhon 2-1599-1601 yy. hukmronlik qildilar. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrini yorituvchi manbalar "Tarihi guzidai nusratnoma", (muallifi noma'lum), "Shayboniynoma" (Kamoliddin Binoiy), va "Mehmonnomayi Buhoro" (Fayzulloh ibn Ruzbe'hon), shuningdek Hofiz Tanish al-Buhoriyning "Abdullanoma" asarlari eng qimmatli manbalardir.

Ashtarxoniylar davri. Eron safaviylaridan shoh Abbos qoldan boy berilgan hududlar Sabzavor, Mashhad, va Hirotni, so'ngra Balhni egalladi. Qozoq honlari Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bolib oldilar. Buhoroning hukmron doiralari asli Astrahanlik Buhoroda istiqomat qilayotgan Abdullahonning kuyovi Jonibek sultonni taklif qildilar. Jonibek sulton oz o'gli Dinmuhammad foydasiga tahtdan voz kechdi. Tahtga vorislardan Jonibek sultonning kichik o'glini Balh viloyatiga hukumdor etib tayinlashdi. Shu tariqa Movaraunnahr yangi sulola 1601 yildan oz hukmronligini boshladi.

Ilk davrda pul muomalasidagi tangalar Jonibek Sulton nomidan zarb etilgan bo'lsada, amalda xokimiyatni Boqimuhammad boshqardi. U mamlakatdagi



tarqoqlikka barham berishga harakat qilib, avvalo Xorazmni mamlakatga qo'shib oldi. 1602-yilda Balxni qo'lga kiritib, Boqimuhammadxon uni ukasi Valimuhammadga hadya qilib, Andxud, Shibirg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon va Xisorni ham Buxoroga bo'ysundirdi. Boqimuhammadxon mamlakat ichki ishlariga ham alohida e'tibor qaratib, davlat boshqaruvini tartibga solishga harakat qildi. 1605 yilda Boqimuhammadxon vafot etgach, taxtga uning ukasi, Balx hokimi Valimuhammad (1605-1611yy.) o'tiradi.

Ayrim ashtarxoniylar hukmdorlari Imimqulihon(1611-1642),Abdulazizhon(1645-1680), Ubaydullaxon (1702-1711)xukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchand harakat qilmasin,bu harakat deyarli ijobiy natija bermadi. XVIII asr boshlarida Fargona alohida ajralib chiqib minglar sulolasi alohida xonlikni yuzaga keltirdi.

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi ikki bosqichli bolib –markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi.

Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo'lida bolib, “otaliq “ mansabiga ega shaxs katta mavqeyga ega bo'lgan. Bu davrda saroy amaldorlari shayboniylar davridagidek amallarga ega bo'lishgan.Otaliqdan tashqari devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi va boshqa saroy amaldorlari davlat boshqaruvida katta axamiyatga ega edilar.

Ashtarxoniylar davrida harbiy va mamuriy amaldorlar katta huquqlarga ega edilar .Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari ho'jalar va diniy mansab egalari – Shayxulislom, qozikalon, sadr va boshqalarning ahamiyati ham katta bo'lgan.

Honlikning asosiy boyligi er bolib , er egaligining quyidagi turlari amalda bolgan:

1."Mulkiy sultoniylar,mamluk yerlar"-bu yerlardan olinadigan daromad hon va uning honadoniga tegishli edi

2.Xususiy yerlar- mamuriy erlar va diniy amaldorlarga tegishli bo'lgan va suyurgol,iqto,tanho shaklidagi xususiy yerlar.

3.Vaqf yerlar – diniy tashkilotlarga tegishli yerlar.

Ashtarxoniylar davrida sugoriladigan yerlarda asosan bug'doy, arpa, jo'hori, loviy, mosh shuningdek sabzavot va poliz ekinlari hamda pahta ekib dehqonchilik qilingan.

Xonlikga hos bo'lgan hiroj,zakot,ihrojot,boj kabi soliqlarni undirishdan tashqari qishloq va shahar aholisi kanallar qazish,ariqlarni tozalash, qurilish ishlariga ham majburan jalb etilardi.Mazkur jarayolarda ishtirok etmagan aholidan esa tadbirlarda sarflangan harajatlar turli yo'llar bilan undirib olinardi. Fuqoroligi bo'lmagan savdogarldan boj soligi olingan.

O'zbekiston tarixidagi Ashtarxoniylar davri (1601-1756) boshboshdoqlik, o'zaro kurashlar, mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunmasligi davri bo'lib, aynigsa tinimsiz urushlar xalqni ahvolini ogirlashtirdi. 1708 yil Buhoroda Ubaydyllohonning pul islohatidan norozi bolib halq chiqish qildi. Bunga sabab yangi chiqarilgan pulga savdogarlar, novvoylar o'z mahsulotlarini sotmay qoydilar. Bundan nochor aholi qattiq aziyat chekdi. Minglab odamlar hon saroyiga borib toshlar otib o'z noroziliklarini bildirdilar. Hon savdogarlarga do'konlarini ochishga novvoylarni o'z faoliyatlarini tohtatmaslikga farmon berdi, bu farmonga bo'ysunmaganlar o'lim jazosi kutishi aytili. Bu chiqishlardan honning o'zi ham hulosa chiqarib, pul islohotini bir muncha o'zgartirdi. Hukmdorlarning halqga ko'rsatgan zilmiga qarshi 1712 yilda Samarqandda, asr XVIII ning 20-40 yillarida Buhoro honligining Karmina, Miyonqol, Shahrisabzda ham norozilik kayfiyatdagi chiqishlari bo'lib o'tdi. Tashqi aloqalar asosan qo'shni hududlar bilan cheklanib qolib, mamlakat jahon texnikaviy taraqqiyotida ro'y berayotgan ko'pgina yangiliklardan chetda qoldi. Shunga qaramasdan madaniy xayotning ba'zi sohalarida (me'morchilik, tarixnavislik, adabiy muhit, islom huquqi) taraqqiyot jarayonlari kuzatiladi

So'nggi ashtarxoniylardan bo'lgan Abdulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashganligidan foydalangan o'zbek urug'lari turli viloyatlarda hokimiyatga qarshi isyon va g'alayonlar ko'tarishib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qila boshladilar. Ular orasida ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan, mang'it urug'i boshliqlardan biri Muhammad Hakimbiy otaliq (vafoti 1743y) hamda uning o'g'li Muhammad Rahimbiyning harakatlari ayniqsa keskin edi. Ashtarxoniylar hukmdorlari; 1.Boqimuhammad-1601-1606 yy., 2.Valimuhammad-1606-1611 yy. 3.Imomqulihon-1611-1642 yy., 4.Nodirmuhammad-1642-1645 yy.,5.Abdulazizhon -1645-1681 yy.6.Subhoqulihon-1681-1701 yy.7.Ubaydullahon-1702-1711 yy., 8.Abulfayzhon-1711-1747 yy.,9.Abdulmo'min-1747-1748 yy. hukmronlik qilishdi.

Buxoroda bo'lib o'tayotgan tartibsizliklardan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1745 yilda Muhammad Rahimbiy rahbarligida Buxoroga katta qo'shin jo'natdi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda viziyatni yumshatish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Miyonqol va Shahrisabzdagi qo'zg'olonlar bostirildi. Muhammad Rahimbiy davlat apparati tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi.

Mangitlar davri. Buxoro amirligi tarixida mang'itlar sulolasi hukmronligi tarixi 1756 yilda boshlanib, 1920 yilga qadar davom etdi. Mang'itlarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan davlat boshlig'i avval xon, so'ngra yuqorida aytganimizdek amir deb yuritila boshlandi, xonlik esa amirlik deb atala boshlandi.

1756 yili Muhammad Rahimbiy o'zini "xon" deb e'lon qiladi va shu yildan boshlab Buxoro xonligi tarixida rasman mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlanadi.

1756 yilga kelib esa yirik amaldorlar, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon xon unvoni bilan taxtga to'la va rasmiy egalikni e'lon qildi.

Muhammad Rahimxon Buxoro taxtiga o'tirgan davrdan boshlab Buxoro davlati amirlik deb yuritila boshlandi.

Muhammad Rahimxon (1756-1758 y.y.) taxtga o'tirgan kundan boshlab markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. Dastlab, u barcha viloyatlar va shaharlar hokimlari, barcha urug' oqsoqollarini to'plab, mamlakatdagi vaziyatni tushuntirib berdi va barchaga markaziy davlat qonunlariga to'la amal qilishini hamda kimda-kim bo'ysunmasa qattiq jazolanishini aytdi.

Muhammad Rahimxon yirik mulkdorlarni davlat ishlarini boshqarishga aralashtirmagan holda o'zi mustaqil davlat ishlarini olib bordi. U barcha o'zbek urug'larini o'ziga bo'ysundirish va Buxoro hududida yagona markazlashgan davlat tizimini vujudga keltirish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. Bo'ysunmagan urug'larni o'z yurtidan badarg'a qildirdi. Jumladan, yuz, kenegas, burkut, bahrin, saroy urug'larini Hisorga ko'chirib yubordi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida juda katta hududni birlashtirgan markaziy davlat tizimini yuzaga keltirdi. 1758 yilga kelib Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelishib, Muhammad Rahimxonni Buxoroning qonuniy hukmdori deb tan olganliklarini bildirishdi.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng, uning o'g'li bo'lmaganligi sababli, qizidan bo'lgan balog'atga etmagan Fozilto'ra ismli nevarasi taxtga o'tkazildi. Unga Muhammad Rahimxonning amakisi Doniyolbiy "otaliq" deb e'lon qilindi. Aslida esa barcha davlat ishlari Doniyolbiy tomonidan olib borildi.

Viloyatlar Muhammad Rahimxon vafoti haqidagi xabar etib borgandan keyin markazlashgan davlat siyosatiga qarshi g'alayonlar va qo'zg'olonlar ko'tarildi. Miyonqol vohasi, Shahrisabz va Kitob, Sherobod va Boysun, Hisor viloyatlarida katta-katta xalq g'alayonlari va chiqishlari boshlanib ketdi.

Muhammad Rahimxon tomonidan Hisorga badarg'a qilingan yuz, kenegas, burkut, bahrin, saroy kabi o'zbek urug'lari amirlari 1758 yili uning vafotini eshitishlari bilanoq, 10 mingdan oshiqroq aholini to'plab, Buxoroga qarab yurish boshladilar. Amirlar mang'itlar sulolasini ag'darish rejasini ilgari surishdi. Mang'itlar sulolasining bosh vakili bo'lmish Doniyolbiy tomonidan tezlik bilan ko'rilgan chora-tadbirlar vaziyatni bir oz yumshatishga imkon berdi.

Doniyolbiy, eng avvalo, ark himoyasini mustahkamladi.

Muhammad Rahimxon davrida vujudga kelgan markazlashgan davlat siyosati Doniyolbiy hukmronligi davrida ancha bo'shashib qolgan edi. U ko'p masalalarni bevosita o'zbek urug'lari oqsoqollari ishtiroki va ruxsatisiz hal qila olmas edi. Bu esa o'z-o'zidan markazlashgan davlat siyosatiga mos-lashgan shahar hunarmandlari va savdogarlarining noroziligiga sabab bo'ldi. Doniyolbiyning mana shunday siyosatiga qarshi 1784 yili Buxoroda katta qo'zg'olon ko'tarildi va ushbu qo'zg'olon davomida mingdan oshiq, kishi o'ldirildi. Qo'zg'olonning yanada alanga olishidan cho'chishgan shaharning yirik savdogarlari va mulkdorlari davlatni boshqarishni Shohmurodga topshirishni talab qilishdi. Doniyolbiy mana shu voqealardan so'ng taxtni o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, Buxoro taxtiga birin-ketin Amir Shohmurod (1785—1800 y.y.), Amir Haydar, (1800-1825 y.y.), Amir Husayn (Amir Haydarning o'g'li bo'lib, bor-yo'g'i 2,5 oy hukmronlik qilgan), amir Umar (amir Haydarning o'g'li bo'lib, bor-yo'g'i 4 oy hukmronlik qilgan), Amir Nasrulloh (1827—1860 y.y.), Amir Muzaffar (1860-1885 y.y.), Amir Sayyid Abdulahad Bahodirxon (1885—1910 y.y.) va nixoyat

Amir Sayyid Olimxon (otasi vafotidan so'ng 1910 yildan to 1920 yilga qadar) egalik qildilar.

Shohmurod Buxoro amirligi taxtiga o'tirgandan so'ng, u shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, sug'orish va qishloq, xo'jaligini rivojlantirish ishlariga alohida e'tibor berdi. O'zining hukmronligi davrida olib borgan ishlari va qurgan tadbirlari hamda xalqqa nisbatan tutgan mavqeiga qarab uni *amiri ma'sum*, ya'ni gunohsiz amir deb atashgan. Shohmurod o'z hukmronligi davrida Zarafshon vohasi sarhadidan yirik-yirik sug'orish inshootlari majmuasini qayta tiklashga katta e'tibor berdi. Shahar hunarmandlari ahvolini yaxshiladi. Ulardan olinadigan qo'shimcha soliqlarni maxsus farmon bilan bekor qildi.

Shohmurod o'z hukmronlik davrida to'rtta eng muhim islohotlarni, ya'ni pul, sud, harbiy va ma'muriy yunalishlardagi islohotlarni amalga oshirdi. Amir Shohmurod 1785 yili Abulg'ozini nomidan mamlakatda pul muomalasini yaxshilash maqsadida katta pul islohotini o'tkazdi. Chunki shu davrga qadar amirlikda ikki xil pul, ya'ni nomi kumush, ammo yarmi misdan va boshqa elementlardan iborat bo'lgan kumush tanga hamda tilla tanga muomalada bo'lgan.

Shohmurod esa 1785 yildan boshlab, to'la holatda kumushdan iborat bo'lgan va 0,7 misqolga (3,36 gr) teng bo'lgan kumush tanga va yirik savdo muloqotlarida ishlatishga mo'ljallangan, oldingilaridan o'zining qiymati, sifati va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalarni zarb ettirdi. Shu bilan birga Shohmurod erkin pul zarb qilish huquqini yaratib berdi. U davlat zarbxonalarida odamlarning o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltinlardan bir xil o'lchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishlariga keng ruxsat berdi. Bunga zarb qilib berilganligi uchun davlatga ma'lum miqdorda xizmat xaqi to'lanardi. Bu esa o'z-o'zidan davlat xazinasini boyitishga va mamlakat ichida yagona miqdorda va qiymatdagi pul muomalasini tashkil qilishga olib keldi. Bunday siyosat mamlakatda pul muomalasining sifat darajasini yaxshilashga keng yul ochib berdi.

Shohmurod adliya sohasida o'tkazgan islohoti bilan Buxoro sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Mamlakatdagi sud hay'ati ishlarini Shohmurod bevosita o'zi boshqardi. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi (traktat) tuzib chiqildi. Barcha viloyat va tuman qozilari (sudyalari) aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borishardi. Oliy sud palatasi tashkil etildi. Unda Amir Shohmurod boshchiligidagi 40 ta huquqshunos qozilar fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishgan.

Shohmurod markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash va uni qo'lda saqlab turish sohasida xam katta ishlarni amalga oshirdi.

Mamlakatda amalga oshirilgan katta islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida ancha mustahkamlanib olgan Shohmurod qo'shni Afg'oniston va Eronga qarshi harbiy yurishlar uyushtirdi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, Amir Shohmurod davriga kelib Buxoro iqtisodiyoti ancha mustahkamlandi va ishlab chiqarish rivojlandi. Bu esa Buxoro amirligining ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan mustahkamlanganligi va markazlashgan davlat tizimining ba'zi tomonlarining vujudga kelganligi natijasi edi.

Amir Shohmurod hijriy 1215 yil rajab oyida (noyabr-dekabr 1800 yil) vafot etdi. Uning o'rniga o'g'li Amir Haydar valiahd sifatida taxt tepasiga keldi. Amir

Haydarning onasi Abulfayzxonning qizidan tug'ilgan edi. Otasi davrida Qarshining hokimi bo'lgan Amir Haydar oq kigizga o'tkazilib, xon ko'tarildi. Amir Haydar xon unvonini emas, balki *amir al-mo'minin* unvonini oldi. Xutba uning nomiga o'qilgan bo'lsa ham, tangalar ham uning nomidan, ham otasi va bobosi (amir Doniyol) nomidan zarb etildi. U otasi siyosatini davom ettirishga harakat qildi.

Xiva xonlari amir Haydar hukmronligi davrida Buxoroga qattiq tajovuz qilishib, xonlik erlarini talab ketishdi.

1806 yili Amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashga chaqirdi hamda ularni xonlik hududlaridan haydab chiqishga va mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ldi.

Ushbu urush tugatugamas O'ratepa uchun Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi.

1807 yili Qo'qon xoni Olimxon O'ratepaga hujum qildi va shahar hokimini asir qilib, katta o'lja bilan Qo'qonga qaytdi. 1810 yil Olimxon yana O'ratepaga hujum qilib, bu safar ham katta boylikni o'lja qilib ortga qaytdi. Ushbu harakterdagi harbiy yurishlar Qo'qon xoni tomonidan Jizzax, Zomin kabi shaharlarga ham uyushtirilib turildi.

Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari mehnatkash omma ahvolini og'irlashtirib qo'ydi. Urush harakatlarini qoplash maqsadida Amir Haydar turli xil qo'shimcha soliqlar yig'ishga ko'rsatmalar bergan edi. Bu esa shusiz ham nochor hayot kechirayotgan mehnatkashlar ahvolini yanada og'irlashishiga va Amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlariga olib keldi. Mana shunday xalq qo'zg'olonlaridan biri 1821 - 1825 yillarda Miyonqolda sodir bo'ldi. Miyonqol qo'zg'olonini Amir Haydar nihoyatda qiyinchilik bilan qo'zg'olonchilarga katta va'dalar berish bilangina bostirishga muvaffaq bo'ldi. Miyonqol qo'zg'oloni Buxoro amirligining siyosiy hayotiga ham chuqur ta'sir qildi. Miyonqoldan keladigan katta miqdordagi soliqlarning to'xtashi o'z-o'zidan Buxoro xazinasini salmog'ini kamayishiga olib keldi.

Amir Haydar uchun Marv vohasining aholisi ham ancha mashaqqatlarni tug'dirdilar. Buning sababi vohaning suvsizlik muammosi edi. Shohmurod hukmronligi davrida Murg'ob to'g'oni buzilgan edi. Buning ustiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806—1825 y.y.) 1819 yildan boshlab vohaga ketma-ket yurishlar tashkil qilib, nihoyat 1822 yili uni o'z tasarrufiga kirg'izdi.

Amir Haydar hozirgi Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Maymana, Badaxshon va Qunduz bilan birga Balx viloyati ham (1850 yilgacha) Buxoro tasarrufida bo'lgan. O'z navbatida Amir Haydar Shujo' al-mulk-Temurshoh Durrioniyning o'g'li bilan (u 1803—1809 y.y. hukmronlik qilgan) do'stlik aloqalarini o'rnatgan edi. Ammo Qo'qon va Xiva xonlari bilan Amir Haydarning munosabatlari ancha taranglashib qoldi. Shu sharoitda Amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam so'rab murojaat qilib uning itoatiga o'tishga tayyor ekanini ham ma'lum qildi.

Bu voqealar Amir Haydar hukmronligining oxirgi yillari Buxoro uchun naqadar og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Amir Haydar vafotidan so'ng taxtga uning uchinchi o'g'li Nasrulloh o'tirdi (1826-1860 y.y.). Amir Nasrulloh hukmronligi, eng avvalo, Buxoro amirligidan feodal tarqoqlikka barham berish uchun olib borilgan kurash

bilan harakterlanadi. U harbiylar va lashkarga katta e'tibor berdi. Mana shuning uchun xam uning kuch va qudratiga tayangan holda o'zining asosiy harakatini, eng avvalo, mamlakatdagi mulkdor kuchlarning bebosh ligi va parokandaligini tugatishga sarfladi va bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Amir Nasrulloh hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiqqo'llik siyosatini olib bordi.

Amir Nasrulloh o'z otasi hukmronligi davrida Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan viloyatlarni yana qaytadan bo'ysundirish va kuchli markazlashgan Buxoro davlatini tiklash borasida qattiq kurash olib bordi.

Amir Nasrulloh Shahrisabzni bo'ysundirish uchun bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Faqat 1856 yildagina Amir Nasrulloh Kitob va Shahrisabzni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Mamlakat ichkarisidagi feodal guruhlarining ichki noroziliklarini ayovsiz bostirgach, Amir Nasrulloh qo'shni Xiva va Qo'kon xonliklari hududiga ham hujumlar uyushtirdi.

1842 yil Amir Nasrulloh Qo'qonga hujum qildi va ma'lum muddat uni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Nasrulloh Qo'qonga hujum uyushtirgan paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoroning chegara rayonlariga hujum boshladi. Xivaliklarning Marvga hujum qilganliklarini eshitgan Amir Nasrulloh Qo'qonni tashlab, darhol Buxoroga qaytdi va Xiva qo'shinlariga qarshi katta kuch to'pladi. Baxtga qarshi, aynan mana shu paytda Olloqulixonga qozoq urug'larining Xiva erlariga hujum qilganliklari to'g'risidagi xabar etib keldi va u ham ortga, Xivaga qaytishga majbur bo'ldi. Bir oz vaqt o'tmay u Xivada vafot etdi. Uning vorisi Rahimqulixon buxoroliklarga qarshi Marvga katta qo'shin yubordi. Amir Nasrulloh o'z qo'shinlari bilan hujumga o'tib, Xozaraspni qattiq qamal qildi, ammo uning ostonalarida Xiva qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchradi va o'z yurtiga qaytdi. Nasrulloh Qo'qonga hujum uyushtirgan paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoroning chegara rayonlariga hujum boshladi. Xivaliklarning Marvga hujum qilganliklarini eshitgan Amir Nasrulloh Qo'qonni tashlab, darhol Buxoroga qaytdi va Xiva qo'shinlariga qarshi katta kuch to'pladi. Baxtga qarshi, aynan mana shu paytda Olloqulixonga qozoq urug'larining Xiva erlariga hujum qilganliklari to'g'risidagi xabar etib keldi va u ham ortga, Xivaga qaytishga majbur bo'ldi. Bir oz vaqt o'tmay u Xivada vafot etdi. Uning vorisi Rahimqulixon buxoroliklarga qarshi Marvga katta qo'shin yubordi. Amir Nasrulloh o'z qo'shinlari bilan hujumga o'tib, Xozaraspni qattiq qamal qildi, ammo uning ostonalarida Xiva qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchradi va o'z yurtiga qaytdi. U Amir Nasrulloh o'z hukmronligi davrida O'ratepa va Xo'jand uchun Qo'qon xonligi bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turdi. Amir Nasrulloh pirovard natijasida O'ratepa va Xo'jandni o'z hukmronligiga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Nasrulloh doimiy ravishda o'z mustaqilligi uchun kurashib kelgan Kitob va Yakkabog'ni o'z ichiga olgan Shaxrisabz bekligini ham o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U Shahrisabzga 32 marta harbiy yurish uyushtirdi va ularning oxirida uni bo'ysundirishga erishdi.

Amir Nasrulloh hukmronlik qilgan davr, eng avvalo, Buxoro amirligi hududini mustahkamlash va markazlashgan davlat barpo qilish maqsadida chegara shaharlarni va erlarni o'z tasarrufida saqlash uchun Xiva va Qo'qon xonliklariga qarshi olib

borilgan hamda Shahrisabz bekligini bo'ysundirishga qaratilgan kurashlar bilan harakterlanadi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, oldingi davrlarda bo'lgani kabi, asosan, ikki bosqichli bo'lgan. Jumladan, u amir, saroy amaldorlari, o'zbek urug'lari va qabila boshliqlari hamda e'tiborli din peshvolaridan tashkil topgan. Markaziy davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruvdan iborat edi.

Buxoroda eng yuqori unvon (mansab) va amallar „32 o'zbek qabilalari" namoyondalariga, sayyidlarga, xo'jalarga (najib at-taraf) va ulamolarga berilgan.

Buxoro mamlakatida eng yuqori unvon bu amir al-umaro, otaliq, hokim (voliy, bek), qushbegi va devonbegi bo'lgan. „Otaliq" shahzoda, xonzoda (asosan, taxt vorisi)ga homiy va murabbiy bo'lgan shaxs. Vaqt o'tishi bilan (bu mansab Oltin O'rdada joriy qilingan edi) bu amalning vakolati va zimmasida bo'lgan vazifalar o'zgarib mang'itlar davrida „otaliq" otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy namoyondasiga aylandi.

Mang'itlar hukmronligi davrida qushbegi eng oliy mansab hisoblangan. Aslida bu mansab egasi bosh vazir vazifasini bajargan.

Saroyda yana devonbegi mansabi bo'lgan. Buxoroda XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegi moliya ishlari daromad va harajatlar haqida soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlariga javob berar edi. Diniy unvon va mansablar qozilar, muftiylar, muhtasib va rais, mudarrislar bo'lib, ularga, asosan, sayyidlar, xo'jalar va ulamo ichidan tayinlanar edi. Diniy mansablarning eng yuqorisi shayxulislom bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv, o'z navbatida, viloyat (bekliklar) hokimlari — beklar va ularga bo'ysunuvchi amaldorlardan tashkil topgan.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligida, ilgari bo'lganidek, davlat amalda va rasman deyarli cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i — amir tomonidan boshqarilar edi.

Buxoro amirligidagi markaziy davlat boshqaruvida amirlik poytaxti hisoblanmish Buxoro shahri alohida o'rin tutgan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyat boshliklari boshqaruvchisi hisoblangan. Buxoro shahri mirshablari boshlig'i esa, o'z navbatida, barcha beklklardagi mirshablar ishini boshqargan. Poytaxt oliy qozisi, ya'ni qozikalon—amirlikning barcha qozilari boshlig'i hisoblangan. Mana shu holat asosida Buxoro amirligida juda katta markazlashuv vujudga kelgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, Buxoroda o'sha davrda qushbegi, Qozikalon, bosh rais va Buxoro shahri mirshabboshisini birgalikda „chor hokim", ya'ni „to'rt hokim" deb yuritilgan.

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy va din peshvolarining tutgan o'rni ham o'ziga xos bo'lgan.

Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII—XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko'rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan, arzlar va Payg'ambar hamda uning xalifalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan masalalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib qolgan.

Buxorodagi barcha fuqaro sudi (mahkamasi) shariat bo'yicha boshqarilgan va bu boshqaruv „qozi" deb ataluvchi shaxslar qo'lida bo'lgan.

Bosh qozi, ya'ni qozi kalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig'i hisoblangan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masala bo'yicha shug'ullanuvchi maxsus amaldor, ya'ni *qozi askar* ko'rib chiqqan. Ushbu turdagi jinoyatlarga fatvo tayyorlash *muftiy askar* zimmasida bo'lgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik jinoyat ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o'ziga xos o'rinni „rais" egallagan. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulida edi.

Buxoro amirligida *bosh rais* odatda *eshon rais* yoki *rais ush-shariat* deb atalgan. Bosh raisga barcha mahalliy raislar bo'ysungan. Bosh rais ularni amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan.



Amir Muzaffar (1860—1885 y.y.) mang'itlar sulolasida taxtga o'tirgan oltinchi amir hisoblanadi. Ushbu davrga kelib mang'itlar hukmronligi asosida davlat boshqaruvi siyosiy tuzumining o'ziga xos bo'lgan tizimi yuzaga kelib bo'lgan edi.

Amir Muzaffar davrida joylarda barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal etilgan. Barcha fuqarolik ishlari va jinoiy ishlar Qur'on asosida ko'rib chiqilgan. Amirlikda qozilar bevosita amir hohish-irodasini bajaruvchi qozi kalon tomonidan tayinlangan.

Buxoro amirligida qo'shin tuzilmasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Shu narsani aytish joizki, Buxoro amirligida amir Nasrullohga (1828—1860 y.y.) qadar doimiy (muntazam) qo'shin bo'lmagan.

Amir Muzaffar davrida ham amirlik bekliklarga bo'lingan bo'lib, beklar amir tomonidan tayinlangan. Bekliklarning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi rahbarligida yasovullar bo'lgan. Beklik hududidagi qo'shnlarga beklar o'zi rahbarlik qilishgan. Beklarning qo'shini bir necha yuz kishidan iborat otliqlardan iborat bo'lib, ular har oyi bek hisobidan 20 tangadan maosh olishgan.

Davlatni boshqarish, uni rivojlantirish xalqning farovonligini ta'minlash, ularning osoyishta hayotini ta'minlab berish ko'p jihatdan shu davlat tizimiga, unga rahbarlik qilgan tarixiy shaxsga, davlat boshqaruvining to'g'ri tashkil etilganligi va ushbu tizimning kimlar tomonidan va qanday usulda boshqaruviga bevosita bog'liqdir.

Buxoro amirligining agrar munosabatlari tarixida eng muhim muammolardan biri — bu yerga egalik masalasi hisoblangan.

XIX asrda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan er egaligining quyidagi uch kategoriyasi mavjud bo'lgan:

1. Davlatga taalluqli bo'lgan erlar (mulki sultoni).
2. Xususiy er egalriga taalluqli bo'lgan erlar (mulk).
3. Musulmon diniy muassasalari ihtiyorida bo'lgan erlar (vaqf).

Buxoro amirligida davlat yerlari amlok erlar, sulton yerlari, podshoh yerlari kabi nomlar bilan xam atalgan.

Shu narsani ta'kidlash lozimki, O'zbekistan Respublikasi MDAning Qushbegi jamg'armasida *mamlok* (amlok) yoki *mamluki* (amlok) *sultoni* kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda, *mulki xiroji*, ya'ni xiroj yerlari atamasi ham keng uchraydi.



Buxoro amirligi hududida eng ko'p tarqalgan er egaligi— bu *podshoh mulki* (mamlokiyi podshohi) yoki *sulton mulki* (mamlokiyi sultoni) atamasi bilan atalgan er kategoriyasi hisoblangan.

Buxoro amirligida davlat boshlig'i hisoblangan amir eng katta er egasi hisoblangan. Davlat erlarini rasmiy ravishda sotish, sovg'a qilish va vaqfga berish mumkin bo'lmagan. Ammo rasmiy hujjatlar bilan tanishish va ularni o'rganish shuni ko'rsatadiki, faktik jihatdan er ham sotilgan, ham sotib olingan. Ushbu holatning eng qiziqarli tomoni shundaki, musulmon qonunshunoslari ushbu holatlarda er emas, balki ushbu er egasi tomonidan o'sha erda ekilgan yoki qurilgan inshootlar sotilgan deb izoxlashgan.

Amlok yerlar miqdori doimiy ravishda o'lik yerlar yoki bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirib sug'orish orqali ko'paytirilib turilishi mumkin bo'lgan.

Ushbu yerlarni o'zlashtirib sug'organ dehqonlar bir necha yil davomida davlat tomonidan soliqlarni to'lashdan ozod qilingan, keyin barcha qatori belgilangan tartibda soliq to'lashgan.

Shuningdek, amlok yerlar amir oldida gunohkor bo'lib qolgan yirik yer egalaridan urug'-musodara qilingan yerlar hisobiga ham kengayib borgan. Amlok yerlarning ko'payishiga yana bir holat, ya'ni merosxo'r bo'lmagan va vafot etgan shaxslarning mulklari to'g'ridan-to'g'ri davlatga o'tishi ham sabab bo'lgan.

Davlat yerlarining kupayishining yana bir muhim manbalaridan biri, bu yirik zamindorlar tomonidan o'ziga taalluqli hisoblangan erning uchdan ikki ($2/3$) qismini davlatga o'tkazib, uchdan bir qismini ($3/1$) o'zida qoldirib va buning evaziga o'zida qolgan qismdan davlat tomonidan olinadigan barcha soliq turlaridan to'la ozod qilinishiga erishish bo'lgan.

Buxoro amirligida mavjud bo'lgan yer egaligining ikkinchi turi mulk yerlari, bu eng avvalo qo'zg'almas mulk hisoblanib, u erkin meros qilib qoldirilishi mumkin bo'lgan.

Buxoro amirligida er solig'idan ozod hisoblangan mulki hurr yoki hurri xolisdan tashkari soliq to'lashga taalluqli bo'lgan mulklar, ya'ni *mulki xiroj* va *mulki ushr* (daxyak) ham mavjud bo'lgan.

Mulki hurr yohud mulki holis ayrim olingan yirik yer egalariga taalluqli bo'lgan yer egaligi hisoblangan. U yer solig'idan ozod hisoblangan. Mulki hurr egasi doimo amaldagi amir tomonidan berilgan yorliqda ega bo'lishi shart bo'lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan.

Mulki xiroj esa dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan ishlatilgan atama hisoblangan. Ushbu er egaligiga ega bo'lgan er egalari bemalol, erkin holatda o'z

erlarini sotish, uni meros qoldirish va sovg'a qilish huquqiga ega bo'lishgan. Ushbu er egalari yer solig'i esa yerdan olingan hosilning uchdan bir ($\frac{1}{3}$) qismiga qadar olinishi belgilangan. Ammo amirlikning turli hududlarida olinadigan er solig'i miqdori bir xil bo'lmagan (har bir hududda o'rnatilgan va belgilangan urf-odat va tartibga ko'ra er solig'i miqdori hosilning uchdan biri to beshdan biri qismiga qadar bo'lgan va u tarixda *taamuli kadim* deb yuritilgan).

Mulki ushr yerlari va dahyak erlardan hosilning undan biri (10/1) hisobida ulamo va ruhoniylar foydasiga soliq olingan. Dahyakdan olingan soliq, asosan, madrasa talabalari uchun nafaqaga, amir saroyida qur'on o'quvchini ta'minlash va boshqa hayriya tadbirlariga sarflangan.

Vaqf erlari, asosan, ayrim diniy muassasalar- machitlar, mozorlar, xonaqoh, madrasalarga yer uchastkalarini meros qoldirish va hayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib, u yer egaligining alohida bir kategoriyasini tashkil etgan.

Ushbu yerlardan kelgan foyda mutavalli ihtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli, asosan, vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan. U vaqf hujjatlariga asoslangan holda foydani taqsimlab chiqishi lozim bo'lgan.

Rasmiy ravishda vaqf erlarini sotish taqiqlangan, ammo manbalar va hujjatlarning guvohlik berishicha amirlik tarixida vaqf erlar ham sotilgan, ham sotib olingan. Vaqf erlardan davlat foydasiga soliqlar undirilgan¹.

Buxoro memorchiligiga nazar soladigan bolsak, Buxoro me'morchiligi va qurilish ishi qadimiy tarixga ega. Biz o'rganayotgan davr haqida ko'plab olimlar ham o'z izlanishlarini olib borganlar. Bular, E.Eversman, N.Xanikov, P.P.Shubinskiy, I.I.Umnyakov, V.V.Bartold, O.A.Suxareva, E.K.Meyendorf, M.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, P.Savelev, mahalliy tarixchilardan, Muhammad Ali Baljuvoni, A.M.Muxamadjonov va boshqalar.

Buxoro XIX asrdagi va XX asr boshlaridagi me'moriy an'analarga murojaat etar ekanmiz bu hududda alohida me'moriy an'ana mavjud bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Buxoro me'morchilik maktabi an'ana bo'lib qolgan uy-joy me'morchiligining yorqin namunalarini o'zida mujassam etgan.

Mahobatli inshootlardan xon saroyi – «ark», Miri arab minorasi, masjidi, madrasasi, karvonsaroyi o'sha davr ko'rki xisoblangan.

Muhammad Ali Boljuvoni "Tarixi Nofei (Foydali tarix)" asarida "Bu shaharda 196 ta mahalla, 299 ta besh vaqt nomoz o'qiladigan masjid mavjud", deb Buxoro shahri atrofini devor va qal'alar o'rab turishi va unda 11 ta darvoza o'rnatilganligi haqida ma'lumot beradi.

Buxoroda 300 ga yaqin masjidlar mavjud edi. Ko'pgina masjidlar uncha katta bo'lmay ularga 100 nari borsa 150 kishi sig'gan. "Bu bildai foxirada avliyo va taqvodorlar ko'pdir. Kariyb 400 ta madrasasi, bir qancha qabristonlari va qorixonalari mavjud"

Dastlab XVIII asr boshida Buxoro Registonining g'arb tomonida Ark (xon o'rdasi va qarorgohi) qarshisida Boloi - Hovuz masjidi (1712 y) qurilgan.

Aytib o'tilgan Boloi - Hovuz masjididan tashqari XVIII asrda Buxoroda yana Domla Tursunjon madrasasi (1796-1797), Xalifa Xudoydod inshooti majmuasi

¹ Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. Тошкент, Ўқитувчи. 2005 й, Б. 49-69.

(1777 yil) bir vaqtda qurilishi boshlangan ikkita Rahmonqul va Elnazar elchi madrasalari ham shu (1794-1795) davrga mansub.

XVIII asrda Buxorodan 30 km masofada so‘fiy ayollari xonaqosi Qiz-bibi me‘moriy majmuasi qurilgan.

Buxorodagi qadimiy tarixga ega bo‘lgan yana bir ko‘rkam inshoot bu Sitorai Mohihossadir. Sitorai Mohihossa saroyi shaharning shimoliy qismida qurilgan bo‘lib, uning eski qismi Amir Nasrullo va Amir Muzaffar davrida bunyod etilgan. Sitorai Mohihossa saroyining yangi binolari Amir Abdulahatxon davrida qurilgan. Saroyning qadimgi binosini usta Xo‘ja Hofiz, usta Nasrullaboy, usta Ostanaqul va boshqa xalq ustalari qurgan. Bu binoning bezashda xalq ustalari o‘yma ganchkorlikda va devorlarga sur‘at solishda ajoyib mahorat namunalarini

ko‘rsatganlar. Ganchga zargarlikka xos nozik san‘atkorlik bilan ishlangan naqshlar va shu naqshlarning ko‘rinishiga mos qilib juda ustalik bilan oralariga o‘rnatilgan katta-katta oynalar binoga qandaydir salobat bag‘ishlaydi.

Sitorai Mohihossani yangi binolarini qurilishini Mirzo Ustamehdin, injenerlik ishlarini Margulis olib borgan. Sitorai Mohihossani arxitektura ko‘rinishi badiiy



bezaklarini amalga oshirishda xalq ustalarining mehnatiga tan bermay iloji yo‘q. Saroy binosining qurilishiga dastlab usta Abdurahim Hayotov, keyinchalik usta Shirin Murodov jalb qilingan. “Oq saroy” usta Shirin Murodov ijodining namunasidir. U bilan birga ganchkorlardan usta Xo‘jaqul, usta Xo‘jaqurbon faoliyat olib borgan. Yog‘och o‘ymakorligi ishini saroyda Qora Chubin, Abdug‘afur amalga oshirgan. “Oq saroy” va ayvon 1912-1914 yillar oralig‘ida qurib bitirilgan.

Sitorai Mohihossaning yangi qurilgan binosiga rus podshosi amaldorlarini qabul qilishgan bo‘lsa eski binosida mahalliy boylar va tadbirkorlarni qabul qilingan. 1807 yilda Buxoroda shaharning Mozoriston darvozasi qismida, badavlat turkman Xalif Niyozqul mablag‘iga noodatiy bo‘lgan Xalif Niyozqul madrasasi qurilgan. Mazkur madrasa «Chor Minor» (To‘rt minora) nomi bilan ham mashhur. Madrasa o‘z ichiga ikki tomonlama bir qavatli xujralardan iborat hovli, ustunli ayvoni bo‘lgan, yozgi masjid toshlar bilan sayqallangan hovuzni o‘z ichiga qamrab olgan. Madrasa o‘ziga xos betakror kirish qismi- to‘rt ravoqli gumbaz burchaklaridan moviy gumbazchalari bo‘lgan to‘rt minora qad ko‘targan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos naqshlar bilan ziynatlangan bo‘lib bu alohida qiyofa aks etadi.

Uch minora yordamchi xonalar vazifasini o'tagan. To'rtinchi minorada ikkinchi qavatga, ya'ni kutubxonaga olib chiquvchi zina qurilgan. E'tiborlisi shuki, Chor-Minor madrasasining har bir to'rt minorasi turlicha shakl o'zgacha bezagi bilan ajralib turadi. Mahalliy aholining inoyat qilishlaricha, agar diqqat-e'tibor bilan kuzatilsa, har bir minoraning ziynatida hoch, yarim oy, buddaviy g'ildirak ramzlarini uchratish mumkin. Ustalar har bir minorada to'rt asosiy dinni bittadan tasvirlashga intilganlar deb hisoblashadi.

Hovlida bir talay daraxtlar orasida asosiy kirish **qismining o'qidan chetroqda katta suv havzasi toshlar bilan terilgan zinasimon hovuz joylashgan».**

Buxoro me'morchilik maktabi arxitektura o'ymakorlik, ganchga va yog'ochga naqsh ishlashning o'ziga xos yaxlit bir uslubini ilgari surdi.

Xalq ustalari bir sur'atda bo'rttirma naqshlarni bir-biridan ajratish usulini o'zgartirish yo'li bilanoq, bu sur'atga tamomila boshqa tus berdilar. Ularning ijodida asrlardan buyon ishlanib, mukammallashib kelayotgan o'ymakorlik turlaridan – pardoz hammadan ham izchillik bilan aks ettirilgan. O'ymakorlik turlarini xillarga bo'lishda fonning xarakteri, relefning ko'ndalang kesimi, zinadorligi va ko'p xilligi asos qilib olinadi.

Shaharning o'rtasida Afrosiyob qurdirgan bir qal'a bor. Hozir uni Arki Oliy deydilar. Buxoroning eng taniqli arxitektura bo'lgan qarorgoh (Ark) - ulkan fortifikatsion er inshooti hisoblanadi. U 16-20 metr baland qilib uyulgan tepa ustida joylashgan. Qarorgohda: hokimlar saroyi, saroy mahkama arboblari va lashkarboshilar saroyi hunarmandlar ustaxonalari, xazina, qurol-aslaha xona, qarindosh-urug'lar va saroy ayonlari xonalari, kiyim-kechak, gilamlar, qurol-yarog', saroy boyliklari xonalari joylashgan.



Registon maydoni uzra qad ko'targan Buxoro Arki, hukmronlikning dahlsizligi va ulug'vorligining ramzi hisoblanadi. Buxoro Arki tarhda to'g'ri konfiguratsiyaga ega bo'lgan, maxsus balandlikka joylashgan, alohida mustahkamlangan inshootdir, maydoni taxminan 4,2 gektarni tashkil etadi. U: biri Shahristonga, boshqasi robodga olib chiquvchi ikki darvozaga ega bo'lgan. Arablar istilosiga qadar Arkda shahar hokimlari-buxorxudotlar yashadi. Somoniylar davrida (IX-X asrlar) Ark qaytadan qurildi, hamda devor va mezanalar bilan mustahkamlandi. (Shimoliy-g'arbiy tomondagi mezananing o'rni hozirgacha saqlangan). Qoraxoniylar sulolasi davrida (XII asr) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) Ark bir necha marta vayron qilindi. Ark XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida hozirgi qiyofasiga kirdi.

Arkning aksariyat ko'p binolari mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida qurilgan. Qarorgohning tantanavor kirish qismi ikki minora bilan qurshab olingan. Minoraning yuqori qismida yaxshi saqlanib qolgan xonalar va shahar qorovuli uchun terassalar galareyalar bilan bog'langan. Asosiy darvozaga pandus (qiya yo'lak) orqali ko'tarilgan, qaysiki usti yopiq uzun dahliz orqali jome' masjidiga olib borgan.

Dahliz yoni bo‘ylab , suv (obxona), qo‘m (regxona) va mahbuslar uchun kameralar (qamoqxona-zindon) joylashtirilgan.

G‘arb tomonda: podsho taxti «ko‘rinish-xona» (XVII asrda qurilgan), juma masjidi (XVIII asr), amirning bosh vaziri, «qushbegiy-bolo» (XIX-XX asr), qutlov hovlisi «salomxona» (XIX-XX asr) va otxona, «sais –hoj» (XIX-XX asr) joylashgan.

Janubiy qismda: Xonaqo masjidi (XIX asr) va amir hammomining qoldiqlari (XIX asr) saqlanib qolgan.

Shimoliy qismda–Battol – G‘ozi xonaqasi (XVIII asr) va «Childuxtaron» (40 qiz) masjidi; mazkur masjid amir Nasrullo farmoniga binoan qatl etilgan qirq qiz xotirasiga (XVIII asrda) qurilgan.

Bugungi kunga kelib, o‘tmish me‘morlari yaratgan va barchani hayratga solib kelayotgan yodgorliklar bilan tanishish, ularga aloqador tarixiy manbalarni qunt bilan o‘rganish kun tartibidagi muhim masalalardan biridir. Zero, madaniy merosni chuqur egallash, undagi ijobiy jihatlarni uzviy rivojlantirish kelajak avlod ma‘naviy takomili uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir¹.

VIII.2. Xiva xonligining vujudga kelishi. Xonlikdagi ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

Horazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi. Hiva honligiga Elbarshon (1512-1525 yy.) asos soldi. U Xorazm yerlarini Turkmanistonning janubi, Eronning Shimoliy Sarahs tumani, Orol bo‘ylari va Mangishloqgacha kengaytirdi. Elbarshon davrida ham o‘zaro feodal urushlar davom etdi, bu urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Hiva honligi markazlashgan davlat darajasiga etmagan edi. Hiva honligidagi muvozanatdan Buhoro honi Abdullahon 2 unimli foydalanishga harakat qildi. 1593 yil Hivani bosib oldi. Lekin Buhoro honligining o‘zidagi feodal urushlar Hivani boshgarishga imkon bermadi. Abdullahon vafot etgach, 1598 yil Hiva honligi yana o‘z mustagillikgiga erishdi. 1602 yil Hiva tahtiga Arab Muhammad (1602-1623 yy.) o‘tirdi. Arab Myhammad hukmronlik yillarida tinimsiz qozoq uruglari va ko‘chmanchi qalmiglar tomonidan Hiva honligi hududlariga hujumlar bo‘lib turdi. Ammo bu hujumlarga garshi harakatlar uyushtirilib ularni o‘zini bo‘ysundirishga harakat qilindi. Arab Muhammadning o‘g‘li Elbars otasini tahtdan ag‘darid tahtini egalladi. Elbarshonning akasi Asfandiyorhon turkmanlar yordamida ukasidan tahtni tortib oldi va o‘z hukmronlik davri (1623-1643 yy.) da asosan turkman zodagonlariga tayanib ish yuritdi. Asfandiyorhon, Abulg‘ozihon (1643-1663 yy.) Anushahon (1663- davrida ichki tarqoqlik va ziddiyatlar oqibatida halqning noroziligi kuchaydi. Bundan foydalangan zodagonlar Abulg‘ozi Bohodirhonni unga qarshi qo‘ydilar.

Abulg‘ozi Bohodirhonni 1630 yilda Asfandiyorhon Eron bilan munosabatlarini buzmaslik maqsadida Eron shohi Tahmasp 1 huzuriga garov tariqasida yuborgan edi. Abulg‘ozi Bohodirhon 10 yil Eronda tutqinlikda yashadi. 1639- yil tutqinlikdan qochib, Mang‘ishloqqa kelgan. 1643- yil Orolboyi o‘zbeklari uni hon qilib ko‘tarishgan. U ikki yildan so‘ng Hiva tahtini egallagan.

¹ Холикова Р.Э. XIX аср Бухоро амирлигида меъморчилик ва қурилиш иши. Архитектура қурилиш дизайн. Т., 2019. №2. 72-77-бетлар.

Abulg'ozir Bohodirxon davri (1645-1663yy.) da mamlakat tarqoqligiga barham berish, hokimiyatni mustahkamlash harakati bilan o'tdi. Abulg'ozirxon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e'tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko'rsatishicha Abulg'ozirxon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. Ya'ni saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular tubandagicha taqsim etildi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noyib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig'atoy inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qo'shbegi lavozimlaridir. Shu bilan Abulg'ozir o'zbeklarni va aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma'lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlab olishi Abulg'ozirga ichki va tashqi siyosatni keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi. Abulg'ozirxonning ichki siyosat borasida o'tkazgan eng muhim tadbirlaridan yana biri o'zbek qabilalarini butun voha bo'ylab o'troqlashtirish siyosati bo'ldi. XVII-XVIII asrlarda bunday o'troqlashish jarayoni Orol bo'yidagi o'zbeklar va Qoraqalpoq qabilalari orasida ham kuchaydi. O'zbek va qoraqalpoqlarning ommaviy o'troqlashuvi va ularning dehqonchilik hayotiga o'ta borishi bilan Xorazmda sug'oriladigan ekin maydonlarni o'zlashtirish, yangi ariqlar chiqarish, yangi shahar va qishloqlar bunyod etish zaruriyatini tug'dirdi. Shuningdek, XVI asr 70- yillarida Amudaryo oqimining o'zgarishi bilan Xorazmning shimoliy qismidagi shahar va qishloqlarda yuz bergan suv tanqisligi ham Abulg'ozirxonni bu borada keskin choralar ko'rishga undayotgan edi. Darhaqiqat Abulg'ozirxon va o'g'li Anushaxon zamonida yangi erlarni o'zlashtirish va yangi ariqlar chiqarish sohasida shunday ulkan ishlar qilindiki, bu burilishlar Xorazmning bundan keyingi taraqqiysi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Abulg'ozirxonning ana shu xayrli ishlarini o'g'li Anushaxon davom ettirdi.

Anushaxon davri (1663-1687 yy.)da o'lkada iqtisodiy va siyosiy hayot jonlandi. Arig va kanallar gazildi. Buhoroga hujumlar uyshtirib turildi. Samarqand shahri egallandi. Buhoro qo'shinlari Gijduvon yaqinida Hiva qo'shinlarini engdilar. Subhonqulihon bosqinchilik urushlariga barham berish maqsadida, Hivadagi muholif kuchlar bilan kelishib Anushaxonni tutib olib ko'ziga mil tortib ko'r qildilar va eshik ogasi Shohniyozni uni o'rniga tahtga (1688-1702 yy.) o'tqazishdi.

Anushaxon vafotidan keyin taht uchun kurashlar davom etdi. 1714 yil Xiva tahtini Sherg'ozirxon egallaydi. 1717 yil rus podshosi Pyotr 1 Xivaga Bekovich Cherkaskiy boshchiligida 1750 kishidan iborat harbiy ekspeditsiya yuboradi. Sherg'ozirxon bu ekspeditsiyani hiyla ishlatib yo'q qiladi. Sherg'ozirxon ham tahtda uzoq qolmadi fitna qurboni bo'ldi. Uni madrasa qurilishida ishlayotgan mashhadlik qullar o'ldirishdi. Xiva tahtini qozoq sultoni Elbarshon (1728-1740yy.) egalladi. Mamlakatdagi ingirozdan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740 Hiva honligini boysundirdi. 1747 yilda Nodirshohning vafoti bilan Hiva honligi yana o'z mustaqilligini tikladi, endi Hiva tahtiga davogar bo'lib o'zbek urug'laridan bo'lgan qo'ngirotlar sulolasi maydonga chiqdi. Taxtga bir necha honlar kelishgan bo'lsada davlatni asosan Muhammad Amin inoq (1763-1790 yy.) boshqargan.

Xorazm mahalliy mulkdorlari orasidan chiqqan Muhammad Amin inoq davlatni qo'lga olgunga qadar va qo'lga olish uchun kirishgan vaqtida bu erdagi

o‘zaro kurashlardan foydalangan turkman mulkdorlari Xiva xonligiga ega bo‘lish uchun qattiq harakat qildilar. Natijada, ular vaqtincha bo‘lsa ham ikki marotaba hokimiyatni qo‘lga kiritdilar. Keyinchalik ham Xiva xonligiga bo‘ysunmay, o‘z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun astoydil kurashdilar. Ular bilan mahalliy o‘zbek mulkdorlari orasida davlatni qo‘lga olish uchun bo‘lgan kurashlar natijasida mamlakat vayron bo‘ldi, xalq esa chidab bo‘lmas darajada og‘ir ahvolda, ochlik va yalang‘ochlikda yashar edi. Munisning: “Muhammad Amin inoqg‘a qo‘shilguncha bir yilda 53 martaba yovmud sipohi bila urishdilar”¹, -deb keltirgan ma‘lumoti u davrda to‘xtovsiz o‘zaro urushlar bo‘lib turganligidan dalolat beradi.

Xorazmda yashovchi xalqlar qahatchilik va ochlik balosidan qutulish maqsadida xotin, bola-chaqalari bilan Buxoro tomonga qochishga majbur bo‘ldilar.

Vaqtincha Xorazmdan voz kechishga majbur bo‘lgan Muhammad Amin inoq yana Xorazmga qaytib keldi.

Muhammad Amin inoq davrida Orol hokimi To‘ra Murodga qarshi boshlangan kurash Muhammad Rahim (1806-1825) davrigacha davom etdi. Davlatni qo‘lga olishda va hukmronligini tiklashda Muhammad Amin inoq amirlar, katta er egalari, savdogarlar, ulamolarga suyanganligini Munisning “Muhammad Amin inoq... vaqtini g‘animat bilib, aksari umaro (amirlar) bila yovmut muxolifatida muttafiq bo‘lib, qal‘adorliq umuriga ishtig‘ol ko‘rg‘izdi”², degan so‘zlari ham isbotlaydi.

Hokimiyatni qo‘lga olgandan keyin Muhammad Amin inoq Xiva xonligida o‘z hukmronligini tiklash uchun harakat qilayotgan Orol mang‘itlariga qarshi kurashdi va 1787- yili ularni tor-mor qildi.

XVIII asrning oxirlarida Muhammad Amin inoq va uning o‘g‘li Avaz inoqlar davrida mamlakatni idora etishda qo‘shbegi - ma‘muriy ishlar, mehtar - moliya ishlari, otaliq - askar boshliqlaridan iborat urug‘ boshliqlariga suyangan kengash mavjud edi.

Muhammad Amin inoqning nevarasi Eltuzarhon Inoq (1804-1806 yy.) yillarda hon unvoni bilah Xiva tahtini boshqardi va shu davrdan etiboran Hivada qongirotlar sulolasi hukmronligi boshlandi. 1806 yil Eltuzarhon vafotidan keyin davlat tepasiga qongirotlar sulolasining navbatdagi vakili Muhammad-Rahim keldi. Muhammad Rahim I hukmronlik qilgan davrni asosan 3 bosqichga bo‘lish mumkin. Dastlab Muhammad Rahim I Xiva xonligidagi mayda va katta mulkdorlarni bo‘ysundirishga kirishdi. 1811 yilda To‘ra Murod so‘fini o‘ldirib, Orolni o‘ziga qaratdi. Shundan keyin Muhammad Rahim I vaqtincha bo‘lsa ham Buxoro xoni Amir Haydar bilan Eltuzar davrida uzilgan aloqani tiklashga intildi. Chunki, Xiva xoni xonlikning eng ashaddiy dushmani bilan aloqani tiklab olgach, mamlakatni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘lar edi.

U o‘z hukmronligining ikkinchi bosqichida (1227-1235/1812-1820) o‘z kuchi va e‘tiborini qozoq, turkman va Xuroson erlarini bosib olishga qaratdi. Bosib olingan erlar hisobiga ham o‘z hududlarini kengaytirib, xonlikni iqtisodiy jihatdan bir oz jonlantirdi.

¹ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент, Янги аср авлоди 2010.47⁶ вар.

² Уша жой. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент, Янги аср авлоди 2010.47⁶ вар.

Muhammad Rahim I o'z hukmronligining uchinchi davrida (1236-1240/1821-1825) butun kuchini asosan Buxoro xonligini bosib olishga qaratdi.

Muhammad Rahim I o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida vaqtincha bo'lsa ham eski xon avlodidan bo'lgan (soxta xon bo'lgan) Abulg'oz V ni yana davlat tepasiga olib keldi. Keyin esa Xiva xonligini birlashtirish borasidagi kurashni yakunlaydi. Bu kurash shafqatsizlik bilan kechdi, oqibatda ko'plab qabilalarning boshliqlari o'ldirildi yoki Buxoroga qochishdi.

Uning davrida Hiva markazlashgan davlatga aylandi. Muhammad Rahimxon mamlakatni markazlashtirish, uni qudratli davlatga aylantirishda qattiqqo'llik bilan ish tutdi. Siyosiy tarqoqlikka harakat qilayotgan mahalliy hukmdorlarga qarshi beshafqat kurashdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshuviga ko'p jihatdan bog'liq edi. Ana shuni yaxshi his qilgan Muhammad Rahimxon bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi.

Muhammad Rahimxon I xonlikning ma'muriy boshqarilish tartibini tubdan o'zgartirdi. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklarda hukmdorlar o'z qo'llariga juda ko'p mol-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. Shuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va mamlakatni ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik 26 ta hokimlik tashkil etildi¹. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan

Muhammad-Rahim davrida Hiva markazlashgan davlatga aylandi. Aynigsa uning ogli Olloqulihon (1825-1842 yy.)ning amalga oshirgan harbiy yurishlari natijasida honlik hududi Sirdaryo etaklaridan Orol dengiziyu Turkmanistonning Kushkagacha bolgan hududlarigacha kengaydi. Natijada Eron bilan munosabatlar yomonlashdi. Undan keyingi xonlar, ayniqsa, Muhammad Aminhon (1845-1855 yy.) va Sayyid Muhammadhon (1855-1864 yy.)lar turkmanlarga qarshi va Hurosonni egallash maqsadida bir necha marta yurishlar qildilar. Xiva tahtida eng kop otirgan hukmdorlardan biri Muhammad Rahimhon 2(1864-1910 yy.)dir. Uning davrida Hiva honligi Rossiy imperiyasiga qaram bolib qoldi.

Butun O'rta Osiyo hududida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham er egaligining quyidagi shakllari hukmronlik qilgan: davlatga qarashli erlar yoki podsholik erlari; xususiy shaxslarga qarashli erlar; diniy muassasalarga qarashli erlar, yoki vaqf erlari.

Podsholik erlari bevosita davlatga, xonga tegishli bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Davlat erlariga doimiy sug'oriladigan ekinbop erlardan tashqari tashlandiq yerlar, qumlik, adirlar va yaylovlar, ko'l va to'qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari bosib olingan hududlar, xonga qarshi mulkdorlarning musodara

¹ Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар //Қўлёзма, ЎзФАШИ. – №9320. Яна қаранг. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Т., 2002. –Б. 92; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Б.63 – 64.

qilingan yerlari, yangi erlarning o'zlashtirilishi hisobiga ham kengayib borgan. Davlat erlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bewatan (ersizlar)larga foydalanish uchun bo'lib berilgan.

Bunday yerlardan davlatga olingan hosilning 40-50 foizigacha mahsulot yoki pul ko'rinishida soliq undirilgan. Davlat erlari xonlik xazinasining asosiy manbai hisoblangan. Xon o'ziga xolis xizmat qilgan amaldorlarga, yaqin qarindoshlariga, sodiq xizmat qilgan navkarlarga va dindorlarga davlat erlaridan in'om qilib bergan. Bunday erlar soliqlardan ozod etilgan.

Xiva xonligida qo'shni davlatlarda bo'lgani kabi xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi soliqlar mavjud bo'lgan. Muhammad Rahimxon I amalga oshirgan iqtisodiy islohot tufayli xonlikdagi soliq siyosatiga o'zgartirishlar kiritiladi. Xususan, ilgari mahsulot ko'rinishida yig'ib olinadigan xiroj o'rniga pul solig'i solg'it (solg'ut) joriy etildi. Bunga ko'ra, 10 tanobdan ortiq eri bo'lganlar yiliga 3 tillo (54 tanga), 5-10 tanob eri bo'lganlar 2 tillo (36 tanga), 5 tanobgacha eri bo'lgan dehqonlar 1 tillo (18 tanga) miqdorda soliq to'laganlar. 15 tanobgacha erni ijaraga olgan ijarakorlar yiliga davlat xazinasiga 34 tanga, 10 tanobgacha erni ijaraga olganlar 22.6 tanga, 5 tanobgacha erni ijaraga olganlar 11.3 tanga miqdorda soliq to'laganlar. Ijarakor dehqonlar davlat xazinasiga soliq to'lashdan tashqari, ijaraga yer bergan xo'jayinga pul yoki mahsulot bilan haq to'lashi yoxud ishlab berishi lozim bo'lgan.

Xonlikdagi yarim o'troq va chorvador aholi ham davlat xazinasiga belgilangan miqdorda xiroj va zakot to'laganlar. XIX asr boshlaridan boshlab ulardagi xiroj solig'i soliq kesma deb atala boshlagan. Bunga ko'ra, qoraqalpoqlar va qo'ng'irotlar ekin maydoni va hosil miqdoridan qat'iy nazar davlat xazinasiga har yili 24.5 ming kichik tillo miqdorida soliq to'lab turganlar. Qoraqalpoqlar va qozoqlardagi ersiz va ot-ulovsiz dehqonlar, xon, uning qarindoshlari va saroy amaldorlarining shaxsiy erlarida ijarakor bo'lsalar hosilning har 4 yoki 5 botmoni hisobidan ikki botmon miqdorida davlat xazinasiga soliq to'laganlar.

Chorvador aholi xon xazinasiga zakot solig'i to'lagan. XIX asr boshlariga qadar bu soliq natura ko'rinishida, 40 bosh chorva hisobidan bir bosh undirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda zakotni undirishga o'tilgan. Endilikda chorvadorlar yirik chorva uchun 40 bosh chorvadan 5 tillo, mayda chorvaning har 40 boshiga 10 abbos (10 abbos – 25 kumush tanga) miqdorida soliq to'laganlar.

Xorazm hunarmandchiligi ixtisoslashgan bo'lishiga qaramay, yarim ko'chmanchi xo'jaliklarda uy hunarmandchiligi ustunlik qilgan. Hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biri to'qimachilik edi. Ko'chmanchi aholining turli matolarga bo'lgan talabi va qisman tashqi bozor uchun mahsulot etkazib beruvchi to'qimachilik sanoati rivojini taqozo etgan. Xonlikda ipak, yarim ipak va paxta matolar ishlab chiqarilgan. Matolar asosan qo'lda tayyorlangan.

Undan tashqari xonlikda kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik duradgorlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari ham rivojlangan. Manbalar shahar va qishloqlarda er haydaydigan moslama tayyorlovchilar (pazachi), ot abzali tayyorlovchilar (kuchanchi), misgarlar, zargarlar, pichoqchilar, qinchilar, bo'yoqchilar, telpakdo'zlar, qulfgarlar, juvozchilar, shamchilar, sovunchilar, novvoylar, oshpazlar kabilar maxsus kasb-hunarga ixtisoslashganliklari haqida ma'lumotlar beradi.

Xivada gilam to‘qish o‘zining qadimiy ahamiyatini xonlik davrida ham saqlab qoldi. Ilgarigidek, gilam to‘qish bilan turkmanlar ham shug‘ullanganlar. Xiva gilamlari ichki va tashqi bozorda mashhur bo‘lgan. Umuman olganda, mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilgan.

Xiva xonligining Yangi Urganch, Kichik Vazir, Qiyot, Xonqa, Tirsak, Gurlan, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Shohabboz kabi shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari edi. Manbalarning ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asrning birinchi yarmida Yangi Urganch himoya devorlari bilan o‘rab olingan savdo markazi bo‘lib, unda bir yarim mingta xonadon bo‘lgan. Urganchilik savdogarlarni nafaqat Buxoro, Qo‘qon va Turkiston bozorlarida, balki Astraxan, Orenburg, Nijniy Novgorod, Moskva, Qashg‘ar, Mashhad, Qobul bozorlarida ham ko‘plab uchratish mumkin bo‘lgan. Urganch bozorlari asosan ichki savdo mahsulotlariga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, tashqi savdo uchun mahsulotlar yirik savdogarlarning uylaridagi ustaxonalarda tayyorlangan. Shaharda 300 ga yaqin savdo do‘konlari bo‘lgan.

Butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi Xiva xonligida xam madaniy hayot rivojlandi. Manbalarga ko‘ra Xiva xonligida 1500 ga yaqin madrasa bo‘lgan. Faqat Xivaning o‘zida 22 ta madrasa bo‘lib, ulr ichida Muhammad Rahimhon, Sherg‘ozihon, Rahmoberdibiy, Olloqulihon, Fozilbek, Davlat Qorako‘z, Bekniyoz devonbegi, Ho‘ja Mahram madrasalari alohida hufuzga ega edi. Bu davrda ijod etgan shoirlardan Muhammad Rizo Ogohiy, Pahlavon Ravnaq, Muhammad Niyoz Nishotiy, Muhammad Hokisor, Tabibiy, Munis, Komil Xorazmiylarni misol qilib aytadigan bo‘lsak, Komdon, Murodiy kabilarning asarlari halq og‘zaki ijodini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda Xiva tarixnavisligi ham rivojlandi. Tarihiy asarlar orasida Abulg‘oziyning “Shajarayi Turk” va “Shajarayi Tarokima” (“Turkmanlar shajarasi”) o‘zbek tilida bitilgan muhim asar bo‘ldi. Shermuhhammad Munis “Firdaus ul-iqbol” asari, Bayoniyning “Shajarayi Horazmshohiy” asarlari ham Xiva xonligining XVIII- XIX asrlar tarihi haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvch manbalar hisoblanadi. Hulusa qilib aytadigan bo‘lsak XVI – XX asrning boshlarida mavjud bo‘lgan Xiva xonligi – O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixida, iqtisodiy va madaniy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining mintaqa hududlaridagi o‘ziga xos tomonlari o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Uning tarixi O‘zbekiston tarixining ajralmas qismidir.

VIII.3. Qo‘qon xonligining tashkil topishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo‘qon xonligiga mahalliy aholi vakillaridan bo‘lgan ming urug‘i asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o‘sishi hamda 1704 yilda Chodak xo‘jalarining isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg‘onaning shimoli va shimoliy – g‘arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo‘jalar qo‘l ostida bo‘lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669-1670 yillarda tug'ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710 yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxondan so'ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo'lganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi erlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan.

Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi erlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni, 1725 yilda Xo'jandni, 1726 yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.



1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy etiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung'orlar) ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy

qalmoqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

Abdulkarimbiy 1750 yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo, u taxtga to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753 yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida ushlab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760 yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon etakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi.

1770 yilda Qo‘qon taxtiga Abdurahmonbiyning o‘g‘li Norbo‘tabiy (1770-1801 yy.) o‘tiradi. Norbutabiy markaziy hikimiyatni mustahkamlashda, bo‘ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g‘alayonlarni bostirganidan so‘ng, bu shaharlarga o‘z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan so‘ng Andijon, O‘sh, Xo‘jand va yaqin atrofdagi qo‘shni hududlarni bosib oladi. U 1799 yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi.

Norbutabiydan so‘ng uning o‘g‘li Olimxon (1801-1810 yy.) taxtga o‘tirib, Qo‘qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e‘tibor berdi. Natijada Qo‘qon xonligining siyosiy mavqei oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo‘qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o‘zgaradi. Agar Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari “biy” va “bek” unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo‘lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman “xon” deb yuritila boshlandi.

Manbalarga ko‘ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik er egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun – qoidalar o‘rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818 yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo‘ladi.

1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammadalixon (Madalixon, 1822-1842 yy.) o‘tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba‘zi tumanlari xonlikka qo‘shib olinadi hamda Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysining sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirganlar. Sahro, tog‘ va tog‘ oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma’lumotlar beradilar. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo‘shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o‘rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma’muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg‘ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo‘lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, er, suv, qo‘riq erlar, ko‘lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to‘ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma’muriyat, qo‘shinlar va qo‘shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag‘batlantirilgan.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Qo'qon xonligi xo'jalik hayotining asosini tashkil qiladigan soha dehqonchilik edi. Chunki xonlikning asosini tashkil etgan Farg'ona vodiysida suv manbalarining etarli darajada bo'lganligi dehqonchilik xo'jaligida mo'l hosil bo'lishni ta'minlagan. Xonlikda XVIII asrga qadar erlarni sug'orish uchun soylar va jilg'alarning suvlaridan ham unumli foydalanilgan.

Xonlikdagi taxt uchun o'zaro kurashlar hamda siyosiy tarqoqlik davom etayotgan bo'lishiga qaramay XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tumanlarning sug'orish tarmoqlari ta'mirlangan va yangilari qazilgan. Chunki, xonlikda ip va gazlama ishlab chiqarish hajmining ortib borishi, bu mahsulotlarni Rossiya va u orqali Sharqiy Evropa mamlakatlari bozorlarida ko'plab sotila boshlashi, ularga bo'lgan talabning tobora kuchayib borishi sug'orma dehqonchilik erlarini kengaytirish hamda yangi erlarni o'zlashtirishni taqozo qilar edi.

Xonlikda dehqonchilik ekinlarining aksariyati O'rta Osiyo xonliklariga xos bo'lib, g'allachilik, bog'dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari etishtirish hamda ipakchilik yaxshi rivojlangan. Donli ekinlardan makkajo'xori etishtirish keng tarqalgan bo'lib, u shahar va qishloqlarda kambag'allarning asosiy iste'mol mahsuloti hisoblangan. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga katta e'tibor berila boshlangan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to'rtta turi mavjud bo'lib ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlar – yer egalarining xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amloq yerlari – xonga qarashli yerlar – o'rmonlar, to'qaylar, yo'lu-ko'priklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg'ol). 4. Vaqf yerlari – diniy muassalar, ya'ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Qo'qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa ko'plab shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik va shug'ullanganlar. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko'rinishga ega bo'lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar mavjud bo'lgan. Hunarmandlar o'z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirgan mohir ustalari bo'lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san'at darajasiga ko'targanlar.

Xonlikning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning taraqqiyoti bir xil bo'lgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish o'zining ayrim xususiyatlari, ya'ni, mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo'lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo'qon shahri zargarlik va qog'oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg'ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o'zining tikuvchilik, to'quvchilik, cho'yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan.

Mamlakat poytaxti Qo'qon shaxrida bir qator memorchilik obidalari qurildi. 1842 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu erda 15 ta madrasa mavjud bo'lib, eng ko'zga koringanlari Xakim to'ra, Mohlar oyim, Muhammadalixon, Norbo'tabek,



Jomiy, Oliy, Sulton Murodbek, Hojadodhoh, Ming oyim madrasalari bo'lgan. Shuningdek, Margilonda Saidahmadho'ja madrasasi, Andijonda Otaqo'zi madrasasi, Mirzaquli Bolish madrasasi kabilar qurilgan. Umuman olganda xonlikda 200 dan ortiq madrasalar barpo etilgan.

Shulardan Daxmai Shohon-Shohlar daxmasi XIX asrning 20 yillarida bunyod etilgan. Qoqon xonlari xonadonlariga tegishli shaxslar Norbo'tabiy va uning

avlodlari dafn etilgan. Daxmaga g'arbdan peshtoq orqali kiriladi. Reshtoqning ikki tomoniga burjlar ishlangan, sirkor gish va koshin bezakli qilib terilgan. Maqbara gumbazli, ichki devorlaridagi darchalarning biridan tomga, ikkinchisidan masjidga o'tilgan. Uchinchisi esa ochiq turgan. Ichki qismdagi katta ravoqlar bilan darcha ravoqlarining oraliqlaridagi g'ishtlar tik, gajaklar esa to'lqinsimon qilib terilgan. Daxmai shoxonda xonning onasiga atab qilingan Modarixon maqbarasi yaxshi saqlangan.



XIX asrning muazzam va muxtasham obidalaridan bolmish Xudoyorxon o'rdasi xonlikda mashxur uch saroy inshotlaridan biridir.

Qoqon xonligi madaniy xayotiga

to'xtalib o'tadigan bo'lsak Qo'qon xoni Umarxon davrida Qo'qon shaxri faqat xonlik poytaxti emas, balki XIX asrda mamlakatning madaniy markazi bo'lib, unda o'ziga



Нодирабегим (1792-1842)

xos adabiy muhit shakllandi. U shoir, yozuvshi va sanat ustalariga homiylik qildi, madrasa, masjid, maktablar qurishga ko'plab mablaglar ajratdi xamda o'zi xam shariatda qalam tebratdi. Umarxon davrida arab, fors tillarida yozilgan asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi." O'z davrida uning saroyi adabiyot axli, ilm-marifat kishilari uchun doimo ochiq bo'lib,

Umarxon asri Fargonaning eng obod, ilm va fazl taraqqiy etgan, atrof jonibdagi viloyat va mamkakatlardan Umarxonning avsofi xamidasini eshitgan ulamo va fuzalo va shuarolar jam bolib,

ilm va fazl rivoj topgan edi.”(Mirzo Olim Maxdum xoji.Tarixi Turkiston,.b.38.) Muxammadalixon davriga kelib, adabiy muxit Umarxon davriga qaraganda bir maromga kirgan bo’lsada u buyuk va mashxur ijodkorlardan ancha xoli edi. Saroydagi adabiy muxitga shoira Nodirabegim xomiylik qilgan.



Qo’qon adabiy muxitining vakillaridan Amiriy, Fazliy, Boqixontora, Gulxaniy, Yoriy, Xoqandiy, Zoriy, Maxjub, Maxmur, Muxtazib, Mushrif, Muxammad Yunus Toib, Muxiy, Muxsiniy, Nasimiy, Nizomiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Rojiy, Sadoiy, Anbar otin, Baxri otin, Dilshod, Zebuniso, Zinnat, Karomatoy, Nodirabegim, Saidabonu, Totiqiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Fidoiya, Xafiza otin, Xayriniso kabi bir qator shoir va shoiralarni tilga olish mumkin.¹

Ma’rifatparvarligi bilan tanilgan, o’z ijodida “Komila”, “Maknuna” taxalluslari bilan xam she’rlar yozgan o’zbek shoirasi Nodirabegim (Moxlaroyim) (1792-1842 yy.) Andijon xokimi Raxmonqulibiyning qizi edi. Qoqon xoni Olimxon o’z ukasi Umarxonni Margilonga xokim qilib tayinlagandan so’ng, uni Nodirabegimga (1808 y.) unashtirdi.²

Nodira o’z xayoti davomida ilm va adabiyot axlini ijod qilishga undadi va ularga sharoit yaratib berdi. U yaxshi ishlagan kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni “zarrin qalam”lik mansabiga ko’tardi.³ Nodira adabiy merosining taxlili shuni korsatadiki, u mumtoz she’riyatning barcha jabxalarida qalam tebratgan.

Qo’qon tarihnavislik maktabida yaratilgan manbalar o’sha davr voqeligidan bayon qilgan. Bunga misol qilib Niyoz Muhammad Xo’qandiyning “Tarihi shohruhiy”, Mirzo Olim ibn Mirza Rahim Toshkandiyning “Ansob-ul salotin va tavorih ul-xevaquin”, Muhammad Hakimhonto’raning “Muntahab at-tavorih”, Mulla Avaz Muhammadning “Tarihi jahonnomai”, Tohiri Xoqandiyning “G’aroyibi sipox” kabi asrlarini misol qilib ko’rsatish mumkin.

Hulosa qilib aytadigan bo’lsak, XIX asrda Qo’qon xonligida adabiyot yuksak darajada rivoj topdi. Xonlik madaniy xayotida olimlar, shoirlar bilan bir qatorda shoirlar xam faol ishtirok etdilar va o’zbek adabiyoti rivojiga ulkan xissa qo’shdilar.

Texnologik usullar: «Muammoli vaziyat» to’ldiring

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro	Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi	
---	--	--

¹ Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлиги (ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт). —Т.: Тафаккур, 2016. 119-бет.

² Қодирова М. Давр Нодираси (Нодиранинг ҳаёт ва ижод йўли). —Т.: Фан, 1991. 3-4-бетлар.

³ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. —Тошкент, Фан, 1976. 170-бет.

amirligida davlat boshlig‘I kim tomonidan boshqarilar edi?	davridagi madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?	

Nazorat savollari

1. Shayboniyning qo‘shinlarining Movaraunnahr hududlarini bosib olishdagi yutug‘i nimadan iborat edi?
2. Shayboniylar davlati necha yil hukmronlik qildi?
3. Shayboniylardan so‘ng davlat tepasiga qaysi sulola keldi?
4. Buxoroda xokimiyat mangitlar qo‘liga o‘tishi va xonlikning amirlik deb atalishining boisi nimada?
5. Shayboniylar boshqaruvi tizimi xaqida nima bilasiz.
6. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayot xaqida gapirib bering.
7. Xonliklarda yer egaligining qanday turlari mavjud edi?
8. Qo‘qon xonligida minglar sulolasi nechanchi yillar hukmronlik qilgan?
9. Qo‘qon xonligida kimning davrida adabiy muhit yuzaga keldi?
10. Nechanchi yilda Amir Nasrullo Qo‘qon xonligini o‘ziga bo‘ysundirgan?
11. XVII asr oxirlariga kelib Xiva xonligida qaysi urug‘ning mavqei oshdi?
12. Mang‘itlar sulolasi hukmronligiga kim asos solgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз.-Т., Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.
5. Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000, 245-бет.
6. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланомани..., 1 жилд. 331, 358-бетлар
7. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Т., 1992. 57-88 –бетлар
8. Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар //Қўлёзма, ЎзФАШИ. – №9320. Яна қаранг. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Т., 2002. –Б. 92; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Б.63 – 64.
9. Холиқова Р.Э. XIX аср Бухоро амирлигида меъморчилик ва қурилиш иши. Архитектура қурилиш дизайн. Т., 2019. №2. 72-77-бетлар

10. Худойкулов Т. XIX асрда Куқон хонлиги (ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт). –Т.: Тафаккур, 2016. 119-бет.
11. Қодирова М. Давр Нодираси (Нодиранинг ҳаёт ва ижод йўли). –Т.: Фан, 1991. 3-4-бетлар.
12. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. –Тошкент, Фан, 1976. 170-бет.
13. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент, Янги аср авлоди 2010.47^б вар.
15. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
16. O‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
17. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2015.
18. Холиқова Р.Э. Абдуллахон работ ва сардобалари./ /Санъат, 2003 1-сон,13-16 бетлар.
19. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида. Тошкент, Ўқитувчи. 2005 й, Б. 49-69.

IX BOB. O‘ZBEK XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY OZODLIK HARAKATI. JADIDCHILIK

Asosiy tushuncha va atamalar:

O‘zbek honliklari, mustamlaka, sanoat korhonalari, mintaqa, paxta hom ashyosi, istehkom, istilo, Turkiston general gubernatorligi, Zirabuloq jangi, Gangimiyon shartnomasi, vassal, Farg‘ona viloyati, Kaspiyorti viloyati, harbiy boshqaruv, viloyat, yezd, volost, uchastka, nizom, jadidlar harakati, "Turon", "Sho'royi Islomiya", "Sho'roi ulamo", Milliy ozodlik harakatlari.

IX.1. XIX asrning o‘rtalarida Turkiston xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining sabablari, maqsadlari va oqibatlari

XIX asrning o‘rtalariga kelib Turkistondagi ikki xonlik, ya’ni Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligida jamiyat hayotining barcha sohalari - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotda tanglik yanada chuqurlashib ketdi. Taxt uchun kurash, ayrim hududlar uchun muttasil olib borilgan urushlar, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayotning orqaga ketishi bu davlatlarga xos xususiyatlar bo‘lib qoldi.

XVI-XIX asrlarda muttasil davom etgan feodal urushlar, Buxoro- Xiva, Buxoro-Qo‘qon mojarolari, mustaqillikka intilgan viloyat hokimlari va qabila zodagonlariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar, chet el bosqinchilarining O‘rta Osiyo xonliklari hududlariga tajovuzlari ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy hayotni izdan chiqardi.

Uchala o‘zbek davlatining biror bir hukmdori Turkistonni yagona bitta davlat, uning aholisini yagona bir xalq qilib birlashtirishga intilmadi. Xonliklarga siyosiy

barqarorlikning yoʻqligi xos boʻlib, buning asosiy sabablaridan biri viloyatlar bilan markaziy hokimiyat oʻrtasidagi kelishmovchiliklar, hukmron sulola vakillarining taxt uchun muttasil olib borgan kurashlari edi. Masalan, Qoʻqon xonligida 1709-1860 yillar mobaynida 24 marotaba xon almashdi. Bu xonlardan 7 kishi oʻldirilgan boʻlsa, 7 nafari taxtdan chetlatildi, 6 tasi bir yilgina hukmronlik qildi.

Turkiston xonliklari va amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuviga ularning oʻzaro munosabatlaridagi kelishmovchiliklar va urushlar ham sabab boʻldi. XIX asrning birinchi yarmida Qoʻqon xonligi Buxoro sarhadlariga toʻrt marta hujum qilgan boʻlsa, Xiva xonligi Buxoroga besh marta tajovuz uyushtirdi. Shu davrda Buxoro xonligi qoʻshni davlatlarga ikki marta hujum qildi.

Jumladan, Buxoro amiri Nasrulloh (1827-1860) hukmronlik qilgan yillar Buxoro amirligi sarhadlarini mustahkamlash, chegara shaharlar va yerlarni oʻz tasarrufida saqlab qolish uchun Xiva va Qoʻqon xonliklariga qarshi olib borilgan urushlar hamda Kitob va Yakkabogʻni oʻz ichiga olgan Shahrisabz bekligini boʻysundirishga qaratilgan kurashlar davridir.

Amir Nasrulloh oʻz hukmronligi davrida Oʻratepa va Xoʻjand uchun Qoʻqon xonligi bilan toʻxtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qoʻldan-qoʻlga oʻtib turdi. Pirovard natijada Nasrulloh Oʻratepa va Xoʻjandni oʻziga boʻysundirishga muvaffaq boʻldi. Amir Nasrulloh 1842-yilda Qoʻqonga hujum qildi va maʼlum muddat uni qoʻlga kiritishga muvaffaq boʻldi. Qoʻqon xoni Muhammad Alixonni oila aʼzolari bilan va uning onasi shoira Nodirabegimni qatl ettirdi.

Nasrulloh Qoʻqonga hujum uyushtirgan paytda Xiva xoni Olloqulixon (1828-1842) Buxoroning chegara hududlariga hujum boshladi. Xivaliklarning Marvga hujum qilganliklarini eshitgan amir Nasrulloh Qoʻqonni tashlab, darhol Buxoroga qaytdi va Xiva qoʻshinlariga qarshi katta kuch toʻpladi. Aynan mana shu paytda Xiva xoni Olloqulixonga qozoq urugʻlarining Xiva yerlariga hujum qilganliklari toʻgʻrisidagi xabar yetib keldi va u ham ortga, Xivaga qaytishga majbur boʻldi. Oz vaqt oʻtmay u Xivada vafot etgach, uning vorisi Rahimqulixon (1842-1845) buxoroliklarga qarshi Marvga katta qoʻshin yubordi. Amir Nasrulloh oʻz qoʻshinlari bilan hujumga oʻtib, Hazoraspni qamal qildi, ammo uning ostonalarida Xiva qoʻshinlaridan yengildi.

Amir Nasrulloh doimiy ravishda oʻz mustaqilligi uchun kurashib kelgan Kitob va Yakkabogʻni oʻz ichiga olgan Shahrisabz bekligini oʻziga boʻysundirish uchun Shahrisabzga 32 marta harbiy yurish uyushtirdi va 1856 yildagina Kitob va Shahrisabzni egallashga muvaffaq boʻldi.

Turkiston ulkan imkoniyatlarga ega boʻlsada yagona markazlashgan davlat, siyosiy barqarorlik, milliy birlik va ahillikning yoʻqligi, siyosiy tarqoqlik, taxt talashishlar, feodal urushlar, ichki nizolar, mahalliychilik, boshboshdoqlik, diniy mutaassiblik, etnik guruhbozlik, oʻzaro feodal urushlar xonliklar va amirlikning kuch-qudratini parchalab, zaiflashtirib yubordi. Masalan, Rossiya imperiyasidek tashqi dushman Qoʻqon xonligi hududlariga xavf solib turgan bir paytda xon amaldorlari birlashish oʻrniga ular oʻrtasida oʻzaro kurash, fitna va adovat avj olib bordi.

Qoʻqon xoni Xudoyorxon (1845-1858; 1863(4 oy); 1868-1875)

Yosh bo'lganligi sababli davlat boshqaruvi uning qaynotasi, mamlakatda cheksiz hokimiyatga ega bo'lib olgan Musulmonqul boshliq qipchoqlar qo'liga o'tdi. Musulmonqulning o'z mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishi O'ratepa, Xo'jand, Marg'ilon hokimlarining Toshkent hokimi Nurmuhammad boshchiligida unga qarshi guruh tashkil qilishlariga olib keldi. Natijada 1852-yilning fevral va iyun oylarida Musulmonqul Toshkentga katta qo'shin bilan yurish qildi. Iyun oyidagi jangda Musulmonqulning vasiyligidan norozi bo'lgan Xudoyorxon qo'zg'olonchilar tomoniga o'tdi va 1853-yilning kuzida Musulmonqul qo'lga olinib, qatl qilindi.



Кӱкӧн хони Хвлоӧдхон

Xonlikdagi ichki nizolar avj olgan shu paytda rus qo'shinlari xonlik hududlariga bostirib kirib, Oqmachit, Jo'lak, Kumushqo'rg'onni bosib olayotgan edi. Xonlar va amirlar o'rtasidagi feodal urushlar, uchala davlat amaldorlari o'rtasidagi ichki kurash oxir-oqibatda Rossiya imperiyasi tomonidan o'zbek davlatlarining bosib olinib, mustamlakaga aylantirilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Turkistonga nafaqat siyosiy tarqoqlik, balki iqtisodiy aloqalarning zaifligi ham xos edi. O'zbek xonliklari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yomonligi, savdo va hunarmandchilikdagi inqiroz, ishlab chiqarish va iste'mol hajmining kamayishi aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi.

Shu bilan birga, XVI-XIX asrlarda o'zbek xonliklari ilg'or Yevropa mamlakatlaridan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va ma'naviy-madaniy sohalarida ancha orqada qolib ketdi.

Xonliklarning o'z qobig'iga o'ralib, tashqi dunyodan ajralib qolishlari, dushmanning kuch-qudratini mensimasliklari, mamlakat muhofazasiga e'tiborsizliklari tufayli ular hatto dushmanning xuruji kuchayayotgan vaqtda ham birlasha olmadilar. Rossiya Qo'qon xonligiga tahdid solayotgan davrda xonlik elchilari Rossiyaga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan Xivada uch marta bo'ldilar. Lekin Xiva xoni turli sabab va bahonalarni ro'kach qilib, bunga rozilik bermadi.

XIX asrning o'rtalariga kelib Turkiston hududlarida joylashgan o'zbek davlatlarida murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kela boshladi. Bu vaziyat, birinchidan, xonliklarning ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari bilan belgilansa, ikkinchidan, tashqi dunyo, ya'ni Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining bu xonliklarni o'z ta'sir doirasiga tortish uchun qilgan xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq edi.

XIX asr o'rtalariga kelib jahonning yirik davlatlari o'rtasida yangi mustamlakalar uchun kurash qizib ketdi. O'zbek xonliklari dunyodagi yirik davlatlar, jumladan Angliya va Rossiyani xomashyosi, yer osti boyliklari, arzon ishchi kuchi, qulay geografik o'rni va tashqi bozor ekanligi bilan o'ziga tortar edi. Mazkur omillar tufayli Angliya va Rossiyaning mustamlakachilik manfaatlari Turkistonda to'qnashdi.

Angliyaning Turkiston xususida yuritgan siyosatidan ko'zlagan asosiy manfaati va maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lib, ular:

- Turkistonni bosib olishga intilayotgan Rossiya imperiyasining rejalarini barbad qilish;

- Xonliklar va amirlikni Rossiyaga qarshi birlashtirish;

- O'zbek xonliklarini «betaraf maydon» sifatida saqlab qolish;

- Turkiston bozorlarini egallash edi.

Buyuk Britaniya o'z mustamlakasi bo'lgan Hindiston va shuningdek, Afg'oniston orqali o'zbek davlatlari bilan savdo-sotiq qilar, rus savdogarlarini Turkiston bozorlaridan siqib chiqarishga harakat qilar edi. Shu bilan birga, chor Rossiyasining Turkistonga ko'z olaytirayotganligini sezgan ingliz hukumati Rossiya chegaralari Afg'onistonga yetib bormasligiga intilayotgan edi.

Angliya o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildi. Masalan, Rossiyaning Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish rejalaridan xabar topgan Angliya Buxoro, Xiva va Qo'qonga o'z emissarlarini yuborib, ularni birlashtirishga, hech bo'lmasa, Rossiyadan birgalikda muhofazalanish uchun bitim tuzishga chaqirdi. Sababi, Angliyaga o'z mustamlakalarini Rossiyadan himoya qilishni yengillashtiradigan, bu ikki davlat mustamlakalari o'rtasida mustahkam to'siq bo'ladigan «betaraf maydon» kerak edi.

Afsuski, o'sha paytda Turkistondagi hukmdorlarga Angliyaning takliflaridan milliy manfaatlar yo'lida foydalanishda donolik va zukkolik yetishmadi. Ularga bu masalada o'zaro adovat, manmansirash, dushmanni mensimaslik, xudbinlik va kaltabinlik halal berdi. Oqibatda Rossiyaning xonliklarni birin-ketin bosib olishi uchun qulay imkoniyat yaratildi.

Turkiston hududlari o'zining moddiy boyliklari bilan Rossiyani ko'p vaqtdan buyon o'ziga jalb qilib kelgan bo'lib, o'zbek xonliklarini bosib olish masalasi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab imperiyaning kun tartibiga qo'yila boshladi. Chunki, Rossiya sanoati va u bilan bog'liq sarmoyadorlik bu davrga kelib ildam odimlar bilan rivojlana boshlagan edi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va undan katta foyda olish uchun rus burjuaziyasiga arzon xomashyo va ularni sotish uchun esa bozor kerak edi. Ilg'or mamlakatlar Rossiya tovarlarining Yevropaga kirib kelishidan manfaatdor emas, shu bois bunga qarshilik ko'rsatar edilar. Ayni paytda Rossiya tovarlari sifati past bo'lganligi uchun ular bilan raqobatlasha olmas edi. Shu sababli Rossiya bozorni boshqa mintaqalardan, ya'ni iqtisodiy jihatdan kam taraqqiy etgan mintaqalardan izlashi kerak bo'lib, Turkiston bu ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan qulay hudud edi. Shu bilan birga Angliyaning o'z mustamlakalari orqali asta-sekin O'rta Osiyo bozorlarini ham egallay boshlaganligi Rossiyani tashvishga solayotgan edi.

XIX asr oxiriga kelib Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan sanoati, jumladan yengil sanoat tobora ko'proq paxta xomashyosiga ehtiyoj seza boshladi. Vujudga kelgan vaziyatning keskinlashuviga, jumladan AQShdagi fuqarolar urushi tufayli u yerdan Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun xarid qilinadigan paxta hajmining bir necha barobar kamayishi va 1860-1864 yillarda Buxoro amirligidan sotib olinadigan paxta xomashyosi xarid narxlarining besh barobar oshib ketishi ham sabab bo'ldi. Bu hol Rossiya sarmoyadorlarini tashvishga solib qo'ydi. Ularning nufuzli vakillari ushbu muammoni hal qilish vazifasini hukumat oldiga qat'iyat bilan qo'ya

boshladilar. Mazkur omillar Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi jarayonlarining tezlashuviga sabab bo'ldi.

Rossiyaning Turkistonni bosib olishdan ko'zlagan asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

1. Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan yengil sanoati uchun arzon paxta xomashyosi bazasi va yer osti boyliklari zaxirasiga ega bo'lish.

2. Rossiya imperiyasi sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun har tomonlama qulay bo'lgan Turkiston bozorlarini egallash.

3. Rossiyada o'tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini ko'chirib keltirish va ularni yer bilan ta'minlash.

4. 1853-1856-yillardagi Qrim urushi tufayli Qora dengiz bandargohlarining qo'ldan ketishi oqibatidagi yo'qotishlar o'rnini Turkistonni egallash bilan to'ldirish. O'rta Osiyo orqali janubdagi dengizlarga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritish va bu bosqinchilik yurishlarida Turkistondan istehkom (platsdarm) sifatida foydalanish.

Shuni ta'kidlash joizki, har ikkala davlat, Angliya ham Rossiya ham faqat o'z mustamlakachilik manfaatlari yo'lida barcha usullarni qo'llashga tayyor edilar. Rossiya imperiyasining hukmron doiralari o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirish uchun talonchilik, bosqinchilik urushi yo'lini tanladi.

IX.2. Turkistonda mustamlakachilik boshqaruvi tizimining o'rnatilishi, chorizmning o'lkada yuritgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishga qaratilgan harbiy harakatlari 1853-yilda general Perovskiy boshchiligidagi 2500 kishilik qo'shin va 17 ta to'p bilan Oqmachit (hozirgi Qizilo'rda) qal'asiga hujumdan boshlandi. Qal'ani 400 ga yaqin himoyachi qariyb bir oy mudofaa qildi va 28-iyulda mag'lubiyatga uchradi. Rus hukumati Oqmachit bosqini qatnashchilarining unvonlarini oshirib, orden-medallar va pul mukofotlari bilan taqdirladi. Oqmachit o'rniga qurilgan rus qal'asiga general Perovskiy nomi berilib, «Perovskiy porti» deb ataldi.

1853-1856-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi tufayli vaqtincha to'xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yil yozida yana faollashdi. Shu yilda polkovnik Simmerman qo'mondonligidagi rus qo'shinlari To'qmoq, Pishpak (hozirgi Beshkek) qal'alarini egalladi.



1861-yil 21- iyunda podsho Aleksandr II saroy kengashida Qo'qon xonligi hududlarini egallash zarurligini ta'kidladi. Shunga ko'ra 1861-1863-yillar mobaynida rus qo'shinlari Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka, Oqsuv, Pishtepa, Choldevor qal'alarini bosib oldi. 1863-yilning yozida polkovnik Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlari So'zoq qal'asini egalladi.

Polkovnik Chernyayev boshchiligidagi 2500 kishilik qo'shin 1864-yil 4-iyunda Qo'qon xonligiga qarashli Avliyoota (hozirgi Jambul) qal'asini zabt etdi. Chernyayev Avliyoota qal'asini bosib olganligi uchun general unvoni va orden bilan taqdirlandi.

1864-yil 12-iyunda polkovnik Veryovkin qo'mondonligidagi qo'shin Turkiston shahrini, general Chernyayev qo'shini 22-sentyabrda Chimkent shahrini bosib oldi.

Rossiya imperiyasi Turkiston boshqaruvini tashkil qilishni uni bosib olishga kirishgan damdan boshladi. 1865-yil 2-martda Rossiya hukumati Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan to Issiqko'lgacha o'zbek xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qildi. Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib general Chernyayev tayinlandi.

Turkiston viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi sof harbiy vazifalarni hal qilishga qaratildi va uning asosini harbiy-hududiy birliklar tashkil qildi. Viloyat uch bo'limga: o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lindi. Keyinchalik Sirdaryo rayoni nomini olgan o'ng qanotga Aralsk, 1-fort (keyinchalik Kazalinsk deb nomlandi) va Perovsk; markazga Turkiston va Chimkent rayonlari; chap qanotga Avliyoota, Marke va Pishpak qal'alari kiritildi. Viloyatning ma'muriy markazi qilib Chimkent shahri belgilandi.

Turkiston va Chimkent shaharlari bosib olinishi natijasida rus qo'shinlarining harbiy harakatlari yanada kengaydi va O'rta Osiyoning eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Toshkentni bosib olishga keng yo'l ochildi. General Chernyayev Toshkentni egallash uchun ikki marta harbiy harakatlarni amalga oshirdi. Birinchi bor 1864-yil 2-oktyabrda Toshkent uchun qilgan hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchradi va u Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Chernyayev Toshkentni egallash uchun ikkinchi bor harbiy harakatlarini boshlab, 1865-yilning 28-aprelida Niyozbek qal'asini egalladi va shahar aholisini suvsiz qoldirdi. 1865-yilning 9-mayida M.Chernyayev Toshkentga qayta hujum boshladi. Toshkent ruslar tomonidan 42 kunlik qamaldan keyin egallandi. Shahar oqsoqollari 17-iyunda sulh tuzishga majbur bo'ldilar. 1865-yilning 15-sentyabrda kelib rus qo'shinlari Toshkentdan tashqari Niyozbek, Chinoz va Pskentdagi Kelovchi qo'rg'onini egalladi.

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Toshkent va uning tevaragi Toshkent rayoni deb ataluvchi alohida ma'muriy birlik sifatida Turkiston viloyatiga kiritildi.

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori general Chernyayev 1866-yilning 28-yanvarida Buxoro amirligiga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Rus qo'shinlarining Jizzaxga qilgan qishki harbiy yurishi 1866-yil 14-fevralda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, 1866 yil mart oyi oxirlarida Sirdaryo bo'yidagi Chordara qal'asi egallandi.

1866-yil 27-mart kuni Chernyayev Peterburgga chaqirib olingandan keyin, uning o'rniga general-mayor Romanovski tayinlandi.

1866-yil may oyi boshlariga kelib Yerjar bo'yida buxoroliklarning 40.000 kishilik qo'shini to'plandi. Rus qo'shinlarining soni 4.000 kishini tashkil qilar edi. 8-9 maydagi janglardan keyin Irjar ham qo'ldan boy berildi.

General Romanovski Yerjar yonidagi jangdan so'ng chekingan buxoroliklarni orqasidan quvib Jizzax va Samarqandga hujum qilmadi. U Qo'qon xonligiga qarashli

Xo‘jand shahriga qarshi qo‘shin tortdi. 1866-yil 17-may kuni ruslarning asosiy kuchlari Nov qal’asini, keyin 25-mayda qattiq janglardan Xo‘jandni egalladi.

1866-yil 2-oktyabr kuni rus askarlari O‘ratepa qal’asini qamal qilishga kirishdi va qattiq janglardan so‘ng ertalab soat 7 da qal’a markazi qo‘lga kiritildi.

O‘ratepa qo‘lga kiritilgandan so‘ng rus qo‘shinlari Buxoro amirligining ichkarisiga qarab harbiy harakatlarni davom ettirdi va yo‘l-yo‘lakay Zomin qal’asini urushsiz qo‘lga kiritib, Jizzaxga tahdid sola boshladi.

Rus harbiy qo‘shini 1866-yil 12-oktyabr kuni Jizzaxga yetib keldi. Jizzax himoyachilarining soni 10.000 kishidan iborat edi. Ularning qo‘lida 53 ta to‘p mavjud edi. 16-18 - oktyabr kunlaridagi qattiq janglardan keyin himoyachilar mag‘lubiyatga uchradi.

1866-yilda Turkiston viloyati tarkibida Yerjar va Zomin bo‘limlari, O‘ratepa va Jizzax rayonlari tashkil qilindi.

Rus qo‘shinlari tomonidan bosib olingan hududlarni boshqarish podsho imperiyasiga xos ma‘muriy an‘analar ruhida, mutlaq harbiy asosda chor hukumati g‘aznasi manfaatlaridan kelib chiqib tashkil etildi. Chorizm, eng avvalo, arzon va samarali boshqaruv hamda mustamlaka ekspluatatsiya tizimini yaratish haqida qayg‘urdi.

Rus mustamlakachi ma‘murlari Rossiya imperiyasi manfaatlarini nechog‘liq to‘la ta‘minlash, o‘lka imkoniyatlaridan mumkin qadar ko‘proq foydalanishga erishishga intilib, 1865-1916-yillar ichida Turkistonni boshqarish masalasiga doir o‘nta loyiha ishlab chiqdilar.

1865-yilning 6-avgustida Aleksandr II «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom»ga imzo chekdi. Ushbu hujjatga ko‘ra Turkistonni boshqarish tizimi Kavkazortidagi singari «harbiy - xalq boshqaruvi» deb yuritildi.

«Harbiy-xalq boshqaruvi» ma‘muriyatining boshlig‘i harbiy gubernator bo‘lib, uning qo‘lida ham harbiy ham harbiy bo‘lmagan hokimiyat to‘plangan edi. Bu lavozimga rus harbiy amaldorlari tayinlanib, ularga mahalliy aholi ustidan umumiy nazorat yurituvchi boshqaruvchilar bo‘ysundirilgan edi. Boshqaruvchilar lavozimiga ham rus ofitserlari tayinlanardi. Ularning vazifasi - karvon tijorati xavfsizligini ta‘minlash, tub aholidan soliq yig‘imlarini undirish, mahalliy aholi tomonidan majburiyatlar va ma‘muriyat ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarilishini nazorat qilishdan iborat edi.

Boshqaruvchilar zimmasiga sudlov, xo‘jalik vazifalari ham yuklatilgan bo‘lib, ular mahalliy va rus vakillari aralashgan qotillik, o‘g‘rilik, talonchilik bilan bog‘liq jinoiy ishlar bilan shug‘ullanar, an‘anaviy musulmon sudlov muassasalarining faoliyatini nazorat qilar va o‘rmonlarning butligi, sug‘orish tarmoqlaridagi suv taqsimoti hamda bu tarmoqlarni yaroqli holda saqlashni kuzatib borar edi.

«Harbiy - xalq boshqaruvi»ida «mahalliy» deb ataluvchi ma‘muriyat yordamchi rolni o‘ynar edi. Xonlik davrida bo‘lgani kabi, shaharlarning tub aholisi yashaydigan mahallalarni oqsoqollar boshqarardi. Mahalla tomonidan saylanuvchi oqsoqollar bosh oqsoqolga bo‘ysunar edilar. Politsiya vazifasini raislar bajarar edilar. Ular bozordagi savdo va jamoat tartibini nazorat qilardilar. Soliq yig‘imlari bilan zakotchi shug‘ullanar edi.

«Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom»ni joriy etish natijasida chor qo'shinlarining ta'minoti va aholidan soliq to'lovlarining undirilishini nazorat qiluvchi zo'ravon bosqinchi tuzum yuzaga keltirildi va Turkiston xalqlari ikki tomonlama zulm ostida qoldilar. Ular uchun saqlab qolingan xonlik ma'muriy-soliq tizimi Rossiya politsiya - byurokratik tuzumining butun qudrati va milliy - mustamlaka zulm usullari bilan yanada zo'raytirildi.

M.G.Chernyayev o'rniga tayinlangan harbiy gubernator D.I.Romanovskiy 1866-yildayoq hukumatga, Turkistonga mustamlaka sifatida qaramaslikni, o'lkani imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirib, Rossiyaning o'zida burjua islohotlari jarayonida yuzaga kelayotgan davlat muassasalari tizimini bu yerda asta-sekin joriy etib borishni taklif qildi.

Romanovskiy Toshkent musulmon ruhoniylarining shahar quyi ma'muriyatiga ta'sirini cheklashga urinib, Toshkentda mahkama nomini olgan o'ziga xos muassasa tashkil qildi. Rasman u qozilik sudi o'rniga kelgan kollegial sudlov organi hisoblanar edi. Biroq, dastlabki damdanoq, mahkama sudlov ishlari bilan bir qatorda mahalliy idora vazifalarini ham bajara boshladi.

Ayrim hujjatlarda mazkur mahkama «shahar ishtiroki» yoki «shahar boshqaruvi» deb yuritiladi. Tarkibiga Toshkentning 200 nafar eng boy va nufuzli kishilari tomonidan saylangan qozi va yetti maslahatchi - a'lamlar kirgan mahkama 1866 - yilning iyulida ochildi.

1866-yil 11-dekabrida general Romanovskiy Turkiston viloyati va u yerdagi qo'shinlar qo'mondonligini general-mayor Manteyfelga topshirib, o'lkadan ketdi. 1867-yilning bahoridan boshlab rus qo'shinlarining bosqinchilik harakatlari yanada kuchaydi. 25-may kuni Jizzax va Samarqand oralig'ida joylashgan Yangiqo'rg'on istehkomi egallandi.

Rus hukmron doiralari yangi bosib olingan hududlarda siyosiy boshqaruvning yanada samarali usulini topish ustida bosh qotirardilar. Natijada 1867-yil 14-iyulda Rossiya imperiyasi tomonidan 1847-yildan boshlab qirg'iz cho'llari va Qo'qon xonligi hamda Buxoro amirligi hududlaridan bosib olingan yerlarni o'z ichiga olgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, Toshkent shahri uning markazi deb belgilandi.

Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat-markazi Toshkent shahri bo'lgan Sirdaryo viloyati va markazi Verniy bo'lgan Yettisuv viloyatidan iborat bo'lib, Sirdaryo viloyati Kazalinsk, Perovsk, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo'jand va Jizzax uyezdlaridan, Yettisuv viloyati esa Sergiopolsk, Kopalsk, Verninsk, Issiq ko'l va To'qmoq uyezdlaridan tashkil topgan edi.

Turkiston general- gubernatorligi bilan birga, Turkiston harbiy okrugi ham tashkil etildi. General-adyutant Kaufman Turkiston general-gubernatori va o'lka harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni etib tayinlandi. U dastlabki kundanoq, o'lkadagi vaziyat bilan chuqur tanishib chiqdi. Kaufman Qo'qon xonligidan bosib olingan yerlarning Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasman qonunlashtirib olish maqsadida 1868-yil 13-fevralda Qo'qon xoni Xudoyorxon



General-gubernatori fon
Kaufman

bilan shartnoma imzoladi. Shartnomaga ko'ra, rus savdogarlariga katta imtiyozlar berildi. Qo'qon xonligi savdogarlari esa bunday Imtiyozlarga faqat Turkiston general - gubernatorligi hududlarida, ya'ni o'zlarining sobiq yerlaridagina ega bo'ldilar. Xonlik tashqi olamdan uzib tashlandi va Rossiyaning siyosiy qaramligiga tushib, o'z mustaqilligini yo'qotdi.

Kaufman Buxoro bilan Turkiston general-gubernatorligi o'rtasidagi chegaralar holatiga alohida e'tibor berdi. U general Krijanovskiy tomonidan tuzilgan shartnoma asosidagi chegaralar holatini tan olmay, Buxoro amiriga chegara masalasi bo'yicha yangi takliflarni jo'natdi va amirdan uni tasdiqlashni so'radi.

Ushbu taklif bo'yicha o'zaro muzokaralar ancha cho'zilib ketdi. Shu bilan birga, buxoroliklar tomonidan doimiy ravishda Jizzax va unga yaqin hududlarda turli xil harbiy harakatlar amalga oshirib turildi. Bunday harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi, rus qo'shinlarini tahlikaga solib qo'ydi.

General Kaufman Samarqand atrofida Buxoro amiri katta qo'shin to'playotganligi va hujumga tayyorgarlik ko'rayotganligi to'g'risida ma'lumot olgandan so'ng, zudlik bilan harbiy harakatlar boshlash uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1868-yil 18-aprel kuni general Kaufman Toshkentdan Jizzaxga qarab yo'lga chiqdi. 1868-yil 1-may kuni Zarafshon vohasiga yetib keldi va Buxoro qo'shinlari bilan to'qnashdi.

1868-yil 2-may kuni Samarqand ahli shahar darvozalarini ochib, shaharni ruslarga topshirdi. 8-may kuni Chelak, ayovsiz kurashlardan so'ng 12-may kuni Urgut, 18-may kuni Kattaqo'rg'on jangsiz qo'lga kiritildi. 27- may kuni qattiq janglardan so'ng Qoratepa qishlog'i ham qo'ldan ketdi.

Kattaqo'rg'on uchun bo'lib o'tgan jangdan so'ng mag'lubiyatga uchragan Buxoro qo'shinlari asta-sekin chekinib, Zirabuloq tepaligi yonida to'plana boshladi. Buxoro qo'shinlari Zirabuloqdan turib vaqt-vaqti bilan ruslarga hujum uyushtirib turdi. Bu harakatlar ruslarni tang ahvolga solib qo'ydi.

Zirabuloq tepaligida buxoroliklarning 6 ming piyoda, 15 ming otliq suvoriylari to'plangan va ularda 14 ta yengil to'p mavjud edi.

2-iyunda rus qo'shinlari buxoroliklar ustiga ikki yo'nalish bo'ylab hujum uyushtirdi. Buxoro qo'shinlari ruslarning ikki tomonlama bergan zarbasiga dosh berolmay, Zirabuloq tepaligida qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, chekinishga majbur bo'ldilar.

Ruslar Zirabuloq tepaligida g'alabani qo'lga kiritgan bir paytda, shahrisabzlik vatanparvar kuchlar Samarqandga hujum uyushtirishi natijasida, Samarqand shahrida qo'zg'olon boshlanib ketganligi va rus qo'shinlari qamal holatiga tushganligi to'g'risida xabar yetib keldi.

General Kaufman shoshilinch ravishda rus harbiy kuchlarini orqaga - Samarqandga qaytarishga majbur bo'ldi. Chunki, Samarqand shahrida ruslarning jami 658 kishidan iborat bo'lgan harbiy kuchi qoldirilgan edi. Samarqand shahriga hujum qilganlarning umumiy soni esa 65. 000 kishini tashkil etar edi. Samarqand qamalida 25.000 shahrisabzliklar, 15.000 xitoy-qipchoqlar, 15.000 mingga yaqin samarqandliklar va uning atrof qishloqlari aholisi ishtirok etdi.

Qo'zg'olonchilar shaharga bostirib kirib, rus harbiy kuchlari joylashgan arkka qarab yurdilar. Rus harbiy kuchlari arkka kirib, uning himoyasini tashkil qilishga

harakat qildi. Qattiq va murosasiz janglar bir necha kun davom etdi va 1868-yil 8-iyun kuni rus qo'shinlari vatanparvar kuchlar va qo'zg'olonchilar hujumini qaytarishga muvaffaq bo'ldi. Ruslarning madad kuchlari yetib kelgach, qo'zg'olonchilar va vatanparvar kuchlar, nihoyatda nochor ahvolga tushib qoldi, katta qurbon va talofatlar berib, mag'lubiyatga uchradi. 8 kunlik qamal natijasida rus qo'shinlari tomonidan 49 kishi o'ldi, 172 kishi og'ir yarador bo'ldi.

Samarqandning qo'ldan ketishi Buxoroi sharifning qo'ldan ketishi emasligi to'g'risidagi fikrlarga qo'shilgan amir Muzaffar sulh tuzish to'g'risida maktub yozib, uni Turkiston general-gubernatori Kaufmanga yubordi. Garchi Kaufman Zirabuloqda g'alabaga erishgan bo'lsa-da, Samarqandda Abdumalik to'ra tomonidan berilgan zarbadan ancha esankirab qolgan edi. Shuning uchun ham u amirning sulh to'g'risidagi taklifini darhol qabul qildi. Natijada 1868-yil 23-iyunda Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. 1868-yil 23-iyun shartnomasi tinchlik shartnomasi emas, balki o'z xarakteri jihatidan ko'proq ultimatumga o'xshardi. Buxoro amiri noilojlikdan imzolagan bu shartnoma Rossiya davlatining siyosiy, harbiy, mintaqaviy manfaatlarini himoya qilish va Rossiyaning O'rta Osiyodagi mavqeini mustahkamlash maqsadlaridan kelib chiqqan holda tuzildi.

Shartnomaga ko'ra, Buxoro amirligi o'z mustaqilligini yo'qotibgina qolmay 1868-yilga kelib Buxoro amirligi Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on kabi o'zining yirik aholi manzilgohlaridan va Zarafshon vohasining yuqori hamda o'rta oqimidagi hududlardan to'la mahrum bo'ldi. Zarafshonning yuqori va o'rta qism hududlarining ruslar qo'liga o'tishi Buxoroning sug'orish ishlarida ham mustaqillikni yo'qotishiga sabab bo'ldi.

Buxoro hukmdori amir Muzaffar o'z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda, chor Rossiyasiga 500.000 rubl miqdorida tovon to'lashga, xorijiy davlatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka, rus savdogarlarining amirlik hududida erkin savdo qilishlari, karvonsaroy va do'konlar ochishlariga rozi bo'lishga ham majbur bo'ldi.

Buxoro amirligi amalda Rossiya imperiyasiga vassal davlatga aylandi. XIX asrning 70-yillaridan to 1920 - yilga qadar rasman o'z davlatchiligini saqlab qolgan Buxoro amirlari Muzaffar (1860-1885), Abdulahad (1885-1910) va Olimxon (1910-1920) davlat boshlig'i sifatida ish olib borgan bo'lsalarda, ular rus hukumatining itoatkor xizmatkorlariga aylangan edilar.

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari Qo'qon xonligi va Buxoro amirligidan tortib olgan hududlardan tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligini O'rta Osiyodagi harbiy operatsiyalarning tayanch markaziga aylantirib, bosqinchilik yurishlari tig'ini Xiva xonligiga qaratdi. O'rta Osiyo xonliklarining uchinchisi bo'lgan Xiva o'z mustaqilligi bilan mustamlakachilarga katta xavf solib turar edi.



Muhammad Rahimxon II

1872-yilning oxirlarida Peterburgda harbiy vazir boshchiligida Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noibi ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilindi.

Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon II ruslarga qarshi kurashda Angliyadan madad so'ragan bo'lsada,

Angliya hukmdori doiralari Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan xavfsiradi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Xivani siyosiy tarafdin yakkalab qo'yish uchun Buxoro amiri va Qo'qon xoniga tahdidli maktublar yo'llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqirdi. Xiva faqat o'z kuchigagina tayanib himoyalanişga majbur bo'ldi.

Xiva hukmdorining masalani tinch yo'l bilan hal qilishga urinishlari behuda ketgach, harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzdi. Chor qo'shinlari 1873-yilning bahorida 12.000 dan ortiq askar va zobitlari bilan Xiva xonligi hududlariga bostirib kirdilar.

Matmurod devonbegi, Mahmud yasovulboshi, Yoqubbek qalmoq, Eltuzar inoq, Bobo Mehtar boshchiligidagi o'zbek va turkman yigitlari rus qo'shinlari hujumini qaytarish uchun ikki guruhga bo'linib yo'lga tushdilar. General Veryovkin Qo'ng'irotda yurish qilib, talofatlar berib bo'lsada Xo'jayli va Mang'it qal'alarini egalladi. Mang'it va uning atrofidagi ovullar dahshatli tarzda qirg'in qilindi.

1873-yil 23-mayda Xazorasp qo'ldan boy berildi. 29-may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Xivani o'z ixtiyoridagi kuchlar bilan himoya qilib bo'lmasligiga ko'zi yetib, Izmiqsho'r tarafidagi turkman ovuliga ketdi. Bosqinchilar Xiva shahrini deyarli jangsiz egalladilar. Xon xazinası, shahar aholisi uch kun davomida talon-taroj qilinib, qimmatbaho buyumlar, 300 ta qo'lyozma asar Peterburgga jo'natildi.

1873-yil 12-avgustda Gandimiyon qishlog'ida fon Kaufman va Xiva xoni o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Amudaryoning o'ng qirg'oqlari Rossiya ixtiyoriga o'tdi. Rus savdogarlari xonlik hududida erkin savdo qilish huquqini oldilar. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, xonlik zimmasiga 2.000.000 so'm, turkmanlarga 310.500 so'm va yovmudlarga 106.000 so'm kumush hisobida tovon to'lash yuklatildi.

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni olib borayotgan vaqtda Qo'qon xonligida chuqur siyosiy va iqtisodiy inqiroz, jabr-zulm hukm surmoqda edi. Xonlik yerlarining yarmi Rossiya tomonidan bosib olinishi tufayli uning hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgan edi. Natijada xonlik xazinasiga tushadigan daromadlar keskin qisqarib ketdi. Xon xazinani to'ldirish uchun yangidan qo'shimcha soliqlarni joriy etdi. Bundan norozi bo'lgan xalq 1871-yilda So'xda qo'zg'olon ko'tardi. Uni bostirgan xon soliq miqdorini yanada oshirdi.

Xudoyorxonning qattiq zulmi, og'ir iqtisodiy hayot va uning Rossiyaning itoatli xizmatkoriga aylanishi xalq g'azabini qo'zg'atdi. 1873- yilda xalq Turkiston tarixida eng uzoq davom etgan (1873-1876) Po'latxon qo'zg'oloniga ko'tarildi. Qo'zg'olonida Qo'qon xonligida yashovchi keng omma qatnashdi. Qo'zg'olonida qirg'izlar, o'zbeklar, qipchoqlar, tojiklar va ular bilan birgalikda saroy harbiylari, amaldorlari, ruhoniylar hamda savdo vakillari ham qatnashdilar. Bu harakatning yuzaga kelishida


qirg'iz Mullo Isxoq Hasan o'g'lining o'rni katta bo'lib, u Po'latxon nomi bilan shuhrat qozongan edi. 1872-yilda Sherdodhoh boshchiligidagi bir necha qirg'izlar Samarqandga borishib, sobiq hukmdor Olimxonning nabirasi Po'latxonni taxtga o'tkazish haqidagi maqsadlarini bayon qildilar. Ammo Po'latxon taklifni rad etgach, Mullo Isxoq uning nomi bilan taxt uchun kurashishni zimmasiga oldi. U Namanganning shimoliy qismidagi, Koson va Nanay oralig'ida istiqomat qilgan Qutluq Said qabilasining yordami bilan atrofiga 500 kishini to'pladi va Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon boshlandi. Po'latxon qo'zg'oloni kuchaygach, Xudoyorxon qo'zg'olonchilarga qarshi Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi va eshik og'asi Sarimsoq boshchiligidagi 4 ming kishilik qo'shin jo'natdi. Ammo qo'shin 1875 - yilning 17 - iyulida qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib ketdi.

Xonning o'g'li, Andijon hokimi Nasriddinbek, xonning ukasi Sulton Murodbeklar ham o'z qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib ketdi. Qo'zg'olonchilar O'sh, Namangan, Andijon, Asaka shaharlarini egalladilar. 20 - iyulda xonning kichik o'g'li Muhammad Aminbek ham 4 ming qo'shini bilan qo'zg'olonchilar safiga qo'shildi. Yakkalanib qolgan Xudoyorxon taxtni tashlab 1875-yilning avgustida ahli-ayoli, 500 ga yaqin ayonlari, 40 arava xazinasi bilan Toshkentga fon Kaufman huzuriga panoh izlab ketdi.

Xudoyorxonning taxtga o'tirgan o'g'li Nasriddinbek qo'zg'olonchilarga xiyonat qilib, uni bostirish uchun ruslardan yordam so'radi. Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari va Xudoyorxonning qochishi orqasida yuzaga kelgan og'ir vaziyat Rus hukumatiga qo'l keldi. 1876- yilning fevralida rus qo'shinlari qo'zg'olonni shafqatsiz bostirgach, Qo'qon xonligi tugatildi. Shunday qilib, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari qaram davlatlarga aylantirilgan bo'lsa, Qo'qon xonligi hududlari Turkiston general - gubernatorligi tomonidan batamom bosib olindi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarini davom ettirib, 1880-1881-yillarda Axaltaka ekspeditsiyasini tashkil etdi. 1885-yilga kelib, Atrek, Tajan, Marv, Pandj vohasi, 1895-yilda Pomir Rossiya qo'l ostiga o'tdi.

Mustamlakachi Rossiya davlati o'zining Turkistonda olib borgan qirg'inbarot harbiy yurishlarini xaspo'shlash uchun O'rta Osiyo xalqlarining Rossiyaga o'z ixtiyorlari bilan qo'shilganligi, urushda qurbonlar kam bo'lganligini isbotlash uchun bosib olingan davlatlarning mustaqilligi saqlab qolinganligi, ulardagi xalqlarning mustabid tuzumdan ozod qilinganligi haqidagi nayranglarni o'ziga qurol qilib oldi va bu uydirmalarni targ'ib qildi.



Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklarining to'qnashuvida o'sha davr harbiy kuchlari, qurol-yarog'ning barcha turlari ishtirok etdi va qirg'inbarot urush bo'ldi. Rossiya armiyasining harbiy harakatlari talonchilikning, bosqinchilikning barcha ko'rinishlarini o'zida namoyon qildi.

Urushda halok bo'lganlarning, ayniqsa, qurbon bo'lgan mudofaachilarning soni nihoyatda ko'pligi bu fikrlarni asoslab beradi. Masalan, Chimkent mudofaasida

12.000, Toshkent himoyasida 8.000, Xo‘jand uchun 5.000, O‘ratepada 2.000, Jizzax himoyasida 6.000, Andijonda 20.000 kishi, Ko‘ktepa (Go‘kdepe)da 40.000 kishi va boshqa hududlar mudofaasida minglab kishilarning halok bo‘lganligi mahalliy aholining jisman katta qurbonlar berganligini ko‘rsatib beradi.

Mudofaachilarning qahramonona qarshiligiga qaramay mag‘lubiyatga uchraganligi va katta jismoniy talofatlarning asosiy sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining jahondagi umumiy taraqqiyotdan orqada qolib ketganligi ulardagi feodal munosabatlarga asoslangan tuzum ishlab chiqarishni rivojlantirishga to‘siq bo‘lganligi. Albatta, bu hol qurolli kuchlar jangovarligi va armiyaga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Masalan, Buxoro amirligida umumiy safarbarlik e‘lon qilingan davrda askarlarning soni 100.000 kishiga yetardi. Ammo, bu qo‘shin yaxshi harbiy tayyorgarlik ko‘rmagan, uchiga temir nayza qadalgan oddiy tayoq yoki ilg‘or mamlakatlarda allaqachon foydalanilmay qolgan piltalarga bilan qurollangan bo‘lib, uni yondirish va otish uchun cho‘g‘ bo‘lishi shart edi. Aks holda, 1866-yil 22-mayda Oqjarda 10 ming kishilik Buxoro armiyasining 2 ming kishilik rus qo‘shini bilan birinchi to‘qnashuvdayoq qaqshatqich zarbaga uchraganligi va 5.000 himoyachining halok bo‘lganligini nima bilan izohlash mumkin.

Buning aksi o‘laroq, Rossiya harbiy harakatlarda toblangan, mustahkam tartib-intizomga bo‘ysungan va zamonaviy qurol-yarog‘lar bilan qurollantirilgan muntazam armiyaga ega edi. Shuning uchun ham u son jihatdan o‘zidan ancha ustun bo‘lgan himoyachilar ustidan g‘alabalarga erishdi.

2. Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi orasida birdamlikning yo‘qligi va bir-biriga nisbatan xoinligi. Rossiya Turkistonga birin-ketin amalga oshirgan harbiy harakatlari bilan kirib kelar ekan uchala o‘zbek davlatlari bir-birini qo‘llab-quvvatlash o‘rniga bosqinchilar ona Vatanni nimtalab bosib olishlariga tomoshabin bo‘lib turdilar. Masalan, Toshkent shahri aholisi 1865-yil 9-mayda bo‘lib o‘tgan qattiq va shiddatli jangdan va Mulla Alimquli vafotidan so‘ng Buxoro amiriga murojaat qilib, undan yordam so‘radi. Bu so‘rovga ijobiy javob bermagan Buxoro amiri Rossiya bosqini borayotganligiga qaramay Qo‘qonga yurish qilib, uni egallaydi va u yerga Xudoyorxonni o‘zining vakili qilib qo‘yadi. 1865- yilda Xudoyorxon amir Muzaffar yordami bilan Qo‘qon taxtiga uchinchi marta o‘tirdi. Ammo tez orada o‘z valine‘mati xizmatini unutdi. Ruslarga qarshi harakatlari ancha susayib qolgan Xudoyorxon ruslarga yon bosa boshladi.

Rossiya Buxoro amirligiga qarshi hujum boshlaganda Qo‘qon xoni Xudoyorxon amir Muzaffarning Rossiyaga qarshi birgalikda harakat qilish haqidagi taklifini qabul qilishga shoshilmadi. Aslida buning aksi bo‘ldi.

3. O‘zaro urushlar, tortishuvlar, taxt uchun kurashlar, hukmdorlarning manmansirashlari, haqiqiy vaziyatni ko‘rmaslik, voqelikka to‘g‘ri baho bermaslik hukmdorlarning e‘tiborini hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan chetga tortdi.

Bunday munosabat Rossiyaning Turkistonda olib borayotgan bosqinchilik urushi natijasida ko‘rilgan ulkan talofatlardan keyin ham o‘zgarmadi. Masalan, Qo‘qon xonligi hududining yarmini Rossiya bosib olganligi tufayli faqat Farg‘ona vodiysidan

iborat bo'lib qolganligi, 1868- yilda Rossiyaning haqoratomuz shartnomasiga imzo chekishga majbur bo'lganligi Xudoyorxonga saboq bo'lmadi. Aksincha, Xudoyorxon Rossiyadan xotirjam bo'lib, vaqtini o'yin-kulgi bilan o'tkazdi, ov va ko'pkari chopish bilan shug'ullandi, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarqatdi va xalqni o'zidan yuz o'girishga majbur qildi.

4. Turkiston shahar, qishloq, qal'alari himoyachilari o'rtasida hamfikirlikning yo'qligi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan qay bir hudud-Turkiston, Chimkent, Toshkent, Samarqand yoki boshqami egallanmasin - hal qiluvchi damlarda shaharlarni himoya qilish yoki uni ixtiyoriy topshirish tarafdorlari o'rtasida ixtilof chiqdi. Ixtiloflar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlagan natija: «...tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi»¹ ga olib keldi.

5. Rossiya imperiyasi harbiy amaldorlariga sotilgan mahalliy xoinlarning sotqinligi. Sotqinlik tufayli Turkiston o'z jonlarini Vatan mustaqilligi uchun fido qilgan minglab sof vijdonli, asl farzandlaridan ayrildi. Xoin, munofiq, sotqin, riyokor, laganbardor kimsalar omon qolib, xalqning ulug' tuyg'usi bo'lgan vatanparvarlikka putur yetkazdilar.

«Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonchi bo'lmagan odam qo'rqinchlidir...Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi»², -deb yozgan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Turkiston general-gubernatorligi hududi 1868-1895-yillar oralig'ida bosib olingan yerlar hisobidan kengayib bordi.

Turkiston general-gubernatorligi 1867-1886-yillarda viloyat va uyezdlariga bo'lingan edi. Xonliklar bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o'rniga ularga mos ravishdagi harbiy-hududiy birliklar - okruglar, bo'limlar va rayonlar tashkil qilindi.

Dastlab, Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bo'lgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahri bo'lgan Yettisuv viloyatiga bo'linardi. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobidan quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868 - yilda - markazi Samarqandda bo'lgan Zarafshon okrugi; 1874-yilda-markazi Petroaleksandrovs (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi; 1876-yilda Qo'qon xonligining tugatilishi hisobiga-markazi Yangi Marg'ilon (Farg'ona) shahrida bo'lgan Farg'ona viloyati.

Yettisuv viloyati Sergiopolsk, Kupal, Verniy, Issiqko'l va To'qmoq uyezdlariga bo'linar edi. 1882 yilda u Turkiston general-gubernatorligi tarkibidan chiqarildi.

Sirdaryo viloyati tarkibida 1868-yilda Avliyoota, Qazala, Qurama (markazi - Qo'yliq qishlog'i), Perovsk, Turkiston, Xo'jand va Chimkent uyezdleri tashkil qilindi. Toshkent shahri mustaqil ma'muriy birlikni tashkil etdi.

Zarafshon okrugi hududi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'linar edi. 1871-yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik -Tog'li tumanlar

¹ Karimov I.A. Yiksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. B.51.

² O'sha joyda. B.122.

qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda bekliklardan tuzildi. Samarqand bo'limi uchta, Kattaqo'rg'on bo'limi esa bitta tumandan iborat edi.

Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida tashkil qilingan Amudaryo bo'limi Chimboy va Sho'raxon uchastkalariga bo'linar edi.

Farg'ona viloyati hududida Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh va Chust uyezdlari bo'lib, ular bilan bir vaqtda Chimyon (1879- yildan boshlab Isfara) uyezdi tuzilgan edi, uning hududi 1881- yilda Qo'qon va Marg'ilon uyezdlariga bo'lib yuborildi.

Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-hududiy tizimidagi eng quyi bo'g'in - bo'lis (volost) hisoblanardi. Biroq, bo'lis boshqaruvi izchil ravishda faqat Farg'ona viloyati hamda Zarafshon okrugida joriy qilindi.

Boshqa joylarda esa, bo'lislar bilan bir qatorda, aholi o'troq yashovchi rayonlarda oqsoqolliklar ham tashkil qilindi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy bo'linishda o'lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari hisobga olinmadi. U ma'muriy - iqtisodiy ahamiyatga molik deb atalgan hududlarni tashkil etish yo'lidagi umumimperiya tadbirining qonuniy davomi bo'ldi. Rossiya imperiyasi tomonidan yaratilgan harbiy-byurokratik boshqaruv tizimiga mahalliy turmushning barcha bo'g'inlari bo'ysundirildi.

Ushbu tizimning boshlig'i podsho tomonidan tayinlanib, xizmat yuzasidan Rossiya Harbiy vazirligiga bo'ysunuvchi general-gubernator hisoblanardi. U ham fuqaroviy ma'muriyat boshlig'i, ham Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni edi. Umumimperiya qonunlariga ko'ra, general-gubernator «samoderjavie huquqlari, davlat manfaatlari daxlsizligi, qonunlar aniq bajarilishining bosh posboni»ga aylantirilgan edi. Podsho yorlig'i Turkiston general-gubernatoriga «barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish» vakolatini berardi. U o'lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko'ra besh yilgacha bo'lgan muddatga badarg'a qilish va qarshilik ko'rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi.

Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo'lgan shaxslarga o'lim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish huquqiga ega edi.

Shunday qilib, general-gubernator o'zining yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatiga ko'ra, Turkistonning besh millionlik xalqini boshqarish huquqiga ega edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlarining butun boshli iyerarxiyasi tomonidan harakatlantiriluvchi xiyla murakkab byurokratik mashina yordamida amalga oshirilar edi. Boshqaruvning ma'muriy organlarini mustamlaka hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: o'lka, viloyat, uyezd va bo'lis boshqaruvi.

Ushbu byurokratik mashinadagi bosh bo'g'in - 1867 yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorining Kanselyariyasi edi. U ijroiya organi hisoblanib, shtat va inspektorlik, yer va soliq majburiyatlari, yo'l qurilishi va tog'-kon ishlari masalalari, Rossiyaning Xiva va Buxoro ustidan protektorati, qo'shni Sharq

mamlakatlari bilan aloqa qilishga doir masalalarni hal qilish bilan shug'ullanar edi. Ushbu munosabat bilan Kanselyariya quyi idoralarga ko'plab ko'rsatmalar va so'rovlar yuborib, ularga javoban ko'plab hisobot va ma'lumotlar olardi; barcha vakillik va ma'lum idoraga qarashli muassasa, oliy hukumat organlari bilan aloqalarni amalga oshirardi, uning bo'limlari gullab-yashnagan byurokratik qog'ozbozlik asosida katta ko'lamda ish yuritardi.

O'lkani boshqarish borasidagi turli me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va joriy qilishda Turkiston general-gubernatori Kanselyariyasining roli ayniqsa katta edi. Kanselyariya maxsus tuzilgan hukumat komissiyalari bilan hamkorlikda keyinchalik Rossiya vazirliklari va Davlat Kengashi e'tiboriga havola qilinuvchi Turkistondagi barcha qonunlarning loyihalarini ishlab chiqishda qatnashar edi.

Viloyatlardagi mahalliy ma'muriyatni harbiy gubernatorlar boshqarar edi. Ular bir vaqtning o'zida u yoki bu viloyatda joylashtirilgan qo'shin sonidan kelib chiqib, korpus yoki diviziya qo'mondonlari maqomiga ham ega edilar. Masalan, Yettisuv viloyatida harbiy gubernator bir vaqtning o'zida Yettisuv kazaklar qo'shinining atamani ham edi. Ular Harbiy vazir, Ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan taqdimnomaga ko'ra, podsho tomonidan lavozimga tayinlanar va bo'shatilardi.

«1867-yil nizomi»ga ko'ra, viloyat gubernatorlariga mahalliy aholi orasida viloyat ma'muriyatining obro'sini oshirish, aholining osoyishtaligini ta'minlash va har qanday tartibsizliklarni bostirish uchun ma'muriy politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat berilgan edi.

Harbiy gubernatorlarga quyi ma'muriy organlar va mahalliy aholiga nisbatan mohiyatiga ko'ra quyidagi: tub aholi vakillariga 100 so'mgacha jarima solish va ularni bir muddatga qamoqqa olish bilan jazolash huquqi; sud mahkamalari va turmalarning faoliyatini nazorat qilish, jinoiy ishlar bo'yicha chiqarilgan hukmlarni tasdiqlash; o'troq va ko'chmanchi aholining bo'lis qurultoylarini chaqirish joylarini belgilash, bo'lis boshqaruvchilarini lavozimda tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ularni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash; ariq oqsoqollarini tayinlash va jamoat pulidan ularga beriluvchi maosh miqdorini belgilash; xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda yangi saylovlarni tayinlash; o'z ixtiyoriga ko'ra uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezd boshlig'i bundan mustasno bo'lib, bu masalada faqat general-gubernator nomiga taqdimnoma yozilardi); uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilagan jarima to'lash jazosi yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kabi diktatorlik darajasidagi vakolatlar berilgan edi.

Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshliqlariga ham xuddi shunday keng vakolatlar bilan bir qatorda diplomatik vazifalar ham berilgan edi. Zarafshon okrugi boshlig'ining vakolatiga qo'shni Buxoro amirligining bekliklari bilan «chegara munosabatlarini olib borish» ham kiritilgan bo'lsa, Amudaryo bo'limi boshlig'i Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblanar edi.

Harbiy gubernatorning yordamchisi ham bo'lib, u harbiy gubernator tobi qochgan, yo'q bo'lgan yoki bo'shatilgan hollarda uning xizmat vazifasini bajarar edi.

Viloyatlarda ma'muriy sudlov, politsiya, moliya va xo'jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi muhim mahalliy davlat muassasasi viloyat boshqaruvibo'lib, u

kollegial organ edi. Viloyat boshqaruvi o'z faoliyatida «1867-yil nizomi» hamda general-gubernatorning maxsus ko'rsatmalariga amal qilar edi.

Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Mohiyatan viloyat boshqaruvi Rossiya ichki guberniyalari boshqaruvini takrorlasada, ularga nisbatan hiyla keng vakolatlarga ega edi.

Viloyat boshqaruvlari tuzilishiga ko'ra, bo'linmalardan tashkil topgan bo'lib, ularning soni mustamlaka tuzumi qaror topishi va kuchayishi bilan ortib bordi. Chunonchi, agar 1867-yilda Sirdaryo va Yettisuv viloyat boshqaruvlarida jami uchta-taqsimot, xo'jalik va sudlov bo'linmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 80-yillarning o'rtalariga kelib, oraliq chegara, qurilish, qishloq davolash, veterinariya va hisob-kitob ishlari bo'linmalari ochildi. Bundan tashqari, har bir viloyat boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika qo'mitalari tashkil qilindi.

Ilmiy, texnik, tibbiy hamda u yoki bu viloyat uchun muhim sanalgan boshqa masalalarni hal qilish uchun viloyat boshqaruvlari qoshida hozirlik kengashlari tashkil qilindi. Ushbu kengashlarda maslahatchi va ekspertlar sifatida ish olib borish uchun mutaxassislar taklif etilar edi.

Viloyat boshqaruvi bo'linmalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash bilan harbiy gubernator shug'ullanar edi.

Uyezd ma'muriyatini uyezd boshlig'i boshqarib, unga uyezdga joylashgan qo'shinlar ham bo'ysunar edi. Uyezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatorlarining taqdimnomasiga ko'ra, general-gubernator tomonidan tayinlanib, ishdan olinardi. Uyezd boshlig'i bir vaqtning o'zida politsiya boshlig'i (ispravnik), polismeyster, zemstvo boshlig'i, shahar hokimi, yer-soliq xizmati raisi ham edi. Aytish mumkinki, uyezd boshlig'i jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotining deyarli barcha sohalarida monopoliyachi bo'lib, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatini uyezd miqyosida hayotga tatbiq etar edi. Amalda u o'z g'arazli maqsadlarini ko'zlovchi, mutlaqo malakasiz ma'muriyatchilik bo'g'ini ekanligini namoyish qildiki, uni kuchaytirish va kengaytirish borasida ko'p urinishlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi.

Uyezd boshqaruvi tarkibiga uyezd boshlig'idan tashqari, uning yordamchilari va kanselyariya xodimlari ham kirar edi. Uyezd boshlig'i betob yoki yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini yordamchilari bajarar edi. Ma'muriy ishlar bo'yicha yordamchi odatda, uyezd kanselyariyasini boshqarar edi.

Uyezd ma'muriyati joylardagi barcha ishlarni rejalashtirib, muvofiqlashtirar edi. Tizimning bu bo'g'ini g'azna-to'lov (obrok) ishlarini nazorat qilish, soliqlarni hisoblash, ichki tartibni kuzatish, yer-suv tufayli kelib chiqqan nizolarni hal qilish, uyezdning bo'lis va qishloq ma'muriyatlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi ishlar bilan shug'ullanar edi.

Turkistonning Toshkentdan boshqa shaharlarida, o'z-o'zini boshqarish organlari tashkil qilinmagan edi. «1867-yil Nizomi»ga ko'ra, jamoat-xo'jalik ishlari shaharlarda saylanuvchi mahalliy ma'muriyat tomonidan amalga oshirilardi. Shaharlar qismlar (shahar rayonlari)ga bo'linib, ularni oqsoqollar boshqarardi. Ular mahallalarda tayinlangan saylovchilar qurultoyi tomonidan saylanar edi.

Shahar oqsoqollari soliq yig'ish va majburiyatlarni taqsimlash bilan shug'ullanar edi. Ular harbiy gubernator tomonidan tayinlanuvchi va shahar doirasida politsiya

xizmatini boshqaruvchi katta oqsoqolga bo'ysunardi. Katta oqsoqolga barcha quyi politsiya amaldorlari - mirshablar, miroblar va qozilar bo'ysunar edilar. Ularning barchasiga shahar aholisidan yig'iluvchi mablag' hisobidan maosh to'lanardi.

1876-yilda K.P.Kaufmannning farmoyishi bilan shahar xo'jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo'jaligi uyezd ma'muriyatining nazoratiga olindi. Faqat Samarqand va Yangi Marg'ilon shaharlarida bunday boshqarmalar saqlanib qoldi. Ular harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlanadigan rus harbiy amaldorlari va mahalliy savdogarlar vakillaridan tashkil topgan edi.

Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining siyosiy va ma'muriy markazi hisoblanib, o'ziga xos ma'muriyat tizimiga ega edi.

Bu yerda shahar ma'muriyatini shaharning maxsus boshlig'i boshqarardi. Shaharning «eski» va «yangi» qismlarida alohida jamoat-xo'jalik boshqaruvlari tashkil qilingan edi. «Eski» Toshkentda («Osiyo» qismi) boshqaruv a'zolari shaharning oliy tabaqa vakillari tomonidan saylanardi, «Yevropa» qismida esa rahbarlar Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tomonidan tayinlanardi.

Toshkentdagi jamoat-xo'jalik boshqaruvlarining faoliyati boshqa shaharlarda bo'lgani singari, shahar boshlig'ining farmoyishlarini bajarishdan iborat edi.

1877-yilda Toshkentda 1870-yil 16-iyulda chiqarilgan «Shahar nizomi» joriy qilindi. Unga muvofiq shahar xo'jaligi boshqaruvi shahar dumasini qo'lga o'tdi. Dumaga berilgan huquq soliq yig'ish va shahardagi tartibni kuzatib borish edi, xolos.

Toshkent shahar dumasining ijroiya organi shahar boshqarmasi bo'lib, undagi a'zolarining 2/3 qismini shaharning rus aholisi vakillari tashkil etardi.

Toshkent shahri hokimini lavozimga general-gubernatorning taqdimnomasiga ko'ra harbiy vazir tasdiqlardi. Qoidaga ko'ra XIX asrning 70-yillari- 80-yillar boshlarida bu lavozimni Toshkent shahrining boshlig'i egallardi.

1867-yildagi «Nizom» va hukumat dekretlariga muvofiq, Turkistonning ko'chmanchi va o'troq aholisi ustidan yagona boshqaruv tamoyili joriy qilingan bo'lib, u ikki shaklda amalga oshirildi.

Ko'chmanchi aholi yashaydigan manzillar bo'lislarga, bo'lislar esa ovullarga bo'lindi. Ma'muriy va politsiya hokimiyati bo'lis boshqaruvchilari va ovul oqsoqollari qo'lida bo'lib, ular uch yil muddatga saylanar, ularni lavozimga viloyat gubernatori tasdiqlardi.

O'troq aholi yashaydigan hududlarda ma'muriy va politsiya hokimiyati aholi tomonidan uch yilga saylanuvchi oqsoqollarga topshirildi.

Bo'lis va ovullar tarixiy-etnik an'analarga emas, balki hududiy belgilarga ko'ra tashkil qilindi. Mustamlaka ma'muriyati bo'lis va ovullarni hududiy belgilarga ko'ra bo'lishni «ma'muriy boshqaruv borasidagi noqulayliklar»ni bartaraf etish zarurati bilan izohladi. K.K.Palen esa «ko'p sonli urug'ning bir urug' oqsoqoli hokimiyati ostiga birlashtirilishi cho'lda osoyishtalikni saqlash ishini ogirlashtirishi mumkin», deb ochiq-oydin tan oladi. «Osoyishtalikni saqlash» maqsadida urug' oqsoqollari boshqaruvi bekor qilinib, bo'lis va qishloq boshliqlari lavozimlariga chor ma'muriyatiga xayrixoh bo'lgan yangi kishilarni qo'yish imkoniyatini beruvchi saylov tizimi joriy etildi. Odatda, bu kishilar feodal-boy tabaqalarning vakillari edi.

Saylangan ma'muriyatning asosiy vazifasi soliq va yig'implarning muvaffaqiyatli va o'z vaqtida to'planishini ta'minlashdan iborat edi.

Bo'lisdagi boshqaruv-bo'lis boshqaruvi va saylanganlarning bo'lis qurultoyidan iborat edi. Bo'lis boshqaruvchisi saylovi ikki darajali bo'lib, avval qishloq yig'inida 50 uy nomidan bitta vakil saylanardi. So'ng qishloq yig'inida saylangan vakillar uyezd boshlig'i yoki uning yordamchisi ishtirokida o'tuvchi bo'lis qurultoyiga to'planardilar. Qurultoyda saylangan ellikboshilarning 2/3 qismidan kami to'plangan taqdirda, bo'lis qurultoyi bekor qilinardi.

Bo'lis va qishloq ma'muriyatiga saylovlar ko'pincha, ularga o'z nomzodlarini o'tkazishga urinuvchi turli guruhlar o'rtasida keskin kurashlar bilan o'tardi.

Bo'lis qurultoyiga bo'lis boshqaruvchisi, xalq sudyalari va ularga nomzodlarni saylash; quyi ma'muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash; ko'priklar, yo'llar, xo'jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta'minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

1867-yil «Nizom»ga ko'ra, soliq undirishning yangi tizimi joriy qilingan bo'lib, u aholining mashg'ulot turlari, daromadlari hisob-kitobiga asoslandi. Ko'chmanchi aholi uchun umumiy o'tov yig'imi joriy qilinib, har bir o'tov uchun 2 rubl 75 tiyin miqdorida belgilandi.

Turkistonda XIX asrning 60-80-yillari o'rtalarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi, haddan tashqari byurokratik markazlashtirilgan ma'muriy mexanizm va unga xos bo'lgan organlar tizimi vujudga keltirildi. Bu uning qo'lida qonun yaratish, farmoyish berish, ijro etish va nazorat qilish funksiyalari jamlanganligida ifodalanadi. Boshqaruv apparati funksiyalarining bir qismi rus ma'murlari nazorati ostida faoliyat yurituvchi mahalliy hokimiyat institutlari - bo'lis boshqaruvlari va oqsoqolliklarga berilganligiga harbiy vaziyat, barqarorlikka erishish va mustamlakachilik vazifalarini bajarish «yuki»ni yengillashtirish zarurati hamda mintaqani o'z mustamlakasiga aylantirish borasidagi maqsadlarga tezroq va muvaffaqiyatliroq erishishga bo'lgan urinish sabab bo'ldi.

Boshqaruvning ma'muriy organlari bilan bir qatorda moliya organlari ham samoderjavie uchun doimo muhim rol o'ynab keldi. Rossiya hukmron doiralari mustamlaka ma'muriyatiga moliya sohasida keng vakolatlar berish yo'lidan bormadi. Bu sohani nazorat qilish funksiyasi Davlat Kengashining 1868-yil 4-maydagi qaroribilan davlat nazorati mahkamasiga qarashli Turkiston nazorat palatasiga berildi. Uning asosiy funksiyasi davlat muassasalari va mustamlaka ma'muriyatining moliya hisobotlarini tekshirishdan iborat bo'ldi. Barcha davlat muassasalari nazorat palatasigahisobot taqdim etishlari shart edi.

Palataning byudjet vazifalari moliya smetalarini tekshirish, ularni tuzishda ko'maklashish hamda butun Turkiston o'lkasi bo'yicha olingan daromadlarning hisobotini tayyorlashdan iborat edi.

1869-yil iyunda Davlat Kengashining Qarori bilan Toshkentda Moliya vazirligiga qarashli Turkiston g'azna palatasi ta'sis etildi. Uning faoliyat doirasiga, eng avvalo, bevosita keluvchi yoki ish haqidan olinuvchi soliqlarni, Rossiyaning ichki guberniyalaridagidan farqli ravishda, g'azna palatasiga bilvosita soliqlar (aksiz yig'implari)ni boshqarish, shu bilan birga nazorat funksiyalari yuklatilgan edi. Palata tarkibi rais, maslahatchilar, g'aznachi, nazoratchi va bir necha kichik amaldor (asessor)lardan iborat edi.

1874-yil 23-dekabrda imperator Aleksandr II farmoni bilan Davlat banki bo'limi ochildi. U 1893-yilga qadar o'z faoliyat doirasiga Turkiston o'lkasining butun hududini olgan edi. Davlat bankining Toshkent bo'limi foizli qimmatbaho qog'ozlar, qimmatbaho metall va tovarlarni garovga olish hisobiga qisqa muddatli qarzlar berar, shuningdek, veksellar va boshqa shoshilinch hujjatlar hisob-kitobi bo'yicha tijorat aylanmalarini amalga oshirar, oltin, kumush va kredit biletlarini sotib olar va sotar, kredit biletlarini almashtirib berardi.

Mahalliy hokimiyat organlariga faqat bilvosita bog'liq bo'lgan moliya organlari va bank muassasalarining tashkil qilinishi chorizmning mustamlakasi bo'lgan Turkistonning boy moddiy va insoniy manbalaridan samarali foydalanish va mablag'larning Rossiya byudjetiga kelib quyilishini jadallashtirdi.

Turkistonda vujudga keltirilgan boshqaruv tizimining mustamlakachilik mohiyati uning qo'riqlash va jazolash mahkamalari faoliyatida ham aks etadi. Chorizm manfaatlarini qo'riqlashni sudlov organlari amalga oshirdi. 1867- yil «Nizomi» ga ko'ra Turkistonda o'ziga xos sud qurilishi tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim: saylanuvchi qozilik va biylik sudlari yoki «xalq» sudlari, uyezd sudlari, muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari, viloyatlar boshqaruvining sudlov bo'limlari va Turkiston general-gubernatori Kanselyariyasining sudlov bo'limlaridan iborat edi.

Birinchi sudlov idorasi qilib «xalq sudi» nomini olgan qozi va biy sudlarida qoldirildi. Ular da'vo miqdori 100 rublgacha bo'lgan jinoiy va fuqarolik ishlarini yakka tartibda hal qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Bundan ortiq miqdordagi da'volar qozilik va biylik sudlari yoki xalq sudlarida ko'rilardi. Ikkinchi sudlov idoralari hisoblangan ushbu sudlar da'vo miqdori 1000 rublgacha bo'lgan jinoiy va fuqarolik ishlarini hal qilardi. Bir vaqtning o'zida, ular birinchi sudlov idorasi sudyalari u yoki bu ishlar bo'yicha nohaq qaror qabul qilgan holda, bu boradagi shikoyatlarni ko'rib chiquvchi idora hisoblanar edi.

Bundan tashqari, uchinchi sudlov idoralari - xalq sudyalarining Favqulodda qurultoylari ham mavjud edi. Ular turli bo'lis va uyezdlarning aholisi o'rtasida kelib chiqqan nizoli ishlarni hal qilardi.

Xalq sudlarida ko'riluvchi ishlar doirasi juda keng bo'lib, aholining salkam 90 foizi qozilik va biylik sudlariga murojaat qilardi.

Hukumat doiralarining bunday siyosati natijasida aksar hollarda xalq sudyaligiga shariat qonunlari bu yoqda tursin, hatto oddiy huquqni ham yaxshi bilmaydigan odamlar saylanar, buning oqibatida mansabni suiiste'mol qilish va qonunni buzish hollari kelib chiqardi. Ayniqsa, jinoyat turlari bo'yicha ham jazo choralarining aniq chegarasi mavjud emasligi sudyalarga u yoki bu aybdor uchun jazo chorasini tanlashda keng imkoniyat berardi. Xalq sudyalarining qurultoylari ko'pincha bu kasbdagilarning nohaq qarorlarini tasdiqlardi va bu bilan o'z hukmlarining qat'iyligini ta'minlab, xato qarorlar chiqargan sudyalarning mas'uliyatsizligini xaspo'shlardi.

Viloyat va o'lka miqyosida general-gubernator kanselyariyasi va viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlariga ham sudlov funksiyalari berilgan edi. Ular jinoiy va fuqarolik sudi hamda uyezd sudyalari qurultoylari palatalari huquqi doirasida ish olib borardi. Kanselyariyaning sudlov bo'limi shikoyatlarni ko'rib chiqish funksiyasini ham bajarar edi.

Bundan tashqari, Turkistonda muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari ham faoliyat ko'rsatib, ular jinoiy ishlarni ko'rishda «harbiy qarorlar to'plami»ga amal qilardi. Bu komissiyalar huquqni chegaralash, mansabdor shaxslarning o'ldirilishi, rus aholisi tomonidan amalga oshirilgan talonchilik, bosqinchilik va o'ta og'ir jinoyatlar, ruslar va tub aholi vakillari o'rtasidagi «hokimiyatga qarshi», «tartib va osoyishtalikka qarshi qilmishlar bo'yicha» ishlarni ko'rib chiqardi. Ishi ushbu sudlarda ko'rilgan shaxsning taqdiri to'laligicha harbiy amaldorlar istagiga bog'liq edi.

Turkistonni boshqarishda mustamlaka apparatida politsiya xam muhim rol o'ynar edi. U muntazam armiya singari, samoderjavie quroli, uning o'lkadagi manfaatlarining tayanchi va himoyachisi hisoblanardi. Mahalliy ma'muriyatning general-gubernatordan tortib bo'lis boshqaruvchisiga qadar bo'lgan barcha amaldorlari politsiya vakolatlariga ega edi. General-gubernator «mahalliy sharoitga ko'ra zarur va foydali deb topgan har qanday choralarni ko'rish», «siyosiy jihatdan zararli» hisoblangan shaxslarni besh yilgacha muddatga badarg'a qilish va hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatgan taqdirda ularni harbiy sudga berish» huquqiga ega edi.

Viloyat harbiy gubernatorlariga tub aholini «o'z ixtiyoriga ko'ra» hibsga olish huquqi, uyezd boshliqlariga politsiya boshlig'i (ispravnigi) vakolati, shu jumladan polismeysterlik funksiyalari berildi. Qo'qon, Samarqand, Yangi Marg'ilon singari yirik shaharlarda hatto polismeysterlar ham uyezd boshliqlari kabi jazoga tortish huquqlarini oldilar.

Politsiya amaldorlari va politsiya vakolatlariga ega ma'murlar Rossiya samoderjaviesining jinoiy qonunchiligiga ko'ra, ular dastlabki tergovni amalga oshirardilar. Dastlabki tergov jarayonidagi qiynoq va kaltaklashlarga chiday olmay, hatto aybsizlar ham qo'yilgan ayblarga iqrar bo'lardilar.

Ma'muriyat va politsiya organlari turmani muntazam nazoratda tutishardi. O'lkaning barcha yirik shaharlari va hatto qishloqlarida ham harbiy va harbiy bo'lmagan mahkamalar tasarrufida turmalar qurilgan edi. Turkiston o'lkasida turma qurish va ularning ishlab turishi uchun har yili chor g'aznasidan 70-80 ming rubl miqdorida mablag' ajratilardi.

1886-yil yanvarda e'lon qilingan maxsus qonunga binoan, turma ma'muriyati va hatto xususiy pudratchilar ham mahbuslar mehnatidan foydalanish huquqiga ega bo'ldilar. Rossiya imperiyasi ma'muriy tizimining ikkala - markaziy va mintaqaviy tarmog'i ham o'zini xuddi Turkiston xalqlarining manfaatlari va ehtiyojlari haqida qayg'urayotgandek qilib ko'rsatar, amalda chorizm uchun g'oyat muhim bo'lgan bitta vazifa - o'lkani mustamlakaga aylantirishni tezlatish va mustamlaka tuzumini mustahkamlash vazifasini bajarardi.

80-yillarning boshlaridayoq Rossiya hukmron doiralari mustamlaka tuzumini qonuniy rasmiylashtirishni tezlatishga qaror qildi. 80-yillar o'rtalariga kelib ma'muriy o'zboshimchalikka asoslangan «harbiy-xalq» boshqaruvi tizimi Rossiya savdo-sanoat doiralari va mahalliy tadbirkorlarining manfaatlari bilan bog'liq yangicha munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgani ochiq-oydin ko'zga tashlanib qoldi.

Maxsus komissiya o'sha paytgacha to'plangan barcha loyihalar, xatlar va hisobotlar asosida Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi «Nizom»ning beshinchi loyihasini tayyorladi. Mazkur loyiha podsho tomonidan 1886-yil 12-iyunda rasman tasdiqlandi va qonuniy akt tusini olib, oz-moz o'zgartirishlar bilan 1917-yilgacha amalda bo'ldi.

1886-yilgi «Nizom»ga muvofiq Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Umuman, Turkiston general-gubernatorligi 5 viloyat (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti) va 27 uyezdga bo'lib idora qilindi.

1886-yildagi yangi me'yoriy hujjatda «harbiy-xalq» boshqaruvining asosiy tamoyillari saqlanib qoldi. Shu bilan bir vaqtda u mahalliy ma'muriyatning mahkama yo'nalishi, sud amaliyoti sohasidagi huquqlarini chegaraladi va bu chegaralashni hokimiyatning politsiya va jazoga tortish funksiyalarini kengaytirish yo'li bilan qopladi.

1886-yildagi «Nizom»ga ko'ra Turkiston boshqaruv tuzilmalari tarmog'i yangi organ - Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to'ldirildi. Unga viloyatlarning harbiy gubernatorlari, general-gubernator Kanselyariyasining boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabining boshlig'i, G'azna va Nazorat palatalarining boshqaruvchilari majburiy tarzda a'zo edilar. Kengashga dastlab general-gubernator, 1900-yildan boshlab esa uning yordamchisi raislik qildi.

Kengashga boshqaruv amaliyoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan qonunlar taklif qilish huquqi berildi. Bundan tashqari u umumiy ma'muriy xususiyatga ega bo'lgan va yer-soliq qurilishi, fuqarolarning majburiyatlari bilan bog'liq masalalarni ham ko'rib chiqardi.

1886-yildagi «Nizom»ning ishlab chiqilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq o'zgarishlar Turkiston general-gubernatorining tashqi siyosat masalalaridagi vakolatlariga ham daxldor edi. Bu, eng avvalo, Rossiya-Buxoro munosabatlarida o'z aksini topdi, 1886-yil yanvar oyida Buxoroda Tashqi ishlar vazirligining organi hisoblangan Rossiya imperatorining siyosiy agentligi ochildi. Uni boshqargan amaldor Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi rasmiy vakili hisoblanar edi.

Siyosiy agent Buxoro hokimiyati faoliyati ustidan umumiy siyosiy nazoratni amalga oshirib, Rossiya-Buxoro munosabatlarining barcha masalalarini idora qilardi. Shuningdek, Buxoro amirligida bo'lib turgan rus fuqarolarining shaxsiy, mulkiy va savdo manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq turli konsullik majburiyatlarini ham bajarar, xristian diniga mansub xorijiy fuqarolarning manfaatlarini himoya qilar edi. Buxoro hududida rus manzilgohlari yuzaga kelganligi sababli, siyosiy agentlik umumiy ma'muriy va sudlov funksiyalarini ham bajarar edi.

1899-yildan boshlab Turkistondagi barcha tashqi siyosiy masalalar Tashqi ishlar vazirligining nazorati ostiga olindi.

1886-yilgi «Nizom»ning joriy qilinishi bilan mustamlaka ma'muriyatining iqtisod sohasidagi funksiyalarining sekin-asta cheklanish jarayoni boshlandi

1890-yilda Turkiston general-gubernatori huzuridagi moliya vazirligining maxsus topshiriqlari amaldori lavozimi o'rniga bojxona okrugining tashkil qilinishi ham aynan shu maqsadni ko'zlar edi. U Turkistonga chegaradosh barcha mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini nazorat qilardi. 1894-yilda umumimperiya bojxona

hududiga Buxoro va Xiva xonliklari ham kiritildi. 1901 va 1902-yillarda tegishli ravishda Qo‘qon va Samarqand bojxonalari tashkil qilindi. 1912-yil noyabrda Rossiyadagi barcha bojxona muassasalari qayta tuzilishi munosabati bilan Turkiston bojxona okrugi o‘rnida Toshkent bojxona inspektorlik uchastkasi tashkil qilindi. Bojxonalarning tashkil qilinishi Rossiyaning butun O‘rta Osiyo mintaqasidagi bozorlarga mustahkam o‘rnashishi uchun imkon yaratdi.

XIX asr oxirida Turkiston general-gubernatorligining umumiy maydoni 1.738.918 kvadrat kilometrni tashkil qildi. Aholi soni birinchi Umumrossiya aholini ro‘yxatga olish tadbirining to‘liq bo‘lmagan ma‘lumotlariga ko‘ra 5.280.983 kishiga yetdi. Rossiya statistika boshqarmasi to‘plagan ma‘lumotlarga ko‘ra u 1911 yilda 6.492.692 kishini tashkil qildi.

Aholi sonining o‘ssishi, tabiiy o‘ssish hamda Rossiyaning Yevropa qismi, Volgabo‘yi, Sibir, Kavkaz va boshqa mintaqalaridan aholini ko‘chirib keltirish hisobiga ro‘y berdi.

Turkiston aholisining asosini o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar va qoraqalpoqlar tashkil qilardi. Turkistondagi tub xalqlarning umumiy soni yuqorida ko‘rsatilgan manbalarga ko‘ra 1897 yilda 4.986.324, 1911- yilda esa 5.941.604 kishini tashkil qildi.

Ukrain va beloruslarni ham o‘z ichiga olgan rus aholisining umumiy soni 1897 - yilda 197.240, 1911- yilda esa 406.607 kishini tashkil etdi.

Bundan tashqari, Turkiston aholisining etnik tarkibi imperiyaning milliy hududlaridagi vakillar-tatarlar, boshqirdlar, armanlar, gurjilar, litvaliklar, latishlar, polyaklar, hamda qo‘shni sharq mamlakatlari vakillari qoshg‘arlar, taranchilar, uyg‘urlar, forslar, ozarbayjonlar, kurdlar va Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston, Turkiya, Xitoy, Mo‘g‘ilistondan kelganlar bilan boyidi.

Turkiston aholisining 86,17 foizi qishloq joylarida, 13,83 foizi shaharlarda yashardi.

1897-yildagi ro‘yxatga olish hujjatlarida rus aholiga nisbatan dvoryanlar va amaldorlar - 2,1%, shahar ahli va ruhoniylar - 6,5%, dehqonlar - 20%, kazaklar - 8,1%. Dehqonlar va kazaklarning o‘ziga to‘q qatlamlarini ham hisobga olganda, rus aholisining deyarli yarmi Rossiya samoderjaviyesining Turkistondagi mustamlaka apparatining ijtimoiy negizini tashkil qilar edi. U chor armiyasiga tayanib, o‘lkadagi siyosiy va iqtisodiy hayotni boshqarar edi.

1867 - yildan to 1917 - yilga qadar Turkistonda Rossiya imperatori tomonidan tayinlangan 12 ta general-gubernator almashdi, ular: K.P.Kaufman (1867-1882 yillar), M.G.Chernyayev (1882-1884 yillar), N.O.Rozenbax (1884-1888 yillar), A.B.Vrevskiy (1889-1898 yillar), S.M.Duxovskiy (1898-1901yillar), N.A.Ivanov (1901-1904 yillar), N.N.Pvyashov (1904-1905 yillar), D.I.Subotich (1906-yil), N.I.Grodekov (1907-1908 yillar), P.I.Mishenko (1909 - yil), A.B.Samsonov (1909-1913 yillar), A.N.Kuropatkin (1916 - yil 22- iyul - 1917- yil 31 - mart).

Boshqaruv apparatining shaxsiy tarkibi shuni ko‘rsatadagi, Turkistonda o‘zining kelib chiqishi, savodxonlik darajasi, to‘plagan hayotiy tajribasiga ko‘ra Rossiya imperiyasi siyosiy yo‘lini amalga oshirishga maxsus tayyorlangan rahbarlar hokimiyat tepasida turgan.

Turkistonni istilo qilishni boshlagan birinchi kundan boshlab Rossiya imperiyasi o'lkani boylik orttirish manbai deb bildi. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tub mohiyatiga ko'ra mustamlakachilik siyosati bo'lib, u quyidagi maqsadlarni ko'zlar edi:

1. Rossiya sanoatini arzon xomashyo bilan muntazam ta'minlab turish maqsadida paxtachilik, qishloq xo'jaligining sanoatbop mahsulot beradigan sohalarini ishlab chiqarishini kengaytirish va rivojlantirish.

2. Yer islohoti o'tkazish yo'li bilan natural xo'jalikning rivojlanish imkoniyatlarini cheklash.

3. Rus sanoati mahsulotlarini sotish uchun keng bozorlar yaratish.

4. Mahalliy hunarmandchilikning metropoliya to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan raqobat qiladigan sohalarini tugatish.

Chor ma'murlari mazkur maqsadlarni amalga oshirish, o'lkada paxtachilik sanoati uchun xomashyo bazasini yaratish yo'lida mablag'larni ayamadi. Paxtaga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida paxtachilik butun aholining kuchi va e'tiborini o'z girdobiga olgan sohaga aylanib ketdi. Paxta yetishtirishning kengayib borishi bilan xomashyo yetishtirish yo'liga o'tib olgan dehqonlarning ahvoli tobora og'irlashib bordi. Turkistonda 1890-1915 yillarda paxta yetishtirish 73 marta ko'paydi.

Paxta maydonlarining kengayib borishi don, g'alla, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari masalasi va ta'minotida ham qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu vaziyatdan foydalangan rus ma'murlari chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga ham narxlarni o'zlari belgilay boshladilar. G'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish kamayib, ularning bozordagi narxlari muttasil ko'tarilib bordi. Masalan, 1890-yilning boshlarida bug'doy unining bahosi 5 marta oshdi.

Turkiston dehqonlaridan mustabid davlat hisobiga undiriladigan yer solig'ining miqdori 1870-1880 yillarda ikki barobarga yaqin ko'paydi. Undan tashqari, 1995-1910 yillarda o'tkazilgan kadastrlash (xo'jalik va oilalarni ro'yxatga olish) natijasida sharoitga qarab soliq miqdori 0,7 dan 6 martagacha oshdi.

Turkistonda vujudga kelgan moliya muassasalari, jumladan Rossiya davlat banki va tijorat banklari filiallari paxta bilan bog'liq katta foyda keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshirish hamda turli savdo-sanoat firmalari, birlashmalari, o'rtoqliklar, sanoat va temir yo'l qurilishiga sarmoya joylashtirish bilan band bo'ldi.

Shuningdek, general-gubernator ko'rsatmasiga ko'ra tashkil qilingan Turkiston paxta arbitraj qo'mitasi (1891y.) va Qo'qon birja qo'mitasi (1906 y.) ham savdo va sanoat bitimlari, bank operatsiyalari va firmalarga ko'maklashdi.

Turkistonda dehqonchilikni rivojlantirishning asosiy negizi sun'iy sug'orish edi. Shunday bo'lsada, Rossiya hukmron bo'lgan davrda hududda bironta ham ko'zga ko'rinarli sug'orish inshooti qurilmadi.

Rossiya imperiyasi istilo qilgan vaqtda o'lkadagi yer-suv amlok, vaqf va xususiy mulkdan iborat bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik yuritishning asosiy tarmoqlari edi.

Turkiston general-gubernatori Kaufman, o'ziga berilgan «o'lka ustidan boshqaruvni mahalliy sharoitga muvofiq o'zgartirish» huquqidan foydalanib, yer-suv masalasi bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Jumladan, uning farmoyishlariga muvofiq mulk yerlari g'azna hisobiga qisman tortib olindi va mulkdorlarni imtiyozlari bekor qilindi; ularning yerlari amlok yerlari qatori soliqqa tortildi; yer-suv bilan bog'liq nizolar tug'ilgan taqdirda nizo chiqqan paytdagi «yerga egalik holati»ni hisobga olish zarurligi ko'rsatildi hamda murakkab ishlarni xalq sudlarida hal qilishda ushbu omil hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb uqtirildi.

O'lkada yashayotgan ko'chmanchi xalqlarning yerlari davlat mulki deb e'lon qilindi va o'z egalariga cheklanmagan muddatga foydalanishga berildi. 1869-yilda Yer ishlari vazirligi tomonidan tuzilgan qo'mitataklifiga ko'ra mulk yerlarigina xususiy mulk deb tan olinib, qolgan yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi.

Turkiston boyliklarini talash, paxta xomashyosini tashib olib ketish, tayyor sanoat mahsulotlarini olib kelish uchun temir yo'llarni qurishga kirishildi. 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko'rfazidan Chorjo'yga Kaspiy orti temir yo'li qurildi. Bu temir yo'l Qizilarvat va Ashxobod orqali o'tkazilib, 1888-yilda Samarqandga yetkazildi. 1889- yilda Mari va Kushka orqali o'tkazilib, o'sha yili Toshkent hamda Andijonga yetkazildi. 1905-1906 yillarda Toshkent - Orenburg temir yo'li qurib ishga tushirildi. 1912-yilga kelib Farg'ona vodiysida Namangan temir yo'li ishga tushdi.

Temir yo'llarning qurilishi hududning xomashyo, yer usti va yer osti boyliklarini Rossiyaga tashib ketishni osonlashtirdi. Masalan, 1912-yilda temir yo'l orqali Rossiyaga olib chiqib ketilgan tovarlar miqdori 1900 - yildagiga nisbatan salkam 8 marta oshdi.

Turkistonga sanoat mahsulotlarining temir yo'l orqali keltirilishi masalaning ijobiy tomoni sifatida ko'rinsada, keltirilayotgan tovarlar sifat jihatidan jahon bozori talabiga javob bermaganligi uchun boshqa joylarda ularni sotish amrimahol ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Shu bilan birga, arzon sanoat mahsulotlarining tashib keltirilishi shahar aholisining ijtimoiy ahvolini yanada mushkullashtirib, hunarmandlarni xonavayron qildi. Ularning ko'pchiligi shaharda ish topolmay yollanma ishchiga, batrak yoki chorikorga aylandilar. Sanoat korxonalarida ish vaqti 17-18 soat bo'lib, mahalliy ishchilarning kunlik ish haqi ruslarnikidan deyarli ikki baravar kam edi.

Rossiya manfaatlari uchun zarur bo'lgan paxta yetishtirishning kengayib borishi o'lkada xomashyoga dastlabki qayta ishlov beruvchi sohalarni vujudga keltirishni taqozo qildi. Shu boisdan ham bu yerda paxtani qayta ishlash bilan bog'liq korxonalar tashkil etildi. 1900 - yilga kelib Turkistonda xomashyoni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan korxonalarning soni 170 tadan oshib ketdi.

Rossiyaning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati madaniy-ma'naviy sohani ham chetlab o'tmadi. Xoh o'tmishda, xoh bugun bo'lsin boshqa millat, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, ya'ni qaram xalqning tarixiy, madaniy-ma'naviy merosini yo'q qilish, undan judo etish. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini chuqur o'rgangan V.V. Bartoldning Sankt-Peterburg Fanlar Akademiyasi ilmiy kengashida «Turkistonliklar bizning harbiy ustunligimizga tan berishadi, ammo

ma'naviy ustunligimizni tan olishgani yo'q. Vazifa - ana shuni tan oldirishdan iboratdir... To shuni tan olishmas ekan, biz uzil-kesil g'alaba qozondik, deb ayta olmaymiz»¹, - degan maslahatiga amal qilgan chor mustamlakachilari ham, sovet mustamlakachilari ham turkistonliklarni bo'ysundirish vazifasini hal qilishni jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Turkiston aholisini, uning katta qismini tashkil etgan o'zbek xalqini bir necha ming yillik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatidan judo qilish, tarixini soxtalashtirish va ayrim voqea-hodisalarni inkor etishdan boshladilar.

Chor mustamlakachi ma'murlari bu boradagi birinchi vazifani mahalliy aholi bolalarini rus tuzem maktablariga ko'proq jalb etish qilib belgiladi. Chunki, rus amaldorlari maktab va madrasalar faoliyatini o'lkada mustamlakachilik siyosatini yuritishdagi to'siqlardan biri deb bildilar. Shuning uchun ham Turkistondagi madrasa va maktablarda ta'lim usullarini yangilash, ularda dunyoviy ilmlarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish, ta'limni Yevropa mamlakatlari darajasiga yaqinlashtirish to'g'risida ilgari surilgan takliflarni amalga oshirishdan chor hukumati manfaatdor bo'lmagan.

Chor hukumati ma'muriyati mahalliy maktab va madrasalarga nisbatan turli xil kurash usullarini qo'lladi, mahalliy yoshlarga bilim berib kelayotgan musulmon maktablarini rus-tuzem maktablari bilan almashtirishga urindi. Shu bilan birga, jadidlar tashabbusi bilan ochilayotgan, mahalliy xalqning turmush tarziga, ma'naviyatiga mos keladigan yangi uslubdagi maktablarni yopish uchun barcha choralarni ko'rdi.

Chor mustamlakachi ma'murlarining o'lkada madaniy sohada yuritgan siyosati mahalliy xalqlar ma'naviy-madaniy hayotiga salbiy ta'sir qildi. Rossiya imperiyasi mahalliy aholining ma'naviyatini yuksaltirmaslik, ijtimoiy faolligini oshirmaslik, uni o'rta asrlar jaholatparastligi sharoitida saqlab turish choralarini ko'rdi. Rossiya O'rta Osiyo xalqlarini iloji boricha jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda tutishga harakat qildi. Turkiston general-gubernatori N.A.Kuropatkinning: «Biz 50 yil davomida mahalliy aholini taraqqiyotdan, maktab va rus hayotidan uzoqroqda tutib turdik»², - degan so'zlari buning yaqqol dalilidir.

IX.3. Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati, uning bosqichlari, xususiyatlari va ahamiyati.

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Turkiston xalqlari istiloning dastlabki kunlaridanoq o'z mustaqilligi, ozodligi va erki uchun kurashga otlandi. Bu kurash nafaqat Rossiya imperiyasining bosqinchilik urushlari davom etayotgan davrda, balki, Turkiston bosib olinganidan keyin ham to'xtamadi, balki kuchayib bordi.

Rossiya imperiyasining mahalliy mehnatkashlarni ezish, kamsitish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqlarini poymol etish, milliy va diniy e'tiqodlarini mensimaslik asosiga qurilgan talonchilik siyosati tub joy xalqlarining sabr kosasini to'ldirib yubordi va ularning mustamlakachi davlatning istibdodiga qarshi chiqishlariga sabab

¹ Qobulov B. Tuprog'i zar Turkiston / O'zbekiston ovozi», 1993, 9 iyul.

² Choriev Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari. - Toshkent: Sharq, 20-bet.

bo'ldi. Rossiyaning o'lkada yuritgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarning ko'lamiga ko'ra eng yirik quyidagi to'liq bo'lmagan ro'yxatini keltirish mumkin:

- 1868 - yilda-Buxoro amirligida Abdumalik (Katta To'ra) isyoni;
- 1874-1881- yillarda - Xiva xonligida turkmanlar g'alayoni;
- 1875-1876- yillarda - Qo'qon xonligida Po'latxon qo'zg'oloni;
- 1878- yilda - Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni;
- 1879 - yilda - Farg'ona qo'zg'oloni;
- 1880 - yilda - Xo'jand va O'ratepa qo'zg'olonlari;
- 1882 - yilda - Namangan va O'sh qo'zg'olonlari;
- 1882-1885 yillarda - Farg'ona vodiysida dehqonlar harakati;
- 1883 - yilda - Chust qo'zg'oloni;
- 1892 - yilda - Toshkentda «Vabo isyoni»;
- 1893 yil - Namangan va Andijon qo'zg'olonlari;
- 1895-1897-yillar - Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar;
- 1898 yilda - Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo'zg'oloni;
- 1905-1907 yillarda - Samarqandda Nomoz Primqulov boshchiligidagi harakat;
- 1905-1907 yillarda - Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar;
- 1916 - yilda - Turkistonda xalq qo'zg'oloni.

Turkistonda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlarning yuqorida keltirilgan to'liq bo'lmagan ro'yxati tub aholining o'z erki va ozodligi yo'lidagi kurashi uzluksiz davom etganligini ko'rsatib beradi. «O'rta Osiyoning Rossiyaga ixtiyoriy qo'shilganligi» g'oyasining tarafdorlari xalq ommasini Rossiya imperiyasining o'lkada yuritgan mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari mohiyatini soxtalashtirib, bu qo'zg'olonlar Rossiyaga qarshi emas, balki mahalliy amaldorlar, din peshvolari, ulamolarga qarshi ko'tarilgan edi, deb «isbotlamoqchi» bo'ladilar. Aslida Turkiston general-gubernatorligining barcha hududlariga yoyilgan bu qo'zg'olonlar o'lka xalqlarining Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi muqaddas kurashi edi. Rossiya imperiyasiningbu kurashni bostirishga qaratilgan ayovsiz chora-tadbirlari ham bu kurashni so'ndira olmadi.



Turkistonda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlarni keltirib chiqargan sabablari, ko'zlagan maqsadlari, harakatlantiruvchi kuchlari va oqibatlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ularga umumiylik xos ekanligi ko'zga tashlanadi.

Mahalliy xalqni ayovsiz ezish oqibatida aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishi, milliy manfaatlarning inkor qilinishi, milliy g'urur va diniy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash, yerlarni asossiz tortib olish, soliqlar olishdagi suiiste'molchiliklar, saylovlardagi o'zboshimchaliklar, mardikorlikka majburlab jo'natish kabi holatlarni qo'zg'olonlar kelib chiqishining sabablari deb aytish mumkin.

1868-yilda Buxoro amirligida bo'lib o'tgan Abdumalik (Katta To'ra) boshchiligidagi qo'zg'olon rus bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan birinchi xalq ozodlik harakati edi.

1868- yil 2- mayda rus qo'shinlari tomonidan Samarqand bosib olingach Buxoro amiri Mazaffarning o'g'li Abdumalik (Katta To'ra) barcha ozodlik tarafdorlariga boshchilik qilib, ruslarga qarshi kurashish uchun may oyining oxirlarida G'uzordan chiqib, Shahrisabz orqali Samarqandga yo'l oldi. Shahrisabz va Kitob beklari Bobobek hamda Jo'rabeklar Abdumalikka peshvoz chiqib, kenegaslardan tuzilgan g'oziyalar bilan to'ra lashkariga qo'shildi. Ular Taxta Qoracha dovonidan o'tib, Samarqandga yetib bordilar. Chor qo'shinlari tomonidan zabt etilgan Samarqandda oz miqdordagi rus qo'shinlari qoldirilgan edi. Amir lashkarlari esa Zirabuloq ostonasida ruslarga qarshi jangga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

To'ra lashkarlari 1868- yil iyun oyida Samarqandga hujum boshladi. Bu haqdagi habarni eshitgan Turkiston general-gubernatori Kaufman boshchiligidagi harbiy kuchlar Samarqandga yo'l oldi. Rus qo'shinlari kelayotganligi haqidagi habarni eshitgan Shahrisabz va Kitob beklari Samarqandni tashlab chiqib ketdilar. Bundan foydalangan Kaufman qo'shini Samarqandga hujum qilganlarni to'zg'itib yubordi. Shahar ayovsiz talon-taroj qilindi. U o't ichida

qoldi. Xalq qirg'in qilinib, qo'zg'olonda ishtirok etganlikda gumon qilinganlar otib tashlandi.

Bunday mag'lubiyatning asosiy sababi qo'zg'olonchi va vatanparvar kuchlar o'rtasida birdamlikning yo'qligi, yagona rahbarlikning shakllanmaganligi, ozodlik kurashchilarining qurol-yarog'lari o'z davrining zamonaviy va reaktiv moslamali qurollariga ega bo'lgan rus qo'shinlari qurollaridan orqada ekanligi, jang olib borishning avvaldan o'ylangan strategiyasiva taktikasining yo'qligi kabi omillardir.

G'alabadan butunlay umidini uzgan amir Muzaffarxon rus bosqinchilari bilan sulh tuzishga rozi bo'ldi. Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, Rossiya imperiyasiga tobeligini tan olganligi hur fikrli vatanparvarlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Abdumalik (Katta To'ra) bir necha nufuzli beklar bilan birlashib, Muzaffarxon va istilochilarga qarshi kurashni davom

ettirdi. Katta To'ra amir deb e'lon qilindi. Amir va Katta To'ra qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida bo'lib o'tgan jangda Muzaffarxon yengildi. 1868-yilning kuzida amir Turkiston general-gubernatori Kaufmandan qo'zg'olonni bostirishda ko'mak berishini so'radi.



Абдумалик (Катта Тўра)



Jo'rabek



Bobobek

Bunga javoban Kaufman Abdumalik (Katta To'ra) va uning eng ishonchli sarkardalari Jo'rabek, Bobobek, Sulton Sodiq'larga qarshi general Abramov boshchiligidagi qo'shinni jo'natdi. Qo'zg'olonchilar Qarshi ostonasida chor qo'shinidan yengildilar. Jo'rabek va Bobobeklar Shahrisabz va Kitobga chekindilar.

1870- yil 14 - avgustda Kitob shahri bosib olingach, Jo'rabek va Bobobek Qashqar tomon yo'l oldilar. Ular Mahram ostonalarida Xudoyorxon amri bilan hibsga olinib, Rossiya imperiyasi qo'mondonligiga topshirildi.

Turkiston tarixida qurbonlari soniga ko'ra mislsiz bo'lgan yana bir erk va ozodlik harakati Po'latxon qo'zg'oloni (1873-1876 yy.)¹ bo'lib, 1875 - yilning avgustiga kelib u xalq ozodlik harakatiga o'sib o'tdi. Uning siyosiy g'oyasi va maqsadi Turkiston general-gubernatorligi timsolida mustamlakachilarni haydash, Qo'qon xonligining mustaqilligi hamda avvalgi chegaralarini tiklashdan iborat edi.

30.000 kishidan iborat bo'lgan qo'zg'olonchilar Mahram qal'asi ostonasida rus qo'shinlaridan mag'lub bo'ldilar. Rus bosqinchilari Qo'qon, Marg'ilon, O'sh va boshqa hududlarni jangsiz egalladilar. 1875- yil 22- sentyabrda Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman va Nasriddinbek bitimga imzo chekdilar. Kaufman Qo'qon xonligi aholisiga katta miqdorda harbiy tovon soldi. Lekin qo'zg'olon to'ldini to'xtamadi, aksincha Andijonda davom etdi. 1875-yil 2-oktyabrda general-mayor Troitskiy qo'mondonligidagi qo'shinlar Andijon ostonalariga kelib hujum boshladi va shaharni to'pga tutdi. Qo'zg'olon butun Qo'qon xonligiga yoyildi. Nasriddinbek ham otasi kabi Toshkentga qochdi. Po'latxon rasman xon deb e'lon qilinib, taxtga o'tkazildi.

Po'latxon xalq ozodlik kurashini davom ettiradi. Rus qo'shinlari Qo'qon xonligini butunlay bosib olish maqsadida asosiy hujumni Andijonga qaratdi. General Skobelev yo'l-yo'lakay qishloqlarga ayovsiz o't qo'yib xarob qildi. 1876-yilning yanvarida shaharni artilleriyadan o'qqa tutib, uni egalladi. Qo'zg'olonchilardan 20.000 kishi o'ldirildi va u shafqatsizlarcha bostirildi. Qo'zg'olonning mag'lubiyati sabablaridan biri ayrim yirik yer egalarning sotqinlik qilib, dushman tomonga o'tib ketganligidir. Po'latxon asir olinib, 1876-yil 1- martda Marg'ilon shahrida dorga osildi.

Chorizmning Turkistonda amalga oshirayotgan mahalliy mehnatkash aholining manfaatlariga tamoman zid bo'lgan mustamlakachilik siyosati haqli ravishda tub aholi noroziligini yanada kuchaytirdi va tub aholini yangi kurashlarga otlantirdi.

O'lkada ko'tarilgan yirik xalq harakatlaridan biri 1892 - yilda Toshkentda bo'lib o'tgan, «Vabo isyoni» nomini olgan qo'zg'olon edi. Bu qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda chor ma'murlarining o'lkada vabo kasalining tarqalishini oldini olish uchun ko'rgan choralariga qarshi harakat deb ta'riflangan bo'lsada, aslida bu isyon shahar mehnatkashlarining ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi, chor amaldorlarining o'z mansablarini suiiste'mol qilishi, narx-navolarning to'xtovsiz oshib borishidan norozilik tufayli kelib chiqqan. 2.000 dan ortiq kishining yostig'ini quritgan vabo kasaliga qarshi mustamlakachi ma'murlar ko'rgan choralar bir bahona bo'lgan xolos.

1892-yilda Afg'onistonda tarqalgan vabo shu yilning 7- iyuniga kelib Toshkentga ham yetib keldi. Rossiya imperiyasi ma'murlari mahalliy aholining milliy va diniy an'analarini hisobga olmagan holda vaboga qarshi chora-tadbirlar belgiladilar. Kasallik tarqalganligi uchun shaharga kirish va chiqish taqiqlandi.

R.E.Xoliqova.Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Oquv qollanma,Toshkent,"Fan va texnologiya",2017,70-b

Shahardagi 12 ta qabriston yopilib, va'da berilgan 4 qabriston o'rniga faqat bitta qabriston ochildi. Epidemiya stansiyasi ruxsatisiz dafn etilgan mayyitlar qabrlardan qazib olinib, boshqa joylarga tashib ketildi. Shahar murdalarga to'lib ketganligi sababli ularni ko'mishga ruxsat olish uchun 3-4 kunlab kutishga to'g'ri kelar edi. Bu musulmonchilik urf-odatlariga to'g'ri kelmas edi.

Rossiya imperiyasining bu tadbirlaridan norozi bo'lgan shahar aholisi 20-iyun kuni shaharning Xonaqo masjidi yonida to'plandi va shikoyat xati yozib, uni shahar hokimiyatiga yetkazish uchun uch kishidan iborat vakil saylandi.

Biroq 23-iyunga kelib shahardagi vaziyat og'irlashdi va 500 kishilik olomon shahar boshlig'ining uyi tomon yura boshladi. Buni eshitgan Putinsev qo'zg'olonchilar bilan uchrashdi. Qo'zg'olonni ruslarga qarshi deb o'ylagan polkovnik Putinsev kazaklar polkini yordamga chaqirdi. Aholi bilan chor qo'shinlari o'rtasidagi to'qnashuvda 10 kishi halok bo'ldi, 80 kishi Eski shaharga qochaturib Anhorga cho'kib ketdi.

Podsho amaldorlari qo'zg'olonchilardan ayovsiz o'ch oldi. Ushlangan 60 kishidan 8 tasi Sibirga surgun qilindi, 15 kishi 2 yil muddatga mahbuslar rotasiga yuborildi, 2 kishi olti oyga qamoq jazosiga hukm qilindi.

Toshkentda bo'lib o'tgan, «Vabo isyoni»ning ta'siri butun Turkiston o'lkasi bo'ylab yoyildi. Chunki u mustamlakachilik zulmi ostida ezilayotgan xalqlarning intilishlarini o'zida ifodalar edi.

1898- yil Andijonda Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritayotgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi yana bir ozodlik harakati bo'lib o'tdi. Tarixda «Andijon qo'zg'oloni» nomini olgan, diniy bayroq ostida bo'lib o'tgan bu qo'zg'olonga mingtepalik Muhammad Ali xalfa Sobir so'fi, ya'ni Muhammadali eshon - «Dukchi eshon» boshchilik qildi.

Muhammadali eshon o'z qishlog'i Mingtepadagina emas, balki Farg'ona vodiysi aholisi, qirg'iz elatlarida ham taniqli, eng hurmatli inson edi. U ilmiy, islom dinining asoslarini mukammal egallagan, Buxoro va Shahrisabzda tahsil olib, Makka, Hindistonda piru ustodlardan ta'lim olgan shaxs edi. U iqtisodiy baquvvat xo'jalikka ega bo'lib, nazr-niyozlari hisobidan kambag'allar, beva bechoralarga g'amxo'rlik qilib kelgan. Eshonga qo'l bergan muridlar soni 20 ming kishidan ortiq bo'lgan.

Andijon qo'zg'olonini keltirib chiqargan sabablar haqida Muhammadali eshonning zamondoshi Fozilbek Otabek o'g'li «Dukchi eshon voqeasi» kitobida quyidagilarni yozadi:

- ma'muriyat oq podshoning nomini xutbaga qo'shib o'qishni talab qildi va Qur'oni Karimdan kofirlar to'g'risidagi oyatlarni chiqarib tashlashga farmoyish berdi;

- qayerda bo'lmasin pristavning o'tganini beixtiyor ko'rmay qolib o'rnidan turmagan musulmonlar kaltaklandi, qamaldi;

- qora qirg'izlarning yerlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi, o'zlari esa tog'larga haydab yuborildi;

- cho'b, og'iz, tuyuq puli kabi bir qator jarimalar o'ylab topilib, mehnatkashlarning mollari tortib olindi va h.k.¹.

¹Фозилбек Отабек угли.Дукчи Эшон вокеаси.-Тошкент.1992.30-31 бетлар.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablar mustamlakachilik zulmining tobora kuchayib borganligini ko'rsatib beradi. Bunday sharoitda mahalliy xalqning noroziligi yanada chuqurlashib, sabr-bardoshi tugab bordi. Natijada Andijon shahrining Mingtepa qishlog'ida qo'zg'olon boshlandi.

Muhammadali eshon chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi Farg'ona aholisini birlashtirish va uni ag'darib tashlashga harakat qildi. Shuning uchun Dukchi eshon Farg'onaning turli shaharlari va qishloqlari, jumladan Andijon, O'sh, Marg'ilon, Namangandagi eng nufuzli odamlarga maxfiy xatlar jo'natib, milliy g'azot vaqti yetib kelganligini ta'kidlab, ularni birgalikdagi harakatga da'vat qildi. Ma'lum tayyorgarlikdan keyin 1898-yilning 17-mayida Mingtepa (hozirgi Marhamat tumani) dan 200 nafar otliq, 300 nafar piyoda eshon boshchiligida Andijonga yurish boshladi. Atrofdagi qishloqlardan kelib qo'shilayotganlar hisobiga qo'zg'olonchilar soni o'sib bordi.

Qo'zg'olonchilar shahardagi harbiy garnizonga hujum qilib, 23 ta askarni o'ldirdilar, 24 tasini yarador qildilar. Bu harakatni Quva, Asaka, Shahrixon, Aravan qishloqlari, O'sh, Marg'ilon, Namangan shaharlari aholisi quvvatladilar. Biroq tez orada o'ziga kelgan chor hukumati ma'murlari isyonchilardan qonli o'ch oldilar. Dukchi eshon ta'magir, amalparast sotqinlarning xoinligi tufayli Arslonbob qishlog'ida qo'lga olinib, 1898- yil 12- iyunda dorga osib o'ldirildi.

Qo'zg'olonda ishtirok etganlar ustidan boshlangan sud jarayoni uch oy davom etdi. Harbiy sud 362 kishini osib o'ldirishga, 351 kishini turli muddatga qamoq jazosiga, 15 kishini oilasi bilan Sibir surguniga hukm qildi. Ammo, chor ma'murlari yana jahon ommasi oldida sharmanda bo'lishdan cho'chib, o'lim jazosini surgun bilan almashtirdi.

Qo'zg'olon markazi deb topilgan Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlari imperator Nikolay II ko'rsatmasiga ko'ra Dukchi eshon yurgan yo'li degan bahona bilan uch kun to'pdan o'qqa tutilib, yer bilan yakson qilindi. Mingtepa qishlog'i o'rnida 450 xonadonga mo'ljallangan yevropacha yangi uylar qurildi.

Muhammadali eshon yashagan uy o'rniga rus cherkovi qurish rejalashtirildi. Xo'jand qishlog'iga Duxovskiy nomi berildi. Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, u mustamlakachilik tuzumining zulmkor qiyofasini ochib berdi va taraqqiyparvar milliy ziyolilarning ko'zini ochdi. Ular Vatanning istiqbolga erishishi uchun xalqni zamonaviy ilg'or bilimlar bilan qurollantirish va uni siyosiy jihatdan birlashtirish zarurligini tushunib yetdilar.

Chor ma'murlari «Andijon qo'zg'oloni»ni qonga botirgan bo'lsalarda, o'lka xalqlarining milliy-ozodlik kurashi hech ham to'xtamadi. Ulardan biri 1905-1907 yillarda chor ma'murlari va mahalliy boylar, savdogarlarning zo'ravonliklari, man-manliklariga qarshi Samarqand viloyatida bo'lib o'tgan harakatdir. Bu harakatga Nomoz Primqulov boshchilik qildi. Harakatning maqsadi boylarni jilovlab qo'yish, kambag'al aholini himoya qilib, ijtimoiy adolatni tiklashga qaratilgan edi. Ammo bu harakat ham uning rahbari Nomoz Primqulov vijdonini sotgan xoinlar tomonidan tutib berilishi natijasida mag'lubiyatga uchradi.

1916-yil xalq qo'zg'oloni Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakatlarning eng yuqori nuqtasi, eng fojialisi va o'zining ommaviyligi jihatidan eng

ko'lamini kengidir. U Birinchi jahon urushining Turkistondagi fojiali aks-sadosi tarzida ham namoyon bo'ldi.

1914-yilda Birinchi jahon urushiga qo'shilgan Rossiya o'z imperialistik manfaatlarini ko'zlab, u bilan bog'liq muammolarini mustamlakalarining zimmasiga yuklashga harakat qildi. Chor hukumatining bu xatti-harakatlari o'lka aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yanada yomonlashtirdi. Jumladan, Turkiston paxtasining xarid narxlari kamaytirildi. Bundan, birinchi navbatda, mayda va o'rtahol mahalliy mehnatkashlar ziyon ko'rdilar. Turkistonga olib kelinadigan g'alla miqdori bir necha marta kamayib, uning narxi bir necha barobar oshib ketdi. Yangi harbiy soliq joriy qilindi.

Podsho Nikolay IIning mahalliy xalqni front orti ishlariga jalb qilish haqidagi 1916-yil 25-iyundagi «Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi armiya rayonlarida harbiy inshootlar va shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday og'ir ishlarga jalb qilish» nomli farmoni vujudga kelgan vaziyatni yanada murakkablashtirdi va turkistonliklarning sabr kosasini to'ldirdi. Farmonga ko'ra, Turkistondan 19-43 Yoshdagi 250 ming erkak kishi mardikorlikka olinishi lozim edi.

Mardikorlikka olishning butun og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushdi. Mahalliy ma'murlar katta poralar evaziga boylar va amaldor to'ralarning bolalarini mardikorlikdan qoldirar, kambag'al oilalarning bolalarini ro'yxatga tirkar edilar. Turkiston general-gubernatorining mahalliy millat vakillariga o'z o'rniga boshqa odamni yollab mardikorlikka jo'natishga ruxsat berishi boylar, amaldorlarning turli suiiste'molliklariga keng yo'l ochib berdi. Bu mehnatkashlarning shusiz ham og'ir bo'lgan ahvolini mushkullashtirib, ularning chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi qo'zg'alishiga turtki bo'ldi. 1916 - yil 4- iyulda Xo'jand, undan so'ng Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda mardikorlikka olishga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketdi.

Jizzax qo'zg'oloni ularning eng shiddatlilaridan edi. Qo'zg'olonga Jizzaxning eng e'tiborli kishilaridan Nazirxo'ja Abdusalomov, o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lgan Ziyoqori Abdullayev, shaharning taniqli oqsoqollaridan Muhammadrahim Abdurahmonovlar rahbarlik qildilar. Qo'zg'olonchilar nafaqat yon atrofdagi qishloqlar, balki Toshkent va Samarqanddagi mehnatkashlar bilan ham aloqa bog'ladilar, ularning ham o'z harakatlarini qo'llab-quvvatlashlarini kutdilar.

Qonli to'qnashuv 13- iyulda boshlanib, 8 kun davom etdi.

Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun Toshkentdan bir rota, sapyorlar vzvodi, to'rt to'pli batareya; Samarqanddan bir rotadan iborat maxsus jazo otryadi, 90 kishilik maxsus ofitserlar rotasi; Orenburgdan 100 kishilik kazaklar jazo otryadi jo'natildi.

Yana Toshkentdan polkovnik Ivanov boshchiligida 12 ta rota, 6 ta to'p, 3 ta kazak otryadi, maxsus sapyorlar rotasidan iborat jazo otryadi yuborildi. Afsuski, kuchlar nisbati teng emas edi, to'plar va pulemyotlar o'qlariga qarshi turish og'ir edi.

Jazo otryadi shaharda ko'tarilgan qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Harbiylar eski Jizzaxni to'pga tutib, unga o't qo'yib, kultepaga aylantirdilar, qanchadan-qancha gunohsiz kishilarni o'ldirib, isyonchilardan qonli o'ch olindi.

Jizzax qo'zg'oloni bo'yicha mingga yaqin kishi qamoqqa olindi. Ulardan 151 kishining ishi sudga berildi. Shulardan 84 kishi osib o'ldirishga hukm qilindi. Keyinroq bu jazo «yumshatilib», boshqa jazolar bilan almashtirildi. Shu tariqa Jizzax qo'zg'oloni fojiali yakunlandi.

1916-yil qo'zg'oloni Turkiston aholisining Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan eng katta milliy ozodlik va ommaviy xalq harakati edi.

Murosasiz kurashlar bilan o'tgan 1916-yildagi qo'zg'olonlar chor hukumati ma'muriyatini tahlikaga solib qo'ydi. Mardikorlikka olish bo'yicha ilgarigi mo'ljal 50.000 kishiga kamaytirildi va 200.000 kishi qilib belgilanib, jalb qilish muddati uzaytirildi. Amalda 123.000 mardikor safarbar qilindi.

Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari qanchalik shafqatsizlik bilan ayovsiz bostirilmasin, mahalliy aholining erk va ozodlikka bo'lgan intilishini so'ndira olmadi, aksincha, xalqqa o'zligini anglatdi, uni ozodlikka erishish g'oyasi atrofida jipslashtirdi.

IX.4. Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi, uning mohiyati, maqsadlari, xususiyatlari va atoqli vakillari.

Qo'qon xonligining hududi, shuningdek, Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Buxoro amirligi va Xiva xonligining hududlari hisobiga tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligi ma'murlari yuritgan mustamlakachilik siyosati oqibatida XIX asrning oxirlariga kelib o'lkada fojiali tanglik namoyon bo'la boshladi.

Qo'qon xonligida milliy davlatchilik barham topgan bo'lsa, Buxoro amirligi va Xiva xonligida nomigagina mustaqil hukmronlik saqlanib qolgan edi. Agar Buxoro amirligi 1868-yil, Xiva xonligi 1873-yil shartnomalari bilan Rossiyaning vassaliga aylanib, ularning siyosiy huquqlari cheklangan bo'lsa, XX asrning boshlariga kelib bu o'zbek davlatlari nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham Rossiya imperiyasi qaramligiga tushib qoldi.

O'lkada to'planib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar tufayli mahalliy xalqning turmush darajasi tobora pasayib bordi. Xalqning o'z erki, ozodligi va haq-huquqlari yo'lidagi kurashlari muvaffaqiyatsiz tugadi va ular o'ta shafqatsizlik bilan bostirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat mahalliy aholining vatanparvar, ma'rifatparvar ziyolilari va ulamolarini tashvishga solmasdan, o'ylantirmasdan qolmadi. Ular o'lkadagi voqelikni, uni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilib, ahvol shu tarzda davom etishi mumkin emasligini tushunib yetdilar. Natijada Turkiston hayotidagi inqiroz, chor Rossiyasining Turkistonda o'rnatgan mustamlakachilik tuzumi, sotqin mahalliy amaldorlar, umuman, mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumga qarshi mazmun-mohiyatiga ko'ra uch yo'nalishdagi harakatlar yuzaga keldi. Ulardan birinchisi - o'z asarlari orqali real voqelikni, jamiyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan shoir va yozuvchilar ijodi bo'lsa, ikkinchisi - mahalliy aholini taraqqiyotga erishish g'oyasi asosida birlashtirishga harakat qilgan jadidlar harakati va uchinchisi - mavjud tuzumni inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishni,

ya'ni hokimiyatni qurol kuchi bilan qo'lga olishni maqsad qilib olgan sotsial-demokratlar va boshqa rus tilli kishilar tashkilotlarining harakatidir.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston aholisining 95 foizini tub aholi vakillari tashkil qilar edi. Ularning ijtimoiy ongini o'stirish, o'zligini anglash, erk va ozodlik, o'z haq-huquqlarini himoya qilishga targ'ib qilish, ularda demokratik qarashlarni shakllantirishda Ahmad Donish, Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq), Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Avaz O'tar, Ubaydulla Solih Zavqiy kabi birinchi yo'nalishdagi ijodkorlarning hissasi beqiyosdir. Ular o'zlarining asarlari orqali mustamlakachilik zulmi ostida qolgan Turkiston xalqini g'aflat uyqusidan uyg'otishga harakat qildilar.

Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan, o'lkaning ijtimoiy va madaniy hayotini yangilash, uni taraqqiyotning yuksak bosqichlariga olib chiqish uchun kurash harakati sifatida yuzaga kelgan ikkinchi yo'nalishdagi ijtimoiy harakat jadidlik harakati edi.

Maorifni isloh qilish, ta'limdan eskilik sarqitlarini chiqarib tashlash, yangi imloni joriy qilish, taraqqiy etgan dunyoning ilg'or ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish dasturi bilan chiqqan, ya'ni oddiy ma'rifatchilikdan boshlangan jadidlik harakati 1917-yilning boshlarida siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida mahalliy xalq ziyolilari Yevropaning Rossiya, Turkiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlariga tez-tez safar qilib turdilar. Safar davomida ular u yerlardagi yuksak rivojlangan iqtisodiyot, madaniyat bilan tanishdilar va bu yutuqlar



bildiradi.

Shuni ko'rsatib o'tish joizki, jadidlar islom dini asoslari va uning shariati qoidalarini yaxshi bilganlar. Jadidlikning paydo bo'lishida islomdagi diniy-dunyoviylikning, ilm olishning farz darajasiga ko'tarilganligining o'zni katta bo'ldi. Bu harakat islomdagi taraqqiyotparvarlik, ilm-fanga rag'bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko'rinishi sifatida paydo bo'ldi.

Jadidlikning paydo bo'lishi va rivojlanishida Sharq va G'arb mamlakatlarida sodir bo'lgan demokratik va milliy-ozodlik harakatlarining ta'siri katta bo'ldi. Bular:

Rossiyada XIX asrning 90-yillaridan boshlanib 1917 - yil fevralida g'alabaga erishgan sotsial - demokratik harakati, Sharq mamlakatlaridan Turkiyadagi 1908-yil inqilobi, Hindistondagi mustamlakachilikka qarshi 1905-1908 yillar harakati, Erondagi 1905-1911 yillar konstitutsiyaviy harakatlaridir.

Jadidlik harakatiga qrimlik ma'rifatparvar Ismoilbey G'aspirali (1851-1914) ning qarashlari va g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi. Ismoilbey Rossiyaning markaziy shaharlari, Istambul, Vena, Myunxen, Shtutgart kabi shaharlarda bo'lib, Fransiyaning Sorbonna universitetida o'qiydi. Taraqqiyot bobida nafaqat musulmon sharqidan, hatto Rossiyadan ham ancha ilgari ketgan Yevropa Ismoilbey G'aspiralining dunyoqarashini o'zgartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1881-yilda chop etilgan «Rossiya musulmonlari» kitobida G'aspiralining quyidagi g'oyaviy qarashlari ilgari surildi:

- Rossiya ma'muriyati musulmonlarni atayin taraqqiyotdan, ilm-ma'rifatdan uzoqda tutayotganligi, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzayotganligi;

- musulmonlarning hayotini rus tili emas, balki anglash oson, eng ta'sirchan va tushunarli bo'lgan ona tilida o'zlashtiriladigan ilm-fangina o'zgartirishi mumkinligi, musulmonlarning ta'lim tizimi zamon talabidan orqada qolganligi;

- musulmonlarning Rossiyani, uning hayoti va qonunlarini o'rganishlari, tor dunyoqarashlarini yangilashlari, hayotni jonlantiruvchi bilimga ega bo'lishlari uchun imkon yaratish lozimligi;

- Rossiya tarkibida yashayotgan turkiy xalqlarning amaldagi teng huquqliligini ta'minlash uchun ularning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligi, aks holda, ular o'zligini yo'qotishi mumkinligi;

- taraqqiyot, madaniyatga erishish, adolat o'rnatish uchun jahondagi tartibni buzishga, sotsialistik inqilobga hojat yo'qligini, aks holda, katta qiyinchiliklarga duch kelinishi.



Абдулла Қодирий (1894-1938)

Umuman aytganda, Ismoilbey G'aspirali g'oyalari o'z mohiyatiga ko'ra Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi qaratilgan bo'lib, yuksak taraqqiyotga milliylikni saqlagan holda erishishga chaqiriq bo'lib maydonga chiqdi.

Tabiiyki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga qarashli musulmon rayonlar bilan yaqin aloqalari saqlanib qoldi. U yerdan Turkistonga Boxchasaroydan «Tarjimon»,



Махмудхўжа Бехбудий
(1875-1919)

Qozondan «Vaqt» va «Yulduz», Astraxandan «Idil», Bokudan «Taraqqiy» va «Ittifoq» gazetlari, Orenburgdan «Sho'ro» va «Chuquch», Tiflisdan «Mulla Nasriddin» kabi jurnallar kelib turar edi. Ushbu matbuot nashrlari sahifalarida musulmon dunyosidagi siyosat, iqtisod va madaniyat

to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari, bir vaqtlar qudratli bo'lgan Sharq mamlakatlarining G'arb davlatlari tomonidan mustamlaka qilinishi masalalari

ko'tarilar, xalq ta'limini modernizatsiya qilish, Rossiyaning barcha musulmon maktablarida ta'limni yagona adabiy tilga o'tkazish, o'z ona tilining obro'sini ko'tarish, o'z ma'naviy qadriyatlarini saqlash va boyitish kabi dolzarb masalalar ko'tarilar edi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarning barchasi Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi, albatta. Shu bilan birga aytish joizki, Turkistonda jadidlik, ya'ni taraqqiyparvarlik harakatiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitratlar asos soldilar va bu harakatga rahbarlik qildilar.

Jadidlar nafaqat milliy maorifni isloh qilish, balki XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatining kuchayishida ham muhim rol o'ynadilar.

Sovet tarixshunosligida «milliy burjua harakati» deb ko'rsatib kelingan Turkiston jadidlari faoliyatini ular ilgari surgan g'oyalarning mazmun-mohiyati, maqsadlari, xususiyatlariga ko'ra ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichga XIX asr oxiridan-1917-yilgacha va ikkinchi bosqichga 1917-yil fevraldan-1929-yilgacha bo'lgan davrni kiritish mumkin.

Birinchi bosqich jadidlik harakatining vujudga kelishi, ularning tashkiliy va g'oyaviy jihatdan shakllanishi davri bo'lib, bu davrda hali uyushmagan jadidlar islom ta'limotini aqidaparastlikdan holi qilish, zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan ta'lim tizimini isloh qilish, ma'rifatparvarlik faoliyatini maqsad qilib qo'yidilar. Ular Turkistonning ilg'or mamlakatlaridan ortda qolishining sababi o'lka ijtimoiy-madaniy hayotida mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmronligi, maktab va madrasa ta'limiga e'tibor berilmayotganligi, ularning mutaassib ruhoniylar ixtiyorida



Абдулла Авлоний (1878-1934)

ekanligi, o'qitish usullarining qoloqligi, aniq maqsadli dasturlarning yo'qligida deb bildilar. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ilgari surildi:

- ta'lim usulini o'zgartirib, shu davrga qadar qo'llanib kelayotgan «harfdan - tovushga» usulidan samarali «tovushdan - harfga» o'tish va o'quv rejalarida dunyoviy bilimlarning yetakchi o'rin egallashini ta'minlash;

- yoshlar tarbiyasi va aholining ma'naviyatini shakllantirishda islom ta'limotiga asoslanish. Bu jarayonda turli sharhlarga suyanmaslik, balki Qur'oni Karim, hadislar va shariat me'yorlarini asl

manbalar asosida tahlil qilish; ulardagi qoidalariga

ko'r-ko'rona amal qilmasdan, ularni inson manfaati va taraqqiyoti uchun xizmat qildirish;

- aholini ilg'or mamlakatlardagi ijtimoiy hayotning yutuqlari bilan tanishtirish orqali jaholatdan qutqarish, ularni g'aflat uyqusidan uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan ommaviy axborot vositalarini yaratish, omma orasida madaniy-oqartuv ishlarini olib borish.

Jadidlik harakatining Turkistondagi taniqli vakillari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Karim Norbekov, To‘lagan Xo‘jaumarov (Tavallo), Shokirjon Rahimiy, Abdulrauf Muzaffarzoda, Muhammad Poshshaxo‘jayev, Ashurali Zohiriy va boshqalar bor edi.

Jadidlar XIX asr oxirlaridan boshlab o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etish va xalq ta’limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha «usuli jadid» - yangi usuldagi maktablarining keng tarmog‘ini tashkil qildilar. Bu maktablarda diniy fanlardan tashqari arifmetika, geometriya, mantiq, tarix, geografiya, ona tili, ashula, jismoniy tarbiya o‘qitilar, shuningdek, rus, arab va fors tillari o‘rgatilar edi.

Dastlab bu maktablarda o‘qitish jarayonida tatar va ozarbayjon ma’rifatchilarining darslik va qo‘llanmalaridan foydalanilgan bo‘lsa, maorifni isloh qilish harakati rivojlanishi bilan jadidlar o‘z darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yozib, chop etish ishini yo‘lga qo‘ydilar. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy «Alifboi maktabi islomiya», «Madhali jug‘rofiya umroni», «Kitob ul-Atfal» darsliklari, Turkiston, Buxoro va Xiva xaritalarini tuzdi.

A. Shokiriy Firdavsiydan Krilovgacha bo‘lgan jahon adabiyoti klassiklarining qisqa, biroq ibratli hikoyalaridan tuzilgan «Rahnomai Savat» (Bolalarga nasihatlar), «Havoiiji diniya» (Diniy bilimlar), «Jamul hikoyat» (Hikoyalar to‘plami) kitoblarini yaratdi.

Turkiston jadidlarining yorqin vakillaridan biri Abdulla Avloniy yozgan «Adabiyot» va «Birinchi muallim» darsliklari 1917- yilgacha 4-5 marta qayta nashr qilindi.

Jadidchilik harakatining yana bir namoyandasi Ishoqxon Ibrat shior va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida umrini Vatan va millat manfaatiga qaratdi. Ishoqxon Ibrat 1862 yili Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ildi. Uning ota-onalari Junaydullaxo‘ja va Hurbibi davrining o‘qimishli kishilaridan bo‘lganlar. Ishoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o‘qidi, ammo onasining qo‘lida savodini chiqardi. Adabiyot va san’atga zo‘r muhabbat qo‘ygan Ishoqxonni o‘qishni davom ettirish uchun Qo‘qonga yubordilar. U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga 1878 yili o‘qishga kiradi. Ishoqxon Ibratning Qo‘qon madrasasida tahsil ko‘rgan yillari (1878-1886) o‘zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifda tub sifat o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan davrga to‘g‘ri keladi. Ishoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadi. U o‘qish davomida buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil



Абдукодир Шакурий (1875-1943)



tarzda qunt bilan mutoalaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi. U rus va o'zbek tillarida chiqadigan Turkistonning ilk gazetalari "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkestanskiy vedomosti" hamda Turkiston o'lkasida yangi tarqala boshlagan Ismoilbek Gaspiralinig "Tarjimon" gazetasi bilan birinchi marta Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlari tanishdi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Ishoqxon tomonidan tashkil qilingan "Ishoqiya" kutubxonasida "Tarjimon" gazetasining hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo'lgan. Ishoqxon to'ra Ibrat 1886 yili Qo'qon madrasasini tugatib, o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keladi. O'z faoliyatining ilg'or maorifchisi sifatida ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi: o'sha yili o'z qishlog'ida maktab ochadi. Uning maktabi "usuli qadim" ("usuli tahajji"), ya'ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi.

Ibrat o'zining "Lug'ati sittati alsina", "Jome' ul xutut" va "Tarixi Farg'ona" asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya'ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib boradi. Biroq onaizoriga o'z vataniga yana qaytib kelish nasib etmadi. Onasi Hurbibi Jidda shahrida o'pka shamollash kasali bilan vafot etdi.

Ishoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatini davom ettirdi. Shu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Evropaning markaziy shaharida bo'ldi. Ancha vaqt Afg'onistonning Qobul, Arabistonning Jidda kabi katta shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashadi. Bu erda ko'p ishlatiladigan arba' lisonni, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hindu-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rgandi. Chet ellarda u Sharq va G'arb xalqlari hayoti, madaniyati va san'atini muqoyasa etish imkoniga ega bo'ldi. Evropaning ilg'or ilm-fanini yaqindan o'rgandi, ilmiy asarlar uchun qimmatli materiallar to'pladi.



Исоқхон Тўра Ибрат (1862-1937)

U Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G'arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o'rgandi. Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Ishoqxon Ibrat bu muhim masalada o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sarcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sittati alsina" ("Olti tilli lug'at") nomli lug'at kitobini yaratdi.

Olimning ushbu asari XIX asrning 90-yillari o'rtalaridayoq, muallifning chet el safaridan qaytib kelishi bilan tugatilgan bo'lsada, lekin mahalliy mualliflar asarlarining ta'qib ostiga olinishi, chor mustamlakachilari tomonidan Turkistonda o'rnatilgan qattiq nazorat (senzura) tufayli asar ancha kechikib-1901 yili bosmadan chiqdi. "Lug'ati sittati alsina" bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901 yili Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasidan nashrdan chiqdi. Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Ishoqxon Ibrat ancha mukammal "Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarida muallif yozuvlarining eng ibtidoiysi-

piktografik yozuvlardan toʻsonggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib oʻtgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Olimning mazkur asari katta hajmda -132 betdan iborat boʻlgan, 1912 yili oʻz bosmaxonasi-“Matbaa Ishoqiya”da nashr qilindi¹.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbek tiliga davlat maqomi berilganing oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida til bilishning ahamiyati xaqida toʻxtalib shunday degan edi: “Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulugʻ alloma, XX asr boshida olti tilli-oʻzbek, arab, fors, xind, turk va rus tillarida lugʻat tuzgan Isxoqxon Ibratning mana bu xikmatli soʻzlarini eslatmoqchiman.” Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun saʼyi –xarakat qilsinlar, lekin avval oʻz ona tilini koʻzlariga toʻtiyo qilib, extirom koʻrsatsinlar. Zero, oʻz tiliga sadoqat-bu vataniy ishdur”

Jadid maktablari oʻzining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholining eʼtiborini qozondi va tez orada koʻpayib bordi. Chunki, bu maktablarda bolalar bir-ikki yilda toʻla savod chiqarib, mukammal oʻqish va yozishni oʻzlashtirib olar edilar. Eski anʼanaviy maktablarda buning uchun besh-olti yil oʻqish kerak boʻlar edi. Shunga qaramay, aholini xurofotda saqlashdan manfaatdor jaholatparast ruhoniylar jadid maktablarining faoliyatiga qarshilik koʻrsatdilar.

Rossiya imperiyasining mustamlakachi maʼmuriyati esa vaziyatni qoʻldan chiqarmaslik uchun 1908-yildan keyin bu maktablarni qattiq nazorat ostiga oldi.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bogʻliq gʻoyalarni xalqqa yetkazish, ularning madaniy-maʼrifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida oʻz gazeta va jurnallarini nashr qilishga harakat qildilar. Jumladan, Maxmudxoʻja Behbudiy 1913-yildan boshlab «Samarqand» gazetasini chop qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta «Oyna» jurnaliga aylantirildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston», Qoʻqonda «Sadoi Fargʻona», Buxoroda «Buxoroi sharif», «Turon» kabi oʻnlab gazeta va jurnallar nashr etila boshladi.

Jadid matbuoti va jurnalistikasi mahalliy aholining siyosiy va milliy ongini shakllantirish, madaniy-maʼrifiy saviyasini oʻstirishda katta ahamiyat kasb etdi. Matbuot nashrlari faqat dunyoda roʻy berayotgan voqealar haqida maʼlumot berib qolmay, ularga oʻz munosabatini ham bildirar edi. Jumladan, 1905-1907 yil voqealari, shahar dumasini va undagi Turkiston vakillari faoliyati, mahalliy aholi hayotidagi eski va zararli urf-odatlarini tanqid qilar, Yosh avlodni oʻqib-oʻrgatish va tarbiyalash masalalariga koʻp eʼtibor qaratar edi.

Birinchi soni 1914- yil 1 - aprelda nashrdan chiqqan «Sadoi Turkiston» gazetasini Turkiston aholisini gʻaflat uyqusidan uygʻotib, asriy jaholatdan xalos etishning, madaniy-maʼrifiy uygʻonishning bosh targʻibotchisi boʻldi.

Jadid matbuotida tarixiy mavzular, xalqning milliy oʻzligini saqlash va oʻstirish, oʻzbek tili masalalariga doir maqolalarga ham keng oʻrin berildi. Turkiston jadidlarining yetakchisi Maxmudxoʻja Behbudiyning «Muhtaram yoshlarga murojaat», «Turkiston tarixi kerak», «Ikki emas toʻrt til lozim», «Til masalasi», «Sart» soʻzi majhuldir», «Sart» soʻzi maʼlum boʻlmadi», «Duma va Turkiston musulmonlari» kabi maqolalarida xalq maorifi va milliy uygʻonishga doir masalalar

¹ Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият. 2005 йил. Б-5-14.

ko'tarilib, ona tilining ahamiyati va arab, fors hamda rus tillarini o'rganish zarurligi, «Turkiston tarixi»ni yaratish payti kelgani, barcha taraqqiyparvar kuchlarni milliy uyg'onish uchun kurash, milliy davlatchilikni tiklash uchun birlashtirish lozimligi uqtiriladi.

Jadidlarning taraqqiyparvar qanoti tashabbusi bilan «Tarbiyayi atfol», «Umid», «Nashri Maorif», «Barakat», «G'ayrat», «Taraqqiyparvar» kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar tuzildi va ular Turkistondagi siyosiy hayotning faollashuvi, mustamlakachilik va chorizm hukumatiga qarshi kayfiyatlarning kuchayishiga turtki berdilar. Bu, ayniqsa, birinchi jahon urushi va tub aholi vakillari urush ortidagi ishlarga safarbar qilingan yillarda yorqin namoyon bo'ldi. Dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, tajribasizligiga qaramay, qarshilik harakatini mavjud tarixiy voqelik va milliy manfaatlarga javob beradigan miqyoslarga ko'tarishga intildilar.

Turkistonni boshqarish ishidagi buyuk davlatchilik maqsadlari Turkiston jadidlari ilgari surgan intellektual, madaniy va ma'naviy xarakterdagi g'oyalarga to'qnash keldi. Jadidlar chorizm mustamlakachilik tuzumi sharoitidagi an'anaviy ta'lim, ijtimoiy-siyosiy turmush me'yorlariga va ushbu tuzumning qonuniyligiga shubha bildirdilar. Ular bilimdon Turkiston ruhoniylari, savdogar va ziyolilarining an'anaviy eskilikka qarshilik ko'rsata oladigan, Sharq va G'arb sivilizatsiyasining yangi g'oya hamda uslubiyatlarini tushunishga qodir yangi avlodi edilar. Jadidlar mavjud moddiy va ijtimoiy olamni o'zgartirish, Turkiston xalqlarining tuganmas ma'naviy manbalarini erk, milliy uyg'onish va milliy davlatchilikni tiklash uchun safarbar qilishga intildilar.

Birinchi bosqichda jadidlar mahalliy aholining milliy va siyosiy ongini yuksaltirishga o'zining muhim hissasini qo'shgan, umumiy g'oya atrofida birlashgan harakat sifatida namoyon bo'ldi. Lekin Rossiya imperiyasi mustamlakachi ma'murlarining bu harakatga shubha bilan qarab, uning faoliyatini cheklashga qaratilgan chora-tadbirlari va mutaassib ruhoniylarning Buxorodagi jadidlarga qarshilik ko'rsatishi, bu yo'lda hokimiyatni ham o'z tomoniga og'dirib olishlari jadidlarning ko'zlagan maqsadlarini to'la-to'kis amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shu bois jadidlarning ilg'or namoyandalari ish uslubini o'zgartirish va jamiyatda muayyan siyosiy islohotlar o'tkazish lozimligini tushunib yetdilar. Ana shu vaqtdan e'tiboran jadidlik harakatining siyosiylashuv xususiyati bilan xarakterlanuvchi ikkinchi bosqichi boshlanadi. Jadidlik harakatida siyosiy qarashlarning shakllanishiga Munavvarqori Abdurashidxonovning «millatlarning ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga ikki tayanch kerak, birinchisi - maktab, ikkinchisi - jamiyatdir», degan fikri va Abdurauf Fitratning jamiyat va millatning ravnaqi uchun bir odam ko'p ish qila olmasligi, buning uchun vatanparvarlar ittifoqini tuzish, unga xayrixoh guruhlarni tashkil qilish lozimligi haqidagi g'oyasi asos bo'ldi.

Jadidlarning ikkinchi bosqichdagi faoliyati asosiy mazmunini quyidagi vazifalar belgiladi:

- mahalliy aholining milliy manfaatlari, diniy e'tiqodlarini hisobga olgan holda boshqarishni tashkil qilish;

- Buxoro amiri va Xiva xonining mutlaq hokimiyatini muayyan tartibga solish uchun kengash (parlament) tuzish, davlat tizimi hamda jamiyatda taraqqiyotni ta'minlaydigan islohotlar o'tkazish;

- mahalliy millatlarning manfaatlarini ifoda etadigan, himoya qiladigan siyosiy va ijtimoiy partiyalar, birlashmalar, jamiyatlar tuzish, harakatlar tashkil qilish va h. k.

Rossiyada 1917-yil fevralda amalga oshgan burjua-demokratik inqilobidan keyin bu vazifalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Jadidlarning tashabbusi bilan «Sho‘roi islomiya», «Sho‘roi ulamo», «Turk adami markiziyat firqasi», «Alash o‘rda», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» kabi siyosiy tashkilotlar tuzildi. Turkistondagi tashkilotlarni birlashtirish maqsadida yagona «Ittifoqi musulimin» siyosiy partiyasini tuzishga qaror qilindi. Bu yangi partiyaning eng asosiy vazifalaridan biri qilib Rossiyaning tarkibida Turkiston muxtor respublikasini tuzish belgilandi.

Tuzilgan bu siyosiy tashkilotni faqat jadidlar partiyasi deb atab bo‘lmas edi. Bu partiya mahalliy xalq ravnaqi va Turkiston mustaqilligining tarafdori bo‘lgan har bir mehnatkash, ziyoli, sarmoyador, ruhoniy xayrixohlik bildirdi va uning g‘oyalarini o‘z qarashlari sifatida qabul qildi.

Jadidlik g‘oyalariga asoslangan milliy siyosiy kuchlar mahalliy aholining siyosiy ongini o‘stirishga salmoqli hissa qo‘shdilar. Jadidlar mahalliy aholining o‘zligini tanib, siyosiy ongining o‘sishida, siyosiy tashkilotlar atrofida birlashishida muhim o‘rin tutdilar va jadidlarning o‘zlari ham mazkur jarayonda toblanib, siyosiy harakat sifatida shakllandilar.

Mavjud tuzumni inqilobiy yo‘l bilan o‘zgartirishni, ya’ni hokimiyatni qurol kuchi bilan qo‘lga olishni o‘zlariga maqsad qilib olgan uchinchi yo‘nalishdagi siyosiy kuchlarga rus tilli sotsial-demokratlar - bolsheviklar, mensheviklar, eserlarni kiritish mumkin. Bu siyosiy kuchlar Rossiyaning markaziy hududlarida tuzilgan partiyalarning boshlang‘ich tashkilotlari sifatida faoliyat yuritib, markaz topshiriqlarini bajarishga safarbar etilgan edilar. Turkistonning tub aholisi manfaatlari bu yo‘nalishga mansub siyosiy kuchlarni mutlaqo qiziqtirmas, balki ular imperiya miqyosidagi hokimiyatni ko‘zlab harakat qilar edilar. Bu siyosiy kuchlar Turkistonga Rossiyaning ajralmas tarkibiy qismi deb qaradilar, o‘lkaga chorizm davridagidek ulug‘davlatchilik nuqtai nazaridan yondashdilar.¹

Texnologik usullar: aqliy hujum – olib borish qoidalari

- O‘zaro hech qanday baholash va tanqid bo‘lmasligi.
- Jo‘n va nihoyatda oddiy fikrlashga baho berishdan tiyilish.
- Barcha fikr-mulohaza qimmatli va bir o‘rinda bo‘lganligi bois fikrlovchiga nisbatan bosim o‘tkazmaslik va uni faqat tanqidiy tarzda qabul qilmaslik.
- O‘z vikrini bildirmoqchi bo‘lganlarga imkon berish.
- Fikrlar xilma xilligi asosiy maqsad
- Fikr – mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish.
- Qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish lozim.
- O‘zini vazmin va hotirjam tutish, o‘zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabat bildir.

¹ R.E.Xoliqova.Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Oquv qollanma,Toshkent,”Fan va texnologiya”,2017,94-b

- Barchani o‘zaro hurmat, boshqalar fikriga qanoatli bo‘lishga chaqirish.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyoning uchta xonlikka bo‘linishining sabablari nimada?
2. Turkiston xonliklarining o‘zaro munosabatlari qanday edi?
3. Turkiston xonliklari nega taraqqiyotdan orqada qolishdi?
4. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olinishining sabablari nimada edi?
5. Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil qilingan?
6. Xiva va Buxoroni chor Rossiyasi bosib olgandan so‘ng ularning mustamlakachilik maqomi qanaqa edi?
7. Nechanchi yilda Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan?
8. XIX asr oxirida mustamlakachilarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari qaerlarda bo‘lib o‘tdi?
9. 1916 yilgi Jizzax qo‘z g‘olonining sabablari nimada?
10. Jadidlik harakati qachon paydo bo‘ldi?
11. Jadidchilarning madaniy oqartuv faoliyati nimada ko‘rinadi?
12. Jadidchilik harakati namoyondalari kimlar?
13. XIX asrda qaysi davlatlarning manfaatlari O‘rta Osiyo masalasida to‘qnash keldi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз.-Т., Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.
5. Миллий ўзлимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи, 2019. 21-октябрь, 226-сон.
5. Исҳоқхон Тўра Ибрat. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият. 2005 .
- 6.. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.– Тошкент, 2013.
- 7.Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
8. О‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
9. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.
10. R.E.Xoliqova.Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Oquv qollanma,Toshkent,”Fan va texnologiya”,2017,94-b

11. Чориев З. Туркистон мардикорлари сафарбарлик ва унинг окибатлари .- Тошкент Шарк.20-бет.
12. Фозилбек Отабек угли.Дукчи Эшон вокеаси.-Тошкент.1992.30-31 бетлар.

X BOB. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING ORNATILISHI. SOVET HOKIMIYATINING OZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIIY-SIYOSIIY,IQTISODIIY TADBIRLARINING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI (1917-1989 yy.)

Asosiy tushuncha va atamalar:

Burjua-demokratik inqilob, matbuot organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, sovetlar hokimiyati, Turkiston muxtoriyati,jamoalashtirish, quloqlashtirish, madaniy inqilob,«Hujum» harakati, alifbo, madaniy oqartuv, yakkahokimiyatchilik, «18 lar guruhi», «Inog‘omovchilik», «Qosimovchilik», siyosiy qatag‘on, shaxsga sig‘inish, ulug‘ davlatchilik siyosati, ruslashtirish, milliy qadriyatlar, Ikkinchi jahon urushi, harbiy safarbarlik, SSSR FANing O‘zbekiston filiali (O‘zFAN), ma‘muriy-buyruqbozlik, totalitar tuzum, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, o‘zbek jangchilarining jasorati, o‘zbek partizanlari, Xotira va Qadrlash kuni

X.1. Oktyabr to‘ntarishi. Turkistonda sho‘ro tuzumining o‘rnatilishi, bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati, Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning faoliyati

1917 yil 25 oktyabrda (yangi sana bilan 7 noyabrda) V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag‘darib tashlab, hokimiyatni zo‘ravonlik yo‘li bilan egallashdilar. Rossiyaning markazida yuz bergan voqealarning aks-sadosi oradan ko‘p o‘tmay Turkistonga ham etib keldi.

28 oktyabrda Toshkentning yangi shaharida rus ishchilari va soldatlari bolsheviklarning qutqusi bilan qurolli to‘qnashuvlarni boshlab yuborishdi. Ular general Korovichenko qismlaridan ustun keldilar. 1 noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo‘mitasi qamoqqa olindi. Toshkentda zo‘ravonlik yo‘li bilan sho‘ro hokimiyati o‘rnatildi.

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘lka rus ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s‘ezdida 15 kishidan iborat hukumat-Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 o‘rin so‘l eserlarga, 7 o‘rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Turkiston Xalq Komissarlari soveti (XKS) raisi lavozimini kasbi chizmachisi bo‘lgan bolshevik F.Kolesov egalladi. Harbiy komissar qilib, izvoshchi Perfilov, boshqa komissarlik lavozimlariga ham shunga o‘xshash kelgindilar tayinlandilar. Hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta ham vakil kiritilmadi.

Turkiston o‘lkasidagi dastlabki sho‘ro hukumatining ziddiyatli tarkibi mintaqada evropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Mahalliy millatlarni siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o'lkalarning sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi.

Turkiston XKS 1917 yil oxirlarida o'z qarori bilan "Sho'roi Islomiy" va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari sho'ro hokimiyatiga qarshi qurolli harakatga g'oyaviy rahnamolik qildilar. Shunisi xarakterliki, "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent sho'basasi faqat 1918 yil 13 mayda yopildi.

Sankt-Peterburgdagi oktyabr to'ntarishi oqibatida 1917 yil oktyabr-noyabr oylarida Turkiston o'lkasida, xususan, Toshkent va Qo'qonda yuz bergan voqealar milliy ozodlik harakatini kuchayib ketishga olib keldi.

1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lkalarning musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlarini (jadidlar) o'sha davr gazetalarida tarix uchun muhrlab qo'ydilar.

Qurultoyda 1917 yil 27 noyabr kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi davlat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi. Shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi.

28 noyabr (yangi hisob bilan 11 dekabr)da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qiladi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov - Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Cho'qay - tashqi ishlar vaziri, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jaev) - harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agaev - er va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O'rozaev - ichki ishlar vazirining o'rinbosari, Solomon Abramovich Gersfeld - moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Muhammadjon Tinishboev iste'foga chiqqach, Mustafo Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishadi. Qurultoyda 28 noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to'g'risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat Majlisi 54 nafar a'zodan iborat bo'lib qurultoy qaroriga binoan "36 nafar musulmonlar va 18 nafar g'ayri musulmonlardan saylanadur. Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan fojeali voqealar muhim o'rin tutadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi "Muxtor Turkiston uchun!" shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdilar. Ammo, Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli

kuch bilan «tartib» oʻrnatishga buyruq beradilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan oʻqqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu toʻqnashuv qurboni boʻldi.

30 yanvarda Turkiston XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlarning qonli hujumlari oqibatida agʻdarib tashlandi. Ammo Qoʻqon va uning atrofidagi tinch aholini talash, oʻldirish avjiga chiqdi. Faqat Qoʻqonning oʻzida uch kun davomida 10000 kishi oʻldirildi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi.

Nihoyat, 1918 yil 22 (eski hisob bilan 9) fevralda Qoʻqon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “tinchlik sharnoma”si Qoʻqon ahli vakillari bilan imzolandi. 1918 yil yanvar oyidayoq bolsheviklar Turkiston Muxtoriyatiga qarshi Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini koʻtarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston sovetlarining V-sʻezdida (1918 yil 20 aprel-1 may) hal qilindi. Sʻezd Rossiya Sovet Sotsialistik Federatsiyasi tarkibida Turkiston respublikasi (tarixiy adabiyotlarda Turkiston avtonom respublikasi)ni tuzish toʻgʻrisida qaror qabul qildi.

Turkiston respublikasi XKS va MIK ichida hokimiyat uchun oʻzaro kurashlar, mojarolar va janjallar avjiga chiqdi. Oktyabr oyida Turkiston XKS raisi F.Kolesov va boshqa ayrim amaldorlar egallagan lavozimidan boʻshatildi.

1919 yil 19 yanvarda harbiy komissar K.Osipov boshchiligida Toshkentda isyon koʻtarildi. K.Osipovning buyrugʻi bilan 14 komissar otib tashlandi.

X.2. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va uning tarixiy ahamiyati, Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining tuzilishi va ulardagi ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar.

Mustaqillik osonlikcha qoʻlga kiritilmasligini tushunib etgan milliy vatanparvarlar qoʻlga qurol olib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshlab yubordilar. Biroq sovet tuzumi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida, ularga “bosmachi” deb nohaq tamgʻa bosildi. Bu harakat haqida soʻz yuritilgan 1918-1919 yillarning oʻrtalarigacha boʻlgan davrga tegishli arxiv hujjatlarida ham “bosmachi” soʻzi uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi” (razboynik), “shayka”, juda boʻlmasa “bosqinchi” (bandit) iboralari qoʻllangan. 1919 yilning oʻrtalaridan boshlab avval ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida “bosmachi” iborasi qoʻllanila boshlagan.

Dastlabki milliy harbiy harakatning tashkil topishi Kichik Ergash (taxminan 1885-1918) va Katta Ergash (taxminan 1880-1921)ning nomlari bilan bogʻliqdir.

1918 yil 27 fevralda Qoʻqon atrofidagi Bachqirda boʻlgan janglarning birida Kichik Ergash shahid boʻlgach, uning oʻrniga Katta Ergash (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Fargʻona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrogʻini koʻtardi.

Margʻilonda esa militsiyaning sobiq boshligʻi Muhammad Aminbek Ahmadbek oʻgʻli - Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi. “Oʻz oldiga sovet hokimiyatini agʻdarish va Fargʻona muxtoriyatini tiklash vazifasini qoʻygan

Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi”, - deb tan olinadi 1918 yilga oid arxiv hujjatlarining birida.

Farg‘ona vodiysidagi bu harakat 1919 yil yozining oxiri va kuzida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqloлчаlar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo‘shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag‘darish uchun real kuch edi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O‘sh shaharlarini egallashdi. Ular 13 sentyabr Eski Marg‘ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. SHu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar - Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo‘shinning hujumi Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919 yil 22 oktyabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo‘lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 kishi tub aholidan va 8 ta evropalik kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lish bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysidagi bu harakatning Oliy bosh qo‘mondoni ham etib saylandi.

Turkistondagi bu harakat 1920 yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Farg‘ona vodiysidagi butun qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi G‘oyibota qishlog‘ida o‘zlarining navbatdagi qurultoylariga to‘plandilar. Qurutoy 1920 yil 3 mayda Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati yoki qisqacha aytganda, Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi.

Namanganlik Nosirxon to‘ra Said Kamolxon to‘ra o‘g‘li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo‘ja qozi o‘g‘li, Turkiston MIK raisining sobiq o‘rinbosari To‘raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy va boshqalar bu harakatning g‘oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatining pirlari ham ko‘p bo‘lgan.

1920-1924 yillarda bu harakat Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro va Xorazmdagi milliy muxolifatning ozodlik kurashlari alohida o‘ziga xos yo‘nalish va xususiyatga ega bo‘lib, o‘ta murakkabligi va ziddiyatliliigi bilan Turkiston respublikasidagi qurolli harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar Qizil armiya yordamida Buxoro amirligi va Xiva xonligini kuch bilan ag‘darib, hokimiyatni Buxoroda asosan “Yosh buxoroliklar”dan, Xorazmda esa “Yosh xivaliklar”dan iborat demokratik kuchlar qo‘liga berdi.

Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida yuzaga kelgan qurolli muxolifat shu boisdan ham bir yo‘la ikki kuchga qarshi: birinchidan, bu davlatlar hududida joylashib olgan Qizil armiya qismlariga qarshi, ikkinchidan esa bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan jadidlarga qarshi muxoliflik urushini olib bordilar. Bu urushning Turkistondagi, xususan, Farg‘ona vodiysidagi harakatdan farqi ham ana shunda.

Buxoro mamlakatidagi bu harakat Qizil armiya va bolsheviklarning tajovuzkorligi, zo‘ravonligi va talonchilikka qarshi qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mujohidlarning asosiy maqsadi qizil qo‘shinni haydab yuborish, milliy qadriyatlar, asriy e‘tiqod va urf-odatlarining poymol qilinishi, xo‘rlanishiga barham berish edi. Yuqorida ham aytib o‘tilganidek, vatanparvarlar Buxoroda ikki

jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdorlari bo'lgan istiqloлчаilar (ular o'zlarini mujohidlar deb atashgan) jadidlardan iborat Yosh Buxoro hukumati, shuningdek, Qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqloлча g'oyalariga sodiq bo'lgan istiqloлчаilar Fayzulla Xo'jaev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan bosqinchi qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbek va b.). Aynan ular safiga keyinchalik Buxoro respublikasining juda ko'pchilik rahbarlari (Buxoro MIKning birinchi raisi Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov, respublika militsiyasi va Cheka boshlig'i Ali Rizo Afandi va b.) qo'shildilarki, bu arboblarning aksariyati kechagi jadidlar va "Yosh buxoroliklar" edi. Afsuski, Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar bilan muxolifatdagi qurolli istiqloлча guruhlarining yo'l boshchilari o'rtasidagi ochiq bitishuv amalga oshmadi.

Xorazm respublikasida ham 1920 yil bahoridan boshlab qizil askarlarning misli ko'rilmagan talonchilik va zo'ravonliklariga qarshi harakat boshlandi. Qurolli kurashni turkmanlarning yovmut urug'i boshlig'i Qurbon, Mamed, Sardor-Junaidxon (1857-1938) boshchiligidagi guruhlar ko'p yillar davomida olib bordi. Uning qo'shini saflarida o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar ham ko'pchilik edi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20000 kishiga etkazdi.

O'zbek dehqonlari va hunarmandlaridan iborat guruhlariga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qildilar.

Xorazm vohasida istiqloлчаilik harakati ayrim guruhlar tomonidan 1935 yilgacha Sharqiy Buxoro va Farg'ona vodiysida ham ba'zi uzilishlar bilan yuqoridagi davrgacha , davom etdi. Turkiston mintaqasidagi qurolli harakat tarixiga yakun yasab, bu harakatni keng xalq ommasini, birinchi navbatda dehqonlar va hunarmandlar qahr-g'azabi hamda noroziligining yuksak darajaga ko'tarilganligini ifodasi deb e'tirof etishga to'g'ri keladi.

XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimi ruslar bosqiniga qadar shakllangan holatda qolgan edi.

1917 yil fevral inqilobi paytida Xiva xoni Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Shuning uchun ham u Rossiya imperatorining taxtdan voz kechganini eshitgan zahoti xonlikka shoshildi. Asfandiyorxonni kutib olishga chiqqan davlat arboblari orasida Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar ham bor edilar. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o'z sovetlarini tashkil qilishgan edilar. Ana shu sovetlarning faollaridan Latipov, Tiniev va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq "Yosh xivaliklar" 4 aprelda soldatlarning Muvaqqat hukumatga qasamyod qilishi uchun to'plangan tantanaga kishilarni yig'ib borib, soldatlardan Xiva xonini ag'darib tashlashni so'rashdi. Garnizon boshlig'i xonni taxtdan olib tashlamaslik talabi bilan "Yosh xivaliklar"ga yordam berishga ruxsat berdi. 5 aprel kuni Asfandiyorxon rus soldatlari himoyasida saroyga kelib, xalq nomidan qo'yiladigan talab (manifest)ni imzolashga majbur bo'ldi. Manifestga asosan xon hokimiyati qoshida qonun

chiqaruvchi organ - Majlis va Nozirlar kengashi tashkil etildi. Majlisning birinchi yig'ini 1917 yil 26 aprelda bo'lib o'tdi. Unda Majlis raisi etib Bobo Oxun Salimov, nozirlar kengashining raisi etib Husaynbek Matmurodov saylandilar. Bu tashkil qilingan davlat organlari tarkibida "Yosh xivaliklar"ning a'zolari ko'pchilikni tashkil qilar edi. Lekin keyinchalik Asfandiyorxon Xiva garnizoni boshlig'i general Mirbadalov va Zaysevlarning yordami bilan Majlisdan Yosh xivaliklarning a'zolarini siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Turli bahonalar bilan Husaynbek Matmurodov va bir qancha tashkilot a'zolarini zindonga tashladi. Polvonniyoz Hoji YUsupov, Nazir Sholikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon Yaqubov va boshqalar xonning ta'qibidan qutulish uchun To'rtko'l, Chorjo'y, Toshkent kabi shaharlarga qochib ketishdi. Bu paytda To'rtko'l va Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatilgan edi. Sovet hukumati orqali "Yosh xivaliklar"ning Asfandiyorxon, Zaysev, Junaidxonlarga o'z hamfikrlarini zindondan ozod qilishni talab qilib yuborgan bir qancha telegrammalari hech qanday natija bergani yo'q. Aksincha, oktyabr to'ntarishidan keyin Xiva shahridan rus askarlari olib chiqib ketildi va Asfandiyorxon o'zining harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Bu 1916 yil qo'zg'olonidan keyin Eronga qochib ketgan Junaidxonning Xiva xonligiga qaytib kelishi va bu erda katta mavqega ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Chunki mingdan ortiq qurollangan sarbozlarga ega bo'lgan Junaidxon bilan murosila qilmasdan Asfandiyorxon va uning atrofidagi a'yonlar bundan keyin hokimiyatni saqlab qolishga tayanchlari yo'q edi. Shuning uchun ham Asfandiyorxon Junaidxonni "sardori karim", ya'ni xonning lashkarboshisi qilib tayinladi. Shu bilan o'zi Junaidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi. Xonlikdagi hokimiyat esa to'la ravishda Junaidxon qo'liga o'tdi. Toshkentga etib kelgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 1918 yil bahorida sovet hokimiyatining faollaridan biri bo'lgan Yusuf Ibragimovning maslahati bilan o'zlari to'rt kishi bo'lishiga qaramasdan "Yosh xivaliklar" partiyasining Markaziy Qo'mitasini tashkil qildilar.

Mana shu "Yosh xivaliklar"ning talablari va turkman urug'lari orasida Qo'shmamedxon, G'ulomalixon kabi urug' sardorlarining Junaidxon bilan kelishmay qolganligi haqidagi xabarni hisobga olgan bolsheviklar Skalov rahbarligida 1919 yil 22 dekabrda mustaqil davlat - Xiva xonligi hududiga bostirib kirdilar. 1920 yil 1 fevralda Junaidxon qo'shinlarini tor-mor qilgan Qizil armiya Xiva shahriga kirib bordi. 2 fevral kuni so'nggi Xiva xoni Said Abdulloxon taxtdan voz kechdi.

Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov raisligida Muvaqqat inqilobiy qo'mita tashkil etildi. 1920 yil 26-30 aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tib, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va Polvonniyoz Hoji Yusupov raisligida Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzildi.

1920-1921 yillarda agrar sohada dastlabki o'zgarishlar amalga oshirilib, 10000 desyatina er dehqonlarga bo'lib berildi. Bundan tashqari, ularga urug', dehqonchilik asboblari hamda ssuda (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5000 chorva mol sotildi. Eski sug'orish inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. Masalan, 1922 yil oxirigacha Xorazm dehqonlari Hazoraspdan Xo'jayligacha bo'lgan hududda 12 ta damba qurdilar. 1922 yilda chorakor va kambag'allarga er bo'lib berish uchun davlat er fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va

qaytarib olinmaydigan ssudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta'sis etishga qaror qilindi. Bankka 3 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Xullas, 1921-1922 yillarda 400000 tanobdan ortiqroq er kambag'al dehqonlarga berildi.

Xorazm respublikasida keyingi yillarda ham g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Respublikaning ko'plab rahbarlari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi kurashni to'xtatmadilar. 1923 yil bahorida Savdo-sanoat noziri Nurullaev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko'rsatmalari asosida 1923 yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. 1923 yil oktyabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Afsuski, bu Konstitutsiya mamlakatni sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, 1923 yil kuzidan boshlab Xorazm respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga butunlay chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Bu holat 1924 yilning oxirigacha davom etdi.

1917 yil Buxoro amirligi ham xuddi Xiva xonligi singari muhim o'zgarishlar arafasida turardi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va undan o'sib chiqqan "Yosh buxoroliklar" partiyasining faoliyati kuchaydi. "Yosh buxoroliklar" 1910 yildayoq o'zlarini alohida tashkilot sifatida e'lon qilgan edilar. Ular dastavval mavjud monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsion monarxiyani o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lishgan.

1917 yil 7 aprelda Buxoro amiri Said Olimxon mamlakatda islohotlar o'tkazish to'g'risida farmon chiqarsa ham, amalda uni joriy qilmadi. Jadidlar Buxoro shahrida namoyish uyushtirganlaridan so'ng mamlakatda ularni yoppasiga ta'qib etish boshlandi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi.

"Yosh buxoroliklar" partiyasining 1920 yil 13-14 iyunda bo'lgan Turkiston Markaziy byurosi birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo'jaev tuzgan dastur (programma) qabul qilindi. Dastur "Zulmga qarshi birlashingiz!" degan shior va kirish qismi bilan boshlanadi. Bu qismda Buxoroning umumiy ahvoli va "Yosh buxoroliklar"ning asosiy maqsadlari, ikkinchi qismida esa "Yosh buxoroliklar"ning amaliy takliflari, islohot va mamlakatning idora qilishni tashkil qilish rejasi bayon etildi. Dasturda amirlikni qurol kuchi bilan ag'darib tashlash va Buxoroni demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yildi. "Yosh buxoroliklar" katta boylar qo'lidagi erlarni musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'lim joriy etish, shuningdek, qishloq xo'jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'lida amaliy chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidlashdi.



1920 yil 25 avgustda Turkiston fronti qo‘mondoni M.V.Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi. Keskin janglardan so‘ng, 2 sentyabrda Buxoro shahri bosib olinib, Said Olimxon hokimiyatdan ag‘darib tashlandi. Qizil askarlar Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri, “Islom dinining gumbazi” va “sharif shahar” hisoblangan muqaddas Buxoroni vayron qildilar. Qadimiy Buxoro o‘t va harobalar ichida qoldi.

Shafqatsiz o‘q yomg‘iri va bombardimon natijasida shahar obidalarining beshdan bir qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo‘lgan. Shaharga kirgan qizil askarlar Arkdagi amir xazinasi, Buxoro qozikaloni, qo‘shbegi va boshqa amaldorlarning boyligini musodara qilganlar.

1920 yil 14 sentyabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Revkom va Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi-Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati - 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi - Fayzulla Xo‘jaev) tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy - tashqi ishlar (nozir-Fayzulla Xo‘jaev), maorif (Qori Yo‘ldosh Po‘latov), doxiliya - ichki ishlar (Muxtor Saidjonov), moliya (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev), davlat nazorati (Najib Husainov), favqulodda komissiya (Cheka raisi - Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin SHihobuddinov), er-suv ishlari - dehqonchilik (Abdulqodir Muhitdinov), savdo va sanoat (Mirzo Muhitdin Mansurov) nozirliklari.

1920 yil 6-8 oktyabrda amirning yozgi saroyi - Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e‘lon qilindi.

1921 yil 18-23 sentyabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhdagi BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta‘minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o‘z ifodasini topdi. BXSR Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo‘qotdi.

II qurultoyda Butun Buxoro MIK tashkil qilinib, uning raisi qilib Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev (1887-1968) saylandi. 1922 yil avgustda bo‘lgan III qurultoyda bu lavozimni Porso Xo‘jaev egalladi.

Buxoro Respublikasidagi iqtisodiy siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Buxoro inqilobiy qo‘mitasining 1921 yil 2 fevraldagi Dekreti hamma erlarni umumxalq mulki deb e‘lon qildi. Vaqf erlari tugatildi, ayrim toifadagi xo‘jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara qilindi. Sug‘orish tizimi izdan chiqdi. Ekin maydonlari qisqarib, chorva mollarining soni kamayib ketdi. Shu bilan bir vaqtda, ko‘plab ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. 1921 yil kuzida erni tortib olish bekor qilindi. BXSR MIKning Umumiy avf to‘g‘risidagi 1922 yil 25 may Dekreti vaqflarni tugatishni to‘xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko‘rsatmalarini tiklash va boshqalarini e‘lon qildi. O‘sha yilning noyabr oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o‘tish e‘lon qilindi. Buxoro davlat banki tuzilib, «pul islohoti» amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Bu qishloq

xo'jaligining barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923 yili sug'oriladigan erlar maydoni 1913 yildagi darajaga yaqinlashib qoldi. Temir yo'l tiklanib, zavod va fabrikalar qaytadan ishga tushdi. Bu paytga kelib Buxoro Respublikasida 19 ta korxona, 500 dan ortiq bozor ishlab turardi. Xususiy sarmoya 12000 savdogar mablag'idan iborat bo'ldi.

1924 yil 18-20 sentyabrda bo'lib o'tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSР Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi. BSSRning tuzilishi yuqoridan turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan xodisa edi. Natijada, taraqqiyotning demokratik yo'li inkor qilinib, sotsialistik yo'nalishi tanlandi. Markazdagi bolshevik rahbarlarining Buxoro va Xorazm respublikalarini sotsialistik respublikalarga aylantirishdan ko'zda tutgan asosiy maqsadi mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish, xalqimiz ongiga kommunizm mafkurasini majburan singdirish edi. 1924 yil noyabr oyi oxirida xuddi Xorazm respublikasi singari Buxoro SSR ham tugatilib, uning hududi 1925 yilda tashkil etilgan O'zbekiston SSR (1929 yilgacha tarkibida Tojikiston ASSR ham bo'lgan) va Turkmaniston SSR hududiga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining demokratik islohotlar tomon bosib o'tgan yo'li o'sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaralganda ham mashaqqatli va ulug' yo'l bo'ldi. Buxoro va Xorazm respublikalari atigi 4-5 yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga aylana boshladi. Afsuski, bu jarayonlar mustabid sovet tuzumi tomonidan sun'iy ravishda to'xtatib qo'yildi va nisbatan mustaqil bo'lgan bu davlatlarning mavjudligiga ham barham berildi.

Ma'lumki Markaziy Osiyo xalqlarining etnik-madaniy yaqinligi tarixan yagona muhitda shakillangan bo'lib, ularni tarixiy mushtaraklik bog'lab turar edi. Shu ma'noda azaldan o'zbek, qoraqalpog' xalqlari birgalikda bir tanu bir jon bo'lib yashab kelganlar. 1924 yilda milliy-xududiy chegaralanishi natijasida Qoraqalpog'iston muxtor viloyati tuzildi. Ushbu viloyat Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSR tarkibida bo'lib, unga volostlardan iborat To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglari kirgan. 1925 yil 12-19 fevralda viloyat markazi To'rtko'l shahrida bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi qurultoyi "Q'raqalpog'iston avtonom viloyati tashkil topganligi to'g'risida Deklarasiya" qabul qildi va "qoraqalpog' milliy davlatchiligi" tashkil etilganligini qonuniy rasmiylashtirdi. Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Ijroiya Qo'mitasining raisi etib A. Qudaboev saylandi.

Qoraqalpog'iston Muhtor viloyati tashkil etilgandan so'ng, Sovetlar bu erda xam sotsialistik qurilishni avj oldirib yubordilar. Jumladan ovul va qishloqlarni sovetlashtirish keng miqyosda olib borildi. Sovetlarga ko'proq kambag'allar jalb qilinib, ularning asosiylari kommunistlar va komsomollar tashkil qildi. Mamlakatda vayron bo'lgan sanoatning turli soxalari, qishloq xo'jaligi va sug'orish inshootlari tiklash amalga oshirildi. Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining taraqqiyoti bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, SSSRning markaziy mintaqalari sanoatini rivojlantirish extiyojlarini ta'minlashga qaratilgan edi. Masalan, 1933 yilning 3 oktyabirida SSSR Er ishlari Xalq Komissarligi Qoraqalpog'istonni mamlakatini beda urug'i etkazib beruvchi asosiy baza deb tan olgan edi. Buning asosiy sababi mamlakat xalq

xo'jaligida ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi mehnat taqsimotida Qoraqalpog'istonga oliy sifatli paxta, beda xamda baliq bilan ta'minlab turish yuklatilganida edi.

1930 yilda Qoraqalpoq muxtor viloyati RSFSR tarkibiga kiritiladi. 1932 yilning 20 martida esa, SSSR MIQ Rayosati "Qoraqalpog'iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sosialistik Respublikasiga aylantirish va uni RSFSRga kirishi to'g'risida" qaror qabul qiladi. O'sha yilning may oyida avtonom respublika Sovetlarining 1 Ta'sis qurultoyi xukumatni tuzdi. Unda QASSR MIQ raisi etib K. Nurmuxammedov, Xalq Komissarilari Kengashi raisi etib esa Qosim Avezovlar saylandilar. 1936 yilda SSSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi va unga ko'ra QQASSRning O'zbekiston SSR tarkibiga kirishi ko'zda tutilgan edi. Buning asosiy sababi, xududiy yaqinlik, yagona tarixga ega bo'lganligi deb e'tirof etildi. 1937 yil 12 fevralda O'zSSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi. O'sha yilning 6 martida esa, QQASSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi. Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibida bo'lganida, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi do'stlik yanada mustaxkamlandi.

X.3. Sovet tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va uning oqibatlari. Sovet tuzumi davrida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy qaramligi. Sovet davlatining qatag'on siyosati va uning bosqichlari.

XX asrning 20-yillarida Sovet hokimiyati oldida Turkiston xalq xo'jaligini tiklash vazifasi ko'ndalang bo'lishi bilan birga sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasida yangi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish zarurati ham yuzaga kelgandi. Yangi siyosat asosi (YAIS) - mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonlar manfaatini oshirish, uning erga egalik qilishini ta'minlash, imtiyozli soliq olish va bozor iqtisodiyoti, tovar-pul munosabatlariga o'tishdan iborat edi.

Yangi iqtisodiy siyosatda agrar masala markaziy o'rinni egalladi. YAIS tarkibidagi er-suv islohotlari Turkiston Kommunistik partiyasi V s'ezdi va Turkiston sovetlarining IX qurultoyida (1920 y. sentyabr) ko'rib chiqilgach, 1921 yil bahoridan Ettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida boshlandi.

Yer-suv islohoti 1922 yil kuzida o'z poyoniga etdi. Uni amalga oshirish davomida joylarda, qishloq va ovullarning ersiz, kam erli mahalliy dehqonlarning ozchilik qismini birlashtirgan, mahalliy xarakterga ega bo'lgan "Qo'shchi" uyushmalari muhim ahamiyat kasb etdi. 1921 yil yoziga kelib o'lka qishloq va ovullarida 6 mingga yaqin shunday uyushmalar mavjud bo'lib, ular 9 mingga yaqin a'zosiga ega edi. Ushbu uyushma qishloq va ovullarda sovet hokimiyatining tayanchi bo'lib, o'ziga to'q bo'lgan dehqonlar mol-mulkklarini aniqlashda, sovetlar siyosatidan norozi bo'lgan dehqonlar chiqishini bostirish va ularning oldini olishda ham qatnashardi. Ularning harakati qishloqni "sotsialistik asosdan qayta qurish"ga qaratilgan edi.

1927 yildan kooperativlarni "davlatlashtirish" siyosati boshlanib, uning xo'jalik hisobi asosidagi negizlari buzildi. Qishloq xo'jaligini yuksaltirish masalalari davlatga kelib taqaladigan bo'ldi.

Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar milliy davlatchilik qurilishi masalasida turli qarashlarni ham yuzaga keltirdi. Milliy muxolif kuchlar xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashi lozimligini afzal bildilar. Aholining aksariyati Qizil armiyaning quroli yordamida zo'rlik bilan olib kirilgan sovet xokimiyatini tan olmas, ular tashkil etayotgan sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari tub aholi orasida obro'ga ega emasdi. Markaz bunday vaziyatda o'lkada o'z ta'sir doirasini saqlab qolishni ko'zlar, shu maqsadda Turkiston KP (1921 yil 11-20 avgust) VI qurultoyida milliy masalaga e'tibor qaratib, yuqori davlat-partiya organlarida milliy kadrlarni ko'paytirish masalasini qo'ydi.

Markaz topshiriqlari bilan A.Rahimboboev, N.To'raqulov, D.Ustaboev, D.Manjara, I.Xidiraliev, A.Rahimboevlar Turkiston KP MQga saylandilar. N.To'raqulov va A.Rahimboevlar Turkiston byurosi a'zosi bo'ldilar. Lekin ularning imkoniyatlar cheklangan edi.

1921 yil 31 dekabrda RKP(b) MQ Turkiston to'g'risidagi masalani qayta ko'rib chiqib, Turkkomissiya va Turkbyuroning yangi tarkibini tasdiqladi. Yangilanayotgan bu tashkilotlar tarkibiga N.To'raqulov, A.Raximboev, Q.S.Otaboev, S.Xo'janov, S.I.Gusev, YA.Z.Surits, I.G.Sols kirdilar. Turkkomissiya va Turkbyuro raisi etib S.I.Gusev tayinlandi.

Bu komissiyalar Turkistonning to'liq mustaqilligini hal eta olmasdi. RKP(b)ning 1924 yil 31 yanvardagi Tashkiliy byurosi Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi masalasini ko'rib chiqib, YA.E. Rudzutakka mazkur respublikalarning mas'ul xodimlari bilan birgalikda bu g'oyani amalda qanday ruyobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilishni topshirdi. Milliy chegaralanishni o'tkazish masalasi TKP MQning 1924 yil 23-24 martda bo'lib o'tgan plenumida uzil-kesil hal qilindi. Plenumda milliy chegaralanish zarurligi ta'kidlandi. Turkiston Respublikasi doirasida uchta milliy respublika - O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston respublikalarini tuzish mo'ljallandi.

Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida tashkiliy va tashviqot ishlari olib borilgandan so'ng, 1924 yilning 11 oktyabrida RKP(b) Siyosiy byurosi O'rta Osiyoni qaytadan bo'lib, chegaralash haqidagi qarorni qabul qildi. Milliy chegaralanish natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoda O'zbekiston va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikalari, O'zSSR tarkibida bo'lgan Tojikiston Avtonom respublikasi, RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) va Qoraqalpog'iston Avtonom viloyatlari tashkil topdi. Sobiq Turkiston ASSRning qozoq viloyatlari esa, Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSR tarkibiga kiritildi.

Shu tariqa, 1924 yilning kuzida milliy-hududiy chegaralanish hukumat qarorlari bilan qonuniy tarzda rasmiylashtirildi.

1925 yilning 13 fevralida O'zSSR Sovetlarining Buxoroda ochilgan I Umumo'zbek qurultoyida "O'zbekiston SSR tuzilgani to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi. 1925 yil 13 mayda Ittifoq sovetlarining 3 -qurultoyida O'zbekiston respublikasi SSSR tarkibiga kiritildi.O'zbekiston SSR sovetlari MIQning raisi etib Yoldosh Oxunboboev saylandi.O'zbekiston XKS raisi etib Fayzulla Xojaev tayinlandi.

Sovet davlati rahbariyati «sotsialistik industrlashtirish»ni avj oldirish negizida Yosh O‘zbekiston SSR rahbariyati oldiga “Sovet O‘zbekiston”ini SSSRning asosiy paxta bazasiga aylantirish strategik vazifasini qo‘ydi.

O‘zbekistonda sanoatlashtirish qiyinchilik bilan amalga oshirildi. 1927-28 yillarda iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining hissasi 61,6%ni, sanoatniki esa 38,4 %ni tashkil qilar edi. Mavjud sanoat korxonalarining 90%i ham qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan edi.

1928-1932 yillarda 289 ta yangi sanoat korxonasi, jumladan, Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi, Quvasoy sement va ohak zavodi ishga tushirildi, Chirchiqqurilish, Olmaliqqurilish, Toshkent to‘qimachilik kombinati qurilishi davom etdi. Farg‘onada to‘qimachilik fabrikasi va yog‘ zavodi, Toshkent, Buxoro, Marg‘ilon va boshqa shaharlarda tikuvchilik fabrikalari ishga tushirildi. Sanoatlashtirish yillari respublika paxta tozalash zavodlarining texnik imkoniyatlari oshib, 1927-28 yillarda paxta tozalash sanoatining yalpi mahsuloti 165,7 mln rublni tashkil etdi.

Respublikani sanoatlashtirishda elektrlashtirish ham muhim o‘rinlardan birini egallaganligi tufayli, elektrstansiyalar qurilishi avj oldirildi. Masalan, Toshkent yaqinida quvvati 4 ming kilovatni tashkil etgan Bo‘zsuv GESi barpo etildi. 1932 yilga kelib esa, elektr stansiyalarining soni 49 taga etdi. SHuningdek, respublikada neft sanoati ham o‘tdi, 1925-26 yillarda neft ishlab chiqarish 5,6 tonna bo‘lgan bo‘lsa, 1927-28 yillarda bu ko‘rsatkich 47,7 tonnani tashkil etdi.

20-yillardan O‘zbekistonda avtomobil transporti vujudga keldi. 1921 yilda respublika avtomobil transporti ixtiyorida 40 ta engil va 15 ta yuk avtomobili hamda Toshkent avtomobil ta‘mirlash ustaxonasi bor edi. 1940 yilgacha Lenin nomidagi katta avtomobil yo‘li (710 km), Farg‘ona avtomobil yo‘li (343 km) qayta ta‘mirlandi va bir qancha yangi yo‘llar qurib bitkazildi.

1925 yil 2 dekabrda O‘ZSSR MIQning Favqulodda Sessiyasida xususiy mulkchilik munosabatlariga barham berib, sotsialistik ishlab chiqarishga bo‘ysunadigan “Er va suvni natsionalizatsiya qilish” to‘g‘risida Dekret qabul qilindi.

Er bilan birga ko‘pgina xo‘jaliklar mol-mulk, urug‘, asbob-uskunalariga ham ega bo‘ldilar. Bu sovet davlatining sinfsiz jamiyat qurish uchun ko‘rgan tadbirlaridan biri edi. Tortib olingan erlarning asosiy qismi kolxozlar va sovxozlar ixtiyoriga topshirildi va bu bozor-savdo munosabatlarining rivojlanishini to‘sqinlik qildi.

Bunday yo‘l bilan boshlangan ommaviy jamoalashtirish (kollektivlashtirish) «quloqlashtirish» siyosatini ham boshlab bergan edi. 1929 yil dehqonlar sinfini ijtimoiy qatlam va mehnatkash omma sifatida maqsadli yo‘q qilishning boshlanish davri bo‘ldi.

O‘zbekistonda quloqlashtirish O‘zKP MQning 1930 yil fevralda qabul qilgan “Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish” to‘g‘risidagi Qarori e‘lon qilingandan so‘ng boshlandi.

Respublikaning 17 rayonida yalpisiga kollektivlashtirish amalga oshirildi. Ko‘p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o‘rta xol,xatto kambag‘al dexqon xojaliklariga nisbatan xam zulm qilindi. Buning natijasida 1930 yilda respublikada 2648 ta quloq va boylar xojaliklari tugatildi. Kopgina joylarda axoli jamoalashtirish xavfidan qo‘pqib o‘z mol-chorvalarini keragidan ziyod so‘yib yubordi yoki sotib

yuborishga majbur bo'ldilar. Bu esa axolining o'z mulkiga bo'lgan ishonchini pasaytirib yubordi.

Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari

Sovet hukumati tashkil etgan maktablar bo'lsa talabga javob bermasdi, chunki muallimlar etishmas, borlarining ham bilim darajasi etarli emas edi. Hukumat olib borgan tadbirlar natijasida o'qituvchilarning faqat miqdoriy o'sishi ta'minlangan edi. Masalan, 1917 yilda Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo'qonda dastlabki o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, 1920 yillarning boshlariga kelib, mana shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta evropalik o'qituvchi tayyorlandi. 1920 yilga kelib, TASSRda "sotsialistik" turdagi 2080 ta maktab faoliyat ko'rsatib, ulardagi o'qituvchilar soni esa, 174820 tani tashkil qildi.

Mana shunday sharoitda mahalliy ziyolilar zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimini yaratish, dunyoviy bilimlardan dars bera oladigan o'qituvchilar tayyorlash lozimligini his etib, zamonaviy milliy universitet yaratishga harakat boshladilar. 1918 yil 9 aprelda Munavar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Musulmon Xalq Universiteti tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkiliy guruh tuzildi. Musulmon Xalq Dorilfununi 1918 yilning 12 mayida Toshkent shahrining eski shahar hududida ochildi.

1918 yilning 5 aprelida Turkiston Xalq Universitetining ochilishiga bag'ishlangan tantanalarda birorta ham musulmon vakillariga so'z berilmadi. Shunday bo'lsa-da, 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib respublika o'quv yurtlarining tarmog'i oshdi. Samarqandda O'zbekiston Davlat universiteti, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch shaharlarida oliy maktablar ochildi. Agar 1932 yilda respublikadagi 31 ta oliy o'quv yurtida 12,2 ming talaba o'qigan bo'lsa, 1941 yilga kelib ularda ta'lim olayotgan talabalar soni 18 ming kishiga etdi.

Ta'lim tizimida arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi Qaror ham muhim bo'ldi. "An'anaviy arabcha yozuv faqat diniy musulmon an'analari nuqtai nazaridan qimmatli"ligi ta'kidlanib, 1929 yilda eski o'zbek yozuvi lotin grafikasiga o'zgartirildi. Vaholanki, O'rta Osiyoni arablar istilo qilgan VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o'n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o'lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari ana shu yozuvda yaratilgan edi.

1940 yilda esa lotin grafikasining kirill alifbosi bilan shoshilinch almashtirildi. Ma'naviy hayot to'la ruslashtirilib, hamma joylarda o'zbek tili imkoniyatlari cheklandi.

Abdulla Qodiriy ham o'zining noyob iste'dodi bilan adabiyotda yorqin iz qoldirdi. Adib "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari bilan o'zbek romanchiligiga asos soldi. Keyinchalik A.Qahhorning "Sarob", Oybekning "Qutlug' qon" kabi romanlari yaratildi. Hamza ham o'z she'rlarida faqat ma'rifatga chaqiribgina qolmay, u qadimiy Turkistonning siyosiy-ijtimoiy ahvolini o'ylaydi, muxtoriyat g'oyalarini ulug'laydi. Shu tariqa sovet hukumati o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo'lishga imkon tug'dirsa-da, lekin

millatparvarlik va milliy taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etuvchi asarlarni yaratishga to'sqinlik qilib keldi.

Mannon Uyg'ur Toshkentda "Turon" jamiyati qoshida teatr tuzdi. Bu guruh keyinchalik O'lka Davlat namuna teatriga aylandi. Teatrning birinchi aktyorlari - Abror Hidoyatov, Muzaffar Muhamedov, Obid Jalilov, Fatxulla Umarov, Sayfi Olimov, Ma'suma Qorieva, Bosit Qoriev, Ziyo Saidlardir. Mannon Uyg'ur vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan Fitrat, G'ulom Zafariy, Cho'lpon, Qodiriy, ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovid asarlarini sahnalashtirdi.

20-yillarning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda qator ilmiy va o'quv muassalari tashkil etildi. Xususan, Turkiston Xalq Universiteti qoshida tuproqshunoslik va geobotanika, biologiya, zoologiya, pedagogika va psixologiya, fizika-matematika, ekologiya ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsata boshladi.

1932 yilga kelib, O'zbekiston olimlari Respublika Fanlar Akademiyasini tashkil etishga kirishdilar. Bu yo'ldagi ilk qadam bo'lib, 1932 yil 11 oktyabrda O'zbekiston ilmiy-tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi respublika qo'mitasi tuzildi. 1940 yil 9 yanvarda Fan Qo'mitasi SSSR FAning O'zbekiston filialiga aylantirildi. 1940 yilda uning negizida SSSR FA O'zbekiston filiali (O'zFAN) tuzildi. Shu davrdan O'zFAN O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot markaziga aylandi. Uning tarkibiga geologiya, botanika, kimyo, suv xo'jaligi muammolari, tarix, til va adabiyot institutlari; tuproqshunoslik, zoologiya, fizika va matematika sektorlari; Toshkent astronomiya observatoriyasi; iqtisodiy tadqiqotlar va kartografiya byurosi kiritildi.

1943 yilda SSSR FA asosida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi (O'zFA) tashkil etildi, uning birinchi prezidenti etib akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy saylandi.

Sovet davlatining siyosiy qatag'onlari va uning bosqichlari

Siyosiy rahbariyat partiya g'oyalaridan o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lganligi bois, avvalo milliy urf-odatlarini himoya qiluvchilarga nisbatan qat'iy kurash olib bordi. XX asrning 20-yillari oxiri 30-yillarining boshidan qatag'on siyosati keng avj oldi. Ittifoq jazo organlari va uning respublikadagi tuzilmalari aybsiz kishilar ustidan to'qib chiqarilgan turli ishlar bilan jamoat arboblari, olimlar, adabiyot va san'at arboblari, xo'jalik kadrlari, ishchilar, dehqonlar, din vakillarini qamoqqa oldi. Kommunistik rejim shu yo'l bilan millatning eng ilg'or ziyoli qismini yo'qotishga harakat qildi. Respublikaning vatanparvarlik kayfiyatidagi rahbar xodimlari siyosiy ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortila boshladi.

"18 lar guruhi" Respublikaning o'sha vaqtlardagi yuqori lavozimlarida ishlagan 18 ta rahbari sovet hukumatining er-suv islohotiga, xususiyl mulkni yo'q qilinishiga qarshi o'z noroziliklarini bildirib, egallab turgan lavozimlaridan ketish uchun ariza beradilar. Ular o'z noroziliklarida mahalliy xodimlarga noto'g'ri munosabatda bo'linayotgani, rahbarlarni tanlash faqat sinfiy nuqtai nazardan amalga oshirilayotganini ham bildiradilar. 1925 yil 19 noyabrdagi O'zbekiston KP(b) MQning plenumida bu xodimlar qattiq tazyiq ostiga olinadi. "18lar guruhi" bilan RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi raisi I.Zelenskiy yig'ilish o'tkazgandan so'ng,

guruhning 8 a'zosi o'z "xato"larini tan olib, imzolaridan voz kechadilar. Boshqa 10 ta shaxs O'rta Osiyo byurosida bayonotlarini ko'rib chiqishlarini talab qiladilar.

Yer-suv islohotini o'tkazish davrida "18 lar guruhi" ushbu jarayon va MQ ga qarshi faoliyat yuritishda ayblanishgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tgach esa, O'rta Osiyo byurosining plenumida (1927 yil oktyabr) ularga boy-quloqlarning manfaatini himoya qilgan, er-suv islohoti hamda ayollarning ozodlikka chiqishiga qarshi bo'lgan, savdogar va hunarmandlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish va davlat apparatini milliy lashtirish tarafdori bo'lgan degan, soxta aybnomalar qo'yiladi.

"Inog'omovchilik" 1926-1931 yillarda sovet hukumati tomonidan milliy rahbar va ziyolilarning qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan uydirma. "Inog'omovchilik"-o'sha yillarda O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasini bajarib kelgan Rahim Inog'omov (1902-1938) nomi bilan bog'liq. R.Inog'omov xalq ta'limi va madaniyatini proletarlashtirishga qarshi chiqib, VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosi faoliyatini tugatish talabini ko'tarib chiqadi.

"Qosimovchilik"-1929 yilda O'zSSR Oliy Sudining raisi Sa'dulla Qosimovning "qosimovchilik" deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlanadi. S.Qosimov bilan birgalikda tarix o'qituvchisi Olimov, sud idorasi xodimlari Musaboev va Spiridonovlar ham qamaladi. S.Qosimov va uning tarafdorlari "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlash, "aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar" a'zolari bilan aloqa bog'laganlik, islom dinini himoya qilishda ayblandilar. Holbuki, S.Qosimov va B.Sharipov o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilishgan edi. S.Qosimov tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi tomonidan O'zbekistonning suverenlik huquqi va milliy manfaatlarini poymol qilayotganligini ochib tashlashdan cho'chimadi. Biroq, ularga qo'yilgan aybnomalar vaqtli matbuotda ham e'lon qilinadi.

1930 yilning 22 iyunida xukm e'lon qilinadi. Ularning hammasi yot sinf manfaatlarini himoya qilganlikda, Sharipov esa bosmachilarga faol yordam berganlikda ayblanadi. S.Qosimov, Sharipov, Olimov, Musabekov va Spiridonovlar o'lim jazosiga hukm qilinadilar, ularning tarafdorlaridan qolganlari 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilinadilar.

"Badriddinovchilik"-O'zbekiston SSR Oliy sudining prokurori SHamsutdin Badriddinov nomi bilan bog'liq ish. Sh.Badriddinovga "Milliy ittihad" tashkiloti a'zolari va bosmachilar bilan aloqa bog'lagan, Munavvar Qori va S.Qosimovning yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan degan ayblar qo'yilgan. Sh.Badriddinov va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayoni 1932 yil 5 may 15 iyunda Toshkentda bo'lib o'tadi.

Sovet rejimi A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari kitobxonlarni sovet voqeligidan uzoqlashtiradi va unda millatchilik qarashlari ochiq aks etgan deb tanqid ostiga oladi va bu uning 1937 yilda qamoqqa olinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotimizning eng sara arboblari qatorida A.Qodiriy ham 1938 yil 4 oktyabrda otib tashlanadi.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukumronligi kuchayib bordi. 40-yillarning oxiri 50-yillarning boshlarida sovet hukumati «mafkuraviy kurash»ni yanada kengroq avj oldirib, ijodkor ziyolilarga qarshi hujumni avj oldirgan. Respublika davlat havfsizligi organlari 1951 yilda Yozuvchilar uyushmasi va ayrim matbuot organlaridan 12 kishini sovetlarga

qarshi millatchilikda aybladi. Bu guruhda shoir va yozuvchilardan SHukrullo Yusupov (Shukrullo), G‘ulom Alimov (Shuhrat), Maqsud Shayxzoda, G‘.G‘ulom bor edi. Ularning ba‘zilari «sovetlarga qarshi millatchilikda ayblanib», 25 yilga qamoq jazosiga hukm qilindilar.

O‘zbekistonda 1937 yildan 1953 yilgacha respublikada NKVD «uchligi» tomonidan 100 ming kishi qamoqqa olindi va turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilindi, ulardan 15 ming nafari otib tashlandi. Ular orasida turli rahbar xodimlar, adabiyot va fan arboblari, o‘qituvchilar va jurnalistlar, ishchilar va dehqonlar, turli qatlam va millatlar vakillari bor edi.

Qatag‘on to‘lqini bu bilan to‘xtab qolmadi. 1980 yillardan KPSS MQ rahbarligida O‘zbekistonda navbatdagi oshkora qatag‘on boshlandi. Tarixda “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” deb atalgan mash‘um siyosat niqobi ostida minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. 80-yillarga kelib sovet davlatida markazdan boshqarishning amaldagi tizimi emirilib, markazning iqtisodiy inqirozlarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Barbod bo‘layotgan bu iqtisodiy siyosatni berkitish uchun markaz o‘g‘rilik, poraxo‘rlilik, qo‘shib yozish kabi holatlar «aybdorlarini» milliy respublikalardan qidira boshladi.

1984 yil O‘zbekistonda kadrlar siyosati masalasida «burilish» yasagan O‘zKP MQ XVI plenumi bo‘ldi. Unda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi inqiroziy ko‘rinishlar mamlakatdagi vaziyatdan ajratib, alohida qaraldi. Natijada, kadrlarni mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishga emas, balki siyosiy partiyaviy ma‘lumotini oshirishga e‘tibor berildi.

XVI plenumdan so‘ng kadrlar orasida ham «tozalash ishlari» boshlab yuborildi. 1984-1985 yillar oralig‘ida viloyat, shahar, tuman, partiya qo‘mitalari kotiblari, ijroiya qo‘mita raislari, ularning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari rahbarlaridan ko‘pi lavozimlaridan olib tashlandi. Ular markazdan doimiy ishlashga yuborilgan kadrlar bilan almashtirildi. Ular ittifoq markazining respublikadagi tayanchi bo‘lishi va respublikada sovetcha usuldagi «tartib-intizomni» mustahkamlashi lozim edi.

X.4. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi

Insoniyat juda ko‘plab urushlarni boshidan kechirgan, lekin bular ichida eng dahshatlisi, 50 mlndan ortiq kishining yostig‘ini quritgan, XX asr fojiasi bo‘lmish Ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentyabr-1945 yil sentyabr) davom etgan bu urush er sharining 80% aholisi joylashgan hududni o‘z ichiga olgan 61 ta mamlakatni qamrab olgan edi.

30-yillar oxirlarida xalqaro keskinlik va Ikkinchi jahon urushining boshlanishida Stalin boshliq sovet rahbarlari kapitalistlarni o‘zaro urushtirib, ularning kuchi kamayishi bilan Qizil armiya kuchlarining qaqshatqich zarbasini berishga intilishlari va aynan shu maqsadda 1939 yil 23 avgustda Germaniya bilan 10 yil muddatga o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida tuzilgan shartnoma ularning javobgarliklarini tashkil qiladi. Sovet-german bitimining maxfiy qo‘shimcha bayonnomasiga ko‘ra, Germaniya bilan SSSR ta’sir doiralarini bo‘lib olishgan edi.

Ularning manfaatdor hududlari chegarasi Polshadan o'tgan bo'lib, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya hududlari hamda Boltiqbo'yi mamlakatlari SSSR ta'sir doirasidagi hudud ekanligi Germaniya tomonidan tan olingan edi. Eng so'nggi tarixiy tadqiqotlar "Avgust bitimi" mamlakat xavfsizligini mustahkamlab, sovet-german urushining boshlanishini orqaga surgan emas, balki, Ikkinchi jahon urushi va unga SSSR ning tortilishini tezlashtirgan hujjat bo'lganligini ko'rsatadi.

1941 yil 22 iyun yakshanba kuni tongotarida "avgust shartnomasi"ni buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR ga hujum boshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari - Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo'lgan barcha respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari uchun og'ir sinovlar vaqti va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi. Urush boshlangan kundan etiboran mamlakatda xarbiy holat joriy qilindi. 1941 yil 30 iyunda Davlat Mudofaa Qomitasi (DMQ)ning tuzilishi bilan mamlakatdagi butun siyosiy, xarbiy va hojalik hokimiyati uning qoliga otdi. Ushbu qomitaning raisi Iosif Vissarionovich Stalin 19 iyuldan SSSR Mudofaa Xalq komissari, 8 avgustdan SSSR Qurolli Kuchlar Bosh qomondoni lavozimini egalladi. U ayni paytda SSSR XKS raisi va VKP(b) MK Bosh kotibi bolgan. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar, korsatmalarda mamlakatning katta xavf ostida qolgani, uni himoya qilish ushun zudlik bilan barcha iqtisodiy-manaviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga boysundirish, xalq-hojaligini toliq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi.

Umumiy harbiy safarbarlik e'lon qilindi.

2-jahon urushi davrida respublikaga rahbarlik qilgan O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1-kotibi Usmon Yusupov (1937-1950) o'zbekistonliklarni fashizimga qarshi kurashga safarbar qilishda bosh-qosh bolgan.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941 yil iyundan 1942 yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiya va Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941 yil 13 noyabrdan 1942 yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib, frontga jo'natildi. Umuman, urush boshlarida 6,5 million kishidan iborat bo'lgan O'zbekiston aholisining 1.433.230 tasi urushga safarbar etilgan. Ularning ko'pchiligi mardlik namunalarini ko'rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Chunki ota va onalar, O'zbekiston xalqi o'z o'g'lonlarini frontga jo'natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo'lib, dushmanlar ustidan g'alaba qozonishlarini tilab qolgandilar.

Kadrlar, xom ashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramay 1941 yil dekabrdayoq respublikadagi 30 ga yaqin korxona mudofaa uchun mahsulot bera



boshladi. Korxonalarda front brigadalari nomini olgan brigadalar tuzila boshladi, dastlab oktyabr oyida "Tashselmash" zavodida tashkil etilgan bo'lsa, 1942 yil boshlarida ularning soni 1,5 mingga etgan. 1942 yil o'rtalariga kelib xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan oxiriga etkazildi.

Urushning ilk kunlarida respublika aholisidan 30 million so'mlik miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho buyumlar to'plandi. O'zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg'armasiga jami 649, 9 mln. so'm pul va 55 kg.ga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topshirdi. Bu jamg'arma hisobiga tank kolonnalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoezdlar qurilib, frontga jo'natildi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining Qarori bilan 1941 yil oktyabrida evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etilib, joylashtirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941 yil 25 noyabridan 1942 yil oktyabriga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq etim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F.Qosimova 10, M.Jo'raeva va Ashurxo'jaevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943 yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945 yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlari va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga etdi. 1943 yilda bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. YUqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mexr-muhabbati, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

O'rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, "Qizil-Oqsoy", "Rosselmash", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yomnik" zavodlari, Temir yo'llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put" zavodi, Kievda "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O'zbekistonga; ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg'ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g'oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta'minlash ishi bilan maxsus komissiya shug'ullandi.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o'quvchi, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar katta kuch g'ayrat bilan tinim bilmay mehnat qildilar va qisqa kunlarda, ya'ni "Rosselmash" 25 kunda, "Qizil Oqsoy" zavodi bu erga etib kelganidan keyin oradan 29 kun o'tgandan keyin ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrda kelib evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

O'zSSR XKS ning 1942 yil 17 iyunda Bekobodda metallurgiya zavodini qurish to'g'risidagi qarorini bajarishga 30 mingdan ko'proq kishi jalb etilib, 1944 yil 5

martda O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi ishga tushirildi. 1945 yil fevralda Bekobod metallurgiya zavodining ikkinchi navbati ham mahsulot bera boshladi.

Urush yillarida qurilish materiallari, to'qimachilik va poyafzal, oziq-ovqat va mahalliy sanoat tarmoqlari ham rivojlandi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushirilishi natijasida 1945 yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barobar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko'mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 barobar ko'paygan.

O'zbekistonning mashhur olimlaridan - U.A.Orifov, YA.X.To'raqulov, I.Ismoilov, X.Uzmanov va boshqalar bor edi. T.N. Qori-Niyozov, V.I.Ramonovskiy, T.Z.Zohidov, I.A.Raykova, O.S.Sodiqov kabi olimlar xalq xo'jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

O'zbek matematik, mexanik va astronomlari aviatsiya, o'q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo'lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qildilar. Bunda T.A.Sarimsoqov, V.I.Ramonovskiy, M.Kamolov, N.N.Nazarov kabi olimlar hissi katta bo'ldi.

O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'ofur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruhlantirdilar. Oybekning "Yovga o'lim!" she'ri, "Navoiy" romani, "Men yahudiy", Hamid Olimjonning "Yigitlarni frontga jo'natish", "Jangchi Tursun", "Roksananing ko'z yoshlari" va boshqa asarlar urush yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoilov, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrohim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, "Qizil armiya", "Front haqiqati", "Qizil askar haqiqati", "Suvorovchi", "Vatan sharafiga uchun" kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A.Umarov, G'afur G'ulom, Ra'no Uzoqova va boshqa shoir hamda yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marshallariga borib, o'z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar.



Снайпер Зебо Ганиева

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo'yib berib, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A.Abdullaev, Ch.Ahmarov, O'.Tansiqboev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy

yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

O'zbekistonliklarning jang maydonlarida ko'rsatgan jasoratlari

Sobiq ittifoq xalqlarining fidokorona mehnatlari, jangchilarning qahramonona jasoratlari sabab, nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, 43 kuni kam 4 yil (1941 yil 22 iyun-1945 yil 9 may) davom etgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Lekin ikkinchi jahon urushi davom etardi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo'lgan kelishu va sharqdan xavf bo'lib turganligi sababli 1945-yil 9-avgustga o'tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshlandi. 2 sentyabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar o'zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, Kvantun armiyasi mag'lubiyatga uchratishda, Yaponiyaning taslim bo'lishida o'z hissalarini qo'shdilar.



N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko'plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovar faolliklarini namoyish etdilar.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlashida o'zbekistonliklarning front va front orqasidan jasoratlari katta hissa qildi. 120 mingdan ortiq o'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovar bo'ldi. "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga ega bo'lgan 300 dan ortiq jangchidan 75 tasi o'zbek o'g'lonlari edi. O'zbekistonlik 82 ta jangchi "Shuhrat" ordenining uchala darajasi bilan taqdirlandi. Italiya, Angliya, Fransiya, Yugoslaviyadan, Pol'sha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi mamlakatlarining opdenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etadi.

General Sobir Raximov qo'mondonligidagi diviziya Sharqiy Prussiyagacha jangovor yo'lni bosib otdi. Keyinchalik Polsha erlarini ozod qilishda Sobir Raximov rahbarligidagi 37 gvardiyachi Rechitsk o'qchi diviziyasi aloxida ajralib turdi. Ofir janglarda yarador bo'lgan Sobir Raximov 1945 yil 25 martda xalok bo'ldi. 1965 yil 6 maydagina tarixiy xaqiqat tiklanib, o'zbek xalqining mard o'gloni Sobir Raximovga o'limidan so'ng Sovet Ittifoqi Qaxramoni unvoni berildi.

O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. 1939-1945 yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi halok bo'ldi, 132.670 kishi nogiron bo'lib qaytdi.

Urush yillarida asirga tushgan 6,2 mln. kishidan 4 mln. kishi halok bo'lgan, 1 mln. kishi "Vlasovchilar"ga qo'shilgan, tirik qolgan 1 mln. kishi esa nemis lagerlarini sovet lagerlari bilan almashtirishga majbur bo'ldilar. Ular orasida nohaq jazolanganlar yurtdoshlarimiz ham bor bo'lib, S.Abdullaev, L.Popov, K.Abramovich, P. Rustamov va boshqalar shular jumlasidandir.

Ikkinchi jahon urushi frontlarida o'zbekistonlik jangchilar o'zlarining botir, mard, qo'rqmasliklarini namoyon qilib, qahramonlik namunalari ko'rsatdilar.

Chegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida o'zbekistonliklar ham ko'pchilikni tashkil qilardi. Ular o'z zastavalarini himoya qilishda, oxirgi qonlari qolguncha dushmanga qarshi jang qilib, halok bo'lganlaridan keyingina dushman zastavalarga kirish imkoniga ega bo'ldi. Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar Sharipov, Brest qal'asi mudofaasida Ahmad Aliev,

Doniyor Abdullaev, Bobokomil Kashanov, Uzoq O‘taev, Nurum Siddiqov, Madamin Hojiev, E.Ya.Liss, Rahimboy Arslonboev, Saidahmad Boytemirov, F.I.Laenkov kabi o‘zbekistonliklarning ko‘rsatgan jasoratlari Vatan himoyachilarining qahramonona jasoratining ramzi bo‘lib qoldi.

Moskva mudofaasiga etib kelgan, Turkiston harbiy okrugida tuzilgan, general-mayor I.V. Panfilov qo‘mondonlik qilgan, tarkibida 180 dan ortiq harbiy va harbiy-siyosiy bilim yurtlarini tamomlagan komandirlari bo‘lgan 316-o‘qchi diviziya Volokolamsk, Dubosekovo, Novo-Petrovsk yonidagi janglarda qahramonona kurashdi. O‘zbekistonlik Abdulla Tog‘aev, Mamadali Madaminov, Leytenant Pilyugin boshliq to‘qqizta jangchi jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva uchun olib borilgan janglarda o‘zbek xalqining qahramon qizlarining jasorati namunasini ko‘rsatgan Zebo G‘anieva Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi. Moskva ostonasida fashist qo‘shinlarini tor-mor qilishda ko‘rsatgan jasoratlari uchun 1753 o‘zbekistonlik jangchi “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan taqdirlandi. S.Qosimxo‘jaev “Qahramon unvoni”ga sazovor bo‘ldi. 1945- yilga kelib mamlakatda yaxshilik sari qat’iy o‘zgarishlarni kutayotgan xalq yana mustabid tuzum asoratida qoldi. Ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar yashirinib barqarorlik vujudga keltirdiki, ular bu tuzumning muqarrar qo‘lanishini ko‘rsatardi.

Katta qurbonlar evaziga bo‘sla ham o‘zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib hissa qo‘shdilar. Urushda halok bo‘lganlar xotirasini tiklash va qadrlash uchun “Xotira” kitoblari tuzildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va motamsaro ayol haykali yodgorlik majmuasi tiklandi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may “Xotira va Qadrlash kuni” deb e‘lon qilindi. Hozirgi kunda hayot bo‘lgan mehnat va urush faxriylaridan yosh avlod hamisha minnatdordirlar.

X.5. Sovet davlatida ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston (1946-1989 yy.)

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligining tinch qurilishga o‘tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Urush davrida umumiy dushman fashizmga qarshi kurash antifashist davlatlar va xalqlarni birlashtirgan bo‘lsa, urush tugagandan keyin bu ittifoqdagi davlatlar orasida ajralish yuz berdi va ikki o‘rtada “sovuq urushlar” munosabati boshlanib ketdi.

Respublikada urushdan keyingi yillarda Iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalar O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946 yil avgustida chaqirilgan 8-sessiyasida qabul qilingan 1946-1950 yillarga mo‘ljallangan rejada belgilandi. Bunga ko‘ra, xalq xo‘jaligining barcha sohalariga 3 mlrd. 900 mln. so‘m kapital mablag‘ ajratildi.

Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining etakchi sohasi – paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi. Elektr quvvati ishlab chiqarishga alohida e‘tibor berildi. 5 yilda 8 ta yirik va o‘rta hajmdagi elektrostansiya, shu jumladan, 300 000 kv. soat kuchga ega bo‘lgan Farhod suv elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya sobiq ittifoqda uchinchi o‘rinda bo‘lib, urushgacha O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo‘ldi.

O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish to'g'risida sovet hukumatining urushdan keyin qabul qilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan o'nlab qarorlari izchillik bilan amalga oshirilmadi, shuning uchun ham kutilgan natijalarni bermadi. 1947-1948 yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi. 1949 yildan boshlab ahvol birmuncha o'zgardi. 1950 yili 2 mln. 222 ming tonna paxta etkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga etdi. 1950 yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnaga 2200 so'm, ya'ni avvalgidan ikki baravar ko'p haq to'landi. Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarida ekin maydonining qisqartirilganligi oqibatida g'alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga erishilmadi.

Keng iste'mol mollarini ishlab chiqarish kam bo'lib, ular asosan chetdan keltiriladigan bo'ldi natijada, Respublika aholisining engil sanoat, oziq-ovqat mollariga ehtiyoji kuchaydi.

Respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil qilgan qishloq aholisining moddiy ahvoli achinarli holda edi. Ularning oylik daromadi o'rtacha 20 so'mni tashkil qilgan holda, bu ko'rsatkich ishchilarda 64 so'm edi.

50-60 yillarda qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish, shu asosda paxta va g'alla etishtirishni ko'paytirish choralari ko'rildi. O'zbekistonda uch yil ichida (1953-1955 yy.) 130 ming gektar yangi erlar ochildi. 1956 yili Mirzacho'lning o'zida sug'oriladigan maydon 205.000 gektarga etdi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Respublikada 1951 yilda 0,9 mln t. mineral o'g'it ishlatilgan bo'lsa, 1980 yilda uning miqdori 5 mln. tonnadan oshib ketdi. G'o'za barglarini to'kish va zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatilgan o'ta zaharli ximikatlarda (butifos, merkaptafos va b.)dan haddan tashqari keng miqyosda foydalanish, aholi sog'ligiga yomon ta'sir qildi.

Dunyo bo'yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr.dan, AQSH da 800 gr.dan to'g'ri kelgan bo'lsa, respublikaning paxta ekiladigan xududlarida har bir kishiga 1989 yil 25-45 kg.dan to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha bo'lsa, bu har bir kishiga 7-8 kg.ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosi etishtirish 1946-1985 yillarda 5,5 baravar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln. ga. dan ortdi. 1966-1986 yillar maboynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd. so'mi sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln. ga. er o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan erlarda yangi 160 ta sovxoz tashkil etilgan bo'lib, 20 yil davomida bu erlarda 10,4 mln tonna paxta xom ashyosi etishtirildi.

Mavjud suv zahirasi imkoniyatlaridan ortiq erlarning o'zlashtirilishi, tog' yon bag'irlariga ekin ekilishi, o'rmonlarni shafqatsizlik bilan kesilishi, daryo va ko'l suvlarining ifloslanishi hayvonot olamida salbiy oqibatlarga olib keldi. Orol dengizi yaqin o'tmishda dunyodagi eng katta ko'llardan hisoblanib, baliqchilik, ovchilik, transport sohasi yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Biroq bir avlod umri davomida bir dengiz quridi. Orol dengizining qurishi 1960-70 yillarda yiliga-18 sm, 1971-1980 yillarda-53 sm, 1981-1985 yillarda-78 sm, 1985 yilga kelib esa-87 sm.ga etdi. 1961 yildan 1991 yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqardi, dengiz o'z qirg'og'ida 75-80, ba'zi joylarda 100 km.ga chekindi. 1980 yillarning boshida Orol dengiziga suv

kelishi deyarli butunlay to'xtab, nodir suv makoni quriy boshladi. Bu erlarda 2 mln. ga tuz va qumdan iborat maydon ochilib qoldi.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari "sotsializm uzil-kesil g'alaba qilgan" davrda aholining jon boshiga hisoblaganda quyidagicha edi: go'sht 29 kg, sut 150 litr, tuxum 78 dona, qand-shakar 21,2 kg, kartoshka 28, sabzavot va poliz mahsulotlari 66 kilogramdan to'g'ri keldi. Bu miqdor umumittifoq darajasidan ancha past edi. Qishloq aholisining iste'mol darajasi bu o'rta hisobdan ko'ra yana ham achinarli edi.

Buning ustiga tomorqaga nisbatan noto'g'ri siyosat olib borildi. 50-yillarning boshlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug'oriladigan erlarda tomorqa hajmi 25 sotihdan 13 sotihga tushirildi. Bu ko'rsatkich joylardagi rahbarlarning o'zboshimchaligi bilan 10 sotihgacha, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida esa, hatto 6-8 sotihgacha kamayib ketdi. Bu holat respublika qishloq aholisining turmush darajasini g'oyat og'irlashtirdi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xatolarga ham yo'l qo'yildi. Xususan, Toshkent va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari qurilib, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda nomutanosiblikni keltirib chiqardi. 1955 yil dekabrda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimiga avval Vazirlar Kengashining raisi vazifasida ishlagan Nuriddin Muhiddinov saylandi. SHu davrdagi ro'y bergan ko'plab ijobiy o'zgarishlarda N.Muhiddinovning hissasi katta bo'ldi. Uning tashabbusi bilan Markaz qaramog'idagi yuzlab sanoat korxonalari respublika ixtiyoriga o'tkazildi. 1960 yillarda O'zbekiston sanoatida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 1959-65 yillar 450 dan ziyod sanoat korxonalari (shundan 150 yirik) va sexlar ishga tushirildi. Toshkent (birinchi navbati) Navoiy, Taxiatosh issiqlik elektrostansiyalari, Gazli gaz koni shular jumlasidandir.

Rangli metallurgiya sanoati sohasida Ohangaron, Olmaliq havzasi va Zarafshon tizma tog' konlari o'zlashtirildi.

1966-1970 yillarda sanoatda zo'raki jadallashtirish natijasida yangi (oltin, uran, neft ishlab chiqaruvchi) sohalar rivojlandi. Respublikada kimyo tolasi, organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqarishning butkul markazlashtirilishi ko'p o'tmay samara bermay qo'ydi. 70-yillardan boshlab yildan-yilga sanoat va qishloq xo'jaligi rejalari bajarilmay qolaverdi

30-yillarning ikkinchi yarmidan 1959 yilgacha Sovetlarga Markazdan kelgan rahbar, partiya va sovet xodimlarini saylash yo'lga qo'yildi. IV chaqiriq Oliy Kengashning 294 deputatidan 16 tasi markaz vakillari edi. Bunday ish yuritish 70 yillardan qaytadan yo'lga qo'yildi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalari kengaydi. 1958 yili O'zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chiqargan bo'lsa, 1970 yil 76 mamlakat bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Chet davlatlarga mahsulot chiqarishda O'zbekiston sobiq Ittifoqda RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o'rinda turdi.

Andijon mashinasozlik zavodining mahsulotlari 44 mamlakatga, Toshkent kabel zavodining mahsuloti 27, Chirchiq elektroximkombinati 20, Samarqanddagi "Kinap" zavodi 30 mamlakatga o'z mahsulotini chiqardi. Ko'p yillar davomida paxta tashqi bozorga chiqarilgan asosiy mahsulot bo'lib, 1953 yildan boshlab O'zbekiston paxtasi

Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika, Suriya kabi paxta etishtiruvchi mamlakatlarning raqobatini engib yirik kapitalistik davlatlar bozoriga chiqdi va jami 35 davlatning bozorini egalladi.

O'zbekistonda fan va texnikaning hamma sohalarida yirik olimlar etishtirilib, fan nomzodlari va doktorlarini tayyorlash bo'yicha sobiq SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

1950 yil O'zbekistonda 1760 fan nomzodi, 180 fan doktorlari ilmiy ish olib bordi. 1965 yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324 ga etdi. 50-60 yillari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi olimlari, ayniqsa, matematika-mexanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida ishlar olib bordi. Bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari, travmatologiya va ortopediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda ishga tushirildi. O'zFA qoshida Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, Sharqshunoslik instituti faoliyati kengaytirildi.

1951-1954 yillari respublikada yana bir yirik ilmiy markaz bunyod etildi. 80 gektar maydonda, ittifoqda yagona tibbiy sharoitda o'sadigan Toshkent botanika bog'i yaratildi. 1956 yili 5 noyabrda O'rta Osiyoda birinchi Toshkent telemarkazi ishga tushirildi. Keyinchalik 1962 yil Urganchda, 1964 yil Nukusda ham televizion markazlar ish boshladi.

O'zbekistonlik olimlarning bir qanchasi, ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida o'zlarining ilmiy yutuqlari bilan, nafaqat, sobiq Ittifoq doirasida, balki jahon miqyosida tan olindi va yuqori darajadagi davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar. O'zbek matematik olimlaridan – T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinov, fiziklar – U.O.Orifov, S.A.Azimov, ximiklar – O.S.Sodiqov, S.Yu. Yunusov, M.I.Nabiev, geologlar – X.M.Abdullaev, I.X.Xamraboev, G.A.Mavlonov, biologlar – A.M.Muzaffarov, K.Z. Zokirov, T.Z.Zohidov, texnika sohasida – M.T.O'razboev, X.A.Rahmatullin, X.Fayziev, jamiyatshunoslik fani sohasida – I.M.Mo'minov, H.Sulaymonova, YA.G'.G'ulomovlar shular jumlasidandir.

60-yillardan adabiyotda yangi avlod paydo bo'ldi. Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, Husniddin Sharipov, Ozod Sharafutdinovlar bilan izma-iz yangi ijodiy tafakkurga ega bo'lgan iste'dodli Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Xoshimov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi Yosh adabiyotchilar maydonga keldi. O'zbek adabiyotining rivojlanish davrida adabiyotga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroli sifatida qaralib, ijod erkinligi bo'g'ildi va partiyaviy sinfiy aqidalar tiqishtirildi. 50-80-yillarda ahyon-ahyonda bo'lsa ham ozodlikka intiluvchi fikrlar ko'zga chalinardi. Biroq bunga darhol tanqidlar, ma'muriy jazolar to'sig'i qo'yilardi.

Aynan shu davrlarda davlatni boshqarib turgan kamtarin va donishmand davlat arbobi Sharof Rashidovning shaxsiga nisbatan turli bo'xtonlar uyushtirildi."Ma'lumki, Sharof Rashidov respublikaga qariyb chorak asr etakchilik qildi. O'tmishni yashirishning xojati yo'q.Sharof Rashidov o'z davrining farzandi edi,u mavjud tuzumga sadoqat bilan xizmat qildi.Ammo bedodlikni qarangki,shunday odam dunyodan ko'z yumganda o'zi umr bo'yi ximoya qilgan,sodiq bo'lib xizmat

qilgan tuzum unga xiyonat qildi.”¹. Xech shubxa yo’qki, Sharof Rashidov nomini o’zbek xalqining tarixidan, xayotidan ayri tassavur qilib bo’lmaydi. Sharof Rashidov o’z xalqiga va Vataniga fidoyi farzand edi. Faqatgina istiqlol yillarida Sharof Rashidov nomi qayta tiklandi. 2018 yil respublikamizda atoqli davlat arbobi Sharof Rashidov tavallidining 100 yilligi keng miqiyosda nishonlandi.

KPSS MK Aprel (1985 y) plenumi sovet jamiyatini “qayta qurish”, bu jamiyat hayotining barcha sohalarini “chuqur isloh qilish” yo’lini e’lon qildi. Bunda, avvalo, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o’sishni fan-texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirishga qaror qilindi.

SSSRdagi "qayta qurish" jarayoni avval boshdanoq siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohotlar esa unga bo’ysunuvchan ahamiyat kasb etdi. Oradan ko’p o’tmay, jadallashib borayotgan siyosiy jarayonlar (oshkoralik, demokratiya) bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o’rtasida katta farq ko’zga tashlana boshladi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo’lgan O’zbekiston SSR ham qayta qurish girdobiga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985-1986 yillar) asosan ma’muriy-tashkiliy tadbirlarning an’anaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo’yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uniig asnosida inson omilini faollashtirishdan iborat bo’ldi.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e’tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi. Shuning uchun ham 1986 yil 1 mart kuni KPSS XXVII s’ezdining KPSS Markaziy Komiteti siyosiy ma’ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolyusiyada fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasiga katta e’tibor qaratilgan edi.

Xullas, qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e’tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Ammo, bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo’ldi. Shuning uchun 1986 yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e’tibor qaratishga majbur bo’lindi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma’muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi qurash turar edi.

Bu davrda butun Sovet Ittifoqida bo’lgani singari O’zbekistonda ham dastlab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ma’lum o’zgarishlar yuz bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari ayrim qadamlar tashlandi, milliy o’zlikni anglash jarayoni boshlandi. Ammo, tub o’zgarishlar va barcha sohalarida haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo’lidagi o’rinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. Statistik ko’rsatkichlarda qayd etilishicha, 1986 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987 yil yanvardan ishlab chiqarish sur’atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag’lubiyatga uchradi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-1990 yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo’ydi. Bunday vazifa

¹ Шавкат Мирзиёев Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. Т. Ўзбекистон. 2017 й. 6-344

kommunistik mafkura tomonidan 1987 yil yanvarda yanada aniqlashtirildi. Moskva shahrida 1987 yil 27-28 yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS Markaziy Komitetining Bosh sekretari M.S.Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida" ma'ruza qildi. Unda siyosiy islohotlarning acociy maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishga e'tibor qaratildi. Keyinchalik M.S.Gorbachyov o'zining qayta qurish haqidagi mashhur kitobida bu g'oyalarini davom ettirdi. Biroq siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish, keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayonlarda ishtirok etishi Markaz uchun qutilmagan oqibatlariga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohotlar boshi berk ko'chaga kiritib qo'yildi. Oqibatda 1990 yil nafaqat qayta qurishning ikkinchi bosqichi, balki SSSR aholisi, balki butun dunyo umid ko'zi bilan qarayotgan qayta qurish siyosati butunlay mag'lubiyatga uchradi. Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va uning parchalanishiga olib keldi.

Davlat rejalashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan hal qilishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o'sish yildan-yilga kamayib bordi. Respublika xalq xo'jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdorligini pasayishi hisobga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad oldi. 1989 yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq Ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi.

Ushbu muammolardan xalq e'tiborini chalg'itish uchun ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan milliy noroziliklardan foydalanildi. Kommunistik mafkura o'z hukmronligini saqlab qolish uchun, hatto, ayrim respublikalarda millatlararo nizolarni uyushtira boshladi. 1989 yilda Toshkent, Farg'ona, Andijonda ro'y bergan millatlararo mojarolar, Kavkazdagi qurolli to'qnashuvlar, quvg'in qilingan xalqlarning noroziliklaridan razilona manfaat yo'lida, respublikalarda, shu jumladan, O'zbekistonda paydo bo'layotgan hurlik ovozi bo'g'ish uchun foydalandilar.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshiliklarga "ko'nikmagan" siyosiy rahbariyat namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989 yil 8 iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi. Natijada, namoyishda qatnashgan 50 dan ziyod aholi halok bo'ldi (ularning ko'pchiligi Yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlarda harbiylar tomonidan o'qqa tutilish oqibatida 103 kishi halok bo'lgan. 1009 kishi yarador bo'lgan, va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan.

Farg'ona fojialariga taalluqli ma'lumotlarning (lekin ma'lumotlar yo'q darajada) tahlili shuni ko'rsatadiki, mesxeti turklari uchun bu mojaro mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo'lgan. Mahalliy aholi esa bu mojaroga tabiiy ravishda qo'shib ketgan. Chunki joylarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga e'tibor berilmagan, mahalliy Yoshlar o'rtasida ishsizlik ko'payib, aholining turmush darajasi pasayib borgan, aholi uy-joylar bilan ta'minlanmagan, uy qurish uchun uchastkalar ajratilmagan, paxta yakkahokimligi, ekologiya muammolari hal qilinmagan, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik, qonunbuzarlik avj olgan.

80-yillarning oʻrtalariga kelib SSSRning parchalanishi real obʻektiv haqiqatga aylanib qoldi. Milliy ongni oʻsishi, oʻzbek tili masalasini kun tartibiga qoʻyilishiga olib keldi. R. Nishonov boshchiligidagi respublika rahbariyati bu muammoni hal qilishga emas, aksincha bu harakatni “jamiyatga qarshi” deb, uni barham toptirishga, qonunchilik, oshkoralik va ommaviy talablarga rioya qilish oqimiga burib yuborishga urindi.

Texnologik usullar: B.B.B. jadvali

Bunda:

1. Yangi materialni oʻqitishga tayyorlash.
2. Yangi oʻquv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlarni hosil qilish..
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirish
5. Bilim va malakalarini tekshirish boʻyicha bilgan maʼlumotlaringizni bilaman jadvaliga toʻldiring.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim
	Yangi materialni oʻqitishga tayyorlash	Oldingi oʻtilgan mavzuni takrorlash orqali yoki yangi mavzuga dastlabki tushunchalar berish orqali amalga oshiriladi
	Yangi oʻquv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish	Koʻrgazmali vositalar orqali yangi mavzuni ozlashtiradi
	Bilimlarni mustahkamlash va turli xil savollarga javob berishda hozirjavoblikni shakillantirish	Darslikdagi mavzuni muhokama qilish
	Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish	Didaktik oʻyinlar orqali tarihiy sanalarni eslab qolish
	Bilim va malakalarini tekshirish	Bergan javoblariga qarab talabalarni baholash

Nazorat savollari

1. 1917 yilgi fevral-burjua revolyusiyasining Turkistonga tasiri qanday boʻldi?
2. 1917 yilning yozida Turkistonda paydo boʻlgan musulmonlarning birinchi siyosiy partiyasi qanday nomlangan?
3. Qachon va qayerda Turkiston musulmonlari VI Favqulodda qurultoyi oʻz ishini boshladi?

4. Turkiston Muxtoriyatining ag'darilishining sabablari nimada?
5. Kimlar birinchi bo'lib qo'llariga qurol olib Sovet hokimiyatiga qarshi kurash boshladilar?
6. 20-yillar oxiri-30 –yillar qatag'onliklari xaqida gapirib bering.
7. Sovetlar tomonidan olib borilgan diniy siyosat mazmun mohiyatini ochib bering.
8. Qaysi voqealardan keyin Xiva xonligi va Buxoro amirligi faoliyati tugatildi?
9. Ikkinchi jahon urushining boshlanishining sabablari nimada?
10. O'zbekistondan qancha aholi urushda qatnashdi?
11. O'zbek xalqining bag'ri kengligi nimalarda yaqqol namoyon bo'ldi?
12. Urush yillarida fan va madaniy hayot xaqida nimalar bilasiz?
13. 50-80 yillar respublika iqtisodiy hayotidagi bir tomonlik va uning oqibatlarini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2018.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустикалликка эришиш останаида. Тошкент, Ўзбекистон, 2011.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз.-Т., Ўзбекистон, 2017.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Т.: «Iqtisod-Moliya», 2006.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустикал Ўзбекистон тарихи.-Тошкент.3-жилд, 2000.
9. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.– Тошкент, 2013.
10. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
11. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
12. O'zbekiston tarixi.S. Xolboyev va b. – Т.: Universitet, 2005.
13. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.
14. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. -Т.: Akademnashr, 2019.

XI BOB. O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH YO‘LIDA

Asosiy tushuncha va atamalar:

Markaz, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, jarayon, og‘ir vaziyat, tergov guruhi, “Paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi”, adolatsiz hukm, inson huquqlari, yangi rahbar, plenum, «qayta qurish», ma‘muriy-buyruqbozlik yo‘li, iqtisodiy inqiroz, kommunistik mafkura, mustaqillik arafasi, millatlararo nizo, siyosiy rahbarlik, sovet mustamlakachiligi davri, tarixiy jarayonlar, an‘analar, madaniyat, urf-odat, ma‘naviy qadriyatlar, desantchi kadrlar, taraqqiyot sur‘atlari, aholi, turmush darajasi, sotsial ahvol, ijtimoiy infrastruktura, prezidentlik lavozimi, davlat tili, iqtisodiy jarayonlar.

XI. 1. XX asr 80-oxiri va 90 yillarning boshlarida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar.

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy jihatdan yaqqol tunazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. "Qayta qurish" siyosati barbod bo‘lishi, ma‘muriy-buyrukbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partiya ish hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgan edi. Bu vaqtda O‘zbekiston iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning biryoqlama rivojlanib, "paxta" sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta‘kib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi.

O‘sha davlarda o‘zbeklar xayotida “Paxta ishi” va “o‘zbeklar ishi” deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o‘zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo‘ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.

1989 yilgacha bu ishlar bo‘yicha 4,5 mingdan ko‘proq kishi sudlandi. O‘sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig‘i jazoni o‘tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo‘natildi.

Gdlyan guruhi O‘zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo‘ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a‘zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o‘z jonlariga qasd qilishgacha borib etdilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo‘natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko‘rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

“Paxta ishlari”ni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni

Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda "Paxta ishlari" chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rniga **tayzyiqni** kuchaytirdilar.

Respublika rahbarining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida **40 ming tomlik ishni ko'rib** chiqdi. **3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi.** Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi.

XX asrning 80-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2.5 barobar o'stirish, aniqrog'i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo'yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo'jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo'shib yozish, pora berish, oshna-og'aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.

Davlat rejalashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan hal qilishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o'sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq xo'jaligida umumiy ijtimoiy **mehnat unumdorligini pasayishi hisobga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad** olindi. 1989 yilda **O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi.**

Shu davrga kelib respublika qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar to'planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo'l qo'yilgan xatolar tufayli barbod bo'ldi.

Kommunistik mafkura o'z hukmronligini saqlab qolish uchun hatto ayrim respublikalarda millatlararo nizolarni uyushtira boshladi. 1989 yilda **Toshkent, Farg'ona, Andijonda** ro'y bergan millatlararo mojarolar, **Kavkazdagi** qurolli to'qnashuvlar, quvg'in qilingan xalqlarni noroziliklaridan razilona manfaat yo'lida, respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda paydo bo'layotgan hurlik ovozi bo'g'ish uchun foydalandilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan **deportasiya** qilingan bir qator xalqlar qatorida **mesxeti turklari** ham bo'lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo'lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammoga sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. 1989 yil 24 mayda Quvasoy shahrida Yoshlar o'rtasida (R. Nishonov ta'rificha, "bir banka qulpunoy uchun") bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmagan uchun, yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to'qnashuvlar sodir bo'ldi.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlariga "ko'nikmagan" mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga

qarshi harbiy qism tashladi. 1989 yil **8 iyunda Qo‘qonda** tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutildi. Natijada, **50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok** bo‘ldi (ularning ko‘pchiligi Yoshlar edi), **200 dan ortig‘i esa yarador** qilindi. Umuman **3-12 iyun kunlari Farg‘ona** viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi oqibatida **103 kishi halok** bo‘lgan. **1009 kishi yarador** bo‘lgan va **650 xonadonga o‘t** qo‘yilib, vayron qilingan.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko‘ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o‘rtasida nifoq va to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. **Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig‘vogarlik edi.** Farg‘onadagi mudhish voqea Sumgayit, Boku, Tog‘li Qorabog‘, O‘sh-O‘zgan va boshqa mintaqalardaxuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig‘vogarlik bilan bir qatorda turar edi. Farg‘ona voqealaridan keyin O‘zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada fojeaning asl sabablarini ochib tashlash, o‘z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo‘lidagi o‘zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo‘ya boshladilar.

Shunday murakkab ijtimoiy,siyosiy vaziyatda respublikada keng munozaraga sabab bo‘lgan muammolardan biri o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo‘ldi.Ma‘lumki turgunlik yillarida o‘zbek tiliga munosabat o‘zgacha edi.O‘zbek tili davlat idoralarida xam,yigilishlarda xam iste’molda emas edi. 80 yillarning oxiriga kelib xalq milliy ongining o‘sishi,jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari va talabi o‘zbek tili masalasini ko‘rib chiqishni kun tartibiga qo‘yilishiga turtki bo‘ldi. Shu tarzda xukumat va mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi sa‘i xarakatlari tufayli yangi loyixa tayorlanib ,u 1989 yil 11 oktyabr kuni matbuotda e‘lon qilindi.Loyixa umumxalq muxokamasidan so‘ng O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989 yil 21 oktyabrda bolgan 11 sessiyasida “O‘zbekiston SSRning Davlat tili xaqida”Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo‘l ochib berdi. Shu ma’noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo‘lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim siyosiy qadam bo‘ldi va milliy mustaqillikning ma’naviy poydevoriga asos bo‘ldi. O‘z-o‘zidan, ushbu Qonun o‘zbek xalqining mavqeini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to‘la amal qilishiga katta imkon yaratdi.

2019 yil o‘zbek tiliga “Davlat tili “ maqomining berilganiga 30 yil to‘ldi . Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktyabr kuni “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi. Unga binoan 21-oktyabr sanasi yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Ona tilimiz fidoyilari, butun xalqimiz bu xushxabarni katta xursandchilik bilan qarshi oldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganinig o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida shunday

degan edi:”Bugun Jonajon O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari” degan ustivor goya asosida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo‘ymoqda.Barcha soxalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Xozirgi kunda o‘zbek tili sifatida siyosiy-xuquqiy,iqtisodiy-ijtimoiy,ma’naviy-ma’rifiy xayotimizda faol qo‘llanmoqda,xalqaro minbarlardan barilla yangramoqa.

Davlatimiz tomonidan ma’naviy xayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan,ta’lim tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat,san’at va adabiyot soxalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan o‘nlab farmon va qarorlar o‘zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda .

Bu xaqda gapirganda, keyingi yillarda ona tilimizda faoliyat yuritayotgan yuzlab bog‘chalar,maktablar,oliy o‘quv yurtlari,yangi gazeta va jurnallar,tele-radiyo kanallar,nashriyotlar, madaniy-ma’rifiy muassasalar,kutubxonalar tashkil etilayotganini qayd etish lozim.

Aliser Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo‘lga qo‘yildi.Bu erda fol’klorshunoslik, dialektologiya, turkalogiya, matnshunoslik kabi yo‘nalishlar ochildi.

Bu borada yangi o‘quv dasturlari yaratilayotgani,darslik va qo‘llanmalar,risola va monografiyalar nashr etilayotgani, ilmiy anjumanlar,ommaviy axborot vositalari o‘zbek tilining buguni va istiqboli xaqida amaliy taklif va tashabbuslar bildirayotgani g‘oyat muxim axamiyatga ega” .

Shuningdek ushbu ma’ruzada O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar xamkorlik kengashiga a‘zo bo‘lganligi ,bu o‘z navbatida o‘zaro iqtisodiy xamkorlikni kuchaytirishga,o‘zbek tilini esa xalqaro maqomini yuksalishiga olib kelishi xaqida xam to‘xtab o‘tildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish tog‘risidagi Farmonning imzolanishi va unga binoan “Davlat tili xaqidagi”qonunning qabul qilinishi xalqimiz xayotida ulkan voqea bo‘ldi.2019 yil 21 oktyabrdan e’tiboran yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni”ni noshonlash an’anaga kiritildi.Bu esa xalqimizning milliy ruxini va g‘ururini yuksaltirishga xizmat qiladi.

XI.2. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida:prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va Mustaqillik deklarasiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati.

I.A.Karimov o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan yirik davlat arbobi va mohir siyosatchi, bunyodkor va tashkilotchi, katta tajribaga ega bo‘lgan amaliyotchi va teran nazariyotchi sifatida serqirra va samarali faodiyat bilan respublikada millatidan va dinidan qat’iy nazar, odamlar O‘zbekistonni o‘z Vatani deb hisoblashlariga nafaqat da’vat etdi, balki ular uchun shart-sharoit yaratish qayg‘usi bilan yashadi. 1989 yil sentyabrda KPSS MQning navbatdagi plenumida ham I.A.Karimov O‘zbekistonning yangi rahbari sifatida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Biroq, markaz respublikalar milliy manfaatlarini o‘ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo‘layotgan ijtimoiy-

iqtisodiy jarayonlar avvaldagi markazni qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa endilikda ham uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqitirmas edi. Mana shu vaqtda respublika rahbarining haqiqiy milliy rahbar sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'lgan edi.

Uzoq yillik tarix davomida dunyoning ko'plab davlatlarida xalqlar millatlarning ozodlik kurashlari tarixida ona xalqining milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilgan ko'plab yo'l boshchilar ma'lum. O'zbekiston tarixida ham XX asr 90-yillariga kelib Islom Karimov ham millatning lideri, ulug' yo'l boshchi sifatida maydonga chiqdi. U avvalo respublikadagi tang ahvolni qalban sezgan holda markazdan xoli xalq manfaatlarini ko'zlab olib borish lozimligini anglab, og'ir va mas'uliyatli vazifalarni hal etishni boshladi. Farg'ona vodiysida kuchayib ketgan mesxeti-turklari va o'zbeklar o'rtasida turli ig'volar va bo'xtonlar natijasida boshlangan mojarolarga extiyotkorona va bosiqlik bilan, mojarolar ildizini bilib, mojarolar yana kuchayib ketishining oldini olish choralarini belgilagan holda siyosat yuritdi. Uning siyosiy etakchilikka xos fazilatlarini, masalaga yondoshish usuli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini o'ta nozik va chuqur anglay olish salohiyatiga ega ekanligi mana shu erda yaqqol ko'zga tashlandi. 25 iyun kuni Farg'ona vodiysiga borgan I.A.Karimov sarosimaga tushgan odamlar bilan chin dildan suhbatlashdi. Xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiliga qaramay Qo'qon shahriga bordi, yo'l-yo'lakay bir-ikki joyda to'xtab, odamlarning ro'y berayotgan voqealar haqidagi fikrini bilib oldi. Mojarolar tufayli zarar ko'rganlar savdoga chiqariladigan zahira hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlandi.

Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilgach, sovet davlati milliy siyosati o'zini oqlay olmaydigan darajada sayoz ekanligini anglagan O'zbekiston rahbari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish, xususan ona Vatanlaridan majburan ko'chirilgan xalqlarni 74 yil davomida ta'qib ostida ushlagan siyosatdan himoya qilish, ularga milliylik hissini berish, g'ururni shakllantirish maqsadida respublikada milliy madaniy markazlar tuzish uchun xarakatlarni boshladi. Bu markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston SSR Madaniyat ishlari vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi va ularning soni 1989 yilda 12 ta edi. Ushbu markazga milliy madaniy markazlar faoliyatiga rahbarlik qilishi, turli millatlarning urf-odat, diniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishda ko'mak berishi asosiy vazifa qilib belgilandi. O'sha yillari butun mamlakatda bo'lganidek, milliy madaniy markazlar faoliyatida ko'p narsalar birinchi marotaba sodir bo'ldi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining jabhalarida O'zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlarini bilan bog'liq masalalar birinchi navbatda turar edi. Shunday vaziyatda tinch hayotni ta'minlash uchun davlatni boshqara oladigan, bo'lib o'tgan va o'tayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan to'g'ri xulosa millat ravnaqi yo'li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar respublika uchun zarur edi. 1989 yil 24 iyunda I.A.Karimov O'zbekiston rahbari etib saylanishi bilan O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan Kengashda so'zlangan nutqida: "Hozirgi kunda ko'pgina odamlar Farg'ona voqealarning sabablarini turlicha izohlashmoqda. Men ham butun barcha

sabablarni sanab ularning eng asosiylarini qayd etmoqchi emasman. Lekin, barcha voqealarining ildizi - Fargʻona vodiysida yashayotgan aholining ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bogʻliq, desam, oʻylaymanki, koʻpchilik bu fikrga qoʻshiladi," deb alohida taʼkidlab oʻtadi. Oʻzbekistonning rahbari sifatida ish boshlagan I.A.Karimov "Oʻzbekiston etakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida echilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, oʻtkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashlaydi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish boʻyicha Markaz rahbariyati oldinga qatʼiy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qoʻyishdan choʻchimaydi".

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, Oʻzbekistonning mustaqillik tomon yoʻl tutishi sovetlar imperiyasida boshlangan inqiroz va qarama-qarshiliklarning avj olishi vaqtidan boshlangan boʻlib, istiqlolning tashabbuskori va tashkilotchisi Islom Karimovdir.

Islom Karimovning mustaqillik arafasida markazga har doim ham xush kelmaydigan, ammo respublika va uning aholisi manfaatlariga javob beradigan ichki hamda tashqi siyosati, amalga oshirgan chora-tadbirlari, rahbarlik irodasi va siyosatchi sifatidagi aql-idroki tarixiy burilish pallasida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻldi. I. A. Karimov respublikamizdagi oʻsha davrdagi ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini bir muncha boʻlsa-da yaxshilash uchun paxta ekin maydonlarini qisqartirish, uni ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishni maqsad qilib qoʻydi. SHuning uchun 1989 yil 17 avgustda I.Karimov boshchiligida respublika hukumatining yigʻilishida "qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan taʼminlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida" qaror qabul qilinadi. Qishloqda yashovchi har bir kishiga oʻrtacha 25 sotihdan er ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar koʻpaytirish kuzda tutilgan edi. Buning natijasida 1989-1990 yillarda 1,5 mln.dan koʻproq oilaga qoʻshimcha er ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berildi. Paxta etishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu paxta yakkaxokimligini bartaraf etish yoʻlidagi dastlabki, ammo oʻta muhim amaliy qadam edi Respublikada kuchayib ketgan bu jarayonlar oʻz navbatida iqtisodiy tanglik bilan bogʻliq ekanligi maʼlum edi. Avval milliy manfaatlari toptalgan xalqlarga oʻzligini anglashga yoʻl ochgan Oʻzbekiston endi butun respublikada iqtisodiy tanglikni oldini olish chora-tadbirlarni koʻrishi kerak, ularni izga solish uchun chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirish yoʻllarini ishlab chiqish ham muhim edi.

Respublikadagi vaziyatni yaxshi tushungan Oʻzbekiston rahbari tashabbusi bilan 1989 yil 17 avgustda "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan taʼminlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish haqida" qaror qabul qilindi. Mazkur qaror qabul qilinganidan soʻng oʻtgan bir yil mobaynida 60 mingdan ziyod oilaga er uchastkalari ajratib berildi. Respublikada mavjud boʻlgan tomorqalar butun ekin maydonlarining 5 foizini tashkil etgan holla, jami 200 ming gektar erni tashkil etdi. Ayni paytda bu erlarning har gektaridan koʻplab daromad olindi.

1990 yil 1 noyabrga kelib qishloqda yashovchi 2.220.129 oiladan 1.327.149 oila yangi tomorqa uchastkalari olish va mavjudlarni kengaytirishga muhtoj boʻlgan holda ularning 394.098 nafar oilasi yangi er uchastkalari olishdi. Ularga

foydalanishlari uchun 55.036 gektar er ajratib berildi. O'z uchastkalarini kengaytirishga muhtoj bo'lgan 933 164 oiladan hammasining talabi qondirildi. Ularga ko'shimcha ravishda 101.117 gektar er ajratildi. Natijada, qishloq mehnatkashlarining davlat tomonidan olgan erlari 156.153 gektarga etdi. Bundan tashqari bu qaror bajarib bo'lingandan so'ng yangi tashkil topgan oilalarga ham maydoni 11.009 gektar bo'lgan 87.515 ta tomorqa uchastkasi ajratib berildi. Mazkur tashkil toptan xo'jaliklarda etishtirilgan mahsulotlarni sotib olish maqsadida davlat 1990 yilda 765.862 ta shartnoma tuzdi.

Er uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo'jalikda etishtirilgan mahsulotning oilasidan ortgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo'ldi. Natijada, mayda tovar ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshladi. Bunday yordamchi xo'jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishga muayyan hissa qo'sha boshladilar. 1990 yil 28 iyulda Prezident Islom Karimovning "Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida"ni Farmoni e'lon kilindi. Mazkur farmoning qabul qilinishi qishloq qiyofasini tubdan o'zgartirish, u erda yashovchi fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash borasida tashlangan yana bir muhim qadam edi.

O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 y. 20 iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik Deklaratsiyasi"dir. Ushbu Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko'rsatdilar. "Mustaqillik Deklaratsiyasi"da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolotlanishi ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. **Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida "O'zbekiston SSR ning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir",-deb, yozib qo'yilgan.** Sessiya qabul qilgan bu "Mustaqillik Deklaratsiyasi" xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. Bunga misol tariqasida 1991-yil 22-iyulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi. O'sha vaqtda Markaz rahbarlari Respublikalar Ittifoqini qanchalik saqlab qolishga urinmasinlar, buning iloji yo'q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo'lmas, o'z navbatida ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka bo'lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Biroq Markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o'tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g'ayri konstitutsion yo'llar bilan davlat to'ntarishi o'tkazish bilan bo'lsa-da, oldingi buyruqbozlik tizimini mustahkamlashga harakat qildilar. Buning aksi sifatida O'zbekiston hukumati o'zbek xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda o'zining faol siyosatini davom ettirardi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi arafasida hukm surgan chuqur inqiroz holati, o'sha davrning siyosiy-ijtimoiy,

iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti istiqbolning dastlabki oylari tarixini o'rganishda ham O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda 1989-1991 yillar davomida respublikada kechgan tarixiy jarayonlarining bevosita guvohi bo'lgan, ularning markazida turgan inson O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XI.3. O'zbekistonning mustaqillik sari yo'l tutishi

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonning natijasi bo'ldi. O'zbek xalqi qariyb 3000 yillik tariximizda qisqa vaqtgina mustaqil yashagan xolos. Ayniqsa, keyingi oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi o'z tarixiy davlatchiligiga ega bo'lgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi kurash goh pinhona, goh oshkora bo'lsin xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intildi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq Ittifoqdagi o'zgarishlar, hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi.

Voqealar jarayoni shu darajada tezlashdiki, I.A. Karimovning siyosati bevosita o'zbek xalqi xohish-irodasi, sa'y-harakati bilan qo'shilib ketib, ittifoq rahbariyatini xiyla talvasaga solib qo'ydi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashning **1990-yil 24-martida** bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi va O'zbekistonda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib **prezidentlik lavozimi** joriy etildi. Demokratik jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, siyosiy o'zgarishlarni takomillashtirish va konstitutsion tizimni mustahkamlash mantiqan tom ma'nodagi mustaqillikni talab etadi va uning zamirida markazga bo'ysunmaslik, o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili yotadi. Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish-bu bevosita partiya yakkahokimligini bartaraf etish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish demakdir. Bu esa oxir-oqibatda respublikaning o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqadigan va uni amalga oshiradigan Prezident lavozimini joriy qilishni taqozo etdi. Bu tabiiyki, Gorbachev boshliq ittifoq rahbariyatini qattiq tashvishga sola boshlagan edi. Aslini olganda, O'zbekiston boshqa ittifoqchi respublikalarda kundan kunga tazyiq va zo'ravonlik oshirayotgan, kam sonli xalqlarga zug'um o'tkazilayotgan bir paytda ana shunday dadil siyosat yurita boshlagan edi.

1991-yil 11-yanvarida mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989-yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi. **Prezident imzolagan hujjatda 1991-yilda paxta ekin maydoni qisqartirilishini nazarda tutib, tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar er ajratish ko'rsatilgan.** 1991-yil 14-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada mamlakat O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov nutq so'zladi. Mazkur nutq matbuotda "Murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik" degan sarlavhada chop etildi. Ushbu nutqida O'zbekiston rahbari Ittifoq shartnomasiga o'z munosabatini bildirib, O'zbekistonning bu shartnomaga

kirmasligini qayd etib o'tdi. **1991 yil Navro'z bayrami** arafasida Prezident avf etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo'r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyaning o'sha davrda faqat Ittifoq Prezidenti e'lon qilari edi.

1991 yil 18-20 avgust voqealari, «Favqulodda holat davlat komiteti - GKCHP», markaziy hokimiyat tangligi, KPSS faoliyatining to'xtatilishi, SSSRning tanazzulga yuz tutishi, Unda bir guruh avantyuristlar tomonidan mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta'qiblarni kuchaytirish, tobora zaiflashib borayotgan sovet imperiyasini saqlab qolish maqsadida amaldagi prezident M.S. Gorbachevni rahbarlikdan chetlashtirib, 1991 yil 18 avgust kuni Moskva shahrida tuzilgan Favqulodda holat davlat komiteti – GKCHP va bu noqonuniy tuzilmaga O'zbekiston rahbariyatining munosabati xech bir insonni befarq qoldirmaydi. O'zbekiston SSR Prezidentining respublika aholisiga murojaatida, jumladan, shunday so'zlar alohida ta'kidlanadi: «...har birimiz og'ir va vazmin bo'lishimiz kerak. Boshimizga tushgan bu sinovlar, noaniq davr va sharoitdan avvalambor aql va idrokimizni bir joyga yig'ib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerak... O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q». GKCHP masalasida Islom Karimov rahbarligidagi O'zbekistonning o'z qat'iy fikrida turgani mamlakat va o'zbek xalqining mustaqillikka erishishida hal qiluvchi o'rin tutdi. **Respublika rahbariyati: «Markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadlarimizdan qaytganimiz yo'q.**

Bu yo'l – bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir», - deb hisobladi.

1991 yil 21 avgustda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan GKCHPning O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid keladigan qarorlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan respublika IIV va DXQ qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olinishi, 26 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasining tayyorlanishi va 31 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasining chaqirilishi o'zbek xalqi tarixiga oltin sahifalar bo'lib kirdi.

1991 yilning 31 avgustida, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. U o'zining tarixiy nutqida quyidagilarni alohida ta'kidladi: «Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan-kunga yo'qotyapti. Odamlar o'zining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu

talablar safсатаbozlik va va'dabozliklar ostida ko'milib ketyapti. Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugunbizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlari talab qilyapti. Bu – haqqoniy talabdir.

...O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday Ittifoq bo'lmasin, kim bilan Ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit bo'lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo'lmaydi, bunga yo'l ham qo'ymaydi. Tenglar ichida teng bo'lish – xalqimizning asriy orzusidir».

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning mustaqillik tomon yo'l tutishi sovetlar imperiyasida boshlangan inqiroz va qarama-qarshiliklarning avj olishi vaqtidan boshlangan bo'lib, istiqlolning tashabbuskori va tashkilotchisi Islom Karimovdir.

Islom Karimovning mustaqillik arafasida markazga har doim ham xush kelmaydigan, ammo respublika va uning aholisi manfaatlariga javob beradigan ichki hamda tashqi siyosati, amalga oshirgan chora-tadbirlari, rahbarlik irodasi tufayli amalga oshirildi. **1991 yil 18-20 avgust voqealari, «Favqulodda holat davlat komiteti - GKCHP»**, markaziy hokimiyat tangligi, KPSS faoliyatining to'xtatilishi, SSSRning tanazzulga yuz tutishi, Unda bir guruh avantyuristlar tomonidan mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta'qiblarni kuchaytirish, tobora zaiflashib borayotgan sovet imperiyasini saqlab qolish maqsadida amaldagi prezident M.S. Gorbachevni rahbarlikdan chetlashtirib, 1991 yil 18 avgust kuni Moskva shahrida tuzilgan Favqulodda holat davlat komiteti – GKCHP va bu noqonuniy tuzilmaga O'zbekiston rahbariyatining munosabati hech bir insonni befarq qoldirmaydi. GKCHP masalasida Islom Karimov rahbarligidagi O'zbekistonning o'z qat'iy fikrida turgani mamlakat va o'zbek xalqining mustaqillikka erishishida hal qiluvchi o'rin tutdi. **Respublika rahbariyati: «Markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadlarimizdan qaytganimiz yo'q.**

Bu yo'l – bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir», - deb hisobladi.

1991 yil 21 avgustda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan GKCHPning O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid keladigan qarorlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan respublika IIV va DXQ qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olinishi, 26 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasining tayyorlanishi va 31 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasining chaqirilishi o'zbek xalqi tarixiga oltin sahifalar bo'lib kirdi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning mustaqillik tomon yo'l tutishi sovetlar imperiyasida boshlangan inqiroz va qarama-qarshiliklarning avj olishi vaqtidan boshlangan bo'lib, istiqlolning tashabbuskori va tashkilotchisi Islom Karimovdir.

1991 yilning 31 avgustida, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. Unda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ma'ruza qildi.

Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildi. So'ngra Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSR ning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun **1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.**

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonun 17 moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi.

Ushbu qonunda O'zbekiston mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilindi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo'linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o'z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekistonning Qoraqolpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqolpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o'sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo'l bilan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov boshchiligidagi respublika rahbariyatining oqilona yo'l tutishi orqali erishildi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yili 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda; "Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?" mavzuida referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. **Referendum yakuniga ko'ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi.** O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo'r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarining o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning I. Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvetsiya bosh vaziri K. Bilodtning telegrammalarida ko'rish mumkin. 24-sentabrda Toshkentda xalqaro anjuman o'tkazildi. O'zbeklar (Turkistonliklar) ning birinchi xalqaro uchrashuvida O'zbekiston Prezidenti nutq so'zladi. **1991 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII se'zdida I.A.Karimov taklifi bilan**

O‘zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e‘lon qilindi. Partiyaning bunday buyon faoliyat ko‘rsatmasligi e‘tiborga olinib, **ushbu partiya o‘rnida Xalq-Demokratik partiyasi tuzilgani e‘lon qilindi.** O‘zbekiston mustaqil davlat deb e‘lon qilingan kunning o‘zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risida” qonun qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i ulug‘ ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma‘naviy jihatlarini ham o‘zida aks ettirmog‘i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo‘lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi” to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma‘noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.** Sessiyada shoir **Abdulla Oripov** va bastakor **Mutal Burxonov** tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi.

Islom Karimov-Ozbekiston respublikasining birinchi Prezidenti

Mustaqilligimizning dastlabki kunlarida davlat boshqaruvida yangi tizim-Prezidentlik respublika boshqaruvi shakli joriy etildi. **1991-yil 29-dekabrda o‘zbek xalqi xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.** Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib, O‘zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod-O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasi nomzodi I.A. Karimov va “Erk” Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi..

Xalqimizning ko‘p yillar davomida olib borgan matonatli kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko‘r-ko‘rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g‘oyalarga, ma‘rifiy-ilmiiy taraqqiyotga amal qilgan holda ro‘yobga chiqdi.

Texnologik usullar: “FSMU” texnologiyasi

-O‘qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varag‘larini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa: O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar

Mavzusi bo‘yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting
F-fikringizni bayon eting:

S-fikringizni bayoniga biron sabab ko‘rsating

M-ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring

Talabalar o‘z maqsadlariga irishishga bo‘lgan ishonchini bayon etadilar. Mashgulot o‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonning mustaqillikka olib kelgan holatlar qaysilar?
2. Nega O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanladi?
3. Bozor munosabatlariga o‘tishda yaratilgan “O‘zbek modeli”ni siz qanday tushunasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan?
5. «Paxta ishi», «O‘zbeklar ishi» yuzasidan tergov jarayonlari kimlar tomonidan olib borilgan
6. 1989 yil respublika rahbarligiga saylangan shaxs kim edi?
7. 1980 –yillarning oxirlari va 1990 yillarning boshlarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
8. 1991 yil avgust voqealari va unda O‘zbekistonning tutgan pozitsiyasini qanday izohlaysiz?
9. Halq demokratik partiyasi qachon tuzilgan?
10. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonun necha moddadan iborat?
11. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilindi?
12. O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilindi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.
6. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи, 2019. 21-октябрь, 226-сон.
7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I-жилд. – Тошкент, 2013.
8. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
9. O‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
10. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2015.
11. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. -Т.: Akademnashr, 2019.

XII BOB. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

Asosiy tushuncha va atamalar

Davlat mustaqilligi, umumxalq referendumi, umumxalq saylovi, siyosiy islohotlar, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, O‘zbekiston parlamenti, Oliy Majlis, ikki palatali parlament, prezidentlik boshqaruvi, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Milliy havfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, xo‘jalik sudi, viloyat, tuman, shahar sudlari, viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari, demokratik fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari, fuqarolar yig‘ini, Qishloq, ovul, mahalla oqsoqollari Kengashlari, huquqiy mehanizm, yagona fuqarolik, saylov tizimi, siyosiy partiyalar, ko‘p partiyaviylik, jamoat birlashmalari, milliy siyosat, millatlararo tinchlik va totuvlik, ommaviy axborot vositalari.

XII.1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyatning O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiyasi oldin ta'kidlab o'tilganidek, o'tgan asrning 80-yillari oxiridan boshlab bir necha marta kun tartibiga qo'yildi.

1991 yil avgust oyida Moskvada davlat to'ntarishi sodir etish uchun bo'lgan harakatlar sovet davlatining to'liq inqirozidan dalolat berdi. Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaq, har bir jumhuriyat o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay olgan Islom Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlagan O'zbekiston Oliy Kengashining XXII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya muhim tarixiy ahamiyat kasb etganligini alohida ta'kidlash lozim. Unda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonun kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ma'ruza qildi va o'z nutqida 1991 yil o'rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qilib, 19-21 avgust kunlari Favqulotda holat davlat komiteti a'zolari respublikalar mustaqilligini kishanlamoqchi bo'lganini xalqqa ro'yi-rost ochib berdi. O'zbekistonning o'z yo'li va aniq maqsadi borligi, xalq manfaatiga mos bu yo'ldan qaytmasligini ta'kidladi.

1991 yilning 31 avgustida, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. Unda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildi. So'ngra Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSR ning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun **1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.**

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonun 17 moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi.

Ushbu qonunda O'zbekiston mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilindi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo'linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o'z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u

O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o'sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo'l bilan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov boshchiligidagi respublika rahbariyatining oqilona yo'l tutishi orqali erishildi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yili 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda; "Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?" mavzuida referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. **Referendum yakuniga ko'ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi.** O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo'r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarining o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning I. Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvetsiya bosh vaziri K. Bilodtning telegrammalarida ko'rish mumkin. 24-sentabrda Toshkentda xalqaro anjuman o'tkazildi. O'zbeklar (Turkistonliklar) ning birinchi xalqaro uchrashuvida O'zbekiston Prezidenti nutq so'zladi. **1991 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII se'zdida I.A.Karimov taklifi bilan O'zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e'lon qilindi.** Partiyaning bunday buyon faoliyat ko'rsatmasligi e'tiborga olinib, **ushbu partiya o'rnida Xalq-Demokratik partiyasi tuzilgani e'lon qilindi.** O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i to'g'risida" qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i ulug' ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi" to'g'risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb rangli tasvirda bo'lib, xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog'lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O'zbekiston

Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan. **O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.** Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi.

Islom Karimov-O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti

Mustaqilligimizning dastlabki kunlarida davlat boshqaruvida yangi tizim-Prezidentlik respublika boshqaruvi shakli joriy etildi. **1991-yil 29-dekabrda o'zbek xalqi xohish-irodasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.** Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, O'zbekiston Respublikasi saylovlari muqobilik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod-O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasi nomzodi I.A. Karimov va "Erk" Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi..

Xalqimizning ko'p yillar davomida olib borgan matonatli kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko'r-ko'rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g'oyalarga, ma'rifiy-ilmii taraqqiyotga amal qilgan holda ro'yobga chiqdi.

Mustaqillik tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri-bo'lajak suveren Respublikaning Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi I.A.Karimov tomonidan 1990-yilni mart oyida ilgari surildi. Ko'p o'tmay shu yilning iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Komissiya Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklarasiyasiga amal qildi. Dunyoning ko'pgina taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarining konstitutsiyaviy hujjatlari o'rganib chiqildi. Shu bilan birga boy tariximizdagi davlat boshqaruv tizimi va adolatli qonunshunoslik an'analari ham chuqur o'rganildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan Sovet davridagi Konstitutsiyalardan, xususan, 1978-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasidan tubdan farq qilishi kerak edi. Sosialistik O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zining mazmuni, ruhi bilan sobiq Ittifoq Konstitutsiyasidan kelib chiqib, O'zbekistonni bu Ittifoqqa qo'l-oyog'i bilan zanjirband etdi. Siniylik, partiyaviylik g'oyalari bilan sug'orilgan Konstitutsiya g'oyat darajada mafkuralashtirildi va siyosiy lashtirildi. Inson manfaatlariga nisbatan davlat manfaatlari ustun qo'yildi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasida O'zbekistonda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar hisobga olindi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma-bir o'rganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir bo'limini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi.

Ishchi guruh va komissiyalar 1991-yilni oktyabrda Konstitutsiyaning birinchi, 1992-yilni bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi va shu nusxasi 1992-yilni 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Joylardan tushgan minglab takliflar o'rganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi.

Tuzatishlar va aniqlashlardan keyin mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992-yili 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'ldi. Birinchi bo'limda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'nalishlari o'z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning Ikkinchi bo'limi 35 moddadan iborat bo'lib, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklariga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo'shilish huquqlari ta'kidlab ko'rsatilgan.

Asosiy Qonunda fuqarolarning mulkdor bo'lishi, mehnat qilish, nafaqa olish, o'z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanadi deb taqqoslab qo'yilgan. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig'imlarni o'z vaqtida to'lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlari majburiy ekanligi ta'kidlangan.

Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limida O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllarining teng huquqqa ega ekanligiga kafolat berildi. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo'l ochib berildi va mulkdorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ishlab chiqildi. Jamiyat ijtimoiy birlashmalari, oila va ommaviy axborot vositalarining o'rni aniq bayon etib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlariga maxsus to'rtinchi bo'lim ajratilgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi beshinchi bo'limda (50 modda) o'z ifodasini topgan. Davlat va hokimiyat organlari,

Prezident, Vazirlar mahkamasining vakolatlari, ularni shakllantirish yo'llari aniq va ravshan bayon etilgan. Su bilan birga bu bo'limda mahalliy hokimiyat organlari, sud va Prokuratura, Davlat Mudofaasi masalalari o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik Konstitutsiyasining qabul qilinishi g'oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Asosiy Qonunimiz mamlakatda demokratik tamoyillarni amalga oshirish, xalqimizni huquqiy ma'naviy va mafkuraviy tarbiyalashda katta o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishiga asosan Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish uchun 20 kishidan iborat maxsus komissiya tuzildi. Birinchi Prezidentimizning Asosiy Qonunni "...bolalar bog'chasidan boshlab o'rganishni, maktablarda darslik tariqasida o'qitishni, oliy o'quv yurtlarida maxsus bir dars sifatida o'rganishni barcha mutasaddi rahbar va tashkilotlarga topshiriq tariqasidagi..." ko'rsatmasi butun Respublikada Mustaqillik Konstitutsiyasini tashviqot va targ'ibot qilishning dasturi bo'ldi.

XII.2. O'zbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy demokratik tizimi asoslarining barpo etilishi

O'zbek xalqining ko'p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo'lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta'minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo'ldi. O'tgan yillar ko'hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon jarayonida o'z o'rnimizni egallash davri bo'ldi. Bu davrda biz o'zligimizni anglab, tarixiy yo'limizni uzil-kesil tanlab oldik.

Mustaqil O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2. Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g'alaba qilishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo'linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo'linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo'llarini ko'rsatib berar ekan, Birinchi Prezident I.A.Karimov eng avvalo bu vazifa hokimiyat barcha tarmoqlarning bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog'liqligini uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V-bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko‘ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o‘zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o‘zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrga saylovlar belgilandi.

1993-yilni 28-dekabrida qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”**gi qonunga ko‘ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi I-chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo‘lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis - Yangi Parlament demokratik va ko‘ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi II-chaqiriq Oliy Majlisining VII-sessiyasida ikki palatali parlament tuzish to‘g‘risida umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qilindi. Shu asosda 2002-yil 27-yanvarda o‘tgan umumxalq referendumida qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentni ikki palatadan tuzilishini qo‘llab-quvvatladi.

1995-yil 23-24-fevralda chaqirilgan birinchi sessiyada O‘zbekiston parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq Demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan “Adolat” sosial-demokratik fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida “Vatan taraqqiyoti” partiyasi fraksiyasini ro‘yxatga oldi. Oliy Majlis sessiyalarida va uning qo‘mitalarida olib borilayotgan ishlar asosan mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko‘tarish, qonunchilikni sifat darajasini yuksaltirishga qaratilgan. Qonunlar qabul qilinmasdan oldin umumxalq muhokamasiga taqdim qilinishi islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta’sir qildi.

1997-aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi.

Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo‘lib, uning huquqiy holatini aniq ravshan belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir.

Ushbu qonunda:

“Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida faoliyat ko‘rsatadi”, -deb ta’kidlangan.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo‘lib, u ijtimoiy manfaatlarning muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko‘maklashadi. Qonun ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg‘unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoida-qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik har bir kishi uchun ochiq ekanligini tasdiqlaydi.

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko'rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda

Qonun qabul qilinganga qadar ham Inson huquqlari bo'yicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat ko'rsatib keldi. Jumladan, birgina 1996-yilda Inson huquqlari bo'yicha vakil hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya a'zolari 700 dan ortiq murojaatni ko'rib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar o'z tasdig'ini topgan va zarur choralar ko'rilgan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Jenevada bo'lib o'tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so'zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo'yicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Evropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so'zga chiqdi. Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatini tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyat qurilishi uchun mustahkam poydevor qo'yildi

Oliy Majlis **“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”, “O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to'g'risida”, “O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida”, “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida”, “Siyosiy partiyalar to'g'risida”** qonunlarni, **Mehnat kodeksi** (1995), **“Fuqarolik Kodeksi”**ning (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko'plab qonunlar va qarorlar qabul qildi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo'lib, saylangan deputatlardan O'zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasi **“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan “2000-2002-yillarga mo'ljallangan qonunchilik va nazorat faoliyatining ustivorlik jihatlari to'g'risida”**gi hujjatni tasdiqladi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV-sessiyasida (2000-yil 14-dekabr) Oliy Majlisning O'zbekiston xalqiga Murojaaaatida: **“Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug' istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo'lib kurashaylik. Maqsadimiz -Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir”**-deyilgan.

Mustaqillikning tayanch nuqtalaridan biri prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishi bo'ldi. Bu bilan davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladiki, Prezidentlik boshqaruvi shu tizimning o'zagidir.

O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan, birinchi kunlaridan boshlab, uning boshida Islom Abdug'anievich Karimov turdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda

erishilgan yutuqlar: mamlakatda oʻrnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda oʻrnatilgan osoyishtalikni, mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan oʻrnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bogʻlaydilar.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Birinchi Prezident I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini oʻtkazishga qaror qildi. 2000 yil 11-yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi -2000 yil 9 yanvar kuni boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

“Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi toʻgʻrisida”gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdugʻanievich Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi toʻgʻrisida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshligʻi qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

Oʻzbekistonda prezidentlik instituti oʻrnatilgan dastlabki davrda Vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, yaʼni Rayis, Bosh Vazir, uning ikki birinchi oʻrinbosari, toʻrt oʻrinbosar, 19 vazir, 14 davlat qoʻmitasi rayisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995 yil 5 mayda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II sessiyasi boʻlib, unda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi toʻgʻrisidagi Prezidentning Farmonini tasdiqlash masalasi koʻrildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yigʻilishida (2000 y. 11 fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

Boshqaruv tizimining boshqa boʻgʻinlari ham bozor iqtisodining Oʻzbekistonga xos yoʻliga moslashtirildi.

2007 yil 23 dekabrda muqobilik asosida oʻtgan saylov natijalariga koʻra, I.A.Karimov 7 yil muddatga Oʻzbekiston Prezidenti etib saylandi. 2015 yil 29 mart kuni boʻlib oʻtgan navbatdagi Prezident saylivida xam I.A.Karimov 5 yil muddatga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1991-yil dekabrda to 2016 yilning sentyabrga qadar respublikamizda prezidentlik vazifasi va vakolatlarini

sidqidildan, o'z kuchi va g'ayratini ayamasdan bajarib keldi. 2016 –yil 8 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi parlament palatalarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

Shavkat Mirziyoyev- O'zbekiston prezidenti.

2016 yil 4-dekabrda mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy voqea-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bolib o'tdi. Savlovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miramonovich Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1991-yil 6-sentabrda Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa Vazirligiga bo'ysundirildi.

Mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yildan ushbu Qo'mita Makroiqtisodiyot Vazirligiga aylantirildi.

Xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tish zaruriyati bilan bog'liq bo'ldi. "O'zdonmahsulot", "O'zbekneftgaz" va boshqa ko'plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991-yil 7-sentabrda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Sobiq Ittifoq manfaatlarini birinchi galda qondiruvchi idoralar tugatilib, yangi shakldagi qo'mitalar, konsernlar va vazirliklar tashkil etildi. Bu bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida o'z milliy taraqqiyotiga mos, vatan mustaqilligini mustahkamlovchi boshqaruv tizimi vujudga keltirildi.

O'zbekistonda davlatning boshqaruvni to'liq monopoliya qilishdan cheklanish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish, aholi turli tabaqalarining hokimiyat tizimida ishtirok etishini ta'minlashning yana bir yo'li mahalliy davlat hokimiyatlarini shakllantirish ekanligi e'tirof etildi.

1990-1992-yillari O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular orasida 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan **"O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risidagi"** qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ-hokimlik va hokim lavozimi ta'sis etildi va uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo'yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog'liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyatlar hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari-ijroiya komitetlari tugatildi

Hokimlarning huquqiy vakolatining asosi, avvalo, Konstitutsiyaning 99 va 102 moddalari va yuqorida tilga olingan qonunning 1- moddasida belgilangan.

Konstitutsiya va qonun normalarini umumlashtirsak, hokim tegishli hududda vakillik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladi va ayni paytda shu erdagi mansabdor shaxs hisoblanadi.

Hokimlar mahalliy hokimiyatni boshqarar ekanlar, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqaradigan yaxlit ijro hokimiyat organlari tizimi tarkibiga kiradi.

Shuningdek **“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”**gi Qonun (1993-yil, sentyabr), **“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida”**gi Qonun (1994-yil, may) kabi hujjatlar muhim o'rin egallaydiki, ular kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Oliy Majlis palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o'zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta'minlamasdan turib mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 Elektron axborot vositalari ishlarida.

So'nggi yillarda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

2002-yilning 27-yanvarida umumxalq referendumini o'tkazilib bunda O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tish, Prezident vakolatini besh yildan etti yilga uzaytirish masalalari hal qilindi. II-chaqiriq Oliy Majlisning X-sessiyasi (2002-yil dekabr) **«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to'g'risida»**, **«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»** qonunlar qabul qildi.

2003-yilning 24-25-aprel II-chaqiriq Oliy Majlisning XI-sessiyasi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgarishlar kiritadi. Xususan, Prezident vakolatining bir qismi yuqori palata deb nomlanuvchi Senatga o'tadi.

Prezident Vazirlar Mahkamasi rayisi lavozimidan voz kechadi; Quyi palata deb nomlanuvchi Qonunchilik palatasida deputatlar doimiy ravishda ish olib boradi.

2004-yilning 26-dekabr va 2005 yilning 9-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekiston fuqarolarining faol ishtiroki va mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillarining nazoratidan o'tgan saylov natijasida qonunchilik palatasiga 120 deputatlar saylandi. Bular Xalq demokratik partiyasidan 28 nafar, Liberal-demokratik partiyasidan 41, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan 18, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan 11, Adolat sosial demokratik partiyasidan 10 nafar deputatlar saylandi. 12 deputat tashabbuskor guruhlardandir. Mahalliy hokimiyat organlaridan yuqori

palata Senatga har viloyatdan 6 nafardan jami 84 senator va 16 senator Prezident tomonidan ko'rsatilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy demokratik tizimi yildan-yilga takomillashib bormoqda, oxirgi yillardagi o'zgarishlar haqida keyingi mavzuda alohida o'rganiladi.

XII.3. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi

Mamlakatimiz yangi asrga kirar ekan, jamiyatda siyosiy, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida (1999 yil, 14 aprel) O'zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Shulardan **birinchi ustivor yo'nalish-mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.**

Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida:

-avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili-odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim.

Davlat qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarini bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga katta umid bog'lanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov: "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevositaxalqqa topshirish, ya'ni o'z-o'zini boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"-deydi.

O'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an'analarni, tarixiy qadriyatlarni tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo'lni tanlash nuqtai nazaridan yondashish bo'ldi. Xususan, o'z-o'zini boshqarishda asosiy tayanch qilib mahallalar belgilandi. Ular inson qalbida Vatan tuyg'usining shakllanishiga, milliy g'ururning vujudga kelishida, millatchilik illatlaridan xoli bo'lishda katta ta'sir ko'rsatib kelgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati demokratik jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatini kuchaytirmoqda, bu esa o'z navbatida asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini qurishga ko'maklashmoqda.

O‘z-o‘zini boshqarish muassasalari faoliyatining kengayishi bevosita mahallalarning mavqeyini kuchaytirish bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini boshqarish organlari yoki mahallalarning vazifasi, aholini davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta‘minlash kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, ma‘naviy kamolatini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo‘qotish uchun ish olib borish va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analarga, Vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir.

Shuningdek, mahallalarda “Mahalla” xayriya jamg‘armasi yordamga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatmoqda. Bu jamg‘arma 1994-yilda 200 ga yaqin shaxs va oilaga 41 ming 189 so‘mlik yordam ko‘rsatgan.

Faqat O‘zbekistonga xos bo‘lgan va aynan mahalla bilan bog‘liq bo‘lgan “Korxona-mahalla” iqtisodiy hududni tashkil qilish masalasi katta umid uyg‘otmoqda. 1995-yili davomida respublika bo‘yicha shu turdagi 204 ta kichik va xususiy korxona tashkil qilinib, ularning faoliyati orqali 3300 kishi ish bilan ta‘minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999-yil 13-yanvarda “Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijtimoiy himoya sohasida o‘z-o‘zini boshqarish organlariga yangi vakolatlar berishni ko‘zda tutadi: 1) fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy ro‘lini oshirish; 2) hududlarni ijtimoiy rivojlantirish; 3) muhtoj oilalarga aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad ko‘rsatishni takomillashtirish.

Davlat tomonidan bajariladigan vazifalarni fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga o‘tkazilishi, nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, undagi jamoa ruhi va tabiatini mustahkamlashni, samaradorligini oshirishni talab qiladi. 1999-yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri aynan shu maqsadga qaratilgan.

O‘z-o‘zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi choralardan yana biri-aholiga kompleks tarzda savdo, mayishiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatadigan guzarlar faoliyatidir.

Bunday iqtisodiy erkinliklar fuqarolarda mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarga ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, har bir shaxsning fikri, ovozi e‘tiborga olinishi, ularni fuqarolik jamiyatining a‘zosi ekanligini his qilishlari uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis II chaqiriq 1-majlisida (2000-yil 22.01) Birinchi Prezident I.A.Karimov o‘zining “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz” nomli ma‘ruzasida ushbu masalaning dolzarbligini shunday uqtiradi:

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yaksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish zarur.

Bu borada o‘zini-o‘zi boshqaradigan idoralarning, mahallalarning nufuzini va mavqeyini oshirish, ularga ko‘proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etish yoʻlidagi ishlarimizning mazmun-mohiyatini ham aynan mana shu masala tashkil etadi.

“Birgina soʻnggi besh yilda yangi taxrirdagi”Fuqorolarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari toʻgrisida”gi xamda Fuqorolar yigini raisi(oqsoqoli) va uning maslaxatchilari saylovi toʻgrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, maxallalar xamla ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib,ijtimoiy xayotga tadbiq etildi.Shunungdek ,tizimda faoliyat koʻrsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish boʻyicha oʻquv kurslari xamda “Maxalla” maʼrifiy teleradiyokanalni tashkil etildi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining”Maxalla institutini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari toʻgrisida”gi 2017 yil 3 fevralda imzolangan Farmonida maxalla institutini yanada takomillashtirishning ustivor yoʻnalishlari belgilab berildi.

Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati boshqa hokimiyatlar kabi xalq manfaatlarini koʻzlab va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qabul qilingan qonunlar asosida oʻz vakolatlarini amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagicha: besh yil muddatga saylanadigan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xoʻjalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xoʻjalik sudlari, harbiy sudlarlardan iborat.

Mazkur sudlarning huquqiy holati Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, Oʻzbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Sudlar toʻgʻrisida”gi Qonunida bayon etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi-fuqarolik, jinoiy va maʼmuriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Shu bilan birga ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslarga; oldin sudlanmaganlarga, biron bir joyda ishlamasdan, moʻmay pul topish yoʻliga oʻtib ketganlarga nisbatan belgilangan jazolarni qonun kuchidan toʻla foydalanilmagan ishlarining jazo qismini engil deb bekor qilib, ogʻirroq jazolashga oʻz koʻrsatmasini beradi.

Respublika Oliy sudi 1994-yilda 149 kishiga nisbatan quyi sudlar tomonidan tayinlangan jazolar ogʻir deb topilganligi sababli hukmlar oʻzgartirilib, jazolar qisqartirilgan boʻlsa, 1995-yilda 247 kishiga nisbatan jazolar ogʻir deb topilib, hukmlar oʻzgartirildi, 25 shaxsga nisbatan jinoiy ishlar sudlanganlarning harakatida jinoyat tarkibi yoʻqligi sababli harakatdan toʻxtatildi.

Ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etganligi uchun 1994-yilda quyi sudlar tomonidan 89 kishiga nisbatan belgilangan jazolar engil deb topilib, hukmlar bekor qilingan boʻlsa, 2017-yilda esa tergov organlari tomonidan 238ta xolatda jinoiy xodisa yuz bermagani aniqlandi,302 ta xolatda javobgarlikga tortish muddati otgani, 370 ta xolatda aybdorlar qilmishiga chin koʻngildan pushaymon bolgani inobatga olindi.549ta xolatda qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yoqotgani,1 ming 636ta

xolatda qilmishda jinoyat tarkibi yoqligi isbotlandi. Ana shunday asoslarga tayanib, 3,5 mingdan ortiq jinoyat ishi tugatildi¹.

O'zbekistonda sud tizimini isloh qilish, sud hokimiyatini shakllantirishda ham bir muncha ishlar qilindi. Sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar yanada rivojlantirildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) "Adolat qonun ustivorligida" nomli ma'ruzasida sog'lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko'ra, jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o'tdi. Prezidentimiz maruzalarida sudlar faoliyatiga baho berib "Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarni ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda", -dedi. Shuningdek, ma'ruzada sud hokimiyati tizimidagi kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada Prezident: "...afsuski, sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgarayapti. Eng avvalo jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo'llanishini ta'minlashimiz zarur"-deydi. Ma'ruzada Jinoyat va Jinoyat-prosessual kodekslariga kiritilayotgan o'zgarishlar, masalan, 110 turdagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazish, 12 turdagi jinoyatni og'ir toifadan unchaog'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga, 7 turini esa o'taog'ir jinoyatlar toifasidan og'ir jinoyatlar toifasiga o'tkazish haqidagi takliflar bayon qilindi. Shuningdek, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta'sir choralari qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, butun jahonda muhokama etilayotgan muhim masalalardan biri-o'lim jazosini jinoiy jazo chorasi sifatida qolayotganligi bilan bog'liq muammolar, qonunchiligimizda jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosini qo'llash tartibini qayta ko'rib ciqish kerakligi ta'kidlandi

Insoniyat tarixida yangi davr-Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995-2005 yillarni kurramizda "Inson huquqlari o'n yilligi" deb e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

-inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash;

inson huquqlari bo'yicha Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

-qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

-sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

¹ Shavkat Mirziyoyev „Konstitutsiya-erkin va farovon xayotimiz,mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaxkam poydevoridir,Toshkent,"O'zbekiston",2018,11 -b

-aholi ayniqsa yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning birdan bir zaruriy sharti sud-huquq organlarining ishlarini isloh qilish va erkinlashtirishni jadallashtirishdan iborat. Sudlar faoliyatiga prokuraturaning aralashmasligi, prokuror va advokatlarni huquqlarini tenglashtirish, sudlarning tarbiyaviy rolini oshirish lozimligini taqqoslab ko'rsatadi¹.

Xavfsiz jinoyatlarni ma'muriy choralar bilan almashtirish natijasida so'nggi 2,5 yil davomida 11 mlrd. so'm undirildi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda O'zbekistonda 158 kishi qamoqda muddatini o'tamoqda. Bu ko'rsatkich AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog'istonda 386 kishidan iborat.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo'shildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida" 1996-yil 31-oktabr Farmoni e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda "Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi"ni tasdiqladi. Dasturda: "Jamiyat va davlat taraqqiyotini hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarini huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi

Milliy dasturning maqsad ahamiyati aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir"-deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida" (1997-yil, 25-iyun) Farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonning 1-bandida shunday deyiladi:

"Aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilansin".

¹И.Каримов Олий Мажлис палаталарининг кушма мажлисида., // 2005й. 28 январ.

Respublikamizda istiqlool yillari milliy davlatchilikni barpo etish borasida sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga, uning hokimiyat va boshqaruv organlariga barham berish bilan bir vaqtda davlat va jamiyat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi.

2017-2018 yillarda sud-xuquq tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxar xojalik sudlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxar iqtisodiy sudlari etib o'zgartirildi, ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan 71 ta tumanlararo, tuman (shaxar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Xarbiy xay'ati tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov xay'ati tashkil etildi.

Yangidan tashkil etilgan sudlarni to'ldirish uchun qo'shimcha 560 ta shtat birligi, shu jumladan 318 ta sud'yalik shtat birligi ajratildi. Amaldagi sud majlisi kotibi lavozimi tugatilib, sudlarning tuzilmalariga sud'ya katta yordamchisi, yordamchisi lavozimlari kiritildi.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili odamlarning saylov huquqlarini amalga oshirish, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash uchun zarur huquqiy shart-sharoit, qonuniy asos yaratishdir. Shu bois mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning o'z hohish-irodasini erkin ifoda etishni ta'minlovchi saylov tizimini shakllantirish va uni qonun bilan mustahkamlash borasida talay ishlar qilindi.

1991-yil noyabrda Parlament "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun bilan birga Oliy Kengash 1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi referendumini to'g'risida"gi Qonunni ham qabul qildi. 1991-yil 29-dekabrda muqobilik asosida O'zbekiston tarixida birinchi marta respublika prezidentligiga saylovlar o'tkazildi.

Konstitutsiyamiz asosida 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun va nihoyat "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunlari o'zbek saylov qonunchiligi tizimini huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi alohida qonun qabul qilinganligi saylovlarni to'g'ri tashkil qilish, saylov qonunlarini to'la ishlashiga imkoniyat yaratadi va qonunlarni nazorat qilishni kuchaytirishda hamda saylovlarni tashkil etish va uni o'tkazishda davlat hokimiyati organlarining ortiqcha aralashuvini cheklaydi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarni tahlil qilsak, unda jahon saylov tajribasida erishilgan eng demokratik tartiblarning huquqiy jihatdan mustahkamlanish bilan birga, O'zbekiston saylov tizimiga xos bo'lgan xususiyatlarning ham belgilanganligini ko'ramiz. Bu O'zbekiston saylov tizimigagina xos xususiyatdir.

Saylov tizimini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" degan siyosiy dasturida asoslanib berilgan maqsad tomon harakatning yana bir muhim bosqichi, deb tushunmoq kerak.

Bizning saylov qonunchiligimiz ko'pgina xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar tomonidan o'rganilmoqda.

Xususan, Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tegishli ekspertlari ham O'zbekiston saylov qonunchiligi mohiyati demokratik ekanligini, uning saylovlarni tashkil etish sohasidagi xalqaro huquqni tan olingan tamoyillariga mos kelishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatida fuqarolar o'zlarining siyosiy huquqlari va erkinliklarini davlat va jamiyat ishlarini bajarish ularni idora etishda faol qatnashish orqali amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlool yillari vujudga kelgan siyosiy partiyalar o'z faoliyatida o'zbek xalqining eng yaxshi demokratik an'alariga, adolat, ezgulik, tenglik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g'oyalarga, axloqiy va odamiylik qoidalariga suyanadi. Ular o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi 1996-yil 26-dekabr qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek o'z dasturlariga asosan amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi aniq va ravshan belgilab berilgan.

Ko'ppartiyaviylik demokratik taraqqiyot yo'lida erishgan muhim yutuqlardan biridir.

Birinchidan, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida siyosiy partiyaning o'rni va roli muntazam ravishda yoritib boradi; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishda ko'ppartiyaviylik tizimi muhim demokratik institut hisoblanadi; uchinchidan, davlat bosh islohotchi sifatida siyosiy partiyalarining faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega; to'rtinchidan, siyosiy partiyalarsiz vakillik demokratiyasini tasavvur etib bo'lmaydi; beshinchidan, siyosiy partiyalarning o'rni va mavqei ularning soni yoki vaqt bilan belgilanmaydi; oltinchidan, mamlakatdaamalda ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi yangi g'oyalar, muqobil takliflar bilan demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qilishi lozim.

Xozirgi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda:

1.Xalq demokratik partiyasi(O'zbekiston XDP)- siyosiy partiya sifatida mamlakatda birinchilardan bo'lib, 1991-yil 1-noyabrda tashkil topdi. Partiya o'zining ommaviy axborot vositalariga ega.Uning markaziy nashrlari "O'zbekiston ovozi" gazetasi.

2.O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yili 18-fevralda tashkil topdi va 30 ming a'zoga ega bo'ldi. Partiyaning rasmiy nashri "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

3.O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'z MTDP)-1995 yil 3 iyunda tashkil topdi.Partiyaning matbuot nashri-"Milliy tiklanish"ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

4.O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'z LiDep)-2003- yil 15-noyabrd tashkil topdi. Uning markaziy nashri –"asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

5.O'zbekiston ekologik partiyasi.2019 yilning 8 yanvar kuni O'zbekiston ekologik partiyasining ta'sis se'ezdi bo'lib o'tdi. Ta'sis se'ezdida O'zbekiston

ekologik partiyasini ta'sis etish va O'zbekiston ekologik partiyasi Ustavi va Dasturi loyixalari, O'zbekiston ekologik partiyasi Markaziy Kengashi a'zolarini saylash, O'zbekiston ekologik partiyasi Markaziy nazorat taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomi, O'zbekiston ekologik partiyasi Matbuot organini ta'sis etish, O'zbekiston ekologik partiyasining vakolatli vakillarini saylash kabi masalalarni ko'rib chiqdi. Bugungi kunda dunyoda 100 ga yaqin davlatlarda ekologik partiyalar faoliyat olib boradi. Ko'plab ekologik partiyalar mamlakatlar siyosiy maydonining teng huquqli a'zosi sifatida vakillik organlariga o'rinlar egallash vazifalarini qo'yib orin olgach, parlamentda uz oldilaridagi mushtarak maqsadlarini davlat siyosati darajasida ilgari suradilar.

Shu nuqtayi nazardan yondoshganda harakat dasturlarida o'zaro yaqinlik bo'lganligi sababli hamda demokratik jarayonlarining talablarini hisobga olgan holda "Vatan taraqqiyoti" partiyasi bilan FMDPning o'zaro birlashishi ham shu ruhni o'zida aks ettiradi. ("Vatan taraqqiyoti" partiyasi 1992 yil 24 mayda tuzilgan; VTP 2000 yil 14-aprelda Fidokorlar Milliy Demokratik Partiyasi bilan birlashib, FMDP nomini oldi.) va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi (1998-yil 28 dekabrda tuzilgan; 2008 -yil 20 -iyunda "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi bilan birlashgan) ham faoliyat ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda jamoat tashkilotlarining saflari oshib, imkoniyatlari kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki besh yilida jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar soni 1500 taga ko'payib, ularning soni 2300 taga etdi: 2017 yilda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy noxukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017 yilda "Nuroniy" jamg'armasi, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston fermer xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, Oz-o'zini boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aloxida farmon va qarorlar qabul qilindi¹.

Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari 7,5 mln. a'zoni birlashtirib, jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi 1991-yil 1-martda tashkil topdi. Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarni faol ishtirok etishi, xotin-qizlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

2017 yilda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va xar tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan bir qator amaliy tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, 1 Respublika tadbirkor ayollar biznes-forumi o'tkazildi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanayotgan ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2017 yil tijorat banklari tomonidan 2,2 trillion som miqdorida kreditlar ajratildi. Mexnatga layoqtiligi cheklangan 705 nafar xotin-qizlarga tikuv mashinalari berilib, ular kasanachilik asosida ish bilan ta'minlandi xamda ularning 261 nafariga yangi uy-joylar berildi. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturi

¹¹ Shavkat Mirziyoyev „Konstitutsiya-erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaxkam poydevoridir, Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 35 -b

doirasida respublikamizning olis tumanlarida ayollrni kasbga o'qitish kurslari tashkil etildi.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2018 yil 2 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin – qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustaxkamash soxasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'grisida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining 4 ta asosiy ustivor yonalishlari belgilab berildi.

Farmonga asosan xotin-qizlar qo'mitasi va "Oila" markazi tizimida bir qator yangiliklar kiritildi. Jimladan:

- xotin-qizlar qomitasining respublikadan tortib eng quyi bogin maxallagacha vertical boshqaruv tizimi yolg'a qoyildi;

- Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustaxkamlash boyicha mutaxassis lavozimi joriy etildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzurida "Oila" ilmiy-tadqiqot markazi va uning xududiy boshqarmalari xamda tuman(shaxar) bolinmalari tashkil etildi;

Fuqorolik xolati dalolatnomalarini yozish organlari tuman,shaxar xokimi orinbosarlari-Xotin-qizlar qo'mitalari raislariga biysundirildi;

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi;

- Zulfiy nomidagi Davlat mukofotini berish tartibiga ozgartirish kiritildi va qo'shimcha imtiyozlar joriy etildi;

- "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi;

Xotin-qizlar qo'mitasi tizimida ishlayotgan xodimlarning pensiyasi to'liq to'lanishi belgilandi.

Qadul qilingan Farmon xotin-qizlarimizning hayotini yanada farovon va mazmunli bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Suningdek "Nuroni", "Ustoz", "Ulug'bek", "Umid", "Xotira" va shu kabi ko'plab jamg'armalar nodavlat tashkilotlar sifatida respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta hissalarini qo'shmoqda.

2001-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Kamolot" jamg'armasi faollarini qabul qildi va Yoshlarning bu tashkilotini mustaqillik davridagi rolini oshirish vazifasini qo'ydi va "Kamolot" jamg'armasi Yoshlarning haqiqiy etakchisi, uyushtiruvchisi va boshqaruvchi ommaviy tashkilotga aylanishini zarur deb topdi.

2001-yilning 25-aprelida O'zbekiston Milliy universitetining Madaniyat saroyida Respublika Yoshlari vakillarining birinchi qurultoyida "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Qurultoyda ijtimoiy harakatning nizomi va dasturi qabul qilindi.

2016 yil 24 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida»gi qonun imzolandi. Bu qonunni imzolanishi navqiron avlodga yuksak mehr, e'tibor va g'amxo'rlik ifodasidir. 2017 yil 30 iyunida Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkil etildi. Shu kundan e'tiboran 30 iyun mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlash an'anaga aylantirildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi

bo'yicha «Harakatlar strategiyasi»da ham Yoshlar faolligini oshirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 5 iyulda «Yoshlarga oid Davlat siyosatini samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonning imzolanishi mazkur tizim ishlarini yanada jadallashtirdi. BMT ning 72 sessiyasida ham yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni e'tirof etib, BMTning yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ishlab chiqish taklifini o'rta tashladilar.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarga harbiy ta'lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablari «Temurbeklar maktabi» deb nomlandi.

Vatanga sadoqat bilan xizmat qilgan yoshlarni rag'batlantirish uchun «Mard o'g'lonlar» Davlat mukofoti, o'qishda, mehnatda, jamoat ishlarida faol bo'lgan Yoshlarni «Kelajak bunyodkori» medali bilan taqdirlash yo'lga qo'yildi.

Uzbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustivor yunalishi buyicha ishlab chiqilgan Xarakatlar strategiyasining to'rtinchi yunalishi to'rtinchi bandida xam Yoshlar siyosatini takomillashtirish belgilangan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizimning yaratilgani yoshlarimizda Vatan taqdiriga daxldorlik xissini kuchaytirib, zamonaviy demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda ijtimoiy faollikni oshirmoqda. 2017 yilning o'zida Yoshlar xayotiga oid 20 dan ziyod qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Faqat bir yil davomida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tavsiyasi bilan 4 ming 300 ga yaqin yoshlarimizga banklar tomonidan 216 milliard som imtiyozli kreditlar berilgani 184 ming 300 dan ziyod yoshlarimiz ish bilan taminlanganligi etiborga loyiq.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan buyon Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan chuqur o'ylangan milliy siyosat amalga oshirilmoqda.

Davlat umummilliy siyosatiga milliy siyosatdan tashqari iqtisodiy va sosial, ilmiy-texnika, ta'lim va sog'liqni saqlash, xalqaro munosabatlar (tashqi siyosat) milliy xavfsizlik va boshqa siyosatlar kiradi.

O'zbekiston umummilliy siyosatining katta tizimida milliy aholi siyosati alohida o'rin egallaydi. Bu siyosat diqqat markazida millatidan qat'i nazar inson turadi. Bunda milliy aholi siyosati respublika aholisiga xos sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston polietnik, ya'ni ko'p elatli davlat turiga mansub bo'lib, davlatga o'z nomini bergan millat - o'zbeklar (1996-yil 1-yanvar holatiga ko'ra - 76,4%) - aholi soni bo'yicha ko'pchilikni tashkil qiladi.

1999-yilga kelib bu muvozanatda qisman o'zgarish bo'ldi. Mamlakatimizda o'zbeklar aholining deyarli 80 foizini tashkil etsa, qolganlar esa kam sonli millatlar vakillaridir.

“Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan respublika Baynalmilal madaniy markaz hamda milliy madaniy markazlar vakillari ishtirokida “Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning elatlararo va konfessiyalararo munosabatlari” yuzasidan 1999 yil 14-18 noyabrda sosiologik so'rov o'tkazildi. Unda o'z faoliyati bilan 150 mingdan ortiq kishini va yirik milliy guruhlarini qamrab olgan 24 ta Milliy madaniy markaz ishtirok etdi. Unga ko'ra quyidagicha asosiy xulosalar chiqarilgan:

O'zbekistondagi barcha etnik guruhlar uchun eng asosiysi-O'zbekistonni o'z vatani deb his etishdir;

turli elatlar va konfessiyalar vakillari o'zaro hurmat, tushunish va to'la kelishuvchanlik muhitida faoliyat ko'rsatmoqdalar;

O'zbekiston fuqarolari, ularning millatidan qat'iy nazar, mustaqil O'zbekistondagi elatlararo kelishuv va moslashuvchanlik fenomeni-davlatimizdagi barqarorlik va fuqarolar tinchligining eng muhim faktorlaridan biridir, degan yagona fikrdalar;

fuqarolarning millatlaridan qat'i nazar ularning huquqiy teng ligi, iqtisodiy va ijtimoiy erkinligi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan;

-tub millat boshqa etnik guruhlar bilan birgalikda umumijtimoiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarini tezlashtirish va rag'batlantirishning ulkan salohiyatini tashkil etadi, yuzaga kelgan millatlararo munosabatlar esa tinchlik va barqarorlikni, har bir oilaga munosib hayotni ta'minlash kafolati bo'lib xizmat qiladi;

-kelajakda bashorat etish mumkinki, O'zbekistondagi elatlararo va konfessiyalararo mutanosiblik o'zbek xalqining ma'naviy yangilanishi va milliy tafakkurning o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatning yangilanish va uning demokratiyalashuvida kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi, "respublikaning jahon hamjamoatchiligi bilan integrasiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi"

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari etakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televidenie vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida etakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi bo'lganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi",-deyilgan. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, ularning xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniya vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga ega bo'ldi.

O'zbekistonda 2001-yil 1-yanvargacha-390 ta gazeta; 110 ta jurnal; 2 ta axborot agentligi; 52 ta telestudiya; 5 ta radiostudiya; 3 ta teleradiostansiyalar kabi ommaviy axborot vositalari mavjud bo'lib, ular erkin faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy majlisning palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o'zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta'minlamasdan mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 Elektron axborot vositalari

ishlamoqda. 2017 yilda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat krsatmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning shaxsan tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan yana ikkita: O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik kasbini himoya qilish to'g'risida" hamda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tom ma'noda ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mavjud bo'lmagan qonunlardir. Ushbu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to'la miqyosda ta'minlaydigan huquqiy qurol bo'lib, aholi uchun axborot olish va etkazishning bosh vositachisi deb qaraluvchi jurnalistning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov ommaviy axborot vositasi to'g'risida I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining (1996-yil, avgust) 6-sessiyasida shunday degan edi:

"Matbuot, axborot vositalari demokratik rivojlanishi uchun ulkan ahamiyatga ega. Biroq shuni ham e'tirof etish kerakki, demokratlashtirish jarayonida hozircha ommaviy axborot vositasining faol roli sezilmayapti. Ular shu paytgacha o'zlarini "to'rtinchi hokimiyat" sifatida namoyon qilganlari yo'q.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish masalasi tashqi siyosiy faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanchalik tez kirib borishi ana shu axborot vositalari tarqatadigan xabarlarining to'g'riligiga bog'liq.

Ayni paytda shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni vaqtda ular jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim.

Birinchi Prezidentimizning "O'zbekiston ijtimoiy hayotida televidenie va radio rolini ko'tarish to'g'risida"gi 1997-yil 7-maydagi Farmoni yuqorida ko'rsatilgan masalalarni me'yoriy tartibga solishda ko'riladigan chora-tadbirlarning ommaviy ifodasi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yaratilgan boshqaruv tizimi va uning qonunchilik asoslari, fuqarolik jamiyati mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishga va huquqiy demokratik davlat barpo etilganligini kafolatlaydi. Zero, Birinchi Prezident I. Karimovning Oliy Majlis II chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan nutqi (2002-yil, 29- avgust), Qonunchilik palatasi va Senat qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida (2005-yil, 28-yanvar) ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirish to'g'risida amaliy takliflarni ilgari surdi.

"Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining xuquqiy asoslarini mustaxkamlash borasida qator ishlar qilindi." Ommaviy axborot vositalari to'grisida", "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'grisida", "Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini ximoya qilish to'grisida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'grisida" qonunlari qabul qilindi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning milliy demokratik taraqqiyoti, yurt istiqbolini demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo'lini tanladi. Yangi milliy davlatchilikni barpo etish arafasidayoq I. A. Karimov

Milliy Mustaqillikni rivojlantirish, mamlakatning jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rinni egallashiga erishishi, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlarini mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirishda deb bildi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida milliy an'analar va qadriyatlarga muhim e'tibor berish, davlat boshqaruvini demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish, barcha sohadagi islohotlarning milliy manfaatlar asosida amalga oshirilishiga e'tibor berildi. Shu bilan birga, I.A.Karimov «umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rganmay va ulardan foydalanmay turib, demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas» ligini ham ko'rsatib berdi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadlarida erkinlashtirish mafkurasini milliy qadriyatlar va an'analar bilan uyg'unlashtirish asosida islohotlarni chuqurlashtirishning «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual tamoyiliga asos solindi. Mamlakatdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida «mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish» yo'li tanlandi.

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning yangi bosqichi boshlandi. Islohotlarning mazkur bosqichida asosiy ustuvorlik fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilmoqda. Shu maqsadlarda davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarini fuqarolik jamiyati institutlari - siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar va o'zini o'zi boshqarish organlariga berish asosida islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda.

Ayniqsa, Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratilishi masalasi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha «HARAKATLAR STRATEGIYASI»" sida ilgari surilgan asosiy yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqligi esa mazkur mavzuni atroflicha o'rganish dolzarbligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, hozirgi davrga kelib mamlakatda yangi jamiyat qurishga doir islohotlar tobora avj olib borayotganligi, bu jarayonlarni O'zbekiston tarixi fanini o'qitish davomida atroflicha o'rganish va tahlil etish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Shuningdek, mavzuning dolzarbligi yana quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, O'zbekiston fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurilishni o'zini strategik bosh maqsadi sifatida e'lon qildi va davlat va jamiyat qurilishida, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy sohalarda ulkani yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi.

ikkinchidan, mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarining tobora chuqurlashib borayotganligi haqida bir qator ilmiy-nazariy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, tarixiy asarlar chop etildi va bu jarayon davom etmoqda.

uchinchidan, mamlakatda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish amaliyoti va nazariyasini o'rganish uchun barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek O'zbekiston tarixi fanida ham ehtiyojlarning shakllanganligi va uni

ustuvorlik kasb etganligi va bu muammolar va uning echimi Islom Karimov asarlarida va nutqlarida bayon etilganligi muhim o‘rin tutdi.

to‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini yanada chuqurlashib borish jarayonlarida turli muammolarni paydo bo‘lishi, ularning echimlarini topishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlar, yangi jamiyat qurish jarayonlarida xorijiy tajribalar va milliy an‘analarni uyg‘unlashtirish talablari, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanish jarayonlarini ilmiy-tarixiy jihatlardan tadqiq etishga zaruriyatning paydo bo‘lishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

beshinchidan, Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish konsepsiyasining asosida tarixiy, milliy ma‘naviy meros, xalqimizning asrlar davomida shakllangan axloq, odob, insonparvarlik an‘analariga, qadriyatlariga, sharqona demokratiyaga asoslanishi turadi degan tarixiy-ilmiy yondashuv shakllanganligi va G‘arbdagi ba‘zi siyosiy kuchlarning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni faqat salbiy nuqtai nazardan talqin qilishlarining asossizligini isbotlash, mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarini tobora chuqurlashib borayotganligini ilmiy tadqiq etish asosida ochib berish turadi.

oltinchidan, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va yangi fuqarolik jamiyat qurish islohotlarini faqat rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyati, uning institutlarining kelib chiqishi va rivojlanishiga doir nazariyalar va an‘analar asosida amalga oshirib bo‘lmazligi, bu sohadagi milliy qadriyatlar, an‘analar va tajribalarni zamonaviy nazariyalar bilan uyg‘unlashtirish asnosidagina kuchli jamiyat qurishga erishish mumkinligi, buning uchun fuqarolik jamiyati qurishning milliy o‘ziga xos jihatlarini alohida tadqiq etishga nisbatan zaruriyatning oshib borayotganligi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari - siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, parlamentning fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi o‘rni, demokratik saylovlar, ommaviy axborot vositalarining demokratik tamoyillar asosida rivojlanish jarayonlari, ma‘rifiylik va dunyoviylikning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir.

Texnologik usullar: aqliy hujum – olib borish qoidalari

- O‘zaro hech qanday baholash va tanqid bo‘lmazligi.
- Jo‘n va nihoyatda oddiy fikrlashga baho berishdan tiyilish.
- Barcha fikr-mulohaza qimmatli va bir o‘rinda bo‘lganligi bois fikrlovchiga nisbatan bosim o‘tkazmaslik va uni faqat tanqidiy tarzda qabul qilmaslik.
- O‘z vikrini bildirmoqchi bo‘lganlarga imkon berish.
- Fikrlar xilma xilligi asosiy maqsad
- Fikr – mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish.
- Qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish lozim.
- O‘zini vazmin va hotirjam tutish, o‘zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabat bildir.
- Barchani o‘zaro hurmat, boshqalar fikriga qanoatli bo‘lishga chaqirish.

Nazorat savollari

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar zaminida nima yotadi?
2. Demokratik huquqiy davlatning asoslari nimada?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasi necha marta xalq muhokamasiga qo'yilganligi va qachon qabul qilinganligini aytib bering?
5. Mustaqillik yillarida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyti nimada ko'rinadi?
6. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida qanday qonunlar qabul qilindi aytib bering.
7. Maxalla va o'z-o'zini boshqarish organlarini faoliyati haqida ma'lumot bering
8. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati nimada?
9. O'zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan, ularning maqsadi nima?
10. O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati qachon tuzilgan?
11. Nima sababdan ommaviy ahborot vositalarini "to'rtinchi hokimiyat" deyiladi?
12. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. О'zbekiston, 2018.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998. -Б.156.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
6. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича «Ҳаракатлар стратегияси» ни «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. –Т.: Маънавият, 2017. 40-бет.
7. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. /ЎзР Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70 модда.
8. Азиз ва ягонамансана жонажон Ўзбекистоним. Тарғиботчилар учун услубий қўлланма. –Т.: Мухаррир нашриёти, 2018, 31-бет.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 - декабрь.

- 10.. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд. – Тошкент, 2013.
11. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
12. О‘zbekiston tarixi (OO‘Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
13. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.

XIII BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

Asosiy tushuncha va atamalar

Bozor munosabatlari, «O‘zbek modeli», iqtisodiy islohotlar, strategiya, xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, ko‘p ukladli iqtisodiyot, mulkdorlar sinfi, infratuzilma, investitsiyalash, agrar islohotlar, mulkiy munosabatlar, dehqon-fermer xo‘jaliklari, g‘alla mustaqilligi, iqtisodiy barqarorlik, kuchli ijtimoiy siyosat, ma’naviy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, islom ma’naviyati, Navro‘z, milliy istiqlol g‘oyasi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Umid», «Ulug‘bek», «Ustoz», farmasevtika.

Xalqaro vaziyat, kuchlar nisbati, jug‘rofiy-siyosiy imkoniyatlar, tashqi siyosat, tamoyillar, jahon hamjamiyati, BMT, ko‘p tomonlama hamkorlik, xalqaro tashkilotlar, MDH, integratsiya, ikki tomonlama hamkorlik, yagona iqtisodiy makon, siyosiy inqirozlar, diniy ekstremizm, har tomonlama aloqa, xorijiy sarmoyalar, texnologiyalar, qo‘shma korxonalar.

XIII.1. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish yo‘li. «O‘zbek modeli» va uning tamoyillari

Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to‘rt tomonga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan.

O‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiyiligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

1) iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog‘i kerak;

2) davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, u islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;

3) bozor munosabatlariga o'tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;

4) bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

5) ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat ma'suliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinci bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq, ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va etuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan qollab-quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiylashtirishning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukkladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdagi maqsad: 1. Davlat monopoliyasini tugatib ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish; 2. Xususiylashtirishning keng qatlamini shakllantirish; 3. Xorijiy sarmoyadorlarga

keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat.

1992-1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida “Kichik xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to'g'ri keldi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o'zgarishi bo'ldi. Mustaqillik yillari yuz bergan tub o'zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklariga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo'lgan mulkdor “o'z boyligini ko'paytirishdan manfaatdor bo'libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo'ladi”-deydi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasining chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya qidiruv yoqilg'i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarida-kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida 51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1994-yil oxirigacha 54.000 korxona mulk shaklini o'zgartirdi. Xususan, 34%-xususiy, 48% aksiyadorlik, 16%-jamoa, 1% ijaraxo'jaligiga aylandi. Iqtisodiy islohotlarning borishi, uning to'rt yil davomidagi muvaffaqiyatlari va muammolariga respublika Oliy majlisining XV sessiyasi (1995-yil dekabrda) va Vazirlar mahkamasining majlisida (1996-yil fevral), Birinchi Prezident I.A. Karimovning nutqlarida keng yoritildi.

1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda tub burilish yili bo'ldi. Eng muhimi islohiy jarayonlarga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to'xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz

berdi. Moliyaviy vaziyat o'nglanib, inflyasiyani 1994-yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o'sishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valyuta bozorida joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11 marta ko'p, ya'ni 1,3 mlrd dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995-yilda 1994-yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o'rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga yetdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o'tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo'ldi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratilgan. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida, Respublika Prezidentining farmonlarida, xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko'rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy-texnika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash borasida ko'maklashish nazarda tutilgan.

Ana shu sa'yi harakatlar natijasida 1995-yil o'rtasida Respublika xalq xo'jaligida 30770 kichik korxona va kooperativ, 20115 xususiy korxona ishlab turdi. 15600 fermer xo'jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin er biriktirib berilgan bo'lib, 67,5 ming kishi mehnat qilmoqda edi. Fermer xo'jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar mavjud. 1995-yilning faqat birinchi choragidagina fermer xo'jaliklari tomonidan o'tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan ikki barobar ko'p go'sht va sut mahsulotlari tayyorlandi.

Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'arma tomonidan respublikaning 187 tuman va shaharida bank bo'limlari ochildi. 1994- yili va 1995-yilni olti oyida kichik va ijara korxonalariga, shuningdek shirkatlarga va tadbirkorlarga jami 1.222.3 million so'm miqdorda kredit berildi.

Ikkinchi bosqichda I.A. Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" (1995-yil) asarida qo'yilgan choralarni, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiy tarkibiy-strukturasini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000- yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo'yicha ko'zda tutilgan 167 ob'yekt o'rniga 374 ob'yekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta xissadorlik jamiyati, 103 xususiy korxona tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish vaxususiylashtirishdan 14,3 milliard so'm mablag' tushdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatishdan 1,6 barobar ko'pdir.

Iqtisodiy islohotlarning borishida o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda 180 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes sub'yektlari va 200 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi parlamentning qo'shma Majlisida (2005-yil 28.01.) I.Karimov 2005-yilning iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishni chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat deb ta'kidladi. 2007-yil yarmida kichik biznesni 45%ga etkazish, hozir 36%ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich ilg'or mamlakatlarda 60-65% ni tashkil etadi. Fermer xo'jalikni rivojlantirish uchun shirkat xo'jalikning 2005-2007 yillarda 1100 tasini, 2005-yilda

esa 406 tasini qayta tashkil etish kerak. Fermerlarga yer ajratishda mahalliychilik, urug'-aymoqchilikka, poraxo'rlikka yo'l qo'ymaslik vazifasini qo'ydi.

2004-yilda qishloq xo'jaligida yalpi o'sish 10%ni tashkil qildi. Shu jumladan boshqoli don ekinlari besh million tonnaga yaqin, paxta 3,5 mln tonani tashkil qildi.

Kichik va o'rta biznes iste'mol mollar manbayi daromad va foyda manbayi bo'lib, yangi ish o'rnini yaratadi. Kichik va o'rta biznes Yaponiyada 80%, Evropa Ittifoqida 67%, Germaniyada 65%, AQShda 52% ni tashkil qiladi.

1995-yil 5-yanvarda Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida Prezident farmoni, 1995-yil 21-fevralda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» qonunlar qabul qilindi.

1995-yil Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzilib, bu tadbirkorlarga 10 mlrd.so'm. yordam ko'rsatdi.

Kichik va o'rta biznesga chet ellik investitsiyalar jalb etildi. 2003-yili 450 mln. dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi. 1992-yilda 1996-yil 85 mln dollarga yaqin 2001-yil boshlarida 190 mln. dollardan oshdi. 2003-yil 1-iyulga kichik va o'rta biznes korxonalari 200 mingdan oshdi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlar, fikr-mulohazalar asosida xulosa qilish mumkinki, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan har tomonlama puxta asoslangan holda ishlab chiqilgan taraqqiyotning“o'zbek modeli”ning mustabid tuzumning og'ir, asoratli oqibatlarini engib o'tib, qisqa muddatda barqaror rivojlanish holatiga erishish, aholi turmush farovonligini oshirish, jahondagi ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolishni ta'minlashi, uning bugungi kunda xalqaro maydonda keng e'tirof etilishi haqli ravishda mazkur modelni amalda o'zini oqlagan, yorug' istiqbolimizni belgilab bergan taraqqiyot yo'li deyishga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha «Harakatlar strategiyasi» mamlakatda isloxotlar samaradorligini tubdan oshirish davlat va jamiyatning xar tomonlama va jadal rivojlanishini taminlash uchun shart – sharoitlar yaratish mamlakatni modernizatsiyalash va xayotning barcha soxalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

XIII.2. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar, uning strategiyasi, ustuvor yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor infratuzilmasining shakllanishi


Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalari to'xtab qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Endilikda iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish kerak edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh beraoladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo'ldi.

Birinchi Prezident Islom Karimov iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishni tubdan o'zgartirish to'g'risida: “Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat

g'oyat muhim vazifani hal etish kerak bo'ladi. Bu respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Tarkibiy tuzilishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir"-deb yozadi. Prezidentning ko'rsatmalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning oldiga qo'yilgan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo'ldi: iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yish; importga qaramlikni tugatish; mamlakatning eksport salohiyatini oshirish; xalq iste'moli mollariga aholining talabini qondirish va boshqalar.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida respublikada g'oyat yirik qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqloлга erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi. Natijada O'zbekiston aholisining 75% 2003-yilda tabiiy gazdan foydalaniladigan bo'ldi. Bu ko'rsatkich ayrim viloyatlarda ayniqsa ko'zga ko'rinarli bo'ldi. Masalan: 1990-2003-yillari tabiiy gazdan foydalanish Surxondaryo viloyatida 3,2%dan, 59%ga, Qashqadaryoda 5,7%dan 66%gacha, Namanganda 10,5%dan 70,5%ga, Andijonda 11%dan 68,5 gacha oshdi.

“Biz o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan, “o'zbek modeli” degan nom bilan dunyoda e'tirof etilgan rivojlanish yo'limizni tanlab olganimiz, haqiqatan ham, tarixiy bir qadam bo'ldi, desam, hech qanday xato bo'lmaydi, – deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz bu haqda. –“Iqtisodiyotimiz 5 barobardan ziyod oshib, aholimizning daromadlari qariyb 9 marta o'sgani, qishloq va shaharlarimiz qiyofasi mutlaqo o'zgarib, gullab-yashnab borayotganida, xalqimizning ertangi kunimizga ishonchi tobora oshib borayotganida ko'rish, kuzatish qiyin emas”¹ (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi, 1990 yilga nisbatan, marta.

Diagrammadan ko'rinadiki, mamlakatimiz iqtisodiyoti mustaqil taraqqiyotning dastlabki o'n yilida 1,3 marta o'sgan bo'lsa, keyingi o'n to'rt yilida bu o'sish ancha salmoqli bo'ldi. Bularning barchasi “o'zbek modeli”ning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi samarasi tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

¹ Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир / И.А.Каримов; – Тошкент: “O'zbekiston” НМИУ, 2015, 135-6.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda chuqur tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida respublikaning yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'zi hisobidan to'la ta'minlandi. 1996 yildan boshlab chetdan neft mahsulotlari sotib olish to'xtadi. 1997 yilda O'zbekistonning o'zi neft mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2810 ming tonna neft va gaz kondensati ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 8104 ming tonnani tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi ham tez sur'atlarda o'sib, 1990 yildagi 40761 million kub metrdan 2010 yilda 60111,5 million kub metr hajmiga etdi.

Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga olib keldi:


- Yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojini O'zbekiston o'zini-o'zi ta'minlaydigan bo'ldi;
- G'alla mustaqilligiga erishildi;
- Ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi oshdi;
- Sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissasi oshdi.

Energetika mustaqilligini ta'minlash hamda neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqlol yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ("Teknip", Fransiya) va Sho'rtangazkimyo majmuasi ("ABB") barpo etildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq rekonstruksiya qilindi. Gazkimyo tarmog'ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Erishilgan bunday ijobiy natijalar muqarrar ravishda mazkur mahsulotlarni chetga eksport qilish hamda tushgan valyuta mablag'lariga xalqimiz ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni olib kelish imkonini berdi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan aholini eng avvalo, oziq-ovqat, xususan, un mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Agar mustaqillikka erishilgan yillarda paxta maydonlari respublika umumiy ekin maydonlarining 75 foizdan ko'proq qismini tashkil etgan bo'lsa, keyingi davrda paxta yakkahokimligini tugatish va qishloq xo'jalik ekinlari tarkibini optimallashtirish chora-tadbirlari olib borilishi natijasida paxta maydonlari deyarli 41 foizga qadar qisqartirildi.

Natijada oзуqabop g'alla importiga qaramlik barham topib, tez orada yurtimizda g'alla mustaqilligi qaror topdi. Agar 1991 yilda 4003 ming tonna miqdordagi don mahsulotini import qilishga majbur bo'lgan bo'lsak, mustaqillikning dastlabki olti yili ichida bu ehtiyojni keskin ravishda 5,4 barobar qisqartirishga, keyinchalik esa milliy ishlab chiqarish hisobidan qondirishga erishildi. G'alla ishlab chiqarish hajmi 1990 yildagi 1899 ming tonnadan 2010 yilda 6952 ming tonnaga, 2014 yilda esa 8050 ming tonnaga etdi, ya'ni 4,2 barobar o'sdi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda g‘alla etishtirish hajmining o‘sib borishi, ming tonna.

2015 yilda ham g‘alla etishtirishda katta natijalarga erishilganligi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘urzasida: “Mamlakatimiz **qishloq xo‘jaligida** ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o‘tgan yili mo‘l hosil etishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta’kidlash kerakki, bunday mo‘l hosil asosan qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g‘o‘za va boshqali don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘zlashtirish evaziga ta’minlandi.


Mamlakatimizda bug‘doydan gektaridan o‘rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug‘idir”¹, deb alohida ta’kidlab o‘tdi.

Istiqlol davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlar – avtomobilsozlik, sellyuloza-qog‘oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya’ni mashinasozlik, yoqilg‘i-energetika, kimyo va engil sanoat kabi tarmoqlarning hissasi ortib bordi. Natijada, 1995 yilga qadar sanoat ishlab chiqarish hajmi pasayib borgan bo‘lsa, 1996 yildan boshlab sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o‘sib bormoqda (3-rasm).

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2000 yilda 1990 yildagiga nisbatan 1,2 barobar, 2010 yilda 3 barobar, 2015 yilda esa 4.4 barobar o‘sdi.


¹Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодий-иқтисодий таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришди // Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2016 йил, 16 январь, -Б. 2.

O‘zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o‘zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko‘kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko‘paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikamiz uchun tamomila yangi bo‘lgan avtomobilsozlik sanoatining tashkil etilishi bilan O‘zbekiston Avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining 33-to‘laqonli a‘zosi sifatida qabul qilindi. Bugungi kunda avtomobilsozlik sanoati Asaka shahrida AQSHning “Jeneral Motors” kompaniyasi bilan hamkorlikda engil avtomobillar ishlab chiqaradigan, Toshkent shahrida Germaniyaning “Daymler Bens” va Samarqand shahrida Yaponiyaning “Isuzu” kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Samarqand shahrida Germaniyaning “MAN” kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o‘z ichiga oladi.



3-rasm. O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi, 1990 yilga nisbatan foizda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin asosiy e‘tibor barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga qaratildi. Bu borada dastlabki palladanoq mamlakatimiz o‘z taraqqiyot yo‘lini izchil amalga oshirishi natijasida, MDHning boshqa ko‘plab mamlakatlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka erishdi (4-rasm).



4-rasm. 1991-1995 yillarda MDHning ayrim davlatlarida YAIMning pasayishi, foizda.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1991-1995 yillarda YAIMning pasayishi Qozog'istonda 75,4, Belorussiyada 54,6, Rossiyada 53, Ukrainada 52 foizni tashkil etgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning dastlabki yillarida oldingi yillarga nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsa (1991-1995 yillar davomida o'rtacha pasayish 18,8%ni tashkil etgan), ilk marta 1996 yilda 1,7% o'sishga erishildi. O'tgan 2014 yilda mamlakatimizda islohotlar dasturi davom ettirilib, undan o'rin olgan muhim chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblik yanada mustahkamlandi, iqtisodiyotimiz modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Jumladan, yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda qabul qilingan, "o'zbek modeli" deb nom olgan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li – bularning barchasi, ayniqsa 2008 yilda boshlangan va hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida o'zining nechog'liq to'g'ri va hayotiy ekanini isbotladi¹. Diagrammadan ko'rinadiki, O'zbekistonda 2008-2015 yillar davomida 8 foizdan kam bo'lmagan o'sish sur'atlariga erishib kelinmoqda.

Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining alohida va muhim o'rin tutishini hisobga olib, 2013 yilda 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar 2014 yilda mamlakatimizda barcha avtomat telefon stansiyalarini raqamli tizimga o'tkazishni yakunlash uchun zamin yaratdi. Bu esa xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda.

2015 yili 500 dan ortiq yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o'rnatilishi hisobidan aloqaning ushbu zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan tizimi abonentlari soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 26 foizga ko'paydi.

Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida ko'p bo'g'inli infratuzilmaning yaratilishi va yangi xizmat turlarining rivojlantirilishi zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishning muhim omili bo'lib xizmat qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 16 maydagi PQ-350-sonli qaroriga binoan ustuvor investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida tashkil qilingan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga

¹Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир / И.А.Каримов; – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2015, 135-б.

markazlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish ko‘lami yildan-yilga oshib bordi.

Jamg‘arma o‘z faoliyati mobaynida Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o‘zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali «Ohangaron-Pungan» magistral gaz tarmog‘ining qurilishi, «Farg‘onaazot» va «Maksam-Chirchiq» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kvli «G‘uzor» kichik stansiyasi va «Surxon» kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko‘l konlarida siqish kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo‘ng‘irot kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalari, 400 ta «Mercedes-Bens» rusumli yo‘lovchi tashish avtobuslarini xarid qilish loyihalari, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Yangi «Angren» ko‘mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-sonli energiya blokларini yil bo‘yi ko‘mir asosida ishlash tizimiga o‘tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug‘-gaz moslamalarini qurish, Toshkent - Samarqand temir yo‘l yo‘nalishida foydalanish uchun «Talgo - 250» yuqori tezyurar elektropoezdларini xarid qilish, Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

So‘nggi yillarda qariyb **2 ming** kilometr avtomobil yo‘llari, xususan, O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradign **1,5 ming** kilometr uzunlikdagi yo‘l tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Temir yo‘l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi “Navoiy-Uchquduq-Nukus-Sultonuvaystog‘” va 223 kilometrlik “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” tarmoqlari barpo etildi. 550 kilometrdan ziyod temir yo‘l liniyalari elektrlashtirildi¹.

Bugungi kunda 27 rusumdagi yuk va engil avtomobillar, avtobuslar, minivenlar hamda 15 turdagi zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikalari ishlab chiqarilmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining engil avtomobillar bilan ta‘minlanishi 3,5 marta oshgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston elektrotexnika sohasi ishlab chiqarayotgan maishiy texnikaning 30% dan ortig‘i Rossiyaga eksport qilinmoqda. “O‘zeltexsanoat” ma‘lumotiga ko‘ra, o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar Rossiyaga asosan xolodilnik, televizor, turli kabellar va yuqori voltli mahsulotlar eksport qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston mahsulotlari bugungi kunda O‘rta Osiyo, Evropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga ham etkazib berilmoqda. Ushbu yilning birinchi choragida soha korxonalari qiymati salkam 26 mln dollar bo‘lgan mahsulot eksport qilishdi. Bu o‘tgan yilga qarganda 54% ga ko‘p. E‘tibor bering: sobiq tuzumda yuqoridagi mahsulotlarning barchasi bizga chetdan olib kelingan bo‘lsa, bugun esa bu mahsulotlar bizdan chetga eksport qilinmoqda.

¹ Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир / И.А.Каримов; – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2015, 62-б.

2016 yildan boshlab O'zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yo'l oldi. Bunda Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan, mamlakatni zamonaviy asnoda rivojlantirishga qaratilgan «Harakatlar strategiyasi»da belgilangan ustuvor vazifalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 22 dekabr 2017 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islosotlarga to'xtalib o'tdilar:

“2017 yilda iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan, yangicha ma'no-mazmundagi va samarali islohotlarni amalga oshirish yo'lida birinchi qadamlarni qo'ydik.

Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat ob'ekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Hozirgi vaqtda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Yoshlik – 1”, “Yoshlik – 2” konlarini o'zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Bu yirik inshootlar ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim voqea bo'ladi.

Farg'ona – Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i elektrlashtirildi.

Yana bir yirik ob'ekt – Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018 yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida “O'zagrotex-sanoatxolding” aksiyadorlik jamiyatida yangi yilda 5 mingdan ko'proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.”

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, shuningdek, ilgari xorijiy tajriba, zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida elektr energetika tarmogida davlat boshqaruvining tashkiliy huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 oktyabrda

barqarorligini ta'minlash chora – tadbirlari to'grisida"gi qarori xamda soxaga oid boshqa normativ-xuquqiy xujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda respublika energetika tizimi 37 issiqlik va gidro-elektrostansiyalardan iborat bo'lib, ularning umumiy quvvati 11 million kilovattni tashkil etadi. U yiliga 55 milliard kilovatt soatgacha energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Yirik issiqlik elektrostansiyalar, jumladan, quvvati 3 million kilovatt soat Sirdaryo GRESi, quvvati 2,1 million kilovatt Yangi Angren, quvvati 1,86 million kilovatt Toshkent, quvvati 1,25 million kilovatt Navoiy GRESlari respublikamizning asosiy Elektroenergetika manbayi hisoblanadi.

Issiqlik elektrostansiyalaridan tashqari, nisbatan arzon va ekologik toza Elektr energiyasini etkazib beruvchi gidroelektrostansiyalar, jumladan, Chorvoq, Xo'jakent, Farg'ona, G'azalkent va boshqa bir qancha elektrostansiyalar ishlab turibdi.

O'zbekiston energotizimining Markaziy Osiyo Birlashgan energotizimidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi. Respublikamiz elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga uzatilmoqda.

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Dastlabki davrda jahonning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi O'zbekistonning xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi.

"Ayni shu asosda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2017 yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 854 million dollarga etdi. "

Milliy valyutamizni erkin konvertatsiya qilishga kirishdik. Yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani tijorat banklaridan cheklovsiz sotib olish va erkin sotish imkoniga ega bo'ldi. Chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari hajmi liberalizatsiya davriga nisbatan 1,5 barobar oshib, o'rtacha 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, davlatimizning oltin-valyuta zaxiralari yil davomida 1,1 milliard dollarga ko'paydi.

Joriy yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasi faoliyati yo'lga qo'yildi va bu tashkiliy choralar hududlarni jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Yaqin vaqt ichida yana 50 ta yangi sanoat zonasini tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Yil davomida biz uchun g'oyat muhim bo'lgan yangi ish o'rinlarini tashkil etish masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2017 yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish ob'ektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

O'z-o'zidan ayonki, biz aholi bandligini ta'minlashni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, bu masalaga nafaqat son, balki sifat jihatidan ham alohida ahamiyat berishimiz zarur".

“Xamma narsa inson manfaatlari uchun” tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy soxada axoli turmush sifatini yuksaltirish boyicha bir qator ustivor yo’nalishlar belgilab olindi.

Axolini ijtimoiy ximoy qilish soxasini tubdan islox qilish borasida Prezident Shavkat Mirziyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisda qayd qilganidek, **“Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy ximoya o’zaro uzviy bog’liq tushunchalar bo’lib, ularni bir-biridan ajralgan xolda tassavvur qilib bo’lmaydi.”**

“Ma’lumki, aholimizni, ayniqsa, byudjet sohasi xodimlarini, kam ta’minlangan oilalarni uy-joy muammosi ko’pdan buyon qiynab kelardi. Bu og’ir ijtimoiy muammoga biz deyarli e’tibor bermay kelganimiz ham bor gap.

Xalqimizning talab va istaklarini inobatga olib, biz joriy yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishdik. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko’p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqamni avvalgi yillarga taqqoslaydigan bo’lsak, 2007 yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010 yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014 yilga nisbatan esa 2 barobar ko’p uy-joy qurilganini ko’ramiz.

Shuni alohida ta’kidlash o’rinliki, biz keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo’lgan ko’pqavatli uy-joylar qurishni boshladik. 2017 yilning o’zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o’zida joriy yilda 420 ming kvadrat metr ko’pqavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu o’tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko’pdir. ”

Odamlarimizning hayotiy ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashda bu muhim masalaning naqadar o’tkir va dolzarb muammo bo’lib turganini hisobga olib, bu ishlarning hajmini oshirgan holda, biz yangi yilda ham albatta davom ettiramiz. ,dey o’z fikrini bayon etdi Prezident.

Prezidentimiz sud, milliy xavfsizlik va boshqa xuquqni muxofaza qiluvchi udoralar ishiga faqat va faqat xalqimizning o’zi baxo berishini, ular uchun yagona qattiq talab-bu fuqarolarning qonuniy manfaatlariga xizmat qilish va ularning xuquqlarini xar qanday xolatda xam ximoya qilishdan iborat ekanligi aytiladi.

Inson omiliga e’tibor , ularning xuquqlarini ta’minlash borasida 2017 yilda yurtimizda yashab kelayotgan ,lekin fuqoroligi bo’lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O’zbekiston fuqaroligi berildi, mamlakatimizning so’nggi 28 yillik tarixida ilk bor 2700 ga yaqin fuqarolar Prezidentimizning Farmoniga muvofiq avf etildilar.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 22 dekabr 2017 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilishicha, xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dard-tashvishlari, xayotiy muammolarini samarali xal etish boyicha yangi tizim yaratilgan yil bo’ldi. Bu tizimning asosi bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Vertual qabulxonasi fuqarolarning murojaatnomasi bilan ishlashning o’ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o’zini oqlamoqda degan edi Prezidentimiz. Yurtimizda shuningdek, so’nggi yillarda qonun ustivorligini ta’minlash va sud-xuquq tizimini takomillashtirish biyicha keng ko’lamli isloxotlar amalga oshirildi. 2016 yil 21 oktyabrdagi “Sud-xuquq tizimini yanada islox qilish, fuqorolrning xuquq va erkinliklarini ishonchli ximoya qilish kafolatlarini

kuchaytirish chor-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur soxadagi davlat siyosatini sifat jaxatdan yangi bosqichga ko'tardi.

Xarakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishi xam qonun ustivorligini ta'minlash va sud-xuquq tizimini yanada islox qilishga bag'ishlangan.

Xarakatlar strategiyasining ushbu yo'nalishida belgilangan vazifa va tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 139 ta normativ –xuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan 14 ta qonun,47 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon,qaror va farmoyishlari. 39 ta O'zbekiston Vazirlar Maxkamasining qarorlari,39 ta idoraviy normativ-xuquqiy hujjatlar.

O'tgan qisqa bir yil davomida sud-tergov faoliyatini sifat jixatidan bosqichga olib chiqishga qaratilgan qonun xujjatlariga bir qator ozgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu borada shunday degan edi:

“O'tgan bir yil davomida sud xokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlandi.Xususan,sudlar tuzulmasini xamda sud'yalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida xech qaysi xokimiyat bo'g'iniga bo'ysunmaydigan organ-Sud'yalar oliy kengashi tashkil etildi.Kengash tomonidan sud'yalikka nomzodlarni tanlash va tayinlashda ta'sirchan jamoatchilik nazorati o'rnatildi.”

Sudyalar vakolat muddatining ilk besh va o'n yillik davri o'tganidan so'ng lavozimda muddatsiz bo'lish amaliyoti joriy qilindi.

Ushbu isloxotlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash,odil sudlovga erishish,huquqni muxofaza qilish idoralarining faoliyatini takomillashtirishga xam qaratildi. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, **«sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida– poklik hukmron bo'lishi kerak»**. Sudyalar o'z vazifalarini halol va vijdonan bajarishlari lozim. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan keltirilgan ushbu faktlarga e'tiborni qarataylik: «Keyingi ikki yilda sudlar mustaqilligini ta'minlash bo'yicha ham muhim choralar ko'rildi. Jumladan, joriy yilning (ya'ni 2018 yilning) o'zida 1 ming 881 ta jinoyat ishi dalillar etarli bo'lmaganligi sababli tugatildi, sudlar tomonidan 590 nafar shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam 2016 yilda – e'tibor bering – bor-yo'g'i 28 tani, 2017 yilda esa 263 tani tashkil etgan edi. Shuningdek, 5 ming 462 nafar shaxsga nisbatan tergovda asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi, 2 ming 449 nafar shaxs esa sud zalidan ozod qilindi». Shuningdek, 2018 yil soxa xodimlarining ish faoloyati doirasida ko'plab ishlar qilindi. “Jumladan, vakolatli organ va tuzilmalar xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida profilaktika inspektorlari uchun 6 yarim mingdan ziyod xizmat uylari, 1 ming 100 ta shaxsiy uy-joy, 7 mingta shaxsiy avtomobil berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga joriy yildagi Murojaatnomasida mazkur yo'nalishda Milliy gvardiya xodimlari uchun ham 1 ming 800 ta uy-joy qurilishi qayd etildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari 2018 yilda 3 ming 205 ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmagan”, deya qayd qiladi Prezident Sh.M.Mirzиеev 2018 yil 28 dekabrda qilgan Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha islohotlarning tub maqsadi insonning ijtimoiy turmushini yaxshilashga qaratilgandir. O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos yo'lining asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Uning mohiyati jamiyatda kam ta'minlangan, boquvchisi yo'q, ko'p bolali oilalarni, nogiron va qariyalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tadbir etilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

XIII.3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ma'naviy, madaniy, ilmiy taraqqiyoti va kadrlar siyosati.

Istiqlol yo'lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillarga e'tibor berish bilan birga maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. "Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi", -deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda, O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'lim tashabbusini inobatga olib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnik bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Unda shunday deyiladi: "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va faravonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.... Ushbu qonun 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra tubdan farq qilar edi. Jumladan, 2003 yilda mamlakatda 9702 umumta'lim maktablarida 6 mln. 272000 o'quvchiga 500 ming dan ortiq pedagog o'qituvchilar ta'lim-tarbiya bergan bo'lsa, 51 ta akademik litseylarda 30620 o'quvchi 419 kasb-hunar kollejlari esa 285.685 yigit-qizlar hunar egallaganlar. 1991 yili O'zbekistonda 52 oliygoh bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni 63 taga etgan. 2014 yilda esa hammasi bo'lib 380 ta maktab, 160 tadan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilangan. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflangan. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi –deya qayd etadi Prezident. 2015-2020 yillar oralig'ida esa 500 ta umumta'lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik

litseylarni kapital ta'mirlash rejashtirilganligi xususida ham mazkur kitobda qayd etildi. Ushbu amalga oshirilayotgan islohotlarni oliy ta'lim tizimi ham mustasno emas albatta. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti qayd etganidek "2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

2016 yilga kelib mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarildi. I.A.Karimov: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizni birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojijatnomasida ta'kidlab o'tilganidek, «...yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta'mirlashga alohida e'tibor qaratildi. 12 ta umumta'lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi¹. Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etdik. Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog'chalar qurishimiz, ta'lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim.

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida yurtimizda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi². Respublikamizda 11 yillik orta talimning joriy etilishi hamda oliy talim qamrovining kengayishi ,yoshlarni bosh yurishlriga orin qoldirmadi. Bu oquvchiga ota ona bagrida bolib ham oqib ham ozi hohlagan hunarni egallashiga imkon beradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan keyingi davrda ta'lim-tarbiya tizimini mutloqa yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladigan bir necha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq, yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Qisqa davr ichida ushbu tizimda tub o'zgarishlar amalga oshirildi, 980 dan ortiq bog'cha qurilib, ishga tushirildi. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 30 sentyabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini yagona uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy dastur va texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirishga xizmat qilmoqda. Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi qoshida Axborot va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 22 декабрь 2017 й, Тошкент. Ўзбекистон, 2018 й, Б-10.

² Ўша жойда, Б-11.

pedagogika texnologiyalarining innovatsion markazi, Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish instituti, Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha injenering kompaniyasi, Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 9,7 mingta maktabda 5,2 million o'quvchi ta'lim oladi, o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 17 iyul kuni umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida o'qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish zarurligini alohida ta'kidladi. Dunyo tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Misol uchun, **Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Kanada** kabi davlatlarda o'qituvchining maoshi mamlakatdagi o'rtacha oylikdan 1,5 barobar ko'p. Mamlakatimizda esa o'qituvchining maoshi umumiy o'rtacha oylikning atigi 79 foizini tashkil etadi.

Joylardagi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2018 yilda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar qilindi. 2018 yilda mamlakatimizda jami 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqandda «Ipak yo'li» turizm xalqaro universiteti, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi «Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti»ning Olmaliq shahridagi filiali, Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning Puchon universiteti filiali faoliyat boshladi. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 25 sentyabrdagi Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida «El-yurt umidi» jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli vatandosh olimlar, mutaxassislar va ekspertlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga faol jalb etishga, shuningdek iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olishi, etakchi xalqaro institutlar hamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirishiga ko'maklashadi. 2018 yil 18–19 oktyabr kunlari birinchi marotaba «**Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar**» mavzusida O'zbekiston – Rossiya ta'lim forumi o'tkazildi. Unda Rossiyaning etakchi oliy ta'lim muassasalarining 80 dan ortiq rektori ishtirok etishdi. Ushbu forum yakunida rossiyalik hamkorlar bilan ta'lim va ilmiy faoliyatga oid 114 ta shartnoma hamda bitimlar imzolandi. Jumladan, O'zbekistonda Rossiyaning 6 ta nufuzli oliy ta'lim muassasasi filiali va 2 ta fakultet ochilishi, 52 ta qo'shma ta'lim dasturi joriy etilishi nazarda tutildi. Har bir kelishuv bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqilgan. O'zMU, BDU, FarDU, O'z FA va boshqa O'zbekiston oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalari Rossiya oliy ta'lim muassasalari bilan bitimlar imzoladi. «**Vernadskiy – Ulug'bek**» loyihasi bo'yicha qo'shma ilmiy maktablar yaratildi. Vernadskiy universiteti ilmiy-ma'rifiy konsorsiumlari bilan 2019–2021 yillarda madaniy-gumanitar sohada hamkorlik

dasturi imzolandi. Prezidentimizning 2018 yil 5 iyundagi «**oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**»gi qarori oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

1991 yili O'zbekistonda 52 oliygoh bo'lsa, 2004 yil ularning soni 63 taga etdi, bulardan 19 tasi universitetlardir

Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga etdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQShning Vebster universitetining filiallarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini ta'kidlash lozim. Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo'limlar ochildi. 2019 yilga kelib, O'zbekistonda 95 ta maxalliy va 21 ta xorijiy –jami 116 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2017 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xaqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida**”gi Farmoni imzolandi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga oxirgi saylovlar 1995 yilda o'tkazilgan edi. shundan buyon bu masala e'tibordan chetda qolib kelgani, mazkur Farmonning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib turibdi. O'tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko'proq qisqardi va 2017 yil dekabr oyiga kelib akademianing atigi 63 nafar haqiqiy a'zosi qolgan edi. Davlatimiz rahbarining topshiriqlari ijrosi doirasida qisqa vaqt ichida ilmiy tadqiqot faoliyatining normativ-huquqiy bazasi va moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli kompleks chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Fanlar akademiyasi alohida o'rin tutadi. 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi, qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalishi bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi. Farmonga muvofiq, akademianing Hay'ati va faoliyat ko'rsatayotgan haqiqiy a'zolari tavsiyasiga ko'ra, Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a'zosi tasdiqlandi. Akademiklar qatoridan fizika-matematika, kimyo, biologiya, texnika, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya, huquqshunoslik, pedagogika, tibbiyot fanlari hamda san'atshunoslik sohalarida ko'zga ko'ringan, muhim mezonlar bo'yicha ko'p bosqichli saralashdan muvaffaqiyatli o'tgan olimlar o'rin oldi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga etkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borildi.

Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga etkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdur.

Bozor munosabatlari sharoitida ma'naviyat va ma'rifat ishlariga g'oyat katta e'tibor berilishi mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Shu borada **“Ma'naviyat va ma'rifat”** jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi va keyingi Prezident farmonlari Respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 2-iyunidagi Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi yangi farmoni mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 28 iyulda qabul qilingan (PQ-3160) **«Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»**gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dolzarb vazifalari belgilandi. Bu esa jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshladi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan yondoshishga chek qo'yildi. Bahovuddin Naqshband, Feruz, Xo'ja Axror, Cho'lpon, Fitrat kabi katta hizmatlarni hisobga olib adabiyotning ilg'or namoyandalari Abdulla Oripov, Sayid Ahmad, Erkin Vohidov, Qayibergen To'lepbergenov, Ibroxim Yusupovlar O'zbekiston Qaxramoni unvoniga sazovor bo'ldilar.

1991-yili buyuk alloma, g'azal mulkning sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib Respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994-yil Mirzo Ulubek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik o'tdi.

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi bo'lib o'tdi. YUNESKO tomonidan 1996-yil **“Amir Temur yili”** deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida **“Temuriylar davri, fan, madaniyat va**

maorifning gullab yashnashi” mavzuida anjuman va unga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochildi. Mamlakatimizda “Temur va temuriylar” muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog‘lar, ko‘chalar barpo etildi.

Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bohovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiyarga bag‘ishlanib kechalar o‘tkazildi, Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludi, “Alpomish” dostoni yaratilishining 1000 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

Ma‘naviy hayotni takomillashtirish maqsadida Imom al Buxoriyning yubileyiga bag‘ishlab, Qur‘oni Karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan “Al-Jome‘ as-Sahiyh” (Ishonarli to‘plam), “Al-adab, al-mufrad” (Adab durdonalari) o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998-yili Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al Farg‘oniy tavalludning 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko‘rgazmalar ochildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan buyuk vatandoshlarimiz fiqh ilmining bilimdoni, nomi sharq va g‘arbda mashhur bo‘lgan Abul Hasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al Farg‘oniy al-Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi, kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur al Motrudiy tavalludining 1130 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlab o‘tildi. Yurtimiz hali ittifoq tarkibida bo‘lgan, Kremlning hukmronligi hali kuchini yo‘qotmagan bir paytda – 1990-yil iyun oyida Respublika Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi. O‘zbekiston hukumatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi bilan 1991 - yilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovar bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga etdi. Jami mustaqillik yillari Haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo‘lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi.

2018 yilda Haj safariga boruvchilar 7 ming nafar kishini tashkil etmoqda, Umra safariga borishni istagan barcha fuqarolar uchun to‘la imkoniyat yaratildi

Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri “Navro‘z” umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. 1992-yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e‘lon qilindi. 2018 yildan boshlab, bu bayramlar kunlari uch kun nishonlash imkoniyati yaratildi.

“Movarounnahr” diniy boshqarmasi faoliyati Respublikamiz hayotida o‘z o‘rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. «Islom nuri» gazetasi chop etilmoqda. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston bo‘yicha 87 masjid bo‘lsa, 1998-yilda ularning soni 3000ga hozir esa 5000dan ortdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an‘analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. O‘zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan

makondir. Hozirgi kunda ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda o‘n to‘rtta diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O‘zbekiston evangel-lyutteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Bir osmon ostida” shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan muloqat katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida “Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo‘lida” mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o‘ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar negizida xavfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik davlatimiz siyosatining ustivor yunalishi xisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari 138 ta milliy madaniy markazlarga birlashib O‘zbekiston umumiy uyimiz shiori ostida katta bir oilaning farzandlaridek yashamoqdalar. 2017 yil 19 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Bu esa jamiyatimizda millatlararo xamjixatlik va bagrikenglikni taminlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda yana bir qadam bo‘ldi.

Istiqlol yo‘lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma‘naviy, madaniy omillariga e‘tibor berish bilan birga maorif, ta‘lim-tarbiya ishlariga e‘tibor kuchaytirilmoqda.

Oxirgi yillarda madaniyat va san‘at sohasida muayan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbek milliy maqom san‘atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san‘atimizga hurmat va ehtirom tuyg‘ularini kamol toptirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma‘rifiy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2018 yil 6 aprelda «Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yil 6–10 sentyabr kunlari Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san‘ati xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi. Tadbir ishtirokchilari va mehmonlarning fikriga ko‘ra, ushbu anjuman jahon madaniyatining mulkiga aylangan noyob o‘zbek milliy maqomini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. 2018 yil 24 iyulda O‘zbekiston Prezidentining **«Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»** qarori mamlakatimizda kino san‘atini yanada rivojlantirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha muhim tadbirlarga asos bo‘lmoqda. Bugungi kunda O‘zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san‘atining namoyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni

keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy -ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 noyabrda **«Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»**gi Qarori qabul qilindi. Qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta xalqaro baxshichilik san'ati festivalini tashkil etish hamda ushbu festivalni birinchi marta 2019 yil 5–10 aprel kunlari o'tkazish haqidagi taklifi ma'qullandi.

Shuningdek ozbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etildi, ushbu can'at yonalishini rivojlantirish tizimi yaratildi.

Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart ekanligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan turli doiradagi yig'ilish va anjumanlardagi nutq va ma'ruzalarida alohida ta'kidlab o'tilmoqda.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eski tafakkur, e'tiqodidan qutilgan istiqlol uchun, o'z ona-yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi turdi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Sobiq ittifoqda katta-kichik rahbar xodimlar har xil darajadagi partiya va komsomol maktablarida, kommunistik mafkura targ'ibotchisi va tashviqotchilarini tayyorlaydigan Universitet va akademiyalarda tayyorlangan bo'lsa, endilikda bu o'quv yurtlari, tabiiyki, tarix sahnasidan tushib qoldi, rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda Prezident qoshidagi "Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi" (hozirda Davlat boshqaruv akademiyasi), "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti", ayrim vazirliklar qoshida akademiyalarning tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

2017-2018 yillarda Prezidentimiz tomonidan huquq organlari faoliyatini tartibga solish, yanada takomillashtirish, xodimlarining moddiy manfaatdorligini ta'minlash va eng bu soha kadrlarini huquqiy masalalarda adolat, halolik va mas'uliyat bilan ishlashlarini ta'minlashda juda katta va salmoqli ishlar olib borildi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnoma"sida yurtimizdagi ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, shuningdek, madaniyat va san'at muassasalari hamda yirik kompaniya va banklar hamkorligida "Do'stlar klublari", Toshkent shahridagi Milliy bog' hududida muhtasham Adiblar xiyoboni tashkil etilganligi, Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi, Qoraqalpog'istonda va bir qator viloyatlarimizda ulug' adiblarimizning nomlari bilan atalgan ijod maktablari barpo etilganligi ta'kidlab o'tilgan.

Ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'lgan ana shunday loyihalar, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlanganini, buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishlarni o'rganish bo'yicha maxsus maktablar tashkil etilganligi, bu ishlarimizning chuqur ilmiy va amaliy asoslarga egaligiga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar etishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz diliga va ongiga milliy istiqlol g'oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tashkil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida tarbiyalashga qaratilgandir.

Mustaqillik yillarida o'z faoliyatini boshlagan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz diliga va ongiga milliy istiqlol g'oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tashkil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida tarbiyalashga qaratilgandir.

O'zbekiston hukumati yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan keng shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib qo'ydi. Hozirgi kunda Respublikada jismoniy tarbiyaning 15085 boshlang'ich tashkiloti shug'ullangan bo'lib ulardan 9501 maktablarda, 710 tasi litsey va kollejlarda 63 tasi oliygohlarda tashkil etilgan.

Respublikada sport inshootlarini qurishga ulkan e'tibor qaratilgan. Jumladan, hozirgi kunga kelib 500dan ortiq sport klublari, 536 sport maskanlari, 5 ta olimpiya klublari, 8 ta Respublika oliy sport maktablari va jismoniy tarbiya instituti ishlab turibdi. Sport bilan shug'ullanuvchilarga 233 stadion, 135 suzish havzasi, 32.865 sport maydonchalari xizmat ko'rsatmoqda. 4841 futbol maydoni, 168 tennis, voleybol, basketbol maydonlari mavjuddir.

Mamlakatda sport va jismoniy tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1999-yil 27-maydagi 271-sonli qarori va shu qaror asosida qabul qilingan Davlat Dasturi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dasturga ko'ra ayniqsa qishloq Yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport shaxobchalarini kengaytirib, ularning moddiy texnika bazalarini kuchaytirish tadbirlari belgilandi. Bunga javoban o'tgan bir yildan ko'proq vaqt ichida qishloq tumanlarida 184 sport-sog'lomlashtirish klublari tashkil qilindi.

2000-yil O'zbekiston Respublikasi sporti tarixida, umuman olganda, muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Saralash musobaqalarida g'olib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi bo'yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII Olimpiada o'yinlarida qatnashishga muyassar bo'ldilar. Olimpiadachilarimiz 1 oltin, 1 kumush va 2 bronza medallarini qo'lga kiritib, 200 mamlakat o'rtasida 41-o'rinni egalladilar. Respublika kurashchilari, bokschilari, tennischilari, dzyudochi va karatechilari mustaqil O'zbekistonimizni butun jahonga tanitdi.

Mustaqillik yillarida eng tez rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri shaxmatdir. Sobiq Sovetlar davrida shaxmat bo'yicha bitta grossmeyster tayyorlangan bo'lsa, endilikda ularning soni 11 nafar bo'ldi. Turkiyada bo'lib o'tgan jahon shaxmat olimpiadasida hamyurtlarimiz 120 dan ortiq mamlakatlar ichida farqli 11 o'rinni egalladilar. Respublika chempioni Rustam Qosimjonov o'z taxtasida bronza medaliga ega bo'ldi. 2004 yili dunyoning eng kuchli shaxmatchilari ishtirokida o'tgan jahon chempionatida R.Qosimjonov jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan xalqchil, adolatli, inson manfaatlariga qaratilgan siyosat ko'plab sohalarda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Birgina sport misolida aytsak, o'zbek futbolida yangi davr boshlandi. Buni hayotga katta kuch bo'lib kirib kelayotgan yoshlarimiz 2018 yilning 9–27 yanvar kunlari Xitoyda 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston yoshlar terma jamoasi safida eng yuksak natijani qayd etib, oltin medalni qo'lga kiritgani ham tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 yanvarda qabul qilgan **«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil chora-tadbirlari to'g'risida»**gi qarori sport sohasida sog'lom muhitni yaratish, sportchilarimiz orasida halollik va haqqoniy fazilatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. 2018 yil 5 martda esa **«Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»**gi Prezident Farmoni asosida respublikamizning 5 ta hududida barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy o'quv-mashg'ulot bazasi tashkil etilib, Milliy olimpiya qo'mitasi ixtiyoriga berildi. 2018 yil 22 fevral – 5 mart kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qilichbozlik bo'yicha kadetlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida mamlakatimiz sportchilari muvaffaqiyatli qatnashib, bunday nufuzli musobaqada ilk bor sovrindor bo'lishdi. Yuqori malakali murabbiy kadrlarni jalb qilgan holda iqtidorli yosh shaxmatchilarni tayyorlash, shaxmat bo'yicha milliy terma jamoaning amaldagi a'zolari bilan doimiy aloqani ta'minlash, shuningdek, shaxmatni insonning aql va tafakkur jarayonini rivojlantiruvchi sport turi sifatida yanada ommalashtirish maqsadida 2018 yil 9 avgustda O'zbekiston Prezidentining **«O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi qarori qabul qilindi. 2018 yilning avgust-sentyabr oylarida Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida 45 ta mamlakat vakillari o'rtasida o'tkazilgan XVIII osiyo o'yinlarida 234 nafar sportchimiz sportning 30 turi bo'yicha O'zbekiston nomidan ishtirok etishdi. Mamlakatimiz sportchilari 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza – jami 70 ta medalni qo'lga kiritdi. O'zbekiston delegatsiyasi oltin medallar soni bo'yicha 5-o'rinni egallagan sportimiz tarixida eng yaxshi natija bo'ldi. Yurtimizda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarning ham sport bilan muntazam shug'ullanishi, o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Natijada vakillarimiz Paraolimpiya hamda Paraosiyo o'yinlari, nufuzli xalqaro turnirlarda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Yangi nomlar, chempionlar kashf etilmoqda. Natijada Indoneziyaning Jakarta shahrida o'tkazilgan III yozgi Paraosiyo o'yinlarida

sportchilarimiz 35 oltin, 24 kumush va 18 bronza – 77 medalni qo‘lga kiritdi. 2018 yil 6–18 oktyabr kunlari Argentina poytaxti Buenos-Ayres shahrida III yozgi o‘smirlar olimpiadasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur nufuzli musobaqada O‘zbekiston sport delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Xususan, 37 nafar yosh atletimiz sportning 16 turi bo‘yicha sovrinli o‘rinlarni egallashdi. Bugungi kunda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda mashaqqatli mehnat va katta kuch talab etilishini inobatga olgan holda, sportchilarning o‘z mahoratlarini muntazam oshirib borishlari, ularning jismonan va ma‘nan etukligini ta‘minlash bilan birga, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirib borish ham talab etilmoqda. Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish maqsadida 2017 yil 10 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»**gi qarori qabul qilindi.

Yaponiyada taekvondoning WTF yo‘nalishi bo‘yicha “Chiba-2019” Gran-pri turniri o‘tkazildi. Unda yurtimizning uch nafar taekvondochisi, jumladan ikki nafar MVSK a‘zosi qatnashdi. Nufuzli musobaqada ikki taekvondochimiz sovrindor bo‘ldi. Va “Tokio-2020” yozgi Olimpiada o‘yinlariga borish yo‘lida qimmatli reyting ochkolarini qo‘lga kiritdi. Svetlana Osipova 67 kg vaznda bronza medalni qo‘lga kiritdi. Nigora Tursunqulova bronza medal va qimmatli reyting ochkolarini qo‘lga kiritdi¹.

XIII.4. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi, uning mohiyati va ahamiyati.

Jamiyat taraqqiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tushunish, hur fikrlilikka intilish kishilarni istiqlol yo‘lidan olib boruvchi g‘oyaviy qarashlar hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi birinchi Prezidentimiz aytganidek, «suv bilan havodek zarurdir». Busiz, ya‘ni fikrlash, e‘tiqod o‘zgarmasdan bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish murakkab vazifadir. I.A.Karimov milliy mustaqillik g‘oyasining zarurligi to‘g‘risida gapirar ekan “O‘zining kelajagini qurmoqchi bo‘lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o‘z milliy g‘oyasiga suyanishi va tayanishi kerak”, - deb ta‘kidlaydi va milliy istiqlol mafkurasining vazifasini ko‘rsatib uning: “...asl ma‘nosi eskicha aqidalardan xoli bo‘lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat”, -deydi.

Mustaqillik g‘oyasi va mafkurasining xalqimizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg‘unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib birinchi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, 1993-yil 6-may O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq, XII sessiyasida “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu-milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbqiq etishdir”, -degan edi.

¹ Эрмухаммад Р. Япониядан иккита бронза // Ватанпарвар.2019 й, 20-сентябрь.

Kishilarimizni qaysi toifa va guruhda bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdan-bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo'ladi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy istiqlol g'oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida 130 dan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston respublikasining ko'p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o'zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo'lidagi ustuvor yo'nalish deb qaraydi. "O'zbekiston vatanim manim" g'oyasi barcha O'zbekistonliklarning dilidan o'rin olgan. Bu fikrlarning tasdig'ini "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan 1999 yilning iyun oyida o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarning natijasida ko'rish mumkin. Qoraqolpog'iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1350 respondentlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda o'zbeklardan tashqari tojik, qozoq, tatar, qirg'iz, rus, ukrain, belorus millatlari vakillari O'zbekistonda millatlararo va fuqarolik barqarorlikning sabablari nimada?-degan savolga yakdillik bilan quyidagicha javob berdilar: 59,5%-Respublika Birinchi Prezidenti I.Karimovning oqilona siyosati, 31,3%-davlatning oddiy xalq to'g'risidagi g'amxo'rliqi, 22%-o'zbek xalqining bag'rikengligi, 15,3%-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqarorlik.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarimizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarni oldini olishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Shu maqsadda xalqimizning an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini kishilar ongiga singdirish lozimdir.

Milliy mustaqillik g'oyasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimiz tayanchi va kelajagi Yosh avlodni milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g'oyalariga e'tiborsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. 1999 yil 16-fevral "qonli seshanba" kungi voqealar milliy mustaqillik g'oyasini, mafkurasini Yoshlarimiz diliga etkazish zarurligini, buning uchun g'oyaviy, mafkuraviy ishlarimizni kuchaytirish lozirligini ko'rsatdi.

Milliy istiqlol g'oyasini, uning tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, birinchi navbatda Yoshlarimiz o'rtasida targ'ib va tashviq etishning usul-uslublarini shakllantirish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi qoshidagi targ'ibot-tashviqot markazining tuzilgani, jamoatchi ma'ruzachilar ishining yo'lga qo'yilayotgani, ular uchun "Voizga yordam" ruknida risolalar chop etilayotgani shular jumlasidandir. Birinchi Prezidentimiz farmoni bilan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" maxsus fan sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlariga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi **"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar"** haqidagi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mazkur o'quv kursi joriy qilindi.

“Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi – **«Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot!»**dir.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari:

- Vatan ravnaqi;
- Yurt tinchligi;
- Xalq farovonligi;
- Ijtimoiy hamkorlik;
- Millatlararo totuvlik;
- Dinlararo bag‘rikenglik;
- Komil inson.

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qadimdan boshlab ilm-fanning hamma sohasi, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, me‘morchilik, ma‘dashunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o‘rganib yanada boyitmoqdalar. Ular o‘z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Nukus va Samarqandda O‘zbekiston Respublikasi FANing bo‘limlari ochilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatda ilm-fanga alohida e‘tibor berildi. Xalq xo‘jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi FANing yangi Nizomi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-aprelidagi farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari va innovasiya faoliyati haqida”**gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishga alohida e‘tibor berildi. Ilmiy echimlarni ichki va tashqi bozorda targ‘ib etish va tarqatish maqsadida Respublika ilmiy ishlanmalari innovasiya - tijorat markazi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestasiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FANing mavqei ortdi.

O‘zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O‘zbekiston balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi va ko‘pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo‘ldilar vaxorijiy davlatlar akademiyalariga ham haqiqiy ham faxriy a‘zolikka saylandilar. O‘zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallarni ta‘sis etdi. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi FANing akademigi H.F. Fozilov tabiiy va texnikaviy sohada katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi oltin medalning birinchi sohibi bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medal birinchi bo‘lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya

fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining a'zosi U.I. Karimovga nasib etdi.

1992-yil oktabr oyida esa geologiya-minerologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi I.H. Hamroboyev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullayev nomidagi oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi. U AQSH da chiqadigan "Global tektonika va Metallogeniya" xalqaro ilmiy jurnali tahririyatiga a'zo etib saylandi.

"Fan va texnikada kim haqiqatan kim?" deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi P.Q. Habibullaev kiritilgan. O'zbek olimi bu sharafiga o'zining qattiq va yumshoq jismlar, issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizikaviy-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqanligi uchun muyassar bo'lgan.

FAning 40 ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlatlar olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada, 1992-yil dekabr oyida texnika fanlari doktori G'.G'. Umarov K.E. Siolkovski nomidagi Kosmonavtika Xalqaro akademiyasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro Akademiyaning a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimidir. shuningdek, o'zbekistonlik M.S. Bulatov, S.M. Sutyagin, I.I. Notkinlar, 1993-yilda Iordaniya Islom Fanlar Akademiyasi a'zolariga, M.S. Salohiddinov, YUNESKO Informasiya Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga, 1994-yil oktabr oyida Xudoyor Olloyorov, 1995-yil fevral oyida Azamat Shamsiev Nyu-York FAning faxriy a'zolariga, ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga Z.S.Salimov, A.A. A'zamxo'jayev, 1997-yil oktabrida U. Tojixonov va Z.Zaripovlar tabiat va jamiyat fanlari Xalqaro akademiyasining a'zolariga, akademik E.Yusupov esa Turkiya fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga saylandilar. Amerika biografiya instituti O'zbekistonning etakchi olimlaridan biri Omonulla Fayzullayevga uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga asoslanib "2001 yil insoni" unvonini berdi hamda mazkur institutning maslahatchilar Kengashi a'zolariga saylandi. Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshimiz aytganlaridek, XXI asrda quroli, qo'shini bo'lgan davlatgina emas, balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassisleri bo'lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta'minlanishi davlat raxbari I.A.Karimovning bevosita g'amxo'rligida bo'ldi. 2001-yilning davlat byudjetidan madaniyat va san'at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so'm (bu ko'rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln. so'mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning guvohidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikada yangi teatr jamoalari

tashkil etildi. 1991-1994 yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan “Turkiston” saroyi nafaqat me’morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlar va atoqli artistlarning chiqishlari bo‘ladigan dargohga aylandi.

1998-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O‘zbekiston tomosha san’atining ko‘p asrlik an‘analarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san’atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta’minlash maqsadida “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Teatrlarning 90-yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy pe’ssalar keng o‘rin oldi. 1996 yili Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar saxnalashtirildi. “Navro‘z-97” teatr festevali munosabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg‘oniy, al-Buxoriylarni yubileylariga bag‘ishlangan pessalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni etakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo‘yildi. 1995-1997-yillari Respublika teatrlari tomonidan 313 yangi spektakllar qo‘yildi.

O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san’atini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘zda tutildi. San’atni barcha sohalari, madaniy-ma’rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo e’tibor markazida bo‘lib keldi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o‘zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho‘lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvar qori singari millatparvar yozuvchi, ma’rifatparvarlar ijodi xolisona o‘rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o‘z o‘rnini egalladilar.

Mustaqillik sharofati bois mo‘tabar Qur’oni Karim va hadislar chop etildi. Bunday asarlarning xalqimiz qo‘liga etib borishi butunlay yangi, sog‘lom, sof milliy g‘oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko‘plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqloq g‘oyasi va mafkurasining buyuk xayotbaxsh kuchini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqlari O‘zbekiston qahramonlari Sayid Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa’dullaevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqloq davridagi o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o‘rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do‘stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g‘oyaviy etuk asarlari o‘zbek milliy istiqloq adabiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Aholi o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni tashkil qiluvchi muassasalardan biri kutubxonalar bo‘lib, ularning soni 1996-yili 6723 ta edi. Kutubxonalarda jami

kitobxonlar 6 mln. 211 kishini tashkil qilsa, shundan 4 mln. 425 mingi qishloq rayonlarida edi. Kutubxonaxodimlaridan 65 foizi oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislardir.

Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda "Temuriylar tarixi davlat muzeyi"ni qurilishi, "O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi", "Xalq amaliy san'ati muzeyi" ning qayta jihozlanishi buning dalolatidir. Hozirgi kunda davlat qaramog'idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23-o'lkashunoslik, 10-badiiy san'at koshonasi, 20-memorial muassasa, 8-adabiyot, 4-tibbiyot muzeylaridir.

Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey xalqimizning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish etmoqda va kishilarimizni, yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga o'zlarining hissalarini qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylarda 2000-yil boshlarida 1.350 ming eksponatlar saqlanmoqda va ularni o'tgan davrda 1.655.400 kishi tomosha qilgan.

Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib, shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda. Milliy bank, mehmonxona binolari hamda madaniyat va istirohat bog'larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib etuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

O'ZBEKISTON RAHBARINING 10 ASOSIY ISLOHOTI¹

Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat va hukumat boshqaruvini qo'lga olgan kunlardan boshlab, mamlakatimizda turli sohalarda katta o'zgarishlar amalga oshirilib kelayotgani hech kimga sir emas. Bunday yangilanish va islohotlar nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham yaqqol e'tirof etilmoqda.

Yurtboshimizning salkam ikki yil davomidagi amalga oshirgan islohotlari:

1.Ma'muriy sohadagi islohotlar:

- Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining qabul qilinishi;
- "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi;
- Iqtisodiyot tarmoqlarini ma'muriy ta'sirlarining qisqartirilishi;
- Davlat boshqaruviga strategik rejalashtirishning yangi shakllarining tadbiq etilishi.

2. Iqtisodiyot sohasidagi islohotlar:

- Davlat kompaniyalarining isloh etilishi, ularning qo'llab-quvvatlanishi va qayta ixtisoslashtirilishi;
- Biznes yuritish shartlarining engillashtirilishi, korxonalarning eksport salohiyatini har tomonlama rag'batlantirish;
- Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport monopoliyasiga barham berilishi;
- Avtomobil kompleksining liberallashtirilishi.

3. Inson huquqlari sohasidagi islohotlar:

¹ Мирзиёев йўли. Ўзбекистон етакчисининг 10 та асосий ислоҳоти. Ўзбекистон стратегияси. Ижтимоий таҳлилий журнал. №2, 2018. 6-б., 8-9-бетлар.

- BMTning inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturining qabul qilinishi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakili – Biznes Ombudsman institutining tashkil etilishi;
- Shaxs erkinligi va daxlsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi;
- Birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining avf etish bo'yicha Farmonining qabul qilinishi.

4. Ta'lim sohasidagi islohotlar:

- 11 yillik maktab ta'lim tizimining joriy etilishi;
- Oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari oylik maoshlarining oshirilishi;
- Oliy ta'lim muassasalarining aqlli universitet yagona axborot tizimiga ulanishi;
- Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi.

5. Soliq bo'yicha islohotlar:

- Soliq islohotlari konsepsiyasining qabul qilinishi;
- Soliq qonunchiligining takomillashtirilishi;
- Bir-birini takrorlovchi soliqlarning bekor qilinishi yoki bir xillashtirilishi;
- Korxona, tashkilot va tadbirkorlar uchun soliq ta'tillarining joriy etilishi.

6. Valyuta bozorini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar:

- Erkin valyuta konvertatsiyasiga o'tish;
- Milliy valyuta almashuv kursini bozor kursiga o'tkazish va bosqichma-bosqich pasaytirish;
- Iqtisodiyot tarmoqlarini majburiy sotishdan ozod etish.

7. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha islohotlar:

- 2017-2018 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturining qabul qilinishi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi;
- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi.

8. Qurolli kuchlar sohasidagi islohotlari:

- Harbiy ta'lim tizimining takomillashtirilishi;
- Harbiy xizmatlar ijtimoiy himoyasining oshirilishi;
- Boshqa mamlakatlar bilan harbiy-texnik hamkorlikning rivojlantirilishi;
- Qurolli kuchlarning modernizatsiya qilinishi va qayta qurollantirilishi;
- Harbiy sanoat kompleksining tuzilishi.

IIV bo'yicha islohotlar:

- Ichki ishlar organlari faoliyatining takomillashtirilishi;
- IIV rahbarlarining amalga oshirilgan ishlari bo'yicha deputatlar va aholi oldida majburiy hisobot berish mexanizmlarini joriy etilishi;
- 2023 yilgacha mo'ljallangan “Xavfsiz shahar” loyihasining ishlab chiqilishi;
- “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasining ishlab chiqilishi.

MXX sohasidagi islohotlar:

- Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat xavfsizlik xizmatiga o'zgartirilishi;
- Xizmat faoliyatining vakolat hamda yo'nalishlarining aniq chegaralanishi;

-“Davlat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi.

O‘zbekiston respublikasida barcha jabxalarda o‘tkazilayotgan isloxotlar milliy davlatchiligimizni yanada mustahkamladi. Bunda avvalo, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqorolik jamiyati barpo etishning muxim jihatlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda amalga oshirayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi har bir insonning manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishni ta‘minlashdan iboratdir.

XIII.5. XXI asr bo‘lag‘asida dunyo. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi va uning tamoyillari.

XX asrning oxirgi o‘n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib kirdi, chunki er yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o‘zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan SSSR va AQSH etakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sosialistik tuzum emirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta‘sir etdi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish maqsadida o‘zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo‘g‘rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikir bo‘lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda. O‘zbekistonning bu borada amalga oshirgan ulkan yutuqlari umumjahon sivilizasiyasi bilan mushtarak ekanligini alohida qayd etmoq kerak.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o‘rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, turistik aloqalarni o‘lga qo‘yish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar etishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik haqidagi Bayonot”da o‘z tashqi siyosatining asosiy o‘lini belgilab olgan O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 17-moddasida bu o‘lini qonun bilan mustahkamladi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov o‘zining asarlari, ma‘ruzalari va nutqlarida nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Uning tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

milliy-davlat manfaatlarini ustun qo‘ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren teng ligini hisobga olish;

umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘ygan holda nizoli mojorolarni tinch o‘l bilan hal etish;

tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlikni o‘rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik

barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilish;

xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;

tashqi siyosatda ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e’tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitutsiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmui Konstitutsiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumiy deklarasiyasidan, va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlardan, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida **“Diplomatik munosabatlarni o‘rganish tartibi”**, **“O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish”** haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosatdagi yo‘nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrda 1992-yil iyul oyigacha bo‘lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O‘zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig‘i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida O‘zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug‘lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e’tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lib dunyo miqyosida tan olindi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O‘zbekistondagi vakili etib saylandi.

1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu ma’ruzasida bir qator aniq takliflarni tashladi. Bularga Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chaqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo‘yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e’lon qilish, bu mintaqada kimyoviy

modda hamda bakteriologik qurolni ta'qiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilar kirdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan o'tkazilgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida ham asosiy e'tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezidentimiz muayyan "olovli nuqtalar" deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O'zbekiston "ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori" ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammoni ko'tarib chiqqani ham muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojea, butun er yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo" ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi. Bunday muammolar Prezidentimizning fundamental asari "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida batafsil nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Asarda dunyoda barqarorlik va jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina har qanday mintaqada rivojlanish kuchli bo'lishi asoslab o'tildi.

O'zbekiston rahbarining yuksak minbardan turib kiritgan xalqaro miqyosda manfaatli bo'lgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi va shunga asoslanib 1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi. I.A.Karimov bu uchrashuvning "Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik" shiori ostida o'tayotganini mamnuniyat bilan izhor qilib, bu uchrashuv mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'l bo'lib xizmat qilishini ko'rsatib berdi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko'pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig'ilishlarda O'zbekiston prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaq xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan taklifi BMT boshchiligidagi "6+2" guruhining tuzilishiga asos bo'lgan edi. (O'zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston,

kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va “Tolibon” harakati) Ushbu guruhning 1999-yil iyul oyida Toshkentda o‘tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo‘ldiki, bu uchrashuv mintaqaning o‘zida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni “Afg‘onistondagi mojarolarni tinch o‘l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi” tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. 2001 yil 28 sentyabrda BMT Havfsizlik Kengashi doirasida terrorchilikga qarshi kurash qomitasining tashkil etilisi xalqaro terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlarning birlashishiga olib keldi. Birinchi president Afg‘oniston mintaq va xalqaro xavfsizligiga eng katta xavflardan biri ekanligini takidlab, uzoq yillardan buyon ushbu masala yuzasidan ilgari surilib kelayotgan 6+2 dasturini 6+3 ga aylantirish tasabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbusi I. Karimovning 2008 yil 3-4 aprel kunlari NATOning Buharestdagi sammitida ilgari surildi. Bularning barchasi dunyo hamjamiyati oldida O‘zbekistonning tinchlik yo‘lidagi real harakatlarining asosi sifatida yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Markaziy osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta’minlashdir. Ayniqsa qo‘shni Afg‘oniston Respublikasida siyosiy barqarorlikka erishish uchun sa’y harakat olib borish, asosiy o‘rinda turadi. Biz xalqaro hamjamiyatni Afg‘oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo‘llab-quvvatlashga da’vat etdik, dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan 2018 yilning mart oyida Afg‘oniston bo‘yicha o‘tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg‘oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman bo‘lganini ta’kidlash lozim. konferensiya yakuni bo‘yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan «Toshkent deklaratsiyasi» Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha o‘ziga xos dastur bo‘ldi. Aynan ushbu konferensiyadan so‘ng Afg‘onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, «Tolibon» harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi. O‘zbekiston Afg‘oniston rahbariyati va mamlakatning etakchi siyosiy kuchlari, jumladan «Tolibon» harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o‘tkazdi. Ushbu siyosiy kuchlar afg‘on muammosini hal qilishda O‘zbekiston samarali vositachi bo‘la olishi mumkinligini e’tirof etdi. Ma’lumki, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishning muhim sharti – mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklashdan iborat. Bu borada mamlakatimiz Afg‘onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta’lim sohalarida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kirishdi. O‘zbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish tarmog‘i, Termiz shahrida afg‘on fuqarolarini o‘qitish uchun ochilgan Ta’lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo‘lgan «Termiz-kargo» logistika markazi, Mozori sharif – Hirot va Mozori sharif – kobul – Peshavor temir yo‘l tarmog‘i loyihalari ishlab chiqilayotgani shundan dalolat beradi. O‘zbekiston afg‘on muammosini echish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko‘rsatadi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg‘onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

XIII.6. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi. O‘zbekistonning MDH, Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar va jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari

O‘zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo havfsizlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi. Ko‘pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO, EKO, Islom konfrensiyasi, Qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar o‘lga qo‘yildi. 1994-yil iyul oyida O‘zbekiston NATOning “Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik” Dasturiga qo‘shildi. Bu dasturga ko‘ra, O‘zbekiston harbiy qismlari Shimoliy Korolina (AQSh)dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida o‘tkazilgan harbiy mashqlarda, O‘zbekiston xududida amerikaliklar bilan o‘tkazilgan desantchilarning “Ultrabalans-96” harbiy mashqlarida qatnashdilar. Shuningdek Respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada o‘tkazilgan “Kooperativ bankers-97” mashqlarida ham qatnashdilar. Bu kabi hamkorliklar jangchilarimiz uchun o‘ziga xos mahorat maktabi, tajriba bo‘lib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. 1999-yil aprelda I.A.Karimov Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturining a’zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O‘zbekistonning “Tinchlik o‘lida hamkorlik” Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O‘zbekistonning ishtirokini kafolatladi. NATO Bosh kotibi X.Solana va AQShning NATOdagi doimiy vakili R.Xanterni O‘zbekistonga tashriflari O‘zbekiston va mazkur tashkilot o‘rtasidagi tinchlik o‘lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko‘rsatdi.

O‘zbekiston BMTga a’zo bo‘lib kirgan yillari EXHTning katta mansabdor xodimlari qo‘mitasining Pragadagi yig‘ilishida MDH tarkibidagi davlatlarni ushbu tashkilotga a’zo bo‘lib kirishi masalasi ko‘tarildi. 1992-yil 26-fevralga kelib O‘zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O‘zbekistonning Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo‘linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. EXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo‘yicha Byurosi mintaqada barqarorlikni ta’minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni o‘lga qo‘yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda EXHTning “Inson xuquqlari bo‘yicha milliy institutlar”, “Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida” mavzusidagi bir qator anjumanlari o‘tkazildi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Evropada inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta’limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko‘rib chiqdi. Bunday yig‘ilishlarda O‘zbekistonning ishtiroki tinchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo‘lib qoldi. O‘zbekistonning 1996-yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Unda O‘zbekiston rahbariyati tomonidan “xavfsizlikning, shu jumladan, Evropa xavfsizligining chegarasi o‘q. Shundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining roli, ahamiyati,

Qolaversa, mas'uliyati Evropa bilangina chegaralanib qolmasligi, undan tashqaridan kelayotgan xavfni ham hisobga olishi kerak bo'ldi" deb aytilgan so'zlari alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur anjumanda O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo'ldi. Prezidentimiz yig'ilish ishtirokchilariga Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb yana bir bor e'lon qildi. O'zbekiston rahbariyatining mojarolar kuchayib borayotgan erlarga qurol-yarog' etkazib berishni to'xtatish haqidagi fikri Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatiga kiritildi.

1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a'zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istanbul shahrida Oliy darajadagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan Evropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Yig'ilishda O'zbekiston rahbarining ma'ruzasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini faqatgina xavfsizlikni ta'minlagandagina amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yig'ilishda global ahamiyatga ega bo'lgan terrorizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabix niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi. XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo'ldi. Bu kurashga O'zbekiston o'zining katta hissasini qo'shmoqda.

Bu o'rinda O'zbekistonning Evropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalasiga ham to'xtab o'tmoq joiz. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun tuziladigan bitim bo'yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo'lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o'laroq O'zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi bitim 1996-yil 21-22 iyun kunlari Italiyaning Florensiya shahrida EI davlatlari rahbarlarining yig'ilishida O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan imzolandi. Florensiyaning "Fortezza de basso" qal'asida Evropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuv - sammitida imzolangan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bu hujjat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida o'z o'rnini va ovozigacha ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur bitim O'zbekistonni Evropaning rivojlangan davlatlari bilan har tomonlama aloqalari respublika salohiyatini yuzaga chiqarishda, demokratiya va bozor islohotlarini amalga oshirish o'lida muvaffaqiyatli harakat qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Xususan, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlar bilan bo'layotgan hamkorliklar davlatlarning iqtisodiy, madaniy aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan, madaniyat, san'at, ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikning keng ko'lamda olib borilishi ham respublika taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o'rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, yuzdan ortiq a'zoga ega. 1985-yilda tuzilgan Qo'shilmaslik harakati tomonidan olib borilayotgan siyosat O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo'nalishlarga to'la mos keladi. O'zbekiston bu tashkilotga 105-a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar qatoriga kirdi. Shu bois O'zbekiston jahon iqtisodiyotida integrasiyalashish yo'lidanoib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporasiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib oldi. SHu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni tiklab oldi. Ularning vakolatxonalari Respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. BMT ning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YUNESKO tashkiloti bilan ham Respublikamiz o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari shu kunlarda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 1994-yilga kelib esa O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va bu ham o'zaro hamkorligimizning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'ldi. 1996-yilga kelib Toshkentda YUNESKOning vakolatxonasi ochildi. Shu o'tgan vaqtdan beri O'zbekiston va YUNESKO tashkiloti o'rtasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bordi.

1996-yil O'zbekiston Prezidenti YUNESKO qarorgohiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu tashrif chog'ida I.A.Karimov YUNESKO ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq so'zladi. YUNESKOning Bosh direktori va Fransiya Prezidenti ishtirokida YUNESKO qarorgoxida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ma'rifatning gullab-yashnashi" ko'rgazmasini ochdi.

O'zbekiston bilan YUNESKOning o'zaro hamkorligi kengayishi natijasida YUNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yilda 28-dekabrda esa Shahrisabz YUNESKO ro'yxatiga kiritildi. Shaxrisabz bu ro'yxatga kiritilgan respublikamizdagi uchinchi shahar bo'ldi. Mustaqillik yillari respublikada o'tkazilgan barcha tadbirlarda YUNESKO ishtirok etdi. Amir Temur tavallud topgan kunining 660 yilligi, Axmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarning yubileylari hishonlandi. 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida O'zbekiston tashabbusi bilan muhim bir hujjat imzolandi, bu tarihga " **Marifat va diniy bagrikenglik**" rezalusiysi nomi bilan kirdi. O'zbekistonning bu taklifini BMT tashkilotiga a'zo bolgan 193 ta davlat keng qollab quvvatladi. Bu esa O'zbekistonning ca'yi –harakatlariga berilgan yuksak e'tirofdir. O'zbekistonning BMT doirasidagi faoliyati davom etmoqda

Mustaqil O'zbekiston 2001 yilning iyun oyida «Shanxay beshligi» deb yuritilgan xalqaro tashkilotning XXRni Shanxay shahrida chaqirilgan sammitida bu tashkilotning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. 1998 yili tashkil etilgan «Shanxay beshligi»ga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari a'zodir. Shundan keyin «Shanxay hamkorlik tashkiloti» nomi bilan yuritilib bosh maqsad har tomonlama hamkorlik o'rnatishdan iborat bo'lib, ayni bir vaqtda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda tashkilotning faoliyat markazida

turadigan bo'ldi. Terrorizmga qarshi kurash qarorgohi (shtabi) Bishkekdan Toshkentga ko'chirildi. Tashkilotning aniq vazifalari tashqi ishlar, mudofaa vazirliklarining kengashlarida hal qilinadi.

2005-yilning 2-iyul kuni Qozog'istonning Astana shahrida «Shanxay hamkorligi» tashkilotining o'ninchi marta uchrashuvi o'tdi. Sammitda doimiy a'zo davlat rahbarlaridan tashqari Mo'g'uliston Respublikasining vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kengash Hindiston, Pokiston va Eron davlatlarini tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qildi va ularning vakillari sammitda ishtirok etdi. Astana uchrashuvi qatnashchilari «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash konsepsiyasi»ni yakdillik bilan qabul qildi. O'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish to'g'risida hujjatlarni imzoladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari bilan ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish bilan bir vaqtda taraqqiy etgan davlatlar va qo'shni mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirdi. Bugungi kunda Shanxay hamkorlik tashkiloti bir qator obroli va nufuzli xalqaro tashkilotlar orasida uzining munosib orniga ega.

2018 yil iyun oyida Xitoyning Sindao shahrida ShHTning 18 sammiti bo'lib o'tdi. Sindadagi sammitda davlatlar rahbarlari Xitoyning ShHTga raislik qilgan yil yakunlarini, kelgusidagi hamkorlik rejalarini muhokama qildilar. Shuningdek, tashkilotning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab oldilar. Ushbu sammit ShHT faoliyatida yangi davrni boshlab berdi. Sindadagi uchrashuv tashkilotga yangi a'zolar-Hindiston va Pokiston qo'shilganidan keyingi ilk Sammit.

ShHT dunyodagi eng katta hududni va sayyora aholisining deyarli yarmisini qamrab olgan, jahon YAIMning uchdan birini ishlab chiqaradigan eng yirik xalqaro tashkilotdir.

ShHTga a'zo mamlakatlarning umumiy aholisi-3,2 mliard kishi, ShXTga kirgan davlatlarning umumiy maydoni 34 million km²dan ziyod. Jahon yalpi ichki mahsulotining ¼ qismi ShHT hissasiga to'g'ri keladi. Sindadagi Sammitda 12 mamlakatdan davlat va hukumat boshlari, shuningdek 8 ta xalqaro tashkilot va muassasalar rahbarlari yig'ildi. Sammitda ko'p tomonlama aloqalarning barcha sohasini qamrab olgan 23 ta hujjat qabul qilindi. Sammitda ShXTga a'zo davlatlar o'rtasida uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma qoidalarini amalga oshirish bo'yicha 2018-2022 yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejasi qabul qilindi. Qabul qilingan hujjatlar ichida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 2019-2021 yillarga mo'ljallangan Hamkorlik dasturi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiyasi, ShHTga a'zo mamlakatlarning kelgusi besh yilga mo'ljallangan narqotiklarga qarshi strategiyasi Narkotik vositalar va psixotron moddalarni suiste'mol qilishning oldini olish bo'yicha ShHT Konsepsiyasi o'rin olgan. Shuningdek, ShHTga a'zo davlat etakchilarining Yoshlarga qo'shma murojaati hamda Davlat rahbarlarining savdo tartib –tamoyillarini soddalashtirish to'g'risidagi bayonoti qabul qilindi. Ana shu Sammitda Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorii Vladimir Norovni ShHT Bosh Kotibi lavozimiga tasdiqladilar.

Keyingi yillarda Yosh mustaqil davlatlar ichida Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini, urf-odatlar va an'analari yaqin bo'lgan Sharq mamlakatlari bilan o'zaro

aloqalar olib borish imkoniyatlari bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi. Bu o'rinda birinchi navbatda Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni aytib o'tish o'rinlidir. Shuningdek, O'zbekiston 1992-yil 6 fevralda Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va 1992 yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog'iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan "Trans-Osiyo" temir yo'l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad yo'li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi. Arab mamlakatlari bilan olib borilgan aloqalar madaniy va diniy tomondan ham uzviy bog'liq bo'ldi. Bu yo'ldagi harakatlar natijasida savdo sotiq, turizmni rivojlantirish va kadrlarni o'qitish imkoniyatlariga yo'l ochdi.

O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan aloqalari kengayib, bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik bir-birining ishiga aralashmaslik tamoyiliga asoslandi. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib, 1991-yil 27-dekabrda tan oldi va 1992-yili 2-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatdi. 1992-yilda ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilgandan keyin iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat va san'at sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanishi uchun ko'pdan ko'p imkoniyatlar vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining XXR ga qilgan bir necha bor davlat tashriflari xususan, 1992-yilning may oyida, 1994-yilning oktabrdagi, 1999-yilning noyabr oyidagi maxsus tashriflari, XXR Davlat Kengashi rayisi Li Peninng 1994-yil apreldagi, XXR hukumati raisining muovini Xu Szin Taoning 1995-il oktabrdagi XXR raisi Szyan Sze Minning 1996-yil iyunidagi Toshkentga qilgan maxsus tashriflari natijasida ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi hamkorliklar Kengashdan Xitoy investitsiyasi bilan ishlayotgan korxonalar, shu jumladan qo'shimcha korxonalar ko'payib bormoqda. Ikki davlat o'rtasida tashrif, oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik kengaymoqda. Xususan, 1977-yili O'zbekiston Jahon tillari Universitetida 1977 yili Xitoy tili bo'limi ochilgan edi. 2004-yili ikki davlat Toshkentda institut ochishga kelishgan edi. Bu 2005-yili Konfutsiy nomida Xitoy Instituti ochildi. Yurtimiz birinchi raxbari I.A.Karimov XXRga 2005-yilning iyun oyidagi tashrifi ikki davlat o'rtasida munosabatlarning yangi, yuqori bosqichini ochdi. I.Karimov va XXR raisi Xu Szin Tao o'rtasida O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekistonda energetika-yoqilg'i sanoatini rivojlantirish, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida tuzilgan bitimlar alohida ahamiyat kasb etadi. I.A.Karimov aytib o'tganidek, "O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir". O'zbekiston rahbariyatining 1995-yil AQSh vitse-prezidenti Albert Gor bilan uchrashuvi davomida O'zbekiston va AQSh o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHDagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSh O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi etakchilik rolini tan olib, respublikamiz bilan terrorizm,

narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQShga tashrifi chog'ida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

O'zbekiston rahbarining 1996-iyun oyida yil AQShga qilgan etti kunlik tashrifi O'zbekiston tashqi siyosatida o'ziga xos o'rin tutadi. Mazkur tashrif davomida O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi.

O'zbekistonning AQSh bilan munosabatlari yildan yilga mustahkamlanmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizga Vashingtondan bir qancha davlat va jamoat rahbarlari, harbiy mutaxassislar, chunonchi 16 nafar senator va 8 nafar kongressmen kelib ketdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2002-yil 11-14 mart kunlari rasmiy tashrif bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'ldi. Tashrif kunlari Yurtboshimiz AQSh Prezidenti Jorj Bush va bir qancha davlat rahbarlari bilan uchrashdi.

Jorj Bush O'zbekiston qat'iyat bilan aksilterror koalitsiyasini qo'llab-quvvatlaganini AQSh hukumati va xalqi unutmashligini, bu minnatdorlik va ehtirom kelgusida juda ko'p bor namoyon bo'lishini ta'kidladi. U Islom Karimovni, bundan buyon AQSh strategik sherik sifatida doim O'zbekiston bilan birdam bo'lishiga ishontirdi.

Vashingtonda AQSh hukumati 2002-yilga O'zbekistonga yordam tariqasida 160 mln. dollar ajratishini ma'lum qildi. O'zbekiston qurolli kuchlari islohotga ko'maklashish uchun 43 mln. dollar ajratilish ma'lum qilindi.

O'zbekiston va AQShdagi Prezident saylovlaridan keyin mamlakatlarimiz munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. 2018 yilda O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi nomli Qo'shma bayonot qabul qilindi. Bu oliymaqom hujjat ikki davlat raxbari yakdil va qat'iy irodasining ifodasi bo'ldi. Bugun xalqaro munosabatlarning mutlaqo yangi tenglik o'zaro hurmatga asoslangan formati amalda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018 yil 15-17 may kunlari rasmiy tashrif bilan AQSh davlatida bo'lishi buning yaqqol misolidir. Hech bir mamlakat iqtisodiy hamkorliksiz rivojlana olmasligini hozirgi kun voqeligi isbotlab turibdi. O'zbekiston rahbariyatining bu vaziyatga chuqur yondashishi orqali tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berildi. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;
- Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan, xorijiy sarmoyalarga nisbatan "ochiq eshiklar" siyosatini o'tkazish;

-Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalar bilan ta'minlash hamda raqobat - bardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish;

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishi va bu aloqalarni erkinlashtirishida huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlarning ahamiyati katta bo'ldi. **"Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida"**gi va **"Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida"**gi, **"Bankrotlik to'g'risida"**gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Shu qatorda respublika chet el investitsiyalarini ishonchli sug'urta bilan himoyalashni ham ta'minladi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Amaldagi qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar berdi. Birinchi navbatda O'zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar boj to'lashdan ozod qilindi. Bu investitsiyalarning davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarda ishtiroki natijasida etti yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan va korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliq to'lashdan ozod qilindi. Ishlab chiqarilgan tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

Bu o'rinda shuni aytib o'tmoq lozimki, chet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etildi. Bular qatorida "O'zbekinvest" Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasi, chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ana shunday yaratilgan qulay shart-sharoitlar imkoniyatlar natijasida O'zbekiston hukumati jahondagi nufuzli davlatlar Germaniya, XRR, Turkiya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatdi. Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonga 12 milliard Amerika dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. O'zbekistonga kiritilgan chet el kapitali yordamida respublika hududida qayd qilingan qo'shma korxonalarning soni esa shu kunlarga 1810 taga etdi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarda o'z mavqeiga ega bo'lib borishi quvonarli holdir. AQSh O'zbekistondagi bepoyon er osti va er usti boyliklarini o'zlashtirish uchun katta sarmoya mablag'larni ajratishni o'z zimmasiga oldi, natijada respublikaga Amerikaning zamonaviy texnikasi kirib keldi. O'zbekistonda Amerikaning "Nyumont-Mayning" kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi qurib ishga tushirildi.

Shuningdek, xorijiy sarmoyalar natijasida O'zbekistonda "SamKuchavto", "UzDEUavto", Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan "O'zDEUavto", "O'zDEU Elektroniks" hissadorlik birlashmalari keng faoliyat natijasi o'laroq O'zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakat qatoridan o'rin egalladi va yuqori

baholarga sazovor bo'ldi. Bu mamlakat bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilandi.

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sobiq ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federasiyasi, Ukraina va Belorusiya davlatlari imzo chekdilar. 13-dekabrda Ashxobodda o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo'stlikni kengaytirish zarur deb topdi. Natijada shu yili 21 dekabrda Almatida o'tgan uchrashuvda MDH bitimini ja'mi 11 davlat MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqorolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va havfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi. O'zbekiston ham davlatlararo bank va boshqa hamdo'stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok etdi. "Mustaqil davlatlar hamdo'stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, -degan edi I.A.Karimov,-tashqi siyosatimizning ustivor o'nalishlaridan biridir".

1991-2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni o'lga qo'yib olish uchun davlatlalararo iqtisodiy qo'mita tuzish, iqtisodiy integrasiyani to'laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to'lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlari bilan imzolab o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

O'zbekiston MDH davlatlari bilan hamkorlikda iqtisodiy mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlashga kirishar ekan, ularning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmaslik nuqtai nazaridan yondashdi. 1992-yil may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlarning o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1993-yil MDH davlatlari bilan imzolangan "Iqtisodiy ittifoq" haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o'zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Prezidentligiga yangi rahbarning kelishi mamlakatning faol tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlarni kengaytirdi. Hususan Markaziy Osiyodagi davlatlar birlashdi. Qoshni davlatlar bilan barcha sohalarida hamkorliklar yolg'a qoyildi. Jumladan Turkmaniston Qirgiziston Tojikiston Qozogiston kabi davlatlar bilan uzoq yillar mobaynida yopilgan chegaralar ochildi. Bir biri bilan dini urf odatlari madaniyati yqin bolgan xalq bu imkoniyatdan cheksiz hursand boldi ,ularga chegaradan bemalol otashi uchun imkoniyat yaratildi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash iqtisodiyotning turli tarmoqlarida integratsiyalashuvni chuqurlashtirish va madaniy gumanitar aloqalarni izchil rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik yaxshi qo'shnichilik bir-birini qo'llab-qo'vvatlash va hamkorlik salnomasida yangi sahifa ochildi. 2017 yil martida O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo'shnichilikni mustahkamlash to'grisida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. 2017 yil O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard AQSh dollariga etkazildi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida 260 ta korxona barpo etilishida Qozog'iston tomonidan sarmoya kiritildi. 2017 yil Kustanayda MDH mamlakati bozorlarida katta talabga ega bo'lgan «Ravon» brendi ostida engil avtomobillarni ishlab chiqarish boshlandi. Shuningdek, 2018 yil 23 fevraldagi shartnomaga asosan Qozog'istonning «Almor» kompaniyasi tomonidan «GM Uzbekistan» avtomobillarini terish ham yo'lga qo'yildi.

Bu ikkala hamkor davlatlarning madaniy gumanitar yo'nalishiga ham alohida o'rin qaratilgan. O'zbekistonda qozoq milliy madaniy markazi, qozoq teatri, folklor va estrada ansambllari faoliyat yuritmoqda. Yozuvchilar uyushmasi tarkibida qozoq adabiyoti Kengashi tashkil etilgan. «Nurli yo'l» nomli gazeta chop etilmoqda. O'zbekistonning 386 ta maktabida boshqa tillar bilan qozoq tili o'tiladi. 164 ta maktab qozoq tiliga ixtisoslashgan maktabdir. Nukus davlat universitetida boshqa respublikamizdagi OTMda «Qozoq tili va adabiyoti» kafedrasini faoliyat olib bormoqda.

Markaziy Osiyodagi yana bir davlat Qirg'iziston Respublikasi hisoblanadi. 2017 yil O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlari rivojida tarixiy davr bo'ldi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sherikchilik munosabatlari mustahkamlandi. Qirg'iziston Prezidenti Sooranbay Jeenbekov 2017 yil 13 dekabrda tashrifi doirasida ikki mamlakat hukumatlari vakillari moliyaviy hamkorlik to'grisidagi bitim hamda 2018-2021 yillarga mo'ljallangan savdo iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamkorlik to'grisidagi dasturni imzoladilar. Shuningdek, jahon bozoriga chiqish imkoniyatini beradigan transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirish sohasida o'zaro hamkorlik qilishga ham kelishib olindi. 2017 yil 30 oktyabr-3 noyabr kunlari Toshkent-Andijon-O'sh-Irkishtom, Qashg'ar yo'nalishi bo'yicha birinchi xalqaro avtokarvon yo'lga tushdi. O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasida suv –energetika sohasida ham hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor berildi. Qo'shma suv xo'jaligi komissiyasini tuzishga kirishildi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Qirg'izistonning «Damaker» ordeni bilan mukofotlandi. Gumanitar hamkorlik doirasida qilinayotgan ishlar muvaffaqiyatli qilinmoqda. Qirg'iziston teatr nomoyondalari Farg'ona vodiysida O'zbekistonlik san'at ustalari O'sh, O'zgan Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlarida ijodiy safarlarda bo'ldilar. Qirg'izistonda O'zbekiston madaniyat kunlari bo'lib o'tdi. 2018 yilda xalqlarimiz atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning yubileyini keng nishonladi. Keyingi paytda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash jadal rivojlandi. 2017

yilning yanvar-noyabr oylarida o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari 56%dan ziyodga o‘sib 235 mln.dollarga etdi.

O‘zbekiston bilan Tojikiston sherikchilik munosabatlarini izchil rivojlantirish va mustahkamlash borasida yangi qadamni qo‘ydilar. O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida 2000 yilda imzolangan. Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomada ikki tomonlama munosabatlar tamal toshi qo‘yilgan edi.

Yurtimizda tojik millatiga mansub 1,5 mln. fuqaro istiqomat qiladi. Mamlakatimizning 10 hududida tojik- milliy madaniy markazlari faoliyat olib bormoqda. 245 umumta‘lim maktabida ta‘lim tojik tilida olib boriladi. Tojik tilida chop etiladigan 4 ta davriy bosma nashr mavjud, o‘nlab teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilmoqda. O‘zbekistonning Samarqand, Termiz, Farg‘ona davlat universitetlarida boshqa tillar bilan birgalikda tojik tilida ham mashg‘ulotlar olib boriladi. So‘nggi vaqtlarda o‘zaro aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida ulkan o‘zgarishlar kuzatildi. Bunga misol o‘tgan yil mamlakatimiz poytaxtlari o‘rtasidagi ahdlashuvlar, temir yo‘l qatnovi tiklandi. Samarqand-Panjikent oralig‘ida A-377 xalqaro avtomobil yo‘li ochildi. 2018 yili 1 mart kuni O‘zbekiston-Tojikiston chegarasi orqali 9 ta o‘tish punkti tantanali ravishda ochildi. Bu esa ikki yurt ahliga hech qiyinchiliklarsiz Jartepa-Sarazm, Qo‘shkent-O‘ratepa, Uchqo‘rg‘on-Havotog‘, Havastobod-Zafarobod, Bekobod-Hashtyak, Pop-Navbunyod, Rovot-Ravat, Gulbohor - Ayvaj avtomobil o‘tkazish punktlari va Amuzang Xoshadi temir yo‘l o‘tkazish punkti orqali o‘zaro bordi-keldi qilish imkoniyatini beradi.

2018 yil 7 mart kuni Samarqand shahri Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog‘ida o‘zbek va tojik xalqlarining buyuk mutafakkirlari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyga haykali o‘rnatildi. Bu do‘stlik munosabatiga javoban Dushanbe shahrida ham bu ikkala mutafakkirga haykal o‘rnatilganligi xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stona aloqalar mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 9-10 mart kunlari Tojikistonga davlat tashrifi tarixiy voqea bo‘ldi. Bu davlat tashrifi O‘zbekiston-Tojikiston nafaqat hamkorligini rivojlantirish balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Davlat rahbarlarining uchrashuvida O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati, uni yanada rivojlantirish istiqbollari diqqat markazida bo‘ldi. Davlat rahbarlari terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, transmilliy jinoyatlar xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa xavf-xatarlarga birgalikda kurashish masalalarini ham o‘zaro o‘rtoqlashishdi.

Mamlakatimiz hududlaridan Surxondaryo viloyati bilan Tojikistonning Xatlon viloyati va Samarqand viloyati bilan So‘g‘d viloyati o‘rtasida savdo – iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy gumanitar hamkorlik qilishlarida keng imkoniyatlar yaratib berildi.

O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida kechayotgan o‘zgarishlar barchada katta qiziqish uyg‘otdi. O‘zbekiston-Tojikiston davlatlari munosabatlarida yangi burilish, «o‘zbek diplomatiyasi» ning yana bir yutug‘i, muvaffaqiyati deb baholandi. Emomali Rahmonning «So‘nggi 17 yilda ilk bor» deb nomlangan maqolasida O‘zbekiston – Tojikiston munosabatlari tarixida katta o‘zgarishlar bo‘lganligini ta‘kidlaydi. 2017 yil aprel oyidan ikki mamlakat poytaxtlari o‘rtasida havo qatnovi

tiklandi, 2018 yil martidan Janubiy viloyatlarni bog'laydigan temir yo'l ishga tushdi. Mart oyi oxiridan esa ikki davlat fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz sayohat qilish imkoni yaratildi.

Ikki davlat O'zbekiston va Tojikiston ishbilarmonlari doirasida o'zaro aloqalarni kengaytirish savdo bitimlari va shartnomalarni tuzishga asos bo'lgan hamkorlikka yangi sur'at baxsh etildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik natijasida 2017 yil o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 240 mln. dollarni tashkil etdi. Bu oxirgi 20 yildagi eng yuqori ko'rsatgich deb baholandi. Bunda transport vositalari va xizmatlari to'qimachilik va plastmassa mahsulotlari maishiy texnika vositalari asosiy o'rinni egalladi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududida Tojikiston kapitali ishtirokida 39 ta korxona, Tojikiston hududida esa o'zbekistonlik sarmoyadorlar ishtirokida 8 ta korxona faoliyat olib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida o'zaro hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport –kommunikatsiya, energetika va boshqa etakchi sohalarda rivojlantirishga doir 27 ta hujjat imzolandi.

2018 yil 17 avgust kunlari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga ilk davlat tashrifi xalqlarimiz hayotida juda katta quvonchli voqea bo'ldi. Tojikiston davlat rahbarining ochiq o'zaro ishonch va do'stona munosabati ikkala davlat O'zbekiston-Tojikiston hamkorligini rivojlantirish Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda xizmat qiladigan qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Qo'shma bayonoti, O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzolanishi xalqlarimiz hayotida o'zaro ishonch va do'stona munosabatlarimizni yangi davri boshlanganligidan dalolat beradi.

Ishbilarmon doiralar o'rtasida muloqotni tashkil etish maqsadida ikki mamlakat savdo-sanoat palatalari o'rtasida «Tojikiston - O'zbekiston ishbilarmonlari Kengashi» tuzildi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmini 500 mln. dollarga etkazish masalasi Kengash yig'ilishida ko'rib o'tildi. Dushanbe shahrida tashkil qilingan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ko'rgazmasi va O'zbekiston-Tojikiston qushma biznes forumiga yuqori baho berildi. Dushanbe va Toshkentda qo'shma biznes forumlar o'tkazish an'anaga aylandi. Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon tashrifi chog'ida poytaxtimizda o'tkazilgan qo'shma biznes forumda qiymati 103 mln. dollarlik eksport shartnomalari imzolandi.

Mamlakatlarimiz BMT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzulmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Qo'shni Afg'oniston davlatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda tomonlar qarashlari, samarali hamkorliklari mushtarakligi sezilmoqda.

Energetika sohasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 2018 yil aprel oyidan Tojikistonga tabiiy gaz etkazib berilmoqda. O'z navbatida Tojikistondan elektr energiyasi sotib olish hajmi ko'payib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari ijobiy tarzda rivojlantirilmoqda. So'nggi bir yil ichida bu ikki mamlakat viloyatlari o'rtasida 9 marotaba biznes forum va ko'rgazmalar ko'rinishidagi delegatsiya tashriflari yo'lga qo'yildi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish butun dunyoning asosiy muammolaridan biridir. Markaziy Osiyo davlatlarida ham bu yo'nalishga jiddiy e'tibor berishadi. Ikki davlat rahbarlarining ochiq muloqotlari natijasida Zarafshon daryosining Tojikiston hududidagi qismida O'zbekiston va Tojikiston kompaniyalari ishtirokida 320 Megavatlik ikkita GES qurishga kelishib olindi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, antimonopol siyosat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, geologiya sohasida qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy-texnikaviy qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ta'lim, yoshlar, madaniyat va san'at masalalariga doir qator hujjatlar imzolandi. Ikkala davlat prezidentlari uchrashuvi ochiqlik, o'zaro ishonch va do'stona ruhda o'tgani, imzolangan hujjatlar ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, yagona din, urf-odat va an'analarga ega bo'lgan O'zbekiston va Tojikiston xalqlari o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlab, ular manfaatlariga xizmat qilishiga aminmiz.

Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 avgustdagi tashrifi doirasida bu ikkala davlat Fanlar Akademiyalari, oliy ta'lim muassasalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarni yanada faollashtirish, mamlakatimiz madaniy gumanitar hamkorligi istiqbollarini kuchaytirish masalalariga ham keng e'tibor berildi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning davlat tashrifiga bag'ishlangan «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan tadbirda – O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shohi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, erimiz va suvimiz bir. Quvonch-tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu-an'alarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak,-dedi Shavkat Mirziyoev.

Davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni, o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirladi.

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi (23–24 aprel) chog'ida 2017 yilda imzolangan Ikki davlat o'rtasidagi strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnomani amalga oshirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilindi hamda evropa, Yaqin sharq va osiyo davlatlariga yuk tashish hajmini ko'paytirish uchun ikki mamlakatning tranzit salohiyatidan to'liq foydalanishga kelishib olindi. Umuman olganda, bugungi kunda Markaziy osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlaridan o'tish va chegara oldi hududlarda savdoni rivojlantirish kabi juda murakkab masalalarga echim topish uchun mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit va qulay sharoitlar yaratildi, deyiladi xabarda. Ta'kidlanishicha, O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegarasida 64 ta o'tish punkti faoliyat ko'rsatmoqda. Chegara bilan bog'liq muammolarning hal qilinishi natijasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari sezilarli darajada faollashdi. Ular bilan savdo aylanmasining o'sishi 9 oy davomida o'rtacha 50 foizdan ko'proqni tashkil qildi, deya xabar beradi TIV.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqlarimizni madaniy va ma'naviy yaqinlik, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish, tinch-totuv yashashga intilish, ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan bebaho tajriba bog'lab turadi. Bu ikkala davlat rahbarlari tomonidan qilinayotgan harakatlar xalqlarimiz va butun mintaqaning manfaatlariga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

O'zbekiston 1996-yil Venada sobiq ittifoqdosh davlatlar Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan o'ziga xos tuzilmaga ham 1999-yil aprel oyida a'zo bo'ldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Evropa transport o'lagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001 yil iyun oyida ana shu tashkilotga a'zo davlatlarning uchrashuvi bo'lib, unda O'zbekiston ham ishtirok etdi. Yaltada bo'lib o'tgan sammitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda GUUAM davlatlarining ko'pchiligida ichki va tashqi siyosatida yuz bergan keskin o'zgarishlar yuz berishi oqibatida O'zbekiston bu tashkilotga a'zoliqini bekor qildi.

Rossiya Federasiyasi bilan mustaqillik yillarida bo'layotgan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi 1992 yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarda 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Rossiya Federasiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov 1998-yil Rossiya Federasiyasi prezidenti B.Elsin, 1999-yil dekabr va 2000-yil may oyida prezident V.V.Putinning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda, diniy eksteremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashida alohida o'rin tutdi.

2003-yilning avgustida ikki mamlakat Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Rossiyaning «Gazirom» va «Lukoil» kompaniyalarining O'zbekistonda neft va gaz manbalarini qidiruv ishlayotgan korxonalarini texnika jihatidan qayta qurish masalalarini muhokama qildi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar almashuv 2002-yili bir milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2003-yili bu ko'rsatkich 25 foizga oshdi.

2004-yili Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Shu yili ikki davlat Prezidentlari jami etti marta uchrashdi. O'zbekistonda 32 marotaba Rossiya hukumati delegatsiyalari tashrif buyurdi, shu jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining rayisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. 16 iyun kuni yurtimiz birinchi raxbari I.A.Karimov va V.Putin uchrashuvi natijasida strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bunda siyosiy, harbiy, harbiy-texnika, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa masalalar bo'yicha alohida bitimlar imzolandi. Yoqilg'i-energetika sohasida neft va gaz qidiruv ishlarini bir milliard dollarga, «Gazprom» va Uzneftgaz birlashmasi o'rtasida mavjud yoqilg'i korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish uchun 1 milliard 200 million dollar hajmda bajarishga kelishildi.

O'zbekistonda 350 korxona Rossiya investitsiyasi asosida ishlab, shundan 300 tasi qo'shma korxonalarda, Rossiyada esa 100 dan ortiq O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari ishlayapti.

V.V.Putin: «...biz har xil sohalarda munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdormiz» degan edi. O'zbekistonda bir milliarddan ortiq rus millatiga mansub fuqarolar yashaydi. O'zbekistonda rus tilida 159 ta maktab, rus-o'zbek tillarida ishlaydigan 603 ta maktab mavjud. O'zbekiston aholisining 84,9 foizi rus tilida erkin gaplashadi. Rus tilida 85 gazeta va 52 jurnal nashr etiladi. 2002-2004-yillari 500 mingdan ortiq darsliklarni Rossiya hukumati yubordi. Har yili Rossiya oliy o'quv yurtlarida o'zbek yoshlari uchun tekin, barcha sharoitlarga ega o'quv o'rinlari ajratildi.

2018 yilda jahonning etakchi davlatlari bilan ham o'zaro manfaatlari aloqalar sezilarli darajada jadallashdi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashriflari va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muzokaralari natijasida Rossiya, Belarusiya, AQSh, Xitoy, Fransiya va boshqa evropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Misr, hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Yaqin sharq davlatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

2018 yil 20 oktyabrda davlat tashrifi bilan Rossiya Prezidenti V.Putin O'zbekistonga tashrif buyurdi. Uchrashuvda hamkorlikning hozirgi holati va uni har tomonlama rivojlantirish, turli sohalarda yangi qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi, mamlakatimizning dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarga doir yondashuvlari mos yoki yaqin ekani ta'kidlandi.

Tomonlar BMT, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro tuzulmalar doirasida o'zaro hamkorlikni davom ettirishga tayyor ekanini tasdiqladilar.

Muzokarada tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini , diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish transport va energetika sohaslarida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo'lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolanganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bugungi kunda Rossiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirgan investitsiyalari hajmi 8,5 milliard dollardan oshadi. Tashrif doirasida Prezidentimiz tashabbusi bilan ilk bor o'tkazilgan "O'zbekiston-Rossiya hududlararo hamkorlik forumi bu borada katta ahamiyat kasb etdi. Uning yakunida qiymati 2 milliard dollarda ziyod loyihalar bo'yicha kelishuvga erishilgani qayd etildi.

Mamlakatimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar kengayib bormoqda. Joriy yilda ilk bor O'zbekiston – Rossiya media-forumi o'tkazildi, Rossiyaning etakchi oliy ta'lim muassasalarining 80 nafar rahbari ishtirokida Ta'lim forumi bo'lib o'tdi. "Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar" mavzuidagi mazkur forumda ta'lim va fan sohaslaridagi hamkorlik, jumladan mamlakatimizda Rossiyaning etakchi oliy o'quv yurtlari filiallarining ochish to'g'risida 100 dan ortiq kelishuv imzolandi.

Joriy o'quv yilidan Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar instituti filiali ish boshladi. Mamlakatimizda Moskva davlat universiteti , Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiallari samarali faoliyat olib

borayapti. Tashrif doirasida imzolangan 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019-2021 yillarda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi, "Suffa" xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi", O'zbekistonda Rossiyaning etakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash to'g'risidagi bitim, To'qimachilik sanoatida hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zaro almashildi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federasiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo'lga qo'yildi. 1994-Ukraina prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O'zbekiston va Ukraina davlat rahbarlarining o'rtasidagi o'zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral xom ashyo qazib olish, fan texnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo'lgan masalalar asosiy o'rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Leonid Kuchma o'zining O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston baynalminal madaniy markazida ham bo'ldi. O'z navbatida davlatimiz raxbari I.A.Karimov ham Ukrainaga uch marotaba safar qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 million AQSH dollaridan oshdi. O'zbekiston Ukrainaga rangli Metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni etkazib bergan bo'lsa, Ukrainadan O'zbekistonga texnika asbob-uskunalar keltirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalari ishlab turibdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o'z ishini boshladi. Sammitda o'tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o'zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko'paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar, xo'jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o'n yilligi munosabati bilan hamda Afg'onistondagi vaziyatga doir bayonotga imzo chekdilar. O'zaro hamkorlik doirasidagi bunday uchrashuvlar o'z navbatida hamkorlik, davlat chegarasini himoya qilish, MDH doirasidagi davlatlarning fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlaridan o'zaro keng foydalanish, iqtisodiy aloqalarni keng qamrovli olib borish, ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. MDH davlatlaridan Belarusiy bilan hamkorlik yahshi yolga qoyilgan. Belarus Prezidenti 2018 yil 12-14 sentyabr kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida 19 ta kejjishuv va umumiy qiymati 263 million dollarlik 56 na savdo shartnomasi imzolandi. O'zbekistonda yana bir davlat rahbari Misr Arab Respublikasi prezidenti Abdylfattoh Said Husain Halil as-Sisi 2018 yil 4-5 sentyabr kunlari rasmiy tashrif bilan boldi. Davlatlarimiz ortasida yoshlar sport investisiy qishloq hojjaligi sohalarida hamkorlik togrisida Anglashuv memorandumlari talim turizm arxeologiy madaniy meros va muzejshunoslik sohalarida hamkorlikni yolga qoyish va rivojlantirishga doir bitimlar, 2019-2020 yillarga moljjallangan hamkorlik dasturi va adliy vazirliklari ortasida hamkorlik memorandumi singari 12 ta hujjat imzolandi.

Turkiya Prezidenti Rejjep Tayyip Erdo'g'onning O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida (2018 yil 29 aprel – 1 may) oliy darajadagi O'zbek–Turk

strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Tomonlar yaqin yillarda o‘zaro tovar ayraboshlash hajmini 5 milliard dollarga etkazish bo‘yicha aniq tadbirlar yuzasidan kelishib olishdi. Prezidentimizning AQshga rasmiy tashrifi (2018 yil 15–16 may) O‘zbekiston – Amerika strategik hamkorligini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Tarixiy tashrif davomida savdo, fan, qishloq xo‘jaligi, energetika va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat kompaniyalari qiymati 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq yirik shartnomalarni imzolashdi. Prezidentimizning Hindistonga davlat tashrifi davomida (2018 yil 30 sentyabr – 1 oktyabr) 20 dan ziyod hukumatlararo hujjatlar va qiymati 3 milliard 200 million dollarlik shartnomalar imzolandi. Prezidentimizning Fransiyaga rasmiy tashrifi (2018 yil 8–9 oktyabr) O‘zbekiston rahbari shavkat Mirziyoev evropa Ittifoqi davlatlariga qilgan birinchi safari bo‘ldi. Tashrif yakunida 10 ta hukumatlararo shartnoma va umumiy qiymati 5 milliard evroga teng bo‘lgan investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha bitimlar imzolandi. Umuman olganda, 2018 yil mobaynida 30 dan ortiq davlatlararo va halqaro tuzilmalar rahbarlari bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borildi, 180 ta ikki tomonlama shartnoma hamda kelishuvlar tuzildi. shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi.

1993-yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo‘lib o‘tgan uchrashuvidan so‘ng Markaziy Osiyo hamdo‘stligiga asos solindi. Hamdo‘stlikka a‘zo bo‘lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o‘z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Din, e‘tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o‘ziga ruxan, urf-odatlar va an‘analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatish suveren O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim o‘nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, o‘zaro iqtisodiy muammolarni echish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg‘ularini, uyg‘otib kelmoqda.

1994-yil 10-yanvarda Qozog‘iston Birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning O‘zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo‘stligiga amaliy poydevorni qo‘ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari “Yagona iqtisodiy hudud” barpo etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o‘tib turishini nazarda tutuvchi hamda o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta‘minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko‘zda tutildi. Fan, maorif, sog‘liqni saqlash o‘lida imzolangan hujjatlar bo‘lsa, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo‘lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg‘iziston keyinchalik Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integrasiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi

nuqtasi 1994 yil Almati shahrida bo'lib o'tdi. Tomonlar Davlatlararo Kengash hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta'sis etdilar. Kelishuvda qatnashgan mamlakat vakillarining davlatlararo ijroya qo'mitasi Almati shahrida joylashdi.

1995-yil 15-dekabr Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo'ldi. Mazkur kengashda Prezidentlar 2000 yilgacha bo'lgan iqtisodiy integrasiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarni hayotga joriy etish, kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokoma etdilar. Integrasiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sohadagi uzviy hamkorlikning davomi Markaziy Osiyo respublikalari prezidentlarining 1999-yil aprel oyida Cho'lpon Ota shaharidagi uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov barchaning diqqat e'tiborida turgan Afg'oniston hisoblanmish xalqaro terrorizm o'chog'ining xavfi masalasi keskinligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti yig'ilish qatnashchilari hamda BMTni butun xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqirdi. Uchrashuvda Tojikiston respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tojik xalqining og'ir kunlarda yordam beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari va do'sti sifatida qabul qildi. Prezident I.Rahmonov I.A.Karimovni tojik xalqining "boshidagi toji, ko'zidagi nuri" dedi. Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanish, Sarazm ko'lining toshish xavfining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e'tibor qaratildi. Bu hamdo'stlik davlatchiligini qaror toptirish prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "bozor munosabatlariga o'tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g'ayratlari va sa'y-harakatlarini jipslashtirishga qaratilgandir".

Ayni paytda O'zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalarni yo'lga qo'yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi asosiy xavf Afg'oniston mojarosi ekanligini doimo diqqat markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan diniy ruhdagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog' savdosi kabi muammolarni kiritish mumkin. "Boshqacha aytganda,- deydi Prezidentimiz,-yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo'lsa-da, insoniyatda bir xil tashvish, tug'dirmog'i darkor".

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jipslashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda Birinchi Prezidentning Do'rmon qarorgohida bo'lib o'tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi. I.A.Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. To'rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. SHuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog'iston va O'zbekiston respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to'g'risida, yo'lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to'g'risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o‘rin tutadi. Shu bois bu masalani to‘laonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov so‘zi bilan aytganda “Orol bo‘yining barcha ne‘matlarini “yagona sovet xalqi” bilan baham ko‘rilgan” bo‘lsa, “uning achiq mevasi Orol bo‘yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo‘lib qoldi.”

Sobiq ittifoq parchalanib ketgandan beri bu muammoni hal etish Markaziy Osiyo respublikalarining o‘zaro aloqalarida o‘z aksini topib bormoqda. Orol dengizi muammosi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O‘rda (1993), Nukus (1994), Toshhovuz (1995) uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvlarda asosan Orol dengizi muammosiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni ko‘rish belgilab olindi. O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi har tomonlama hamkorliklar qatorida Orol masalasi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Respublika rahbariyatining Orol bo‘yi masalasini hal etishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyodagi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘lga qo‘ydi. Jumladan, 2001 yil Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Tadao Chino O‘zbekistonga tashrif buyurib, Orol bo‘yida yuz bergan holat bilan tanishib chiqdi. Ushbu tashrif natijasida Tadao Chino O‘zbekiston hukumatining Orol bo‘yidagi suv taqchilligini tugatishga qaratilgan sa‘yi-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. U Yaponiyaning maxsus jamg‘armasidan beg‘araz grant ajratishni jadallashtirishini ta’kidlab o‘tdi.

2002-yil 28-fevral 1-mart kunlarida Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekildi va mazkur tashkilotning raisi etib O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov saylandi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko‘rsatmaydi, balki murakkab o‘tish davrida mintaqa mamlakatlarining o‘zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgandir. Respublikaning geosiyosiy va geostrategik ahvoli, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti va boshqa omillardan qat’iy nazar davlatning tashqi siyosatidagi ustuvor prinsipi davlatlarning suveren teng huquqlilik prinsipi bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilgandir. Umuman, O‘zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida bir necha yillarga arziydigan ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Sovet davlati parchalanib ketgandan so‘ng Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar qo‘poruvchilik harakatlari bilan tazyiq o‘tkazishga harakat qildilar. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, xalqaro tashkilotlarning majlislarida

Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afgʻonistondagi tolibonlar va diniy ekstremistlarning butun jahon xalqlari uchun xavfli ekanini qayta-qayta taʼkidlab aytgan edi.

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1997-yili oʻzining «Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida «hududiy mojarolar diniy ekstremistlar Oʻzbekiston mustaqilligiga xavfli tahdiddir» degan edi. Haqiqatan ham, «Afgʻonistonda oʻrnashib koʻp mamlakatlar tomonidan madad olib turgan diniy ekstremistlar 1999-yil 16-fevralda, 1999-2000-yillari davlat chegaralarini buzishlar, 2003-2004 yillarda Toshkent va Buxoroda amalga oshirilgan qoʻporuvchilik harakatlari I.A.Karimov fikrlarini tasdiqladi. 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkdagi qoʻporuvchilik harakatlari yirik davlatlar rahbarlarining koʻzini ochdi va Oʻzbekiston rahbarining qanchalik haq ekanligini koʻrsatdi. 2001-yili oxirida Islom Karimovga AQShda xalqaro etakchi (lider) unvonini berdi.

Terrorizm butun dunyoni qamramoqda, uning uchun diniy, milliy ajratuvchilik, davlat chegaralari ham yoʻq. 1995-2003-yillarda faqat MDH davlatlari hududida 4.500 uyushgan jinoyatchilar guruhi tor-mor qilindi, 300 ming oʻqotar qurollar, 400 tonna portlovchi moddalar yoʻq qilindi.

Xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar oʻzlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish, yaʼni Oʻzbekistonda konstitutsion tuzumni agʻdarish, Fargʻona vodiysida xalifalikni oʻrnatish uchun 2005-yil 13-mayga oʻtar kechasi Andijon shahrida amalga oshirishga urindi. Bu kimsalarning buzgʻunchilik harakatlarini Andijon xalqi qoʻllamadi. Shuning uchun ham Afgʻoniston, Qirgʻiziston va boshqa davlatlardan moliyaviy, texnikaviy yordam olib, shundan beri tayyorlangan bir guruh diniy ekstremist, qoʻporuvchilar Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning shaxsiy rahbarligida Respublika qurolli kuchlari tomonidan bostirildi, ularning yovuz niyatlari puchga chiqdi. Dunyoning koʻplab davlat rahbarlari, tinchliksevar xalqlari I.Karimov harakatini, oʻzbek xalqining koʻrsatgan jasoratini qoʻllab-quvvatlashdi, chunki Oʻzbekistonda dunyoviy, demokratik tinchliksevar tuzumning saqlab qolinishi Markaziy Osiyoda, balki MDHning boshqa mamlakatlarida ham terroristik, ekstremistik harakatlar oldi olindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli isloxotlar negizida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bagrikenglik davlatimiz siyosatining ustivor yoʻnalshi xisoblanadi. 2017 yil 19 may kuni Ozbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzurida “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi” tashkil etildi. Bu tashkilotni tuzishdan maqsad mamlakatimizda barcha millatlar xamjixatligini taʼminlash va bagrikengligini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosatini davom ettirishdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston respublikasini ribojlantirishning beshta ustivor yonalishi boʻyicha Xarakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yoʻnalish sifatida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bagrikenglikni taʼminlash xamda chuqur oʻylangan, oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat soxasidagi ustivor yoʻnalishlar” belgilandi.

«Harakatlar strategiyasi»

Ma'lumki so'ngi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli ilohotlar milliy davlatchilik va suverenitetini mustahkamlash xavsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Inson va uning manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqilgan Haraktalar strategiyasining **birinchi** ustuvor yo'nalishi bu, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy

asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tadbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda axborot vositalari rolini kuchaytirishga e'tibor qaratdi.

«Haraktalar strategiyasi»da qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan dastur **bu ikkinchi** yo'nalish hisoblanadi. Ya'ni sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish belgilab berildi. Uning muhimligi shuningdek sud tizimini isloh qilish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish, strategik dasturning eng muhim ustuvor jabhasi bu, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishni ko'zlaydi. Strategiyada xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz va hududlariga horijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari ham keng o'rin olgan.

To'rtinchi muhim ustuvor yo'nalish etib belgilangan keyingi masalalar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'likni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandis kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish



inson manfaatlariga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda barcha ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsali dasturlarni amalga oshirish ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ham belgilandi.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish bu, davlatimiz xavfsizlik tizimi, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash beshinchi ustuvor yo‘nalishda belgilab berildi.

2017 yil O‘zbekistonning MDH doirasidagi ko‘p qirrali hamkorligida mutlaqo yangi bosqich bosh‘lganini ta‘kidlash lozim. Bu mazkur tashkilotga a‘zo mamlakatlar bilan turli sohalaridagi aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotir.



Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, turizm, ilm-fan, ta‘lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin..

2017 yil 3 noyabr kuni Toshkentda ilk bor o‘tkazilgan MDH Hukumat rahbarlari kengashi majlisi ham a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, Hamdo‘stlik doirasida yangi, aniq loyihalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Majlisda a‘zo davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga doir 20 ga yaqin masalalar ko‘rib chiqildi.

Keyingi ikki yilda mamlakatimiz bilan MDX davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi mutassil o‘smoqda.

Tomonlar huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish, MDH makonida xavfsizlikka, tahdidlarning o‘z vaqtida oldini olish maqsadida samarali hamkorlikni ta‘minlash masalalarini muhokama qildi.

Koinotni tadqiq etish va tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlik to‘g‘risida MDH konvensiyasi hamda 1941-1945 yillardagi Ulug‘ Vatan urushida qozonilgan g‘alabaning 75 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni nishonlash bo‘yicha asosiy tadbirlar rejasi ma‘qullandi.

MDHga a‘zo mamlakatlar Davlat rahbarlarining 1948 10 dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi munosabati bilan bayonoti, 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar davlatlararo dasturi, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitim va boshqa hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, 2021 yilni MDHda arxitektura va shaharsozlik yili deb e‘lon qilish haqida qaror qilindi. Jami 16 hujjat imzolandi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak turli mintaqalarda taxlikali vaziyat yuz berayotgan bir paytda ijtimoiy isloxlarni muvaffaqiyatli davom ettirayotgan O'zbekistonda mustaqillikni yanada mustaxkamlash uchun tashqi siyosat va xavfsizlik borasida amalga oshirilayotgan barcha ishlar xalqimiz manfaati va rivojiga qaratilgan. Zero, istiqlolimizni asrab –avaylash naqadar muxim ekanligi, mintaqadagi barqarorlik o'ta katta mexnat evaziga saqlab turilganini anglash yalpi milliy xavfsizligimizni saqlashda muxim omil bo'lib xizmat qiladi.

Texnologik usullar: Bliss-so'rov

Bliss-so'rov savol-javob

1	O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo	
2	O'zbekiston Evropaning qaysi davlatlari bilan hamkorlik olib bormoqda	
3	O'zbekistonning AQCh bilan birga tashkil etilgan qanday qo'shma korxonalarini bilasiz?	
4	O'zbekistonning MDH davlatlari bilan hamkorlik aloqalari haqida nimalarni bilasiz?	
5	O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy sohadagi hamkorligi to'g'risida nimani bilasiz?	
6	O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlar haqida gapiring	

Nazorat savollari

1. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiyotda qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
2. Mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashga qanday e'tibor berildi?
3. Ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlar haqida gapirib bering.
4. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda nimalarga e'tibor berildi?
5. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi deganda nimani tushunasiz.
6. MDH qachon tuzildi?
7. Mustaqillik yillarida qaysi davlatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi?
8. Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarining yangi davrga o'tishi deganda nimani tushunasiz?
9. Mamlakat strategic taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini nima bilan izoxlaysiz?
10. Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy soxasidagi yangicha isloxlarni va yangilanishlarga baxo bering.

11. Ozbekistonning jaxon hamjamiyatiga tobora integrasiylashuvini nimada ko'rish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.О'zbekiston, 2018.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т., Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. -Т., Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил, 23 - декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил, 29 – декабрь.
7. Мирзиёев йўли. Ўзбекистон етакчисининг 10 та асосий ислохоти. Ўзбекистон стратегияси. Ижтимоий таҳлилий журнал. №2, 2018. 6-б., 8–9-бетлар
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган Илмий-оммабоп қўлланма // Тошкент. Маънавият, 2019.
9. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. –Т.: 2017
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. -Тошкент. 3-жилд, 2000
11. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
12. O'zbekiston tarixi (OO'Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.N.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
13. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2015.

GLOSSARIY

ABBOSIYLAR- arab xalifalari sulolasi bo‘lib (749-1258), bu sulolaga Muhammad Payg‘ambarning amakivachchasi Abu al-Abbos as-Saffoh (749-754yy.) asos solgan. Abbosiylar sulolasi besh asr, ya‘ni 749 yildan 1258 yilgacha hukm surgan. Abbosiylar sulolasi vakili xalifa Al-Mansur (754-775 yy) xalifalik poytaxtini Damashqdan Bag‘dodga ko‘chirgan. Xalifalardan Mahdiy (775-785), Xorun ar-Rashid (786-809 yy.), Amin (809-813 yy), Ma‘mun (813-833yy.), Mu‘tasim (833-842 yy.) davrida Arab xalifaligi nihoyatda qudratli davlatga aylangan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo‘lgan.

AVOM- 1. feodal jamiyatida pastki tabaqalarga mansub bo‘lgan kishilar, oddiy xalq ommasi; 2. Shuningdek, o‘qimagan, bilimsiz kishi ma‘nosini bildiruvchi so‘z sifatida ham qo‘llanilgan.

AJAM-arablar o‘zlari bosib olgan hududlardagi boshqa xalqlarni, jumladan, Yaqin, O‘rta Sharq hamda O‘rta Osiyo xalqlarini shunday ataganlar.

Arablar yashaydigan erlardan boshqa mamlakatlar xususan, Eron va Turon davlatlari ham «Mulki ajam» nomi bilan yuritilgan.

AZON-Islomda har kuni besh mahalda o‘qiladigan namoz vaqtini e‘lon qilish va unga da‘vat qilish. Namozga har bir masjidda maxsus kishi-muazzin tomonidan azon aytib chaqiriladi.

AMIRLIK—musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat. XVIIIasrning ikkinchi choragidan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

AMIRI LASHKAR-Temuriylar davlatida keng tarqalgan eng yuqori oliy harbiy unvon.

AMLOK YERLAR- Buxoro amirligida mavjud bo‘lgan er mulkining asosiy shakli. Amlok erlar amir ixtiyorida bo‘lib, dehqonchilik qilish uchun ayrim kishilarga berilar edi. Amlok erlarga ekin ekkan dehqonlar davlatga feodal rentasi – xiroj va boshqa soliqlar, yig‘imlar to‘laganlar.

ARXEOLOG- arxeologiya olimi, mutaxassisi.

AXURAMAZDA-zardushtiylik dini, qadim zamonlarda va ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda va Eronda ken tarqalgan edi. Bu dinning muqaddas kitobi «Avesto»da saxiy xudo Axuramazda yorug‘lik, obodonchilik, farovonlik, salomatlik kabi hamma ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo sifatida ifodalangan. Shuningdek, ushbu asarda Axuramazdaning barcha yovuzliklarni –zulmat, qurg‘oqchilik, ochlik, vabo, sovuq, zaharli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi Anxra-Man‘yo xudosi bilan doim kurash olib borganligi bayon etilgan.

ASHTARXONIYLAR-Movaraunnahrni idora qilgan sulola (1601-1756 yy.) 1556 yilda Astraxan (Hoji-Tarxon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Jo‘jixon nasliga mansub bo‘lgan Astraxan xoni Yormuhammad o‘z oila a‘zolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandar Yormuhammad va uning hamrohlariga o‘z mamlakatida boshpana va Yormuhammadning o‘g‘li Jonibek sultonga o‘z qizi Zuhrani xotinlikka beradi. Shu nikohdan uch o‘g‘il (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) dunyoga keladi. Buxoro xoni Abdulmo‘min o‘ldirilgandan so‘ng shayboniylar naslidan valiahd yo‘qligi uchun Jonibekning o‘g‘li

Boqimuhammad xon taxtiga ko'tariladi. Shundan so'ng, Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining hukmronligi boshlangan.

BARID-Saljuqiylar davrida pochta xizmatchisi, xabar etkazuvchi shunday atalgan..

BEK- O'rta Osiyo xonliklaridagi shahar yoki viloyat boshlig'i.

BOBURIYLAR- Hindistonda 1526 yildan 1853 yilgacha hukmronlik qilgan sulola. Unga Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan.

BUXORXUDOT-VII-VIII asrlarda Buxoroda mavjud bo'lgan kichik feodal davlati hukmdorlarining nomi. Buxoroni arablar bosib olganidan keyin Buxorxudot hukmdorligi o'z mavqeyini yo'qotdi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» nomli asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, VII asrning 80-yillari va VIII asrning o'rtalarida Buxoroda Bidun, Tug'shoda, Buniyot va Sukun ismli buxorxudotlar hukmronlik qilganlar. Arablar Buxoroga bostirib kirganda Buxoroda Tug'shodaning onasi Buxorxudot bo'lgan.

VAZIR- arabcha so'z bo'lib, yordam ko'rsatuvchi, yordamchi degan ma'noni anglatadi. Birinchi bor vazir unvoni VIII asrda abbosiylar sulolasi davrida paydo bo'lgan. SHundan boshlab musulmon davlatlarining hukumatlari tarkibida oliy mansab egasi sifatida vazirlar faoliyat ko'rsatishgan. Ular podshohlar, xonlar va viloyat hokimligiga tayinlangan shahzodalarning yordamchilari hisoblangan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tarkibida bosh vazir va har soha bo'yicha ish olib boruvchi vazir lavozimi mavjud bo'lib, keng faoliyat ko'rsatmoqda.

VAZIRI A'ZAM-ulug' vazir, ya'ni vazirlar boshlig'i degan ma'noni anglatadi. Ilk va so'nggi o'rta asrlarda hukumatning oliy idoralarini boshqargan yuqori mansabdagi shaxs bo'lib, vazirlar ish faoliyatini boshqarib turgan.

VAQF-davlat tomonidan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar-masjid, madrasalar hamda ayrim ruhoniylarga-eshon, muftiylarga, so'fiylik jamoalari izmiga ixtiyoriy suratda o'tkazilganligi to'g'risida hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfga o'tkazilish sababi, mulk egasining nomi, vaqf qiligan mulkning mutavallisi (boshqaruvchisi), vaqf mulkidan foydalanish tartibi, guvohlar aniq ko'rsatilgan. Vaqfnoma qozi tasdig'idan keyin qonuniy kuchga kirgan.

VILOYAT- 1.Mamlakatning poytaxtdan yiroqdagi cheka o'lkasi; 2.Yirik ma'muriy-hududiy bo'linma.

VODIY-1. daryo bo'ylab cho'zilgan yoki tog'lar orasidagi keng tekislik; 2.Umuman ekin ekiladigan, obod er.

VOLOST-Oktyabr to'ntarishidan ilgari Rossiya va Turkiston o'lkasida ma'muriy-hududiy bo'linma. Uezdning kichik bir bo'lagi.

VOXA-sahro bilan o'ralgan obod, suvli o'lka.

GUBERNATOR- Chor Rossiyasida guberni boshlig'i, hokimi. Turkiston CHor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan. Uni general-gubernator boshqargan.

DAVLAT-Hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan mamlakat.

DARVOZABEGI-Shahar, qal'a va xon saroylari darvozalarini qo'riqlovchi soqchi.

DAHA-Shaharning yoki viloyatning ma'muriy-hududiy bo'limi.

DEVONBEGI – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.

DINOR- Saljuqiylar davrida pul birligi.

ETTI IQLIM- qadimgi geograf olimlar dunyoni etti iqlimga bo'lishgan. Jumladan, Rashiddin asarlarida qayd etilishicha Eron, Turon, Suriya, Misr, Kichik Osiyo, Franklar mamlakati va boshqalar etti iqlim hisoblangan.

ETTI URUG'- o'zbek xali tarkibiga kirgan yirik urug'lar guruhi.

YOBU (JOBU)- o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi. O'zbeklar orasida kichik guruhni tashkil etgan bo'lib, XX asr boshlarida tarqoq holda Zarafshonning o'rta va quyi oqimida, shuningdek qarshi cho'llarida yashaganlar. YObular qozoqlar tarkibida ham mavjud. Ular asosan chorvachilik va dehonchilik bilan shug'ullanganlar.

YOV- 1. Urush, jang holatidagi qarshi tomon, dushman; 2. Qarama-qarshi maqsaddagi kishi; dushman, g'anim; raqib.

YOYIQ- Ural daryosining qadimgi va o'rta asrlarda atalgan nomi. «YOyiq» aslida turkiy so'z bo'lib, «keng» degan ma'noni bildiradi. YOyiq daryosining nomi 1785 yili Rossiya imperatori Ekaterina 11 tomonidan chiqarilgan farmon asosida Ural deb o'zgartirilgan.

YOSH BUXOROLIKLAR- Buxoro jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiya bo'lib, taraqqiyparvar va mahalliy burjuaziya vakillaridan tashkil topgan. Yosh buxoroliklar dastlab mavjud feodal tuzumga qarshi demokratik islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lganlar. Yosh buxoroliklar amir hokimiyatiga qarshi kurashda muayyan tajriba orttirib, o'zbek va tojik tillarida jurnal tashkil etganlar.

YOSH XIVALIKLAR- Xiva jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiya (1917). O'z safida savdogarlar, mayda dindorlar va xon xizmatida bo'lgan ayrim amaldorlarni birlashtirgan. Uning ilg'or qismi feodal aristokratiya hokimiyatini cheklaydigan va islohotlar o'tkazish, ommani ma'rifatli qilish tarafdori bo'lgan. Umuman, Yosh xivaliklarning maqsadi xon hokimiyatini cheklab, konstitutsiyali monarxiyaga o'tish, amaldorlarga oylik tayinlash tartibini o'zgaritish «shariat bo'yicha tenglik», ya'ni burjuaziyaning huquqlarini hukmron sinf bo'lgan feodallar bilan tenglashtirish edi.

JABG'U (YABG'U) –G'arbiy turk hoqonligida qabila, ulus boshlig'iga berilgan unvon. Jabg'u atamasi O'rxun-Enisey yozuvlarida, Bilkategin, Qultegin obidalarida, Tabariy va Yoqubiy asarlarida ko'p uchraydi.

JADID-jadidchilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi. Usuli jadid eski maktabdagi tartib va o'qitish usullari o'rniga jadidlar joriy qilgan yangi tartib va ta'lim-tarbiya usulini joriy qilgan; bu usul jumladan, xat-savod chiqarishda hijl tizimi o'rniga tovush tizimini kiritgan.

JADID MAKTABLARI - eski musulmon diniy maktablarini isloh qilib, yangicha usulda ta'lim bergan va jadidchilik g'oyalarini ilgari surgan maktablar. Bu maktablarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi. Bunday maktablar dastlab 1893 yili Samarqandda, so'ng Farg'ona vodiysida, Toshkentda mahalliy o'zbek boylarining paxta zavodlari qoshida ochilgan.

JAYHUN-VIII asrdan boshlab, hozirgi Amudaryo arab manbalarida shu nom bilan yuritilgan.

ZAKOT- Islom dinining besh asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson soliq. SHariatga muvofiq, muayyan

boylikka ega bo'lgan katta Yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho'ponlardan olinadigan miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, etim-esirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

ZAKOTCHI –aholidan zakot pul va mollarni undiruvchi amaldor. Zakotchi Buxoro amirligida muhim amal hisoblangan. Devonbegi zakotchi hisoblanib, amirning moliyaviy ishlarini ham boshqargan.

ZUL-QARNAYIN-O'rta Osiyo hududida Aleksandr Makedonskiyni Iskandar Zulqarnayin deb atashgan.

ISLOM- dunyoda eng ko'plardan tarqalgan dinlardan biri bo'lib, unga e'tiqodda bo'lganlar musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo-Oллоhga e'tiqod qiladi.

ISTILO-qurol kuchi bilan o'zga mamlakatni bosib olish, zabt etish.

ISTIQLOL- mustaqillik.

IQTA'- Saljuqiylar davrida yer parchasi, chek, uni hokim o'z tobeiyatidan bo'lganlarga muvaqqatan, vaqtincha berardi. Er meros qolmasdi. Iqto'ning bir ko'rinishi.

KADXUDO- Saljuqiylar davrida shohning unvoni. Ikkinchi ma'noda qo'shinning moliya va xo'jalik ishlarini olib boruvchi amaldor.

KARVON- qadimgi va o'rta asrlarda davlatlar o'rtasida o'zaro aloqa bog'lash va savdogarlarning savdo ishlarini olib borishda asosiy transport vositasi hisoblangan tuyalar va otlardan tuzilgan maxsus guruh. Karvonning uzilib qolmasligi uchun eng oldingi va eng oxirgi hayvonga qo'ng'iroq osib qo'yilgan.

KARVONSAROY-karvonlar, savdogarlar va sayyohlar tunaydigan joy, ya'ni mehmonxona. SHarq davlatlarida, jumladan O'rta Osiyo va Kavkazda savdo yo'llari ustida va shaharlarda qurilgan.

KITOBODOR-Qo'qon xonligida saroy kutubxonasining mudiri.

KASHOVARZ-IV-VI-asrlarda O'rta Osiyoda erkin dehqon jamoalari kashovarzlar deb atalgan.

KUTVOL- Buxoro xonligida davlat tomonidan tayinlangan maxsus mansabdor bo'lib, davlat qurilishlariga javobgar shaxs bo'lgan. U ark qurilishlari, qal'a devorlari va imoratlarini ta'mirlash ishlari bilan shug'ullangan va unga javob bergan.

KO'CHMANCHI O'ZBEKLAR-Ko'chmanchi o'zbeklarning o'zagini Dashti Qipchoq o'zbeklari tashkil etgan. XIV-XVII asrlardagi yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra, ko'chmanchi o'zbeklar quyidagi urug' va qabilalar kirgan: arlot, arg'in, bahrin, buyrak, bulovchi, barqut, durmon, jaloyir, jot, iyjln, kenagas, kerait, major, makrit, mang'it, nayman, nukuz, olchin, os, sulduz. Tang'ut, tama, toymas, totor, tuboyi va boshqalar.

KO'XAK – o'rta asr manbalarida, jumladan «Boburnoma»da Zarafshon daryosi nomi shunday berilgan.

LASHKAR- cherik, qo'shin, armiya, muntazam armiya bo'lmagan feodalizm sharoitida xon va podshohlar harbiy yurish oldidagina o'ziga tobe viloyatlarga chopar yuborib, qo'shin to'plagan. Lashkarga chaqirilgan har bir kishi o'z oti, quroli va bir muncha oziq-ovqati bilan kelgan.

LAHJA-tilning bir necha sheva va dialektlarini o'z ichiga olgan, umumiy xususiyatlari jihatidan mahalliy guruhi.

MADANIY MEROS- o'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari mavjud.

MARV- O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Turkmanistonning Bayramli shahri yaqinida, Murg'ob daryosi qirg'og'ida. Marvning qoldiqlari 5 ta qal'a xarobasidan iborat.

MAROKANDA- Samarqandning yunoncha nomi.

MASSAGETLAR- Kaspiy orti va Orol dengizi yaqinida Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida mil.avv.V-IV asrlarda yashagan qabilalr guruhining umumiy nomi.

MOVARAUNNAHR- lug'aviy ma'nosi «daryo orqasidagi er» degan ma'noni bildiradi. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolgacha qarab cho'zilgan O'rta Osiyo erlarini Movaraunnahr deb atashgan.

MUARRIX-tarixchi, tarixnavis.

MULKDOR-katta mulk egasi.

NAMOZ- Islom diniga e'tiqod qiluvchilar bajarishi farz deb hisoblangan ibodat shakli.Uni maxsus joynomoz ustida olingandan keyin o'qish qat'iy qoidaga aylantirilgan.

NO'G'OYLAR-1.Tatarlar. 2.Shimoliy Kavkazning sharqiy hududlarida yashovchi, turk tilida so'zlashuvchi xalqlardan biri.

OLTIN O'RDA- tarixiy manbalarda Jo'chi ulusi deb ham yuritiladi. XIIIasrning 40-yillarida Chingizxonning nabirasi Jo'chixonning o'g'li Botuxon (1208-1255 yy.) tomonidan bosib olingan Sharqiy Evropa Jo'chi ulusiga qo'shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O'rda deb atalgan.

OSIYO- aslida, yunoncha Asia so'zidan olingan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, osuriycha «asu» - sharq degan so'zdan olingan degan fikr ham mavjud. Osiyo yer sharidagi eng kata qit'a bo'lib, Evroosiyo materigining bir qismi hisoblanadi.

OQSUYAK-Mulkdor toifaga mansub kishi; aristokrat.

PALEOGRAFIYA- qadimgi qo'lyozmalar yozuvini va ularning tashqi ko'rinishini o'rganadigan fan.

PALEOLIT- tosh asrining eng qadimgi davri.

RAB-Alloh, tangri, parvardigor.

REGISTON- O'rta Sharq shaharlaridagi maydon. Samarqand va Buxorodagi registonlar shahar arxitekturasida tutgan o'rni va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqanddagi Registon ansambli yirik me'morchilik inshooti sifatida hozirgi kungacha butun dunyoga mashhur.

RUMO- XV asrda Usmonlilar saltanati shunday atalgan.

SALAVKIYLAR DAVLATI – Yaqin va O'rta Sharqdagi yirik davlat. Aleksandr Makedonskiy tuzgan imperiya tanazzulga uchragach, uning lashkarboshilaridan bo'lgan Bobil satrapiyasining diodoxi Salavk I Nikotor asos solgan. Salavk Midiya, Suziana, Persiyani, keyinchalik keyinchalik baqtriyani bosib olgan. Mil.avv. IIIasrda O'rta Osiyoda mustaqillik uchun kurash boshlanib, uning natijasida Grek-Baqtriya podsholigi va Parfiya tuzildi.

SALJUQIYLAR-XI-XIV asr boshida Yaqin va O'rta Sharqdagi bir necha davlatlarda hukmronlik qilgan sulola.

SALTANAT- sulton, yakka xon, amir yoki podsho hukmronligi hamda ularning mavqei; shunday hukmron qo'l ostidagi davlat, mamlakat.

TANOB- O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob 3600 m².

TARIXNAVIS- tarixni yozib boruvchi, solnomachi.

TEMURIYLAR- 1370-1507- yillarda Temuriylar davlatida hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi –Amir Temur. Temuriylar Chig'atoy ulusida kuchayib ketgan feodal tarqoqlik natijasida hokimiyat tepasiga keldi. Samarqand va Hirot Temuriylar davlatining poytaxti bo'lgan.

TOHIRIYLAR- Tohiriylar davlatini boshqargan sulola. Asoschisi –Tohir ibn Husayn.. Tohiriylar sulolasi hukmdorlari: Tohir ibn Husayn (821-822 yy.), Talha ibn Tohir (822-828 yy.), Abdulloh ibn Tohir (828-844 yy.), Tohir II ibnAbdulloh (844-862 yy.), Muhammad ibn Tohir (862-873 yy.).

UEZD- Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida joriy etilgan ma'muriy-hududiy bo'linma.

ULUS-tor ma'noda ma'lum bir urug', qabila yashab turgan sarhadni ifodalagan; kengroq ma'noda esa va uning oila a'zolariga tegishli erlar va ularga bo'ysunuvchi hamda shu erda istiqomat qiladigan aholini qamrab olgan ma'lum bir sarhad tushunilgan. Tarixiy manbalarda Jo'chi ulusi, No'g'oy ulusi, Shaybon ulusi, O'zbek ulusi kabi uluslar mavjud bo'lganligi to'g'risida jo'da boy ma'lumotlar mavjud.

UNGUR- tog'liklardagi tik o'yiqlik joy; g'or.

URUG'-AYMOQ- qarindoshlik munosabati bilan o'zaro bog'langan va bir joyda yashaydigan kishilar; qarindosh-urug'.

USTURLAB- astronomlar ishlatgan asboblardan birining nomi.

USHR- musulmon mamlakatlarida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig'i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan. Ushr olingan yer-suv «mulki ushriya» deb atalgan.

FALAKIYOT- astronomiyaning XX asrning 40- yillarigacha o'zbek tilida ishlatilib kelgan eski nomi. AHozir ham ayrim Sharq xalqlari tillarida qo'llaniladi.

FARAK (PARAK) SUVI-Sirdaryoning o'ng irmog'i hisoblangan Chirchiq daryosining o'rta asrlardagi nomlaridan biri. Daryoning Chirchiq deb atalishi Amir Temur zamonidan boshlangan.

FARZ-shariatda hamma musulmonlar bajarishi shart bo'lgan qat'iy talablar va me'yorlarni anglatuvchi diniy huquqiy tushuncha. Qur'onda ko'rsatilgan diniy e'tiqod, marosim, urf-odat talablari, ahloqiy va huquqiy me'yorlar farz tushunchasiga kiritilgan.

FARSAX PULI-Buxoro amirligida XIX asr-XX asr boshida yo'l uchun olingan soliq turi.

FATH- o'ziga bo'ysundirish, zabt etish, egallash; bosib olish.

FIQH-musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi. Fiqh diniy huquqshunoslik sohasida ikki sohada- shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al-fiqh) va shariatni aniq sohalariga tatbiq qilish (furu' al- fiqh)dan iborat bo'lgan.

FOZIL- fan asoslarini yaxshi egallab olgan kishi, olim.

FOTIH- biror shahar, davlat, mamlakatni urushib qo'lga kiritgan, zabt etgan, g'olib; jahongir.

XAZINACH**I**-Buxoro amirligida xazinachining asosiy vazifasi amir xazinasining muhofizi hisoblangan. Hukumatning mol-mulki, ombori uning qaramog'ida bo'lgan. Mamlakatning kirim va chiqimini daftarga qayd etish, ombordan kerakli narsalarni olish yoki unga qo'yish kabi ishlarning barchasi xazinachi tomonidan amalga oshirilgan.

XALIFA- o'rinbosar, noib, muovin. Musulmon jamoasi va musulmon teokratik davlati (arab xalifaligi)ning diniy va dunyoviy boshlig'i. U Muhammad Payg'ambarning o'rinbosari. Birinchi to'rt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) «al-Xulafo ar-roshidun» nomi bilan mashhur bo'lganlar. Ummaviylardan keyin abbosiylar, shuningdek fotimiylar sulolasi vakillari ham xalifa unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar.

XAMSA-besh dostonni o'z ichiga olgan asar.

XANDAK- o'ra, to'siq. O'rta Osiyo hududlarida o'rta asrlarda dushman o'tolmasin deb, qal'a atrofida maxsu handaqlar qazib, uni suv bilan to'ldirib qo'yishgan. Bu o'sha davrda mudofaa to'siqlarining bir turi hisoblangan.

XATIB- odatda, masjidda juma va diniy bayram kunlari, ya'ni hayit namozlari paytida xutba o'qiydigan dindor.

XATMI QUR'ON- musulmonlarda marhumlar arvohiga atab, Qur'oni Karimni boshidan oxirigacha qiroat bilan o'qi tamomlash va shu munosabat bilan o'tkaziladigan diniy marosim.

XATTOT-chiroyli va aniq yozadiga odam, kalligraf.

XIROJ- Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. Xiroj O'rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligida xiroj yig'ish uchun har bir viloyatga sarkor, qshloqqa devonbegi va kotib tayinlangan.

XITOYLAR- o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Xitoy urug'ining kelib chiqishi, asosan, II asrda O'rta Osiy va Qozog'istonning bir qismini bosib olgan qoraxitoylarga bog'liq.

XON- turkiy xalqlar va mo'g'ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab, qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida viloyat yoki shahar hokimi, mo'g'ul feodal imperiyasida ulus boshlig'i xon deb atalgan. Mo'g'ul feodal imperiyasi inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlarda oliy hukmdor xon, podshohlik qilmagan Chingiziylar esa sulton deb yuritilgan. Qo'qon, Buxoro (1735 -yilgacha) va Xiva xonligida hukmdorlar ham o'zlarini xon deb ataganlar.

XONLIK-xon tomonidan boshqariladigan davlat. O'rta Osiyoda XVIasr oxirida ikkita xonlik-Buxoro va Xiva xonligi vujudga kelgan. XVIII asrda Qo'qon xonligi vujudga kelgan. XVIII asr oxiri XIX asr boshidan boshlab Buxoro amirlik deb yuritilgan.

XOQON-turk, xitoy, mo'g'ul hukmdorlari unvoni. Xoqon atamasi ilk bor 312- yilga oid bo'lgan Xitoy yilnomalarida uchraydi. Dastlab, jo'jan qabilalari boshliqlari xoqon deb atalgan. VIar o'rtalarida Turk xoqonligi hukmdorlari ha xoqon nomini olgan, keyinchalik boshqa turk qabilalari hukmdorlari ham o'zlarini xoqon deb atay boshlagan.

XUTBA-juma va ulug' ayyom kunlar masjidida imom xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pand-nasihatlar. SHuningdek, o'rta asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o'qiladigan duo ham xutba deyilgan.

ChEGARA-bir joyni boshqa bir joydan ajratuvchi yer, had.

ChIGIL- qadimgi turkiy xalqlardan birining nomi. Ular, asosan, Oltoyda qirg'iz, tuxen, jumul, uyg'ur, talg'utlar bilan yonma-yon yashashgan.

ChIG'ATOYLAR- Chig'atoy ulusini idora etgan sulola (1224-1370-yy.). Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy (1242-y. vafot etgan). nomidan kelib chiqqan.

ChIG'ATOY ULUSI- Chingizxon tomonidan Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlarning umumiy nomi (1224 yildan boshlab).

ChIG'IL- Qarluq qabilalaridan birining nomi.

ChORYORLAR- Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki to'rt xalifa-Abu Bakr, Umar, Usmon, Alilarni Eron, Afg'oniston va O'rta osiyoda musulmonlar orasida choryorlar deb atash rasm bo'lgan. Ular «Xulafo ar-roshidin», ya'ni to'g'ri yo'ldan yuruvchi xalifalar deyilgan.

ShAJARA – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog'i – genealogiya fani o'rganadi.

ShAYBONIYLAR- Shayboniylar davlatini boshqargan sulola (1500-1601 yy.). Asoschisi Muhammad Shayboniyxon.

ShO'RO-sovet.

ELAT- kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan takrib topgan birligi. Elatning kelib chiqishigka bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan.

ELCHI- bir davlatning boshqa bir davlatda faoliyat ko'rsatuvchi yuqori martabali rasmiy vakili.

ELCHIXONA- bir suveren davlatning suveren davlat hukumati qoshidagi diplomatik vakolati

ETNIK -kelib chiqishi jihatidan biror xalqqa oid yoki xos bo'lgan.

ETNOGRAFIYA (ELSHUNOSLIK)- xalqlar, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmushi, tarixiy va madaniy munosabatlarini o'rganadigan ijtimoiy fan. Etnografiya fani asosiy e'tiborni hozirgi xalqlarga qaratgan holda o'tmishda mavjud bo'lgan barcha etnik birliklarni ilmiy o'rganishni ham qamrab oladi.

EFTALITLAR- O'rta Osiyo va unga yaqin mamlakatlar xalqlarning etnogenezi iva tarixida muhim rol o'ynagan yirik qabilalar uyushmasi.

YUZ- o'zbek xalqi tarkibi kirgan yirik qabilalardan biri. Asosan Surxon vodiysida yashagan. Ular ikkita kata guruh-vahtamg'ali va jilantamg'alidan iborat bo'lgan bularning har biri, o'z navbatida, yana bir qancha guruhlariga bo'linadi. Etnogenezi ma'lumotlari yuzlarning kelib chiqishi Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. XIX asr davomida yuzlarning ko'pchiligi o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

YURT-ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy, o'lka, mamlakat; vatan.

YASO (YOSOQ)- Chigizxon zamonida joriy etilgan qonun-qoida. Fuqarolar yasoga, ya'ni qonun-qoidalariga qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor yasovul deb aytilgan.

YASSAVIYLIK- Islomdagi so'fizmga xos oqim. XII asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan va ko'chmanchi aholi o'rtasida ham. Asoschisi Ahmad YAssaviy. Uning «Devoni hikmat» asarida yassaviylik g'oyalari ilgari surilgan. Yassaviylik so'fizm tamoyillarini qadimgi o'zbek tilida targ'ib qilingan. Uning tashviqotchilaridan biri So'laymon Boqirig'oniidir.

YASOQ-Mo'g'ul imperiyasi, xususan, Oltin O'rda.

O'LKA- 1. Mamlakat; 2. Mamlakatning ma'muriy-hududiy birlikka ega bo'lgan biror qismi; viloyat.

O'RDA-1. Turkiy va mo'g'ul xalqlarida harbiy-ma'muriy tashkilot, manzilgoh. O'rta asrlarda oliy hukmdorlar qarorgohi, poytaxti; 2. Podshoh, xon yoki biror oliy martabali shaxsning harami.

O'TROQ-bir joyda muqim yashaydigan.

O'G'UZLAR- turkiy qabila. Markaziy va O'rta Osiyoda yashagan. VII asr boshida Turk xoqonligi tarkibida to'qqiz o'g'uz qabilasi ittifoqi paydo bo'lib, bu ittifoqda ko'pchilikni, asosan, uyg'urlar tashkil etgan.

O'G'UZXON-barcha turkiy-mo'g'ul qabilalarining afsonaviy asoschisi.

QABILA-etnik birlik. Qabila a'zolari o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi, urug' va bo'g'inlarga bo'linish qabilaning asosiy belgisidir.

QAL'A-mudofaa maqsadida qurilgan, strategik jihatdan qulay va mustahkam tayanch punkti. Qal'aning dastlabki ko'rinishlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lgan. Bunday qal'a atrofii paxsa, tosh va boshqa materiallardan tiklangan devor bilan o'ralgan turar joydan iborat bo'lgan. Keyinchalik qal'a devorining atrofida handaqlar qazilgan. Har bir qal'ani uning o'z aholisi mudofaa qilgan.

QANG'LI- qadimiy turkiy qabilalar uyushmasi. O'rxun –Enisey yozuvlarida «konxaras» deb atalgan. Qang'liklarning ilk ajdodlari Sirdaryo sohillarida yashagan saklar bo'lib, bular miloddan avvalgi III asrda yirik Qang' davlatini barpo qiladilar

QARLUQLAR- qadimiy turkiy qabilalardan biri.

QUR'ON- musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad Payg'ambarning Makka va Madinada olib borgan og'zaki diniy targ'ibotlari, to'plamidan iborat. Qur'onda islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va ahloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Islom an'anasida Qur'on Olloh tomonidan Muhammad Payg'ambarga ramazon oyining 27-kuni kechasi vahiy qilingan. Shuning uchun ham bu muqaddas oy hisoblanib ro'za tutilgan. Uning 27-kuni kechasi «laylat ul-qadr». Ya'ni ulug' qudrat kechasi. Ilohiyot qudrati namoyon bo'lgan kecha deb ulug'lanadi. Qur'on kitobini «Qur'oni Karim», «Qur'oni Majid» deb sifatlashadi.

QO'SHIN-qurolli kuchlar birlashmasi.

G'AZNAVIYLAR-X-XII asrlarda O'rta sharqda mavjud bo'lgan feodal davlatning va uni boshqargan sulolaning nomi. G'aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi- somoniylar lashkarboshisi Alptakin. U 962 yili qo'l ostidagi g'ulomlarga tayanib, G'azna viloyatida o'z hohimiyatini o'rnatdi.

HADIS- Islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad Payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, din iva

ahloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad Payg'ambar biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlariga qilayotgan biror ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shu hatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, ahloq odobiga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. IX-X asrlarda dindorlar orasida obro'li deb tanilgan Hadisning oltita to'plami vujudga kelgan. Bulardan, ayniqsa, «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» ko'proq e'zozlanadi. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan. Islom olamida taniqli muhaddislardan Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziylar vatandoshimiz bo'lishgan.

TESTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari yozilgan sanani aniqlang?

- A. 1995 –yil
- B. 1996 -yil
- V. 1998 -yil
- G. 2000 -yil

2. «Ishbilarmon odam» - bu...

- A. Zinjantrop
- B. Kromanon
- V. Homosapiens
- G. Dreopitek

3. Qadimgi odamlar – bu ...

- A. Arxantrop
- B. Neandertal
- V. Sinantrop
- G. Fergantrop

4. O'zbekiston hududidagi ilk paleolit davriga oid makon – bu...

- A. Selung'ur
- B. Teshiktosh
- V. Machay
- G. Obishir

5. O'rta paleolit davriga oid Teshiktosh yodgorligi qachon va kim tomonidan ochilgan?

- A. 1940- yilda A. Okladnikov
- B. 1938 -yilda A. Okladnikov
- V. 1938 -yilda A. Asqarov
- G. 1927- yilda O'. Islomov

6. So'nggi paleolit davriga kelib odamning rivojlanish (antropogenez) jarayoni nihoyasiga etadi. Bu ...

- A. Kromanen odamining paydo bo'lishi bilan izohlanadi
- B. Neandertal odamining paydo bo'lishi izohlanadi
- V. Avstralopitek odamining paydo bo'lishi bilan izohlanadi
- G. Fergantrop odamining paydo bo'lishi bilan izohlanadi

7. Machay, Obishir, Bo'zsuv, Qo'shilish Oshxona, Chilgorchashma yodgorliklari qaysi davrga oid?

- A. Mezolit
- B. Neolit
- V. Paleolit
- G. Eneolit

8. Qaysi davrda o'q-yoy kashf etilib, chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo'ldi?

- A. Mezolitda
- B. Neolitda

- V. Eneolitda
G. Paleolitda
9. **Joytun, Kaltaminor, Hisor madaniyatlarining rivojlanishi qaysi davr bilan izohlanadi?**
A. Neolit davri
B. Mezolit davri
V. Eneolit davri
G. Temir davri
10. **Qaysi qadimiy manzilgohdan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, taqinchoq va bezaklar topilgan?**
A. Joytundagi
B. Kaltaminordagi
V. Xisordagi
G. Machaydan
11. **Zardushtiylik dinining asoschisini aniqlang.**
A. Spitama
B. Zardusht
V. Axuramazda
G. Mitra
12. **Avestoning vatani ko'pchilik olimlarning fikricha...**
A. Xorazm yoki Baqtriya
B. Eron yoki Ozarbayjon
V. Xorazm yoki Eron
G. Farg'ona yoki Hindiston
13. **Avestoni birinchi bo'lib tadqiq etgan olimni aniqlang.**
A. M. Ishoqov
B. O'tkir Islomov
V. M. Boys
G. Anketiy Dyupperon
14. **Anketil dyu Perron «Avesto» ni o'rganish uchun o'z tadqiqotini qaerda amalga oshirilgan?**
A. Pokistonda
B. Hindistonda
V. Eronda
G. O'zbekistonda
15. **Dastlab «Avesto» nechta kitobdan iborat bo'lgan?**
A. 18 ta
B. 30 ta
V. 21 ta
G. 40 ta
16. **«Avesto» da tilga olingan malakatlar va o'lkalarni aniqlang.**
A. O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy
B. O'rta Osiyo, O'rta SHarq, Afg'oniston va Eronning shimoliy-sharqi
V. O'rta Osiyo, O'rta SHarq, Afg'oniston va Pokiston
G. O'rta Osiyo, O'rta SHarq, Hindiston va YUnoniston

17. Forslarga qarshi mardonovor kurash olib borgan Saklar qahramonini aniqlang

- A. To'maris
- B. Shiroq
- V. Spetamen
- G. Farasman

18. Doro I ga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgan shaxsni aniqlang

- A. To'maris
- B. Shiroq
- V. Farasman
- G. Frada

19. Yunon-Makedon qo'shinlariga qarshi kurashga boshchilik qilgan So'g'd zadogonini aniqlang

- A. To'maris
- B. Shiroq
- V. Spitamen
- G. Frada

20. Salavkiylar davlati tarkibidan mil.avv.III asrning o'rtalarida ajralib chiqqan davlatni aniqlang

- A. So'g'diyona
- B. Marg'iyona
- V. Yunon-Baqtriya
- G. Xorazm

21. Quyidagi davlatlardan qaysi biri mil.avv.III asrning boshlarida paydo bo'lgan?

- A. Qang'
- B. Dovon
- V. Xorazm
- G. Kushon

22. Qang'arlarga xos madaniyatni aks ettirgan manzilgohni aniqlang

- A. Zomonbobo
- B. Andronova
- V. Qovunchi
- G. Dalvarzin

23. Dovon davlati qachon tashkil topgan?

- A. Mil.avv II asr
- B. Mil.avv III asr
- V. Mil.avv IV asr
- G. Mil.avv V asr

24. O'zbek xalqiga xos qiyofa qachon shakllanib tarqalgan?

- A. Mil. avv. III-II asrlarda
- B. Mil. avv. IV asrda
- V. Milodiy III-II asrlarda
- G. IX asrda

25. Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek xalqining shakllanishida nechta muhim davr sanab o‘tiladi?

A. 8 ta

B. 4 ta

V. 7 ta

G. 5 ta

26. O‘rta paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari O‘zbekistonning qaysi hududidan topilgan?

A. Zamonbobodan

B. Teshiktoshdan

V. Qavat 3dan

G. Celeng‘urdan

27. O‘zbeklarga xos antropologik qiyofa dastavval qaysi hududlarda shakllangan?

A. Toshkent vohasi, Ettisuvda

B. Sirdaryoning o‘rta havzasi, Zarafshon vohasida

V. Farg‘ona vodiysi, Xorazmda

G. Amudaryo bo‘ylari, Sirdaryo ning quyi oqimida

28. O‘zbek xalqi shakllanishi necha bosqichga bo‘linadi?

A. 4ta

B. 8ta

V. 3ta

G. 5ta

29. O‘zbek xalqining shakllanishdagi 2-muhim basqichni aniqlang?

A. X-XII asrlar

B. IX-XI asrlar

V. XII asrlar

G. IX-XII asrlar

30. IX asrga kelib O‘rta Osiyo aholisi antropologik qiyofasida keskin o‘zgarish yuz berganligini aniqlagan olimni ko‘rsating.

A. T.Xo‘jaev

B. A.Asqarov

V. E.Rtveladze

G. A.Sagdullaev

31. Manbalarda kidariylar kimlarning avlodlari sifatida tilga olinadi?

A. Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig‘i

B. Amudaryoning dasht –cho‘l hududlarida yashagan massagetlar-ning qoldig‘i.

V. Kushon va xioniyalar ittifoqining qoldig‘i

G. O‘rta Osiyoga shimoldan kirib kelgan turkiy qabilalar qoldig‘i

32. Kidariylar qachon Hindistondagi Gupta davlatini bosib olgan?

A. 477 yilda

B. 456 yilda

V. 450 yilda

G. 457 yilda

33. Kidariylar Hindistonda necha yil hukmronlik qilgan?

- A. 77 yil
 - B. 65 yil
 - V. 75 yil
 - G. 57 yil
- 33. Eftaliylar kelib chiqishiga ko‘ra qaysi xalqlarga mansub?**
- A. Turkiy xalqlarga
 - B. Ma’lum emas
 - V. Forsiy xalqlarga
 - G. Yunon-makedonlarga
- 34. Eftaliylar davlati qachon vujudga kelganligini ko‘rsating?**
- A. V asrning 60-yillarida
 - B. 456 yilda
 - V. V asr o‘rtalari va VI asr boshlarida
 - G. 457 yilda
- 35. O‘rta Osiyoda Eftaliylarning asosiy raqibi bo‘lgan davlatni aniqlang?**
- A. Kidariylar davlati
 - B. Sosoniylar davlati
 - V. Arab halifaligi
 - G. Vizantiya davlati
- 36. Turk xoqonligiga qachon va kim asos solganligini aniqlang**
- A. 551 yilda Istemi
 - B. 554 yilda Muqanxon
 - V. 450 yilda Vaxshunvor Eftalon
 - G. 551 yilda Bumin
- 37. O‘rta Osiyo qachon Turk xoqonligi tomonidan bosib olindi?**
- A. 563-567- yillarda
 - B. 531-579- yillarda
 - V. 502-506- yillarda
 - G. 450- 459- yillarda
- 38. Abruy boshchiligidagi qo‘zg‘olon qachon bo‘lib o‘tgan?**
- A. 563-567- yillarda
 - B. 585-586- yillarda
 - V. 576-577- yillarda
 - G. 602-603- yillarda
- 39. Turk xoqonligi qachon to‘la mustaqil SHarqiy va G‘arbiy qismlarga ajralib ketganligi va O‘rta Osiyo qaysi qism tarkibiga kirganligini aniqlang?**
- A. 576 yilda, G‘arbiy qismga
 - B. 581 yilda, Sharqiy qismga
 - V. 603 yilda, G‘arbiy qismga
 - G. 567 yilda, Sharqiy qismga
- 40. Muhammad (s.a.v.) ibn Ablullohning Makkadan Madinaga ko‘chishi - “hijrat” vaqtini aniqlang**
- A. 570- yil 23 -aprel
 - B. 622- yil 16- iyul
 - V. 632- yil 8 -iyun

G. 621- yil 16- iyul

41. Muhammad (s.a.v.) ibn Ablullohning “Xulofoiy rashoddin” (haq yo‘ldan borgan sahiih xalifalar) nomlarini olgan o‘rinbosarlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan bandni belgilang

A. Abu Bakr Siddiq, Zayd ibn Sobit, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib

B. Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib

V. Abu Tolib, Abdulloh ibn Amir, Muoviya ibn Abu Sufyon, Ubaydulloh ibn Ziyod

G. Umar ibn Xattob, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Amir, Said ibn Usmon

42. “Movarounnahr” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini aniqlang?

A. Daryoning qirg‘og‘idagi erlar

B. Ikki daryo oralig‘idagi erlar

V. Daryoning narigi yog‘idagi erlar

G. Daryogacha bo‘lgan erlar

43. Arab halifaligi tomonidan Movaroun-nahrning bosib olinishi qachon yakunlandi ?

A. 652 -yilda

B. 715- yilda

V. 676-yilda

G. 567- yilda

44. Arablar tomonidan Movarounnahrda joriy etilgan soliqlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan bandni belgilang

A. Ko‘bchur, targ‘u, tuz solig‘i, jon solig‘i

B. Xiroj, ushr, tanobona, xonsoliq

V. Xiroj, zakot, jizya

G. Xiroj, zakot, jizya, targ‘u

45. Arablarning bosqinchilik siyosatiga qarshi xalq ozodlik harakatlari bo‘lib o‘tgan yillar to‘g‘ri ko‘rsatilgan bandni belgilang

A. VI I asrning boshlari, VII asrning 70-80 -yillari

B. 633-639; VIII asrning 70-80- yillari

V. VIII asrning 70-80 yillari; 855 -yillar

G. 720-722; VIII asrning 70-80 -yillari

46. Qaysi asr Beruniy asri deb atalgan?(I.Karimovning «Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch» asridan)

A. X asr

B. XI asr

V. XII asr

G. IX asr

47. O‘zbek davlatchiligi tizimidagi yirik sulolalardan biri Anushteginiy-Xorazmshohlar qaysi yillarda xukmronlik qilganlar?

A. 819-873- y

B. 873-892 -y

V. 879-895- y

G. 1097-1231- y

48. «Hidoya» asarining muallifini aniqlang?

A. Imom al-Moturidiy

B. Burxonuddin al-Margʻinoniy

V.Najmiddin Kubro

G. Imom al-Buxoriy

49. Abu Ali ibn Sino yashab ijod qilgan yillarni aniqlang?

A.850-1017 -y

B.950-1017- y

V. 980-1037 -y

G. 980-1034- y

50. Yunon faylasufi Aristotelning «Metafizika» asariga sharh yozgan allomani aniqlang?

A.al-Beruniy

B.al-Xorazmiy

V.al-Fargʻoniy

G. al-Farobiy

51. «Xindiston», «Oʻtmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Meterologiya» asarlarining muallifi kim?

A. al-Farobiy

B. al-Xorazmiy

V. Axmad Far gʻoniy

G. Beruniy

52. XI-XII asrlarda Turkiston va Movaraunnahrda keng tarqalgan tasavvuf taʼlimotining yirik namoyondasini aniqlang?

A.Soʻfi Ollayor

B.Imom at Termiziy

V. Axmad Yassaviy

G. Bahovuddin Naqshband

53. Xorazm Maʼmun akademiyasi qaysi davrda faoliyat koʻrsatgan?

A. X asr oxiri XI boshlari

B.VIII – IX asrlar

V. XI oxiri

G. IX oxiri

54. «Siyosatnoma» asarining muallifi Nizomulmulk qaysi davlatda bosh vazir lavozimini egallagan?

A. Soljuqiylar

B. Somoniylar

V.Xorazmshohlar

G. Qoraxoniylar

55. «Ustoz al-arab val ajom», «Ustoz ad-dunyo», «Kaʼbat al-udoba», «Jar Alloh» kabi sharaflil nomlarga sazovor boʻlgan arab tilshunosligi ustozlari kim?

A. Beruniy

B. Forobiy

V. Zamaxshariy

G. at-Termiziy

56. «Al-Jomeʼ as Soxix» (Ishonchli toʻplam) asari muallifi kim?

A. Imom Buxoriy

B. Imom at-Termiziy
V. Muslim ibn al-Xattot
G. Yusuf Xamadoniy

57. Axmad Farg‘oniyning 1200 yilligi nechanchi yili nishonlandi?

A. 1997- y
B. 1998 -y
V. 2000- y
G. 2001 -y

58. Oxirgi chingiziy Qozonxon o‘limidan so‘ng Movaraunnahrdagi hokimiyat kimning qo‘liga o‘tdi?

A. Hokimiyat Alguxonga o‘tdi
B. Hokimiyat Kaydu qo‘liga o‘tdi
V. Hokimiyat Xulagu qo‘liga o‘tdi
G. Hokimiyat Kazagan qo‘liga o‘tdi

59. 1360-1361 - yillarda Movaraunnahrning ichki hayotiga rahna solishga uringan Tu g‘luq Temur kim edi?

A. Oltin O‘rda xoni
B. Mo‘g‘uliston hukmdori
V. Xuroson hokimi
G. Eron shohi

60. 1360-1370- yillarda Movaraunnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda ta’sir o‘tkazgan shaxslardan birini aniqlang?

A. Tug‘luq Temur
B. Amir Husayn
V. Temur Malik
G. Nodirshoh

61. 1365 yil bahorida ro‘y bergan va tarixga «Loy jangi» nomi bilan kirgan jang qaerda bo‘lgan?

A. Chinoz bilan Toshkent orasida
B. Chinoz bilan Turkiston orasida
V. Chinoz bilan Yallama orasida
G. Chinoz bilan YAangier orasida

62. Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida ijtimoiy- siyosiy harakat sifatida qaerda paydo bo‘lgan?

A. Samarqandda
B. Eronda
V. Iroqda
G. Misrda

63. Amir Temur Ozarbayjon Tabriz, Mozandaron, G‘ilonni necha yillik urushlari davrida bo‘ysundirgan?

A. «uch yillik»
B. «besh yillik»
V. «ettinchi yillik»
G. «bir yillik»

64. Amir Temur vafotidan keyingi ichki urushlardan so'ng Temur davlatini asosiy qismini birlashtirgan hukmdorni aniqlang?

- A. Ulug'bek
- B. Xalil Sulton
- V. Shohrux
- G. Husayn Boyqaro

65. Movaraunnahrning «Yagona va qonuniy sultoni» sifatida hokimiyatni boshqargan-bu...

- A. Mironshoh
- B. Amir Temur
- V. Shohrux
- G. Ulug'bek

66. 1425- yilda Ulug'bekning asosiy kuchlari mo'g'ullarni qacda tor-mor keltiradi?

- A. O'zganda
- B. Issiq ko'l yaqinda
- V. Xorazmda
- G. Farg'onada

67. 1428 yilgi pul islohoti kim tomonidan amalga oshirilgan?

- A. Amir Temurning
- B. Boysinqur-mirzoning
- V. Ulug'bekning
- G. Shohruhning

68. Alouddavla va Abulqosim Bobur kimning farzandlari?

- A. Amir Temurning
- B. Boysinqur-mirzoning
- V. Ulug'bekning
- G. Shohruhning

69. «Temuriylar saltanatining yorqin gavhari» Mirzo Ulug'bek xukmronligi qachon o'z poyoniga etdi?

- A. 1449- yilda
- B. 1450- yilda
- V. 1448- yilda
- G. 1445- yilda

70. 1451-1469 -yillarda hukmronlik qilgan temuriy shaxzodani aniqlang?

- A. Ulu g'bek
- B. Mironshoh
- V. Husayn Boyqaro
- G. Abu Said Mirzo

71. 1438-1506- yillarda yashagan temuriyzoda kim?

- A. Alisher Navoiy
- B. Mironshoh
- V. Husayn Boyqaro
- G. Abu Said Mirzo

72. Temuriylar davrida qaysi shaharlar ilm-fan markazlariga aylandi?

- A. Samarqand, Qarshi
- B. Samarqand, Buxoro
- V. Samarqand, Farg‘ona
- G. Samarqand, Hiroʻt

73. O‘z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan shaxsni aniqlang?

- A. Ulug‘bek
- B. Qozizoda Rumi
- V. Xo‘ja Ahror
- G. Husayn Boyqaro

74. 1420 yilda Samarqand madrasasi ochilganda ilk ma‘ruzani Mavlono Havofiy o‘qiganligi haqida kim yozib qoldirgan?

- A. Ulu g‘bek
- B. Zayniddin Vosifiy
- V. Koshiy
- G. Jamshid

75. «Sharq Rafaeli» nomini olgan kim?

- A. Muniy
- B. Behzod
- V. Darvish Ali
- G. Ubaydulla Sulton

76. Mang‘itlar sulolasining asoschisi kim?

- A. Amir Shoxmurod
- B. Muxammad Raximboy
- V. Ubaydulla Sulton
- G. Doniyolbiy

77. Shayboniylar davrida kuchli markazlashgan davlatga asos solgan hukmdorni aniqlang

- A. Pirmuxammad
- B. Iskandarxon
- V. Abdullaxon II
- G. Abulfayzxon

78. Xonliklarda er egaligining qanday turlari mavjud edi?

- A. Davlat erlari, xususiy erlar, vaqf erlar
- B. Davlat erlari, xarbiy xizmat erlari, vaqf erlari
- V. Davlat erlari, xususiy erlar, jogir
- G. Davlat erlari, vaqf erlar, mulki inju

79. Qo‘qon xonligida minglar sulolasi nechanchi yillar xukmronlik qilingan?

- A. 1710-1876- yilgacha
- B. 1710-1874 - yilgacha
- V. 1710-1756 - yilgacha
- G. 1711-1876 - yilgacha

80. Buxoroda amir Xaydar xukmronligi davrida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlardan birini aniqlang

- A. Miyonqal’a qo‘zg‘oloni

B. Shaxrisabz qo'zg'oloni

V. Kitob qo'zg'oloni

G. Buxorodagi qo'zg'olon

81. Buxorodagi Ernazar elchi madrasasi nechanchi yilda qurilgan?

A. 1795- yilda

B. 1807 -yilda

V. 1796- yilda

G. 1794- yilda

82. Davlat arbobi va olim sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan Xiva xoni kim?

A. Isfandiyor

B. Imomqulixon

V. Arab Muxammadxon

G. Abul g'ozixon

83. Turkmanlar yordamida taxtga chiqqan Xiva xonini toping.

A. Asfandiyor

B. Abulg'ozixon

V. Elbarsxon

G. Anushaxon

84. Qaysi Buxoro xoni tomonidan Shoxniyoz Xiva taxtiga noiblikka tayinlangan?

A. Amir Shoxmurod

B. Muxammad Raximboy

V. Subxonqulixon

G. Amir Nasrullo

85. Xivani Rossiya tarkibiga qo'shib olishni so'ragan hukmdorni aniqlang?

A. Sherg'ozixon

B. Elbarsxon

V. Arab Muxammadxon

G. Shoxniyoz

86. 1804-1806- yillarda hukmronlik qilgan Xiva xonini aniqlang?

A. Muxammad Amin Inoq

B. Avaz Inoq

V. Eltuzar Inoq

G. Olloqulixon

87. Xorazm tarixnavislik maktabini boshlab bergan Xiva xonini aniqlang?

A. Abulg'ozixon

B. Olloqulixon

V. Muxammad Raximxon

G. Muxammad Aminxon

88. 1818-yilda «Amir ul-muslimin» unvonini olgan Qo'qon xoni kim?

A. Erdonabiy

B. Abdukarimbiy

V. Amir Umarxon

G. Muxammad Alixon

89. Amir Umarxon hukmronlik qilgan yillarni aniqlang?

A. 1810-1822- y

B. 1822-1842- y

V. 1811-1822- y

G. 1800-1810 -y

90. Qo‘qon xonligida kimning davrida adabiy muhit yuzaga keldi?

A. Muxammad Alixon

B. Olimxon

V. Erdonabiy

G. Umarxon

91. Muxammad Alixon xukmronligi davrida bosib olingan viloyatlarni aniqlang?

A. Chimkent, Turkiston

B. Qorategin, Ko‘lob, Darvoz

V. Chust, Namangan

G. Qorategin, Chust, Kulob

92. Nechanchi yilda Amir Nasrullo Qo‘qon xonligini o‘ziga bo‘ysundirgan?

A. 1840- y

B. 1841- y

V. 1842- y

G. 1843 -y

93. «Tarixi Turkiston» asarining muallifini aniqlang.

A. Muxammad Soliq Toshkandiy

B. Shavqiy

V. Junaydullo- xoja Ibrat

G. Tarixi Aziziy

94. «Majmuat ush-shuaro» tazkirasini tuzgan shaxslarni aniqlang?

A. G‘oziy, Sodiq

B. Fazliy, Mushrif

V. Gulxaniy, Xuvaydo

G. Sodiq, Xotif

95. XVII asr oxirlariga kelib Xiva xonligida qaysi urug‘ning mavqei oshdi?

A. Mang‘it

B. Yuz

V. Qo‘ng‘irot

G. Ming

96. Xivada qo‘ng‘irotlar hukmronligi nechanchi yilgacha davom etgan?

A. 1920 -y

B. 1921- y

V. 1922- y

G. 1923- y

97. Mang‘itlar sulolasi hukmronligiga kim asos solgan?

A. Amir Shoxmurod

B. Doniyolbiy

V. Muxammad Rahimbiy

G. Abdulmo‘min

98. XIX asrda qaysi davlatlarning manfaatlari O‘rta Osiyo masalasida to‘qnash keldi?

A. Germaniya va Rossiya

B. Angliya va Rossiya

V. Fransiya va Rossiya

G. AQSh va Rossiya

99. O'rta Osiyoga Petr 1 tomonidan yuborilgan harbiy ekspeditsiyani ko'rsating?

A. A.Byorns missiyasi

B. Djenkinson missiyasi

V. G.A.Perovskiy missiyasi

G. A.Bekovich Cherkasskiy missiyasi

100. 1865 - yilda Toshkentni qamal qilishda rus qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan shaxsni ko'rsating?

A. Perovskiy

B. Krijanovskiy

V. Chernyaev

G. Romanovskiy

101. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingan sanani ko'rsating?

A. 1865- yilda

B. 1867- yilda

V. 1866- yilda

G. 1868 -yilda

102. Quyidagilardan Turkiston general-gubernator bo'lmagan shaxsni aniqlang?

A. Rozenbak

B. Chernyaev

V. Vrevskiy

G. Kuropatkin

103. Xiva va Buxoroni chor Rossiyasi bosib olgandan so'ng ularning mustamlakachilik maqomi qanaqa edi?

A. Protektorat

B. Dominion

V. Sattelit

G. Metropoliya

104. Chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligi bo'ysundirilgan sanani aniqlang?

A. 1860 -yilda

B. 1870- yilda

V. 1881 -yilda

G. 1868 -yilda

105. Nechanchi yilda Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan?

A. 1870- yilda

B. 1871- yilda

V. 1873- yilda

G. 1875 -yilda

106. 1884 -yildan Turkistonda etishtirila boshlangan yangi paxta navini ko'rsating?

- A. Paxtaning german navi
- B. Paxtaning ingliz navi
- V. Paxtaning misr navi
- G. Paxtaning amerika navi

107. 1877 -yilda Toshkentda tuzilgan mustamlakachilik boshqaruv tizimiga oid organi aniqlang?

- A. Toshkent umumdavlat kengashi
- B. Toshkent shahar dumasi
- V. Toshkent yer qo'mitasi
- G. Toshkent yuridik qo'mitasi

108. O'rta Osiyodagi birinchi temir yo'l –bu....

- A. Ashxobod temir yo'li
- B. Andijon temir yo'li
- V. Kaspiyorti temir yo'li
- G. Chimkent temir yo'li

109. Turkiston o'lkasidagi asosiy paxta etishtiruvchi hududini aniqlang

- A. Xiva xonligi
- B. Buxoro amirligi
- V. Farg'ona vodiysi
- G. Isfara bekligi

110. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan yollanma ishchilar va ersiz dehqonlar qanday nomlangan?

- A. Chorikorlar
- B. Yarimchilar
- V. Dehqonlar
- G. Mardikorlar

111. 1892 - yilda Toshkentda bo'lib o'tgan yirik xalq qo'zg'olonini ko'rsating?

- A. «Non isyoni»
- B. «Qonli isyon»
- V. «Vabo isyoni»
- G. «Paxta isyoni»

112. XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida bo'lib o'tgan mustamlakachilika qarshi eng yirik qo'zg'olonni ko'rsating?

- A. Jizzax qo'zg'oloni
- B. Buxoro qo'zg'oloni
- V. Chimkent qo'zg'oloni
- G. Andijon qo'zg'oloni

113. 1916 - yilgi xalq harakatining yirik markazlaridan birini aniqlang

- A. Andijon qo'zg'oloni
- B. Jizzax qo'zg'oloni
- V. Urganch qo'zg'oloni
- G. Buxoro qo'zg'oloni

114. «Jadid» so'zining arab tilidan tarjimasini aniqlang

- A. Eski ma'nosini bildiradi
 - B. Nozik ma'nosini bildiradi
 - V. Yangi ma'nosini bildiradi
 - G. Yuksak ma'nosini bildiradi
- 115. Jadidchilik deb tarixda nom olgan ma'naviy-ma'rifiy harakat asoschisi...**
- A. Ahmad zaki Validi
 - B. Dukchi eshon
 - V. Ismoil Gaspirali
 - G. Nomoz Pirimqulov
- 116. Yangi usul maktablarda jadidlar tomonidan qo'llanilgan o'qitishning progressiv usuli...**
- A. «Tovush usul»
 - B. «O'yin usuli»
 - V. «Yodlash usuli»
 - G. «Chuqurlashtirish usuli»
- 115. Jadid g'oyalari targ'ibotining eng samarali usul....**
- A. Ro'znomalar va oynomalar bo'lgan
 - B. Kitoblar bo'lgan
 - V. Inqilobiy kurash bo'lgan
 - G. Teatr bo'lgan
- 116. Toshkent jadidlaridan kim 1918- yil apreldagi Turkiston Universitetini asoschisi hisoblanadi?**
- A. Abdurauf Fitrat
 - B. Hamza Hakimzoda Niyoziy
 - V. Maxmudxo'ja Bexbudiy
 - G. Munavvar Qori
- 117. 1917 - yil fevral oyida Rossiyada yuz bergan inqilob ta'siri ostida Turkistonda tuzilgan jadidlarning birinchi partiyasini aniqlang**
- A. Milliy markaz
 - B. «Sho'roi Ulamo»
 - V. «Musulmon lar ittifoqi»
 - G. «Sho'roi Islom»
- 118. Buxoro va Xiva jadidlar qanday nomlangan?**
- A. Buxoro va Xiva patriotlari
 - B. Buxoro va Xeva xaloskorlari
 - V. Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar
 - G. Buxoro va Xivani do'stlari
- 119. Milliy g'oya va milliy ong shakllanishida jadidlar fikri bo'yicha qaysi fan eng muhim ahamiyatga ega edi?**
- A. Tarix
 - B. Adabiyot
 - V. Geografiya
 - G. Matematika
- 120. Samarqandda 1908 - yilda Mirzo Ulug'bek rasadxonasi xarobalarini topgan Rus sharqshunos olimini aniqlang?**

A. N.I.Veselovskiy

B. N.G.Maletskiy

V. V.P.Vyatkin

G. V.V.Bartold

122. 1917 - yilning yozida Turkistonda paydo bo'lgan musulmonlarning birinchi siyosiy partiyasi nomini aniqlang?

A. Turkiston federalistlar partiyasi

B. Musulmonlar ittifoqi

V. «Sho'roi Islom»

G. «Sho'roi Ulomo».

123. Toshkentda bolsheviklar qurolli qo'zg'oloni g'alaba qozongan sanani aniqlang?

A. 1917 - yil 26 - oktyabr

B. 1917 - yil 27 - oktyabr

V. 1917 - yil 1 - noyabrda

G. 1917 – yil – 2 - noyabr

124. Bolsheviklarga nisbatan ulamochilar munosabati qanaqa bo'ldi?

A. Hamkorlik

B. Sho'rolar hukumati musulmonlarni kirishiga qarshilik qilish

V. Bolshevik lar bilan birga koalitsion hukumatni tuzish

G. Musulmon lar 80% o'rin egallaydi gan hukumatni tuzish

125. Qachon va qaerda Turkiston musulmonlari VI Favqulodda qurultoyi o'z ishini boshladi?

A. 1917 - yil 26 - noyabr, Qo'qonda

B. 1917 - yil 10 - noyabr, Toshkentda

V. 1917 - yil 16 - noyabr, Samarqandda

G. 1917 - yil 20 - noyabr Termizda

126. Turkiston musulmonlari VI qurultoyining muhim qarorini aniqlang

A. Turkistonni Rossiya Federativ demokratik Respublika tarkibida hududiy muxtoriyat deb e'lon qildi

B. Turkistonga Eron tarkibiga kirgan davlat maqomini berdi

V. Turkistonga Turkiya tarkibiga kirgan davlat maqomini berdi

G. TurkistonRossiyadanajralibmustaqildavlatmaqominiberdi

127. Kimlar birinchi bo'lib qo'llariga qurol olib Sovet hokimiyatiga qarshi kurash boshladilar?

A. Turkiston Muxtoriyati milliy armiyasining qismlari

B. Andijon dehqonlari

V. Farg'ona hunarmand va dehqonlari

G. Toshkentdagi hunarmandlar

128. Qo'zg'olonchilar tomonidan 1919- yilning bahoriga kelib nazorat qilib turilgan hududni aniqlang?

A. Farg'ona vodiysi

B. Toshkent viloyati

V. Surxondaryo viloyati

G. Qashqadaryo viloyati

129. Buxoro amirligi tugatilgan sanani aniqlang?

A. 1919 - yil 20- sentyabr

B. 1925- yil 2- noyabr

V. 1918- yil 4- fevral

G. 1920 - yil 2- sentyabr

130. Buxoro Xalq Respublikasi Nozirlar Kengashining birinchi raisini aniqlang?

A. Fayzulla Xo‘jaev

B. Polvonniyoz-xoji Yusupov

V. Fitrat

G. Mustafo Cho‘qae

131. "O‘n sakkizlar guruhi" qanday talablarni ko‘tarib chiqqanligi uchun ayblandi?

A. Boy-quloq deb nom olgan o‘ziga to‘q xo‘jaliklarning belgilanganidan ortiqcha mol-mulkini tortib olmaslik

B. "Quloq" deb asossiz ayblanganlarni saylov huquqidan mahrum qilmaslik

V. O‘zbek ayollarini ozodlikka chiqarishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik

G. To‘q xo‘jaliklarning belgilanganidan ortiqcha mol-mulkini o‘zida qoldirish

132. 30-yillarda din va ruhoniylarga qarshi kurashish uchun qanday tashkilot tuzilgan?

A. Kurashchan xudosizlar

B. Xudosizlar jamiyati

V. Din- xurofot

G. Ziyolilarning ijodiy uyushmasi

133. XX asrning 20-yillarida O‘zbekiston Respublikasi milliy daromadining asosiy qismini...

A. Hunarmandchilik berar edi

B. Qishloq xo‘jaligi berar edi

V. Xususiy sektor berar edi

G. Sanoat berar edi

134. XX asr 20-yillarining boshlarida bozorlarning tiklanishida muhim rol o‘ynagan omillardan birini aniqlang

A. Sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi

B. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi

V. Muomalaga qiymati oltinga tenglashtirilgan pullarning kiritilishi

G. Shahar bilan qishloq o‘rtasida mol ayirboshlashning o‘sishi

135. 20-yillarning boshlarida tashkil etilgan «Qo‘shchi» uyushmalari o‘z tarkibiga kimlarni birlashtirgan?

A. O‘rta hol va kambag‘al dehqonlarni

B. Ersiz, kam erli rus dehqonlarini

V. Ersiz, kam erli rus va mahalliy dehqonlarni

G. Ersiz va kam erli mahalliy dehqonlarni

136. Qachon Turkistonda paxtaga davlat monopoliyasi o‘rnatildi?

A. 1921- yil

B. 1922- yil

V. 1924- yil

G. 1926 -yil

137. O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga e‘tibor kuchayishi qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?

A. O‘zbekiston dunyoda eng ko‘p paxta etkazib beradigan respublikaga aylandi

B. Chorvachilik inqirozga uchradi, g‘alla tayyorlash kamaydi

V. Don, poliz ekinlarining hosildorligi oshdi

G. Dehkonlar-ning turmush sharoiti tez yaxshilanib bordi

138. Mahalliy milliy arboblardan bo‘lgan Nazir To‘raqulov yashagan yillarni aniqlang?

A. 1892-1937- yy

B. 1892-1939- yy

V. 1890-1939 -yy

G. 1894-1939- yy

139. Mahalliy-milliy davlat arboblardan bo‘lgan Inomjon Xidiraliyev yashagan yillarni aniqlang?

A. 1891-1928- yy

B. 1891-1938- yy

V. 1890-1928- yy

G. 1889-1929- yy

140. Fayzulla Xo‘jayev qaysi yillarda BXSr Nozirlar Kengashi raisi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan?

A. 1920-1924- yy

B. 1924-1925- yy

V. 1921-1924- yy

G. 1920-1925- yy

141. O‘zSSR tuzilganligi qachon va qayerda e‘lon qilindi?

A. 1925 -yil 13- yanvarda Sovetlarning Buxoroda ochilgan 1-umumo‘zbek quriltoyida

B. 1925 -yil 13 - martda Sovetlarning Toshkentda ochilgan 1-umumo‘zbek quriltoyida

V. 1925 - yil 13- fevralda Sovetlarning Samarqandda ochilgan 1-umumo‘zbek 1- quriltoyida

G. 1925 - yil fevralda Sovetlarning Buxoroda ochilgan 1-umumo‘zbek quriltoyida

142. 1930 - yilda Qoraqalpog‘ muxtor viloyati...

A. RSFSR tarkibiga kirdi

B. Qozog‘iston Respublikasi tarkibiga kiritildi

V. O‘zbekiston SSR tarkibiga kirdi

G. Avtonom Respublika maqomini oldi

143. Qoraqalpog‘iston ASSR qachon O‘zSSR tarkibiga kiritildi?

A. 1930 - yil

B. 1932 - yil

V. 1935 - yil

G. 1936 - yil

144. O‘zbekistonning ishlab chiqarishida...

A. Fabrika-zavod ishlab chiqarishi etakchilik qilgan

B. Manufaktura ishlab chiqarishi etakchilik qilgan

V. Kustar-hunarmandchilik ishlab chiqarishi etakchilik qilgan

G. Konchilik sanoati etakchilik qilgan

145. O‘zbekistonning iqtisodiyoti...

A. Industrial xarakterga ega edi

B. Agrar xarakterga ega edi

V. Agrar- industrial xarakterga ega edi

G. Industrial -agrar xarakterga ega edi

146. 1927-1928 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining xissasi qancha foizga to‘g‘ri kelar edi?

A. 60,6%

B. 61,0%

V. 61,9%

G. 61,6%

147. 1932 -yilga kelib O‘zbekistonda GESlar soni nechtaga etgan?

A. 45 taga

B. 47 taga

V. 50 taga

G. 49 taga

148. Qaysi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda O‘zbekiston urushgacha bo‘lgan davrda Ittifoqda etakchi o‘ringa ko‘tarildi?

A. Paxta tolasi, sement, o‘simlik moyi, xom ipak

B. Paxta tolasi, o‘simlik moyi, oltin, volfram

V. Paxta tolasi, xom ipak, sement, mis

G. Paxta tolasi, oltin, mis, ohak

149. 1925- yil 2- dekabrda O‘zSSR MIQning favqulodda sessiyasi tomonidan qabul qilingan dekretni aniqlang

A. O‘zSSRning tashkil etilganligi to‘g‘risidagi dekret

B. «Yer va suvni natsionalizatsiya qilish» to‘g‘risidagi dekret

V. Xalq xo‘jaligini sanoatlashtirish to‘g‘risidagi dekret

G. Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish to‘g‘risidagi dekret

150. 1930-1933 yillarda O‘zbekistonda quloq qilingan dehqon xo‘jaliklari sonini aniqlang

A. 5550 ta

B. 5650 ta

V. 5555 ta

G. 5450 ta

151. O‘zbekistondan quloq qilinganlar qaysi hududlarga surgun qilindi?

A. Boltiqbo‘yi, Sibir, Qozog‘iston

B. Ural, Sibir, Kavkazorti

V. Ukraina, Sibir, Qozog‘iston

G. Belorussiya, Ukraina, Ural

152. O‘zbekistonda II jahon urushi arafasida umumxalq hashari yo‘li bilan barpo etilgan qurilishni aniqlang?

A. Farxod GES i

B. Katta Farg‘ona kanali

V. Boʻzsuv GESlar kaskadi

G. Shirin shahri

153. Sharq ayollarini “ozodlik” ka chiqarish uchun 1927 yilda boshlangan harakat qanday nomlangan?

A. “Hujum”

B. “Paranji tashlash”

V. “Ozodlik”

G. “Sharq ayoli”

154. Arab imlosidagi oʻzbek yozuvi lotin yozuviga almashtirilgan sanani aniqlang?

A. 1926 -yil

B. 1927- yil

V. 1928- yil

G. 1929- yil

155. Abdurauf Fitrat yashagan yillarni aniqlang

A. 1886-1936- yy

B. 1886-1938 -yy

V. 1988-1938 -yy

G. 1890-1936 -yy

156. Urushning dastlabki davrida Oʻzbekistonga evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalar soni qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A. 109 ta

B. 104 ta

V. 250 ta

G. 135 ta

157. 1942- yili Janubi-gʻarbiy frontda nemis fashizmiga qarshi kurashda koʻrsatgan mardlik va jasorati uchun quydagi vatandoshlarimizdan qaysi biriga qahramoni unvoni berildi?

A. Sobir Rahimov

B. Qoʻchqor Turdiev

V. Mamadali Topiboldiev

G. Shuhrat Joʻraev

158. Oʻzbek rejissyorlari tamonidan suratgan olingan quydagi kino asarlardan qaysi biri Ikkinchi jahon urushi davriga mansub emas?

A. “Nasriddin Buxoroda,”

B. ”Ikki jangchi”

V. “Tohir va Zuhra”

G. “General Raximov”

159. Oʻzbekistonga koʻchirilgan zavodlardan qaysi biri bu erga etib kelganidan keyin oradan 29 kunda oʻtganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi?

A. Podʻyomnik”

B. “Qizil Oqsoy”

V. “Rosselmash”

G. Toshkent traktor zavodi

160. Oryol-Kursk jangidagi jasoratlari qaysi o'zbekistonlik jangchilarning nomlarini o'chmas shon-shuhratga burkadi?

A. A.Shukurov, V.Shadanden., M.Abdulin, A.Salihov

B. K.Do'smatov, X.Shoniyozov, X.Aminov

V. E.Dudkin, X.Tursunov, J.Otaboev, H. Salihov

G. E.Payziev, X.Tursunov, J.Otaboev, V.Nazarov

161. O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi qachon tashkil topdi?

A. 1943- yil noyabrda

B. 1965- yil aprelda

V. 1944- yil martida

G. 1918 -yil may oyida

162. Dneprni daryosini kechib o'tishda kursatgan jasoratlari uchun qahramon unvoniga sazovor bo'lgan o'zbekistonliklar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. A.Shukurov, V.Shadanden., M.Abdulin, A.Salihov

B. K.Do'smatov, X.Shoniyozov, X.Aminov

V. E.Dudkin, X.Tursunov, J.Otaboev, H. Salihov

G. E.Payziev, X.Tursunov, J.Otaboev, V.Nazarov

163. Urush arafasida ya'ni, 1941 yili O'zbekiston aholisi sonini ko'rsating?

A. 6,5 mln

B. 7mln

V. 14 mln

G. 5mln.ga yaqin

164. Belorussiya partizanlarining qahramonona harakati yilnomasiga o'zbekistonlik qahramonlardan kimlarning nomlari bitildi?

A. G. Sultonov, T.Islomov, J.Otaboyev, M.Topiboldiyev

B. E.Dudkin, X.Tursunov, J.Otaboyev, O'.Islomov

V. E.Dudkin, X.Tursunov, J.Otaboyev, O'. Sultonov

G. E.Payziyev, X.Tursunov, J.Otaboyev, V.Nazarov.

165. O'zbek xalqining qaysi jasur o'g'loni belorus partizanlari orasida haqli ravishda orbo'-e'tibor qozongan?

A. M.Topiboldiyev

B. T.Islomov

V. X.Tursunov

G. X.Samadov

166. Urushning daslabki davridayoq O'zbekistonda mehnatga yaroqli aholining necha foizi frontga safarbar qilindi?

A. 25-30%

B. 40-42%

V. 60-70%

G. 35-40%

167. Chet mamlakatlarga mahsulot chiqarishda O'zbekiston sobiq Ittifoqning qaysi respublikalaridan keyinda turgan?

A. RSFSR, Belorusiya

B. Ukraina, Qozog'iston

V. RSFSR, Ukraina

G. Ukraina, Turkmanis ton

168. 1961- yil qaysi Oliy o'quv yurti qoshida chet ellik fuqorolar uchun tayyorlov bo'limi ochilgan?

A. Samarqand Davlat universiteti

B. Toshkent Davlat pedagogika universiteti

V. Toshkent politexnika universiteti

G. Toshkent Davlat universiteti

169. Qurilishida o'zbekistonlik mutaxassislar ishtirok etgan Asvon va Xelvan suv inshootlari qaysi mamlakatda joylashgan?

A. Suriya

B. Iroq

V. Misr

G. Eron

170. 1985- yilga kelib respublikada oliy o'quv yurtlari soni qancha bo'lganligini aniqlang?

A. 35 ta

B. 56 ta

V. 45 ta

G. 42 ta

171. Yadro fizikasi ilmiy tadqiqot instituti qaysi yillarda qurib bitkazilgan?

A. 1956-58 yy

B. 1965-67 yy

V. 1983-85 yy

G. 1974-76 yy

172. Yadro fizikasi ilmiy tadqiqot institutining birinchi direktori bo'lgan shaxsni aniqlang.

A. Qori Niyoziy

B. Ibrohim Mo'minov

V. Ubay Orifov

G. Habib Abdullayev

173. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini qoloqlikga olib kelgan sababini aniqlang

A. Chorvachilikka e'tiborning kuchayishi

B. Aholiga tomorqalar-ning ko'p miqdorda ajratilishi

V. Paxta yakka-hokimligining kuchayishi

G. Qishloq aholisida iste'mol darajasining pastligi

174. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» yuzasidan tergov jarayonlari kimlar tomonidan olib borilgan?

A. Andropov, Yanayev

B. Anshchev, Ogorok

V. Gdlyan, Ivanov

G. Chernenko, Satin

175. 1989- yil respublika rahbarligiga saylangan shaxsni aniqlang

A. R.Nishonov

B. S.Usmonxo'jayev

V. A. Ikromov

G. I. Karimov

176. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi 1990- yilning 24 martida...

A. Ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda prezidentlik lavozimini joriy etdi

B. O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ni qabul qildi

V. O‘zbekiston mustaqillikka erishganligini e‘lon qildi

G. O‘zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi

177. O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning mazmuniga ko‘ra...

A. har millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi mumkin, lekin “markaz”ning ruxsati bilan

B. har millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi mumkin, bunga deklaratsiya kafolat beradi

V. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo‘lib, undagi qoidalar yakka shaxs ijrosi bilan bog‘liq

G. Hech bir bandda Deklaratsiyaning mazmuni to‘g‘ri ko‘rsatilma gan

178. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi mualliflari to‘g‘ri ko‘rsatilganqatorni aniqlang

A. Mutal Burxonov, Xurshid Davron

B. Abdulla Oripov, Ilyos Muslim

V. Shermat Yormatov, Erkin Vohidov

G. Abdulla Oripov, Mutal Burxonov

179. Qaysi horijiy davlat birinchi bo‘lib O‘zbekistonda o‘zining elchixonasini ochdi?

A. Rossiya

B. AQSh

V. Turkiya

G. Hindiston

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Т.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Т.: O'zbekiston, 2011.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. -56 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -48 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -104 б.
7. 8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - 488 б.
9. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.
10. Мирзиёев Ш.М. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи
11. Мирзиёев Ш.М. “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги сўзлаган нутқи.
12. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз I. Тошкент:, Ўзбекистон. 2017.
13. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.:Ўзбекистон, 2017.
14. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи: (IV асрдан XVI аср бошларигача). – Т.: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004.
15. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Т.: «Iqtisod-Moliya»,2006.
16. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. – Т.: Нур, 1992.
17. Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Т.: Нур, 1992.
18. Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти).-Т.: Ёзувчи, 1996.
19. Аъзамхўжаев С.Туркистон мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000.
20. Де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги // Санъат, 1989, 9-сон.
21. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Т. : Шарқ, 2001.
22. Маҳкам Асқар. Авесто. – Т.: Шарқ, 2001.
23. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари: (1865-1990 йиллар). – Т.: Шарқ, 2000.
24. Нурмухамедов Ҳ. Жалолиддин Мангуберди. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.

25. Очерки по истории государственности Узбекистана. – Т.: Шарқ, 2001.
26. Ражабов Қ.К. Мадаминбек . – Т.: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.
27. Темур тузуклари. – Т.: O`zbekiston, 2013.
28. Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. – Т.: Чўлпон, 1995.
29. Фозилбек.Отабек . Дукчи эшон фожеаси. – Т.: Чўлпон, 1992.
30. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001.
31. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. I – жилд.– Тошкент, 2013.
32. Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни). Р.Х. Муртазаева ва б. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.
33. O`zbekiston tarixi (OO`Yu nomutaxas. fakultetlari talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayeva va b. –Т.: «Universitet», 2005.
34. O`zbekiston tarixi.S. Xolboyev va b. – Т.: Universitet, 2005.
35. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2015.
36. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик .– Т.:Маънавият, 2002
37. Холиқова Р.Э. Бухоро –Россия тарих чорраҳасида. –Тошкент: O` qituvchi, 2005.

Elektron ta`lim resurslari:

1. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
2. www.lex.uz– Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. “Халқ сўзи” газетаси – [www info XS. Uz](http://www.infoXS.Uz).
4. “Туркистон” газетаси – [www turkiston sarkor. uz](http://www.turkiston.sarkor.uz).
5. “Маърифат” журнали – [www ma`rifat – inform](http://www.ma`rifat-inform).
6. “Жамият ва бошқарув” журнали – [www rzult academy freenet uz](http://www.rzult.academy.freenet.uz).
7. “Мозийдан садо” журнали – [www moziy dostlink. Net](http://www.moziy.dostlink.Net).
8. [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.....	
I.1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy metodologik asoslari va uni o‘rganishning manbalari.....	5
I.2. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish va uning o‘rganishning manbalari	7
I.3. Har tomonlama etuk insonni tarbiyalashda Vatan tarixining o‘rni va ahamiyati.....	11
II bob. Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.....	
II.1. Fanda insoniyatning paydo bo‘lishi masalasi. O‘zbekiston odamzod paydo bo‘lgan hududlardan biri.....	14
II.2. O‘zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzumining tarixiy davrlari va ularning asosiy xususiyatlari. O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining o‘choqlaridan biri.....	21
II.3. Dastlabki sivilizatsiyaning ma’naviy asoslari. «Avesto» qadimiy tarixiy manba.....	25
III BOB. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINI SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI	
III.1. Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo‘lishining asosiy omillari.	30
III.2. Vatanimiz hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	33
III.3. Mamlakatimiz hududida antic davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi	38
III.4. Savdo yo‘llarining mamlakatlararo siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy va diniy aloqalarni ta’minlashdagi o‘rni.....	62
IV bob. Ilk o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot	
IV.1. Vatanimiz hududlarida ilk feodal davlatlarning vujudga kelishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti (Kidariylar, Xioniylar, Eftaliylar).	72
IV.2. Turk hoqonligining vujudga kelishi. Turk hoqonligi davrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	75
IV.3. Arablar istilosi va hukmronligi davrida O‘rta Osiyo	78
V bob. IX – XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi	
V.1. IX- XII asrlarda yuz bergan ilk uyg‘onish (renessans) davrining yuzaga kelishigata’sir ko‘rsatgan tarixiy shart- sharoitlar va omillar.....	86
V.2. IX asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat. Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy hayot.....	86
V.3. Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Ma’muniy Xorazmshohlar va Saljuqiylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvol	89
V.4. Anushtegin Xorazmshohlari davlatining tashkil topishi. Xorazmshohlar	

davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot.....	92
V.5. IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqini ta'minlagan O'rta Osiyolik buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.....	93
V.6. O'rta Osiyolik allomalarning islomshunoslik va islom madaniyati rivojida tutgan o'rni. IX- XII asrlarda badiiy adabiyot va moddiy madaniyat ravnaqi	100
VI bob. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi	
VI.1. Mo'g'ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi vaziyat. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatlar.	110
VI.2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari, unga qarshi kurash (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro) va uning fojiali oqibatlari haqida.....	
VII bob. Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot	
VII.1. XIV asrning o'rtalarida Movaraunnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur davlatining tashkil topishi va uning harbiy yurishlari.....	131
VII.2. Amir Temur davlatining boshqaruv tizimi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti	134
VII.3. Temuriylar davrida ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy hayot.....	139
VII.4. Temuriylar davrida ilm-fan, moddiy va ma'naviy madaniyat ravnaqi. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati.....	142
VIII bob. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari	
VIII.1. XV asr oxiri - XVI asrning boshlarida Movarunnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shayboniylar, Ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayot.....	149
VIII.2. Xiva xonligining vujudga kelishi. Xonlikdagi ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	168
VIII.3. Qo'qon xonligining tashkil topishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	173
IX bob. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik.....	
IX.1. XIX asrning o'rtalarida Turkiston xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining sabablari, maqsadlari va oqibatlari.....	180
IX.2. Turkistonda mustamlakachilik boshqaruvi tizimining o'rnatilishi, chorizmning o'lkada yuritgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati.....	184
IX.3. Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati, uning bosqichlari, xususiyatlari va ahamiyati.....	205
IX.4. Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi, uning mohiyati,	

maqsadlari, xususiyatlari va atoqli vakillari.....	212
X bob. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining oʻrnatilishi. Sovet hokimiyatining Oʻzbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)	
X.1. Oktyabr toʻntarishi. Turkistonda shoʻro tuzumining oʻrnatilishi, bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati, Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning faoliyati.....	222
X.2. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va uning tarixiy ahamiyati, Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining tuzilishi va ulardagi ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar.....	224
X.3. Sovet tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va uning oqibatlari. Sovet tuzumi davrida Oʻzbekistonning maʼnaviy-madaniy qaramligi. Sovet davlatining qatagʻon siyosati va uning bosqichlari.....	231
X.4. Ikkinchi jahon urushi yillarida oʻzbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan gʻalabaga qoʻshgan hissasi.....	237
X.5. Sovet davlatida maʼmuriy-buyruqbozlik tizimining kuchayishi va inqirozi davrida Oʻzbekiston (1946-1989 yy.).....	242
XI bob. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish yoʻlida	
XI .1. XX asr 80-oxiri va 90 yillarning boshlarida Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan oʻzgarishlar.....	250
XI .2. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va Mustaqillik deklarasiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati.....	253
XI .3. Oʻzbekistonning mustaqillik sari yoʻl tutishi.....	257
XII bob. Oʻzbekistonda davlat mustaqilligining qoʻlga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi	
XII.1. Oʻzbekistonda davlat mustaqilligining qoʻlga kiritilishi.....	264
XII.2. Oʻzbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy demokratik tizimi asoslarining barpo etilishi.....	268
XII.3. Oʻzbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi	274
XIII bob. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-madaniy taraqqiyot. Oʻzbekiston va jahon hamjamiyati	
XIII.1. Oʻzbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish yoʻli. «Oʻzbek modeli» va uning tamoyillari.....	289
XIII.2. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlar, uning strategiyasi, ustuvor yoʻnalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor infratuzilmasining shakllanishi.....	293
XIII.3. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonning maʼnaviy, madaniy, ilmiy taraqqiyoti va kadrlar siyosati.....	304

XIII.4. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi, uning mohiyati va ahamiyati.	314
XIII.5. XXI asr bo‘sag‘asida dunyo. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi va uning tamoyillari.	321
XIII.6. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi.....	
O‘zbekistonning MDH, Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar va jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari.....	325
Glossariy	348
Testlar	358
Foydalanilgan adabiyotlar	381

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение

I. Предмет истории Узбекистана, теоретико-методологические основы, источники и значение его изучения	3
I.1. Предмет истории Узбекистана, теоретико-методологические основы и источники для ее изучения.....	5
I.2. Периодизация истории Узбекистана и изучения его источники.....	7
I.3. Роль и значение истории страны в воспитании всестороннего зрелого человека.....	11
II. Центральная Азия является неотъемлемой частью мировой цивилизации.	
II.1. Вопрос появления человечества в науке. Узбекистан является одним из регионов появления человечества.....	14
II.2. Исторические периоды первобытного коллективного строя в Узбекистане и их основные особенности. Узбекистан является одним из центров человеческой цивилизации.....	21
II.3. Духовная основа ранней цивилизации. Авесто - древний исторический источник.....	25
III. Узбекская государственность в раннем средневековье: общественно-политическая, экономическая, культурная жизнь.	
III.1. Понятие государственности. Основные факторы появления первых государств.....	30
III.2. Формирование первых государств на территории нашей страны, их социальная, экономическая и культурная жизнь.....	33
III.3. Создание и развитие античных государств на территории нашей страны.....	38
III.4. Роль торговых путей в международных политических, дипломатических, экономических, культурных и религиозных отношениях.....	62
IV. Узбекская государственность в IV-VII вв. Общественно-политическая и экономическая жизнь.	
IV.1. Становление первых феодальных государств на территории нашей страны, их общественная, экономическая и культурная жизнь (кидариды, хиониты, эфталиты).....	72
IV.2. Появление тюркского каганата. Социальная, экономическая и культурная жизнь во времена тюркского каганата.....	75
IV.3. Центральная Азия во время арабской оккупации и правления	78
V. Большой вклад наших предков в развитие мировой цивилизации.	
V.1. Исторические условия и факторы, влияющие на возникновение первой эпохи ренессанса в IX-XII вв.....	86

V.2. Политическая ситуация в Мовароуннахре и Хорасане в начале IX в. Общественно-политическая □ экономическая жизнь во времена правления Тахиридов, Саффоридов и Саманидов	86
V.3. Политическая, социальная и экономическая ситуация в Мовароуннахре в период правления Караханидов, Газневидов, Маъмуна Хорезмшахов и Сельджукидов	89
V.4. Создание государства Ануштегин Хорезмшахов. Политическая, социальная и экономическая жизнь в □ период правления Хорезмшахов.....	92
V.5. Вклад великих мыслителей Центральной Азии способствовавшие развитию науки в мировую цивилизацию IX-XII вв	93
V.6. Роль центральноазиатских ученых в исламоведении и исламской культуре. Развитие художественной литературы и материальной культуры в IX-XII века.....	100
VI. Борьба с монгольским нашествием и угнетением. Джалалиддин Мангуберди.	
VI.1. Ситуация в государстве Хорезмшахов накануне □ монгольского нашествия. Отношения между Чингизханом и Мухаммедом Хорезмшахом.....	110
VI.2. О вторжении монголов в Среднюю Азию, борьбе с ним (Джалалиддин Мангуберди, Темур Малик, Наджмиддин Кубро) и его трагических последствиях.....	113
VII. Социально □ экономическая, политическая и культурная жизнь эпохи Амира Темура и Тимуридов.	
VII.1. Общественно-политическая ситуация в Маверауннахре в середине XIV в. Становление государства Амира Темура и его военные походы.....	131
VII.2. Система управление государства Амира Темура, социальная, экономическая и культурная жизнь.	134
VII.3. Общественно-политическ □ я и экономическая жизнь в эпоху Тимуридов.....	139
VII.4. Развитие науки, материальной и духовной культуры во времена Тимуридов. Политическая и литературная деятельность □ Алишера Навои.....	142
VIII. Разделение территорий Центральной Азии на ханств, его причины и последствия.	
VIII.1. Общественно-политическая ситуация в Моваруннахре в конце XV - начале XVI вв. Общественно-политическая, экономическая и культурная жизнь во времена династий Шейбанидов, Аштарханидов и Мангитов.....	149
VIII.2. Возрождение Хивинского ханства. Общественно-политическая, экономическая и культурная жизнь в ханстве.....	168
VIII.3. Создание Кокандского ханства и его социально-экономическая и культурная жизнь.	173

IX. Оккупация узбекских ханств Российской империей. Национально-освободительное движение против колониальной тирании. Движение Джадидов.	
IX.1. Общественно-политическая ситуация в Туркестанских ханствах в середине XIX в. Причины, цели и последствия оккупации Царской Россией Центральной Азии.....	180
IX.2. Создание системы колониального контроля в Туркестане, колониальная сущность экономической, социальной, культурной и образовательной политики страны.....	184
IX.3. Национально-освободительное движение против колониального гнета в Туркестане, его этапы, особенности и значение.	205
IX.4. Появление джадидского движения в Туркестане, его сущность, цели, особенности и видные деятели.....	212
X. Установление тоталитарной советской власти в Туркестане. Социально-политический, экономический империализм советской власти в Узбекистане (1917-1987 г)	
X.1. Октябрьский переворот. Установление советской системы в Туркестане, большевистская колониальная политика, правительство Туркестана и его деятельность.....	222
X.2. Военные действия против Советской власти в Туркестанском крае и ее историческое значение, прекращение Хивинского ханства и Бухарского эмирата. Структура Хорезмской и Бухарской Народных Республик и их социально-политические изменения.....	224
X.3. Социально-экономическая политика советской системы и ее последствия. Духовная и культурная зависимость Узбекистана в советский период. Советская политика репрессий и ее этапы.....	231
X.4. Вклад узбекского народа в победу над фашизмом во время Второй мировой войны.....	237
X.5. Узбекистан во время укрепления и распада административно-командной системы в Советском Союзе (1946-1989).....	242
XI. Узбекистан на пути к независимости.	
XI .1. Изменения в общественно-политической жизни Республики Узбекистан в конце 1980-х и начале 1990-х годов.....	250
XI .2. Узбекистан на пороге независимости: историческое значение президентства и провозглашения независимости.....	253
XI .3. Путь Узбекистана к независимости.....	257
XII. Достижение государственной независимости в Узбекистане. Создание основ демократического государства и гражданского общества.	
XII.1. Достижение государственной независимости в Узбекистане.....	264
XII.2. Создание основ правовой демократической системы государственной власти в Узбекистане.....	268
XII.3. Формирование демократического гражданского общества в Узбекистане	274
XIII. Социально-экономическое, духовное и культурное развитие в	

Узбекистане □ за годы независимости. Узбекистан и мировое сообщество	
ХІІІ.1. Способ установления рыночных отношений в Узбекистане. Узбекская модель и ее принципы.....	289
ХІІІ.2. Духовное, культурное, научное развитие и кадровая политика Узбекистана за годы независимости.....	293
ХІІІ.3. Идея национальной независимости Узбекистана, ее сущность и значение.....	304
ХІІІ.4. Мир в пороге ХХІ века. Создание принципов мирной внешней политики Республики Узбекистан и его истоки.....	314
ХІІІ.5. Интеграция Узбекистана в мировое сообщество и повышение □ международного авторитета.....	321
ХІІІ.6. Сотрудничество Узбекистана с СНГ, братскими странами Центральной Азии и различными странами мира.....	325
Глосарий	348
Тесты	358
Использованные литературы □	381

Contents

Introduction	3
I. Subject of history of Uzbekistan, theoretical and methodological bases, sources and importance of its study.	
I.1. Subject, theoretical methodological foundations of the history of Uzbekistan and sources for its study.....	5
I.2. The sources of periodization and study of the history of Uzbekistan	7
I.3. The role and importance of the history of the country in the upbringing of the most mature person.....	11
II. Central Asia is an integral part of world civilization	
II.1. The emergence of humankind in science. Uzbekistan is one of the regions of humanity.....	14
II.2. Historical periods of the primitive community system in Uzbekistan and their main features. Uzbekistan is one of the centers of human civilization.....	21
II.3. The spiritual basis of the early civilization. Avesto is an ancient historical source.....	25
III. Uzbek statehood in the early Middle Ages: socio-political, economic, cultural life.	
III.1. The concept of statehood. The main factors of the emergence of the first countries.....	30
III.2. Formation of the first states in the territory of our country, their social, economic and cultural life.....	33
III.3. Establishment and development of antic countries on the territory of our country.....	38
III.4. The role of trade routes in international political, diplomatic, economic, cultural and religious relations	62
IV. Uzbek statehood in the IX-XII centuries. Socio-political and economic life	
IV.1. Formation of the first feudal states in the territory of our country, their social, economic and cultural life (Kidarians, Khionites, Eftalians).	72
IV.2. The emergence of the Turkic Kaganate. Social, economic and cultural life during the Turkic Kaganate.....	75
IV.3. Central Asia during the Arab occupation and rule.....	78
V. Great contribution of our ancestors to the development of world civilization	
V.1. Historical conditions and factors influencing the emergence of the first renaissance in the 9th-12th centuries.....	86
V.2. Political situation in Movarounnahr and Khorasan at the beginning of the ninth century. Socio-political, economic life during the rule of the Tohirids, Safforians and Samanids.....	86
V.3. Political, Social and Economic Situation in Movarounnahr during the reign of Karakhanids, Ghaznians, Khorezms and Seljuk.....	89
V.4. Establishment of the state of Anushtegin Khorezm. Political, social, and economic life in the Khorezm region.....	92

V.5. Contribution of the great thinkers of Central Asia into the world civilization of the IX-XII centuries.....	93
V.6. The role of Central Asian scholars in Islamic studies and Islamic culture. Development of fiction literature and material culture in IX-XII centuries.....	100
VI . The fight against the Mongol invasion and oppression. Socio-economic, political and cultural life in the epoch of Jaloliddin Manguberdi	
VI.1. The situation in Khorezmshoh state on the eve of the Mongol invasion. Relationship between ChingizKhan and Muhammad Khorezmshoh.....	110
VI.2. About the Mongol invasion of Central Asia, fight against it (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro) and its tragic consequences.....	113
VII. Socio- economic, political and cultural life in the epoch of Amir Temur and the Temurids	
VII.1. Socio-political situation in Maverannahr in the middle of the XIV century. Formation of the state of Amir Temur and his military campaigns.....	131
VII.2. Governance, social, economic and cultural life of the state of Amir Temur.....	134
VII.3. Socio-political and economic life in the Timurid era.....	139
VII.4. The development of science, material and spiritual culture during the Timurids. The political and literary activities of Alisher Navoi...	142
VIII. The division of khanates into Central Asia, its causes and effects	
VIII.1. Socio-political situation in Movarunnahr at the end of the 15th - early 16th centuries. Socio-political, economic and cultural life during Sheibanids, Ashtarkhanids and Mangit dynasties.....	149
VIII.2. The birth of the Khiva Khanate. Socio-political, economic and cultural life in the kingdom.....	168
VIII.3. Social, economic and cultural life of Kokand khanates.....	173
IX. Occupation of Uzbek khanates by Russian Empire. National liberation movement against colonial oppression. Newness.	
IX.1. Socio-political situation in Turkestan khanates in the middle of the 19th century. Reasons, goals and consequences of Tsarist Russia's occupation of Central Asia.....	180
IX.2. Establishment of colonial control system in Turkestan, colonial essence of economic, social, cultural and educational policy of the country.....	184
IX.3. The national liberation movement against colonial oppression in Turkistan, its stages, features and significance.....	205
IX.4. Emergence of the Jadid movement in Turkestan, its essence, goals, features and prominent representatives.....	212
X bob. Establishment of a totalitarian Soviet power in Turkestan.	

The colonial nature of the socio-political and economic activities of the Soviet authorities in Uzbekistan.	
X.1. October coup. The establishment of the Soviet system in Turkestan, the Bolshevik colonialist policy, the government of Turkestan and its activities.....	222
X.2. Military action against the Soviet power in the Turkestan region and its historical significance, the termination of the Khiva Khanate and the Bukhara Emirate. The structure of the Khorezm and Bukhara People's Republics and their socio-political changes.....	224
X.3. Socio-economic policy of the Soviet system and its consequences. Spiritual and cultural dependence of Uzbekistan during the Soviet period. The Soviet policy of repression and its stages.	231
X.4. Contribution of the Uzbek people to the victory over fascism during World War II.....	237
X.5. Uzbekistan during the strengthening and crisis of administrative-command system in the Soviet state (1946-1989).....	242
XI . Uzbekistan on its way to independence.	
XI .1. Changes in the social and political life of the Republic of Uzbekistan in the late 1980s and early 1990s.....	250
XI .2. Uzbekistan on the threshold of independence: the historical significance of the presidency and the declaration of independence.	253
XI .3. Uzbekistan's path towards independence.....	257
XII. Achievement of state independence of Uzbekistan. Creating the foundations of a democratic state and civil society	
XII.1. Occupation of state independence in Uzbekistan.....	264
XII.2. Creation of the bases of legal democratic system of state authority in Uzbekistan.....	268
XII.3. Formation of a democratic civil society in Uzbekistan.....	274
XIII. Socio-economic, spiritual and cultural development in Uzbekistan during the years of independence. Uzbekistan and the world community.	
XIII.1. The way of establishing market relations in Uzbekistan. The Uzbek model and its principles.....	289
XIII.2. Spiritual, cultural, scientific development and personnel policy of Uzbekistan during the years of independence.....	293
XIII.3. The idea of national independence of Uzbekistan, its essence and significance.....	304
XIII.4. World in the 21st Century. Creation and Principles of Peaceful Foreign Policy of the Republic of Uzbekistan.....	314
XIII.5. Uzbekistan's integration into the world community and increasing international authority.....	321
XIII.6. Cooperation of Uzbekistan with CIS, fraternal countries of Central Asia and various countries of the world	325
Glossary.....	348
Tests.....	358

Used literatures	381
-------------------------------	-----